

Jumaniyozov X.S. Nigmanova U.B.

GLOBALASHUV ASOSLARI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY VA O'RTA MAXSUS TA'LIMI VAZIRLIGI

NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

Jumaniyozov X.S. Nigmanova U.B.

GLOBALLASHUV ASOSLARI

(o'quv qo'llanma)



“Nodirabegim” nashriyoti
Toshkent – 2020

KBK: 65.050ya7

J-87

UOK: 327(075)

ISBN 978-9943-6307-9-6

Jumaniyozov, X.S.

Globalashuv asoslari [Matn]: o'quv qo'llanma / X.S. Jumaniyozov, U.B. Nigmatova. - Toshkent: Nodirabegim, 2020. - 282 b.

Davlat va jamiyat hayotining siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-mafkuraviy sohalarida globallashuvning namoyon bo'lishi, uning milliy ma'naviyatga, milliy manfaatlariga, milliy mustaqillikka aks ta'siri bilan bog'liq masalalar keyingi paytlarda muhim tadqiqot obektiga aylangan. Bugungi zamonda inson ma'lum kuchlarning manfaatlariga xizmat qiladigan turli ma'no-mazmundagi mafkuraviy kuchlarning doimiy ta'sirini sezib yashaydi. Bunday sharoitda har bir yosh o'z mustaqil fikriga, sobit e'tiqodiga, mustaqil tafakkur va mustahkam irodaga ega bo'lmasa turli zararli mafkuralarning oxir-oqibatini anglab yetishi qiyin kechadi. G'oyaviy taxdidlar kuchaygan hozirgi sharoitda milliy g'oya, milliy mafkura, ma'naviyat borasidagi tarbiyaviy ishlarimizning tubdan qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi.

Ushbu o'quv qo'llanmada globallashuv tushunchasi, mohiyati, uning jamiyat hayotida namoyon bo'lish xususiyatlari, amalga oshirishni ta'min etuvchi vositalar, uning ijobiy va salbiy tomonlari, shuningdek, globallashuv sharoitida ro'y berayotgan turli mazmundagi ma'naviy tahdidlarga qarshi kurashda ta'lim tizimi oldidagi vazifalar tahlil etilgan.

Taqrizchilar: t.f.n.dotsent S.Tilaboyev
f.f.n.dotsent Sh.S.Agzamxodjayeva

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta ta'lim maxsus vazirligining 2019-yil 4-oktabrdagi 892-sonli qaroriga asosan (ro'yhatga olish raqami № 892001) nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9943-6307-0-3

© **Jumaniyozov X.S., Nigmatova U.B.**

© **"Nodirabegim" nashriyoti, 2020.**

KIRISH

Yangi ming yillikda kishilik jamiyati o'z rivojining mutlaqo yangicha mazmun-mohiyat kasb etadigan davriga qadam quydi. Bu davrda jahon mamlakatlari o'rtasidagi siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-madaniy aloqalar har qachongidan shiddat bilan kuchaymoqda. Natijada yuzaga kelgan globallashuv jarayonlari o'z ta'sirini o'tkazmagan bironta soha qolmadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek "Keyingi yillarda yer yuzida keskin geosiyosiy o'zgarishlar ro'y berdi, xalqaro miqyosda xavfsizlik va barqarorlik tizimi izdan chiqmoqda. Globallashuv jarayonining tobora shiddatli tus olishi nafaqat insoniyat imkoniyatlarini kengaytirmoqda, balki ziddiyatlarning keskinlashuvi, rivojlangan va qoloq davlatlar o'rtasidagi tafovutning o'sishiga olib kelmoqda. Buning oqibatida tinchlik va barqarorlikka raxna solayotgan, mohiyati va ko'lamiga ko'ra transmilliy xususiyatga ega turli xatti-harakatlar sodir etilmoqda"¹. Globallashuvning shu tarzda jadal suratlar bilan yuz berayotgan bunday sharoitda biz yoshlarimiz ongida dunyoning siyosiy-mafkuraviy manzarasinl, unda kechayotgan g'oyaviy kurashlardan ko'zlangan tub maqsad-manfaatlarning asl qiyofasini ochib berish, yoshlarga mustaqillikni mustahkamlash, jamiyat hayotining turli sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlarning tub mohiyatini yoritib bergan holda ulardagi Vatanga sadoqat tuyg'ularini yanada mustahkamlash, yoshiarda tarixiy xotira, madaniy merosga hurmat, milliy o'zlikni anglash tuyg'ularini mustahkamlagan holda ularda o'z kuch va imkoniyatlariga tayanib yashash hissini shakllantirish, yoshlarda ma'naviy-mafkuraviy tahdidlarga, "ommaviy madaniyat" niqobi ostidagi turli xil hatti-harakatlarga nisbatan doimo ogoh, sezgir va xushyor bo'lish ko'nikmalarini shakllantirish kabi muhim vazifalarga asosiy e'tiborimizni qaratishimiz lozim. Shunday ekan avvalo shu sohaga zarur bo'lgan yuksak malakali kadrlar tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi. Shu maqsadda qator oliy ta'lim muassasalarida "Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi" yo'nalishlari tashkil etilgan. Qancha vaqt o'tsada yo'nalishga doir yangi avlod darsliklari, o'quv qo'llanmalari yaratilgani yo'q. Mafkuraviy jarayonlarning globallashuvi, uning salbiy jihatlarini tahlil etadigan, unga qarshi kurashadigan, yoshlarni ma'naviy-g'oyaviy ruhda tarbiyalaydigan targ'ibotchilar aynan ushbu yo'nalishda tayyorlanadi.

¹ Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. –Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. -33 b.

Jahon mamlakatlari o'rtasida jamiyat xayotining turli sohalarida aloqalarning shiddat bilan kuchayishi sharoitida, globallashuvning avj olishi jarayonlarida sodir bo'layotgan turli mazmundagi ma'naviy xurujlar, bu xurujlarning yoshlarimiz ma'naviy olamiga qilayotgan ta'siri, shuningdek bunday sharoitda yuksak ma'naviyatli shaxsni tarbiyalashda ta'lim tizimi oldida turgan vazifalar va ularni amalga oshirish jarayonlarini tahlil qilish masalalariga o'quv qo'llanmada alohida e'tibor qaratilgan.

Avvalambor, o'quv qo'llanmani yaratishda Sh.M.Mirziyoyevning globallashuv sharoitida ma'naviy tahdidlar masalasiga qaratilgan xar bir ma'ruzasi va nutqidani kelib chiqadigan ustuvor vazifalarga alohida e'tibor qaratildi. Shuningdek birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning asarlaridagi bu jarayonning o'ziga xos xususiyatlari, mohiyat-mazmuni va galdagi vazifalarga oid fikrlaridan keng foydalanildi. Jamiyat hayotining qator sohalarida global tahdidlarga masalasiga qaratilgan Baxodir Zokir, Otamurotov S., Ergashev I., Toshxo'jayev S. Qahhorova Sh. Lafasov M., Saidov U. va boshqalar olimlarning asarlaridan keng foydalanildi.

Globallashuv sharoitida ro'y berayotgan turli mazmundagi siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-mafkuraviy tahdidlar, unga qarshi kurash zaruriyati, uning milliy mustaqillikka, milliy manfaatlarimizga, xalqimiz ma'naviyatiga yetkazayotgan ta'siri, bu tahdidlarga qarshi kurashda ta'lim tizimi oldida turgan vazifalarni belgilab olish ushbu qo'llanmaning maqsadi etib olingan. Globallashuvning shu tarzda jadal suratlar bilan yuz berayotgan bunday sharoitda biz quyidagi vazifalarga keng e'tibor qaratishimiz lozim bo'ladi: globallashuvning mazmun-mohiyati va o'ziga xos xususiyatlarini atroflicha yoritish; globallashuvning salbiy va ijobiy jihatlarini chuqur tahlil qilish; globallashuvning namoyon bo'lish sohalarini tahlil etish; iqtisodiy jarayonlarning globallashuvi, uning ijobiy va salbiy jihatlarini tahlil etish, iqtisodiy jarayonlarning globallashuvi sharoitida O'zbekistonning iqtisodiy havfsizligi masalalarini o'rganish; fan va ta'limning globallashuvi, uning asosiy xususiyatlari, bu jarayonda kadrlar tayyorlash milliy dasturining ustuvor yo'nalishlarini tahlil etish; diniy jarayonlarning globallashuvi, uning asosiy xususiyatlarini tahlil etish, O'zbekistonda diniy bag'rikenglikni ta'minlashga qaratilgan vazifalarni belgilab olish; ma'naviy-mafkuraviy tahdidlarni ko'lamini tahlil qilish; globallashuv sharoitida ma'naviy tahdidlarning ta'sir qilish mexanizmlarini tahlil qilish; yoshlarimiz ongida dunyoning siyosiy-mafkuraviy manzarasini, unda kechayotgan g'oyaviy kurashlardan ko'zlangan

tub maqsad-manfaatlarning asl qiyofasini ochib berish; globallasuv sharoitida ma'naviy tahdidlarga qarshi kurashda ma'naviy-ma'rifiy sohadagi, ta'lim tarbiya tizimi oldidagi vazifalarni ko'rsatib o'tish.

Mazkur qo'llanma 5111600 – “Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi” yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib dastlabki adabiyotlar sirasiga kiradi. Shunday ekan qo'llanma o'ziga xos kamchiliklardan xoli emas. Muallif sizlardan o'z taklif-xulosalaringizni kutadi. Siz tomondan berilgan bu tavsiyalar qo'llanmaning keyingi nashrlarini yanada samaralik bo'lishini ta'min etishga xizmat qiladi: xushnud1967@mail.ru

I-BOB. GLOBALLASHUV IJTIMOIIY-SIYOSIY FENOMEN SIFATIDA.

1-§. “GLOBALLASHUV ASOSLARI” FANINING PREDMETI, OB’YEKTI, MAQSAD VA VAZIFALARI

Reja:

1. Jahon miqyosida ro‘y berayotgan globallashuv jarayonlari va uning o‘rganishning ilmiy-nazariy zaruriyati.
2. “Globallashuv asoslari” fanining tadqiqot doirasi, predmeti va ob‘yekti.
3. “Globallashuv asoslari” fanining maqsad-vazifalari, u xalq etishi lozim bo‘lgan dolzarb masalalar.
4. Bugungi dunyoning mafkuraviy manzarasi.

1. Jahon miqyosida ro‘y berayotgan globallashuv jarayonlari va uning o‘rganishning ilmiy-nazariy zaruriyati. Insoniyat yangi ming yillikka qadam qo‘ydi. Bu davrda milliy taraqqiyotda o‘ziga xos yangi xususiyatlar vujudga keldi. Bu davrning milliy taraqqiyotidagi o‘ziga xos xususiyatlari shundaki, ko‘pgina mamlakatlarda yashayotgan millatlar va xalqlar o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritdilar, hamda o‘zlari tanlagan taraqqiyot yo‘lidan bormoqdalar. Ularda yashayotgan millatlarning o‘zligini anglashga, milliy-ma‘naviy meroslarini o‘zlashtirishga, milliy urf-odat, an‘ana va qadriyatlarini tiklashga bo‘lgan intilishlari kuchayib bormoqda. Lekin bu jarayon kuchli tashqi ta‘sirler ostida amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta‘kidlaganidek “Keyingi yillarda Yer yuzida keskin geosiyosiy o‘zgarishlar ro‘y berdi, xalqaro miqyosda xavfsizlik va barqarorlik tizimi izdan chiqmoqda. Globallashuv jarayonining tobora shiddatli tus olishi nafaqat insoniyat imkoniyatlarini kengaytirmoqda, balki ziddiyatlarning keskinlashuvi, rivojlangan va qoloq davlatlar o‘rtasidagi tafovutning o‘sishiga olib kelmoqda. Buning oqibatida tinchlik va barqarorlikka raxna solayotgan, mohiyati va ko‘lamiga ko‘ra transmilliy xususiyatga ega turli xatti-harakatlar sodir etilmoqda”¹

Totalitar tuzum yemirilganidan keyin dunyoning qutblarga bo‘linishi barham topdi. Lekin bu tufayli u xavfsizroq, barqarorroq, sobitqadamroq bo‘lib

¹ Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat‘iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. –Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. 33-b.

qolganı yo‘q. Keyingi yillarda butun dunyo miqyosida va mintaqalar darajasida vujudga kelayotgan tashqi munosabatlarni tanqidiy tahlil qilish va eng avvalo: bir qancha mamlakatlarda keskin siyosiy kurash borayotgan bir vaqtda demokratiya asoslarining ba‘zan qiyinchilik bilan qaror topish jarayonlarini tahlil qilish; milliy o‘zlikni anglashning faol jonlanishi hamda millatlar va ayrim elatlarning o‘z taqdirini o‘zi belgilashga intilishi; etnik va millatlararo ziddiyatlarning saqlanib qolayotganligi; qotib qolgan mafkuraviy aqidalarning qadrsizlanishi hamda siyosiy va diniy ekstremizmning turli shakllari kuchayib borayotganligi; dunyoning katta qismida iqtisodi zaif, aholisi qashshoq yashayotgan mamlakatlar saqlanib qolayotganligi; mamlakatlar, xalqlar o‘rtasida, bir mamlakat ichida esa ayrim ijtimoiy guruhlar o‘rtasida iqtisodiy va ijtimoiy tabaqalanish kuchayib borayotganligi – bularning barchasi dunyo hali ham avvalgidek mo‘rt bo‘lib turganligi va avaylab munosabatda bo‘lishni talab qilayotganligidan dalolat beradi. Bizni qurshab turgan olam g‘oyat murakkab va muammoli bo‘lib keldi, shunday bo‘lib qolmoqda va yaqin istiqbolda ham shunday bo‘lib qolajak¹.

Xalqimiz o‘zining asriy orzusi bo‘lmish milliy mustaqillikni qo‘lga kiritdi. Mustaqillik tufayli tobe‘lik va qaramlikdan ozod bo‘lgan davlatimiz ichki va tashqi siyosatda hech kimning aralashuvi, tazyiqi va ko‘rsatmalarisiz xalq manfaatlarini ko‘zlab ish yuritmoqda. Mustaqillik xalqimizga yurtimizning bebaho yer osti va yer usti boyliklariga chinakamiga egalik qilish huquqini berdi. Uzoq yillar davomida xalqimizning ma‘naviyati tutqinlikda ushlandi, qadriyatları paymol qilindi. Mustabid mafkuraning ma‘shum siyosati oqibatları xususida fikr bildirar ekan birinchi Prezidentimiz shunday yozadi: “Men shuni aytishim kerakki, bizga zarba bo‘lib tushgan eng og‘ir tanglik iqtisodiy emas, balki ma‘naviy tanglikdir. Asrlar mobaynida qaror topgan ahloqiy-ma‘naviy qadriyatlarini g‘oyaviy qarashlarga qurbon qilish oqibatlarini bartaraf etish iqtisodiyotni tartibga keltirishdan ko‘ra ancha mashaqqatli bo‘ladi”². Yurtimiz istiqloliga boy madaniy-ma‘naviy merosimizdan, buyuk ajdodlarimiz yaratgan ma‘naviyat chashmalaridan bahramand bo‘lishimiz uchun keng yo‘l ochdi. Mustaqillik xalqimizning ozodlikka, adolatli jamiyat qurishga bo‘lgan orzu-umidlarini chinakam ro‘yobga chiqishini ifoda etmoqda. Mustaqillikni qo‘lga kiritganimizdan keyingi o‘tgan qisqa bir davr ichida respublikamizda demokratik, adolatli va huquqiy davlatchilikni shakllantirish, xalqimizning

¹Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: havfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari – T.: 1997, 11-b

²Karimov I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida –T.: O‘zbekiston, 2011, 26-bet.

farovonligini ta'minlash, uning ma'naviy-ruhiy poklanishi va tiklanishi uchun zarur bo'lgan barcha shart-sharoitlar vujudga keltirilmoqda. Lekin bu yutuqlar ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy sohada muammolar yo'q, hammasi hal etildi degani emas. Prezidentimiz ta'kidlaganidek, bugun biz tez sur'atlar bilan o'zgarib borayotgan, insoniyat hozirga qadar boshidan kechirgan davrlardan tubdan farq qiladigan o'ta shiddatli va murakkab bir zamonda yashamoqdamiz. Davlat va siyosat arboblari, faylasuflar va jamiyatshunos olimlar, sharhlovchi va jurnallstlar bu davrni turlicha ta'riflab, har xil nomlar bilan atamoqda. Kimdir uni yuksak texnologiyalar zamoni desa, kimdir tafakkur asri, yana birov yalpi axborotlashuv davri sifatida izohlamoqda.

“Globallashuv” tushunchasi ilmiy, ijtimoiy-siyosiy adabiyotlarga o'tgan asrning 80-yillarida kirib kelgan edi. Uning qo'llanilishiga jahon mamlakatlari iqtisodiy hayotining o'zaro bog'liqligining shiddat bilan kuchayib borganligi asosiy sabab bo'lgan edi. Bugungi kunga kelib ham mamlakatlarning iqtisodiy aloqalarini rivojlantirish va mustaxkamlash ularning iqtisodiy taraqqiyotining muhim imkoniyati bo'lib qolmoqda.

Globallashuv jarayoni hayotimizga tobora tez va chuqur kirib kelayotganining asosiy sababi xususida gapirganda shuni tan olish kerakki, bugungi kunda har qaysi davlatning taraqqiyoti va ravnaqi nafaqat yaqin va uzoq qo'shnilar, balki jahon miqyosida boshqa mintaqa va hududlar bilan shunday chambarchas bog'lanib boryaptiki, biron mamlakatning bu jarayondan chetda turishi ijobiy natijalarga olib kelmasligini tushunish, anglash qiyin emas. Qolaversa, bunga yaqin va uzoq tarixda misollar ko'p uchraydi.

Har qanday hodisaning ijobiy va salbiy tomoni bo'lgani kabi, globallashuv jarayoni ham bundan mustasno emas. Hozirgi paytda uning g'oyat o'tkir va keng qamrovli ta'sirini deyarli barcha sohalarda ko'rish, his etish mumkin. Ayniqsa, davlatlar va xalqlar o'rtasidagi integratsiya va hamkorlik aloqalarining kuchayishi, xorijiy investitsiyalar, kapital va tovarlar, ishchi kuchining erkin harakati uchun qulayliklar vujudga kelishi, ko'plab yangi ish o'rinlarining yaratilishi, zamonaviy kommunikatsiya va axborot texnologiyalarining, ilm-fan yutuqlarining tezlik bilan tarqalishi, turli qadriyatlarining umuminsoniy negizda uyg'unlashuvi, sivilizatsiyalararo muloqotning yangicha sifat kasb etishi, ekologik ofatlar paytida o'zaro yordam ko'rsatish imkoniyatlarining ortishi—tabiiyki, ularning barchasiga globallashuv tufayli erishilmoqda.

Hayot haqiqati shuni ko'rsatadiki, har qanday taraqqiyot mahsulidan ikki xil maqsadda–yezgulik va yovuzlik yo'lida foydalanish mumkin. Agarki bashariyat tarixini, uning tafakkur rivojini tadrjijiy ravishda ko'zdan kechiradigan bo'lsak, hayotda insonni kamolotga, yuksak marralarga chorlaydigan ezgu g'oya va ta'limotlar bilan yovuz va zararli g'oyalar o'rtasida azaldan kurash mavjud bo'lib kelganini va bu kurash bugun ham davom etayotganini ko'ramiz.

Globalashuv jarayonining yana bir o'ziga xos jihati shundan iboratki, hozirgi sharoitda u mafkuraviy ta'sir o'tkazishning nihoyatda o'tkir quroliga aylanib, har xil siyosiy kuchlar va markazlarning manfaatlariga xizmat qilayotganini sog'lom fikrlaydigan har qanday odam, albatta, kuzatishi muqarrar.

Hududimizda jamoa, mahalla bo'lib, bir-biriga mehr-oqibatli bo'lib yashaydigan xalqimiz, davr qanchalik o'zgarmasin, tarix sinovidan o'tgan o'z qadriyatlariga sodiq bo'lib yashashni ma'qul ko'radi. Bu hodisani zamonaviy fikrlaydigan, dunyoga teran nazar tashlaydigan odam to'g'ri tushunishi, tan olishi va uni hurmat bilan qabul qilishi lozim.

Ushbu tarixiy haqiqatni anglamaydigan yoki anglashni istamaydigan chet eldagi ba'zi siyosatchi va arboblar nafaqat siyosat yoki iqtisodiyot, balki ma'naviyat bobida ham bizga aql o'rgatishga, azaliy hayot tarzimiz, ruhiy dunyomizga yot bo'lgan qarashlarni majburan joriy etishga urinmoqda.

Bunday kuchlarning g'arazli munosabati, uning tagida yotgan manfaatlar, bu manfaatlarini amalga oshirish uchun har xil usul va vositalar bilan zo'r berib urinayotgani barchamizni tashvishlantirmasdan qolmaydi. Bu masalaga alohida to'xtalar ekan Islom Karimov shunday yozadi: «Nega deganda, insoniyatning ko'p ming yillik tajribasi shundan dalolat beradiki, dunyodagi zo'ravon va tajovuzkor kuchlar qaysi bir xalq yoki mamlakatni o'ziga tobe qilib, bo'ysundirmoqchi, uning boyliklarini egallamoqchi bo'lsa, avvalambor, uni qurolsizlantirishga, ya'ni eng buyuk boyligi bo'lmish milliy qadriyatlarini, tarixi va ma'naviyatidan judo qilishga urinadi»¹. Binobarin, ma'naviyatga qarshi qaratilgan har qanday ta'did o'z-o'zidan mamlakat xavfsizligini, uning milliy manfaatlarini, sog'lom avlod kelajagini ta'minlash yo'lidagi jiddiy xatarlardan biriga aylanishi va oxir-oqibatda jamiyatni inqirozga olib kelishi muqarrar. Shunday ekan, bu hodisaning sir-asrorlarini, uning namoyon bo'lish sohalarini, amalga oshiruvchi mexaizmlari, vositalarini

¹Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T.: «Ma'naviyat», 2008. 11-bet.

tahlil etish va shu tufayli unga qarshi chora tadbirlar tizimini ishlab chiqish davr taqozosidir.

Globalashuv sharoitida uning turli darajadagi imkoniyatlari bo'is ro'yi beradigan eng avvalo, tili, dini, e'tiqodidan qat'iy nazar, har qaysi odamning tom ma'nodagi erkin inson bo'lib yashashiga qarshi qaratilgan, uning aynan ruhiy dunyosini izdan chiqarish maqsadini ko'zda tutadigan mafkuraviy, g'oyaviy va informatsion xurujlar quyidagicha namoyon bo'lmoqda:

Birinchidan, demokratiya, demokratik qadriyatlar eksporti. Ma'lumki, og'ir sanoati rivojlangan G'arb mamlakatlari tobora murakkablashib borayotgan energiya tanqisligi masalasini ta'minlash ilinjida energetik imkoniyatlari yuqori mamlakatlarga, Shimoliy Afrika, Yaqin Sharq, xususan Markaziy Osiyoga ko'z tikmoqdalar. Negaki Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev o'rinli ta'kidlaganidek "Islom olami ulkan iqtisodiy, investitsion salohiyat, energetika resurslariga ega. Ulardan to'g'ri foydalanish, Islom hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlarning xalqaro savdo-iqtisodiy, moliyaviy, investitsion hamkorligini kengaytirish, mamlakatlarimizni birlashtiradigan transport yo'llarini tashkil etish yuksak iqtisodiy taraqqiyot ko'rsatkichlariga erishish imkonini beradi va bu pirovard natijada boshqa barcha sohalarning rivojlanishiga asos bo'lib xizmat qiladi"¹. Afsuski bunday katta imkoniyatlarni o'z ta'sir obektiga aylantirish maqsadida turli siyosiy kuchlar o'zlarining "demokratiya", inson huquqlari va erkinliklari haqidagi milliy qadriyatlarga zid bo'lgan qarashlarini targ'ib etmoqdalar. Demokratiya-jamiyatni boshqarishning o'ziga xos shakli ekanligi, uning prinsiplari va uslublari, omillari va vositalari esa mahalliy shart-sharoitlarga mutanosib tarzda o'zgarib borishi ularni mutlaqo qiziqirmaydi.

Ikkinchidan, islomni obro'sizlantirishga urinishlar. Turli siyosiy kuchlar aholining Sovet hokimiyati yillarida asl islom ma'rifatidan uzilib qolganidan foydalanib, yoshlarning ma'lum qismiga vahhobiylilik g'oyalarini sof islom g'oyalari sifatida singdirishga urinmoqdalar. Asrlar davomida islom dini va madaniyati rivojiga salmoqli hissa qo'shgan, islom madaniyatini himoya qilishga qodir bo'lgan O'zbekistonni vijdon erkinligi cheklangan mamlakat sifatida tanitishga urinilmoqda. "Azaliy qadriyatlarimiz va axloqiy fazilatlarini o'zida mujassam etgan muqaddas dinimizni asrash va qadrlash har birimizning sharaffi burchimizdir. Islom - haqiqatni anglash demakdir, u odamzotni ezgu

¹ Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. –Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. 37-b.

amallarni bajarishga undaydi, har birimizni yaxshilik va tinchlikka undaydi, haqiqiy inson bo'lishni o'rgatadi"¹.

Uchinchidan, ma'naviy anarxiya. Jahonda faoliyat ko'rsatayotgan turli siyosiy kuchlar maxsus xizmatlarning moliyaviy mablag'lari yordamida rivojlanayotgan, ayniqsa, katta iqtisodiy va energetik imkoniyatlarga ega bo'lgan mamlakatlarda, xususan O'zbekistonda, ma'naviy boshboshdoqlikni vujudga keltirishga intilmoqdalar. Shu maqsadda «Birlashish cherkovi», «Oqbirodarlik», «Iyegovo guvohlari», «AUM-Sinrike», «Sayentologik cherkov», «Adventes» kabi diniy sektalar va missionerlik harakatlari quloch yoymoqda. Bugungi kunda MDH hududida 45 dan ortiq ana shunday sektalar faoliyat ko'rsatmoqda².

To'rtinchidan, informatsion urush. Bizning davrimizga kelib, informatsiya u yoki bu guruhning manfaatlarini ifodalovchi, shu manfaatlarni amalga oshirish uchun real shart-sharoit yaratuvchi kuchga aylandi. Ana shunday shart-sharoitni yaratishga qaratilgan informatsion urush ikki yo'nalishda olib borilmoqda. Birinchisi, jahonda sodir bo'lgan har qanday siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy yoki ma'naviy-madaniy voqea ma'lum siyosiy kuchlarning manfaatlari kontekstida yoritilmoqda. Ikkinchisi, negativ axborotlarni tarqatish kuchayib bormoqda.

Beshinchidan, axloqiy degradatsiya. Yoshlarning intellektual salohiyatiga, axloqiy fazilatlariga ta'sir o'tkazishga qaratilgan tadbirlar ko'paymoqda. Masalan, G'arb olamida katta-katta kompaniyalar yigit va qizlarning intellektual salohiyatini yemiruvchi, axloqsizlik sari undovchi realiti-shoular, tok-shoular, kamedi-klablari, o'yinlar, reklamalarning ssenariyalarini tuzish va eksport qilish, pornografik saytlar tashkil qilish bilan mashg'ullar. Bunday realiti-shoular va pornosaytlar G'arb jamiyatini ich-ichidan yemirib borayotgan illatlarni targ'ib va tashviq etmoqda, yoshlarni axloqsizlik sari undamoqda.

Albatta, globallashuv sharoitida ma'naviy tahdidlarning boshqa ko'rinishlari ham mavjud, ularni turlicha, boshqacha ko'rinishda ham klassifikatsiyalash mumkin. Biroq bayon etilganlarining o'ziyoq hozirgi zamon sivilizatsiyasi sharoitida shaxsga ma'naviy tahdid ko'rsatuvchi omillar va vositalar naqadar murakkablashib ketganligini yorqin ifodalab bera oladi.

¹ Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. –Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. 30-b.

² Qarang: <http://pravoslavie.uz/> Prosvetit/ Apologet/ Sekty 0205/htm

2. Globallashuv asoslari» fanining tadqiqot doirasi, predmeti va ob'yekti. Avvalambor, globallashuv, integratsiya, bu jarayonning ijobiy va salbiy jihatlarini, ma'naviy taxdidlar masalasi Sh.M.Mirziyoyevning xar bir ma'ruzasi, nutqida o'z ifodasini topgan. Muammo O'zbekistonning birinchi prezidenti Islom Karimovning «Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch» asarida atroflicha tahlil qilingan, uning asosiy xususiyatlari, ijobiy va salbiy tomonlari, unga qarshi kurashda ta'lim tizimi oldidagi vazifalar belgilab berilgan. Bu asarlarda bu jarayonning o'ziga xos xususiyatlari, mohiyat-mazmuni va galdagi vazifalar belgilab berilgan. Shuningdek, globallashuv jarayonlari, ma'naviy-mafkuraviy taxdidlar masalasi bilan GriniL. E. Baxodir Zokir., Lafasov M., Otamurotov S., Ergashev I., Toshxo'jayev S. Qahhorova Sh. Saidov U. va boshqalar keng shug'ullanishgan. Jumladan S.Otamurodov «Globallashuv va millat» asarida globallashuvning mohiyati, millat hayotida namoyon bo'lishi xususiyatlarini, unga qarshi kurashdagi vazifalarni tahlil etgan. Sh.Qahhorova «Global ma'naviyat-globallashuvning g'oyaviy asosi» asarida global ma'naviyat, madaniyat, sivilizatsiya hodisalarini keng tahlil etgan. U.Saidov «Madaniyat sohasidagi globallashuv jarayonlari va ma'naviy tahdidlar» asarida madaniyat sohasidagi globallashuv jarayonlarining mazmun-mohiyatini tahlil etgan. Ko'rinib turibdiki har bir muallif globallashuvni jamiyat hayotining u yoki bu sohasidagi ko'rinishini, namoyon bo'lishini chuqur tahlil ostiga olgan. Lekin bironta adabiyotda mavjud voqelikka kompleks yondashilmagan.

Mafkuraviy immunitet, ogohlik, dahldorlik, g'oyaviy kurashchanlik – ozod shaxs va erkin fuqaro uchun zarurdir. Bugungi zamonda inson ma'lum kuchlarning manfaatlariga xizmat qiladigan turli ma'no-mazmundagi mafkuraviy kuchlarning doimiy ta'sirini sezib yashaydi. Axborot asri, elektronika, informatsion texnologiyalar asri deb nom olgan bugungi zamonda bunday ta'sirlardan holi bo'lishning mutlaqo imkoni yo'q. Qolaversa, bugungi kunda fikrni, g'oyani ta'qiq bilan, ma'muriy choralar bilan yengib bo'lmaydi. Mana shunday sharoitda har bir yosh o'z mustaqil fikriga, sobit e'tiqodiga, mustaqil tafakkur va mustahkam irodaga ega bo'lmasa turli zararli mafkuralarning oxir-oqibatini anglab yetishi qiyin kechadi. Mana shu shart-sharoitlarning barchasi milliy g'oya, milliy mafkura, ma'naviyat borasidagi tarbiyaviy ishlarimizning dolzarbligini yanada oshiradi. Ushbu vazifalarning yechimi sifatida, talabalarga jamiyat hayotining turli sohalarini keng qamrab olgan globallashuvning namoyon bo'lish xususiyatlarini, uning ijobiy va salbiy jihatlarini har tomonlama tahlil etish, tushuntirib berish muhim ahamiyat kasb

etadi. Shu maqsadda «Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi» yo'nalishi uchun mo'ljallangan «Globallashuv asoslari» fani kiritildi. Bu fan o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra, maqsad va vazifalariga ko'ra, obekt va predmetiga ko'ra mutlaqo yangi fan hisoblanadi. Unda globallashuv tushunchasi, mohiyati, namoyon bo'lish xususiyatlari, siyosiy jarayonlarning globallashuvi, globallashuvning ijobiy va salbiy jihatlarini, madaniyat sohasidagi globallashuvning mohiyati; globallashuv va axborot texnologiyalari, dinlar o'zaro ta'sirining globallashuvi, fan va ta'limning globallashuvi, sportning globallashuvi, jinoyatning globallashuvi, siyosiy institutlarning globallashuvi, globallashuv jarayonlarida millat va milliy o'zlikni anglash masalalari, milliy taraqqiyotning ma'naviy-axloqiy negizlari, mafkuraviy immunitet va g'oyaviy kurashchanlikni shakllantirish bilan bog'liq vazifalar milliy manfaatlar nuqtai nazaridan kelib chiqib yoritishga harakat qilindi.

3. «Globallashuv asoslari» fanining maqsad-vazifalari, u hal etishi lozim bo'lgan dolzarb masalalar. Globallashuv sharoitida ro'y berayotgan turli mazmundagi siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-mafkuraviy tahdidlar, unga qarshi kurash zaruriyati, uning milliy mustaqillikka, milliy manfaatlarimizga, xalqimiz ma'naviyatiga yetkazayotgan ta'siri, bu tahdidlarga qarshi kurashda ta'lim tizimi oldida turgan vazifalarni belgilab olish ushbu qo'llanmaning maqsadi etib olingan. Globallashuvning shu tarzda jadal suratlar bilan yuz berayotgan bunday sharoitda biz quyidagi vazifalarga keng e'tibor qaratishimiz lozim bo'ladi:

- globallashuvning mazmun-mohiyati va o'ziga xos xususiyatlarini atroflicha yoritish;
- globallashuvning salbiy va ijobiy jihatlarini chuqur tahlil qilish;
- globallashuvning namoyon bo'lish sohaslarini tahlil etish;
- iqtisodiy jarayonlarning globallashuvi, uning ijobiy va salbiy jihatlarini tahlil etish, iqtisodiy jarayonlarning globallashuvi sharoitida O'zbekistonning iqtisodiy havfsizligi masalalarini o'rganish;
- fan va ta'limning globallashuvi, uning asosiy xususiyatlari, bu jarayonda kadrlar tayyorlash milliy dasturining ustuvor yo'nalishlarini tahlil etish;
- diniy jarayonlarning globallashuvi, uning asosiy xususiyatlarini tahlil etish, O'zbekistonda diniy bag'rikenglikni ta'minlashga qaratilgan vazifalarni belgilab olish;
- ma'naviy-mafkuraviy tahdidlarni ko'lamini tahlil qilish;

- globallashuv sharoitida ma'naviy tahdidlarning ta'sir qilish mexanizmlarini tahlil qilish;
- yoshlarimiz ongida dunyoning siyosiy-mafkuraviy manzarasini, unda kechayotgan g'oyaviy kurashlardan ko'zlangan tub maqsad-manfaatlarning asl qiyofasini ochib berish;
- yoshlarga mustaqillikni mustahkamlash, jamiyat hayotining turli sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlarning tub mohiyatini yoritib bergan holda ulardagi Vatanga sadoqat tuyg'ularini yanada mustahkamlash;
- yoshlarda tarixiy xotira, madaniy merosga hurmat, milliy o'zlikni anglash tuyg'ularini mustahkamlagan holda ularda o'z kuch va imkoniyatlariga tayanib yashash hissini shakllantirish;
- yoshlarda ma'naviy-mafkuraviy tahdidlarga, "ommaviy madaniyat" niqobi ostidagi turli xil xatti-harakatlarga nisbatan doimo ogoh, sezgir va xushyor bo'lish ko'nikmalarini shakllantirish;
- globallashuv sharoitida ma'naviy tahdidlarga qarshi kurashda ma'naviy-ma'rifiy sohadagi, ta'lim tarbiya tizimi oldidagi vazifalarni ko'rsatib o'tish.

4. Bugungi dunyoning mafkuraviy manzarasi. Insoniyat yashayotgan ona zaminning biologik, fizik, tabiiy-geografik imkoniyatlari, iqlimi, zahiralari, ularning joylashuvi turlicha bo'lib insonning xohish irodasiga bog'liq emas. Uni insoniyat o'z hoxishi asosida o'zgartira olmagan, albatta. Lekin inson unga egalik qilish borasida o'zining bir necha ming yillik tarixi davomida doimiy kurashib keldi: davlatlar tashkil etildi, saltanatlar tashkil etildi, harbiy ittifoqlar tashkil etildi, harbiy harakatlar olib borildi va sh.k. Bu jarayon to'xtovsiz harakat, mehnat, jangu-jadallar asosida yuz berib keldi. Oldiniga dunyoni yirik mamlakatlar o'z manfaatlari doirasida bo'lib olishga, keyin esa bo'lib olingan dunyoni qayta bo'lib olishga harakat qilishdi. O'tgan asrning o'zida ikki bor jahon urushi bo'lib o'tdi. Jamiyat hayoti rivojlangani sari, murakkablashgani sari uning ehtiyojlari gurkirab o'smoqda: iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, madaniy, ma'naviy, diniy, axborot va sh.k. Jamiyat vujudga kelibdiki, unda yashayotgan xalqlar ona zaminning unumdor yerlariga, tabiiy zahiralarga ko'proq egalik qilishga harakat qilishadi, kuchli markazlashgan davlatlar, saltanatlar tuzishga, o'zlarining huquqiy-siyosiy tizimlarini mutloqlashtirishga harakat qilishadi, harbiy-siyosiy bloklar tuzishgan, diniy tashkilotlar, ordenlar, mazhablar o'zlari e'tiqod qilayotgan dinining kengroq makonda tarqalishiga zo'r beradi. Natijada ular kurashga o'tlanishadi, o'z manfaatlariga xizmat qiladigan dasturlar, geostrategiya ishiab chiqishadi, uni amalga oshiradigan siyosatni yo'lga

qo'yishadi, bu xatti-harakatlarining ta'sirchanligini, qo'llab-quvvatlanishini ta'min etuvchi o'z mafkuralarini yaratishadi.

XXI asr bo'sag'asiga kelib dunyoning siyosiy manzarasi tubdan o'zgardi, ikki qutbli dunyo barxam topdi, nisbiy muvozanat buzildi. Dunyodagi ikki qutbning biri bo'lgan sobiq sotsialistik lager tarqalib ketdi. SSSR deb atalmish davlat o'tmishga aylandi. Bu davlatning o'rniga mustaqil mamlakatlar yuzaga keldi. Lekin dunyo tinch bo'lib qolgan yo'q. Ming afsuskī, hozirgi vaqtda dunyoning mafkuraviy manzarasida turli vositalar orqali o'z ta'sir doirasini kengaytirishga intilayotgan tajovuzkor millatchilik, shovinizm, neofashizm, irqchilik, diniy ekstremizm kabi siyosiy kuchlar va oqimlar bor. Bugungi kunda nafaqat inson ongini, balki qalbini xam egallash mafkuraviy kurashning bosh maqsadidir. Natijada dunyoda inson qalbi va ongini egallash uchun kurash tobora kuchayib bormoqda. Bu hol bugungi kunda dunyoning mafkuraviy manzarasini belgilab bermoqda.


Jamiyat hayoti rivojlangani, murakkablashgani sari unga qiyofa baxsh etuvchi dunyoning mafkuraviy manzarasi ham murakkablashib, o'zgarib kelgan. Mavzuga doir adabiyotlar tahliliga e'tibor bersak mazkur tushunchaga berilgan quyidagi ta'riflarni guvohi bo'lamiz. Dunyoning mafkuraviy manzarasi-jahonda ro'y berayotgan g'oyaviy jarayonlar, mavjud mafkura shakllari, ularning mohiyati, maqsadlari va o'zaro munosabatlari bilan bog'liq holat, xususiyat va faoliyatini yaxlit tarzda aks ettiruvchi tushuncha¹. Dunyoning mafkuraviy manzarasi tushunchasi muayyan davrda jahon davlatlari va xalqlari, yer yuzining turli mintaqalari va hududlarida mavjud bo'lgan xilma-xil g'oya va mafkuralar, ta'limot va nazariyalar, siyosiy doktrinalar, shu sohada ro'y berayotgan g'oyaviy-mafkuraviy jarayonlar, mazkur masalaga bag'ishlangan qarashlar, ma'lumotlar va dalillarda aks etgan bilimlar majmuini ifodalaydi. Tadqiqotchi Q.Nazarov esa dunyoning mafkuraviy manzarasini jahonda ro'y berayotgan g'oyaviy jarayonlar, mavjud mafkura shakllari, ularning mohiyati, maqsadlari va o'zaro munosatlari bilan bog'liq holat, xususiyat va faoliyatni yaxlit tarzda aks ettiruvchi tushuncha² deb hisoblaydi. Shunday ekan dunyoning mafkuraviy manzarasi tushunchasi muayyan davrda jahon davlatlari, xalqlari, turli uyushmalari tomonidan iqtisodiy, siyosiy, madaniy, mafkuraviy sohalarida o'z manfaatlarini himoya qilishga intilishlari bilan bog'liq jarayonni ifoda qiluvchi xatti-harakatlar, olib borilayotgan siyosiy

¹Ma'naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug'ati. -T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2009. 145-146 b

²Nazarov Q. G'oyalar falsafasi. Toshkent "Akademiy" -2011. 256-b

faoliyat, uning ta'sirchanligiga xizmat qiluvchi mafkuralar, siyosiy doktrinalar, ta'limot va nazariyalar, uning zaminida ro'y berayotgan g'oyaviy-mafkuraviy jarayonlar majmuini ifodalaydi. Aytib o'tilganidek, "sovuq urush" ning tugashi bilan dunyo ko'pchilik kutganidek tinch bo'lib qolgan yo'q. Ikki qutbli tizim barham topgach yangi ko'p qutbli dunyoning barham topishi qiyinchilik bilan kechmoqda. Kurashuvchi tomonlar, ularning soni, manfaatlari, kurash olib borish strategiyasi, usul va vositalari o'zgardi. Shu bilan birga hozirgi vaqtda turli ta'sir etish vositalari orqali jahonda o'z ta'sir doirasini kengaytirishga intilayotgan siyosiy kuchlar va harakatlar ham ko'pchilikni tashkil etadi. Agressiv millatchilik, shovinizm, neofashizm, terrorizm mafkuralari shular jumlasidandir. Shu bois dunyoda inson qalbi va ongi kurash har doimgidanda kuchayib muhim ahamiyat kasb etmoqda.

MARKAZIY OSIYO MINTAQASIDAGI MAFKURAVIY JARAYONLAR



Ushbu xolatlarda bugungi dunyoning mafkuraviy manzarasini belgilab bermoqda. G'oya, mafkura, targ'ibot sohasiga doir bilimlarni, o'z navbatida inson ongi va qalbiga ta'sir etishning turli xil vositalari, targ'ibot usullarining takomillashib borishi bilan dunyoning mafkuraviy manzarasi atamasi ham mazmunan boyib, kengayib, murakkablashib boradi. Dunyoning mafkuraviy manzarasi keng ma'no, serqirra mazmunga ega bo'lib, muayyan davr kishilarining tafakkur tarzi va fikrlash uslubini, davlatlar va turli xalqlarning o'zaro munosabatlari, taraqqiyot modellari va tamoyillarini belgilaydigan aniq bilimlarni o'zida ifoda etadi.

Tayanch so'z va iboralar

Globalashuv, integratsiya, ommaviy madaniyat, mafkura, ma'naviyat, dunyoning mafkuraviy manzarasi, ma'naviy tahdid, milliy ong, milliy meros

Takrorlash uchun savollar.

1. "Globalashuv asoslari" fanining o'rganishga ehtiyoj nimada?
2. Globalashuv jarayonini o'ziga xos fenomen sifatida tahlil etishning obektiv zaruriyat ekanini qanday izohlaysiz?
3. Fan doirasidagi e'tibor berilishi lozim bo'lgan vazifalar nimalardan iborat?
4. Dunyoning mafkuraviy manzarasini qanday tushunasiz?

2-§. GLOBALASHUV TUSHUNCHASI, MOHIYATI, JAMIYAT XAYOTIDA NAMOYON BO'LISH XUSUSIYATLARI

Reja:

1. "Globalashuv" tushunchasi, mazmun va mohiyati.
2. Globalashuv, global muammo va integratsiya.
3. Globalizm va aksiglobalizm.
4. Globalashuvning namoyon bo'lish sohalari.

1. "Globalashuv" tushunchasi, mazmun va mohiyati. Jamiyat qanchalik yuksak darajada rivojlanmasin uning ehtiyojlari ham shunchalik oshib boradi. Insoniyat bugun kechagiga qaraganda, ertaga esa undan-da ko'proq yaxshi yashashga, moddiy-ma'naviy barkomollikka erishishga, farovon hayot kechirishga intiladi. Lekin insoniyatning yuksak darajada to'kin, farovon

929737

yashashini ta'min etuvchi tabiiy-geografik omillar inson xohish istagicha emas, balki o'z holicha mavjud. Bu omillar farovon turmushning o'ziga xos muhim sharti hisoblanadi. Yer yuzida davlatlar, saltanatlar tashkil topganidan beri qulay geografik makonga, tabiiy zahiralarga ega bo'lish uchun, bu borada ustunlik qilish uchun kurashlar muttasil davom etib kelmoqda. Aslida bu omillar insoniyat taraqqiyotining mazmuni, uning hayot kechirish qonuniyati va falsafasi hisoblanadi. Bir qaraganda bunday intilish tabiiy hisoblanadi.

Muammo, ana shu intilishlarda moddiy manfaatdorlikka bo'lgan intilish bilan ma'naviyatni unga mos ravishda rivojlantirishga bo'lgan zaruriyat o'rtasidagi muvozanatning yo'qolib borishida namoyon bo'lmoqda. Buni yuksak darajada taraqqiy qilgan mamlakatlar o'zlarining ulkan intellektual salohiyatlari bilan fan, texnika va texnologiyaning eng zamonaviy turlarini yaratib, ular vositasida mintaqalarda mavjud bo'lgan xom-ashyo resurslarini qo'lga kiritishning eng jirkanch uslublaridan foydalanib, ana shu mintaqa xalqlarini avvalo moddiy jihatdan qaram qilish, hamda bu omil vositasida ularni o'ziga xos ma'naviyatini ham barbod qilish yo'li bilan uning o'rniga o'zlarining ma'naviyatini ommaviylashtirishga bo'lgan urinishlarida namoyon bo'layotganligida ko'rish mumkin.

Albatta, ana shu yaratilayotgan fan, texnika va texnologiya bir tomondan butun insoniyatning aql-zakovatining mevasi va yer kurrasida yashayotgan barcha xalqlar manfaatlariga xizmat qilmoqda. Ikkinchi tomondan esa, ulardan foydalanishdagi tengsizlik, ya'ni unga ega bo'lmaganlarning ustidan hukmron bo'lishga intilishlari, insonlar, millatlar va xalqlar o'rtasidagi munosabatlarda kim moddiy jihatdan baquvvat bo'lsa, boshqalar unga "itoatkor", uning ma'naviyatini "qabul qilishga majbur" degan tamoyilining yuzaga kelayotganligi insoniyat aql-zakovati yuksak darajasiga ko'tarilgan sharoitdagi ma'naviy qashshoqlashuvning jirkanch ko'rinishi sifatida namoyon bo'lmoqda. Albatta, rivojlangan mamlakatlar tomonidan yaratilayotgan yuksak texnologiyalar, ta'lim-tarbiya tizimi, fan sohasidagi kashfiyotlar o'zi yaratilgan joydagi tub xalq ma'naviyati zaminiga qurilgan bo'lib, o'ziga xos mentalitetni aks ettiradi. Ushbu jihatlar bu texnologiyalarning ommalashuvida ham o'z ta'sirini saqlab qoladi. Bu jarayonning yuzaga kelishiga va avj olishiga jahon miqyosida sodir bo'layotgan globallashuv o'zining ta'sirini o'tkazmoqda. Uning insonlar, millatlar, xalqlar va mamlakatlar hayotiga o'tkazayotgan salbiy ta'sirlari bugunning o'zida turli sohaning ko'pchilik mutaxassislarini tashvishga solmoqda. Ular insonlar va millatlarning sofligini saqlab qolishning

imkoniyatlarini izlab topish dolzarb muammolardan biriga aylanayotganligini ta'kidlamoqdalar. Millat keng ma'nodagi ma'naviyati, ruhiyati va mentaliteti bir xil bo'lgan insonlar uyushmasidan iborat bo'lgan ijtimoiy borliq hisoblanadi. Ayni paytda u jahonda mavjud bo'lgan go'zalliklarning gultoji va ma'naviy boyligidir. Uning o'zligidan mahrum bo'lishi oxir oqibatda butun insoniyatning manqurtlashuviga olib keladi. Istiqbolda bu jarayonning oldi olinmas ekan u insoniyat taraqqiyotini yana chuqur inqirozga olib boradi deganidir. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev Islom hamkorlik tashkiloti Tashqi ishlar vazirlari kengashi 43-sessiyasidagi nutqida aytganidek "Buyuk tarixda hech narsa izsiz ketmaydi. U xalqlarning qonida, tarixiy xotirasida saqlanadi va amaliy ishlarida namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham u qudratlidir. Tarixiy merosni asrab-avaylash, o'rganish va avlodlardan avlodlarga qoldirish davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir"¹. Shu sabab mamlakatimizda ma'naviyat, ma'rifat, milliy-ma'naviy meros masalalari olib borilayotgan siyosatimizning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa keyingi paytga kelib globallashuv tushunchasi va uning jamiyat hayotining turli sohalaridagi ijobiy va salbiy tomonlari haqida turli yo'nalishlarda ilmiy tadqiqot olib borilmoqda.

Globallashuvni davlatlarning, turli millatlarning mustaqil sub'yekt sifatida saqlanib, yashab qolish jarayoniga o'tkazayotgan salbiy ta'siri bugunning o'zida sezila boshladi. U ijtimoiy-siyosiy tizimlarning iqtisodiy hayotini, milliy-ma'naviy qadriyatlarini, o'ziga turmush tarzini, tafakkur tarzini yemirmoqda va shu yo'l bilan millatni o'z domiga tortmoqda. Bu jarayonning oldini olish, hech bo'lmaganda uning oldiga to'siq qo'yish yo'llari, imkoniyatlari va vositalarini izlab topish hamda ulardan samarali foydalanish strategiyasini ishlab chiqish barcha fan yo'nalishidagi tadqiqotchilar oldida turgan dolzarb vazifalardan birini tashkil qiladi. Buning uchun eng avvalo, "Globallashuv" tushunchasi uning ma'no-mazmunini tushunib yetish zarur bo'ladi.

XXI asr boshlariga kelib dunyo mamlakatlari o'rtasida ijtimoiy hayotning turli sohalaridagi o'zaro ta'sir shu qadar kuchayib ketdiki, bu jarayondan chetda qola olgan birorta ham davlat yo'q, deb to'la ishonch bilan aytish mumkin. Xattoki, xalqaro tashkilotlardan uzoqroq turishga intilayotgan, ularga a'zo bo'lishni istamayotgan mamlakatlar ham bu jarayondan mutlaqo

¹ Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 29-b.

chetda emas. Globallashuv shunday jarayonki, undan chetda turaman, degan mamlakatlar uning ta'siriga ko'proq uchrab qolishi mumkin. "Globallashuv jarayoni hayotimizga tobora tez va chuqur kirib kelayotganining asosiy omili va sababi xususida gapirganda shuni obektiv tan olish kerak – bugungi kunda har qaysi davlatning taraqqiyoti va ravnaqi nafaqat yaqin va uzoq qo'shnilar, balki jahon miqyosida boshqa mintaqa va hududlar bilan shunday chambarchas bog'lanib boryaptiki, biron mamlakatning bu jarayondan chetda turishi ijobiy natijalarga olib kelmasligini tushunish, anglash qiyin emas"¹.

Globallashuvning jahon mamlakatiari ijtimoiy taraqqiyotiga o'tkazayotgan ta'siri ham turlicha. Bu hol dunyo mamlakatlarining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy taraqqiyot darajasi, axborot xurujidan himoyalanganlik holati, ma'naviy salohiyatlari qanday ekanini bilan bog'liq. Dunyoda yuz berayotgan shiddatli jarayonlarning har bir mamlakatga o'tkazayotgan salbiy ta'sirini kamaytirish va ijobiy ta'sirini kuchaytirish uchun shu hodisaning mohiyatini chuqurroq anglash, uning xususiyatlarini o'rganish lozim. Bu hodisani chuqur o'rganmay turib unga moslashish, uning yo'nalishini tegishli tarzda o'zgartirish mumkin emas. Globallashuv yana shunday jarayonki, uni chuqur o'rganmaslik, undan foydalanish strategiyasi, taktikasi va texnologiyasini ishlab chiqmaslik mamlakat iqtisodiyoti, madaniyati, ma'naviyatini tog'dan tushayotgan shiddatli daryo oqimiga boshqaruvsiz qayiqni topshirib qo'yish bilan baravar bo'ladi.

Mustaqillik davrida mamlakatimiz olimlari o'tkazgan va o'tkazayotgan tadqiqotlarga e'tibor beriladigan bo'lsa bu sohadagi isblar endigina boshlanayotganining guvohi bo'lamiz. Albatta, bu jarayon xususida, uning mohiyati to'g'risida, undan ko'zlangan maqsadlar to'g'risida, bu jarayonni amalga oshuvini ta'minlaydigan vositalar, usullar xususida chuqur ilmiy-nazariy bilimga ega bo'lish muhim ahamiyat kasb etadi. Va bu ilmiy – nazariy asoslardan olib borilayotgan ma'naviy ma'rifiy sohadagi siyosatning yo'nalishlarini ishlab chiqishda foydalanish zarur bo'ladi. Har qanday siyosat, jumladan iqtisodiy siyosat va ma'naviyat sohasidagi siyosat ham ilmiy asosga ega bo'lgandagina muvaffaqiyat keltirishini nazarda tutsak, bu masalada olimlarimiz siyosatchilarimizga yetarli ko'mak berishlarini e'tirof etishga to'g'ri keladi. Mamlakatimizning jahon maydonida olib borayotgan siyosati ko'proq samara va muvaffaqiyat keltirishini istasak, globallashuvning mohiyati, yo'nalishlari, xususiyatlarini chuqurroq tadqiq va tahlil qilish zarur. Aynan shu

¹ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. 77-bet

jarayonni chuqurroq tahlil etish orqali siyosatchilarning to'g'ri yo'l tanlashi va qarorlar qabul qilishi uchun imkoniyat yaratish mumkin.

Globallashuv - turli mamlakatlarning, xalqlarning jamiyat hayotining ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy sohalaridagi o'zaro ta'siri va bog'liqligining keskin kuchayishidir.

Ilmiy adabiyotlarda globallashuv atamasiga berilgan ta'riflar juda ko'p. Ularga asoslangan holda globallashuv jarayonining asosiy xususiyatlarini quyidagicha sharhlash mumkin:

- globallashuv-muttasil davom etadigan tarixiy jarayon ekanligi;
- globallashuv-jahonning gomogenlashuvi va universallashuvi jarayoni;
- globallashuv-milliy chegaralarning «yuvilib ketish» jarayoni;
- ishlab chiqarishda ishlab chiqarishning xalqaro formalariga o'tilishl, ishlab chiqarish omillari harakatining jadallashuvi;
- jahon mamlakatlari iqtisodiyotida yagona xalqaro standartlarining joriy etilishi;
- ko'pchilik mamlakat xalqlarining madaniyatida, kundalik hayotida yevropacha turmush tarzining (vesternizatsiya), amerikacha turmush tarzining namoyon bo'lishi;
- globallashuv investitsiyalar, kapital, texnika va tovarlarning butun dunyo bo'ylab oqishining jadallashib va keng miqyosga ega bo'lib borayotgan murakkab jarayon sifatida baholamishi;
- globallashuv turli xalqlarning ma'naviy hayotidagi o'ziga xos milliy xususiyatlarining yemirilib borishini ta'minlagan holda ularni yangi g'oyaviy birlik asosida birlashtirishga intilishi;
- globallashuv demokratik jarayonlar natijasi sifatida butun yer yuzida hayot darajasi yuksalib borishiga va qashshoqlik darajasining ancha pasayishiga yordam beruvchi shart-sharoit deb qaralishi;
- globallashuv ishlab chiqarish samaradorligini rag'batlantirish va imkoniyatlarni kengaytirish, iqtisodiyotni o'stirish evaziga qo'shimcha ish joylarini yaratadigan integratsion jarayon sifatida qaralishi;
- globallashuv axborot sohasidagi inqilob bilan chambarchas bog'liqligi va shu kabilar.

Insoniyat yashayotgan ona-zamin tabiiy imkoniyatlari, zahiralari, iqlimi, hayvonot va o'simlik dunyosi yer kurrasining barcha hududlarida birdek tarqalgan emas. Insoniyat esa tabiatning bu ne'matlaridan birdek manfaatdor bo'lishni istaydi. Qolaversa davlatchilik, ilm-fan, madaniyatning rivoji ham

ko'p jihatdan geografik omillarga borib taqaladi. O'z navbatida fan-texnikasi yuksak rivojlangan mamlakatlar erishayotgan yutuqlardan dunyo aholisining barchasi foydalanishga intilishadi. Shu ma'noda globallashuvga obektiv tarixiy hodisa sifatida qarash mumkin.

Globallashuvning mamlakatlar iqtisodiy siyosati va ma'naviyatiga o'tkazishi mumkin bo'lgan ijobiy va salbiy ta'siri Hindistonning mashhur davlat arbobi Mahatma Gandining quyidagi so'zlarida yaxshi ifodalangan: «Men uyimning darvoza va eshiklarini doim mahkam berkitib o'tira olmayman, chunki uyimga toza havo kirib turishi kerak. Shu bilan birga ochilgan eshik va derazalarimdan kirayotgan havo dovul bo'lib uyimni ag'dar-to'ntar qilib tashlashi, o'zimni esa yiqitib yuborishini ham istamayman».

Shuning uchun ham milliy istiqlol g'oyasini bugungi globallashuv jarayonida uyimizni, hayotimizni toza havo bilan ta'minlab, ayni paytda «dovullar»dan saqlash omili sifatida keng targ'ib qilish, uning ta'sirchanligini takomillashtirib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

2. Globallashuv, global muammo va integratsiya. Ko'pgina tadqiqotlarda ba'zan globallashuv, global muammo, integratsiya atamaları bir-biri bilan aynanlashtirib yuboriladi. Globallashuv jarayonining mohiyati, uning asosiy xususiyatlari bilan shug'ullanuvchi bo'lg'usi mutaxassislar albatta bu xususida chuqur, aniq bilimga ega bo'lishlari talab etiladi. Shunday ekan bu tushunchalarning mohiyatiga qisqacha to'xtalib o'tish lozim. Globallashuv odatda rivojlangan xalqlarning siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy sohadagi yutuqlarining keng ommalashuvini anglatib, uning aks ta'siri ko'proq rivojlanayotgan, kam rivojlangan xalqlarga qaratilgan bo'ladi. Uning yuz berishdan kimdir manfaatdor, kimdir Ko'rinib turibdiki globallashuvni hamma ham o'ziga muammo, fojea sifatida qabul qilayotgani yo'q. Uning tantanasidan manfaatdorarlar ham ko'p uchraydi. Globallashuv qayd etib o'tilganidek rivojlangan mamlakatlarning rivojlanayotgan, kam rivojlangan, qoloq mamlakatlarning ijtimoiy-siyosiy tizimiga, iqtisodiyotiga, ma'naviy-madaniy hayotiga qilinayotgan "yekspansiya" dir. Uning o'ziga xos qator xususiyatlari yuqorida sanab o'tilgan edi.

Global muammo. Odatda ijtimoiy-falsafiy adabiyotlarda tabdidi ham, yechimi ham butun insoniyatga, hayvonot dunyosiga, tabiatga birdek ta'sir etuvchi muammolar tizimiga nisbatan global muammo atamasi ishlatiladi. Global muammoning tahdidi ham, yechimi ham mintaqa yoki millat tanlamaydi, yoki global muammoni rivojlangan davlatlar tomonidan

rivojlanayotgan, kam rivojlangan davlatlarga nisbatan amalga oshirilayotgan o'ziga xos "yekspansiya" deya baholab bo'linaydi. Odamzod nasli XX asrning ikkinchi yarmida tabiat-jamiyat tizimidagi shunday muammolar domiga tortildi-ki, endilikda ularning iskanjasidan qutulib ketish yoki ketmaslik bugungi kunning eng dolzarb masalasiga aylandi. Agar XX asrning birinchi yarmi oxirlarida insoniyat qarshisida asosan bitta umumbashariy muammo — yadro halokatining oldini olish ko'ndalang bo'lib turgan bo'lsa, II- jahon urushidan keyin ahvol o'zgardi. Aholi tabiiy o'sishining yuqori darajasining saqlanib qolishi, fan va texnika yutuqlaridan tor manfaatlar yo'lida foydalanishga intilish bir qator mintaqalarda murakkab ekologik vaziyatning vujudga kelishi masalani chigallashtirib yubordi. Oqibatda insoniyatning kelajagi to'g'risida turli tipdagi bashoratlar kelib chiqdi. Ana shunday sharoitda har bir aql zakovatli inson «Bunday yo'lda qanday muammolar, qiyinchiliklar, sinovlarga duch kelishingiz mumkinligini yetarli darajada aniq tasavvur qilmayapmizmi?» — degan savolni o'z oldiga ko'ndalang qo'yishi va unga javob topishi zarur bo'lib qoldi. Bu savollarni butun jahon xalqlarining ishtirokisiz xal etib bo'lmaydi.

Tabiatga kishilarning zug'umi kuchaya borgan sari tabiiy muvozanatning buzilishi oqibatida kishilarning yashash tarzi, sog'lig'i, ijtimoiy muhitga bo'lgan aks ta'siri tobora halokatli tus ola boshladi. Insoniyat bunday tahlikali holatdan faqatgina, har qanday siyosiy, mintaqaviy, milliy, diniy va boshqa manfaatlarini keyinga surib, mushtarak umuminsoniy manfaatlar tevaragida jiplashish, zudlik bilan ta'sirli choralar qo'llash orqaligina qutulishi mumkin. Masalaning ushbu jihatiga jamoatchilik fikrini qaratar ekan BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqida Sh.Mirziyoyev quyidagilarni alohida ta'kidlaydi: «Bugungi kunning eng o'tkir ekologik muammolaridan biri – Orol halokatiga yana bir bor e'tiboringizni qaratmoqchiman. Mana, mening qo'limda – Orol fojiasi aks ettirilgan xarita. O'ylaymanki, bunga ortiqcha izohga hojat yo'q. Dengizning qurishi bilan bog'liq oqibatlarni bartaraf etish xalqaro miqyosdagi say-harakatlarni faol birlashtirishni taqozo etmoqda. Biz BMT tomonidan Orol fojiasidan jabr ko'rgan aholiga amaliy yordam ko'rsatish bo'yicha shu yil qabul qilingan maxsus dastur to'liq amalga oshirilishi tarafdorimiz»¹.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqidan.

Hozirgi paytda insoniyatga xavf solib turgan umumbashariy muammolar deganda tahdidi ham, shuningdek yechimi ham butun dunyo, barcha davlatlar va xalqlarning ishtirokisiz hal etilishi mumkin bo'lmagan muammolar tizimiga aytiladi. Bunday muammolar quyidagilardir:

- termoyadro urushi xavfining oldini olish va qurollanishni bartaraf etish;
- jahon iqtisodiyoti va ijtimoiy hayotning o'sishi uchun qulay shart-sharoit yaratish;
- iqtisodiy qoloqlikni tugatish; yer yuzida qashshoqlik va ochlikka barham berish;
- tabiiy boyliklardan oqilona va kompleks yondashgan holda foydalanish;
- insoniyatning baxt-saodati yo'lida fan-texnika yutuqlaridan foydalanish uchun xalqaro hamkorlikni yanada faollashtirish; (eng xavfli kasalliklarga qarshi kurash, kosmosni o'zlashtirish);
- dunyo okean boyliklari va imkoniyatlaridan unumliroq foydalanish; ozon qatlamining yo'qolish xavfining oldini olish va h.k.

Insoniyat oldida ana shu xildagi muammolarning ko'ndalang turib qolishining o'zi kishilik sivilizatsiyasi o'ta murakkab, o'ta qaltis bir jarayonni boshidan kechirayotganligidan darak beradi. Umumbashariy muammolarning ba'zi bir guruhlar mavjudki, ularni hal qilishning o'zidayoq butun planetamizdagi ijtimoiy hayotning keyingi ming yillikdagi aniq manzarasini chizib berish uchun hal qiluvchi ahamiyat kasb etishi mumkin.

Integratsiya. Suveren davlatlar o'rtasida ma'lum manfaatlarni amalga oshirish jarayonidagi o'zaro hamkorlikni, o'zaro munosabatlarni aks ettiruvchi integratsion jarayonlarni o'rganishga qaratilgan tadqiqotlar ko'p uchraydi. Yevropa va Markaziy Osiyo regional integratsiya jarayonlari xam bundan mustasno bo'lmadi. Ular ko'p sondagi turli xil integratsion qarashlar va nazariyalarning paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Bu xol ajablanarli emas, chunki aynan nazariy modellarning taxlili orqaligina integratsion jarayonning pirovard natijasini xam oldindan aytish mumkin bo'ladi. Bu jarayonning nazariy asoslarini hilish ko'r-ko'rona harakat qilishdan saqlashi bilan birga, xar bir qo'yilayotgan qadamni taxlil qilish va baholash imkonini yaratadi. Shu narsani aytib o'tish joizki, hozirgi paytda sobiq SSSR xududida kechayotgan turli shakldagi iqtisodiy va siyosiy-huquqiy jarayonlarga nisbatan bildirilayotgan tanqidiy fikrlardan shu narsani tushunish mumkinki, ushbu jarayonlarni to'g'ri baholaydigan yetarlicha nazariy baza yo'q.

Endi «integratsiya» tushunchasining lugʻaviy maʼnosi va bir qator tadqiqotchilarning bu boradagi muloxazalariga toʻxtalsak. «Integratsiya» tushunchasi lotincha «integratio» soʻzidan kelib chiqqan boʻlib, lugʻaviy jixatdan «birlashish», «toʻldirish» degan maʼnolarni anglatadi. Integratsiya (lot. integer — butun) -1) ayrim qism va elementlarni bir butunga birlashtirish; 2) turli mamlakatlarning birlashmalari, tor doiradagi iqtisodiy-siyosiy guruxlarning qoʻshilishi. Jamiyat hayotida integratsiyaning shakllari turlicha namoyon boʻladi: ilmiy, siyosiy, ma-daniy, xalqaro va h.k.

Mazmun va mohiyatiga koʻra «integratsiya» tushunchasi koʻpqirrali hisoblanadi. Shu boisdan uni amaliyotda qoʻllanilayotgan soxasiga qarab talqin qilishga ehtiyoj seziladi. Jumladan, u davlatlararo aloqalarga nisbatan qoʻllanilganda, mustaqil subʼyektlarning (muayyan maqsadlarni koʻzlab) ixtiyoriy ravishda xamkorlik munosabatlarini yoʻlga qoʻyishini yoki shu maqsadda tegishli chora—tadbirlar tizimini ishlab chiqishlarini nazarda tutadi. Aytish joizki, bunday birlik (davlatlar xamkorligi) amaliyotda ishtirok etuvchilarning quruq munosabatlari majmuasiningina oʻzida aks ettirmaydi. Negaki, har qanday integratsion jarayon unda ishtirok etuvchilarning arifmetik yigʻindisigina boʻlmasdan, u oʻzining namoyon boʻlishi va qamroviga koʻra koʻlami keng, hamda manfaatlarga asoslangandir.

Mavjud ijtimoiy-siyosiy fanlarga doir ensiklopedik lugʻatlarda «integratsiya» tushunchasiga turlicha izox berilgan. Bir tomondan, ularning aksariyatida tushunchaning lugʻaviy maʼnosi bir xil boʻlsada, ikkinchi tomondan, «integratsiya» tushunchasi mazmun va mohiyat jixatidan turlicha (siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ijtimoiy, huquqiy va b.) talqin qilishadi. Masalan, «Slovar inostrannix slov» nomli lugʻatda «Integratsiya — bir xil ijtimoiy tuzumga ega boʻlgan ikki yoki undan ortiq davlatlar milliy xoʻjaliklarining oʻzaro moslashish yoki birlashish jarayonidir»,— deb berilgan¹. Konovalova V.N. taxriri ostida chiqqan lugʻatda tushunchaga siyosiy tomondan izoh berishga xarakat qilingan, yaʼni: «Integratsiya — siyosiy institutlar, davlat yoki davlatlararo doirada maʼlum bir siyosiy umumiylikka, davlat va jamiyat rivojlanishida barqarorlikka erishish maqsadida turli xil siyosiy kuchlarning oʻzaro qoʻshilishi yoki birlashishidir»². Professor V.Bobkov esa, integratsiya unda ishtirok etuvchi subʼyektlarga shunday moddiy, intellektual va boshqa

¹ Slovar inostrannix slov. M.: Russkiy yazik, 1987. s. 196.

² Politologiya, (kratkii slovar) pod red. V.N.Konovalova, R-D.: «Feniks», 2001 s. 100

vositalarga ega bo'lish imkoniyatini yaratib beradiki, bunday imkoniyatlarga alohida olingan hech bir davlat umuman erisha olmaydi¹.

Integratsiya termini G'arbiy Yevropa mamlakatlari davlatlararo institutlarni yaratib boshlaganida, shuningdek iqtisodiy siyosatni koordinatsiyalash va savdo erkinligini ta'minlash maqsadida iqtisodiy birlashmalarni tuzish paytida xalqaro munosabatlarda ishlatila boshlandi¹.

Shuniqi qiziqarliki, Yevropa integratsiyasini tahlil qiluvchi olimlar orasida ushbu mintaqa doirasidagi davlatlar integratsiyasiga nisbatan shu kungacha yagona bir nuqtai nazar ishlab chiqilmagan. Lekin shu bilan birga, ularning hammasi integratsiya ijobiy hodisa ekanligini, shuningdek bu «hamma ishtirok etuvchi tomonlar uchun bir qator ustunliklarga ega bo'lishga qaratilgan jarayon»² -sifatida e'tirof qilishmoqda. Aynan Yevropa mintaqasidagi davlatlarga nisbatan Jan Monne quyidagicha fikr bildirgan: «Agar mintaqa davlatlari o'z milliy suverenitetlarini ustivor yo'nalish sifatida qarab rivojlanadigan bo'lishsa, Yevropada hech qachon tinchlik bo'lmaydi. Chunki bunday rivojlanish davlatlarning ustunlik qilish siyosatiga va milliy iqtisodiy proteksionizmga olib keladi. Yevropa davlatlari yolg'iz xolda o'z xalqlari uchun yetarli darajadagi farovon turmush sharoitini yaratib bera olmaydilar. Zaruriy rivojlanish dinamikasiga faqat shu narsa bilan erishish mumkinki, bunda mintaqa davlatlari federatsiya yoki boshqa bir «Yevropa konfiguratsiyasiga» birlashadilar, bu esa o'z navbatida iqtisodiy yagonalikni keltirib chiqaradi»³. Aynan shu fikrni Markaziy Osiyoda hozirgi paytda kechayotgan hamkorlik jarayonlariga nisbatan ham qo'llash mumkin.

K.Doych integratsiyani davlatlarning tinch yashashini ta'minlashi mumkin bo'lgan real imkoniyat deb qaraydi. Uning fikricha savdoni kengaytirish, odamlarning erkin harakati, madaniy almashinuvning rivojlanishi, siyosiy konsultatsiyalarning faol o'tkazilishi va shunga o'xshash kabi boshqa chora tadbirlar orqali integratsiyaga erishish mumkin⁴. E.Xaas integratsiyani milliy masshtabda xarakat qiluvchi asosiy shaxslarni o'ziga torta oladigan yangi siyosiy ta'sir markazlarning paydo bo'lish jarayoni deb bilgan.

«Integratsiya» tushunchasini tahlil qilishda va o'rganishda zamonaviy yondashuv shu narsa bilan xarakterlanadiki, bunda integratsiya «umumiy manfaatlarini realizatsiya qilish va xisobini olib borish maqsadida davlatlar o'zlari yaratayotgan va xammasi uchun yagona bo'lgan yangi institusional strukturaga o'z suverenitetlarining bir qismini berish jarayoni» sifatida qaraladi.

¹ Bobkov V. Balans terpeniya i neterpeniya //Respublika. 1998. 1 dekabrY. S.5

Bu atamaning tahlili yuzasidan shunday xulosaga kelish mumkin: birinchidan integratsiya mintaqaning fizik, geografik imkoniyatidan kelib chiqadigan obektiv jarayon hisoblanadi. Ikkinchidan, ma'lum maqsad-manfaatlarni realizatsiya qilishga qaratilgan tomonlarning ixtiyoriy hatti-harakatining natijasidir.

3. Globalizm va aksilglobalizm. Hozirgi zamon globallashuvining jarayoni o'ta murakkab jarayon. Uning turli mamlakatlar iqtisodi, siyosati va ma'naviyatiga o'tkazayotgan ta'siri yana ham turlicha tarzda namoyon bo'lmoqda. Shu bois ham nisbatan jahonda bir-biriga nisbatan raqobatda bo'lgan ikki guruh: globalistlar va aksilglobalistlar guruhlari vujudga keldi.

Globallashuvning jamiyat hayotining turli sohalarida namoyon bo'lishini, o'tkazayotgan ta'sirini, erishilayotgan yutuqlarni ko'z-ko'z qiluvchi, undan faxrlanuvchi, uning yanada jadallashuvini qo'llab-quvvatlovchilar globalistlar deb ataladi. Ular orasida rivojlangan davlat arboblari, siyosatchilar, sanoatchi va biznesmenlar ko'proq uchraydi. Globalistlar siyosiy jarayonlarni, huquqiy munosabatlarni, fuqarolarning erkin ko'chishini, iqtisodiy integratsiyaning chuqurlashuvini, kapital va investitsiyalar erkin harakatini qo'llab-quvvatlashadi. Siyosiy jarayonlar rivojidan tortib migratsiyagacha, iqtisodiy jarayonlar integratsiyasidan tortib kapital chiqarishgacha bo'lgan harakat erkinligi ularning fikricha insoniyatga cheksiz imkoniyatlar ato etadi. Fan, ta'lim va texnologiyalar sohasidagi imkoniyatlar yanada oshadi. Jamiyat hayotining turli sohalarida turli xalqlar tomonidan kashf etilgan kashfiyotlar, ixtirolar, aqliy salohiyat, har bir mintaqaning tabiiy-geografik imkoniyatlari birlashtiriladi. Bu salohiyat insoniyatni farovonlikka, yuksaklikka yetaklaydi. Inson o'ziga qaratilgan barcha global masshtabdagi muammolarni, havf-xatarlarni birgalikda yechish imkoniga ega bo'ladi. Shu bois ular globallashuv jarayonlarini qo'llab-quvvatlashadi. Globallashuv muxoliflari esa aksilglobalistlar nomini olgan bo'lib ular orasida ko'proq so'l kuchlar, milliy-madaniy uyushmalar, kasaba uyushmalari va yoshlar tashkilotining vakillari bor. MDH hududida aksilglobalistlar Rossiya Federatsiyasi hududida faol harakat olib bormoqda. Bu yerda ular turli anjumanlar, seminarlar o'tkazish uchun to'planib turadilar. Shu o'rinda yana bir fikrni qayd etib o'tish lozimki, rivojlangan G'arbdagi ijtimoiy-siyosiy, falsafiy tadqiqotlarda globallashuv atamasi faqatgina iqtisodiy atama sifatida o'rganiladi. Unga biron-bir salbiy hodisa sifatida qaralmaydi.

XX asr o'rtalarida globallashuvning institutsionallashuvi, ya'ni tashkillashuvi kuchaygandan keyin bu jarayonning o'zi ham keskin tezlashdi va shiddatli tus oldi. Institutsionallashuvning kuchayganini Butunjahon savdo tashkiloti, Xalqaro Valyuta jamg'armasi, Jahon banki, Yevropa taraqqiyoti va tiklanish banki, Umumiy bozor, Yevropa Ittifoqi singari tashkilotlarining vujudga kelgani misolida ham ko'rish mumkin.

Har qanday hodisaning ikkita qirrasiga bo'lgani singari bu jarayonning ham avvaliga ko'z ilg'amas salbiy ta'sirlari namoyon bo'la boshladi. Globallashuvning tezlashishi va kuchayishiga javob sifatida aksilglobalistlarning faoliyati ham kuchaydi. Ular globallashuvning faqat salbiy oqibatlariga emas, umuman uning o'ziga ham qarshi chiqqa boshladilar. Masalan, rossiyalik faylasuf va yozuvchi A. Zinovyev «Aksilglobalizm vektorlari» nomli anjumanda so'zlagan nutqida shunday deydi: «Globallashuv yangi jahon urushidir. U yangi tipdagi jahon urushi. Bu urushda tirik qolishning qarshilik ko'rsatishdan boshqa yo'lini ko'rmayapman. Faqat qarshilik!» - degan edi.

«Aksilglobalizm vektorlari» anjumanidagi yana bir ma'ruzachi A. Parshev esa globallashuvga quyidagicha ta'rif beradi: «Aslida globallashuvning asosiy mazmuni boshqa mamlakatlarda ishlab chiqarilgan mahsulotning qo'shimcha qiymatini, dunyodagi asosiy zahiralarni o'zlashtirishdan iborat». Faqat bu o'zlashtirish yangicha mazmunda bo'lib uni hech kim bosqinchilik deb atamaydi. Boshqacha aytganda mustamlakachilikning yangicha namoyon bo'lishi demochi.

Albatta bu fikrga turlicha munosabat bildirilishi mumkin. «Globallashuv»ni faqat salbiy hodisa sifatida baholash va unga qarshi turish ijtimoiy hayotdagi turli xil tabiiy, ijtimoiy bog'liqliklarni inkor etishga olib kelishi mumkin. Globallashuv jarayoni «mafkuralashishdan», uning maqsadlaridan xoli bo'lishi kerak.

Tahlil shuni ko'rsatadiki, ko'pchilik holatlarda globalizm tarafdorlari ham, dushmanlari ham asosiy e'tiborni iqtisodiyot sohasiga qaratishadi. Globallashuvning ma'naviyatga ta'siri va ma'naviy globallashuv masalalari sotsiologiya, falsafa, madaniy antropologiya fanlarida o'zining aksini yetarli darajada topishi kerak.

Globallashuv sub'yektlari. Yuqorida qayd etib o'tilganidek insoniyatning manfaatlari, ehtiyojlari cheksiz ekan demak bu ehtiyojni muayyan hududning ham tabiiy-geografiy, ham fan-texnologiya sohasidagi

mavjud salohiyati bilan qondirib bo'lmaydi. Shu sabab globallashuv xalqaro munosabatlarning an'anaviy ishtirokchilari bo'lmish davlatlardan tashqari unumdunyoiviy jarayonlarga bevosita ta'sir qiluvchi yangi sub'yektlarni vujudga keltirdi: BMT, Xalqaro valyuta jamg'armasi, Jahon banki, YUNESKO, YUNISEF, Xalqaro mehnat tashkiloti, Jahon savdo tashkiloti, "Katta yettilik", YEI, SHHT, BRIKS, ASEAN va sh.k. Bipolyar tizim qulagach globallashuvning xalqaro miqyosda keng tarqalishiga to'sqinlik qiluvchi so'ngi "xtioy devori" quladi. Ishchi kuchi, migratsiya, savdo, kapital, turli sohalardagi hamkorlik yanada keng quloch yoydi. Kommunistik tizim barbod bo'lgach AQSH dunyodagi eng qudratli mamlakatga aylandi va siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy mafkuraviy, axborot sohasidagi globallashuvning harakatlantiruvchi kuchiga aylandi. Parijdagi Siyosiy tadqiqotlar institutining xodimi A.Valladaoning ta'kidlashicha, turli xalqlar, millatlar sintezi negizida shakllangan amerika jamiyatining madaniy qadriyatlarini o'ziga mamlakatlar qabul qilishi uchun oson kechadi. AQSH madaniy mahsulot ishlab chiqarish industriyasining yuksak rivojlanganligi keng imkon yaratadi. Mamlakatning ma'naviy-mafkuraviy boradagi siyosati shu negizga asoslanadi: "Amerika jamiyati ko'p jihatdan globallashib ulgurani sababli o'zaro mushtarak va global dunyoning tezroq shakllanishidan manfaatdor ekani shubhasizdir"¹. Rivojlangan G'arbning jamiyat hayotining siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy – mafkuraviy sohalariidagi yutuqlari kam rivojlangan, endi rivojlanayotgan mamlakatlarga nisbatan olib borayotgan siyosatida o'z aksini topishida turli yo'nalishlarda faoliyat yurituvchi xalqaro uyushmalar, tashkilotlar muhim ahamiyat kasb etadi: Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Xalqaro valyuta jamg'armasi, Jahon banki, YUNESKO, YUNISEF, Xalqaro mehnat tashkiloti, Jahon savdo tashkiloti, "Katta yettilik", Yevropa Ittifoqi, Sbanhay Hamkorlik Tashkiloti, BRIKS, ASEAN va sh.k (to'liq ma'lumot olish uchun izohli lug'atga murojat qiling).

4. Globallashuvning namoyon bo'lish sohalari. Insoniyat kishilik jamiyati rivojining mutlaqo yangicha mazmun-mohiyat kasb etadigan davriga qadam quydi. Bu davrda jahon mamlakatlari o'rtasidagi siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-madaniy aloqalar har qachongidan shiddat bilan kuchaymoqda. Oqibatda yuzaga kelgan globallashuv jarayonlari o'z ta'sirini o'tkazmagan bironta soha qolmadi. Jumladan globallashuv jamiyatning hayotining ma'naviy–mafkuraviy,

¹ Umarov B. Globallashuv ziddiyatlari: iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy jihatlari. – T.: Ma'naviyat, 2006, 11-12 bet.

demografik sohalariga ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda va yaqqol ko'zga tashlanmoqda. O'z paytida birinchi Prezidentimiz Islom Karimov shunday yozgan edi: globallashuv «... hozirgi sharoitda mavkuraviy ta'sir o'tkazishning nihoyatda o'tkir quroliga aylanib, har xil siyosiy kuchlar va markazlarning manfaatlariga xizmat qilayotganini sog'lom fikrlaydigan har odam, albatta, kuzatishi muqarrar»¹.

Jamiyat hayotining turli sohalarida globallashuv jarayonlari qanday yo'nalishlarda sodir bo'lmoqda degan savolga javob izlaganda quyidagilarni ta'kidlash o'rinli bo'lardi.

Hokimiyatning globallashuvi-barcha xalqlarni o'zida birlashtirishni maqsad qilib qo'ygan, aslida hokimiyat bir hovuch gegemonlar qo'lida bo'ladigan «jahon saltanati» ni barpo etishga intilish. Bu hokimiyat aslida yirik moliya oligarxlari, transmilliy korporatsiyalar manfaatini ifoda etadi.

Siyosiy globallashuv- davlat vakolatlarining katta qismini transmilliy korporatsiyalarga, iqtisodiy birlashmalarga berishni targ'ib qilgan holda muayyan hududdagi milliy davlatchilik «gegemonligi» ga barham berishni ifoda etuvchi mafkuraviy jarayon.

Iqtisodiy globallashuv- transmilliy korporatsiyalar, yirik moliya guruhlari tomonidan jahonni yagona bozorga aylantirish va shu tarzda unda o'z tanho hukmronligini o'rnatishga intilish.

Madaniy soha globallashuvi - ommaviy madaniyatning rivojlanishi, ayniqsa, musiqa, kino, teatr, shou-ko'rsatuvlar, kiyinish, ommaviy-axborot vositalari faoliyatlarining bir xillashuvi, turli xalqlar madaniyatining o'zaro ta'siri, bir-birini boyitishi tufayli madaniyatlararo aloqalarning mustahkamlanishi va yangi zamonaviy an'analarning shakllanishi va h.k.lar.

Ma'naviy-mafkuraviy jarayonlarning globallashuvi - milliy bag'rikenglikni, millat hayotining ahioqiy asoslarini, uning milliy o'ziga xosligini rad etuvchi mondializm g'oyalarini tantana qillishini ta'minlashga asoslanadi.

Demografik globallashuv - «global etnos» ning shakllanishini ta'min etish yo'lida turli xalqlarning assimilyatsiyasini, ularning aralashib ketishini ifoda etuvchi mudhish hodisa. Lekin u bir qator obektiv sabablar bois kun sayin kuchaymoqda: iqtisodiy aloqalarning kuchayishi; aholi migratsiyasi; madaniyat, fan, ta'lim sohasidagi hamkorlik; urbanizatsiya; turli millat va irq vakillari

¹ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. 113-bet

o'rtasidagi nikoh va sh.k. Ba'zi tadqiqotlarda XXI asr oxiriga borib yevropoid irq sifatida tugab dunyoda ikkita irq qolishi taxmin etilmoqda.

Texnologiya sohasidagi globallashuv dunyo miqyosida mahsulotlar ishlab chiqarishni monopollashtiruvchi moliyaviy jarayonlarni keltirib chiqarayotganligi, xalqaro maydonda moliyaviy kompyuter tarmog'i orqali dunyoning bir burchagidan boshqasiga istalgan miqdorda mablag'ning o'tkazilishi, xalqaro maydonda raqobatni rivojlantiruvchi metatexnologiyalarning rivojlanishi (kosmik yo'ldosh, kompyuter, uyali telefon, internet va h.k.) bilan belgilanadi.

Globallashuvning shu tarzda jadal suratlar bilan yuz berayotgan bunday sharoitda biz yoshlarimiz ongida dunyoning siyosiy-mafkuraviy manzarasini, unda kechayotgan g'oyaviy kurashlardan ko'zlangan tub maqsad-manfaatlarning asl qiyofasini ochib berish, yoshlarga mustaqillikni mustahkamlash, jamiyat hayotining turli sohaslarida amalga oshirilayotgan islohotlarning tub mohiyatini yoritib bergan holda ulardagi Vatanga sadoqat tuyg'ularini yanada mustahkamlash, yoshlarda tarixiy xotira, madaniy merosga hurmat, milliy o'zlikni anglash tuyg'ularini mustahkamlagan holda ularda o'z kuch va imkoniyatlariga tayanib yashash hissini shakllantirish, yoshlarda ma'naviy-mafkuraviy tahdidlarga, "ommaviy madaniyat" niqobi ostidagi turli xil hatti-harakatlarga nisbatan doimo ogoh, sezgir va xushyor bo'lish ko'nikmalarini shakllantirish kabi muhim vazifalarga asosiy e'tiborimizni qaratishimiz lozim.

Tayanch so'z va iboralar

Globallashuv, integratsiya, global muammo, geografik kashfiyotlar, ommaviy madaniyat, ma'naviyat, globalistlar, antiglobalistlar, ma'naviy tahdid, milliy ong, milliy meros, hokimiyatning globallashuvi, siyosiy globallashuv, iqtisodiy globallashuv, ma'naviy-mafkuraviy jarayonlarning globallashuvi, demografik globallashuv.

Takrorlash uchun savollar

1. "Globallashuv" tushunchasi, mazmun va mohiyatini qanday tushunasiz?
2. Globallashuvning asosiy xususiyatlari va namoyon bo'lish sohalari haqida nimalar bilasiz?
3. Globallashuvning vujudga kelishi tarixi qanday jarayonlar bilan bog'liq?

4. Globallashuv, global muammo, integratsiya atamalarining mohiyati nimadan iborat?
5. Globalistlar va aksiglobalistlar kim?
6. Globallashuvni ta'min etuvchi vositalar tizimi haqida nima bilasiz?

3-§. GLOBALLASHUV JARAYONINING MA'NAVIYAT RIVOJIGA TA'SIRI VA UNING OQIBATLARI.

Reja:

- 1. Globallashuv sharoitida ma'naviyat.**
- 2. Globallashuv to'liqlari va uning asosiy davrlari.**
- 3. Globallashuv sharoitida ta'lim-tarbiya tizimi oldidagi vazifalar.**

1. Globallashuv sharoitida ma'naviyat. XX asr oxiri - XXI asr boshlariga kelib globallashuv jarayonlari yanada avj oldi, zamonaviy axborot texnologiyalarining bemisl rivoji va yagona jahon axborot maydonining shakllanishi bu jarayonning yangi bosqichga ko'tarilishiga "sivilizatsiyalararo muloqotning yangicha sifat kasb etishi"ga olib keldi.

Jamiyat hayotining turli sohalarida keskin namoyon bo'lishi siyosatga doir ilmiy adabiyotlarida "globallashuv fenomeni" deb nomlanmoqda. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" kitobida bu hodisa oddiy qilib "hayot sur'atlarimig beqiyos darajada tezlashuvi" deb tushuntiriladi¹. Albat, bu jarayondan ma'naviyat ham chetda qolgan yo'q. Bashariyat taraqqiyotidagi bunday o'zgarishlarni uzil-kesil "yaxshi" yoki "yomon" deb, salbiy yoki ijobiy hodisa sifatida baholab bo'lmaydi. Uzoq tarix tajribasi shunday guvohlik beradiki har qanday taraqqiyot mahsulidan ikki xil maqsadda – ezgulik va yovuzlik yo'lida foydalanish mumkin. Ma'naviyat borasida gap ketganida ba'zan globallashuvning faqatgina eng asosiy jihatlari va yo'nalishlarini ham qamrab olish qiyim. Ma'naviyatni ham bir uyga to'plangan boylikka qiyoslasak, tashqaridan kirayotgan shamol uy ichidagi narsalarni ostin-ustin qilib tashlashini hech bir xonadon sohibi istamaydi. Huddi shu kabi biz ham yot g'oyalar, oqimlar va mafkuralar ma'naviyatimizga salbiy ta'sir o'tkazishiga qarshi himoya choralari ko'rishimiz tabiiy. Chetdan o'tkaziladigan mafkuraviy ta'sirga qarshi himoya choralari ko'rishdan avval qanday ta'sirlarni ma'qullash

¹ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. 111-bet.

lozimu, qandaylarini rad etish kerakligini aniqlab olish lozim. Hozirgi kunda birorta ham milliy ma'naviyat yo'qki, u boshqa xalqlar ma'naviyatidan to'la holi bo'lsa. Hatto, Avstraliya chakalakzorlari, Afrika savannalari va Janubiy Amerika changalzorlarida turmush kechirayotgan qabilalar ham qo'shni qabilalar va zamonaviy tamaddun ta'sirini o'zida his qilib turadi. Qolaversa tarixni tahlil qilish boshqa xalqlar ma'naviyatidan bahramand bo'lgan xalqlar ma'naviyati yuksakliklarga ko'tarilganidan guvohlik beradi.

Markaziy Osiyo xalqlari madaniyati va ma'naviyati ham Sharq va G'arbni tutash tirgan karvon yo'llarida joylashgani sababli ham Sharq, ham G'arb madaniyatidan bahramand bo'lgan. Muhimi shundaki, xalqimiz G'arb va Sharq ma'naviyatidan bahramand bo'lib ularning ijobiy tomonlarini o'zlashtiribgina qolmay, ularga ijodiy yondashib yangi cho'qqilarga ko'tarishdi. Bu fikrning tasdig'ini ma'naviyatning tarkibiy qismlari bo'lgan ilmiy bilimlar, diniy e'tiqod, san'at misolida ham ko'rish mumkin. Faqat Vatanimiz emas, umumjahon madaniyati tarixidan mustahkam o'rin egallagan allomalarimiz ijodi ham shu fikrni tasdiqlaydi. Ana shunday ajdodlarimizdan biri Abu Rayhon Beruniy Xitoy va Hindiston, Yunoniston va Rim falsafasining durdonalarini, tabiiy fanlardagi yutuqlarini chuqur o'zlashtirgan edi. Hindistonda bo'lgan paytida u hind fani va madaniyatini o'rganar ekan, qadimgi manbalarni o'rganish uchun qadimgi hind tili-sankritni bilish lozimligini anglaydi. U sanskritni o'rganishga kirishadi va qisqa fursatda uni chuqur o'zlashtiradi. Endi qadimgi hind madaniyati va fanini asl manbalardan o'rgana boshlaydi. U shuningdek, yunon - Rim madaniyati va fanini o'rganish uchun yunon, lotin hamda qadimgi yahudiy tillarini chuqur o'rgangan edi. Jahon falsafasi, madaniyati tarixida chuqur iz qoldirgan Abu Nasr Forobiy ham o'nlab tillarni bilgan va o'nlab xalqlar madaniyati va ma'naviyatini chuqur o'rgangan. Bunday misollarni juda ko'plab keltirish mumkin. Eng muhim jihati shundaki, o'sha buyuk ajdodlarimiz jahon xalqlari ma'naviyatini o'rganibgina qolmay, ularni chuqur tahlil qilishdi, tegishli jihatlarini o'zlashtirib, rivojlantirib olamshumul kashfiyotlarni ochishdi. Qayd etib o'tilgan qator ajdodlarimizning ilmiy faoliyatlari tahlili shundan dalolat beradiki, ular jahon xalqlari madaniyatiga, ilmiy merosiga, ma'naviyatiga hurmat bilan qarash, kerakli joylarini o'rganib, ijodiy rivojlantirish orqaligina ma'naviyat cho'qqisiga erishish mumkin.

Yoshlar ma'naviy olamiga ta'sir o'tkazayotgan yoki ta'sir o'tkazmoqchi bo'layotgan g'oyalarning qay birini qabul qilish va qay birini rad etish

lozimligini aniqlash uchun jiddiy tahlil lozim. Shunday g'oyalar borki, ularni xalq ochiq chehra bilan qabul qiladi. Shunday g'oyalar ham borki, ularni millat ongidan qanday joy olgani sirli bo'lib qoladi. Ezgu g'oyalar milliy ma'naviyatni boyitishga, rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu umuminsoniy ezgu-g'oyalardir. Chunki, milliy ma'naviyatlar o'zaro ta'sir jarayonida rivojlanadi. Har qanday xalq ma'naviyati rivojiga nazar tashlansa uning boshqa xalqlar udum va an'analarini qanchalik o'zlashtirib va rivojlantirib borganini ko'rish mumkin.

O'zbek milliy ma'naviyati ham uzoq va yaqindagi qo'shni xalqlarning ilg'or an'analarini o'zlashtirish natijasida boyib bordi. Ma'naviyatimizning rivojlanish tarixini kuzatsak, bunga yana bir bor ishonch hosil qilishimiz mumkin. XX asr boshlaridagi o'zbek madaniyati va ma'naviyati va uning asr oxiridagi holati o'rtasida ancha jiddiy tafovut bor. Bu tafovutni adabiyot, san'at, fan, hatto oddiy yurish-turish va kiyim-kechak, turmush sohalarida ham kuzatish mumkin.

XX asr boshida o'zbek adabiyotida dramaturgiya janri hali shakllanmagan edi. Demak milliy teatr san'ati to'g'risida so'z ham yuritish mumkin emas edi. Munavvar qori Abdurashidxonov, Mahmudxo'ja Behbudiy, Fitrat singari ma'rifatparvarlarning say-harakatlari tufayli dramaturgiya shakllana boshladi va keyinroq teatr san'ati vujudga keldi. O'sha paytlarda teatr san'atini o'zbek millati uchun yot, begona g'oya deb e'lon qilganlar oz emas edi. Dramaturgiya va teatrnı rad qilish faqat dahanaki tanqid bilan chegaralanmagan. San'atning bu turlarini O'zbekistonga olib kirishga harakat qilayotgan insonlarni mazax qilish, masxaralash, hatto sazoyi qilish o'zlarini milliy ma'naviyat himoyachilari deyuvcilar tomonidan amalga oshirilgan edi. Hamma narsa uchun oliy hakam hisoblanadigan vaqt esa, teatr san'ati milliy ruhiyatimiz va ma'naviyatimizga yot, deyuvcillarning o'zları milliy ma'naviyat rivojiga g'ov bo'lganini ko'rsatdi. Qolaversa jadidlar faoliyat ko'rsatgan davrda aholining katta qismi savodsiz bo'lgani bois ular ongiga ta'sir qilishning birdan-bir yo'li ham shu edi. Hozirgi kunda har million kishiga hisoblaganda teatrlar soni bo'yicha O'zbekiston dunyodagi eng ilg'or o'rinlardan birini egallaydi va teatr milliy ma'naviyatimizning uzviy qismiga aylangan.

Milliy kiyimlar ham milliy qadriyatlardan biri hisoblanadi. XX asr davomida ana shu qadriyatimizning ham tadrijini kuzatsak, g'aroyib hodisalarning guvohi bo'lamiz. O'tgan asr boshlarida mahalliy erkaklarning qishki kiyimi telpak yoki etikdan iborat edi. Yozgi kiyim esa do'ppi, ko'ylak

yoki yaktak, oq lozim va shippak yoki kavishdan iborat edi. Kiyinish madaniyati milliylik asragan holda yuksaldi. Lekin "ommaviy madaniyat" ta'siri ostida kirib kelayotgan mentalitetimizga zid bo'lgan yengil, ochiq kiyimlarni qabul qilib bo'lmaydi.

Tariximiz ilm-fan, din, san'at sohasida yurtimizda yetishib chiqqan allomalar butun dunyoga dong taratganidan, demakki butun dunyo ma'naviyatiga katta ta'sir o'tkazganidan guvohlik beradi. Abu Nasr Forobiy jahon falsafasi rivojiga sezilarli hissa qo'shgan bo'lsa, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Az-Zamaxshariy, al-Xorazmiy, Mirzo Ulug'bek singari allomalarimiz jahon fanini yangi pog'onalarga ko'tarishdi. Ismoil Buxoriy, at Termiziy, Moturidiy, Abduxoliq G'ijduvoniy, Bahovuddin Naqshbandiy, Ahmad Yassaviylar esa, Hadis, kalom, fikh ilmlari va tasavvufda porloq yulduzlar hisoblanishadi. Buyuk ajdodlarimizning islom madaniyati takomiliga qo'shgan hissasi xususida fikr bildirar ekan Sh.Mirziyoyev shunday degan edi: "Ma'lumki, bizning mintaqamiz, avvalambor, bugungi O'zbekiston zamini islom ilm-fani va madaniyatining qadimiy beshiklaridan biri hisoblanadi.

Xalqimizning ana shunday boy tarixiy, ilmiy, ma'naviy merosini har tomonlama o'rganish, jahon afkor ommasiga keng tanishtirish, eng muhimi, islom dinining asl insonparvarlik mohiyatini chuqur ochib berish maqsadida biz azim poytaxtimiz Toshkent shahrida O'zbekistondagi Islom madaniyati markazini barpo etishga qaror qildik"¹.

Sho'rolar davrida milliy qadriyatlarimizni dunyoga yoyish u yoqda tursin o'z yurtimizda qadrlash uchun ham yo'l berilmadi, ko'pchilik qadriyatlarimiz esa toptaldi. Mustaqillikka erishganimizdan keyin o'sha toptalgan qadriyatlarimizni tiklash imkoniga ega bo'ldik. Bundan tashqari milliy qadriyatlarimizni targ'ib qilish imkoniga ham ega bo'ldik. O'zbek milliy kurashini dunyoga yoyish bo'yicha qilingan ishlar, dunyoning ko'pchilik mamlakatlarida o'zbek kurashi federatsiyalarining tuzilishi buning yaqqol misoli. Dunyo bugun O'zbekistonni milliy-madaniy merosi, boy tarixi, tili, madaniyati, urf-odat va an'alarining umuminsoniy g'oyalar bilan mujassamligi, san'at va arxitektura, fan va madaniyat sohasida erishayotgan yutuqlari orqali ham kashf etmoqda. Demak, biz globallashuv jarayonida passiv qabul qiluvchi tomonga bo'lmay, faol targ'ib qiluvchilarga ham aylanishimiz mumkin.

¹ Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. -Toshkent: "O'zbekiston" NMIU,2017 -468-b.

2. Globallashuv to'liqlari va uning asosiy davrlari. "Globallashuv" atamasi dastlab XX asrning 80-yillarida iqtisodiy sohada sodir bo'lgan o'zgarishlarni yuzaga keltirgan omil sifatida amerikalik olim T.Levittning 1983 yilda "Garvard biznes revyu" jurnalida e'lon qilgan maqolasida qo'llanilgan edi. Bu omil iqtisodiy munosabatlarni tartibga solish, tovarlarga qo'yiladigan standartlarni belgilash, mahsulotlar hajmi, valyutalar ekvivalentini belgilab olish bilan bog'liq edi. Orada qisqa vaqt o'tgach globallashuvni jahon iqtisodiyotini tartibga solish, unda yagona standartlarni joriy qilishga yetaklovchi omil sifatida tahlil qilish boshlandi¹. Bu tushunchaga ana shu paytdan boshlab, to hozirgacha turlicha qarashlar, turlicha ta'rif berish davom etib kelmoqda.

Shunday bo'lsada globallashuv atamasi amaliy hodisa sifatida uning qator xususiyatlari uzoq tarixga borib taqaladi. Insoniyatning ijtimoiy mehnat taqsimotiga asoslangan ishlab chiqarishga o'tishi, mehnat taqsimoti, turli gigant qurilishlarni hamkorlikda amalga oshirishi, mudofaani yo'lga qo'yishda turli urug' jamoalarining birlashuvi natijasida har bir urug'ga xos bo'lgan belgilar muhim bo'lmasdan qoladi. Ikkinchi tomondan esa dastlabki yirik davlatlarga asos solinishi, saltanatlar tashkil etilishi, ularni boshqarishda umumiy qoidalarning ishlab chiqilishi (Ahamoniylar saltanati, Makedoniyalik Aleksandr saltanati, Qadimgi Rim va sh.k.) turli regionlar aholisining urf-odatlarida, madaniyatida umumiylikning vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Ko'rinib turidiki bu davrni globallashuv yuz berishining dastlabki namunalari sifatida baholash mumkin.

Globallashuv ro'y berishining ikkinchi muhim davri geografik kashfiyotlar davridir. Fanda Buyuk geografik kashfiyotlar atamasi XV asr oxiri – XVIII asr o'rtalarida yevropalik sayyohlar tomonidan amalga oshirilgan yirik geografik kashfiyotlarga nisbatan ishlatiladi. Aslida qanday omillar XV asr oxiridan boshlab buyuk geografik kashfiyotlarning amalga oshirilishiga sabab bo'lgan edi?

Birinchidan, XV asr oxiri – XVI asr boshlariga kelib Yevropada tovar ishlab chiqarish yuqori sur'atlarda o'sa boshladi. Bu esa xom ashyoga, yangi bozorlarga, ishchi kuchiga bo'lgan talabni oshirib yubordi. Yevropaning o'zida xom ashyo kam bo'lganligi uchun uni faqat boshqa o'lkalardan olib kelish zaruratga aylandi.

¹ Qarang: <http://www.Wordwidewar>

Ikkinchidan, yangi davr hukimron tabaqalarning boylikka, pulga bo'lgan ehtiyojini yanada orttirib yubordi. Endi ularning ongini o'zga yurtlarning oltin-kumushlarini va boshqa qimmatbaho boyliklarini egallab olish ishtiyoqi chulg'ab oldi.

Uchinchidan, harbiy to'qnashuvlar sabab quruqlikdan va O'rta Yer dengizidan Xitoy va Hindga o'tadigan savdo yo'llari, shu jumladan, Buyuk Ipak yo'li ham xavfli bo'lib qoldi. Bu yo'llar ustidan nazorat Yevropa mamlakatlarining asosiy raqibi Usmonli turklar qo'liga o'tib ketdi. Binobarin, endi yevropaliklar oldida Hindga yangi dengiz savdo yo'llarini ochish tarixiy zaruratga aylandi.

Buyuk geografik kashfiyotlarning ahamiyati. Buyuk geografik kashfiyotlar ilm-fan uchun katta ahamiyatga ega bo'ldi. Uning natijasida geografiya, tarix, etnografiya va okeanshunoslik fanlari yangi xulosalar, ma'lumotlar bilan boyidi. Bundan tashqari, bu kashfiyotlar tufayli yangi dengiz savdo yo'llari ochildi. Bu yo'llar O'rta Yer dengizidan Atlantika okeaniga ko'chdi. Bu esa, o'z navbatida, jahon savdosini vujudga keltirdi. Dastlabki xalqaro savdo kompaniyalari vujudga keldi, dastlabki xalqaro bitimlar, jahon iqtisodiy munosabatlari paydo bo'ldi.

Globallashuvning uchinchi davri sanoat to'ntarishi bilan bog'liq kechdi. Sanoat inqilobining yuz berishi XVIII asrning o'rtalaridan boshlandi. Sanoat inqilobi dastlab to'qimachilik sohasida yuz berdi. Bunga sex ishlab chiqarishining barham topganligi va sifatli matolarga talabning tobora ortib borishi sabab bo'ldi. Bu talabni faqat mashinalar yordamidagina qondirish mumkin edi. 1733-yilda mexanik Jon Key tomonidan to'quv dastgohi ixtiro qilishi bu yo'ldagi dastlabki qadam edi. 1765-yilda Jeyms Xargrivi mexanik urchuq ixtiro qildi. Bu ixtironi u qizining nomi bilan "Jenni" deb atadi. 1767-yilda charxpalak bilan harakatga keltiriladigan yigiruv mashinasi yaratildi. 1784-yilda T.Modsli tomonidan tokarlik dastgohining ixtiro qilinishi nihoyatda katta ahamiyatga ega bo'ldi. 1774-yilda Jon Uilkinson cho'yan bo'lagi markazidan o'q chiqadigan teshik ochishga imkon beruvchi tokarlik dastgohi ixtiro qildi. 1788-yilda dastlabki cho'yan quvurlar yasashga muvaffaq bo'lindi. Shu tariqa sanoat inqilobi oqibatida manufaktura o'rnini fabrika ishlab chiqarishi egalladi. Mehnat unumdorligi tez sur'atlar bilan o'sa boshladi. 1807 yilda dastlabki paroxod, 1814 yilda dastlabki parovoz kashf etildi. Temir yo'llar, stansiyalar, portlar qurilishi jadallik bilan olib borildi. Ayni paytda aholi tarkibida yangi qatlamlar – yollanma ishchilar, sanoat burjuaziyasi, savdo

oligarxlarini, kapital egalari shakllandi. XVIII asr oxiriga kelib Buyuk Britaniya dunyoning birinchi sanoat mamlakatiga aylandi. Buyuk Britaniyada kapitalizm shiddat bilan rivojlana bordi. Ishlab chiqarishning yangi usuli mehnatni tashkil qilish, xo'jalik yuritish, ijtimoiy mehnat taqsimoti qiyofasini, mulkka egalik shaklini keskin o'zgartirib yubordi.

Globallashuvning keyingi davri XX asrning 70-yillariga to'g'ri keladi. Bu jarayon ilmiy–texnologik, transport-kommunikatsion, informatsion sohalaridagi keskin inqilobiy o'zgarishlar bilan bog'liq bo'ldi. Kompyuterlar, dasturlar asosida ishlaydigan mashinalar, internet vujudga keldi. Globallashuv faqatgina iqtisodiy soha bilan chegaralanib qolmasdan jamiyat hayotining siyosiy, ijtimoiy, madaniy, ma'naviy hayotini ham qamrab ola boshladi. Mutaxassislar fikricha, ilmiy-texnik inqilob natijasida insoniyat industrial jamiyatdan postindustrial jamiyatga o'tadi. Bu jarayonning asosiy xususiyatlari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin: ishlab chiqarish jarayonlari kompleks xolatda avtomatlashtirishga o'tilishi; biotexnologiyalarning kuchayishi; energiyaning yangi turlari ustida tinimsiz izlanishlar olib borish va sh.k.

3. Globallashuv sharoitida ta'lim-tarbiya tizimi oldidagi vazifalar.

Globallashuvning shu tarzda jadal suratlar bilan yuz berayotgan bunday sharoitda biz yoshlarimiz ongida dunyoning siyosiy-mafkuraviy manzarasini, unda kechayotgan g'oyaviy kurashlardan ko'zlangan tub maqsad-manfaatlarning asl qiyofasini ochib berish, yoshlarga mustaqillikni mustahkamlash, jamiyat hayotining turli sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlarning tub mohiyatini yoritib bergan holda ulardagi Vatanga sadoqat tuyg'ularini yanada mustahkamlash, yoshlarda tarixiy xotira, madaniy merosga hurmat, milliy o'zlikni anglash tuyg'ularini mustahkamlagan holda ularda o'z kuch va imkoniyatlariga tayanib yashash hissini shakllantirish, yoshlarda ma'naviy-mafkuraviy tahdidlarga, "ommaviy madaniyat" niqobi ostidagi turli xil hatti-harakatlarga nisbatan doimo ogoh, sezgir va xushyor bo'lish ko'nikmalarini shakllantirish kabi muhim vazifalarga asosiy e'tiborimizni qaratishimiz lozim.

Bu boradagi muammolar ta'lim-tarbiya tizimi oldiga bir qator vazifalarni qo'ymoqda:

1. Ta'lim –tarbiya davomida yoshlarga hozirgi davrning globallashuv jarayonini va undan ko'zlangan asl maqsadlarni doimiy ravishda tushuntirish borish.

2. Globallashuv jarayonlarining ijobiy va ayni damda salbiy oqibatlarini anglab yetishlariga erishish.

3. Yoshlarga ma'naviy tarbiya, mafkuraviy bo'shliq, ma'naviy tahdid tushunchalarining mazmun-mohiyatini keng yoritib borish.

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.Karimov ma'naviyatga qarshi turli xurujlar haqida gapirar ekan, ta'kidlab o'tadiki: "Bu haqda gapirganda, faqat bitta millat yoki xalq haqida fikr yuritish masalani o'ta tor tushunish bo'lur edi. Ya'ni, bu o'rinda so'z faqat bizning ma'naviyatimizga qarshi qaratilgan tajovuzlar haqida, azaliy fazilatlarimiz, milliy qadriyatlarimizni ana shunday hujumlardan asrash xususidagina borayotgani yo'q. Muhim ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga ega bo'lgan ushbu muammoni keng miqyosda, dunyoning barcha mamlakatlari va xalqlari hayotiga daxldor masala sifatida o'rganish, tahlil qilish va babolash maqsadga muvofiqdir"¹. Masalaga bunday keng qamrovli yondoshuv kecha yoki bugun paydo bo'lgani yo'q. Muallifning o'zi ham eslab o'tganidek, bizning ulug' ajdodlarimiz barchasi "o'z ijodi bilan nafaqat ikki daryo oralig'idagi xalqlarni, balki butun bashariyat farzandlarini doimo mehr-oqibatli, do'st-birodar bo'lib yashashga" da'vat etib kelganlar.

Prezident ta'kidlaganidek "bizning qadimiy va go'zal diyorimiz nafaqat Sharq, balki jahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo'lgani, bu tabarruk zaminda azal-azaldan madaniy va ma'naviy ildizlari teran, yuksak intellektual salohiyatga ega xalq yashab kelgani, ne-ne buyuk zotlar, olimu ulamolar, siyosatchi va sarkardalar yetishib chiqqani, dunyoviy va diniy ilmlarning umumbashariy sivilizatsiya va madaniyatning uzviy qismiga aylanib ketgani, ayniqsa, islom dini bilan bog'liq bilimlarning tarixan eng yuqori bosqichga ko'tarilishida ona yurtimizda tug'ilib kamolga yetgan ulug' allomalarning xizmatlari beqiyos ekani bizga ulkan g'urur va iftixor bag'ishlaydi"¹.

Butun dunyo xalqlari bir-birini tushunib yashashga intilmog'i lozim. Dushmanlik, g'ayr ko'zi bilan qarash emas, mehr bashariyatni birlashtiradi. Bu ulug' haqiqatni bizning ajdodlarimiz allaqachon anglab yetganlar. Ammo o'zгани tushunish uchun, o'zgaga mehr ko'zi bilan boqish uchun, avvalo, inson o'zligini anglab yetmog'i kerak. O'zligini anglamagan zot hech qachon o'zгани tushunmaydi, uni xolis qabul qilmaydi.

¹ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. 7-bet.

¹ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. 30-bet.

Xulosa sifatida bildirgan ba'zi fikrlarni takrorlash o'rinli bo'lardi. Ta'bir joiz bo'lsa, aytish mumkinki, bugungi zamonda mafkura poligonlari yadro poligonlaridan ham ko'proq kuchga ega. Bu masalaning kishini doimo ogoh bo'lishga undovchi tomoni shundaki, agar harbiy, iqtisodiy, siyosiy tazyiq bo'lsa, buni sezish, ko'rish, oldini olish mumkin, ammo mafkuraviy tazyiqni, uning ta'siri va oqibatlarini tezda ilg'ab yetish nihoyatda qiyin.

Ta'kidlash joizki, globallashuv jarayonining o'ziga xos jihati shundan iboratki, hozirgi sharoitda u mafkuraviy ta'sir o'tkazishning nihoyatda o'tkir quroliga aylanib, har xil siyosiy kuchlar va markazlarning manfaatlariga xizmat qilayotganini sog'lom fikrlaydigan har qanday odam, albatta kuzatishi muqarrar. Shuningdek, milliy urf-odatlarimiz, marosimlarimizga baho bermoqchi bo'lsak, butun insoniyat manfaatlari nuqtai-nazarini, alohida shaxs erkinligi, Vatan va millat manfaatlarini, milliy qadriyatlarimiz majmuini yaxlit uyg'unlikda olib qaramog'imiz talab etiladi. Agar shu uyg'unlikka mohiyatan muvofiq bo'lsa, yoxud loaqal unga zid bo'lmasa, demak, maqbul, ammo insonlararo ziddiyat tug'dirsa, nifoq solsa yoki o'zga shaxs erkinini bo'g'sa, Vatan va millat manfaatlariga zid bo'lsa, demak, maqbul emas. Ammo milliy ma'naviyatimizni qadrlashimiz, uni rivojlantirishga urinishimiz, kimlardir talqin qilmoqchi bo'layotganidek, o'zga xalqlar madaniyatini mensimaslik yoki milliy xudbinlikka berilishni anglatmaydi, balki uzoq yillik qaramlik asoratidan qutulib o'zligimizga qaytish, o'zligimizni anglab yetishga urinishni bildiradi. Chunki har qaysi millat yoki xalqning ma'naviyati uning bugungi hayoti va taqdirini o'sib kelayotgan farzandlarining kelajagini belgilashda shakshubhasiz hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Tayanch so'z va iboralar

Bdunyoning mafkuraviy manzarasi, buyuk davlatchilik shovinizmi, globallashuv, "ommaviy madaniyat", demografik globallashuv, iqtisodiy globallashuv, inson ongi va qalbi uchun kurash, integratsiya, irqchilik, kosmopolitizm, mafkuraviy immunitet.

Takrorlash uchun savollar

1. Markaziy Osiyodagi mafkuraviy jarayonlar qanday yo'nalishlarda namoyon bo'lmoqda?
2. Globallashuv dunyoning universallasuvi ekanini qanday izohlasiz?
3. Globallashuvning asosiy davrlarini izohlang?
4. Globallashuvning milliy taraqqiyotga salbiy ta'siri nimada?

4-§. GLOBALLASHUVNING IJOBIY VA SALBIY JIHATLARI

Reja:

1. Globallashuvning ijobiy tomonlari.
2. Globallashuvning salbiy jihatlari.

1. **Globallashuvning ijobiy tomonlari.** “Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch” kitobida globallashuv va integratsiya jarayonlarining talay ijobiy imkoniyatlari birma-bir sanab o’tiladi. Ularni umumlashtirib aytiladigan bo’lsa, birinchi navbatda turli sohalarida (jumladan, iqtisod, siyosat, madaniyat sohalarida) “Davlatlar va xalqlar o’rtasidagi integratsiya va hamkorlik aloqalarining kuchayishi”ga xizmat qilishi mumkin va darhaqiqat, bunday hamkorlik munosabatlari kundan-kunga kengayib va rang baranglashib borayotganini o’z ko’zimiz bilan ko’rib turibmiz.

Albatta, har bir ijtimoiy hodisaning ijobiy va salbiy tomoni bo’lgani singari, globallashuv jarayoni ham bundan mustasno emas. Hozirgi paytda uning g’oyat o’tkir va keng qamrovli ta’sirini deyarli barcha sohalarida ko’rish, his etish mumkin. Ayniqsa, davlatlar va xalqlar o’rtasidagi integratsiya va hamkorlik aloqalarining kuchayishi, xorijiy investitsiyalar, kapital va tovarlar, ishchi kuchining erkin harakati uchun qulayliklar vujudga kelishi, ko’plab yangi ish o’rinlarining yaratilishi, zamonaviy kommunikatsiya va axborot texnologiyalarining, ilm-fan yutuqlarining tezlik bilan tarqalishi, turli qadriyatlarining umuminsoniy negizda uyg’unlashuvi, sivilizatsiyalararo muloqotning yangicha sifat kasb etishi, ekologik ofatlar paytida o’zaro yordam ko’rsatish imkoniyatlarining ortishi – tabiiyki, bularning barchasiga globallashuv tufayli erishilmoqda. Insoniyatning bugungi kundagi ijtimoiy taraqqiyoti bir necha ming yillikdagi turli xalqlar o’rtasidagi ijtimoiy hamkorlikning natijasidir. 1969 yil 20 iyunda AQSH astronomi Nil Armstrong Apollon-11 kemasida oyga qo’nadi. Kema zinasidan oy sirtiga qadam bosar ekan shunday bir buyuk frazani keltiradi: “Odam uchun kichkinagina bo’lmish bu qadam aslida butun insoniyatning buyuk sakrashidir”¹. Globallashuvning ijobiy jihatlari haqida gap ketganida uning bu jihatlarini quyidagi izchillikda yoritish maqsadga muvofiqdir:

Avvalo, davlatlar, xalqlar o’rtadasidagi integratsiya va hamkorlik aloqalarining kuchayishi. Davlatlarning joylashgan o’rni, hududining fizik

¹ https://ru.wikipedia.org/wiki/Armstrong_Nil

xususiyatlari, biologik-geografik imkoniyatlari, o'simlik va hayvonot dunyosi turlicha ekan bu ne'matlardan keng foydalanish hissi hamkorlikning asosini tashkil etdi. Shakarqamish, paxtaning vatani Hindiston, choyning vatani Xitoy, qoramol, otning vatani Markaziy Osiyo ekani ma'lum. X.Kolumb Amerikani kashf etganidan keyin kartoshka, makkajo'xori va bir qator hayvonlar Yevropa va Osiyoliklarga ma'lum bo'ldi. Qishloq ho'jaligi mahsulotlarini qishga saqlash, qayta ishlash, xo'jalik yuritishning turli usullarini bir-biridan o'zlashtirib borishdi.

Buyuk geografik kashfiyotlar davrida Yaponiya portugal dengizchilari tomonidan yevropaliklar uchun kashf etilgan edi. Yaponiya va Yevropa o'rtasida savdo munosabatlari tez sur'atlar bilan o'sib bordi. Lekin yevropaliklar bu hamkorlik bilangina chegaralanib qolishni istashmadi. Hududda xristianlikni yoyish maqsadida missionerlar ishga solindi. Bu holatni yapon milliy davlatchiligi uchun katta havfni anglagan imperator mamlakatni tashqi dunyo uchun yopiq mamlakat deb e'lon qiladi. Yaponiya 1640 yildan 1853 yilgacha tashqi dunyodan ajralib qoldi. Nihoyat 1853 yilda AQSH kemasi yapon portiga keladi. Motor kuchi bilan harakat qiladigan AQSH kemasi yaponlarni hayratga soladi. Yaponlar tezda Yevropa fani yutuqlarini o'zlashtirishga (Meydzi inqilobi) kirishishdi va yevropaliklar texnikasidan foydalangan Osiyodagi birinchi davlatga aylandi. Bugungi kun misolida fikr bildiradigan bo'lsak avtomobilsozlik, mashinasozlik sohasida yetakchi mamlakatlardan biri hisoblangan Yaponiyada ruda konlari mavjud emas, to'quvchilik sohasidagi yetakchi mamlakatlar Germaniya va Janubiy Koreya paxta yetishtirilmaydi. Mashhur Boing rusumli samolyotni yig'ishda ishtirok etadigan korxonalarining salkam 30 % i (1500 yaqin korxonalar) AQSH dan tashqarida joylashgan. Demak bularning barchasi xalqaro hamkorlik mevasi hisoblanadi.

Ikkinchidan. Xorijiy investitsiyalar, kapital va tovarlar. Bugungi kunda har qanday mamlakat taraqqiyotini hamkorliksiz, xorijiy investitsiyalarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Yuqori texnologiyalar, raqobatbardosh iqtisodiyot rivojlanishining muhim omilidir. Mustaqillikning dastlab yillarida sobiq ittifoqdan qolgan meros hammamizga ma'lum. Eng avvalo, bizga mo'rt, zaif, bir yoqlama rivojlangan, paxta yakkahokimligi va boy mineral-xom ashyo resurslaridan nazoratsiz, ayovsiz foydalanish asosiga qurilgan iqtisodiyot og'ir meros bo'lib qolganini aytish lozim.

Iqtisodiy rivojlanishning xom ashyoviy yo'nalishini, xom ashyoni oddiy - sodda qayta ishlash quvvatlarining ibtidoiy darajasini, ishlab chiqarishning chetdan keltiriladigan texnologik asbob-uskuna va butlovchi qismlarga butkul qaramligini hisobga olsak, bu og'ir merosning noqobil jihatlarini yanada yorqin namoyon bo'ladi.

Bu og'ir merosning yana bir xususiyati - respublikaning yoqilg'i va g'alla masalasida markazga qaramligida, un, shakar, go'sht, sut mahsulotlari kabi eng muhim oziq-ovqat mollarining, boshqa xalq iste'moli tovarlarining, tayyor mahsulotlarning chetdan olib kelinishida yaqqol ko'rinadi. Mustaqillikning dastlab yillarida ushbu muammolarni tezda hal etish vazifasi turar edi. Mamlakatimizning tabiiy-geografik, iqtisodiy imkoniyatlaridan ratsional foydalanish - qishloq xo'jaligida ilg'or texnologiyalarni joriy etish, suvdan unumli foydalanish, xom ashyoni qayta taayyorlovchi korxonalar majmuasini yaratish, tabiiy zahiralarni izlab topish va uni qayta ishlash ilg'or chet el texnologiyalarini, investitsiyalarini taqazo qilar edi. Shu sababli iqtisodiy islohotlarni muhim ustuvor yo'nalishi sifatida tarkibiy islohotlar va iqtisodiyotni modernizatsiyalashini yanada chuqurlashtirish, uning ko'lamini kengaytirish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun zarur sharoitlarni yaratishga alohida e'tibor berildi.

Shular qatorida ilgari chetdan olib kelinadigan ko'pgina tovarlar o'rniga o'zimizda qurilgan zamonaviy korxonalarda mahalliy xom ashyo asosida sifatli, eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishning yo'lga qo'yilgani, ularning hajmi va miqdorining ko'payishi — bularning barchasi xorijiy investitsiyalar kelishining keskin ko'payishiga, iqtisodiyotimizda tarkibiy o'zgarishlarga, inflyatsiyaning jilovlanishiga, oltin-valyuta zaxiralarimizning ortib borishiga olib keldi.

Uchinchidan, ishchi kuchining erkin harakati uchun qulayliklar vujudga kelishi, ko'plab yangi ish o'rinlarining yaratilishi bilan bog'liq. Bunga xalqaro miqyosda qonunchilik hujjatlarining keng joriy etilishi, mamlakatlar o'rtasidagi o'zaro kelishuv imkoniyat yaratib bermoqda.

To'rtinchidan, zamonaviy kommunikatsiya va axborot texnologiyalarining keng rivojlanishi ro'y bermoqda. Dunyoning istalgan joyida har qanday yangilik, kashfiyotlar tez muddatda dunyoning ikkinchi bir burchagida sodir bo'lmoqda. Global kommunikatsiya tarmog'ining vujudga kelganligi, axborotlar almashinuvining tezlashuvi inson manfaatlarini uchun ijtimoiy-iqtisodiy sohalarida ixtiro va tadqiqotlarni yuqori sur'atlar bilan o'sishiga olib

keldi, yoki bu ham jamiyatning global axborotlashuvi ilmiy-texnik, iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotining o'zagini tashkil etmoqda.

Beshinchidan, ilm-fan yutuqlarining tezlik bilan tarqalishi, turli qadriyatlarining umuminsoniy negizda uyg'unlashuvi. Nyuton, Bel, Lazer, Rentgen, Pavlov singari olimlarning amalga oshirgan kashfiyotlaridan jahon aholisi birdek manfaatdor bo'lmoqda.

Oltinchidan, Sivilizatsiya taraqqiyot imkoniyatlarini kengaytiradigan jihatlar qatorida insoniyat hayot faoliyatining o'ta muhim tarmoqlarida xalqlar va davlatlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi turli xalqaro tizimlarning paydo bo'lishi, tamadduniy muammolarni hal etish, mamlakatlarning umunjahon tartibot asosida yagona xamjamiyatiga integratsiyalashuv imkonini beradi. (BMT, YUNESKO, MAGATE, Interpol, SHXT, Jahon banki kabi tashkilotlar faoliyatlarini).

XX asrdagi zamonaviy ilm-fan yutuqlari odamlar tasavvurini keskin o'zgartirib yubordi. Respublikamiz intellektual salohiyati XXI asrga kelib jahondagi ko'pgina rivojlanayotgan mamlakatlardan ilgari ketdi. Olimlarimiz buyuk bobolarimizning ilmiy merosini o'zlashtirib, tarixiy merosimizni chuqur o'rganib, dolzarb muammolarni tadqiq qilishga dadil kirishib, o'z mehnatlari bilan Respublikamiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojiga hissa qo'shmoqdalar. Respublikamizda quyidagi yo'nalishlar bo'yicha jahon darajasidagi ilmiy maktablar yaratilgan:

1. Matematika, ehtimollar nazariyasi, tabiiy va ijtimoiy jarayonlarni matematik modellash, informatika va hisoblash texnikasi. Astronomiya sohasida qadim zamonlardayoq qator kashfiyotlar yaratilgan (Ahmad Farg'oniy, Beruniy, Ulug'beklarning kashfiyotlari).

2. O'zaro hamkorlikda sanoat usulida o'zlashtirish uchun yaroqli bo'lgan mineral xom ashyo zahiralarning hosil bo'lishiga olib keladigan geologik jarayonlarning qonuniyatlarini o'rganish bilan bog'liq tadqiqotlar.

3. Molekulyar genetika, gen-hujayra injeneriyasi, biotexnologiya sohasidagi tadqiqotlar. Bular mikrobiologiya sanoatida, atrof-muhitni muhofaza qilishda fan-texnika taraqqiyotini ta'minlashning zarur omilidir. Respublikada organik va noorganik kimyo, o'simlik moddalari kimyosi, biologiya va genetika, biotexnologiyalarni yaratish sohasida ilmiy maktablar shakllandi va rivojlandi.

4. Moddalarning kompleks fizikaviy-kimyoviy xossalarini o'rganish bilan bog'liq tadqiqotlar yo'lga qo'yilgan. O'zbekiston radiatsion materialshunoslik va geliomaterialshunoslik kabi yo'nalishlarda butun dunyoda e'tirof etilgan

ustunlikka ega. O'zbekistonda yuqori energiyalar fizikasi sohasida ilmiy maktab vujudga keldi.

5. Yangicha yondashuvlar asosida jahon va mamlakatimiz tarixi, O'zbekistonning madaniy va ma'naviy merosi, o'zbek tili va adabiyotining tarixiy rivojlanishi tadqiq etilmoqda.

Insoniyat tarixi – XXI asrga qadam qo'ydi. Globallashuv tufayli qisqa muddatda insoniyat shu qadar yutuqlarga erishdi. Bu yutuqlarni ilgari insoniyat asrlar, ming yillar mobaynida amalga oshira olmagan edi.

2. Globallashuvning salbiy jihatlari. Ko'rib chiqqanimizdek hozirgi zamon globallashuvining jarayoni o'ta murakkab jarayon. Uning turli mamlakatlar iqtisodi, siyosati va ma'naviyatiga o'tkazayotgan ta'siri yana ham murakkab. Yuqorida globallashuvning jamiyat hayotining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy sohalariga ta'sir qiladigan ijobiy jihatlari bilan tanishdik. Lekin bu hodisaning ikkinchi bir tomoni ham borki, unga to'xtalmaslikning iloji yo'q. Globallashuvning salbiy jihatlari xususida gap ketganida avvalombor uning siyosiy sohada namoyon bo'lishiga to'xtalsak.

- Siyosiy globallashuv- davlat vakolatlarining katta qismini transmilliy korporatsiyalarga, iqtisodiy birlashmalarga berishni targ'ib qilgan xolda etuvchi mafkuraviy jarayon. Bunday harakatning zaminida yuzaga keladigan xavf-xatarlarga jiddiy razm soladigan bo'lsak, mustamlakachilik siyosati, birovlarini qaram qilish siyosati yangi asrda yo'qolmaganini, balki o'zining shaklu shamoyilini o'zgartirganini tushunib yetamiz¹. Darhaqiqat, «Millat bor ekan, milliy davlat bor ekan, uning mustaqilligi va erkinligiga, an'ana va urf-odatlariga tahdid soladigan, uni o'z ta'siriga olish, uning ustidan hukmronlik qilish, uning boyliklaridan o'z manfaati yo'lida foydalanishga qaratilgan intilish va harakatlar doimiy xavf sifatida saqlanib qolishi muqarrar»².

Suverenitet davlat miqyosida oliy hokimiyatga egalikni, tashqi va ichki siyosatni olib borishdagi to'la mustaqillikni anglatadi. Aynan suverenitet muayyan davlat mustaqilligining birlamchi sharti va belgisidir. Bu esa suverenitetning qisman yoki cheklangan shaklda mavjud bo'la olmasligini anglatadi. Chunki suverenitet davlatning boshqa davlatlarga tobe bo'lmay, qaram bo'lmay yashashini, o'zga kuchlar tomonidan boshqarilmay, birovlarning irodasiga bo'ysunmay, mustaqil hayot kechirishini nazarda tutadi.

¹ Abbosxo'jayev, Umarova N., Qo'chqorov R. Matkura poligonlaridagi olishuv. – T.: Akademiya, 2007 yil. 14-15-betlar.

² Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. 3-bet.

Muhimi, davlat suverenitetining o'rnatilishi mamlakatlar o'rtasida tenglik qaror topishini shartlab qo'yadi hamda mutelik, o'zgaralar hisobiga yashash, turli kamsitishlar, ortiqcha ta'zim-tavozega yo'l qo'ymaydi. Davlat suvereniteti mustamlakachilikning har qanday shaklini, uning kamsituvchi tabiatini, u taqozo etadigan zo'ravonliklarni inkor etadi¹. Garchi butun dunyo mamlakatlari o'rtasidagi teng huquqlilik jahon hamjamiyati taraqqiyotining tabiiy va zaruriy sharti hisoblansada, ayrim mulohazalar va xatti-harakatlarda hamon imperiyacha fikrlash ta'sirini, davlatlar suverenitetini yemirish istagini ilg'ash qiyin emas.

Globallashuv jarayonlarini tahlil qilgan olimlar bu jarayonlarda davlatning rolini turlicha baholaydilar. Ayrim nazariyalarda globallashuv jarayonida davlatning roli tobora pasayib borishl uqtirilsa, boshqalarida uning o'rni va ahamiyati o'zgarmaydi, deb ta'kidlanadi. Yana bir guruh olimlar esa globallashuv sharoitida davlat bilan davlatlararo tashkilotlar o'rtasida siyosiy hokimiyat qayta taqsimlanib, davlat ularga o'z suverenitetining bir qismini beradi², degan farazlarni ilgari surmoqda. To'g'ri, davlat har qanday xalqaro tashkilotga o'ziga tegishli vakolatning bir qismini beradi. Lekin bu jarayonning obektivligi, muttasil davom etishini doimo esda tutish lozim. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov tomonidan e'tirof etilganidek, "O'zbekistonni olib borayotgan mustaqil siyosatdan qaytarish, kimgadir qaram qilish maqsadida chetdan turib ichki ishlarimizga aralashish, turli niqoblar ostida bizga qarshi tazyiq va zo'ravonlik o'tkazish siyosatini mutlaqo qabul qilmaymiz"³.

Shunday ekan, turli mazmundagi xalqaro tashkilotlar bilan bo'ladigan turli mazmundagi hamkorlikning xarakteriga e'tiborni kuchaytirish lozim. Ikkinchidan, esa xalqaro tashkilotga o'tadigan vakolatning milliy suverenitetga qay darajada ta'siri bo'lishi ehtimolini tahlil etish lozim. Mamlakatimiz tashqi siyosatining asosiy tamoyillariga, xalqaro huquqning to'laqonli a'zosi sifatidagi xatti-harakatlarga tazyiq o'tkazmasligi zarur. Globallashuv namoyon bo'lish sohasiga qarab uning salbiy tomonlarini quyidagicha tahlil etish lozim.

- Iqtisodiy jarayonlarning globallashuvi. Globallashuvning kuchli to'lqinlari ishlab chiqarish, savdo, kapital, investitsiyalar sohasida kuzatilmoqda. Iqtisodiy jarayonlarning globallashuvi deyilganda transmilliy

¹ Abbosxo'jayev, Umarova N., Qo'chqorov R. Mafkura poligonlaridagi olishuv. – T.: Akademiya, 2007, 16-het.

² Udovik S.L. Globalizatsiya: semanticheskiye podxodi. – M.: Vakler, 2002. s. 389.

³ Karimov I.A. Inson, uning huquq va erkinliklari hamda manfaatlari – eng oliy qadriyat. //Xalq so'zi, 2005 yil 8 dekabr.

korporatsiyalar, yirik moliya guruhlari tomonidan jahonni yagona bozorga aylantirish va shu tarzda unda o'z tanho hukmronligini o'rnatishga intilishi nazarda tutiladi. TMK ishlab chiqarishni chetdan keltiriladigan xom ashyo bilan ta'minlash, xorijiy mamlakatlarda tarmoqlar tashkil etish orqali mavqeini mustahkamlash, mahsulot ishlab chiqarish harajati kamroq bo'lgan mamlakatlarda barpo etish, jahon bozorlarini domiy nazoratda ushlab turadigan moliyaviy strategiya asosida ish yuritish kabi tamoyillar asosida faoliyat yuritgan.

- Ma'naviy-mafkuraviy jarayonlarning globallashuvi - milliy bag'rikenglikni, millat hayotining ahloqiy asoslarini, uning milliy o'ziga xosligini rad etuvchi mondializm g'oyalarini tantana qilishini ta'minlashga asoslanadi. Mondializm konsepsiyasi «Sovuq urush» tugashi arafasida paydo bo'ldi. Mondializmning mazmun-mohiyati davlatlar, millatlar, madaniyatlarning turli-tumanligidan planetar miqyosdagi integratsiyaga, One World - Uniform dunyoga o'tishni targ'ib qiladi. Mondialistik tashkilotlar - Xalqaro munosabatlar bo'yicha Sovet, Bilderberg klubi, «Uchtomonlama komissiya» yoki «Trilateral» (Trilateral).

- Demografik globallashuv- «global etnos» ning shakllanishini ta'min etish yo'lida turli xalqlarning assimilyatsiyasini, ularning aralashib ketishini ifoda etuvchi muhim hodisa. Yuqorida qayd etib o'tilganidek xalqlar o'rtasida hamkorlikning keskin o'sishi, migratsiya, chet elda olish singari holatlar sabab aholining aralashib yashashini, turli irqar vakillari o'rtasidagi nikohni ta'min etmoqda. Bunga asos bo'ladigan omillarni ko'plab keltirish mumkin.

Globallov jarayonining yana bir o'ziga xos tahdidi shundan iboratki, hozirgi sharoitda u mafkuraviy ta'sir o'tkazishning nihoyatda o'tkir quroliga aylanib, har xil siyosiy kuchlar va markazlarning manfaatlariga xizmat qilayotganini sog'lom fikrlaydigan har qanday odam, albatta, kuzatishi muqarrar. Globallov sharoitidagi axborot almashuvining tezlashishi va erkinlashishi (Internet, tv, radio va sh.k.) jamiyatning madaniy-ma'naviy sohalariga ta'sir o'tkazib, ulardagi muayyan o'zgarishlarga olib keladi, ularning ma'naviy-axloqiy, psixologik qiyofasiga jiddiy ta'sir o'tkazib yoshlarning vatanga, otanaga bo'lgan muhabbat oila muqaddasligi hamda kattalarga bo'lgan hurmat xis-tuyg'ularning yo'qolishiga olib kelishi;

- umumtamadduniy globallov jamiyatning madaniy-ma'naviy sohalariga ta'sir o'tkazib, ulardan muayyan o'zgarishlarga olib keladi, milliy an'anaviy va qadriyatlarining yo'qolib ketishiga milliy madaniyatlarning kam sonli

xalqlarning o'z tilini unutishi, hattoki yo'qolib ketishi holatlarini yuzaga keltirishi :

- globallashuv jarayoni va ularning yo'nalishlaridan biri bo'lgan "ommaviy madaniyat" ta'sirida sodir bo'ladigan qadriyatlar tizimidagi tub o'zgarishlar "ijtimoiy mavjudot" bo'lgan insondagi o'zgarishlarga "ommaviy ma'daniyat" kishiga insoniylik, shaxs martabasini beradigan milliy ma'daniyat va ma'naviyatidan, tarixiy xotirasidan mahrum etishiga olib kelishi;

- globallashuv jarayonlarining muayyan xususiyatlari ta'sirida sodir bulayotgan ijtimoiy va individual ongdagi destruktiv o'zgarishlarning qayd etilishi, bu xolat individualistik kayfiyatning avj olishi, insonparvarlik tamoyillarining yemirilishi, hayotiy maqsad va tasavvurlarning buzilishida namoyon bo'lmoqda:

- yetakchilikka da'vogar mafkuralarning rivoji, xalqaro tashkilotlar sonining tez sur'atlar bilan o'sishi, manfaatlar yo'lida jahon bozorini egallash, xom ashyo va energiya zahiralardan foydalanish uchun butun dunyoda demokratik boshqaruv tamoyillari niqobi ostida uni joriy etish, inson huquqlarini himoya qilish yoki terrorizmga qarshi kurash niqobi ostidagi xom ashyo zahiralarga boy xududlarga ta'sir o'tkazish, buning oqibatida iqtisodiy o'sishni ko'zlab daromad orqasidan quvish, natijasidagi tabiatga texnogen ta'sirining ortishiga olib kelmoqda.

Tayanch so'z va iboralar

Bu dunyoning mafkuraviy manzarasi, buyuk davlatchilik shovinizmi, globallashuv, "ommaviy madaniyat", demografik globallashuv, iqtisodiy globallashuv, inson ongi va qalbi uchun kurash, integratsiya, irqchilik, kosmopolitizm, mafkuraviy immunitet.

Takrorlash uchun savollar

1. Globallashuvning namoyon bo'lish sohalarini izohlang?
2. Globallashuvning ijobiy jihatlari nimada?
3. Globallashuvning salbiy jihatlari nimalarda namoyon bo'ladi?
4. Siyosiy jarayonlarning globallashuvning mustaqillika tahdidi?
5. Iqtisodiy jarayonlarning globallashuvi va uning milliy manfaatlarimizga zidligi nimada?
6. Demografik jarayonlar globallashuvining milliy ma'naviyatga salbiy ta'siri nimalarda ko'rinadi?

II-BOB. JAMIYAT HAYOTIDA GLOBALLASHUVNING NAMOYON BO'LIH SOHALARI

5-§. IQTISODIY JARAYONLARNING GLOBALLASHUVI.

Reja:

1. Jahon xo'jaligi globallashuvi jarayonining mohiyati.
2. Xalqaro mehnat taqsimotida TMK lar roli.
3. Iqtisodiy globallashuv jarayonining salbiy va ijobiy tomonlari.
4. Globallashuv sharoitida iqtisodiy xavfsizlik va uning mohiyati

1. **Jaxon xo'jaligi globallashuvi jarayonining mohiyati.** Jamiyat hayotining turli sohalarida bo'lgani kabi jahon iqtisodiyotida ham XX-XXI asrlar bo'sag'asida globallashuv degan tushuncha paydo bo'ldi. Hozirgi kunda qayd etib o'tilganidek ushbu tushuncha tarixchilar, iqtisodchilar, texnologlar, faylasuflar, shunidek ko'plab mamlakatlarning hukmron doiralari hamda jamiyat vakillari tomonidan keng muhokama qilinmoqda. Globallashuv tarafdorlari va unga qarshi bo'lganlarning mavjudligi ushbu tushuncha turlicha talqin qilinishini anglatadi. Uning tarafdorlari fikricha, globallashuv iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi, aholi farovonligini oshiradi, yangi ish o'rinlari yaratilishiga imkon beradi. Unga qarshi bo'lganlar esa, savdo ekspansiyasining kuchayishiga, iqtisodiy jinoyatlarning ortishiga (qalbaki mahsulotlar ishlab chiqarish, noqonuniy reyeksport, narkotik moddalar savdosining oshishi va h.k.lar) atrof-muhit ifloslanishiga, texnik xavfsizligiga amal qilmaslikka, bolalar mehnatidan foydalanishga va boshqa noxush hodisalar bilan bog'liq muammolar rivojlanishiga olib keladi deb hisoblaydilar. Umuman olganda globallashuv jarayoni obektiv xarakter kasb etadi, uni to'xtatib bo'lmaydi. Tahlilchilar globallashuv jahon iqtisodiy rivojlanishining u yoki bu ijtimoiy-iqtisodiy, texnologik va ekologik tendensiyalarga qanday ta'sir ko'rsatishini o'rganishlari lozim bo'ladi.

Globallashuv – jahon xo'jaligi rivojlanishining obektiv jarayoni bo'lib, juda ko'p ijobiy xususiyatlarga egadir: bular asosan turli mamlakatlar xo'jaligining o'zaro aloqasi, investitsiyalar, xorijiy sarmoyalarni jalb qilish, ilm – fan texnika texnologiya yutuqlari almashuvini tezlashishni hamda davlatlarni ilmiy texnikaviy taraqqiyotiga ko'maklashuv bilan tasdiqlanadi. Globallashuv — butunjahon iqtisodiy siyosiy, madaniy integratsiya va unifikatsiya (bir birga yaqinlashuv) jarayonidir. Asosiy xususiyatlari xalqaro mehnat taqsimoti,

kapital, ishchi kuchi va ishlab chiqarish resurlarining erkin harakati, qonunchilik, iqtisodiy va texnologik jarayonlarni standartlashtirish, shuningdek, turli mamlakatlarning madaniyatini qo'shilishi va yaqinlashuvidir. Bu obektiv jarayon bo'lib jamiyatning barcha sohalarini qamrab oluvchi tizimli xususiyatga ega. Globallashuvga qarshi harakatlar ham mavjud bo'lib, ular globallashuv natijasida yuzaga keladigan va kelayotgan muammolarni oqibati salbiy deb e'tirof etishadi. Bunday tashkilot, uyushma, harakatlarga Greyen, Anti Daos kabi bir necha antiglobilistlarni kiritish mumkin.

Jahon xo'jaligi va xalqaro mehnat taqsimotidagi asosiy rivojlanish tendensiyalari haqida chuqur bilimga ega bo'lmasdan turib iqtisodiy xavfsizlik muammosini tadqiqot qilish mumkin emas.

Mahsulotlarning erkinlashuvi va baynalmillashuvi chegaralarda yirik kompaniyalarni tashkil etilishiga va transmilliy korporatsiyalarning tobora iqtisoddan baquvvat va rivojlanishiga sabab bo'lmoqda. Kapitallarning almashinuvi esa xalqaro korporatsiyalar taraqqiyotida alohida vosita bo'lib xizmat qilmoqda.

Transmilliy korporatsiyalar o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ular xalqaro mehnat taqsimoti va uning rivojlanishida faol rol o'ynaydi. TMK xalqaro mahsulot tizimida dunyoning ko'plab mamlakatlarida mahsulot ishlab chiqarishni va xizmat ko'rsatuvchi sho'ba kompaniyalar tashkil etishni amalga oshiradi.

Global rejalarning yuzaga kelish tamoyili sifatida esa globallashuv xalqaro iqtisodiy aloqalar borasida yangi qulaylik va imkoniyatlar yaratish bilan bir qatorda turli-tuman tahdid va ziddiyatlarni ham keltirib chiqarmoqda.

Birinchidan, global bog'liqlik tamoyillari kuchaygan sayin jahon xo'jalik tizimining rivojlanishidagi nomutanosiblik tobora oshib bormoqda. Rivojlangan mamlakatlar va rivojlanayotgan davlatlardagi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot etish ko'rsatkichlari o'rtasidagi tafovut yanada ortib bormoqda.

Ikkinchidan, mamlakatlar iqtisodiy rivojlanishi intensivligi turli-tuman yo'nalishlar, mezonlar bo'yicha xilma-xil tarzda namoyon bo'lmoqda.

Uchinchidan, erkin iqtisodiyotni barpo etishda xo'jalik yuritishning jahon qoidalarini unifikatsiyalashga urinilmoqda. Lekin bunda xalqaro tashkilotlarning harakatlari muvaffaqiyatsiz chiqmoqda deyish qiyin. Chunki, har bir davlat iqtisodiyotini tartibga solish, uni erkinlashtirish va tashqi iqtisodiy faoliyatini rivojlantirishda o'ziga xos vosita va uslublarni qo'llamoqda.

Tahlillar natijasi shuni ko'rsatadiki globallashev jarayonlari quyidagilarni o'ziga jalb qiladi:

- Mintaqa mamlakatlari o'rastidagi integratsiya jarayonlarini jadallashtiradi;
- xo'jalik yuritishni to'liq erkinlashtirmagan davlatlar iqtisodiyotining ochiqqligini ta'minlaydi, proteksionistik tizimga chek qo'yadi;
- barcha bozorlarda talab va taklifning to'siqlarsiz qatnashuvini ta'minlaydi;
- moliyaviy va savdo operatsiyalari chegaralarini univarsallashtiradi;
- bozorlarni tartibga solish va nazorat qilishni bir meyorga keltiradi, ya'ni unifikatsiya qiladi;
- kapital joylashtirish, investitsiya jarayonlari va umumjahon to'lov-hisob tizimlarini standartlashtiradi.

Makroiqtisodiy darajadagi globallashev davlatlar va integratsiya uyushmalarining iqtisodiy faollikka tortib, savdo va investitsiya to'siqlarini olib tashlaydi, erkin savdo hududlarini tashkil qilish asosida paydo bo'ladi. Globallashev jarayonlari davlatlararo xo'jalik yuritish uchun iqtisodiy, huquqiy, axborot va siyosiy miqyosdagi o'zaro kelishuvlarni ham qamrab oladi.

Mikroiqtisodiy darajadagi globallashev kompaniyalar faoliyatining ichki bozordan tashqarida kengayishi natijasida paydo bo'ladi. Ko'pgina yirik TMK lar global miqyosda harakat qiladi. TMK lar globallashev jarayonining sub'yekti bo'lib, globallashevning asosini, ya'ni uni harakatga keltiruvchi asosiy kuchidir.

Globallashev jahon hamjamiyatini turli sohalarda harakatlarini faollashtirib, insoniyat uchun umumiy muammolarni, eng avvalo ekologik muammolarni hal etish uchun jiddiy asos yaratadi. Xullas, ko'pchilik mutaxassislar, globallashevning pirovard natijasi jahondagi mamlakatlarda farovonlikning oshishiga olib keladi, deb umid qiladilar.

Jahon iqtisodiyotida globallashev jarayonlar rivojlangan mamlakatlarda hayrixohlik bilan, rivojlanayotgan mamlakatlarda esa xavotir bilan qabul qilinmoqda. Buning sababi shundaki, globallashev jarayonining afzalliklari barcha mamlakatlarga teng taqsimlanmaydi. Shuning uchun ham globallashevdan kim foyda ko'radi, degan savol turli munozaralarga sabab bo'lmoqda. Zamonaviy globallashev jarayonlari eng avvalo sanoati rivojlangan mamlakatlar mavqeini mustahkamlab, ularga qo'shimcha afzalliklar beradi. Xalqaro mehnat taqsimoti doirasida globallashev jarayonining kengayishi

iqtisodiy kam rivojlangan mamlakatlar mavqeyi salbiy o'zgarishiga sabab bo'lib, ularni globallashtirish jarayoni sub'yektlariga emas, balki ob'ektlariga aylantirishi mumkin. Demak, globallashtirish jarayonlarining alohida mamlakatlar iqtisodiyotiga ijobiy ta'sir darajasi ushbu mamlakatlarning jahon iqtisodiyotida tutgan o'rniga bog'liq. Amalda afzalliklarning asosiy qismi boy davlatlarga yoki individlarga tegadi.

Globallashtirish sharoitida markazlashtiruvchi kuchlarning markazlashishi bilan bog'liq bo'lgan buzg'unchilik ta'siri yuzaga chiqishi mumkinki, bu mamlakat ichidagi an'anaviy aloqalar uzilishiga, ijtimoiy muammolar kuchayishiga, mazkur jamiyat uchun begona bo'lgan salbiy oqibatlar tufayli barcha mamlakatlarda yuzaga keladigan muammolar sifatida quyidagilarni keltirish mumkin: globallashtirishdan keladigan afzalliklarning milliy iqtisodiyotning alohida tarmoqlari o'rtasida bir xil taqsimlanmasligi; milliy iqtisodiyotda sanoatlashishning sekinlashuvi va boshqalar.

Globallashtirish jarayoni bilan yonma-yon hududlashtirish jarayonlari ham rivoj topib bormokda. Yevropa ittifoqi (YEI), Shimoliy Amerika erkin savdo assotsiatsiyasi (SHAESA), Osiyo Tinch okeani iqtisodiy hamjamiyati (OTIH), Mustaqil davlatlar hamdo'stligi (MDH), SHHT, BRIKS kabi integratsiyalashgan tuzilmalar vujudga keldilar. Shunday qilib jahon iqtisodiyotida ikki yonma-yon jarayon – globallashtirish va hududiy lashtirish jarayonlari borayapti. Ular bir-birlarini to'ldirib, sayyoramizni yagona iqtisodiy kenglikka aylantirmokda.

2. Xalqaro mehnat taqsimotida TMK roli. O'zbekistonda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar strategiyasi iqtisodiyotning hamma bo'g'inlarida yangi xo'jalik munosabatlarini majmuaviy rivojlantirish, boshqaruvning ta'sirchan, samarali tizimini shakllantirish, tadbirkorlik faoliyati uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, aholining iste'mol tovarlari va xizmatlariga bo'lgan talablarini yuksak darajada qondirishdan iboratdir. O'tgan yillar davomida mamlakatimiz iqtisodiyotining jahon iqtisodiyotiga integrallashuvi kuzatilmoqda. XX asrning 60-yillaridan boshlab Ikkinchi jahon urushidan so'ng ixtiro qilingan axborot texnologiyalar, aloqa va transport vositalari mehnat unumdorligini oshirishni ta'minlashda tobora katta ahamiyatga ega bo'lib bormoqda. Ular investitsiyalar, xususan ommaviy ishlab chiqarish rentabelligini oshirish uchun katta imkoniyatlarni ochdi. Yangi texnologiyalarni yaratish va tadqiq etish jarayonlari tez sur'atlarda oshdi va tovarning hayotiylik siklini qisqartirdi. Ammo bunday texnologiyalardan

foydalanish faqatgina yetarli darajada mukammal va texnologik egiluvchan ishlab chiqarish uchungina samarali bo'ldi. Iqtisodiyotning nisbatan qoloq sektorlarida yangi texnologiyalar past darajada qo'llanuvchan va foydali bo'ldi, ularning ommaviy tadqiq etilishi esa juda qimmat va samarasiz bo'lib chiqdi. Yangi voqelikka kirisholmagan iqtisodiyotlar tezda qoloqlashib yakkalana boshladi.

Jahon iqtisodiyotining yangi nisbatan kuchli jihati sifatida yangi resurslar – axborot resurslari, hamda ularni yetkazish va tarqatish kanallarining salmog'i toboro ortib bordi. Ushbu kanallardan insonlar ongiga ta'sir etishda keng ko'lamda foydalanila boshlandi. Tijoriy reklamada boshlangan bu holat o'tgan asrning so'nggi choragiga kelib ommaviy xarakterga ega bo'ldi, hamda siyosiy, diniy va ijtimoiy tashkilotlarni qamrab oldi.

Yuqorida sanab o'tilgan barcha jarayonlar XX asrning oxiriga kelib kuchli sinergetik holat – globallashuvni yuzaga keltirdi. Globallashuv favqulotda tez ravishda atrof olamni o'zgartirib yuborib, bunda yer yuzi aholisining ko'pchilik qismining ko'nikishiga fursat bermadi. Noan'anaviy va beqaror muhitda maqsadsiz qolgan ko'pchilik globalizatsiyani mulkdorlar va "tilla millardlar"ning fitnasi sifatida yoxud, tabiiy ofat sifatida baholab bordi, ammo kuchsiz choralarni qo'llab kurashmoqdalar. Ammo bu urinishlar besamardir, chunki globallashuv –bu sifat jihatidan yangi holat bo'lib, uni alohida anglash va o'rganishni hamda shu yo'l bilan uning salbiy oqibatlari oldini olishni taqozo etadi.¹

Jahon xo'jaligining shakllanishi uzoq tarixga ega bo'lib, u ayniqsa buyuk geografik kashfiyotlar (XV-XVI asrlar) davrida, sanoat inqilobidan keyin jadal rivojlanib bordi. Ishlab chiqarishda tovar ishlab chiqarishga o'tilishi, tovar ho'jaligining yuksalishi, mamlakatlar o'rtasida tovar almashinuvi natijasida xalqaro huquqiy meyorlar ham yuksalib bordi. XIX asrdan boshlab jahonda kapital va moliyaviy vositalarni bir mamlakatdan boshqa bir mamlakatlarga chiqarish oqimi jadallashdi. Bu munosabatlarni tartibga solish, yanada yuksaltirish, xalqaro savdoga yanada qulayliklar yaratish zamonaviy valyuta tizimini taqozo qildi. Birinchi transmilliy korporatsiya (TMK)lar paydo bo'ldi. Ular o'zlarining operatsiyalarining asosiy qismlarini xom ashyo va arzon ishchi kuchi mavjud bo'lgan joylarda - mamlakatdan tashqarida amalga oshira boshladilar. Jumladan, o'zlariga qaram korxonalar, filiallar, bo'lim tarmoqlari royxatga olingan bir necha mamlakatlarda faoliyat olib bordilar. TMKlar

¹Marchenko.A.V. Globalizatsiya mirovoy ekonomiki. www.politlab.org

xalqaro mehnat taqsimotini chuqurlashtirish va baynalminallashtirish jarayonlari negizida mamlakatlar o'rtasida o'zaro hamkorlikni kuchaytira bordilar. XIX asr oxirlariga kelib, davlatlar o'rtasidagi iqtisodiy va siyosiy munosabatlar tizimi rivojlana bordi va bu jarayon yaxlit jahon xo'jaligining shakllanishiga olib keldi.

Jahon xo'jaligi – bu xalqaro iqtisodiy aloqalar (tashqi savdo aloqalari, kapital chiqarish, valyuta-kredit munosabatlari, ishchi kuchlari migratsiyasi, iqtisodiy integratsiyalar va h.k.) orqali bir-birlari bilan uzviy chambarchas bog'langan turli milliy xo'jaliklarni o'z ichiga olgan global xo'jalik mexanizmidir. Hozirgi zamon jahon xo'jaligi bir xil bo'lmasdan, unga o'zining ijtimoiy tarkibi, siyosiy tuzimi, ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanish darajasi, ishlab chiqarish munosabatlari, shuningdek xalqaro iqtisodiy munosabatlar ko'lami, xarakteri va shakllari bilan milliy xo'jaliklar kiradi. Jahon milliy xo'jalik iqtisodiyoti obektlari esa hududiy ishlab chiqarish majmua (kompleks)lari, transmilliy korporatsiyalar, firmalar va h.k. dir. XX asrga kelib jahon hamjamiyati manfaatlari har qanday xususiy manfaatlar (milliy, sinfiy, ijtimoiy) dan ustun tura boshladi. Tinchlik, iqtisodiy barqarorlik, ijtimoiy-siyosiy faoliyat, ekologik xavfsizlik, shaxs fidoyiligi kabi qadriyatlarining yangi tizimi paydo bo'la boshladi.

Jahon xo'jaligining global boshqaruv tizimini yaratish imkoniyatlari tug'ildi. Global boshqaruv deyilganda ozodlik va demokratiya sharoitida atrof-muhit taraqqiyotini birgalikda saqlash, butunjahon xavfsizligi va barqarorligini ta'minlash uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, o'zgarishlarni to'g'ri yo'lga solish usullari va imtiyozlari tushuniladi. XX asrga kelib xalqaro mehnat taqsimoti va jahon xo'jaligining taraqqiy etishi, xo'jalik xaitining doimiy baynalminallashuvi orqali yuzaga keladi. Mazkur jarayonga esa turli xildagi omillar uz ta'sirini kursatadi:

Birinchiidan, geografik omillar, yer sharida tabiiy zaxiralarning notekis taqsimlanganligi, shu jumladan, o'simlik va hayvonot olamining, shuningdek, tabiiy-iqlim sharoitlarining turli xildaligi. Maxsulotlar ishlab chiqarilish xajmining ortishi, yangi ishlab chiqarish tarmoklarining paydo bulishi, tabiiy shart-sharoitlar tufayli egalik qilinishi kiyin bulgan xomashi tovarlariga bulgan oshikcha talabning paydo bulishiga olib keladi. Bu esa yetarli zaxiralarga ega bulgan mamlakatlardagi xomashi maxsulotlarini kazib chiqarish imkonini beradi. Bulardan tashkari, ma'lum bir iklimiy sharoitlardagina yetishtirilish

imkoniyatiga ega bulgan ozik-ovkat maxsulotlariga bulgan talab xam ortib boradi;

Ikkinchidan, ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanish darajasi. Yirik mashinalashgan ishlab chikarish, odatda, chukur ixtisoslashuvga va keng kamrovli maxsulot bozorlariga ega bulgan bir paytda uz samarasini bera oladi va albatta tashki bozorga chikish zaruratini maksad killb kuyadi;


Uchinchidan, ilmiy-texnika taraqqiyoti. Ishlab chikariladigan maxsulotlar va texnologiyalarning tuxtovsiz yangilanib turilishi okibatida, bitta mamlakat doirasida barcha turdagi maxsulotlar ishlab chikarilishini me'riy darajada rivojlantirish imkoniyati mavjud emasdir, shuning uchun xam maxsulotlar, xizmatlar va ishlab chikarish omillari faol alinashinuvini jadallashtirish lozimdir.

Xalqaro valyuta fondi. XV F 1944 yil iyulda Bretton-Vuds (AQSH, Nyu-Gempshir shtati) da tashkil topgan, qarorgohi Vashingtonda joylashgan. XV F — hukumatlararo korporativ valyuta-moliyaviy tashkilot bo'lib, faoliyati davlatlararo vujudga keladigan, to'satdan ro'y beruvchi va oldindan bilish mumkin bo'lmagan milliy valyutalarning o'zgaruvchanligi, davlatlarnpng milliy valyutalarini almashtirpsh doirasidagi muammolarni bartaraf etishga qaratilgandir. XV Fning maqsadi quyidagilardan iborat:

1. Xalqaro savdoning o'sishiga yordam ko'rsatish;
2. Milliy valyutalar qadrini bir meyorda ushlab turishga ko'maklashish;
3. Jamg'armaga a'zo davlatlarning joriy hisob-kitoblarini amalga oshirish jarayonida ko'p tomonlama tizimni tas'kil etishga ko'maklashish;
4. Xalqaro savdoning rivojlanishlga to'sqinlik qiluvchi omillar, valyutalar borasidagi to'siqlar vujudga kelmasligiga yordam berish;
5. Savdo va to'lovlar doirasidagi to'siqlar vujudga kelmasligi uchun a'zo davlatlarga kredit resurslarni berish;
6. Xalqaro valyuta doirasida vujudga keluvchi muammolarni yechish borasida maslahat-forumlar o'tkazish.

O'zbekiston Respublikasi 1992 yil 21 sentabrda XV F ga a'zo bo'lib kirdi. XV F yuqorida qayd etilgan TMK bilan bir qatorda iqtisodiy jarayonlarning globallashuvi sharoitida muhim ahamiyat kasb etadi.

Transmilliy korporatsiyalar



3. Iqtisodiy globallashtirish jarayonining salbiy va ijobiy tomonlari.

Globallashtirishning ijobiy tomonlarini baholash mushkuldir: insoniyatning imkoniyatlari ortib bormoqda, uning hayotining barcha jabhalari hisobga olinmoqda, o'zaro uyg'unlashuv sharoitlari tug'ilmoqda. Jahon iqtisodiyotining globallashtirish umuminsoniy muammolarni hal etishning jiddiy asoslarini yaratmoqda. Globallashtirish jarayonlarining ijobiy tomonlari sifatida quyidagilarni e'tirof etish mumkin:

1. Globallashtirish mehnatning ixtisoslashuvi va xalqaro taqsimotining chuqurlashuviga ko'mak beradi. Bu sharoitlarda vosita va resurslar samarali taqsimlanadi, aholi o'rtacha turmush tarzining ortishiga va aholi hayotiy istiqbollarning kengayishiga olib keladi.

2. Globallashuv jarayonlarining muhim ustuvorliklaridan ishlab chiqarish ko'lamida iqtisod qilish bo'lib, bu xarajatlarning qisqarishi va narxlarning pasayishiga, natijada barqaror iqtisodiy o'sishga olib keladi.
3. Globallashuvning ustuvorliklari shuningdek, barcha taraflarni qoniqtiruvchi o'zaro manfaatdor asosda erkin savdodan yutish bilan bog'liqdir.
4. Globallashuv raqobatni kuchaytirgan holda, yangi texnologiyalarning rivojlanishi va ularning boshqa davlatlarda tarqalishini rag'batlantiradi. Bunda to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar o'sish sur'atlari jahon savdosi o'sish sur'atlaridan bir necha barobar ustun bo'ladi, bu esa milliy iqtisodiyotlarga bevosita ta'sir etuvchi sanoat texnologiyalari qo'llanilishi, TMK vujudga kelishining muhim omili hisoblanadi.
5. Ishlab chiqarishni global miqyosda ratsionalizatsiya qilish va ilg'or texnologiyalarni tarqatish, hamda jahon miqyosida innovatsiyalarni doimiy tadbiq etish uchun raqobat bosimi natijasida globalizatsiya mehnat unumdorligining oshishiga olib kelishi mumkin.
6. Globallashuv davlatlarga katta hajmdagi moliyaviy resurslarni jamlash imkoniyatini beradi, chunki sarmoyadorlar keng moliyaviy imkoniyatlarni ko'plab bozorlarga jalb etadilar.
7. Globallashuv umuminsoniy muammolarni hal etishning jiddiy asoslarini yaratadi, avvalo ekologik muammolar bo'lib, u jahon hamjamiyatining umumiy hatti-harakatlari, resurslarning jamlanishi, turli sohalardagi hatti-harakatlarning muvofiqlashtirilishini talab etadi.

Umuman olganda ko'plab mutaxassislarning umid qilishicha, globalizatsiya pirovard natijada dunyodagi umumiy iqtisodiy holatning o'sishiga olib keladi.

Globallashuv jarayonlari rivojlangan mamlakatlarda qo'llab-quvvatlanadi, ammo rivojlanayotgan va qoloq davlatlarda qarshilikka uchraydi. Demak globallashuv jarayonlari kim uchun foydaliligi ham muhim ahamiyatga egadir.

Ishlab chiqarish ne'matlarining adolatsiz taqsimlanishi mintaqaviy, milliy va xalqaro darajada nizolarni keltirib chiqaradi. Daromadlarning mutanosiblashuvi emas, ularning qutblashuvi yuzaga keladi. Bu jarayonlarda rivojlanayotgan davlatlar boy davlatlar qatoriga kiraveradi, nochor mamlaktlar esa ulardan ortda qolaveradi. "Milliy iqtisodiyotlarning jahon tizimiga

integratsiyalashuvi tengsizlikni yo'qotish va yumshatish o'rniga, aksincha uni kuchaytiradi va ko'p hollarda uni keskinlashtiradi.¹

Globallashuv jarayonlari natijasida barcha mamlakatlarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan potensial salbiy oqibatlar sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- milliy iqtisodiyotning alohida tarmoqlari bo'yicha xalqaro savdo, ishlab chiqarish natijalarini nomutanosib taqsimlanishi;
- milliy iqtisodiyotlarning noindustrialashuvi;
- alohida davlat iqtisodiyoti nazorati suveren hukumatlardan boshqa kuchli davlatlar, TMK yoki xalqaro tashkilotlarning qo'liga o'tib ketishi;
- moliyaviy sohaning ehtimoliy beqarorligi, milliy iqtisodiyotning jahon darajasidagi bog'liqligi sababli potensial mintaqaviy yoki global beqarorligi. Alohida davlatdagi mahalliy iqtisodiy siljishlar yoki inqirozlar mintaqaviy yoki global oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Globallashuvning og'riqli oqibatlarini o'zlarida kam rivojlangan davlatlar his qiladilar. Ularning asosiy qismi xalqaro miqyosda xom ashyo yetkazib beruvchi va ko'p mehnat talab qiluvchi sohalarni yurituvchi davlatlar sifatida ishtirok etib, har jihatdan yetakchi davlatlarga bog'liq bo'lib qoladilar, daromadlari esa kam va beqaror jahon bozori konyunkturasiga bog'liq bo'lib qoladi. Bunday davlatlarga globalizatsiya jarayonlari yuqorida sanab o'tilgan muammolardan tashqari quyidagilarni ham paydo qiladi:

- rivojlangan mamlakatlardan texnologik jihatdan tobelik va ortda qolishning ortishi;
- ijtimoiy-iqtisodiy nomutanosiblikning ortishi;
- aholi asosiy qatlamining qashshoqlanishi;
- kam rivojlangan davlatlarning jahon xo'jaligi tizimi barqarorligi va meyoriy ishlashiga bog'liqligining ortishi;
- TMK tomonidan davlatning milliy iqtisodiy rivojlanishga qaratilgan siyosatini cheklashi;

Yuqorida ta'kidlanganidek, globallashuvdan asosan sanoati rivojlangan mamlakatlar yutuqqa erishadi. Ammo ularda ham tanganing ikki tarafi bo'lgandek o'ziga xos muammolar yuzaga keladi. Bunday ijtimoiy-siyosiy muammolar qatoriga quyidagilarni keltirish mumkin bo'ladi:

¹ Sennosti, kotoriye mi zashishayem, premem, k kotorim mi stremimsY. Sotsialnaya spravedlivost v usloviyax globalizatsii ekonomiki. Doklad Generalnogo direktora MOT. 81 sessiY. Jeneva, 1994, S. 15


- Mamlakat ichida ishsizlikning ortishi, bunga sabab:
 - yangi texnologiyalarning joriy etilishi sanoatda ish o'rinlarining qisqarishiga olib keladi va ijtimoiy keskinlikni kuchaytiradi;
 - ishlab chiqarish tuzilmasining o'zgartirilishi va ko'p mehnat talab qiluvchi tovarlarni ishlab chiqarishni rivojlanayotgan mamlakatlarga ko'chirish bu davlatlar an'anaviy tarmoqlariga jiddiy zarba bo'ladi va ko'plab ishlab chiqarishning yopilishiga sabab bo'ladi;
 - ishchi kuchining kuchli jamlanganligi.


• Birinchi darajaga o'tib olgan TMK ko'pincha o'z manfaatlarini davlat manfaatlaridan ustun qo'yadi, natijada milliy davlatchilik zaiflashadi va ba'zi funksiyalar turli davlatust tashkilot va uyushmalarga o'tadi.

Jiddiy muammolardan yana biri globalizatsiyadan keladigan afzalliklarning nafaqat davlatlar o'rtasida, balki tarmoqlararo ham kuzatish mumkin bo'ladi. Tashqi savdodan foyda oluvchi va eksportga yo'nalgan tarmoqlarga ommaviy ravishda kapital va malakali ish kuchi oqib keladi. Boshqa tarmoqlar esa bozorning ochiqligi sababli raqobatga chiday olmay qoladilar. Bunday tarmoqlar o'zgargan xo'jalik sharoitlariga moslashishlari uchun qo'shimcha tadbirlarni amalga oshirishlariga to'g'ri keladi. Insonlar ish o'rinlarini yo'qotadilar va yangi ish o'rinlarini qidiradilar yoki qayta malakalarini oshiradilar. Bu esa yirik ijtimoiy xarajatlarni qisqa muddatlarda talab etadi. Oxir oqibat ish kuchining qayta taqsimlanishi amalga oshadi, ammo ijtimoiy xarajatlar yuqori bo'ladi.

Demak rasmdan ma'lum bo'ladiki zamonaviy jahon iqtisodiyoti globallashuv jarayonlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- ishlab chiqarishning internatsionallashuvi pirovarddagi tovarni yaratish uchun turli bosqichlarda va turli shakllarda jahonning ko'plab mamlakatlaridagi ishlab chiqaruvchilar ishtirok etishini nazarda tutadi. Xalqaro savdo bitimlarida yarim tayyor mahsulotlar salmoqli o'rinni egallaydi. Ishlab chiqarishning internatsionallashuvi instituti sifatida TMK lar ishtirok etadi;





- kapital internatsianallashuvi chuqurlashuvida kapitalning xalqaro harakati davlatlar o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri investitsiya ko'rinishida, fond bozoriging internatsianallashuvida namoyon bo'ladi;
- ishlab chiqarish kuchlarining globallashuvi ishlab chiqarish, ilmiy texnik, texnologik bilimlar almashinishi, hamda ishlab chiqarish hamkorligi, ishlab chiqarish resurslari xalqaro harakatidan yuzaga keladi;
- xalqaro hamkorlikni ta'minlovchi global moddiy, axborot, tashkiliy – iqtisodiy infratuzilmani shakllantirish;
- xalqaro mehnat taqsimotini chuqurlashtirish asosida almashinuv internatsiallashuvini kuchaytirish. Xalqaro hamkorlikning muhim yo'nalishi sifatida moddiy ishlab chiqarishga qaraganda xizmatlar sohasi ilgarilamoqda;
- ishchi kuchi xalqaro migratsiyasi ko'lamining ortishi. Qoloq davlatlardagi ishchi kuchi rivojlangan mamlakatlardagi past malakali ishlarga jalb etilmoqda. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalar kompyuterlarga aloqador dasturiy ishlarni boshqa yurtdagi ishchiga buyurtma qilish imkoniyatlari tug'ildi;

• Ishlab chiqarish va iste'molning atrof-muhitga ta'siri internatsionallashuvining o'sishi global muammolarni xalqaro hamkorlikda bartaraf etishni taqozo qilmoqda.

4. Globallashuv sharoitida iqtisodiy xavfsizlik va uning mohiyati.

Iqtisodiy xavfsizlik g'oyalari va u bilan bog'liq bo'lgan «iqtisodiy xavfsizlik» tushunchasi mamlakatimizga respublikamiz mustaqilligi e'lon qilinganidan so'ng kirib kela boshladi. Mustaqillikdan oldin bunday tushunchalar mutaxassislarning tor doirasigagina ma'lum edi. Sobiq Ittifoq davrida ushbu masalaga bir qator sabablar bois unchalik e'tibor berilmagan: kuchli davlat monopol iqtisodiyoti, rejalashtirilgan ishlab chiqarish, ichki va tashqi savdoning davlat tomonidan tartibga solinishi va sh.k. Rossiyaning iqtisodiy xavfsizligi muammolari bo'yicha birinchi maqolalar «O voprosax ekonomiki» jurnalida bosilib chiqa boshladi. Masalaning nazariy tomonlari L.Abalkin, A.Arxirov kabi taniqli rossiyalik iqtisodchi olimlari maqolalarida keng yoritib berildi. Keyinchalik rossiyalik boshqa yirik iqtisodchilar ham ushbu muammoni o'rganish bo'yicha munozaralarga ko'shildilar. 1997 yilda Ye.A.Oleynikovning tahriri ostida «Osnovi ekonomicheskoy bezopasnosti. (Gosudarstvo, region, predpriyatiye, lichnost), V.S.Zagashvilining «Ekonomicheskaya bezopasnost Rossii» deb nomlangan kitoblari Rossiyada nashr etildi.

Mustaqillik tufayli O'zbekiston jahon iqtisodiyotining to'laqonli sub'yektiga aylandi. Jahon iqtisodiyoti bilan chuqur integratsiya jarayonlari kechmoqda. Mamlakatimizda raqobatbardosh korxonalar tizimi vujudga keltirilmogda. Ichki ishlab chiqaruvchilarni himoya qilish, mamlakat iqtisodiy havfsizligi masalalari o'z navbatida kun tartibidan joy oldi. Demak, aytish mumkinki, «Iqtisodiy xavfsizlik» tushunchasi o'zbek iqtisodiyotini boshqaruv organlarining leksikasida yangidir. Ayni paytda ushbu ibora xorijiy mamlakatlar boshqaruv tizimlari faoliyatida yaxshi tanish bo'lgan tushunchadir. Iqtisodiy xavfsizlik davlatning milliy xavfsizligini asosiy tashkil etuvchilaridan biridir va mamlakatning iqtisodiy ehtiyojlari kafolatlanishi va uni ta'minlashning yo'llari, vositalari va usullariga asos soluvchi qarashlarning yig'indisidir. Konseptual ko'rinishda u davlatning iqtisodiy potensialining holatidan kelib chikadigan iqtisodiy xavfning asosiy omillarini tahliliga asoslangan. Davlatning xavfsizligi kuchsiz va samarasiz iqtisodiyotda ta'minlanishi mumkin emas, ayniqsa glaballashuv jarayonidagi ijtimoiy

nizolarga to'la jamiyatda, chunki hammasi o'zaro bog'langan va biri ikkinchisini to'ldiradi.

Iqtisodiy xavfsizlikni asosida rivojlanish va rivojlanishni barqarorligiga o'xshash bo'lgan muhit tashkil etuvchilari yotadi — bu material, inshootning, uni yangi sifat holatiga, ya'ni tarkib yoki tuzum o'zgarishiga keltiradigan, zarur bo'lgan yo'naltirilgan qonuniy o'zgarishidir. Rivojlanishsiz iqtisodiy taraqqiyot bo'lishi mumkin emas. Barqarorlik — bu jamiyatning favqulodagi holatlarda xam o'z manfaatlarini qoniktirish qobiliyati, holatni tiklash imkoniyati.

Asosiy iqtisodiy xavfsizlik tahdidlari-mamlakatning iqtisodiy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi jarayon bo'lib, malakat, jamiyat va shaxs iqtisodiy manfaatlarini chegaralaydi.

Birinchi marta iqtisodiy xavfsizlik termiini resurslarni chegaralanganligi to'g'risidagi savol keskin turgani bilan bog'lik bo'lgan holda paydo bo'lgan bo'lsa, globallashuv sharoitida uning sub'yektlari ortib, uni turkumlashni taqazo etmoqda. Iqtisodiyot sub'yektlari nuqtai nazaridan iqtisodiy xavfsizlik quyidagi shakllarda namoyon bo'ladi:

- shaxsning iqtisodiy xavfsizligi;
- korxonaning(firma) iqtisodiy xavfsizligi;
- davlatning iqtisodiy xavfsizligi.

Shaxsning iqtisodiy xavfsizligi uning hayotiy manfaatlarining, ya'ni yashash va shaxsiy daxlsizlik, erkin mehnat qilish, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish, mulkdor bo'lish, hayotiy iste'mol ehtiyojlarini qondirish, salomatligini saqlash, bilim olish va kasbga ega bo'lish, qariganda va mehnat layoqatini yo'qotganda ijtimoiy ta'minot olish huquqlanganini ifodalaydi. Bunda shaxsning bozor iqtisodiyotida iste'molchi va ishchi, xizmatchi, tadbirkor sifatidagi ijtimoiy-iqtisodiy huquq va erkinliklarining, manfaatlarining himoyalangani, kafolatlangani nuqtai nazaridan iqtisodiy xavfsizlikni ikki turga ajratish mumkin.

IQTISODIY XAVFSIZLIK



Korxonalarining(firma) iqtisodiy xavfsizligini tahlil qilganda ularni ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, moliyaviy, savdo-tijorat hamda notijorat va jamoatchilik tashkilotlari sifatida faoliyat yuritishi nuqtai nazaridan turkumlash maqsadga muvofiq. Korxonaning(firma) ixtisosligiga ko'ra xavfsizligini ta'minlash xususiyatlari ham turlicha bo'lishi tabiiydir.

Davlatning iqtisodiy xavfsizligi uning mamlakat ichki muammolari va tashqi iqtisodiy faoliyati hamda xalqaro moliyaviy tashkilot va uyushmalarda ishtirok etish bilan bog'liq xavf-xatarlar nuqtai nazaridan tahlil etiladi.

Iqtisodiy xavfsizlik milliy xavfsizlikning tarkibiy qismiga kirganligi uchun milliy xavfsizlikning tashkil etilishi va shakllanishi bilan bog'liq masalalar bilan ko'rib chiqilishi lozim. Iqtisodiy xavfsizlik milliy xavfsizlikning tarkibiy qismi va uning moddiy asosi hisoblanadi. Shuning uchun, iqtisodiy xavfsizlik mamlakat milliy xavfsizlik genezisi va shakllanishiga doir masalalar qatorida o'rganilib chiqilishi darkor. Iqtisodiy xavfsizlik asosiy paradigmasini quyidagi elementlar tashkil etadi:

➤ Xalqaro munosabatlar tuzumiga o'tish ya'ni ishchi kuchi konsepsiyasidan manfaatlar konsepsiyasiga qarab;

➤ Iqtisodiy xavfsizlikning bir biriga qarshi tipdagi g'oyalar va tuzulmalardan xalqaro iqtisodiy hamkorlik va xalqaro munosabatlarga asoslangan model tomon harakatlanishi;

➤ Hudud daxlsizligini ta'minlash tamoyiliga qo'shimcha qilib mintaqqa, korxonalar, oilalar va shaxs iqtisodiy xavfsizligi tamoyilini kiritishi;

➤ Iqtisodiy sohadagi tahdidlar kompleks xususiyatga ega bo'lib, avvalo, YAIMning sezilarli darajada qisqarishi, investitsion va innovatsion faoliyat hamda ilmiy-texnikaviy salohiyatning pasayishi, qishloq xo'jaligi sektoridagi inqiroz, yoqilg'i xomashyosi va energetik komponentlarni eksporti sur'atining oshishi, importda esa birlamchi va iste'mol mollarining o'sishi kuzatiladi.

Xalqaro iqtisodiy xavfsizlik — shartnomalar va institusional tuzilishni amalga oshirish borasidagi barcha xalqaro shartlar majmuasi bo'lib, unda xar bir jaxon hamjamiyatidagi a'zo davlatning erkin saylash va o'zining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot strategiyasini ishlab chiqishi, tashqi bosim uchramasligi, boshqalarni ishiga aralashmasligi, o'zaromanfaatli va o'zaromuvofiqlik asosida jahondagi boshqa davlatlar bilan hamkorligi.

Xalqaro iqtisodiy xavfsizlik taraqqiyot modellarning bog'lanib qolishini, shuningdek, xar bir xalqning o'z yo'lini tanlashda huquqini tan olish, manfaatlarini hurmat qilinishi orqali iqtisodiy va siyosiy qaramlikni rad etadi.

Tashqi qarz-kredit olish orqali mamlakatning byudjet xarajatlarini moliyaviy qoplash natijasida shakillanadigan mamlakatning qarz summasi. Tashqi qarz mamlakatning iqtisodiyoti uchun og'ir yuk bo'lib, iqtisodiy konyunkturasining yomonlashuviga olib keladi. Biroq, tashqi qarz iqtisodiyotning o'sishi uchun rag'bat vazifasini ham bajarishi mumkin. Bu bilan birga mamlakatning real imkoniyatlarini hisobga olmay, haddan tashqari olingan tashqi qarzlarni malakatni inqirozga va suverenitetining yo'qotilishiga sabab bo'lishi mumkin.

Amaliyotda deyarli barcha mamlakatlar tashqi moliyalashtirish manbalarni jalb qilishga harakat qiladilar, aks holda ularning ko'pchiligida ichki kapital qo'yilmalarini qo'yish, ijtimoiy iqtisodiy islohatlarni o'tkazish, tashqi qarzlarni majburiyatini bajarish uchun byudjet taqchilligi-yu, ichki resurslar tanqisligiga uchraydi.

Yana bir iqtisodiy xavfsizlikka tahdid soladigan omil bu iqtisodiyotning haddan tashqari ochiqqligi. Iqtisodiyot ochiqqligi-jahon xo'jaligi aloqalar va

xalqaro mehnat taqsimotida maksimal qatnashishga ko'zlangan iqtisodiy sistemadir. U boshqa davlatlar iqsodiyotiga bog'liq bo'lmagan avtarkiya iqtisodiy tuzumga qarshidir. Shuning uchun, iqtisodiyot ochiqligi normal holat va obektiv zaruriyatdir. Biroq, mamlakatning ishlab chiqaruvchi, moliyaviy, bank tizimi va pul aylanishi kabi strategik sohalarni himoyalanganlik darajasini hisobga olgan holda ish ko'rish lozim.

Iqtisodiy xavfsizlik turlarining mohiyatini vujudga kelish sabablarini o'rganish, milliy manfaatlariga tahdidlarni aniqlash, ularning oldini olish va ulardan muhofazalanish chora-tadbirlari, mexanizmlarini ishlab chiqish hamda vujudga keltirishga imkon beradi. Buning uchun ushbu xavf-xatarlarni va xavfsizlik darajasini aniqlash, ularning ko'rsatkich mezonlarini o'rganishga zarurat tug'iladi.

Tashqi iqtisodiy xavfsizlik—shartnomalar va institusional tuzilishni amalga oshirish borasidagi barcha xalqaro shartlar majmuasi bo'lib, unda xar bir jahon hamjamiyatidagi a'zo davlatning erkin saylash va o'zining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot strategiyasini ishiab chiqishi, tashqi bosimga uchramasligi, boshqalarni ishiga aralashmasligi, o'zaromanafaatli va o'zaromuvofiqlik asosida jahondagi boshqa davlatlar bilan hamkorligi.

Globalashuv sharoitida tashqi iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash uchun quyidagilar taqoza etiladi:

Birinchidan, jahon xo'jalik aloqalarida ishtirok etib, milliy ishlab chiqarish uchun qulay sharoitlar yaratish;

Ikkinchidan, jahonda sodir bo'layotgan iqtisodiy, siyosiy noxush hodisalar salbiy oqibatlarining milliy iqtisodiyotga ta'sirini kamaytirishga erishish. Alohida ta'kidlash joizki, ochiq iqtisodiyot sharoitida tashqi tahdidlar ta'siririni butunlay yo'q qilish, unga barham berish mumkin emas.

Mustaqillikning dastlabki yillarida iqtisodiy xavfsizlikka tahdid soluvchi quyidagi tashqi omillar mavjud edi:

1) Eksport tarkibidagi xom ashyo tovarlarining ustuvorligi, an'anaviy mashinasozlik tovarlari bozorlarining yo'qotilishi, sobiq ittifoqdosh hududlar bilan aloqalarning yo'qotilishi;

2) mamlakatning ko'p turdagi mahsulotlar, shu jumladan, strategik ahamiyatdagi va oziq-ovqat mahsulotlari iportiga qaramligi;

3) yeksport va valyuta nazoratining yaxshi yo'lga qo'yilmaganligi, bojxona chegaralarining ochiqligi;

4) raqobatga bardoshli eksportni qo'llab-quvvatlovchi moliyaviy, tashkiliy va axborot infratuzilmalarning rivojlanganligi va import tarkibining ratsional emasligi;

6) eksport-import operatsiyalariga xizmat ko'rsatuvchi transport infratuzilmalarining rivoj topmaganligi;

7) Ilmiy salohiyat oqimi;

8) Kapital oqimi;

9) Tashqi qarzlarning o'sishi;

10) Tijorat va iste'mol mollari bo'yicha import qaramlikning ortishi.

Eksport tovarlariga narxlarning keskin pasayib ketishi yoki aksincha, import tovarlariga narxlarning keskin ko'tarilib ketishi tashqi bozorga bog'liq bo'lgan iqtisodiyot uchun o'ta xavfli hisoblanadi. Bu holat jahon moliyaviy inqirozi davrida yaqqol namoyon bo'ldi.

Bundan tashqari, bozorlarda savdo qilish yoki mahsulot yetkazib beruvchi mamlakat yoki mamlakatlar guruhi tomonidan embargo kiritilishi ham iqtisodiyotning rivojiga xavf tug'diradi. Shuningdek, bir mamlakatdan yoki mamlakatlar guruhidan ayrim turdagi mahsulotlarni keltirishda yuqori darajadagi qaramlikka, bog'liqlikka yo'l qo'yib bo'lmaydi. Chunki bu iqtisodiy qaramlikdan siyosiy jihatdan ta'sir ko'rsatishdan foydalanishlari mumkin.

Milliy iqtisodiyot uchun uning eksporti tarkibida ikki-uch xil tovarning ustuvor o'rinni egallashi, xatto eksport hajmining yarimidan ko'pini tashkil etishi o'ta xavfli holatlarni tug'dirishi mumkin. Ko'pgina rivojlanayotgan mamlaklar tajribasi shuni ko'rsatadiki, eksportning bunday tarkibi bunday tarkibi jahon bozori konyukturasi yomonlashgan sharoitda, ularga bo'lgan talabning kamayishi oqibatida iqtisodiyot halokatiga olib kelishi mumkin.

Mamlakat eksport qilayotgan xom ashyo resurslarining jahon bozridagi narxlarning tushib ketishi oqibatida uning tashqi savdo aylanmasi pasayib ketadi. Natijada, valyuta tushumi kamayadi va bu hol mamlakat uchun zarur investitsiya loyihalarining bajarilishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Hatto milliy valyuta qadri tushib ketishiga ham olib kelishi mumkin. Shuningdek, xom ashyo ishlab chiqaruvchi milliy korxonalarining iqtisodiy-moliyaviy ahvoli yomonlashadi. Ularning ba'zilar xonavayron bo'ladi, ko'pchiligi esa ishlab chiqarish hajmini kamaytirishga majbur bo'ladi. Oqibatda, ish bilan band xodimlar soni qisqarib, ishsizlar soni oshadi. Davlat byudjetidan aholini ijtimoiy himoyalashga ajratilgan mablag' ko'payib, ijtimoiy muammolar ham

birmuncha keskinlashadi. Milliy iqtisodiyotning rivojlanish sur'atlari sekinlashadi yoki turg'unlikka, tanglikka yuz tutadi.

Ochiq iqtisodiyotga o'tish o'ta darajadagi proteksionizmdan voz kechishni taqazo etadi. Ammo mamlakatni jahon xo'jaligiga kirib borishi nuqtai nazaridan istiqbolli bo'lgan tarmoqlar va ishlab chiqarishni himoya qilish, ya'ni selektiv proteksionizm zarurdir. Bu davrda iqtisodiy xavfsizlik nuqtai nazaridan vatanimizda ishlab chiqarilgan tovarlarni sotish bozorlarini, import xom ashyo va sanoat mahsulotlari manbalarini diversifikatsiyalash, ko'plab mamlaktlar bilan yomonlashgan munosabatlar o'rniga boshqa mamlakatlar bilan bo'ladigan iliq munosabatlar rivojlantiriladi.

Mamlaktning nafaqat iqtisodiy, shuningdek, siyosiy ahvoliga ham jiddiy xavf tug'diruvchi tahdidlardan bir tashqi qarz muammosidir. Tashqi qarzning yuqori darajadiligining o'ziyiq tashqi siyosat yuritishni shubha ostiga qo'yadi. Mamlakat qarz bergan yirik kreditor mamlaktlarga qaram bo'lib qoladi. Tashqi qarzlarni to'lash uchun mamlakt qarzlardan kreditlarni belgilangan muddatlarda to'lashni kafolatlaydigan ishlab chiqarish loyihalarini moliyalashtirishda foydalanishi hamda yangi obektlarni ishiab chiqarilgan mahsulotlar eksportini kengaytirish mumkin.

2017-2021 yillarga mo'ljallangan O'zbekistonni rivojlantirishning Harakatlar strategiyasida makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolish, sanoatni yuqori texnologiyali qayta ishlash tarmoqlarini, eng avvalo, mahalliy xom ashyo resurslarini chuqur qayta ishlash asosida yuqori qo'shimcha qiymatli tayyor mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha jadal rivojlantirishga qaratilgan sifat jihatidan yangi bosqichga o'tkazish, iqtisodiyot tarmoqlari uchun samarali raqobatbardosh muhitni shakllantirish hamda mahsulot va xizmatlar bozorida monopoliyani bosqichma-bosqich kamaytirish, ishlab chiqarish mahalliy lashtirishni rag'batlantirish masallariga keng e'tibor qaratilgan. Albatta ushbu masalalarning yechimi iqtisodiy jarayonlarning globallashuvi sharoitida mamlakatimizning iqtisodiy manfaatlariga xizmat qiladi.

Mamlakatimizning jahon hamjamiyatiga keng integratsiyasini ta'minlash, ikkinchi tomondan esa uning iqtisodiy manfaatlarini ta'minlash vazifalariga to'xtalar ekan O'zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.M.Mirziyoyev Ana kelgusida mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish borasida asosiy diqqat-e'tiborni quyidagi strategik yo'nalishlarga qaratadi:

Birinchidan, makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va keyingi yillarda erishilgan iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolish, Shuningdek milliy valyutamiz, ichki bozordagi narx-navo barqarorligini ta'minlash.

Ikkinchidan, iqtisodiyotimizning jahon bozoridagi raqobatdoshligini yanada oshirish, uning soha va tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilishdir.

Uchinchidan, aholimizning soni va yoshi tarkibini hisobga olib, bandlik muammosiga doir tizimli ishlarni davom ettirishimiz zarur

To'rtinchi masala, qishloq ho'jaligini yanada isloh qilish bo'yicha ustuvor vazifa –avvalo yer va suv resurslaridan oqilona fodalanishdir.

Beshinchidan, oldimizda turgan yana bir vazifa – xususiy mulk va tadbirkorlikni sub'yektlari va fermer ho'jaliklarining eksportdagi ishtirokni yanada rag'batlantirish bo'yicha qo'shimcha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirish.

Oltinchidan, mamlakatimiz iqtisodiy qudratining o'sishi, aholining turmush darajasi va sifatini oshirishga, ayniqsa qishloq joylarda bunga erishish – avvalobor, mamlakatimiz hududlarining kompleks va izchil rivojlanishi bilan belgilanadi¹.

Ko'rinib turibdiki, globallashuv sharoitida davlat iqtisodiy manfaat va xavfsizlikka tahdidni aniqlab, ularning oldini olish uchun iqtisodiy siyosat, maqsad va strategiyalarini ishlab chiqish naqadar muhim masalardan biridir.

Tayanch so'z va iboralar

BMT, Arab davlatlari ligasi, ASEAN, BRIKS, Yevropa ittifoqi, Jahon savdo tashkiloti, iqtisodiy globallashuv, integratsiya, liberalizm, xalqaro valyuta fondi, xalqaro mehnat tashkiloti, SHHT, NATO, MDH, YUNESKO, YUNISEF

Takrorlash uchun savollar

1. Jaxon xo'jaligi globallashuvi jarayonining mohiyati va obektiv xarakteri?
2. Jaxon xo'jaligi globallashuvi jarayonining sub'yektlari?
3. Xalqaro mehnat taqsimotida TMK roli nimada?
4. Iqtisodiy globallashuv jarayonining salbiy va ijobiy tomonlari nimada?
5. Harakatlar strategiyasida iqtisodiy havfsizlik masalalari?

¹ Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 68-72

6. Sh.Mirziyoyev globallashuv jarayonida iqtisodiy havfsizlik ta'minlash borasida qanday vazifalarni ilgari surdi?

6-§. MADANIYAT SOHASIDAGI GLOBALLASHUVNING MOHIYATI.

Reja:

- 1. Ijtimoiy munosabatlar tizimida madaniyat.**
- 2. Globallashuv sharoitida milliy, madaniy meros va qadriyatlarni saqlash zaruriyati.**
- 3. "Ommaviy madaniyat" va uning madaniy jarayonlarga ta'siri.**

1. Ijtimoiy munosabatlar tizimida madaniyat. Madaniyat bu insonlarning ijodiy faoliyati tufayli yaratilgan moddiy va ma'naviy boyliklar majmuigina bo'lib qolmay, ayni paytda u jamiyat taraqqiyotining darajasini ham ifodalaydi, ya'ni, jamiyatdagi bilim, mezon va qadriyatlarning ijtimoiy hayotda yig'indisi madaniyatda gavdalanadi. Umumiy bir soha sifatida madaniyatga tizimli yondashuv bir-biriga ta'sir etuvchi turli madaniyat sohalarining o'ziga xos xususiyatlarini qismlarga bo'lib emas, balki ularni yaxlit tasavvur qilish imkoniyatini beradi. Moddiy madaniyat va ma'naviy madaniyat-madaniyatning asosiy ikki sohasi bo'lib, bir-biri bilan o'zaro aloqada, o'zaro ta'sirda va bir-birini taqazo qilgan holda rivojlanadi. Moddiy madaniyat har doim ma'lum bir ma'naviy madaniyatning timsoli hisoblanadi, o'z navbatda ma'naviy madaniyat ham qaysidir narsa, belgi, tasvir, ramzlarda moddiy uyg'unlikda mujassam bo'ladi.

Moddiy madaniyatning ma'naviyatdan tarixan mantiqiy ayrilig'i faqat insoniyat taraqqiyotining boshlang'ich davrlarigagina xosdir. Jamiyatda ma'naviy faoliyat maxsus sohaga aylangach axloqiy mezonlar, din, san'at, huquq, siyosat, fan shakllanib, ma'lum doiradagi kishilar bu soha bilan shug'ullana boshladi.

Ma'naviy faoliyatning turli shakllari mavjud bo'lsada, ularning barchasi ilk butunlik elementlari bo'lib qoladi. Fan, din, falsafa, san'at, axloq, huquq, siyosat, mafkura, milliy o'zlik ma'naviy madaniyat shakllari hisoblanadi. Tadqiqotlarga e'tibor beradigan bo'lsak madaniyatning turli funksiyalarini ko'rish mumkin bo'ladi. Jumladan:

Olamni o'zlashtirish va qayta o'zgartirish; bunda inson atrof-muhitga o'z manfaatlarini doirasidan kelib chiqib ta'sir ko'rsatadi, o'zining hayotiy talablarni qondirish zarurati bilan o'z faoliyatini yo'lga qo'yadi. Bu faoliyatda insonni faqatgina moddiy manfaatdorlik emas, balki ma'naviy manfaatdorlik ham harakatga undaydi, unga ilhomboxsh kuch ato qiladi.

Himoya - moslashuv vazifasi; inson, jamiyat va atrof-muhit o'rtasidagi muvofiqlikni saqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu funktsiya uzoq vaqt qiyin tabiiy sharoitlarda barcha yangi himoya vositalarini ishlab chiqishda va ko'niktirishda odamning omon qolishini ta'minlaydi. Keyingi vaqtlarda o'ta jiddiy bo'lib turgan muammo tabiatni himoya qiluvchi vositalarni yaratish, bunda ekologik mezon, ekologik madaniyatning keng qo'lamda yoyilishini amalga oshirish zarur.

Signifikativ funktsiya (belgilash, ro'yxatga olish mazmunida) deganda mazmun, ma'no, nom, belgilar ko'lamini ishlab chiqish vositasida dunyoning qiyofasida, voqelikni belgi tizimining yaratilishi nazarda tutiladi. Sezgilari ham, tashqi idrok ham, na shurning bevosita kechinmalar holidagi yig'indisi ham yo'nalishni aniqlash tizimini insonga ta'minlab bermaydi. Bu vazifani ma'lumotlarni o'zida saqlamasdan, nazariy modellar va axborotlar bilimini to'plashni vujudga keltirish uchun faqat material bo'lib xizmat qiluvchi mazmun bajaradi.

Axborotlarni o'zlashtirish va yig'ish funktsiyasi xabarlarini yig'ish va saqlash vositasi tabiiy xotira yoki xabarlarini narsalarga yozish (qo'lyozmalar, kartinalar, plastinkalar, kitoblar, kinotasmalar, elektron xotira, raqamli yozuvlar) tariqasida bo'lishi mumkin. Har qanday holatda axborotlarni tashkil qilish, uning qadri va mazmuni bo'yicha tartibga solishning ma'lum usuli va belgilar tizimi zarur. Hozirgi davrda til belgilar tizimining keng qo'llami va o'ta ahamiyatli bo'lib qolmoqda.

Kommunikativ funktsiya (aloqa almashuv)- mohiyatni aniqlashda bilimlar, fikrlar, ma'naviy kuchlarni almashlash. Ijtimoiy hayot doimiy ravishda energiya, axborot, o'zaro amaliy hamkorlikni taqozo qiladi, negaki, faqat turli tiplarning munosabati (an'anaviy, funksional-ahamiyatli, shaxslararo, ishlab chiqaruvchi, ma'rifiy-madaniy) jamiyatning tuzum sifatida mavjudligini va uning keyingi taraqqiyotini ta'minlashga qodir.

Normativiylik funktsiya (mezon-meyoriy) kishilar hulqini tartibga solish, ularning kuchini bir meyorda va jamiyatni bir butunlikda saqlash maqsadida muvofiqlashtirishda namoyon bo'ladi. Meyor-qoida qandaydir harakat yoki

qandaydir predmetlar, narsalarni yaratish sohasida aniq ko'rsatmadir. Ongli ravishda o'rnatilgan yoki ko'p asrlik an'analarga tayanuvchi majburiy, taqiqlovchi meyorlar mavjud (huquqiy, axloqiy meyorlar), biroq ularning mazmuni mavjud ijtimoiy qoidalarni barbod qilmaslik uchun kishilar faoliyatini tartibga solish, aniq chegaralar bilan belgilash.

Ruhii yoki «loyihavii» mo'tadillik- bayramlar, diniy marosimlar, o'yin, tomosha jarayonlarida ruhiy zo'riqishlarni bartaraf qilish. Qoniqarsiz istaklar, ro'yobga chiqmaydigan niyatlar, amalda taqiqlanuvchi janjallar mavjudligi ruhiy zo'riqishlar paydo bo'lishiga olib kelib, nafaqat ma'lum bir shaxs salomatligiga zarar yetkazadi, balki, ommaviylik kasb etib, jamiyat harakatini izdan chiqarishi mumkin. Shuning uchun madaniyatda keraksiz xissiyotdan xalos bo'lish mexanizmi ishlab chiqilgan.

Umuman olganda, insoniyat yaratgan yaratgan moddiy va ma'naviy qadriyatlar, boyliklar ularning qobiliyatlari, munosabatlari va hattiharakatlarining mohiyatan namoyon bo'lishidan iborat. Inson madaniyat sohasida bu ma'naviy qadriyatlar asosida o'z faoliyatini yuritarkan, ayni vaqtda, o'zi rivojlanadigan, o'zi o'zgarib turadigan mohiyat sifatida ham namoyon bo'ladi. Shunday ekan, madaniyat moddiy boyliklar shaklida, inson faoliyatining tayyor mahsulotlari shaklida va insonning jonli qobiliyatlari, bilimlari shaklida yashab turadi. Bu meros, an'analalar, turmush tarzi, tafakkur tarzi har bir mintaqada o'ziga xos, takrorlanmas xolda shakllanganki bu go'zallik o'z sohibiga har doim takrorlanmas kuch, yaratuvchanlik ato etib kelgan. Shu bois insoniyat bu go'zallikni har doim qadrlab kelgan. Lekin keyingi paytlarda yaratilgan yuksak texnologiyalar, mashinalashgan ishlab chiqarishlar, mahsulotlarni katta miqdorda ayirboshlash, ishchi kuchi migratsiyasi bilan bog'liq hodisalar insoniyat hayotida umumiylikni keltirib chiqardi. Betakror go'zallikka putur yetgandek bo'ldi.

Globalashuv tufayli yuqoridagi mavzularida qayd etib o'tilganidek, madaniyat sohasida ham o'zaro ta'sir, o'zaro muloqot keskin kuchaydi. Insoniyat madaniyatidagi rang-baranglik o'rnini umumiylik egallay boshladi. Globallashuvning madaniyat sohasidagi ko'rinish va natijalari ham ko'pgina olimlarning diqqat markazida bo'lmoqda. To'g'ri, bironta madaniyat butun insoniyat tarixida mustaqil tarzda rivojlanmagan. Ular qadimdan o'zaro muloqatga kirishgan, bir-biriga ta'sir o'tkazgan, bir-birini boyitib kelgan. Har qanday milliy madaniyat o'zga aloqa va ta'sir asnosida faol rivojlanishi, taraqqiy etishi mumkin. Ammo bugungi kunda milliy madaniyatlardagi

o'zgarish va jarayonlar texnologik inqilob, iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy hayotdagi globallashuv jarayonlari ta'sirida kechmoqdaki, shu jihatdan globallashuv aslini olganda, xalqlarni izchillik bilan mahalliy manfaat, milliy an'ana, qadriyat va axloqiy meyorlardan uzoqlashtirish maqsadiga xizmat qilmoqda.

Bugungi kunda globallashuv butun dunyoni qamrab, jo'shqinlik bilan kechayotgan bu jarayonlar bir vaqtda ikki, bir-biriga zid, teskari harakatni yuzaga keltirdi. Bir tomondan, globallashuv tarafdorlari, undan manfaatdorarlar, dunyoda yetakchilik qilayotgan, mazkur jarayonni faol boshqarishga intilayotgan dunyoning rivojlangan davlatlari yagona umumjahon madaniyati shakllanishini istashmoqda, shunga moyillik asosida harakat qilishmoqda. Yuqorida mondializm xususida fikr yuritgan edik. Mondialistik harakat milliy madaniyatlarining o'ziga xosligi yo'qolishi, kam sonli xalqlarning o'z tilini unutishi, hattoki, yo'qolib ketish holatlarini yuzaga keltiradi. Bir paytning o'zida zamonaviy madaniyat libosini kiygan, aslida manqurtlik kasalligini keltiruvchi - "ommaviy madaniyat" umumjahon madaniyatiga aylanmoqda. "Tabiiyki, «ommaviy madaniyat» degan niqob ostida axloqiy buzulqik va zo'ravonlik, individualizm, egotsentrizm g'oyalarini tarqatish, kerak bo'lsa, shuning hisobidan boylik orttirish, boshqa xalqlarning necha ming yillik an'ana va qadriyatlari, turmush tarzining ma'naviy negizlariga bepisandlik, ularni qo'porishga qaratilgan xatarli tahdidlar odamni tashvishga solmay qo'ymaydi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek "Hozirgi vaqtda axloqsizlikni madaniyat deb bilish va aksincha, asl ma'naviy qadriyatlarni mensimasdan, eskilik sarqiti deb qarash bilan bog'liq holatlar bugungi taraqqiyotga, inson hayoti, oila muqaddasligi va yoshlar tarbiyasiga katta xavf solmoqda va ko'pchilik butun jahonda bamisoli balo-qazodek tarqalib borayotgan bunday xurujlarga qarshi kurashish naqadar muhim ekanini anglab olmoqda"¹. O'z navbatida, madaniy unifikatsiyalash, madaniy rang-baranglikni inkor etishga bo'lgan harakatlar madaniy identifikatsiyalash, ya'ni madaniy o'ziga xoslikni saqlab qolishga intilishni yuzaga keltirmoqda. Bu borada ta'lim-tarbiya tizimi oldida quyidagilar vazifalar muhim ahamiyat kasb etadi:

1. Yoshlarga hozirgi davrning davrning ma'naviy-mafkuraviy manzarasini va undan ko'zlangan maqsadlarni tushuntirib borishga keng e'tibor qaratish.
2. Fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish tamoyilining mazmun-mobiyati, ahamiyati va yoshlarda undan foydalanishga doir bilim, ko'nikmalar shakllanishiga erishish.

¹ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008 yil, 117-bet.

3. Yoshlarga g'oyaviy bo'shliq, ma'naviy tahdid tushunchalarini keng yoritib bergan xolda millat mentalitetiga qaratilgan ma'naviy tahdidlarning mazmunini va undan ko'zlangan maqsadlarni ochib berish.

4. Yoshlarga millat ma'naviyatini shakllantiruvchi, uning barhayotligining ma'naviy omillari xususida tushuncha berish.

5. Yoshlarda Vatan oldidagi, millat oldidagi ma'suliyat, ma'naviy meros oldidagi vorisiylik xissini, kelajak oldidagi ma'suliyat tuyg'ularini tarbiyalashga alohida e'tibor qaratish zarur.

2. Globallashuv sharoitida milliy, madaniy meros va qadriyatlarni saqlash zaruriyati. Hozirgi davrda jamiyat hayotining turli sohalarida ro'y berayotgan globallashuv jarayonlari natijasida eng ilg'or, yangi texnologiyalar asosida ishlab chiqarishni texnik qayta jihozlash, tezkor zamonaviy kommunikatsiya va aloqa vositalari tizimlarining rivojlantirish, ilmiy, texnik hamda odamlar hayoti uchun zarur axborotlarni tarqatish, mehnat taqsimoti va unumdorligini ta'minlash uchun qulay sharoit yaratmoqda. Ijtimoiy taraqqiyotda cheklanmagan imkoniyatlarga yo'l ochmoqda. Bular, o'z navbatida, mamlakatlarni, turli xalqlarni, millatlarni ijtimoiy hayotning turli sohalarida o'zaro yaqinlashuviga, jahon iqtisodiyotini yagona tizimga integratsiyalashuvi jarayonlarini faollashtirishga xizmat qilmoqda. To'g'ri globallashuvning ijtimoiy hayotning turli sohalaridagi yutuqlarini, ijobiy tomonlarini rad etmaymiz. Qolaversa bu masalaga alohida mavzu sifatida to'xtalib ham o'tildi. Shu bilan birga ijtimoiy hayotning barcha sohalarini keng qamrab olgan, unga qaysidir ma'noda o'z ta'sirini o'tkazib borayotganini, uning natijasi o'laroq madaniy-ma'naviy hayotdagi yaqinlashuv, umumiylik o'ziga xos ixtilof va ziddiyatlarning vujudga kelishiga sabab bo'lmoqda. Globallashuvning aks ta'siri avvalo, madaniyat va uning bosh ildizi bo'lgan ma'naviy-axloqiy qadriyatlarda namoyon bo'lmoqda. Iqtisodiy yoki turli mazmundagi qator manfaatlarni qondirishga qaratilgan xatti-harakatlarni amalga oshirishga kirishar ekan insoniyat qator dasturlar ishlab chiqadi, hujjatlar qabul qiladi, qator yutuqlarga erishadi. Afsuski, ikkinchi bir soha ko'p hollarda e'tibordan chetda qoladi.

Boshqacha aytganda, madaniyat, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar jamiyat ijtimoiy - iqtisodiy taraqqiyotning muhim qismi bo'lsada, unga ortiqcha yuk sifatida yondashilib, katta xatoga yo'l qo'yiladi. Bu borada nemis olimi U.Bek "Globallashuv nima?" kitobida "Hozirgi dunyoni, uning inqiroz va olg'a siljishlarini "madaniy siyosat", "madaniy kapital", "madaniy o'ziga xoslik",

"madaniy gomogenlik", etnik, irqiy va jinsiy mansublik kabi tayanch soʻzlar bilan ifodalanadigan voqealarning mazmuniga eʼtibor qilmasdan, tushunish mumkinligi" haqidagi fikr hamda qarashlarni bemaʼnilik deb ataydi. Bugungi kunda ular har qanday mamlakat, xususan, Oʻzbekistan uchun ham olgʻa harakat qilishning samarali sharti, jamiyat maʼnaviy-axloqiy sogʻlomligining kafolati, kuchli davlat sifatida jahon hamjamiyatida munosib oʻrin egallashiga boʻlgan umid tayanchini tashkil etadi. Islom Karimov taʼkidlaginidek, "Biron-bir jamiyat maʼnaviy imkoniyatlarini, odamlar ongida maʼnaviy va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirmay hamda mustahkamlamay turib oʻz istiqbolini tasavvur qila olmaydi"².

Inson hayoti va faoliyatining barcha jabhalarini qamrab olgan globallashuv jarayonlari butun insoniyat tamadduni va madaniyatida qaysidir mazmunda jiddiy oʻzgarishlarga sabab boʻlmoqda Gruzin olimi I.D.Kalandiya bu borada shunday deydi: "Aslini olganda, garchi globallashuv umumjahon tamadduni tarixiy taraqqiyotining natijasi va yangi bosqich boʻlgani bilan birga, yangi sivilizatsiyani dunyoga keltirmoqda"³. Mazkur fikrni davom ettirib, aytish mumkinki, madaniyat va qadriyatlar tizimidagi yangi sivilizatsion oʻzgarishlar qanday yoʻqotishlar evaziga qoʻlga kiritilayotganiga olim unchalik eʼtibor bermagan.

Madaniyatshunoslarning umumiy fikriga koʻra, sivilizatsiya nafaqat iqtisodiy, siyosiy, balki maʼnaviy-axloqiy va diniy sohalarda ham aql-tafakkurning tantanasi va yoyilishidir. "Sivilizatsiya" atamasi qoʻllanila boshlagan paytdan boshiab u yovvoyilik, qoloqlik va ibtidoiylikka zid boʻlgan maʼrifatli jamiyat va ideal, avvalo, maʼnaviy-axloqiy jamiyat ideali sifatida talqin etilgan. Ishlab chiqarishi, savdo, ilm-fan, sanʼat, madaniyat, erkinlik va adolat taraqqiyoti bilan bogʻlangan. Shuning uchun "sivilizatsiya" va "madaniyat" bir-biriga yaqin, bir-biri bilan uzviy bogʻliq hatto sinonim tushunchalar sifatida qoʻllanilgan. Amerikalik madaniyatshunos olimlar A.Kreber va K.Klakxon «madaniyat» soʻzining 150 dan ortiq talqini va taʼrifini aniqlab, ular koʻp hollarda «tamaddun» atamasi bilan birgalikda koʻllanilganini aniqlashgan.

¹ Bek U. Chto takoye globalizatsiya? Oshibki globalizma - otveti na globalizatsiya. –M.: Progress-Traditsiya, 2001. –S.91-92.

² Karimov I.A. Oʻzbekiston buyuk kelajak sari. – T.: Oʻzbekiston 1998, 524-bet.

³ Kalandiya I.D. Kultura v protsesse globalizatsiya. // Rossiya i Gruzziya: dialog i rodstvo kultur: Sbornik materialov simpoziuma. –Vip. 1. –SPb.: Sankt-Peterburgskoye filosofskoye obshchestvo, 2003. –S.153.

Globallashuv jarayonlari bilan bog'liq salbiy hodisalar. avvalo, madaniyat, ma'naviyat sohasida ko'proq namoyon bo'lmoqda. Shu jihatdan ham globallashuvga butun dunyoni qamrab olgan "madaniy inqilob" deya ta'rif berish mumkin. Ba'zi tadqiqotlarda bir qator olimlar yaqin kelajakda sifat jihatdan butunlay yangi inson va jamiyatning global shakli - "megajamiyat", "megamadaniyat", "superetnos"ning shakllanishi haqida fikrlar bildirishoqda. Bir qarashda bunga muayyan asos bordek tuyuladi. Darhaqiqat, xalqaro mehnat taqsimoti, xalqaro tashkilotlar faoliyati, xalqaro huquqiy normalar, global axborot tizimining shakllanishi, aholi migratsiyasi kabi hodisalar ma'lum ma'noda «global inson» ni shakllantirmoqda. O'z vatanida tug'ilib, chet eldi ta'lim olgan, yoki biron-bir chet mamlakatda ishlayotgan, o'zi tushgan muhitga, u yerdagi xalqning urf-odatlariga moslashishga, begona xalq yashash tarzini qabul qilishga majbur bo'lgan odamni kaysi millat yoki madaniyat vakili deyishning o'zi muammo. Mamlakatlar, xalqlar, millatlar o'rtasida ijtimoiy hayotning turli sohalarida keskin ro'y berayotgan tub o'zgarishlar, o'zaro hamkorlikning jadal o'sishi, savdo-munosabatlarining o'sishi, xalqaro mehnat taqsimotining yuz berishi, jamiyat hayotining ijtimoiy-madaniy, ma'naviy, ilmiy sohalaridagi hamkorlik turli madaniyatlarni umumlashtiruvchi, yangi etnosni shakllantiruvchi omillar vazifasini o'tamoqda.

Albatta, yagona universal madaniyatni yaratish tarafdorlarining fikrlari real voqelikka ko'p jihatdan muvofiqligiga qarshi chiquvchilar talaygina. Buning tasdig'i sifatida aytish mumkinki, Fransiyada yashovchi afrikalik musulmonlarning bir necha yildan beri davom etayotgan o'z milliy-diniy o'ziga xosliklarini saqlab qolish uchun harakatlari hattoki, hukumatga qarshi chiqishlari to'xtovsiz davom etayotgani, Germaniya fuqaroligini olgan, ammo o'z milliy-yetnik g'oyalariga sodiq qolgan ko'p ming sonli turklarni keltirish mumkin. Iroq yoki Turkiyadagi kurdlar harakatini, Xitoydagi uyg'urlar, tibetliklar harakati ham bunga misol bo'la oladi.

Ba'zi tahlillarda globallashuv, xususan uning asosiy belgilari va harakatga keltiruvchi kuchlari mehnat taqsimoti, aholi migratsiyasi, internet yoki boshqa eng zamonaviy axborot vositalari inson tabiatidagi yaxshi yoki yomon, yuksak yoki tuban xususiyatlarni yuzaga chiqarishi mumkin. Ammo ular yangi odamni, ya'ni muayyan etnos, millat, madaniyatdan tashqari bo'lgan odamni dunyoga keltira olmaydi. Shuning uchun ayrimlarning yaqin orada madaniyatlarining to'liq integratsiyalashuvi, ya'ni yagona dunyo madaniyatining shakllanishi hatto, millat va xalqlarning allaqanday yagona "super-yetnos" yoki

"megajamiyat"ga aylanishi haqidagi orzularining amalga oshishi haqiqatdan yiroqdir degan nazar ilgari suriladi. Lekin taxlilda keltirilayotganidek inson tabiatidagi yaxshi yoki yomon, yuksak yoki tuban xususiyatlarni yuzaga chiqarishi mumkin ekan, shuning o'zi madaniyat, ma'naviyatga kushanda hisoblanmaydimi?

Globalashuv sotsiologiyasi muammolariga bag'ishlangan tadqiqot ishlarida uning madaniyatdagi ifodasi va oqibatlarini o'rganish yetakchi yo'nalishni tashkil etayotgani behuda emas. Insoniyatning buguni va kelajagi haqida fikr yuritayotgan olimlar ichida madaniyat (sivilizatsiya) lar o'rtasidagi farqni absolyutlashtirib, ziddiyatlarni tinch yo'l bilan hal etib bo'lmashligi haqida gapirayotganlar ham bor. Xususan, o'z paytida amerikalik olim S.Xantingtonning «Tamaddunlar to'qnashuvi» kitobi katta shov-shuvga sabab bo'lgan edi. Bu kitobida u tamaddunlar o'rtasidagi kurash kundan-kun avj olishi, yagona insoniyat haqida gap bo'lishi mumkin emasligi va XXI asr tamaddunlar o'rtasidagi to'qnashuv asri bo'lishi haqidagi fikrni ilgari suradi. "Mening fikrimcha, — yozadi u, — tug'ilayotgan mafkura ham, iqtisod ham ziddiyatlar manbai bo'lmaydi Insoniyatni ajratib turadigan eng muhim chegara va to'qnashuvlarning asosiy manbaini madaniyat belgilaydi. Millat — davlat xalqaro ishlarining bosh ishtirokchisi bo'lib qoladi, biroq global siyosatning eng jiddiy ixtiloflari turli sivilizatsiyalarga tegishli bo'lgan millat va guruhlar o'rtasida sodir bo'ladi. Sivilizatsiyalar to'qnashuvi jahon siyosatining asosiy omiliga aylanadi. Sivilizatsiyalar o'rtasidagi bo'linish chiziqlari ayni kelajakdagi frontlarning chiziqlaridir"².

S.Xantington har qanday sivilizatsiya (madaniyat) ning o'zagini din tashkil etishi va diniy e'tiqod xalqlar ongida eng chuqur ildiz otgan, turg'un ekani haqidagi g'oyaga tayanadi. Shu asosda u navbatdagi jahon urushi, agar u sodir bo'lsa, asosan, diniy e'tiqodlardagi ziddiyatlar zaminidagi urush bo'lishini bashorat qiladi Rossiyalik olim F.X.Kessidi S.Xantington fikriga to'liq qo'shilmasada, shunday fikrlaydi. "Fikrimizcha, — yozadi u, — agar urush sodir bo'lsa, u etnik urush bo'ladi Har holda hozirgi lokal to'qnashuvlar, harbiy harakatlar va ziddiyatlarning aksariyat ko'pchiligi etnik xususiyatga ega. Aks xolda, jahonda sodir bo'layotgan iqtisodiy va siyosiy birlashish jarayonlari borayotgan, jahon kommunikatsiya tizimi shakllanayotgan, atrof muhitni asrash buyicha hamkorlikda harakatlar kengaygan bir sharoitda etnik va separatizm

¹ Xantington S. Stolknoveniye sivilizatsiy i preobrazovaniye mirovogo poryadka. Novaya postindustrialnaya volna na Zapade. —M., 1999. —S.24-32

² Polis. —1994. —№1. —S.33. // <http://www.polestudies.ru>

tendensiyalarining kuchayishini (masalan, Basklar mamlakatida, Tog'li Qorabog', Abxaziya, Checheniston, Kurdiston va boshka hududlarda) tushuntirish qiyin bo'ladi"¹.

Masalaning murakkabligini nazardan qochirmagan holda, tarixning bunday qayg'uli oqibatlari haqidagi fikrlarga to'liq qo'shilib bo'lmaganda, ularda o'ziga yarasha asos bor. Aholi geografiyasi, demografiyasi shug'ullangan tadqiqotchilardan Vernadskiy va boshqalar aholining o'sishi shu temp formatida davom etadigan bo'lsa (XIX-XX asr boshlari) asr oxirida demografik portlash yuz berishini aytishgan bo'lsa, asr oxirida aholining keskin kamayishi yuz berishi ularning tahlillari asosiz ekanidan emas. Ular, xuddi shu singari Xantington ham yuz berishi mumkin bo'lgan to'qnashuvlardan insoniyatni ogohlantirishdi. Insoniyat esa bu tahdidni aylanib o'tdi, uning yechimini izladi. Shu jihatdan olib qaraganda bu tadqiqotchilardan minnatdor bo'lish lozim. Shuningdek asarda V.S.Neypaul tomonidan ilgari surilgan "universal sivilizatsiya" formulasi ilgari suriladi: johilliklardan voz kechish, har bir millat uchun nihoyatda muhim bo'lgan qadriyatlarga tayanish, muhim bo'lmagan an'analardan voz kechish, naf keltiradigan kechalar, uchrashuvlar asosida faoliyat yuritish-Davos madaniyati va sh.k. Qolaversa, xalqaro tashkilotlarning say-harakatlari ham behuda ketmasa kerak. Yagona madaniyatni shakllantirish g'oyasi hozircha xom hayoldan boshqa narsa emas, chunki turli xalqlarning madaniyatlari, qadriyatlari o'rtasida muayyan mushtaraklik ezigulikka qaratilganlik kabi umumiy xususiyatlar mavjud bo'lsada, ularning namoyon bo'lish shakllari, eng muhimi, dunyoni idrok etish, dunyoqarash, voqelikka bo'lgan o'zaro munosabatlar kabi bazaviy tushunchalarida jiddiy farqlar mavjudligi ma'lum.

Madaniy globallashuvning bugungi kundagi tendensiyalari, g'oya, niyat bilan, ular qanchalik asosli bo'lishiga qaramay, tarkib topgan real voqelik o'rtasida jiddiy farq borligini inobatga olish zarur.

Xo'sh, real voqelik qanday? Globallashuv tarixiy taraqqiyot mantig'i bilan bog'liq tabiiy jarayonmi yoki uni kimningdir irodasi boshqarayaptimi? Agar hozirda kechayotgan jarayonlar "global kishilik hamjamiyatini shakllantirayotgan"² va «Sayyorada yashayotgan absolyut ko'pchilik asta-sekin hayotni tashkil etishning asosiy tamoyillari haqida umumiy qarashni ishlab

¹ Kessidi F.X. Globalizatsiya i: kultumaya identichnost. // Voprosi filosofii. –2003. –№1. –S.80-81

² Kuvaldin V. Globalnost: novoye izmereniye chelovecheskogo biti Y. –M.: 2003. –S.35.

chiqayotgan»¹ bo'lsa, unda jahon hamjamiyati hayotining barcha sohalari qamrab olgan ziddiyatlar mantiqan insoniyat ongli ravishda o'z halokati tomon borayotgani haqidagi fikrga olib kelmaydimi? Bu borada J.Stiglitsning nuqtai nazaricha agar globallashuv avvalgidek amalga oshiriladigan bo'lsa, taraqqiyotga yordam berish u yoqda tursin, bundan keyin ham qashshoqlik va beqarorlikni yuzaga keltirishda davom etaveradi. Yuqoridagi savollarga obektiv javob berish uchun, avvalo, globallashuv sub'yektini aniq belgilash kerak bo'ladi. Tadqiqotchi B.Umarov bu borada shunday yozadi: "Globallashuv xalqaro munosabatlarning an'anaviy ishtirokchisi — davlatlardan tashqari umumdunyoviy jarayonlarga bevosita ta'sir etuvchi, yangi sub'yektlarni Xalqaro valyuta jamg'armasi, Jahon banki, YUNESKO, Xalqaro mehnat tashkiloti, Jahon savdo tashkiloti, "Katta sakkizlik" (AQSH, Germaniya, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Fransiya, Kanada, Italiya, Rossiya), mintaqaviy tashkilotlar (Evropa hamjamiyati, ASEAN va hokazo), transmilliy korporatsiyalar (TMK), nodavlat tashkilotlar ("yashillar" harakati kabi), B.Geys singari badavlat kishilarni siyosat maydoniga olib chiqdi"². Albatta, bular mavhum, egasiz tashkilotlar emas va ularning o'z qarorlarini qabul qilishiga muayyan manfaatlar, kuchlar o'z ta'sirini o'tkazadi.

Taraqqiy etgan mamlakatlar taraqqiyot yo'lini tanlash yangi hodisa emas, albatta. G'arb ilm-fani yutuqlaridan foydalanish, yangi zamonaviy texnologiyalarni o'zlashtirish, bu borada hamkorlik qilish mumkin va zarur. Ammo modernizatsiyalash yo'lida G'arb madaniyati va qadriyatlarini ham to'liqligicha o'zlashtirishga harakat qilgan mamlakat qator muammolarga duch kelgani tarixdan ma'lum. Bunday "tajriba" natijasida o'zining qaysi madaniyatga mansubligi haqida aniq tasavvurga ega bo'lmagan, o'zligini anglashdan mahrum bo'lgan jamiyat, ichki ziddiyatlarga to'la davlat sifatida shakllanadi. Bunday siyosat Turkiyada sharmandalik yakunlanganiga tarix guvoh. Shuning uchun ayrim davlatlarning, ayniqsa, minglab yillik tarixga ega davlatlarning rahbarlari madaniy o'ziga xoslikni saqlagan holda, davlat hamda jamiyatni modernizatsiyalash yo'lini tanlamoqda. Xususan, yapon isloxotchilari bundan qariyb bir asr avval, "yapon ruhiyati, G'arb texnologiyalari" iborasida o'z yo'llarini belgilab oldi, bugungi kunda Yaponiya o'zligini, tarixiy-madaniy ildizlarini saqlagan holda, yuksak taraqqiy etgan davlatga aylandi. Xuddi shunday holatni "global fikrlar, lokal harakat qil" tamoyiliga suyanib ish tutgan

¹ Gorbachev M.S. i dr. Grani globalizatsii: trudniye voprosi sovremennogo razvitiya. —M. 2003. — S.32.

² Umarov B. Globallashuv ziddiyatlari. —T.: Ma'naviyat, 2006. 11-bet.

Janubi-Sharqiy Osiyodagi Singapur, Tayvan, Janubiy Koreya va boshqa mamlakatlarda ham kuzatish mumkin. Ular g'arblashmay turib ham taraqqiyotga erishdi.

Yuqoridagi tahlil va mulohazalar asosida xulosa qilish mumkinki, bugungi kundagi globallashuv jarayonlarining asosiy muammolaridan birini madaniyatlararo muloqotni to'g'ri yo'lga qo'yish tashkil etadi. Jahon madaniyatida ro'y berayotgan va "madaniy inqilob" tusini olayotgan o'zgarishlarning natijasi o'laroq ikki, bir-biriga zid, bir paytning o'zida bir-biri bilan o'zaro chambarchas bog'liq harakat yuzaga keldi. Bular: kishilik madaniyatining rang-barangligini inkor etish asnosida madaniy unifikatsiyalash (birlashtirish)ga harakat va uning ortida yashiringan maqsadlarga qarshilik asnosida boshlangan madaniy identifikatsiyalash (ajralish), aniqrog'i, davlat va xalqlar tomonidan madaniy o'ziga xosliklarni saqlab qolishga intilishni kuzatish mumkin.

Insoniyat tarixi — taqdiri umumiy bo'lgan Yer kurrasidagi barcha xalq, mamlakat va hududlarni o'z ichiga olgan umumsivilizatsiya hisoblanadi. Bu oqimga xalqlar o'z noyob madaniyati, an'analari, betakror tarixiy tajribasi bilan qo'shiladi. Bu qarama-qarshilik asosidagi birlik aslida dunyo yaxlitligini tashkil etadi, uning boyligini ifodalaydi, uning doimiy harakatda bo'lgan murakkab tizim sifatidagi yashovchanligini belgilaydi. Insoniyat dunyosining go'zalligini unda yashovchi turli xalqlar, millatlar, mintaqalar madaniyati, turli urf-odat, an'analarining rang-barangligi tashkil etadi. Uni asrash, keyingi avlod yetkazish, yanada boyitish ma'naviy-ifa'rifiy jamiyat oldidagi muhim vazifa hisoblanadi.

3. "Ommaviy madaniyat" va uning madaniy jarayonlarga ta'siri.

Insoniyat tarixida har doim turli xil ma'naviy, g'oyaviy kurashlar, ta'sirlar turli maqsadlarni ko'zlagan, xolda, turli manfaatlar amalga oshishini ta'min etishda sodir etib kelingan hodisa hisoblanadi. Bugungi globallashuv sharoitida "ommaviy madaniyat" mafkuraviy ta'ziqlarning eng kuchli, odamlar tafakkurini o'z izmiga solishning o'ta nozik unchalik sezilmaydigan kuchli quroliga aylanib bormoqda. Madaniyat, san'at, fan va ta'lim hozirgi kunda ayrim davlat va tashkilotlar tomonidan mafkuraviy ta'sir o'tkazish va ma'naviy-madaniy ekspansiyani amalga oshirish vositasiga aylanmoqda.

Sobiq ittifoqning barbod bo'lishi bilan AQSH duyodagi eng qudratli davlat sifatida iqtisodiy, siyosiy hamda madaniy sohada globallashuv jarayonining harakatlantiruvchi kuchiga aylana boshladi. Bugungi kunda turli mamlakatlarda

namoyish etilayotgan kino, videofilm va shou-biznes namoyishlarining katta uch qismi Amerika mahsulotiga to'g'ri keladi. AQSH ning globallashuv jarayonida tutgan o'rnini haqida to'xtalib, Valladao bunday deb yozadi: "Amerika jamiyati ko'p jihatdan globallashib ulgurgani sababli o'zaro mushtarak va global dunyoning tezroq shakllanishidan mafaatdor ekanligi shubhasizdir"¹. Ammo, bu jarayonlar jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va madaniy hayotiga salbiy ta'sir o'tkazmoqda.

G'arb davlatlari tomonidan ijtimoiy hayotda madaniyat, san'at, ta'lim va fan xizmatlari bozorini monopoliyalashtirishga intilishini globallashuv jarayonlarini keltirib chiqarayotgan jiddiy tahdidlar qatoriga qo'shish mumkin. Bu masalada ayniqsa Amerikaliklar faol harakat qilmoqda. Dunyoqarashi, yashash tarzi, qadriyatlari yaqin bo'lgan Yevropa davlatlari ham ijtimoiy hayotning barcha sohalarini "amerikalashtirish"ga qarshilik ko'rsatayotgani buni tasdiqlaydi. Qolaversa bugungi kunda globallashuv jarayoni bilan bog'liq tobora keng yoyilib borayotgan "Ommaviy madaniyat" deb nom olgan madaniyatning yoshlarga ta'siri uning ijobiy tomonlari bilan birgalikda uning salbiy tomonlariga ham alohida e'tibor berilmoqda. "Ommaviy madaniyat" deb nom olgan xalqimiz tasavvurlariga, tarixiy-madaniy an'analariga, sharqona odob, axloq normalariga zid qarashlar, pornografik asarlar, siyqa san'at va g'ayriaxloqiy asarlar bugun milliy madaniyatlarga, milliy o'zlikni anglashga katta xavf solmoqda.

Mutaxassislar "ommaviy madaniyat"ning kishini ijtimoiy muammolaridan, jamiyatda sodir bo'layotgan o'zgarishlardan uzoqlashtirish, chalg'itishga qaratilganligini qayd etishadi... "Ommaviy madaniyat"da o'ta sodda, siyqa qarashlar yangilik, badiiy-yestetik kashfiyot sifatida taqdim etiladi². Haqiqatdan ham hozirgi kunda "ommaviy madaniyat"ni targ'ib etuvchi ko'rsatuvlar televideniye keng o'rin olishga intilmoqda. Televideniye esa hammamizga ma'lumki bugun nafaqat ommaviy axborotni tarqatish vositasi, balki u insonlarga ijtimoiy ongini va estetik didni shakllantiradi. Bundan tashqari o'zicha kishilarda duch kelayotgan ijtimoiy muammolarni "yechishga" yordam beradi, u kishilarni hayot tashvishlaridan, aniqrog'i, ijtimoiy muammolardan chalg'itadi, ularning uyi, xayolini yengil-yelpi, siyqa, goxo hayosiz syujetlarga qurilgan dasturlari, ko'rsatuvlari bilan band qilib qo'yadi. Masalan, kishi qanchalik qashshoq, kambag'al bo'lsa, televideniye shunchalik ko'p

¹ Umarov B. Globallashuv ziddiyatlari. -T.:Akademiya, 2006. 12 -bet.

² Qarang. Qo'chqorov V. Milliyligimizni anglash va ijtimoiy siyosiy jarayonlar. -T.:Akademiya, 2007. 117-bet.

bog'lanadi, hayotiy muammolarini televideniye orqali hal etishga (Eskeypizim-
"yessare") moyil bo'ladi¹.

"Ommaviy madaniyat"da g'ayri hayotiylik, zo'ravonlik targ'ib etiladi, qahramonlar g'ayri hayotiy sharoitga tushib qoladi, bir qahramon yuzlab, hatto minglab qarshi kuchlarni mahv etadi. Insoniy xususiyatlardan mahrum personajlar bir-birining ichak-chavoqlarini titib yo'qotgan narsasini izlaydi. Ularga hech qanday to'siq yo'q: istasa bir xatlab to'rqavat bino ustidan sakrab o'tishi, istasa butun bir shaharni yakson qilishi mumkin. Bunday "asarlar" kishilarda, ayniqsa, yoshlarda yovuzlik, zo'ravonlik tuyg'ularni uyg'otmay qo'ymaydi². "Ommaviy madaniyat" yaratishga ijod qilishga, kishidagi intellektual salohiyatini rivojlantirishga emas, balki undagi iste'molchilik kayfiyatini kuchaytiradi. Maxsus tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, iste'molchilik kayfiyatiga berilmaydigan, undan mutloq ozod kishi yo'q. "Ommaviy madaniyat" kishida o'z mahsulotlariga nisbatan ehtiyoj, zaruriyat uyg'otishni, shu tariqa chiqarayotgan maxsulot va tovarlarni ko'proq va tezroq sotishni nazarda tutadi.

Endi "Ommaviy madaniyat" masalasiga chuqurroq nazar soladigan bo'lsak, u hozirgi kunda madaniy globallashuvning, madaniy ekspansiyaning, qolaversa, mafkuraviy tazyiqning eng xavfli quroliga aylanib bormoqda. Shuni e'tiborga olish lozimki "Ommaviy madaniyat"da milliy qadriyat, milliy xususiyat va milliy tarixga asos yo'q. U milliy madaniyat, milliy an'ana, milliy xarakter yoki milliy mintalitet hamda milliy manfaat nima ekanligini bilmaydi. "Ommaviy madaniyat" ning mohiyati va uning xavfli jihatlari haqida fikr yuritishdan avval bir tushunchaga muayyan aniqlik kiritish zarurdir. Chunki "Ommaviy madaniyat"ning turli olim va mutaxassislar tomonidan turlicha talqin etilmoqda. Bu borada olim U.Saidov o'zining "Globallashuv va madaniyatlarning muloqot" deb nomlangan asarida ularni umulashtirgan holda quydagicha ifodalaydi:

- "Ommaviy madaniyat" – xalq madaniyati urf-odatlari, marosimlari, san'ati va sh.k ifodalovchi tushuncha.

- "Ommaviy madaniyat" OAV ning rivoji bilan bog'liq hodisa.

- "Ommaviy madaniyat" ishlab chiqarish, "ko'ngil ochish industriyasi" tomonidan yaratilgan, omma iste'moliga mo'ljallangan madaniyatning

¹ Qo'chqorov V. Milliylikimizni anglash va ijtimoiy siyosiy jarayonlar. –T.: Akademiya, 2007. 117-bet.

² O'sha joyda. 118-bet.

sayqallashtirilgan namunalari ko'rinishidagi salbiy hodisalardir¹. Faqatgina xalq madaniyati urf-odatlari, marosimlari, san'ati va sh.k ifodalovchi tushuncha emas, balki inkor etuvchi tushuncha deyish lozim.

Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining quyidagi fikrlari e'tiborni tortadi: "Tabiiyki, "Ommaviy madaniyat" degan niqob ostidagi axloqiy buzulish va zo'ravonlik, individualizm, egotsentrizm g'oyalari tarqatish, kerak bo'lsa, shuning hisobidan bo'ylik ortirish boshqa xalqlarning necha ming yillik an'ana va qadriyatlarini, turmush tarzini ma'naviy negizlariga bepisandlik, ularning qo'porishga qaratilgan xatarli tahdidlar odamni tashvishga solmay qo'ymaydi"².

Hozirgi sharoitda globallashuv bilan bog'liq ba'zi jarayonlar, ayniqsa, "Ommaviy madaniyat" salbiy hodisa, milliy qadriyatlar va an'analar bilan bog'liq madaniyatga qarshi sifatida namoyon bo'layotgani, aslida esa bunday jarayonlarga "olomon madaniyati" deb atasak to'g'ri bo'ladi. Shu jihatdan olim U.Saidov o'zining asarida amerikalik olim P.Byukenenning quyidagi fikrlarni keltiradi: "Amerikacha mafkuralashgan davlatda o'z yangi aqidalarini armiya va politsiya orqali emas, ommaviy madaniyat inkvizitorlari yordamida jahonga singdirilayotgan "yumshoq tiraniya" ga aylangan". "Bugungi kunda ommaviy axborot vositalari (OAV), televideniye madaniyatni "olomonlashtirishning asosiy vositasi va manbai bo'lib xizmat qilmoqda. Bu avvalo, odamlarning haqiqatda vaqti bo'lgan, qayg'u va xursandchiliklarini ifodalagan, ularni qiziqtirgan har qanday muammoni tovarga, bir qolipga solgan ko'ngilxushlikka aylantirilishida namoyon bo'ladi"³.

Hozirgi globallashuv sharoitiga kelib "Ommaviy madaniyat" orqali milliy qadriyat va an'analar tizimini, ma'lum bir manfaatlar doirasidan kelib chiqib tubdan o'zgartirishga harakat qilinmoqda. Bu borada esa g'arb mamlakatlari tomonidan madaniyat "qoliplari" ni ishlab chiqarilayotganligidan kelib chiqib, aytish mumkinki, bu o'zgarish avvalo, g'arbone individualizm tomon harakat qilinayotganligidan darak bermoqda. Bu bilan globallashuv sharoitidagi "Ommaviy madaniyat" ning ta'siri natijasida milliy madaniyatlarini o'ziga xosligining yuqolib borishi, kam sonli xalqlarning o'z tili va urf-odatlarini unitishi, hattoki, uning yuqolib ketishi holatlarini keltirib chiqaradi. Jahonda g'arbone kiyinish keng tarqalayotgan bir paytda o'ziga modaga aylanib borayotgan libosini kiygan, aslida manqurtlik kasalligi ko'rinishlaridan biri -

¹ Saidov U. Globallashuv va madaniyatlararo muloqot. –T.: Akademiya. 2008. 75-bet.

² Karimov I.A. Yuksak ma'navyat-engilmas kuch. 117-bet.

³ Saidov U. Globallashuv va madaniyatlararo muloqot. 75-bet.

"Ommaviy madaniyat" ko'rinishining umumjahon madaniyatga aylanayotganidan dalolat bermoqda.

Biz "Ommaviy madaniyat"ning qay darajada rivojlanayotganligi uning insonlar, ayniqsa yoshlar ongiga ta'siri masalalarini ko'rib chiqdik, uni ba'zi ko'rinishlari haqida to'xtaldik. Endi "Ommaviy madaniyat"ning o'zi qanday vositalar orqali ta'sir etadi. Bularga quyidagilarni ketirish mumkin, jumladan: kino va videofilmlar, teatr, adabiyot va san'at (rassomchilik, tasviriy san'at, baykaltaroshlik, musiqa va boshqalar.), matbuot va televideniye (ommaviy axborot vositalari), kiyinish madaniyati (modalar ko'riklari), ovqatlanish madaniyati (ovqatlanish tarzining bir xillashuvi), Internet va hokazolarni keltirish mumkin. O'z-o'zidan ayonki, kuchli davlatlar o'z hayotiy, avvalo, madaniy ramzlarini himoya qilish uchun barcha vositalarni ishga soladi, o'z "yashash tarzleri" va madaniyatlarini boshqa hududlarga yoyish kabi, boshqacha aytganda, madaniy ramzlar intervensiyasi orqali dunyoni o'z ta'siri ostiga olishga harakat qiladi. O'z navbatida, madaniy unifikatsiyalash, madaniy rang-baranglikni inkor etishga bo'lgan harakatlar madaniy identifikatsiyalash, ya'ni madaniy o'ziga xoslikni saqlab qolishga intilishni yuzaga keltirmoqda.

Buning xavfli tomonlarini tanikli ingliz sotsiologi Z.Bauman quyidagicha ifodalaydi: "Individuallashtirgan jamiyat uch harakterli xususiyatga xos: inson tomonidan ijtimoiy jarayonlar ustidan nazoratning yuqolishi, kishining jamiyatdagi o'zgarishlar qarshisidagi, ularni nazorat qilish imkoniyati yo'qligi tufayli, himoyasizligi va o'zi yashashi kerak bulgan mavhum, noaniq voqelik qarshisidagi himoyasizligi; bularning o'qibati o'laroq insonning uzoq muddatli maqsadlarini, hayotiy strategiyalarini rejalashtirib ro'yobga chiqara olmagan tufayli, ularni unchalik salmoqqa ega bulmasa-da, darhol qo'lga kiritiladigan natijalar bilan almashtirishidir. Z.Bauman salbiy jihatlarni o'zida mujassam etgan individning paydo bo'lganligini qayd etgan, chunki u ijtimoiy muhitdan, jamoadan ajralib qolgan, o'zgaralar haqida o'ylash qobiliyatidan, javobgarlik va yakdillik tuyg'usidan mahrum bo'lgan hamda faqat qisqa muddatli vazifalarni oldiga qo'yib, bugungi kun bilan yashaydigan kishiga aylangan. Bundan xulosa qilish mumkinki, "Ommaviy madaniyat" kishiga insoniylik, shaxs martabasini beradigan milliy madaniyatidan, ma'naviyatidan, tarixiy xotiradan mahrum etadi¹.

¹ Saidov U. Globalashuv va madaniyatlararo muloqot. 75-76-betlar.

Rus olimi V.G.Fedotova "Ommaviy madaniyat"ni "ildizsiz individ"¹ larni shakllantiradi deb ta'kidlaydi, ommaviy axborot vositalari yordamida esa «ildizsiz», zaminidan mahrum etilgan individlar ommasi paydo bo'ladi. Bu bilan jamiyatda tartib-qoida va qadriyatlarni yo'qotish (anomiya) holatiga tushadi. Yana bir rus olimi S.Naumov esa anomiya "individlarni jamiyatdan begonalashuviga olib boradigan tizim, jamiyatning normativ-funksional talablari bilan individlarning real xatti-harakatlari o'rtasidagi bog'lanishning buzilishi"² deb ta'riflaydi. Shunday qilib, globallashuv jarayoni va uning yo'nalishlaridan biri bo'lgan "ommaviy madaniyat" ekspansiyasi ta'siri natijasida sodir bo'ladigan qadriyatlar tizimidagi tub o'zgarishlar "ijtimoiy mavjudot" bo'lgan insondagi o'zgarishlarni yagonalik sari yo'naltirib boradi.

Tarixiy xotiradan, milliy o'zlik, qadriyatlardan, milliy o'zligidan mahrum etilgan xalqni, millatni (agarda uni millat deyish mumkin bo'lsa) istagan kuyga solish mumkin bo'ladi. Shuning uchun ham O'zbekiston mustaqillikka erishgach, ma'naviyat masalalarining davlat siyosati darajasiga ko'tarilishini qanchalar chuqur uylab qilingan ishi ekanligi, birinchi Prezidentimiz I.Karimovning «inson uchun tarixdan judo bo'lish-hayotdan judo bo'lish demakdir»³ degan so'zlarining chuqur ma'nosi yanada ravshanroq ayon bo'ladi. Xulosa qilib aytganda, yuqorida ta'kidlab o'tilgan fikrlardan ma'lum bo'ldiki "Ommaviy madaniyat" o'z navbatida, azaliy qadriyatlar tizimini vayron qilish, shaxsni paymol etish va buning ortidan shakllangan davlat va jamiyatlarni buzish, odamlarni ayirish vazifasini o'taydi. Shuning uchun xam hozirgi kunda barcha insonlar oldida turgan eng dolzarb vazifa odamlarni mafkuraviy tazyiqlar, axborot xurujlaridan himoyalash, ularning ma'naviy salohiyatini oshirish va ularda goyaviy immunitetni shakllantirishdan iborat.

Bugungi globallashuv sharoitida turli shakldagi xususan, «Ommaviy madaniyat» ko'rinishidagi mafkuraviy xurujlarga qarshi kurash, buning uchun "xalqni - xalq, millatni - millat" qilishda O'zbekistonning mustaqilligini asrab-avaylash, jamiyatdagi barkarorlikni ta'minlashning muhim vositasi sifatida ma'naviy tarbiyaga e'tiborni kuchaytirish zarur.

¹ Fedotova M.G. Faktor sennostnix izmeneniy na zapade i v Rossii. // Voprosi filosofii. –2005. – №11. –S.3

² Naumov S. Obshechelovecheskiye problemi globalizatsii. // Globalizatsiya: problemi mejdunarodnogo sotrudnichestva i resheniye obshechelovecheskix zadach. –Saratov, 2005. –S.9.

³ Karimov I.A. Ma'naviy yuksalish yo'lida. –T.:O'zbekiston, 1998. 432-bet.

Tayanch soʻz va iboralar

Globalistlar, globallasuv, demografik globallasuv, inson ongi va qalbi uchun kurash, madaniy globallasuv, mafkuraviy immunitet, maʼnaviy-mafkuraviy jarayonlarning globallasuvi, YUNESKO, "Ommaviy madaniyat",

Takrorlash uchun savollar

1. Ijtimoiy munosabatlar tizimida madaniyat qanday funksiyalarni bajaradi?
2. Globallasuvning milliy qadriyatlarga, maʼnaviy merosga taʼsiri nimalarda namoyon boʻlmoqda?
3. "Ommaviy madaniyat" mohiyati va salbiy xususiyatlari nimalarda?
4. Madaniy jarayonlarning globallasuvi sharoitida madaniy muassasalar oldidagi vazifalar nimalardan iborat?

7-§. GLOBALLASHUV VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI

Reja:

1. **Bugungi kunda axborot xavfsizligining dolzarb ahamiyat kasb etishi.**
2. **Globallasuv sharoitida ommaviy axborot vositalari.**
3. **Axborot texnologiyalari globallasuvning oʻziga xos xususiyatlari.**
4. **Axborotlashuv va uning jamiyat rivojiga taʼsiri.**
5. **Axborot xavfsizligini taʼminlashning dolzarb muammolari.**

1. Bugungi kunda axborot xavfsizligining dolzarb ahamiyat kasb etishi. Ilmiy texnika taraqqiyoti insoniyat va jamiyat moddiy ehtiyojlarini qondirish uchun ulkan imkoniyatlar yaratdi. Yangi yuqori texnologiyalar jamiyat aʼzolari turmushini istalgan mahsulot bilan taʼminlashga va xizmat sohasini jadal rivojlantirish uchun shart - sharoit yaratishga imkoniyat beradi. Axborot yaratish va tarqatish sohasida ham mislsiz yutuqlarga erishildi.

Kishilar oʻrtasida xabar yetkazishni taʼminlashga qodir hisoblash texnikasi, axborot aloqa tizimi, internet tizimi, shuningdek boshqa axborot texnologiyalari inson va jamiyat hayoti, faoliyatida axborotning ahamiyatini keskin oshirib yubordi. Hozirgi kunda ilmiy-texnikaviy rivojlanish bilan ijtimoiy-siyosiy rivojlanish oʻrtasida mutanosiblik mavjud boʻlgan jamiyatgina har tomonlama uygʻun rivojlanishi mumkin. Shuning uchun har qanday jamiyat oʻzining ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va boshqa axborotga boʻlgan talab hamda ehtiyojini toʻliqroq qondirishga intiladi. Yuqorida aytib oʻtilganidek, bugunga kelib ilmiy-

texnikaviy, ishlab chiqarish, ijtimoiy rivojlanishning o'lchami mazkur sohalarda to'plangan va almashinayotgan axborotlar, ularning almashinish sur'ati va o'zlashtirilish tezligi bilan belgilanadi.

Globallashayotgan dunyoda axborot xalqlararo va davlatlararo munosabatlarda katta ahamiyat kasb etadi. YA'ni, u jahon hamjamiyati hayotida ham ijobiy ham salbiy kuch sifatida namoyon bo'lishi mumkin. Shu ma'noda texnikaviy-texnologik sohada katta imkoniyatga ega bo'lgan mamlakatlar qulay sharoitga ega bo'ladilar. Mana shu ustunlik tufayli ular o'z shaxsiy manfaatlariga mos keluvchi qadriyatlarni, nuqtai-nazarlarni, g'oyalarni, fikrlarni ilgari surishlari mumkin va surmoqdalar ham. Shunga ko'ra ko'pgina davlatlarda globallashuvga qarshi harakatlar yuzaga kelmoqda, bular yagona jahon uyg'unlashgan axborot maydonini tuzishni rad etmoqdalar. Bu o'rinda shuni alohida ta'kidlash joizki, globallashuvga qarshi harakatning o'zi tobora global xarakat tusini olmoqda. Zamonamizning o'ziga xos jihatlaridan biri sifatida har qanday mahalliy hodisa yoki voqea zamonaviy axborot texnologiyalari tufayli global hodisa yoki voqeaga aylanmoqda. Masalan, 2001 yil 11 sentabrda Nyu Yorkda yuz bergan voqea, Livan tuprog'idagi harbiy harakatlar, Fransiyadagi yoshlarning chiqishlari, u yoki bu mamlakatdagi saylovlar, avia halokat, tabiiy ofat, terrorchilik harakati va boshqa shunga o'xshash voqea va hodisalar buning yorqin dalili bo'ladi.

Jahon miqyosida kezib yuruvchi bunday axborotlar muayyan davlat manfaatlariga ta'sir etmay qolmaydi. Bu faqat shu axborot tarqaladigan, alohida olingan bir mamlakatdagi ijtimoiy, siyosiy jarayonlardan darak berishi bilangina emas, balki boshqa mamlakatlarning mazkur xabarlar haqida hech narsa aytilmagan auditoriyasi bularni o'z davlatidagi holatga qiyoslashi bilan ham mazkur mamlakat manfaatlariga ta'sir etadi. Shu sababli davlatlar, hukumatlar o'rtasida ayrim kelishmovchiliklar vaqti-vaqti bilan yuzaga chiqib turishi mumkin. Bunda kim haq yoki kim nohaq ekanligini aniqlash har doim ham oson bo'lavermaydi.

Bular barchasi axborot jarayonlarining globallashuvi bilan bog'liq muammolar dolzarbligini yana bir karra ta'kidlaydi. Ammo mazkur muammolar tufayli axborot ishlab-chiqarish va tarqatish imkoniyatlarining tengsizligi paydo bo'ladi. Bu obektiv vaziyatni shunday deb qabul qilmoq kerak. Mamlakatlar bu boradigi o'z ustunliklarini shaxsiy manfaatlarida foydalanishlari boshqa gap. Mana shunday vaqtda munosatlarda keskinlik

yuzaga keladi, u ko'p hollarda axboriy kurashga yoki boshqacha qilib aytganda psixologik urushga aylanib ketadi.

Ochiq axborot tizimlarida axboriy-psixologik xavfsizlikni ta'minlash hozirgi kunning dolzarb talabidir. Har bir davlat buning ustida bosh qotirmoqda. Bu jahondagi yangi geosiyosiy taqsimot, yangi mintaqaviy nizolarning yuzaga kelishi, millatchilik, shovinizm, din niqobidagi ekstremizm, ekologik halokatning tahdidi kuchayishi, spid, parranda gripi va boshqa yuqumli kasalliklarning tarqalishi bilan bog'liqdir.

Yuqorida qayd etilganlarning barchasi O'zbekiston Respublikasi uchun ham mazkur muammolar muhim ekanligini alohida ta'kid etadi. Buning dolzarbligi davlatimiz uchun milliy mustaqillikni yanada mustahkamlash, iqtisod va bozor munosabatlarini tadrijiy rivojlanishini ta'minlash, ijtimoiy islohotlarni chuqurlashtirishda yaqqol ko'rinadi. Bunda Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish, milliy an'analarni hayotga qaytarish, murosasozlikni tarbiyalash ham katta ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, mustaqil dunyo qarashga ega ma'lumotli kishilargina turli xil talqindagi tazyiqlarga ruhan barqaror qarshilik ko'rsata oladilar. Bu birinchidan. Ikkinchidan, mana shunday kishilargina tegishli muhit yaratishlari va milliy g'oyalarning darg'alari hisoblanadi.

Mana shuning uchun ham mazkur muammolarni o'rganishda axborotning shakli va mohiyati; axborot xavfsizligini ta'minlash; ochiq axborot tizimlarining o'ziga xosligi; shaxs, jamiyat va davlat axboriy-psixologik xavfsizligini ta'minlash manbalari va turlari; axborot sohasidagi milliy xavfsizlikni ta'minlashning ahamiyati va tamoyillari; OAV va axboriy qarama-qarshilik; axboriy-psixologik xavfsizlikni ta'minlashda asosiy yo'nalish va usullar; ochiq axborot tizimlarda shaxsning o'z-o'zini himoya qilishi; jamoatchilik fikri va jamiyat axboriy-psixologik xavfsizligi; O'zbekiston OAV lari va jamiyatning psixologik xavfsizligi kabi mavzularni chuqurroq o'rganish talab etiladi.

Yuqorida sanab o'tilgan mavzularni o'rganishda axborot, axboriy xavfsizlik, milliy manfaatlar, axborot sohasidagi milliy manfaatlariga bo'lgan xavf, manbalari, jamoatchilik fikri, ochiq axborot tizimlari, globallashuv, axboriy qarama-qarshilik, axboriy-psixologik kurash, OAV lari, onglik, idroklash, aks ettirish manipulyatsiya qilish, psixologik qo'poruvchilik, ijtimoiy targ'ibot, jamoatchilik ongi, insonni xufiyona boshqarish va boshqalarga alohida e'tibor qaratish joiz.

Psixologiya, sotsiologiya, falsafa, OAV nazariyalaridan olingan tushuncha va terminlar fanni chuqurroq tushunishga, uning asosiy mazmunini, usullari va yo'sinlarini, ya'ni ochiq axborot tizimlarida foydalanayotgan usullarni idrok etishga, demak, ijobiy g'oyalarni salbiy g'oyalardan farqlay olishga ko'maklashadi. Ma'lumki, har qanday dalil, hodisa yoki voqea turlicha talqin etilishi mumkin, shunga bog'liq tarzda auditoriya tomonidan qabul etilishi ham mumkin. Shuning uchun avval boshidanoq, tushunchaviy apparatni belgilab olish, uni sharhlash lozim, shundan kelib chiqqan holda biror hodisa yoki voqeani biz qanday idrok etishimiz va talqin qilishimizga e'tibor berishimiz dardkor

2. Globallashuv sharoitida ommaviy axborot vositalari. Siyosiy-ijtimoiy jarayonlarda, ma'naviy-mafkuraviy jarayonlarda targ'ibotning muhim ajralmas qismi – ommaviy axborot vositalaridir (OAV). OAV har qanday shaxsga ochiq, ommaviy tarzda, maxsus texnik vositalar yordamida, turli ma'lumotlarni uzatish uchun tuzilgan muassasalardir. Ularning o'ziga xos belgilari- ommaviyligi, ya'ni iste'molchilarning cheklanmagan doirasi, maxsus texnika asbob-uskunalarning mavjudligi, aloqadagi tomonlarning makon va zamonda bo'lingani, to'g'ridan-to'g'ri bo'lmagan muloqoti va sh.k.

OAV lariga matbuot, ommaviy ma'lumotnomalar, radio, televideniye, kino-ovoz yozish, videoga olish kabilar kiradi. Oxirgi o'n yilliklarda yer yo'ldoshlari orqali, aloqaning kabelli, radio va televideniye, elektron matnli tizimlar, shuningdek axborotni to'plash va ko'paytirishning individual vositalarining keng tarqalishi natijasida muloqot vositalari ham jiddiy o'zgarimoqda. Siyosiy tizimning muloqot vositalariga ehtiyoji uning jamiyatdagi funksiyalari, siyosat agentlarining soni, siyosiy qarorlarni qabul qilish usullari, davlatning katta-kichikligi va boshqa bir qator omillar bilan o'lchanadi. O'tmishdagi an'anaviy jamiyatlarda muloqot vositalariga ehtiyoj katta bo'lmagan. Bunday vositalar rolini asosan choparlar, elchilar, xabarchilar, savdogarlar, aloqa kabutarlari bajarib, ular og'zaki yoki yozma shaklda siyosiy axborot- qirol farmonlari va buyruqlari, noiblarning, zarur bo'lganda fuqarolarning xatini yetkazishgan. Hududi kichik bo'lgan davlatlar, shaharlar fuqarolarni xavf-xatarlardan ogohlantirish uchun yoki diniy xodisalar haqidagi xabarni yetkazish uchun o'ziga vositalardan - qo'ng'iroq, olov yoqish kabi usullardan keng foydalanishgan. XIX-XX asrlarga kelib telegraf, telefon vositalarining yaratilishi, radio va televideniye kashf etilishi davlatlarning kommunikatsion ehtiyojlarining qondirib qolmay siyosiy targ'ibotda ham

inqilob yasadi. OAV To'fler yozganidek «hokimiyat resurslarini juda kam sarflagan holda ko'zlangan holda ko'zlangan maqsadlarga yetish; odamlarni bu maqsadlardan shaxsan manfaatdor ekanliklariga ishontirish, raqiblarni ittifoqchilarga aylantirish» imkonini beradi¹. Sanoati rivojlangan mamlakatlarda bilim va axborot hokimiyati jamiyatni boshqarishda pul va davlat zo'rligini ikkinchi darajaga tushirib xal qiluvchi mavqeni egallay boshladi. OAV jamiyatdagi bilim va boshqa siyosiy ahamiyatga bo'lgan axborotning bevosita tarqatuvchisi va egasidir.

Jamiyatning ijtimoiy-siyosiy hayotida OAV ning funksiyalari xilma-xildir. Har qanday zamonaviy jamiyatda ular u yoki bu shaklda bir qator umumiy siyosiy funksiyalarni bajaradilar. Ularning eng muhimi axborot tarqatishdir. U fuqarolar va hokimiyat organlari uchun eng muhim xodisalar to'g'risida ma'lumotlarni topish va tarqatishdan iborat.

Odamlarning siyosiy xodisalar va jarayonlar haqida xolis fikr yuritishlari uchun OAV ning axborot tarqatish borasidagi faoliyati bilim berish, ta'lim funksiyalarini ham o'z ichiga oladi. Bu funktsiya fuqarolarga ular OAV dan hamda boshqa manbalardan oladigan ma'lumotlarni xolisona baholash va tartibga solish imkonini beradigan bilimlarni yetkazishda namoyon bo'ladi. U fuqarolarni axborotning murakkab ziddiyatli oqimida adashmaslikka o'rgatadi. OAV ning ta'lim funktsiyasi uning ijtimoiylashuv funktsiyasiga o'sib o'tadi. Ammo siyosiy ta'lim bilimlarni doimiy ravishda olishni, hamda insonning bilish va baholash imkoniyatlarini oshiradigan bo'lsa, siyosiy ijtimoiylashuv insonning meyorlar, qadriyatlar, xulq-atvor namunalari o'zlashtirilishini anglatadi. U shaxsni ijtimoiy borliqqa moslashishiga yordam beradi. Shunday qilib jamiyatda OAV ning eng muhim vaziflari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

1. Qonun va qoidalarni, inson huquqlarini hurmat qilishga asoslangan qadriyatlarni ommaviy ommaviy ravishda tatbiq etib borish;

2. Jamiyatdagi, insonlar o'rtasidagi turli xil ixtiloflarni tinch yo'l bilan xal qilishga o'rgatish;

3. Davlat tuzilishining bosh masalalari bo'yicha jamoatchilik kelishuvini shubha ostiga olmaslik va shu kabilar.

OAV ning axborot tarqatish, ta'lim va ijtimoiy hayotga jalb etish borasidagi faoliyati unga tanqid va nazorat funktsiyasini bajarish imkonini beradi. Siyosiy tizimda bu funktsiyani muholifat, shuningdek maxsus nazorat institutlari amalga

¹ Pugachev V. P. Siyosatshunoslikka kirish. – M.: 2000, 193-bet.

oshiradi. OAV ning nazorat funksiyasi jamoatchilik fikri va obro'siga asoslanadi. Garchan, OAV lari davlat va xo'jalik nazorat organlaridan farqlicha ma'muriy yoki iqtisodiy choralar qo'llay olmasalarda, ularning nazorati ko'pincha ancha samarali va qattiqqo'l, negaki ular voqea-xodisalarga, shaxslarga nafayat huquqiy, balki ma'naviy baho ham beradilar. Demokratik jamiyatda nazorat funksiyasini amalga oshirishda OAV lari jamoatchilik fikri bilan bir qatorda qonunga ham tayanadilar.

Yuqorida ko'rsatilgan barcha funksiyalar OAV larining safarbarlik funksiyasini to'g'ridan-to'g'ri amalga oshishuviga xizmat qiladi. U odamlarni muayyan siyosiy harakatlarga undash, ularni siyosatga jalb etishda namoyon bo'ladi. OAV lari inson ongi, qalbi va xissiyotlariga, fikrlari, baholash usullari va mezonlariga ta'sir etishning katta imkoniyatlariga ega. OAV larining funksiyalari yuqoridagilar bilan cheklanib qolmaydi. Shuningdek OAV lari innovatsion funksiyani ham bajaradi. U siyosiy o'zgarishlarni boshlab beradi. Buning uchun muayyan ijtimoiy muammolarni keng va qat'iy turib qo'yadi. Ularga hokimiyat va jamoatchilik diqqatini tortadi. Tezkor funksiya- OAV lari muayyan partiyalar va uyushmalarning siyosiy faoliyatiga xizmat qiladi. jamoatchilik va ijtimoiy fikrni shakllantirish funksiyasidir.

Ommaviy axborot vositalari - eng asosiy, qudratli va ta'sirchan targ'ibot quroli hisoblanadi. Chunki ommaviy axborot vositalari ommaning o'ziga xos tarbiyachisi, muhim tadbirlarning tashkilotchisi, dolzarb muammolarni hal qilishning ta'sirchan quroli bo'lib xizmat qiladi. Aynan ommaviy axborot vositalari orqali milliy qadriyatlarimiz va umuminsoniy qadriyatlar, milliy g'oya va demokratik tamoyillar targ'ib-tashviq qilinadi. Ommaviy axborot vositalari doimo demokratiya va so'z erkinligining o'ziga xos o'lchovi, ko'rsatkichi bo'lib kelgan. Erkin va mustaqil ommaviy axborot vositalari demokratik taraqqiyotni rag'batlantiradi va mustahkamlaydi.

Hayotiylik - bugungi kunda ommaviy axborot vositalarining faoliyatiga qo'yilayotgan asosiy talab. Berilayotgan axborotlarning asosan yutuqlarni ko'rsatish, maqtovlardan iborat bo'lishi targ'ibotga qanchalik foydali yoki zararli ekanini chamalab ko'rish lozim. Hayot bor ekan, muammolar, kamchiliklar, nuqsonlar bo'laverishi tabiiy. Bu - isbot talab qilmaydigan aksioma. Shunday ekan, muammolarning mavjudligiga fojea sifatida emas, odatdagi narsa deb qarashga o'rganish kerak. Ularning borligini ko'rib, o'zini ko'rmaganlikka olish bilan faqat zarar keltirishi mumkin. Demak, muammolarni o'z vaqtida tan olish, ularni hal qilishga kirishish lozim.

Ta'kidlash joizki, targ'ibotning negizida faqatgina g'oyaga ishonch emas, g'oyani targ'ib qilayotgan insonga ishonch ham yotadi. Shu bois, maqtash targ'ibotning yagona va hatto eng to'g'ri usuli ham emas. Demak, mafkurani hayotni faqat maqtash, uni benuqson tasvirlash orqali targ'ib qilish mumkin emas.

Bugungi kunda O'zbekistonda ommaviy axborot vositalarini haqiqiy "to'rtinchi hokimiyat"ga aylantirish muammosi yuzaga qalqib chiqmoqda. Ularni mustaqil ijtimoiy kuchga, siyosiy tizimning to'laqonli bo'g'iniga va jamoatchilik fikrini shakllantiruvchi ta'sirchan vositaga aylantirish vazifasi dolzarb bo'lib qolmoqda. Ommaviy axborot vositalarining erkin va mustaqil faoliyat yuritishlari uchun mustahkam huquqiy asos yaratilgan, jurnalistlarni tayyorlash masalasiga davlat darajasida e'tibor berilmoqda, jurnalist-kadrlarni o'zimizda tayyorlash bilan qanoatlanmay, bu soha mutaxassislarining xorijda ta'lim olishlariga mablag' ajratilmoqda. Ko'rinib turibdiki, ommaviy axborot vositalarining rivojlanishi uchun qulay muhit yaratilgan.

Keyingi yillarda informatsion hurujlarning tez-tez uyushtirilayotgani aslida urushga munosabatning o'zgarganligidan, qurolning yangi turi kashf qilinganidan darak beradi. Bu qurol – axborotdir. Bunday qurol yordamida olib boriladigan informatsion urushiarda insonning ongi va qalbi nishonga olinadi. U o'qotar qurol o'qi singari insonni jismonan yo'q qila olmasa-da, uning qo'poruvchilik kuchi, keltiradigan talofotlari har qanday ommaviy qirg'in qurolinikidan kam emas. Chunki bu qurol yordamida onga berilgan zarbalar kishini adashtiradi, uni o'z manfaatlariga zid harakat qilishga undaydi va demak, insonni boshqarish, uning ustidan hukmronlik qilish imkonini beradi. Aslida axborot maqsadga erishishning eng arzon vositasi ham sanaladi. Haqiqatan ham, informatsion hurujlar uyushtirish uchun u qadar ko'p mehnat, u qadar ko'p harakat, u qadar ko'p harajat talab etilmaydi. Garchi bunday mafkuraviy ekspansiya otishmalar va qon to'kishlarni keltirib chiqarmasa-da, milliy o'zlikni anglashni zalflashtirish evaziga tanazzulga olib keladi.

Birinchi Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda, bunday informatsion qo'poruvchilikdan maqsad – mamlakatimiz aholisiga axborot orqali va mafkuraviy yo'l bilan tazyiq o'tkazish, jahon afkor ommasida O'zbekiston haqida noto'g'ri tasavvur tug'dirishga intilishdan iborat.

Yirik siyosatchilardan biri Buyuk Britaniya sobiq bosh vaziri Margaret Tetcher "Ommaviy axborot vositalari – terrorchilar uchun kislorod vazifasini o'taydi", degan edi. Ommaviy axborot vositalari orqali terrorchilar dunyoni

dahshatga solishadi. Terrorchilar bir qancha insonlarni shafqatsizlik bilan o'ldirish orqali millionlagan aholida qo'rquv va dahshat uyg'otishga intiladilar. Ularning maqsadlari - o'ldirish emas, jamoatchilikka kuchli ta'sir qilishdir. Taassufki, ba'zi ommaviy axborot vositalari o'zlari bilmagan holda terrorizmning buzg'unchilik, qo'poruvchilik ta'sirini yanada oshirishga "xizmat" qilib qo'yadilar. Ularning terror oqibatlariga haqidagi vahimeli axborotlari insonlardagi qo'rquvni, dahshatni, himoyasizlik hissini yanada kuchaytirib yuboradi. Bu kabi axborotlarga qarshi aksiltarg'ibotni uyushtirish zarurati tug'iladi.

Aksiltarg'ibot «g'oyaga qarshi g'oya bilan kurashish» tamoyiliga mos ravishda olib borilishi kerak. Bunda davlatimiz siyosatiga qarshi kuchlarning g'oyaviy hujumlarini qaytarish talab etiladi. Buning uchun:

- horijiy jurnalistlarning hukumat siyosatini buzib talqin qiluvchi chiqishlariga yo'l qo'ymaslik;
- diniy aqidaparastlarning tanlagan yo'limizga qarshi mafkuraviy qo'poruvchilik harakatlariga zarba berish;
- rivojlangan davlatlar tomonidan bo'ladigan ma'naviy-mafkuraviy ta'sirlarga qarshi g'oyaviy immunitetni tarbiyalab borish;
- axborot xilma-xilligi sharoitidagi turli informatsion tajovuzlarning asl maqsadini fosh etish;
- yoshlarda ozod shaxs va erkin fuqaroning asosiy jihatlarini tarbiyalab borishga keng e'tibor qaratish talab etiladi.

3. Axborot texnologiyalari globallashuvning o'ziga xos xususiyatlari. XX asrning ikkinchi yarmi tezkor, keng ko'lamdagi axborot tizimi va telekommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanish davri sifatida, ular hayotning deyarli barcha jabhalariga va inson faoliyatiga kirib borishi, shuningdek, axborot makonining globallashuvi, butun jahon rivojiga ta'sir ko'rsatgan va ko'rsatayotgan omil sifatida e'tirof etiladi.

Informatsion soha jamiyat hayotini rivojlantirib, xavfsizlikning siyosiy, iqtisodiy, madaniy va boshqa sohalariga yuqori darajada ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, jahondagi yetakchi davlatlar tajribalarini chuqur o'rganish, ilmiy tahlil qilish orqali, yurtimiz milliy manfaatlariga javob beruvchi axborot xavfsizligi tizimini barpo etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Globallashayotgan dunyoda axborot xalqlararo va davlatlararo munosabatlarda katta ahamiyat kasb etib, u jahon hamjamiyati hayotida ham ijobiy ham salbiy kuch sifatida namoyon bo'lishi mumkin.

Mazkur jarayonlarga munosabat bildirar ekan, O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I.Karimov quyidagi fikrni ilgari suradi: "Shuni unutmash kerakki, bugungi kunda inson ma'naviyatiga qarshi yo'naltirilgan, bir qarashda arzimas bo'lib tuyuladigan kichkina xabar ham axborot olamidagi globallashtirish shiddatidan kuch olib, ko'zga ko'rinmaydigan, lekin zararini hech narsa bilan qoplab bo'lmaydigan ulkan ziyon yetkazishi mumkin".¹

Axborot oqimlari va ularni shakllantiruvchi, yo'naltiruvchi texnik vositalar bugungi globallashtirish jarayonida davlatlarning nafaqat o'z milliy manfaatlarini saqlash, balki ushbu manfaatlarni uyg'unlashtirishni bosh maqsadi sifatida qarash lozim.

Siyosiy jarayonlarga nazar tashlaydigan bo'lsak kuchga qaraganda axborot omili tobora sezilarli ahamiyat kasb etib bormoqda. Bugungi kunda "Kun informatsiyaga ega bo'lsa, u dunyoni boshqaradi" degan qoida o'z kuchini ko'rsatmoqda. Bugungi kunda jahon davlatlari axborot oqimlari ustidan hukmronlik qilish maqsadida axborot texnologiyalarini shiddat bilan insoniyat faoliyatining barcha sohalariga olib kirayotgan bir paytda, bu sohada ilg'or va rivojlanayotgan davlatlar o'rtasidagi tafovut borgan sari kattalashayotgani ma'lum bo'lmoqda.

Bu o'rinda O'zbekistonda jamiyatni axborotlashtirish, axborot texnologiyalarini izchil va tezkor rivojlantirish borasidagi davlat siyosati jamiyatimizning XXI asrda jahon hamjamiyatidagi o'rini belgilab beruvchi muhim omillardan biri hisoblanadi. O'zbekiston global axborot muhitiga faqat mustaqillikdan so'ng mustaqil sub'yektlar sifatida kirib kelgan bo'lsada, o'tgan o'z fursatga qaramay Respublikada Internet provayderlari va Internetdan doimiy foydalanuvchilarning soni yildan-yilga shiddat bilan ortib bormoqda.

Albatta har qanday axborot hurujlari axborot qurollari orqali amalga oshiriladi. Axborot milliy xavfsizlikka tobora ta'sir ko'rsatuvchi muhim davlat resursi bo'lib borayotgan sharoitda davlatlarning axborot sohasida, ya'ni "axborot urushi" bilan bevosita bog'liq masalalarni o'rganish va ishlab chiqishga intilishlari ortib bormoqda.

4. Axborotlashtirish va uning jamiyat rivojiga ta'siri. Axborot (lotincha «informatio»-tushuntirish, bayon etmoq) zamonaviy fan va siyosatning asosiy tushunchalaridan biri; dastlab kishilar tomonidan og'zaki, keyinroq yozma yoki boshqa shakllarda uzatilgan ma'lumot. XX asrning o'rtalaridan boshlab insonlararo, inson-avtomat, avtomat-avtomat o'rtasidagi ma'lumot hamda

¹ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. 115-bet.

hayvonlar va o'simliklardagi signal almashinuvi, hujayradan hujayraga muayyan belgilarning uzatilishi va shu kabilarni anglata boshlagan.

Ijtimoiy hayotga tatbiqan axborot-kishilar, predmetlar, faktlar, hodisalar, jarayonlar va shu kabilar haqidagi ma'lumot (ma'lumotlar majmui)ni anglatadi.

Axborotlashtirish-axborot resurslarini shakllantirish va ulardan foydalanish hisobiga fuqarolar, davlat hokimiyati va o'z-o'zini boshqarish organlari, tashkilotlar va jamoat birlashmalarining axborot sohasidagi ehtiyojlarini qondirish, huquqlarini ro'yobga chiqarish maqsadida optimal sharoitlarni yaratish uchun tashkil etiladigan ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-texnik jarayonlar majmui.

Informatsion jarayonlar-axborotni qidirish, yig'ish, qayta ishlash, to'plash, saqlash va tarqatish jarayoni.

Axborot tizimi (informatsion sistema)-informatsion jarayonlarni amalga oshiruvchi tartibga solingan hujjatlar hamda axborot texnologiyalari majmui.

Axborot resurslari-muayyan (kutubxona, arxiv, fond, ma'lumotlar banki kabi) axborot tizimlaridagi alohida hujjatlar va hujjatlar majmui.

Ijtimoiy-siyosiy axborot- ijtimoiy va siyosiy hayot borasida jamiyat a'zolari, ijtimoiy guruhlar, siyosiy tashkilotlar o'rtasida almashinuv predmeti hisoblangan va ular o'z faoliyatida foydalanadigan bilimlar, ma'lumotlar va xabarlar majmui.

Ijtimoiy-siyosiy axborotlar insonlar o'rtasidagi aloqalar, siyosiy jarayonlar, jamiyatni boshqarish, ilmiy, o'quv va tarbiyaviy ishlarni tashkil etish, targ'ibot va tashviqotni amalga oshirishda tobora muhim va ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

To'laligi, asoslanganligi va ishonchligi muhim ahamiyat kasb etadigan ijtimoiy-siyosiy axborotlarni ishlab chiqishda fan, ularni tarqatishda OAV muhim rol o'ynaydi.

Axborot madaniyati texnik-texnologik va ijtimoiy-madaniy jihatlariga ega.

Texnik-texnologik jihatdan axborot madaniyati axborotni olish, qayta ishlash, saqlash va etkazib berishga xizmat qiladigan texnik-axborot vositalari va ulardan oqilona foydalanish usullari haqidagi bilimlar tizimini anglatadi.

Ijtimoiy-madaniy ma'noda axborot madaniyati insonning muayyan ma'naviy-axloqiy, siyosiy, huquqiy va estetik qadriyatlarini o'zlashtirgan holda axborot maydonida hayotiy faoliyat ko'rsatishini anglatadi.

Axborot iste'moli madaniyati axborot dunyosidan ijtimoiy taraqqiyotga xizmat qiluvchi ma'lumotlarni saralab olish borasidagi bilimlar, qobiliyat va malakani o'zida ifoda etadi.

Axborotlashgan jamiyat-kishilik jamiyati rivojlanishining hozirgi bosqichida shakllanayotgan va ijtimoiy hayotning barcha sohalarida axborot hamda informatikadan oqilona foydalanishga asoslangan sifatiy holatini tavsiflovchi tushuncha.

Axborotlashgan jamiyat nazariyasi asoschilari ijtimoiy rivojlanishni «bosqichlar almashinuvi» nuqtai nazaridan qaragan holda, uning shakllanishini qishloq xo'jaligi, sanoat va xizmatlar iqtisodiyotidan keyin paydo bo'lgan iqtisodiyotning to'rtinchi - «axborot sektori» yuzaga kelishi bilan bog'laydilar.

Ularning fikriga ko'ra, industrial jamiyatning asosi bo'lgan kapital va mehnat axborotlashgan jamiyatda o'z o'rnini axborot va bilimga bo'shatib beradi.

Axborotlashuv jarayoni jamiyatdagi iqtisodiy hamda ijtimoiy-madaniy o'zgarishlarga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. G'arb sotsiologlari fikriga ko'ra, axborotlashgan jamiyat texnika sohasida-ishlab chiqarish, iqtisodiyot, ta'lim va maishiy hayotga axborot texnologiyalarining keng joriy etilishi; iqtisodiy hayotda-axborotning tovarga aylanishi; ijtimoiy hayotda-axborot turmush, hayot darajasi o'zgarishining asosiy omiliga aylanishi; siyosiy sohada-keng miqyosda fikr almashishga zamin yaratuvchi xilma-xil axborotlarni erkin olishga yo'l ochilishi; madaniyat sohasida-axborot almashinuvi davr ehtiyojlariga javob beradigan normalar va qadriyatlarining shakllanishi bilan karakterlanadi. Ayni paytda axborotlashgan jamiyat:

- uyda ishlashning kengayishiga, transport harakatining kamayishiga va buning oqibatida tabiatga tushadigan «yuk»ning keskin qisqarishiga olib keladi;
- ish kunining qisqarishi odamlarning uyda ko'proq bo'lishiga va oilaviy muhitning barqaror bo'lishiga zamin yaratadi;
- keyingi yuz yilliklarda kishilar shahar yashash va ishlash uchun eng qulay makon, degan xulosaga keldilar. Axborotlashuv jarayoni esa, qishloqdan turib ham butun olam bilan muloqot qilish, eng obro'li tashkilotlarda ishlash, shahar aholisi bahramand bo'layotgan madaniyat yutuqlarini istifoda etish imkoniyatini yaratadi. Bu esa, o'z navbatida nisbatan osuda va tinch bo'lgan, tabiatga yaqin qishloqlarga qaytish yoki u erda doimiy qolish uchun zamin yaratadi;

- masofaviy ta'lim bilim olishning eng qulay shakliga aylanishi barobarida aholining keng qatlamlari uchun hatto eng elitar oliy o'quv yurtlari eshiklarining ochilishiga zamin yaratadi. Sodda qilib aytganda, ma'lumotlilik ko'p darajada insonning xohish-irodasiga bog'liq bo'lib qoladi.

Ayni paytda, axborotlashuv jarayoni bir qator muammolarni ham keltirib chiqaradi.

«Yumshoq erotika» dan tortib turli mazmundagi hayosiz filmlargacha bo'lgan hodisalar bilan bog'liq muammolar ana shular jumlasidandir. Bunday holatlarning oldini to'la-to'kis olib bo'lmaydi. Zero, axborot tarmoqlarining uzilishsiz ishlashi uning muhim sifatii belgisi hisoblanadi va bu jarayon doimiy takomillashuvni boshdan kechirmoqda. Demak, yuqoridagi kabi «muammolar» yo'lga qanchalik to'siq qo'yilmasin doimo ularni «aylanib» o'tish imkoniyati mavjud bo'ladi.

Yana bir muammo muailiflik hamda intellektual mulk huquqining buzilishi bilan bog'liq. Shunday ekan, axborot tarmog'ida ko'pchilik ko'ra olmaydigan hududlar yuzaga kelishi tabiiy. Bugungi kunda kompaniyalar o'z axborotlarini himoya qilish va ruxsat etilmagan kirishlarning oldini olish uchun katta mablag'lar sarflayotgani ham shundan.

Shu bilan birga muayyan axborotlarni yashirishdan tortib, uni noqonuniy ravishda e'lon qilishgacha bo'lgan ko'rinishlarda namoyon bo'ladigan suiiste'molliklar ham kelib chiqishi mumkin.

Axborot turli ijtimoiy qatlamlar, professional va milliy guruhlar vakillarga har xil ta'sir qilishi barobarida uni iste'mol qilish amaliyoti turli guruhlarda bir-biridan keskin farq qilishi mumkin. Bu eng avvalo, axborot manbalari miqdori o'rtasidagi farqda namoyon bo'ladi. Masalan, ayrim odamlarda axborot manbai minimal (televideniye, radio), ayrimlarda esa keng (internet, yangi telekommunikatsiyalar tizimi) bo'lishi mumkin.

Mutaxassislar fikriga ko'ra, bugungi kunda jamiyatda aynan axborotni olish, unga yo'l topish sohasida keskin bo'linish, tabaqalashuv sodir bo'lmoqda.

Yoshlar o'zining harakatchanligi va yangilikka intiluvchiligi hamda bo'sh vaqt resursiga egaligi tufayli yuqori darajada kommunikativ faollik ko'rsatishadi. Boshqa guruhlarda esa, nisbatan passivlik kuzatiladi. Ularga xos bunday xususiyatlar salbiy oqibatlarni ham keltirib chiqarishi mumkin. Bu birinchi guruh uchun tobora faollashayotgan agressiv siyosiy ta'sirga berilib ketish xavfining mavjudligida, ikkinchi guruhning esa, pozitiv mazmunga ega axborotlar ta'siridan tashqarida qolishi bilan belgilanadi.

Iqtisodiy, siyosiy, madaniy-ma'rifiy va boshqa sohalardagi axborotlar ta'sirlashuvi ijtimoiy hayotning mazmunan boyishi, takomillashuvining muhim omili hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, bugungi kunda axborot almashinuvi insoniyat taraqqiyotining muhim shartiga aylandi deyish mumkin.

O'z davrida og'zaki nutqning paydo bo'lishi bilan axborot uzatish imkoniyatlari kengaygan bo'lsa, yozma nutq rivoji bu borada o'ziga xos yangi bosqichni boshlab bergan edi. Hozirgi fan-texnika taraqqiyoti, integratsiya va globallashtiruv sharoitida esa axborot makonida tub sifatiy holat kechmoqda. Endilikda, axborot uzatish nafaqat xilma-xil (radio, televideniye, matbuot, telefon, faks, pochta, internet va b.) shakllari, balki, o'ta tezkorligi bilan ham jamiyat taraqqiyotining oldingi davrlardagidan farq qiladi. Bunday sharoitda, axborot iste'moli jarayonida ham yangi tendensiyalar kuzatilmoqda.

«Kimki axborotga ega bo'lsa, u dunyoga egalik qiladi» degan fikrning paydo bo'lishiga ham axborotning yuqoridagi xususiyatlari sabab bo'lgan.

Ijtimoiy makon - bu, ayni vaqtda axborot makoni hamdir. Globallashtiruv sharoitida axborot hajmining kattaligi, ularning zamonaviy tezkor vositalar orqali tarqatilayotgani axborot sohasining ijtimoiy makonning boshqa shakllaridan tubdan farq qilishini ta'minlamoqda. Xususan, zamonaviy ommaviy axborot vositalari (ayniqsa, internet tizimi) orqali tarqatilayotgan xabar va ma'lumotlarga turli siyosiy taqiqlar, davlat chegaralari to'siq bo'la olmaydi.

Axborot iste'moli ijtimoiy, aniqrog'i, ma'naviy ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan hodisadir. Axborot iste'molning xizmatlar iste'molining o'ziga xos shakli hisoblanadi. Ma'lumki, har qanday xizmatni iste'mol qilishdan avval uning sifati, narxi, foydasi, qulayligi va boshqa shu kabi xususiyatlariga e'tibor beriladi. Bu jarayonda, iste'mol qilinayotgan xizmatning talab-taklif xususiyatlari ham inobatga olinadi. Masalan, taklifi kamayib ketgan xizmatlarning iste'mol darajasi yuqori bo'lib, ularga talab kuchayadi. Mazkur xususiyatlar axborot iste'moli jarayoniga ham xosdir. Biroq, ma'naviy ne'mat bo'lgan axborotni iste'mol qilish o'ziga xos tomonlari bilan ham ajralib turishini ta'kidlash joiz. Xususan, axborot konkret shaxs, ijtimoiy guruh, millat, jamiyat va davlat tomonidan iste'mol qilinadi-ki, mazkur darajalarda iste'mol jarayonlari bir-biridan farq qiladi. Masalan, biron shaxs uchun qiziqarli bo'lgan ma'lumot, muayyan ijtimoiy qatlam yoki guruh uchun ahamiyatsiz bo'lishi mumkin. Shuningdek, axborot makon va zamon xususiyatlariga ham ega. Chunonchi, G'arbda o'ta ommabop bo'lgan axborotlar, Sharq xalqlari

tomonidan kam iste'mol qilinishi mumkin. Bundan tashqari, ma'lum bir tarixiy davrda katta qiziqish bilan kutib olingan ma'lumotlar, vaqt o'tishi bilan odati holga aylanishi va ijtimoiy hayotda bu tarzda in'ikos etmasligi mumkin.

Axborot iste'moli, kim tomonidan iste'mol qilinishidan qat'i nazar, qabul qilish, tushinish, talqin etish kabi bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan bosqichlarda amalga oshadi.

Bugungi kunda, axborot iste'moli jarayoni ham o'ziga xos madaniyatni taqozo etmoqdaki, madaniyatning bunday shakli insoniyat ma'naviy madaniyatining tarkibiy qismiga aylanishi zarur.

Axborot iste'moli madaniyati globallashuv jarayonlarining xarakterli xususiyatlaridan biri bo'lgan internet tarmog'i jadal rivojlanib borayotgan hozirgi sharoitda, ayniqsa, muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuning uchun, hozirgi davr kishisi oldida axborot tanlash imkoniyati shu qadar yuqori-ki, uning talabini qondira olmaydigan ma'lumotlar bir zunda qimmatini yo'qotishi aniq. Shu nuqta nazardan qaraganda, hozirgi davrda axborot iste'moli avvalgilaridan tubdan farq qiladi.

Axborot tizimida internet. Axborot globallashuvi va yoshlar ma'naviyati, har qanday axborot oqimining yoshlar ma'naviyatiga ta'siri xususida so'z yuritganimizda avvalo bu masala zahirida jamiyatimizning, davlatimizning milliy xavfsizligi yotganini nazarda tutishimiz lozim. Zero bu mavzuda so'z yuritar ekanmiz avvalo ikki masala mavzuning dolzarb nuqtasiga aylanadi: birinchisi axborot oqimi-mafkuraviy tahdid; ikkinchisi - yoshlar ma'naviyati, ya'ni turli xildagi axborotlarga nisbatan yoshlarimizda shakllangan immunitet masalalaridir. Gap shundaki, axborot oqimi o'z mohiyatiga ko'ra ma'lum bir maqsadga yo'naltirilgan bo'ladi. Uning qanchalik yoshlarimizga ta'sir qilishi uning oldiga qo'yilgan maqsad sari puxta yo'naltirilganligiga bog'liq. Tabiiyki, axborot oqimining salbiy ta'siri esa ularda shakllangan mafkuraviy himoya tizimining mukammalligi omiliga bog'liq. O'tish davrida axborot mafkuraviy idrok etish bilan bog'liq vaziyatning murakkabligi, ya'ni davlat, jamiyat va shaxsda mafkuraviy raqobat borasida yetarlicha demokratik tajriba yo'qligida hamdir. Ommaviy axborot vositalari tinglovchllarining ko'pchiligi siyosiy mavzudagi har qanday axborotni rasmiy axborot sifatida qabul qiladi. Axborotlar xarakteri va tartibi siyosiy osoyishtalik va barqarorlikning o'ziga xos barometri bo'lib xizmat qiladi. Agar fikrlar xilma-xilligi holati namoyon bo'lsa, beqarorlik ko'rsatkichi, siyosiy munosabatlar tizimida muammoli vaziyat yetilib kelayotganining o'ziga xos alomati sifatida

talqin qilinadi. Ikkinchi masalada avvalo, yoshlarimizning mafkuraviy immuniteti bugungi kunda qanday shakllangan degan savol paydo bo'ladi. Masalani inson omili nuqtai nazaridan o'rganadigan bo'lsak, mafkuraviy immunitet - har qanday axborot ta'siriga tushib qolmaslik, avvalo, o'sha inson ong-tafakkuri, idroki nechog'lik o'tkirligiga, chuqur mushohada qilish qobiliyatiga bog'liq.

To'g'ri, avvalo hammada ham bunday qobiliyatlar birdek rivojlangan emas. Ammo, bu qobiliyatlarni shakllantirish, idrok ko'nikmalarini hosil qilish, inson tug'ilganidan to shaxs sifatida shakllanishiga qadar davom etadi. Xususan, bunda ma'lum bir yoshning ko'p kitob o'qishi, o'z mamlakati tarixini o'rganishi, urf-odatlariga nisbatan hurmat ruhida tarbiya topishi, bir so'z bilan aytganda, unda milliy e'tiqod - milliy faxr shakllanishi muhim o'rin tutadi. O'z millati qadriyatlarini qadrlagan, o'z tarixini bilgan, Vatanga e'tiqodi shakllangan yoshlarning axborot oqimlarining ta'siriga tushib qolish ehtimoli kam. Chunki bunday yoshlarda o'ziga xos psixologiya va masalaga o'ziga xos yondashuv paydo bo'lgan bo'ladi. U har qanday axborot zahirida ma'lum bir maqsadni o'rgana boshlaydi.

Sobiq ittifoq davrida chetdan kirib kelayotgan axborot oqimi qattiq nazorat qilingan. O'z navbatida u davrning texnik imkoniyatlari ham shunga yarasha edi. Mustaqillikka erishganimizdan so'ng, axborot oqimiga keng yo'l ochildi. Turli mazmundagi axborotlarning kirib kelishi keng avj oldi. Tabiiyki, hali axborotga "och bo'lgan" aholi kirib kelayotgan axborotni saralamay turib, "iste'mol" qila boshlaydi. Ular hali yaxshi va yomon, kerakli va keraksiz axborotning farqiga bormasdilar, bir so'z bilan aytganda, aholida xolis axborot oqimidan noxolisini ajratib olish uchun idrok shakllanib ulgurmagani edi. Shuning asorati hozirgi kunda, ayniqsa, sezilmoqda. Bu ba'zan yoshlarimizda har qanday axborotni mutloq haqiqat sifatida qabul qilinishini keltirib chiqarmoqda.

Axborot oqimining globallashuvi sharoitida internetning ta'siri haqida gap borganida quyidagilarga e'tiborni qaratish lozim: diniy, terroristik, ekstremistik, millatchilik, irqchilik ko'rinishidagi yot, buzg'unchi g'oyalarning kirib kelishiga imkon yaratadi; G'arb yashash tarziga xos, lekin o'zbek mentalitetiga zid g'oyalar, qarashlarning yoshlarga ta'siri (kiyinish, chekish, pirsing, taturivkalar va hokazo) keskin kuchayishiga olib keladi; hayosiz axborotlarning yoshlar tarbiyasiga ta'siri ro'y berishi mumkin; tekshirilmagan axborotlar (bo'htonlar) ning keng avj olishi va sh.k. Internetning ulkan

imkoniyatlari, unda axborot oqimining tezkorligi, auditoriyaning cheklanmaganligi, o'z maqsadlarini terroristik yo'l bilan amalga oshirishni odat qilib olgan - yovuz kuchlarning manfaatlariga ham xizmat qiladi. Terroristlar internetning cheksiz imkoniyatlaridan quyidagi maqsadlarda foydalanishadi: jamoatchilik ongiga o'zlarining turli tahdidlari bilan ta'sir ko'rsatishadi; jozibali, dabdabali chaqiriqlari bilan aholini mavjud siyosiy tizimga qarshi qo'yishga intilishadi; xalqaro maydonda o'zlariga hamfikrlar topishadi, bir-biri bilan bog'lanishadi va sh.k. .

Vayronkor ruhdagi kuchlar terroristik saytlar asosan uchta auditoriyaga yo'naltirilgan: avvalo ilgari mavjud va potensial tarafdorlar; xalqaro jamoatchilik fikri; muayyan mamlakat jamoatchiligi. Zamonaviy terroristik guruhlar Internetdan asosan quyidagi sakkiz usul orqali foydalanadilar: Psixologik urush, Reklama va targ'ibot, Ma'lumotlar to'plash, Vositalar to'plash, Qo'lga tushirish va safarbar etish, Tizimlar tashkil etish, Axborot ta'minoti, Rejalashtirish va koordinatsiya.

Aholini (jamiyatimizni) kiberterrorizm va internetdagi terroristik harakatlardan himoya qilish bilan birga, bir qator antiterroristik harakatlar majmuini ishlab chiqish talab etilmoqda. Internetdagi faoliyatning ijobiy tomonlari quyidagilar bo'lishi mumkin: dunyoqarashning kengayishi; obektiv va negativ axborotlarni qabul qilib, ularni tahlil qilish imkoniyati (bunda yosh yigit yo qizning axborotga "to'q bo'lishi" va ularni saralay olish qobiliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Agar unda axborotga bo'lgan "did" bo'lmasa, u axborot oqimida "cho'kib" ketishi mumkin ya'ni, ta'siriga berilib ketishi); masofaviy o'qishlarda ishtirok etish imkoniyati; axborotlarni tanlash imkoniyati borligi.

Bugungi yoshlarning aksariyati asosiy axborot manbai sifatida internetga murojaat qilishadi. Lekin ularda axborot immuniteti shakllanmagan mish-mishlar dunyosi bo'lmish "Internet" orqali ma'naviyatga salbiy ta'sir vujudga kelishi mumkin. Nega ta'sir qiladi? Balki yoshlar ma'naviyatining yetarli darajada shakllanmaganligi emasmikan? Bugungi kunda yoshlarimiz - turli xil G'arb seriallari ta'sirida, milliy qahramonlarimiz jasoratidan bexabar o'sayotganligi sababli ma'naviyatga qaytadan chuqur e'tibor qaratmas ekanmiz, ularning zehni o'tkir, dunyo bilimlarini egallagan bo'lishlariga qaramasdan, Vatan manfaati yo'lida xizmat qilishlariga, begona g'oyalarga berilmasligiga kafolat ham berolmaymiz. Ularni eng avvalo Vatanga e'tiqodni, urf-odat va

qadriyatimizga sadoqatli qilib tarbiyalasakkina. Istalgan buzg'unchi axborotlarga nisbatan o'z axborot immunitetlari shakllanadi.

Axborot qurollari sifatida qaraladigan vositalar: axborot massivlarini yo'q qilish, buzish va to'g'rilash; himoyalash tizimini aylanib o'tish; qonuniy foydalanuvchilar imkoniyatlarini cheklash; kompyuter tizimining texnik vositalari ishlashini buzib tashlash; kompyuter viruslari; mantiqiy bombalar; test dasturlarini ishdan chiqaruvchi vositalar axborot ayriboshlashni yo'q qiluvchi vositalar; har xil turdagi xatoliklar.

Axborot qurolining universalligi, yashirinligi, dasturiy apparat amalga oshirilishi shakllarning ko'p variantligi, ta'sirlarning radikalligi, vaqt va joy tanlash imkonining yetarliligi va nihoyat tejamlilikgi, uning juda xavfsizligini ko'rsatadi: u osongina himoya tizimiga yashirinishi mumkin, urush e'lon qilmasdan anonim shaklda hujum harakatlarini olib borishi mumkin.

Hozirgi davrda ishlab chiqarish va boshqarish, mudofaa va aloqa, transport va energetika, moliya va fan, ta'lim, OAV - barchasi axborot almashuvi jadalligiga, haqqoniyligiga, to'liqligi va tezligiga bog'liq. Shuning uchun jamiyatning axborot infrastrukturasi - axborot qurolining nishonidir.

Rangli inqiloblar davrida axborot liuruji quyidagicha amalga oshiriladi:

- Rangli inqilob - qonuniy hukumatlarni noqonuniy yo'llar bilan ag'darib tashlash demakdir (Misr, Serbiya, Gruziya, Ukraina, Qirg'iziston).
- Rangli inqiloblar rivojlangan davlatlarning kuchli axborot bosimi asosida amalga oshiriladi.

- Rangli inqiloblarni amalga oshirishda zamonaviy elektron axborot vositalaridan, moliyaviy homiyalar imkoniyatlaridan keng foydalaniladi.

Axborot hurujlariga qarshi turish uchun yoshlar qanday ko'nikmalarga ega bo'lishlari, o'z faoliyatlarida nimalarga e'tibor berishlari lozim:

- loqayd bo'lmasligi, ogoh bo'lishi;
- o'z qat'iy pozitsiyasiga ega bo'lish, ma'suliyatli bo'lishi;
- atrofda bo'layotgan voqealarga munosabat bildirish;
- hozirjavoblik, o'z mustaqil fikrga ega bo'lishi.

Kiberterrorizm turlari

- virus tarqatish orqali ma'lumotlar bazasiga putur yetkazish;
- internetda noqonuniy boylik orttirish;
- turli xil kiberjinoyatlar;
- turli bo'hton va uydirmalar tarqatish orqali biror mamlakatni, tashkilotni yoki shaxsni obro'sizlantirish.

Axborot hurujlarining turlari:

- yolgʻon axborot tarqatish orqali barqarorlikni izdan chiqarish;
- ijtimoiy ongni manipulyatsiya qilish;
- milliy-maʼnaviy qadriyatlarni yemirib tashlash;
- yetti yot begona maʼnaviy qadriyatlarni singdirish;
- xalqning tarixiy xotirasini buzish va oʻzgartirish;
- kiberterrorizm.

Axborot hurujning asosiy qismlari:

1. Psixologik operatsiyalar - axborotdan fuqarolarga taʼsir etishda foydalanish;
2. Elektron huruj - aniq maʼlumotlarni olish imkonini bermaydigan vosita;
3. Dezinformatsiya - dushmanga soxta axborot berish;
4. Fizik buzilish - axborot hurujining qismi sifatida qaralishi mumkin, agarda axborot tizim elementlariga taʼsir etish koʻzda tutilgan boʻlsa;
5. Ochiq axborot hurujlar - axborotni koʻzga koʻrinmaydigan oʻzgartirishlarsiz buzish.

Axborot hurujlarining maqsadlari oʻz axborot funksiyalari va resurslarini himoyalagan holda axborot muhitini nazoratga olish.

5. Axborot xavfsizligini taʼminlashning dolzarb muammolari. Insoniyat taraqqiyotida XX asrning ikkinchi yarmi va XXI asr boshlarida kechayotgan jarayonlar axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal surʼatlarda rivojlanishi bilan belgilanadi. Globallashuv, shu jumladan, axborotlashuv ham insoniyat taraqqiyotining yangi darajasi ekanligi, u individ va jamiyat hayoti faoliyatining barcha jabhalariga mislsiz taʼsir koʻrsatishi oddiy haqiqatga aylanmoqda.

Siyosiy sohada kuchga qaraganda axborot omili tobora sezilarli ahamiyat kasb etib bormoqda. Mamlakatlarning tashqi siyosatda erishayotgan muvaffaqiyat nafaqat harbiy qudrat va iqtisodiy salohiyat bilan, balki jahon miqyosida kechayotgan axborot va madaniy sohalar ustidan nazorat oʻrnatishga qaratilgan ommaviy diplomatiya vazifalarini taʼminlash bilan belgilanib beriladi.

Oʻzbekiston birinchi prezidenti I.Karimov bu borada: «Yurtimizga qarshi qaratilgan informatsion xurujlarga zarba berish, biz tanlagan ezgu maqsad va muddaolarni koʻrolmaydigan chetdagi va oʻzimizdan chiqqan ayrim tili burro shovvozlarni, turli niqoblar ostida oʻzini hammadan dono, bizga eng yaqin yordamchi va maslahatgoʻy qilib koʻrsatadigan, hatto milliy anʼanalarimiz va hayot tarzimizni oʻzimizdan ham yaxshiroq bilishni daʼvo qiladigan

kimsalarning soxta urinishlarini fosh etish ham xalqimiz manfaatlarini himoya qilishning yana bir amaliy namoyonidir», degan fikrni bildiradi¹.

Zamonaviy ilmiy-texnikaviy inqilob ijtimoiy hayotning moddiy asoslarini keskin o'zgartirib yubordi. Bugungi kunda xalq farovonligini hudud yoki tabiiy boyliklar emas, balki ma'naviy, aqliy va axborot salohiyati belgilab bermoqda.

Yangi va yuksak texnologiyalarning ijtimoiy hayotga kirib kelishi natijasida "axborotlashgan jamiyat" tushunchasi muomalaga kirdi. U axborotlarning eng yangi, ijobiy elektron vositalar yordamida tayyorlash, qayta ishlash, saqlash va foydalanishning kopleks industriyasiga asoslanadi.

"Axborot" (informatsiya) tushunchasi keng ko'lamli falsafiy-siyosiy kategoriyadir. Xorijiy so'zlar lug'atida: «Informatsiya – (lot.) xabardor bo'lish; biror bir holat yoki kimningdir faoliyati haqida ma'lum qiluvchi ma'lumot» deb ta'rif beriladi². Axborot deganda ma'lum odamlarning boshqa odamlarga xabar, ma'lumot yetkazishi, uni almashish jarayoni tushunilgan. Taraqqiyot davomida axborot tushunchasining mazmuni o'zgarib bordi. Axborotni tushunish va uning xususiyatlarini aniqlashga ilmiy yondoshish ehtiyoji tug'ildi. XX asrning ikkinchi yarmida esa, axborot texnologiyalarining taraqqiy topishi, yangi axborot uzatish vositalarining yuzaga kelishi bilan axborotning yangi qirralari paydo bo'ldi. Xozirgi kunda axborot qaysi sohada foydalanilayotganiga qarab o'ziga xos ma'no kasb eta boshladi.

Rossiya Federatsiyasining «Axborot, axborotlashtirish va axborotni himoyalash haqida» gi qonunda «Informatsiya – taqdim qilingan shaklidan qat'iy nazar shaxslar, predmetlar, faktlar, voqealar, holatlar va jarayonlar haqidagi ma'lumotlar» deb ta'rif beriladi³. Axborotning umumiy belgilari quyidagicha izohlash mumkin, ya'ni: mavhumlik, noaniqlikni kamaytirish; oldin ma'lum bo'lmagan ma'lumotlarni yetkazish; ma'lum vaqt oralig'ida yuz bergan voqea yoki hodisalarni, ularga doir dalillar hamda faktlarni aks ettirish; manfaatlarini ifodalash usuli sifatida qaralayotgani xavfsizlikni ta'minlashda axborot xavfsizligini tadqiq etish ehtiyojini orttiradi.

Ko'p yillar davomida axborot xavfsizligi deganda istalgan axborot "tashuvchi"dagi axborotning u yoki ma'lumotlarini ma'lum manfaatlardan kelib

¹ Karimov I.A. Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlariga. – T. 12. T.: O'zbekiston. – 47-b

² Slovar inostrannix slov / gl.red. F.N.Petrov. – M.: OGIz Gos. Izd-vo inostrannix i natsionalnix slovarey, 1941. – S. 261

³ Zakon Rossiyskoy Federatsii «Ob informatsii, informatizatsii i zashite informatsii» // <http://www.netoscope.ru/docs/2000/07/31/22.html>

chiqib yo'qotish, buzish, ruxsatsiz kirish darajasini o'zgartirishga qaratilgan tasodifiy yoki atayin qilingan harakatlar tushunib kelindi. Endilikda esa axborot xavfsizligi birmuncha kengroq ma'no kasb etadi. Ayniqsa, xalqaro munosabatlarda sub'yektlar o'zaro muomilaga kirishishidan maqsad va muddaolarini namoyon etishda, manfaatlarini himoya qilishda axborot imkoniyatlaridan keng foydalanishi xavfsizlik masalasini kun tartibiga qo'yadi.

Bugungi kunda "Kim informatsiyaga ega bo'lsa, u dunyoni boshqaradi" degan qoida hukmron bo'lib qoldi. Darhaqiqat, jamiyatimizning har bir sohasida axborot xavfsizlikni ta'minlash juda mushkullashib bormoqda. Davlat va jamiyatning axborot xavfsizligi deb, barcha axborot tizimlarining himoyalanganlik darajasiga aytiladi. Axborot xavfsizlik xuddi shunday tahdidlarning oldini olish va neytralizatsiya qilishga ko'mak beradi.

Axborot xavfsizligi - axborot resurslar va kanallarning himoyalanganlik darajasi hamda ma'lumotlar manbasiga yo'l topish holatidir. Axborot xavfsizligi orqali "so'z erkinligi" niqobi ostida jamiyatimizning siyosat, iqtisod, madaniyat, ta'lim, ma'naviy qadriyatlar va hokazo sohalariga chetdan yot g'oyalar, axborot oqimlarining kirib kelishi sababli, davlat siyosati va manfaatiga hamda suverentitetiga putur yetkazishning oldini olishni tushunish mumkin. Axborot xavfsizligi nafaqat davlatning axborot resurslarini, balki fuqarolarning huquqlari va jamiyatning barcha strukturalarini axborot sohada himoyalaydi. O'zbekiston Respublikasining axborot xavfsizligi degani esa shaxs, jamiyat va davlatning o'zaro muvozanatlashgan umummilliy manfaatlari xavfsizligini himoyalanihidir.

Rossiya Federatsiyasining Axborot xavfsizligi doktrinasida «Axborot xavfsizligi» deganda Rossiya Federatsiyasi milliy manfaatlarining shaxs, jamiyat va davlatning muvozanatlangan manfaatlari majmuini belgilab beruvchi axborot muhitida himoyalanganlik darajasi tushuniladi¹.

Axborot xavfsizligi – shaxs, jamiyat va davlat hayotiy muhim milliy manfaatlarining birinchidan, axborotning to'liqsiz, kechikkan va ishonchsizligi yoki salbiy axborot ta'sirida, ikkinchidan, axborot texnologiyalarining salbiy faoliyati, uchinchidan, axborotning ruxsatsiz tarqatilishi natijasida yetkazilishi mumkin bo'lgan zarar ko'lamini minimal darajaga tushirish orqali himoyalanganlik darajasidir. Shunday qilib, informatsiyaviy munosabatlarning shakllanmaganligi, sifatsiz informatsiyani qo'lish va h.k. natijasida zarar

¹ Rossiya federatsiyasining axborot xavfsizlik doktrinasida // 200 yil 9 sentabr. № Pr-1895

yetkazilsa u holda bu kimningdir huquq va manfaatlari buzilganligi, informatsion xavfsizlikning susayganligidan dalolat beradi.

Axborot xavfsizligini bir necha guruhga bo'lish mumkin:

Birinchi guruh: qurollarning yangi turi bo'lmish - axborot insonlarning ruhiyati, ongiga, jamiyat va armiyaning axborot texnologik strukturasi ta'sir ko'rsatish kuchiga ega.

Ikkinchi guruh: axborot texnikaviy xatarlarni jamiyat, shaxs, davlat uchun ijtimoiy yangiliklarning kirib kelishi hamda axborot texnologiyalar yordamida elektron pullar maxinatsiyasi, kompyuter bezoriligi va hokazolar.

Uchinchi guruh: insonlar hayoti, ijtimoiy, siyosiy kayfiyatlari, rejalari, siyosiy birlashma, harakat, fondlar ustidan elektron jihozlar orqali axborotlar to'plash.

To'rtinchi guruh: yangi axborot texnologiyalaridan siyosiy maqsadlarda foydalanish. Axborot totalitarizm (ekspansiya, kolonializm) holatlari deyarli barchaga ma'lum. Ommaviy axborot vositalarining jamiyat siyosiy jarayonlariga hokimiyatning faoliyat ko'rsatish mexanizmi va boshqa sohalarni yoritib borish vazifalari ahamiyatlidir.

Dunyodagi globallashuv hodisasining kuchayib borishi turli mintaqalarda kishilar ongi va qalbi uchun kurash jarayonini jadallashuviga va axborot kommunikatsiya tizimlari orqali muayyan davlat va xalq tafakkuriga nisbatan axborot hurujlari kuchayishga sabab bo'lmoqda.

Axborot huruji - muayyan kuchlar tomonidan kishilar ongi va qalbiga yot g'oyalarni singdirish maqsadida ularni hissiyotlari, e'tiqodi va tuyg'ulariga ta'sir etishning mafkuraviy omillaridan, shuningdek, turmush tarzi va mentalitetdagi o'zgarishlarni amalga oshirish uchun moddiy, iqtisodiy, ma'naviy ta'sir o'tkazishning noan'anaviy va noxolis munosabatlaridan foydalanish asosida siyosiy maqsad va muddalarni amalga oshirish majmuasini anglatadi¹.

Har qanday axborot hurujlari axborot qurollari orqali amalga oshiriladi. Rossiyalik mutaxassis D.Lavsov fikricha, "Axborot qurollari tushunchasi ostida biror xalq, millatning mentaliteti, madaniyati, ma'naviyati, din va davlatning axborot texnologik. harbiy infrastrukturasiga destruktiv tarzda salbiy ta'sir ko'rsatadigan maxsus dezinformatsion texnologik vositalarning muayyan tizimi yotadi". AQSH armiya ustavida: «Informatsion urush – milliy strategiya

¹ Tohirov O., Ashurova M., Farmonqulov B. Axborot xavfsizligini ta'minlashda milliy g'oyaning roli. // <http://www.iqbol.uz/cgibin/mam.cgi?lan=u&raz=0&nom=96&id=1287>

manfaatlari yo'lida axborot ustunligiga erishishga qaratilgan hamda bir vaqtning o'zida o'z axboroti va axborot tizimlarini himoyalagan holda raqib axboroti va axborot tizimlariga ta'sir ko'rsatish yo'llari orqali amalga oshiriladigan harakat», deb ta'rif beriladi. «Axborot urushi» atamasi birinchi marotaba AQSH harbiy doiralari 1991 yilda qo'llanila boshlandi. Mazkur masala bo'yicha dastlabki rasmiy hujjat AQSH mudofaa vazirining 1992 yil 21 dekabrda «Axborot urushi» nomli direktivasini keltirish mumkin¹. Biroq 1948 yil 18 avgust kuni AQSH Milliy xavfsizlik kengashining «Rossiyaga qarshi urushda AQSH ning maqsadlari» deb atalgan 20/1 raqamli direktivani qabul qilgan edi. Mazkur sana AQSH ning SSSR ga nisbatan axborot urushi boshlangan sana hisoblanadi².

Xalqaro maydonda kechayotgan mafkuraviy kurashlarni tahlil etib aytish mumkinki, axborot qurollarini qo'llash strategiyasi faqat hujumkor tabiatga ega. Boz ustiga, kurashning qo'qqisdan, ogohlantirishsiz boshlanishi va ko'pincha yashirin tarzda davom etishi har soniya hushyor bo'lishga undaydi. Masalaning ya'na bir chigal tomoni shuki ummon suvini to'g'on bilan to'sib bo'lmagani kabi dunyo miqyosida tarqatilgan axborot oqimini ham cheklovlar bilan to'xtatishning iloji yo'q.

Axborot hurujlarining eng yovuz va taxlikali shakli kishilar ongiga g'oyaviy va mafkuraviy ta'sir o'tkazishdir. Shuning uchun ham I.A.Karimov "Mafkuraviy poligonlar yadro poligonlaridan qudratlidir" degan fikrni o'rtaga tashlagan edi.

O'zbekistonda jamiyatimizga yot bo'lgan g'oyalarning kirib kelishiga qarshi mukammal tizimli kurash olib borish maqsadida, axborot kommunikatsiya tizimlarini takomillashtirish hamda jahon ommaviy axborot vositalarini, internet tizimini nazorat qilish bo'yicha muayyan ishlar amalga oshirilmoqda³.

Ma'lumki, har bir axborot tizimiga (jumladan, insonga ham) o'zaro bog'liq bo'lgan uch masala – obektiv borliqni ifoda etuvchi axborot resursini shakllantirish, ushbu axborot resursini zararli bo'lgan ichki va tashqi

¹ Grimak L. Informatsiologiya gipnoza // Prikladnaya psixologiya i psixozanaliz. – 2000. - №2. - S.5-14; Yegorov A. eto doljen znat kajdiy. Negativnoye informatsionno-psixologicheskoye vozdeystviye// Jurnal prikladnoy psixologii. – 2002. - № 3. – S.52-55.

² Containment. Documents of American Policy and Strategy 1945-1950. N.Y., ed. by T. etcold and J. Gaddis. 1978

³ Tohirov O., Ashurova M., Farmonqulov B.. Axborot xavfsizligini ta'minlashda milliy g'oyaning roli. // <http://www.iqbol.uz/cgi-bin/main.cgi?lan=u&raz=0&nom=96&id=1287>

tajovvuzlardan himoyalash, tashqi muhit bilan o'zaro foydali va xavfsiz axborot almashinuvini tashkillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bois, axborot xavfsizligini ta'minlashda uning manbaalarini aniqlash, baholash va bashorat qilish, bu borada davlat siyosatini ishlab chiqish, davlat hokimiyati organlari va axborot xavfsizligini ta'minlash boshqarmalari faoliyatini muvofiqlashtirish mamlakat milliy manfaatlarining axborot sohasidagi milliy manfaatlarining kafolatli ta'minlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Tayanch so'z va iboralar

Axborot havfsizligi, axborot texnologiyalari, globallashuv, globallashuv, inson ongi va qalbi uchun kurash, madaniy globallashuv, mafkuraviy immunitet, ma'naviy-mafkuraviy jarayonlarning globallashuvi, internet

Takrorlash uchun savollar

1. Bugungi kunda axborot xavfsizligining dolzarb ahamiyat kasb etishining omillari nimada?
2. Globallashuv sharoitida ommaviy axborot vositalari roli qanday?
3. Axborot tizimida internet qanday o'rin tutadi?
4. Axborot xavfsizligini ta'minlashning dolzarb muammolari nimalarda?
5. Axborot xavfsizligini ta'minlashda ta'lim tizimi oldidagi vazifalardan nimalardan iborat?

8-§. DINLAR O'ZARO TA'SIRINING GLOBALLASHUVI

REJA

1. Dinning madaniyat fenomeni sifatida o'ziga xos xususiyatlari.
2. O'zbekistonda davlat va diniy tashkilotlar o'ratasidagi munosabatning asosiy tamoyillari
3. Jahon dinlari haqida umumiy ma'lumot.
4. Globallashuv sharoitida diniy soha rivojining xususiyatlari
5. Globallashuv sharoitida dunyo diniy manzarasining o'zgarib borish xususiyatlari
6. Diniy va umuminsoniy qadriyatlarning ta'sirlashuvi.

1. Dinning madaniyat fenomeni sifatida o'ziga xos xususiyatlari. Albatta jamiyat hayotining turli sohasini qamrab olgan globallashuv jarayoni din sohasini ham qamrab oldi. Bu jarayonning globallashuvi ba'zan o'ziga xos

keskinlikni, turli to'qnashuvlarning kelib chiqishiga sabab bo'lmoqda. O'zbekiston turli millat va diniy konfessiyalar yashaydigan makon hisoblanadi. Turli milliy va diniy jamoalar o'rtasida ahlllllknı ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. "Jamiyatimizda hukm surayotgan o'zaro do'stlik va hamjihatlikni yanada rivojlantirish, qaysi milat, din va e'tiqodga mansubligidan qat'i nazar, barcha fuqarolar uchun teng huquqlarni ta'minlash e'tiborimiz markazida bo'ladi. Ularning o'rtasiga nifoq soladigan ekstremistik va radikal g'oyalarni tarqatishga O'zbekistonda mutlaqo yo'l qo'yilmaydi"¹.

Har qanday din kishilarning e'tiqodiga tayanadi. E'tiqod so'zi arabcha bo'lib «ye'taqada» so'zidan olingan, mazmuni ishonch, komil ishonch demakdir. Insonning o'z oldida turgan maqsad va g'oyalarning haq ekanligiga ishonishi. Din ham kishilar e'tiqodining bir ko'rinishi sanaladi.

Din – arabcha so'z bo'lib, mulk, hukm, hisob, jazo, tadbir, bo'ysunish, itoat qilish, ibodat, yo'l tutish, e'tiqod qilish kabi keng ma'nolarni bildiradi. Qur'oni karimda ham «Din» turli ma'nolarda 100 dan ortiq marotaba ishlatilgan. Yuqoridagilardan ko'rinadiki, dinda bir tomondan Aliohning mulki, hukmi, qiyomatdagi hisob-kitobi, osiy bandalarini (gunohkorlarni) jazolashi, tadbir qilishi mavjud. Ikkinchi tomondan dinda bandaning bo'ysunishi, itoat qilishi, ibodati, parhezkorligi (gunoh ishlardan saqlanishi), Alioh ko'rsatgan yo'lni tutishi, e'tiqod qilishi kabilar bor. Bulardan esa din Alloh bilan bandalari orasida bo'lishi kerak bo'lgan aloqalarning to'plami ekanligi kelib chiqadi.

Din to'g'risidagi diniy ta'limotlarda dinning kelib chiqishi va rivojlanishi ilohiyot nuqtai nazaridan izohlanib kelinadi. Jumladan, Alloh o'zi yaratgan insonning tabiatini bilganidan va uning o'zi yaratgan bu dunyoda qanday yashab o'tishi uchun eng yaxshi yo'lni ko'rsatib, unga dinlarni yuborib turgan. Inson jamiyati sodda bo'lgan davrda Alloh din hukmlarini ham sodda qilgan. U insoniyatni asta-sekin tarbiyalab o'stira borib ilohiy dinni ham mukammalashtira borgan. Bir dinning vazifasi bitgandan so'ng uning hukmini bekor qilib, o'rniga hukmlari mukammalroq bo'lgan keyingi dinni yuborgan. O'zi yuborgan yangi dindan oldingi dinni esa amaldan qoldirgan. Insoniyat kamoliga yetganda Alloh islom dinini – oxirgi, mukammal va boqiy din qilib yuborgan. Diniy adabiyotlarda dinlarni ilohiy-samoviy va sohta dinlarga bo'lib ko'rsatiladi. Alloh tomonidan insonlar ichidan payg'ambar tanlab olib, u orqali diniy ta'limotlar bandalariga yetkazilgan bo'lsa, bunday dinlar ilohiy bo'ladi.

¹ Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. –Toshkent: "O'zbekiston" NMIU,2017.-138 b.

Hozirgi kunda yahudiylik (iudaizm), nasroniylik (xristianlik) va islom ilohiy dinlar hisoblanadi. Qolgan dinlar odamlar tomonidan yaratilgan sohta, qalbaki dinlar deb qaraladi.

Shunday qilib diniy nuqtai nazarga ko'ra din – ilohiy, g'ayri tabiiy kuchlarga, xudoga, payg'ambarlarga, farishtalarga, muqaddas kitoblardagi bayonlarga, ohiratga, butun yaxshi va yomonlik, ezgulik va yovuzlik yaratganning irodasi bilan bo'lishiga ishonmoqlik, shayton va iblislardan saqlanishdir.

Din – insonning muqaddas ilohiy kuch – Xudo mavjudligiga asoslangan ongli dunyoqarashi, hissiyoti, e'tiqod qilish va hatti-harakatlar majmuidir. Qisqacha aytganda din – bu inson irodasidan yuqori turuvchi zotga iymon (ishonch) keltirish, kuchga e'tiqod qilish demakdir.

Ilmiy dinshunoslik nuqtai nazaridan din – tabiat, jamiyat, inson va uning ongi, yashashdan maqsadi hamda taqdiri insoniyatni bevosita qurshab olgan tabiatdan tashqarida bo'lgan, uni yaratgan, ayni zamonda insonlarga birdan-bir «to'g'ri», «haqiqiy» hayot yo'lini ko'rsatadigan va o'rganadigan ilohiy qudratga ishonch va ishonishni ifoda etadigan qarash, ta'limotdir.

Din masalasida mavjud xalqaro meyor (normalar). Vijdon erkinligi ko'p qirrali tushuncha bo'lib, u mazmun-mohiyatiga ko'ra quyidagilarni bildiradi: har kimning o'z e'tiqodiga ko'ra, mazkur jamiyatdagi mavjud ijtimoiy meyorlarni buzmaganda holda vijdoni buyurganicha yashash, ishlash imkoniyati. Bunda dinga munosabat masalaning bir tomoni hisoblanadi. Siyosiy jihatdan esa unga demokratiya ko'rinishlaridaq biri sifatida qaraladi. Yuridik nuqtai nazardan vijdon erkinligi insonning asosiy shaxsiy huquqlari sirasiga kiradi va demokratik erkinliklardan biri hisoblanadi.¹ Ko'rinadiki vijdon erkinligi zamirida shaxsning huquqi, demokratiya, adolatparvarlik va insonparvarlik kabi katta ijtimoiy-siyosiy, huquqiy va ahloqiy tushunchalar yotadi. Hozirgi vaqtda vijdon erkinligi demokratiyaning ajralmas tarkibiy qismiga aylangan. Biz bu o'rinda vijdon erkinligini fuqarolarning din erkinligi nuqtai nazaridan izohlashni maqsad qilib qo'yganmiz. Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar masalasi barcha davlatlarning ijtimoiy hayotida muhim va shu bilan birga murakkab masalalaridan biri bo'lib kelgan.

Bu masalada xalqaro meyorlarga kelsak, BMT ning Ustavidan tortib, barcha xalqaro hujjat va shartnomalarda, dunyoviy davlatlarning Konstitutsiya

¹ Qarang. Islom: ensiklopediya. «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti. –T.: 2004, 63-bet.

va qonunlarida vijdon erkinligi masalasi o'z ifodasini topgan. 1948 yil 10 dekabrda qabul qilingan «Inson huquqlari umumiy jahon deklaratsiyasi»ga muvofiq har bir inson erkin fikrlash, vijdon va din erkinligi huquqiga ega. Bu huquq o'z dini va e'tiqodini o'zgartirish erkinligini, diniy ibodatlarni bajarishda va diniy marosimlarda yakka tartibda va odamlar bilan birgalikda qatnashish erkinligini o'z ichiga oladi.

«Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt» ning 18-moddasida esa «Din yoki e'tiqodga sig'inish erki qonunda belgilab qo'yilgan va jamoat havfsizligini saqlash, tartib, sixat-salomatlik va ahloq-odobni saqlash uchun, ayni vaqtda boshqa shaxslarning asosiy huquqlari va erkinliklarini saqlash uchun zarur bo'lgan cheklashlargagina nozil bo'ladi», - deb ta'kidlangan.

Din va vijdon erkinligi to'g'risida xalqaro hujjatlardagi yana bir muhim masala, turli dunyoqarash va e'tiqodda bo'lgan kishilar o'rtasidagi, davlat, din, diniy tashkilotlar bilan davlat o'rtasidagi munosabatlarning amalda huquqiy ta'minlanishini ham nazarda tutadi.

O'zbekistonda vijdon erkinligining konstitusion kafolatlanishi. Din erkinligi nuqtai nazaridan vijdon erkinligi - bu fuqarolarning u yoki bu dinga e'tiqod qilish yohud hech qanday dinga e'tiqod qilmaslik huquqidir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 31-moddasida qayd etilganidek, «Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi».² Dindor bo'lish yoki bo'lmaslik, o'zi xohlagan dinga ishonish yoki hech qaysi dinga ishonmaslik har kimning shaxsiy ishi. Bu huquq O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining 31-moddasida qonun bilan mustahkamlangan.

Vijdon erkinligining kafolatlari ko'p qirralidir. Bu – avvalo dinlarning va diniy tashkilotlarning davlatdan ajratilganligi; barcha fuqarolar uchun ularning dinga e'tiqod qilish yoki qilmasligidan qat'iy nazar maorif va madaniyat maskanlari eshiklarining ochiqligi; maktabning dindan va diniy tashkilotlardan ajratilganligi; dindorlarning diniy ehtiyojlarini qondirish uchun zarur bo'lgan sharoitlarning yaratib berilganligi va boshqalardan iborat. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev bu borada olib borilayotgan ishlarga to'xtalar ekan shunday ta'kidlagan ed: «Ma'lumki, vijdon va e'tiqod erkinligi,

² O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2003, 8-bet.

turli millat vakillarining huquqlari keng kafolatlanib, diniy bag'rikenglik muhiti mustahkamlanmoqda.

Hozirgi vaqtda diyorimizda 130 dan ziyod millat va elat vakillari o'zaro hanjihat yashamoqda, 16 ta konfessiyaga mansub diniy tashkilotlar erkin faoliyat yuritmoqda¹. Albatta bunday muhitni, undagi ijtimoiy barqarorlik asrab-avaylash ustuvor vazifa hisoblanadi.

2. O'zbekistonda davlat va diniy tashkilotlar o'rtasidagi munosabatning asosiy tamoyillari. O'zbekiston Respublikasining din va diniy tashkilotlar bilan munosabati, O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi tegishli moddalarida aks etgan Vijdon erkinligi, shuningdek «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida» qonun xalqaro hujjatlardagi talablarga mos tuzilganligi bilan ajralib turadi.

Birinchi prezidentimiz I.A.Karimov «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» asarida O'zbekiston dunyoviy davlat sifatida rivojlanar ekan, din bilan munosabatini quyidagi tamoyillarga asoslangan holda amalga oshirilayotganini ta'kidlagan edi:

1. Dindorlarning diniy tuyg'ularini hurmat qilish;
2. Diniy e'tiqodlarni fuqarolarning yoki ular uyushmalarining xususiy ishi deb tan olish;
3. Diniy qarashlarga amal qiluvchi fuqarolarning ham, ularga amal qilmaydigan fuqarolarning ham huquqlarini teng kafolatlash hamda ularni ta'qib qilishga yo'l qo'ymaslik;
4. Ma'naviy tiklanish, umuminsoniy ahloqiy qadriyatlarni qaror toptirish ishida turli diniy uyushmalarning imkoniyatlaridan foydalanish uchun ular bilan muloqot yo'llarini izlash zarurati;
5. Dindan buzg'unchilik maqsadlarida foydalanishga yo'l qo'yib bo'lmasligini e'tirof etish.

Mustaqillik: dinga va diniy tashkilotlarga munosabatning o'zgarishi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, dinga va diniy tashkilotlarga munosabat tubdan o'zgardi. Bu o'zgarishlarning mohiyatini va ahamiyatini teran anglab yetmoq uchun sobiq Sho'ro davrida dinga va diniy qadriyatlarga nisbatan bo'lgan salbiy munosabatni bilish bizni o'ylash va fikr yuritishga,

¹ Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. –Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017 -138 b.

mustaqillikning qadrini anglashga yo'llaydi. Mustaqillik tufayli O'zbekiston fuqarolari uchun tom ma'nodagi vijdon erkinligi ta'minlandi.

Milliy va diniy qadriyatlarimiz qayta tiklandi va tiklanmoqda. Jumladan Ramazon va Qurbon xayitlari 1990 yildan boshlab har yili ommaviy ravishda, emin-yerkin bayram sifatida nishonlanib kelinmoqda. Diniy-ma'rifiy sohada Imom Buxoriy, Imom Motrudiy, Imom at-Termiziy, Bahouddin Naqshband, Burhoniddin Marg'inoniy va boshqa ulug' mutafakkirlarimizning yubileyleri o'tkazildi.

Mustaqillik tufayli respublikamiz fuqarolari Haj safariga borish, muqaddas qadamjolarini ziyorat qilish imkoniga ega bo'ldilar. O'tgan yillar davomida xalqimizning ma'naviy boyligi bo'lgan noyob manbalarni tizimli o'rganish yo'lga qo'yildi. Mustaqillik yillari dinning jamiyatdagi mavqei tiklandi, barcha diniy uyushmalarga, mazhab va jamoalarga qonun doirasida ochiq va dahlsiz faoliyat imkoniyati yaratildi.

3. Jahon dinlari haqida umumiy ma'lumot. Milliy, irqiy mansubligidan qat'iy nazar, butun yer yuzi bo'ylab yoyilgan dinlarni jahon dinlari deb atash keng tarqalgan. Ularga jumlasiga hozirda xristianlik, islom va buddaviylik dinlarini kiritish mumkin. Bugungi kunda xristianlik jahonning 200 dan ortiq mamlakatida tarqalgan bo'lib, unga taxminan 2 milliard kishi e'tiqod qiladi. Islom dini jahonning 174 ta davlatida tarqalgan bo'lib, 1.6 milliard kishi e'tiqod qiladi. Buddaviylik dini esa jahonning 86 ta davlatida tarqalgan bo'lib 800 million kishi e'tiqod qiladi.

Zamonaviy musulmon olami. Aholisining ko'pchiligini musulmonlar tashkil etadigan mamlakatlarning geografik va etnomadaniy tavsifi haqida gap borar ekan ko'proq Osiyo va Afrika mamlakatlariga murojat etishga to'g'ri keladi. Chunki yer yuzida istiqomat qilayotgan musulmonlarning uchdan ikki qismi Osiyo davlatlariga, o'ttiz foizi Afrika davlatlariga to'g'ri keladi. Musulmon jamoalari mavjud bo'lgan davlatlarning 40 dan ziyodida musulmonlar aholining ko'pchiligini tashkil etadi.

Aytib o'tilgan hududlarga xos geografik va etnomadaniy xususiyatlar, ularda islom dinining o'rni va ahamiyati masalalari keng qamrovli bo'lgani bois ularga xos ayrim umumiy va xususiy jihatlar haqida ma'lumot berish maqsadga muvofiq hisoblanadi. O'zining bir qator xususiyatlariga ko'ra musulmonlar yashayotgan mamlakatlarni quyidagicha tasniflash mumkin:

I. Arabiston, Shimoliy Afrika va Old Osiyodagi musulmon davlatlari. Mazkur mintaqada joylashgan davlatlar hayotida islom dini muhim mavqeni egallab

kelmoqda. Bu mintaqada bir paytlar arab halifaligi tarkibida bo'lib, halifalik davrida islomni qabul qilgan: Arab davlatlari, Iroq, Eron, Turkmaniston, O'zbekiston va sh.k.

2. Janubiy-Sharqiy Osiyodagi musulmon davlatlari. Ma'lumki bu hudud arab halifaligi tarkibiga qo'shib olinmagan. Hududga islomning kirib kelishi bir necha o'n, yuz yillar davomida nisbatan tinch kechdi. Islom savdo aloqalari, ma'rifiy vositalar orqali targ'ib qilindi va qator musulmon davlatlari tarkib topdi: Indoneziya, Malayziya, Nepal, Bangladesh va sh.k.

3. Musulmonlar sezilarli darajada ko'proq bo'lgan davlatlar- Rossiya 24%, Hindiston 18%,

4. Musulmonlar kam bo'lgan davlatlar-YEI, Lotin Amerikasi va sh.k.

AFRIKA. Yaqin Sharq mamlakatlaridan farqli ravishda Afrika davlatlari aholisi turli tillarda gaplashuvchi va turli dinlarga e'tiqod qiluvchi millat, elat va qabilalardan iborat. Ba'zi ma'lumotlarga qaraganda Afrikada 850 ga yaqin etnik va lingvistik guruh mavjud. Qit'aning shimoliy qismi uzoq yillar davomida avval Arab halifaligi tarkibida, so'ngra Usmoniylar qo'l ostida bo'lganligi bois asosan musulmonlardan iborat. Tropik Afrika aholisining to'rtidan bir qismi islomga e'tiqod qiladi.

Mazkur hududdagi mamlakatlar ichida islom diniga e'tiqod qiluvchilar soni jihatidan Nigeriya birinchi o'rinda turadi. Mamlakat aholisini asosan sunniylik yo'nalishida e'tiqod qiladigan musulmonlar, xristianlar va mahailiy an'anaviy dinlarga e'tiqod qiluvchilar kabi uchta katta konfessional guruhga bo'lish mumkin. Separatizm muammosini hal etish maqsadida mamlakat 19 shtatga bo'linsada diniy va etnik ixtiloflar uchrab turadi. Senegal aholisining 80 foizini musulmonlar tashkil etadi. Aholisining ko'pchiligini musulmonlar tashkil etadigan mamlakatlardan yana biri Uganda hisoblanadi.

G'arb dunyosida islom. Islom dunyodagi eng yosh dinlardan biri bo'lsada unga e'tiqod qiluvchilar soni, shuningdek u tarqalgan hudud yil sayin kengayib bormoqda. Buni aholisining asosiy qismi musulmon bo'lmagan o'lkalarda ham islomga e'tiqod qiluvchilar soni ortib borayotganida ko'rish mumkin. Hozirgi kunda AQSH da 10 million, Fransiyada 6 million, Germaniyada 3.5 million, Angliyada 1.5 million, Italiyada 1 million atrofida musulmonlar yashashadi. Yevropa Ittifoqi buyicha 15 millionga yaqin musulmon bo'lsa, ularning soni 2040 yilga borib 40 millionga yetishi taxmin qilinmoqda.

4. Globallashuv sharoitida diniy soha rivojining xususiyatlari.

Diniy globallashuv bir tomondan, vijdon erkinligi va bag'rikenglik tamoyillari asosida dinlararo sog'lom muloqotning intensivlashuvi, diniy ong va madaniyatning rivojlanishi, ikkinchi tomondan, diniy niqob ostidagi g'arazi kuchlar hamda soxta diniy oqimlar faoliyatining kuchayib borishidan iborat murakkab va ziddiyatli hodisa hisoblanadi. Diniy jarayonlar globallashuvining o'ziga xos xususiyatlarini tahlil etishning dolzarbligi bir qator omillar bilan belgilanadi. Bular nimalardan iborat:

Birinchidan, globallashuv sharoitida faqatgina siyosiy, iqtisodiy jarayonlar emas, ma'naviy jarayonlar ham keskin ta'sirga uchramoqda. Siyosiy, iqtisodiy, mafkuraviy, demografik, axborot-texnologik sohalar kabi diniy globallashuv ham alohida fenomen sifatida tadqiqotlar doirasiga aylandi.

Ikkinchidan, sobiq ittifoqning yemirilishi, shu bilan birga olib borilgan ateistik siyosatning barham topishi bilan yangi tashkil topgan mustaqil davlatlarda milliy va diniy qadriyatlar qayta tiklana boshladi. Madaniyatlararo o'zaro ta'sir kuchaymoqda.

Uchinchidan, jamiyat hayotida diniy globallashuv jarayoni chuqurlashib bormoqda. Bu jarayonda tezkor internet tizimi, yuksak texnologiyalar orqali jahon dinlari o'rtasida o'zaro ta'sirning kuchayishi, diniy tashkilotlar sonining ortib borishi, adabiyot, OAV, mavzuga oid filmlar yaratilishi kabi hodisalar muhim o'rin tutadi.

To'rtinchidan, keyingi yillarda diniy ta'lim jahon miqyosida yuqori sur'atlar bilan o'smoqda. Bu jahonning bir qator hududlarida dinga qo'yilgan to'siqlarning bekor qilinishi, diniy e'tiqodning qayta faollashuvi, diniy qadriyatlarning qayta tiklanishi, diniy ma'rifatga bo'lgan munosabatning o'zgarishi, bir qator diniy o'quv yurtlarining barpo etilishi bilan bog'liq. Biroq ayni damda diniy ekstremistik ruhdagi oqimlarning faollashuvi ham shu jarayon bilan bir qatorda sodir bo'lmoqda. Bu diniy ta'lim sohasi rivojlanishining xususiyatlarini tahlil zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Beshinchidan, axborot texnologiyalarining keskin yuksalishi diniy mazmundagi ma'lumotlarni, xabarlarini global masshtabda keng yoyilishini ta'minlamoqda. Diniy axborot inson va jamiyat hayotining muhim resursi bo'lib qolmoqda. Ushbu texnologiyalar orqali berilayotgan turli vayronkor mazmundagi diniy-mafkuraviy tazyiqlardan himoyalaniish tizimini yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

Oltinchidan, din niqobi ostidagi vayronkor xatti-harakatlar shu yo'nalishdagi ziddiyatlarning avj olishiga sabab bo'lmoqda. Bularning barchasi globallashuv sharoitida diniy soha rivojining o'ziga xos xususiyatlarini keng tadqiq etishni taqozo etadi.

5. Globallashuv sharoitida dunyo diniy manzarasining o'zgarib borish xususiyatlari. Fanning, ilmiy bilishning qimmatini uning kelajakni bashorat qila olish xususiyati bilan belgilanadi. Din istiqboliga doir futurologik masalalar dunyoviy jamiyat to'g'risidagi g'oyalarning rivojlanib borishi bilan shakllangan sekulyarlashuv konsepsiyalarida o'z aksini topib kelmoqda. Ushbu yo'nalishdagi barcha qarashlar uchun asosan taraqqiy etgan mamlakatlarda dinning jamiyat hayoti sohalariga ta'sirining tobora pasayib, dunyoviylikka asoslangan hayot tarzining mustahkamlanib borishi haqidagi g'oya umumiy hisoblanadi. Sekulyarlashuvga bag'ishlangan nazariyalarda dinlarning taqdiri bilan bog'liq masalalar yuzasidan tahliliy mulohazalarga e'tibor beradigan bo'lsak tabiiy ravishda, insoniyat istiqbolida diniylikdan dunyoviylik o'tib, rivojlanib boruvchi jamiyat qurilishi modeli ustuvor bo'lishi to'g'risidagi xulosa ilgari suriladi.

Globallashuv sharoitida mazkur muammo ijtimoiy-falsafiy fanlarning asosiy mavzularidan biriga aylandi. Har bir fan doirasida dinning ijtimoiy-tarixiy mohiyati, istiqboli bilan bog'liq masalalar o'ziga xos yondashuv asosida tadqiq etiladi. Izlanishlar din futurologiyasiga doir ilgari surilayotgan qarashlar asosan bir nechta muhim masalalar doirasida ishlab chiqilayotganini ko'rsatmoqda.

Ulardan biri – din o'zining avvalgi ijtimoiy maqomini yo'qotib, jamiyatga bo'lgan ta'sir kuchi pasayib borishi bilan bog'liq masala hisoblanadi. Mutaxassislar tahlillar asosida jamiyatdagi sekulyar jarayonlarning natijasi dinga ta'siri kuchli bo'lgan ikki soha – fan va siyosatning rivojlanishiga bevosita bog'liqligini ta'kidlaydilar.

Ma'lumki, hozirda sekulyarlashuvning kuchayib borayotgani va uning zamonaviy jamiyatning xarakterli xususiyatiga aylanib ulgurgani, din, an'anaviy ravishda uzoq ming yilliklar mobaynida bajarib kelgan funksiyalarni endilikda to'liq bajara olmasligi haqidagi fikrlar keng tarqalgan. Darhaqiqat, voqelik diniy mansublik bilan boshqa ijtimoiy rollar o'rtasida muayyan tafovut mavjudligini ko'rsatmoqda. Birgina, dinidan qat'iy nazar barcha fuqarolarning teng huquqliligi to'g'risidagi dunyoviy jamiyat qoidasi bunga misol bo'la oladi.

XVIII—XIX asrlarda huquqiy darajada namoyon bo'lgan ushbu sekulyar tamoyil keyinchalik ijtimoiy darajalarga ham tatbiq etildi.

Biroq, bunday holat ulkan ma'naviy kuch – dinning inson, ijtimoiy guruh, jamiyat hayotida barcha joylarda ham sust rol o'ynayotgani haqidagi xulosaga asos bo'la olmaydi, albatta.

Bir guruh olimlar sekulyarlashuvning dini jamiyatga ta'sir kuchini tobora susaytirib, yo'q bo'lishigacha olib boradigan ortga qaytmas jarayon tarzida talqin etadilar. Ikkinchi guruhga mansub mutaxassislar fikricha esa, sekulyarlashuv – bu, faqat dinning shaklan o'zgarishini ifodalaydigan jarayon bo'lib, o'z umrini o'tab bo'lgan diniy e'tiqod shakllari o'rniga yangilarining paydo bo'lishi va shu tariqa dinning jamiyatdagi ahamiyatining saqlanib qolishini anglatadigan jarayon hisoblanadi. Boshqacha aytganda, ikkinchi guruh olimlari sekulyarlashuvni yangilangan shakllarda dinlarning jamiyatdagi o'rnini hatto, kengayishiga olib keladigan tabiiy, sog'lom jarayon sifatida tushunadilar.

Sekulyarlashuv nazariyalarining yana bir yo'nalishi kelajakda dinning fan, ratsional tafakkur, dunyoviy ahloq meyorlari tomonidan jamiyat hayotidan siqib chiqarilishi haqidagi futurologik qarashlar tizimini ifoda etadi. Mutaxassislar ushbu nuqtai nazarni hozirda din istiqbollari bilan bog'liq masalalar tahlilida ustuvor bo'lib turganini e'tirof etadilar. Unga ko'ra, fan va jamiyatning savodi o'sib borgan sari dinning roli tobora pasayib boradi.

Yana bir ilmiy oqim sekulyarlashuvni dinning evolyusiyasi va ijtimoiy o'zgarishlar natijasida boshqa shakl va ko'rinish kasb etib borishi bilan bog'liq futurologik g'oyalarni ilgari suradi.

Ma'lumki, zamonaviy dinshunoslik fani talqinlariga ko'ra, sekulyarlashuv tufayli din o'zgarib boradi, biroq, u o'z ahamiyatini yo'qotmay, insonlar hayotida boshqacha tarzda namoyon bo'ladi. Jamiyat differentsiatsiya yo'li orqali taraqqiy etadi va din o'zining avvalgi “muqaddas timsol” sifatidagi ahamiyatini yo'qotib, ijtimoiy hayotning sohalaridan biriga aylanadi. Diniy e'tiqod tobora xususiy xarakter kasb etadi. Shuning uchun, kelajakda sotsial institut sifatida dinning davlat, huquq, iqtisodiyot, ta'lim kabi sohalarga nisbatan ta'sir kuchi tobora susayib boradi.

Umuman olganda, Kontdan so'ng ko'plab jamiyatshunos olimlar fan-texnika taraqqiyoti natijasida dinning zaiflashib borishi to'g'risidagi fikr-mulohazalarni ilgari surdilar.

Globalashuv sharoitida G'arb va Islom munosabatlari. G'arb va islom dini o'rtasidagi munosabatlar havas bilan qaraydigan holatda emas. G'arb

va islom o'rtasidagi munosabatlar qarama-qarshiliklarga, paradokslarga, kolliziyalarga boy. Bugungi Islom dunyosi G'arbga nisbatan umuman ishonchsizlik bilan munosabatda bo'lishmoqda. Bu ishonchsizlikga nisbatan ularda tegishli jiddiy asoslar, xulosalar mavjud. Ma'lumki G'arbiy Osiyo va Shimoiy Afrikaning musulmon davlatlari (asosan arab davlatlari) yaqin o'tmishda G'arb kapitalistik va imperialistik tizimining mustakamlakasi sifatida siyosiy, iqtisodiy azob – uqubatlar girdobiga tortilgan edi. Ayrim musulmon davlatlari bugungi rivojlangan Yevropa davlatlariga nisbatan o'z adovatlarini, g'arazlarini turlicha ko'rinishlarda ochiq namoyish ham etishmoqda. O'ziga xos "qasos" olishning keng tarqalayotgan turlaridan biri bo'lib terror maydonga chiqmoqda. O'z navbatida G'arb ham "Berlin devori" qulaganidan keyin xalqaro maydonda islom omilini o'zning asosiy raqibi sifatida ko'rmoqda. Ikkinchi jahon urushidan keyingi mustaqillik davrida musulmon davlatlarining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga turli vositalar bilan to'sqinlik qilishga harakat qilmoqda. O'z navbatida musulmon davlatlari, tashkilotlari o'z ijtimoiy iqtisodiy taraqqiyotini yuksaltirmasdan, oyoqqa turib olmasdan turib eski ginalarni, adovatlarni ro'kach qilib o'z xatti-harakatlari bilan G'arbn tahlkada ushlab turishga intilmoqda. Radikal ruxdagi ekstremistik kuchlar G'arbg ta'sir etishning eng ta'sirchan vositasi sifatida terrorni qo'llashmoqda. Ikkinchi tomondan G'arb musulmon duynosini jahon hamjamiyati oldida sharmanda qilish uchun islomni terror bilan aynanlashtirmoqda, dindagi bir qator qadriyatlarni qadsizlantiruvchi turli kliplar, multimediyalar yaratib xalqaro saytlarga joylashtirishmoqda va o'z navbatida G'arbn musulmon zamonaviy sivilizatsiyadan chetga uloqtirishga intilishining o'zi musulmon radikal guruhlarining terrorga o'tishga majbur qilmoqda.

S.Xantington tomonidan ilgari surilgan sivilizatsiyalar to'qnashuvi to'g'risidagi tezis AQSH tomonidan Iroqning okkupatsiya qilinishi sababli yana dolzarb mavzuga aylandi. Insoniyat buyuk dinlardan "baxt retsepti" ni izlashi sababli mafkuralar o'tmishga qoladi. Yuksak darajadagi sivilizatsiyaning barqaror rivojlanishi, yashovchanligi uning boshqa sivilizatsiyalarga nisbatan murosasiz, agressiv bo'lishiga bog'liq.

Yuqoridagi tegishli ko'rsatmalar asosida ish yuritish G'arbn amaliy harakatlarida ko'zga tashlanadi. G'arbn turli xil ta'sir etish vositalari qurollanish vositalari, kurash metodikasi amalda islomning tub mohiyatiga qaratilmagan. Aksincha bu dinning asl mohiyatini buzish, undagi qadriyatlarni soxtalashtirish, ijtimoiy ongda noto'g'ri tasavvurni hosil qilishga qaratilgan.

Boshqacha aytganda islomni bugungi Qur'onga, sivilizatsiyaga, fanga, sog'lom fikrga qarshi qo'yish, zamonaviy rivojlanish jarayonlaidan chekkada qoldirishga intilishdir. Musulmon dunyosini shu kabi turli vositalar bilan zamonaviy sivilizatsiyadan chekkaga surilmasa, ularning rivojiga to'sqinlik qilinmasa ular o'zlarining katta tabiiy zahiralarga, imkoniyatlariga tayanib, ularni ishga solib yetakchi mamlakatlarga aylanishlari ehtimoldan xoli emas. Albatta G'arb bu jarayonga e'tiborsizlik bilan qaramaydi. Aynan shu bois G'arb islomni zamonaviy sivilizatsiyaga qarshi qo'yish taktikasini ishga solmoqda. Bu taktikani amalga oshirishning usullaridan biri islom dunyosi ichidagi bir-biriga qarama-qarshi guruhlar topish, ularning g'oyaviy-mafkuraviy sohadagi kelishmovchiliklaridan ustamonlik bilan foydalanish hisoblanadi. Buni Yaqin Sharq misolida ko'rish mumkin.

Bipolyar tizim davrida G'arbning sharqiy kommunizmga qarshi kurashda aynan islom omilidan unumli foydalandi. Bunga sabab Moskvaning dindan xoli jamiyat barpo etishga intilishi, ateistik siyosat yurgizishi edi. 1991 yilga kelib sotsialistik tizimning qulashi, bipolyar tizimning tugashi, mafkuraviy qarama-qarshilikning yemirilishi natijasida vaziyat butkul o'zgardi. AQSH G'arbiy Yevropaning madadi bilan ilk bor musulmon davlatiga – Iroqqa qarshi urush boshladi. Kechagi ittifoqdosh bo'lmish jihad "ritsarlari" G'arbning ashaddiy dushmaniga aylandi.

Iroq va Shom Islom Davlati –ISHID (IGIL-Islamskoye gosudarstva Iraka i Levanta) tashkil etilishi G'arbning musulmon dunyosiga nisbatan tutgan siyosatining o'ziga xos aksi deyish mumkin. ISHID 2006 yilda Iroq va Suriya hududlarining bir qismida tashkil etildi. Davlat lideri Abu Bakr al-Bag'dodiy hisoblanadi. Shtab-kvartirasi Suriyaning Rakka shahrida joylashgan. Uning tashkil etilishida "Al-Qoida" bo'limlari, shuningdek yana o'n bitta radikal ruhdagi islomiy guruhlar faol ishtirok etishdi. Norasmiy manbalarda keltirilishicha Saddam Huseyn armiyasining (Iroqning sobiq prezidenti) zobitlari ham ko'ngilli sifatida ishtirok etishgan. Bugungi kunda ISHID shariat asosida boshqariladigan Yevropaga jiddiy havf solayotgan yarim real kvazidavlat hisoblanadi. AQSH ning birinchi raqamli dushmani "Al-Qoida" emas ISHID bo'lib qoldi. ISHID o'z faoliyati davomida "Al-Qoida" faoliyatini chuquq tahlil etgan holda uning xatolarini takrorlamaslikka harakat qilmoqda: tolerantlikni ifoda etuvchi mavhum ta'limotlarni emas an'anaviy islomni qo'llab-quvatlamoqda; Forsdagi islomiy tashkilotlar bilan (shialardan tashqari) harbiy ittifoqda bo'lishga harakat qilmoqda; Suriya muholifati bilan kelishuv

yo'lini tutdi va sh.k. E'tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishidan qat'iy nazar yuqori malakali kadrlarni ishga taklif etish avj olgan. Pentagon ma'lumotlariga qaraganda har oyda o'rtacha 1000 nafardan ortiq mutaxassis ko'ngilli sifatida tashkilotga qo'shilmogda. Jahonning 80 ta davlatidan kelgan ko'ngillilar jangarilar safini to'ldirmogda. ISHID jangarilari soni MRB (AQSH) ma'lumotlariga qaraladigan bo'lsa 20-31.5 ming atrofida, FSB (Rossiya) ma'lumotlarida 30-50 ming atrofida. Jangarilar oddiy o'qotar qurollardan tortib jangovar samolyotlargacha ega. Daromad manbalarini quyidagilar tashkil etadi: bosqinchilik; noqonuniy savdo; garovga olish; banklarni egallash; xususiy investorlar yordami va sh.k. Endilikda bu tahdidni bartaraf etish hamkorlikni talab etmogda. Aytib o'tganimizdek bu hodisa bitta islomiy tashkilotning ishi emas.

6. Diniy va umuminsoniy qadriyatlarning ta'sirlashuvi. Dinning globallashuvi bu jamiyatni, insoniyatni dinsizlashtirish degani emas. Yaqin Sharq, O'rta Sharq musulmon davlatlari buni xuddi shu tartibda qabul qiladi. Madaniyatlarning o'zaro ta'siri uzoq asrlar davomida davom etib keldi. Lekin bu ta'sir keyingi o'n yilliklarda shu darajada kuchaydiki, bu ta'sirni ifodalash uchun globallashuv atamasi is'temolga kiritildi.

O'zlarini vatanparvar, millatparvar deb hisoblovchi ko'pgina davlatlardagi milliy, diniy ruhdagi tashkilotlar, jamiyatlar globallashuv jarayonini milliy qadriyatlarning yemirilib borishiga, ma'naviy merosning yo'qolib borishiga, diniy qadriyatlarning yo'qolib borishiga, din sekulyarlashuviga asosiy sababchi sifatida qarashadi. Shu bois ular bu jarayondagi o'zgarishlarning aybdori sifatida globallashuvni kuchli tanqid ostiga olishadi. Lekin jahonda uzoq davom etgan ijtimoiy siyosiy jarayonlarning tahlili bu fikrni shubha ostiga oladi. Yevropada dinni isloh etish bilan bog'liq qarashlar, harakatlar Reformatsiya asriga borib taqaladi: diniy tashkilotlar ustidan davlat nazorati; universitetlar ustidan cherkov nazoratini bekor qilish, fuqarolik va nikoh va sh.k. Bunday jarayon XX asrning ikkinchi yarmida ayniqsa kuchaydi. Urush keyin G'arbiy Yevropaning barcha davlatlari ijtimoiy-siyosiy hayotning ko'pgina sohalarida sekulyarlashuv amalga oshirildi. Globallashuvsiz dunyoviy, demokratik qadriyatlarga asoslangan fuqarolik jamiyati barpo etishga o'tildi. G'arbiy Yevropadan farqli ravishda Sharqiy Yevropa davlatlarida dinga qarshi sekulyarlashuv emas, butun bir ateistik jang boshlab yuborildi. G'arbda inson erkinliklari oliy qadriyat deya e'lon qilindi. Inson xohishlari, ehtiyojlari cheki yo'q. Natijada insonning o'tmishga munosib voris bo'lish, zamonning munosib

farzandi bo'lish, kelajakning ma'naviy otasi bo'lish singari ma'suliyatli vazifalari ortga chekindi. Milliy-ma'naviy qadriyatlarining, diniy qadriyatlarining vorisi, tashiuvchisi, ijodkori bo'lmay qoldi.

XX asr voqeligi dinning xalqlar hayotida o'z o'rnini saqlab qolsada, unga bir qator omillar o'z ta'sirini ko'rsatdi. Shunday bo'lsa-da, bu boradagi ayrim holatlarga to'xtalish, maqsadga muvofiq.

Birinchidan, demokratik tartiblarning ustuvorlashib borishi natijasida, aksariyat davlatlarda din rasmiy mafkura sifatida maqomini yo'qotdi. Din va davlat alohida sohalarga ajratildi. Diniy bag'rikenglik tamoyillari umuminsoniy qadriyat darajasiga ko'tarilib, yagona hudud va mintaqalarda turli din va konfessiyalarning birgalikda hayot kechirishlari oliy demokratik qadriyat sifatida rasmiylashdi.

Ikkinchidan, demokratik sharoit vijdon erkinligi to'g'risidagi qonun-qoidalarining joriy etilishiga sabab bo'ldi. Bu ham dinning umumjamiyat umumdavlat miqyosdan xususiy darajadagi masalalar qatoridan joy olishini ta'minladi. Bugungi kunda fuqarolar diniy e'tiqodidan qat'i nazar teng huquqlarga ega.

Yuqoridagi ikki jihat so'nggi ikki yuz yil mobaynida diniy hayotda yuz bergan eng muhim o'zgarishlar hisoblanadi. Zero, "din va davlat", "din va jamiyat" kesimida olib qaralganda, ushbu ikki yo'nalishda sodir bo'lgan o'zgarishlar diniy asosda kechadigan boshqa barcha jarayonlarning sababi sifatida namoyon bo'ladi.

Ayni paytda, dinning davlat ishlaridan ajratilishi va vijdon erkinligi tamoyilining joriy etilishi dinning jamiyat hayotida tutgan o'rnining zaiflashuvi emas, balki takomillashuvi, insoniyat ma'naviy madaniyatining yuksalib borayotganini anglatishini ham alohida ta'kidlash joiz.

Din istiqbollariga doir qarashlari bilan tanilgan yana bir olim E. Toffler (1928 y) hisoblanadi. U o'zining 1980 yilda e'lon qilingan va katta shov-shuvlarga sabab bo'lgan "Uchinchi to'lqin" nomli kitobida tobora soni ko'payib borayotgan turli xil diniy oqim va harakatlar faoliyatining diniy hayot barqarorligiga asosiy tahdid sifatida olib qaraydi. Uning fikricha, an'anaviy diniy tizimlar sog'lom asoslarda, ilmiy tahlillar orqali chinakam diniy ta'limotlar mazmunini yanada teranroq ochib berish va ularni tizimli targ'ibot qilib borishlari zarur. Shundagina, asil maqsadlari mavhum bo'lgan turli diniy harakatlarning avj olishining oldi olinadi. Toffler shakllanib kelayotgan global diniy manzarani "spiritual tovarlar bozori" deb ataydi. Olim talqiniga ko'ra,

ushbu bozorda individual va ijtimoiy ehtiyojlarning keng spektri uchun ko'plab diniy mazmundagi aqidalari va diniy-mistik amaliyot shakllari taklif etiladi. Ayni paytda, Tofflarning bunday soxta diniy g'oyalardan buzg'unchilik maqsadlar yo'lida, masalan, terrorizm va davlat tizimini vayron qilish kabi ishlarda foydalanish xavfining ham katta ekanini ta'kidlagani e'tiborga molik.

O'tgan asrning oxirida dunyoga mashhur bo'lgan yana bir futurologik qarash amerikalik olim S.Xantingtonning "Sivilizatsiyalar to'qnashuvi" konsepsiyasidir. Umuman olganda, so'nggi yillarda, G'arbda diniy, madaniy, sivilizatsiyaviy tafovutlar xalqlar o'rtasidagi ziddiyatlarning manbai ekanini ta'kidlagan fikr-mulohazalar, qarashlar rivojlanib borganini ta'kidlash joiz. Ushbu konsepsiya ham shular jumlasidandir.

Ma'lumki, amerikalik olim insoniyat istiqbolida asosiy ziddiyat va qarama-qarshiliklar sivilizatsiyalarning kesishuv chizig'ida sodir bo'lishini bashorat qiladi va diniy, madaniy farq va xilma-xillik bunda ustuvor omil ekanini ta'kidlaydi.

Xalqlar o'rtasidagi diniy, milliy, maishiy va boshqa farqlar o'z-o'zicha qonli urush, ziddiyatlarga sabab bo'lmaydi. Balki, siyosiy kuchlar tomonidan ularning mazmunining bo'rttirilishi, bir yoqlama talqin qillinishi natijasida, soxta, ratsional asoslardan uzilgan vayronkor g'oya va mafkuralar yaratiladi va ommaga turli yo'llar bilan singdiriladi. Masalan, fashizm, rasizm, shovinizm, diniy ekstremizm kabi mafkura va amaliyot shakllarining paydo bo'lishi va rivojlanish tarixiga nazar tashlasak ham, ular siyosiy kuchlarning sub'yektiv harakatlari natijasida paydo bo'lgani ma'lum bo'ladi. Zero, u yoki bu millatning oliy irq ekanini yoki bo'lmasa, hozirgi davrda xalifalik barpo etish uchun real imkoniyatlarning mavjudligi hech bir sog'lom ilmiy-falsafiy konsepsiyada isbotlanmagan. Sirasini aytganda, diniy tafovutlar obektiv xarakterga ega, biroq, urush va ziddiyatlar zaminida sub'yektiv omillarning ta'siri hal qiluvchi ahamiyatga ega.

"Sivilizatsiyalar to'qnashuvi"ni o'ylab topilgan nazariya deyish mumkin. Chunki jahonda mavjud sivilizatsiyalar milliy, diniy va boshqa tafovutlarga qaramasdan, birgalikda tinch-totuv yashashlari ham mumkin.

Sirasini aytganda, voqelik din insonlar hayotida o'z ta'sir kuchini nafaqat saqlab kelayotgani, balki ko'p hollarda uning ahamiyatini kuchayib borayotganini ko'rsatmoqda. Ayniqsa, bu G'arb va Sharq jamiyatlariga tatbiqan olib qaralganda, yaqqol ko'zga tashlanadi. Zero, sekulyarlashuv umuminsoniy hodisa bo'lsa-da, makon nuqtai nazaridan xususiy holat kasb etishini ham

unutmaslik zarur. Zero, masalan, din Sharq jamiyatlari, xususan, xalqimiz ma'naviy hayotining ajralmas qismi sifatida doimo rivojlanib kelmoqda. Albatta, siyosiy omillar tufayli dinning ta'qib ostiga olinishi bu borada muayyan darajada depsinislarga sabab bo'ldi. Biroq, mustaqillik tufayli din ijtimoiy-tarixiy maqomi siyosiy-huquqiy asoslarda qayta tiklandi. Yurtimizda nafaqat, islom dini, balki boshqa konfessiyalar faoliyati uchun ham birdek shart-sharoitlarning yaratilgani fikrimizga dalil bo'la oladi.

Bir so'z bilan aytganda, bugungi kunga kelib, din avvallari bo'lgani kabi insoniyat hayotida muhim o'rin tutadi. Diniy hayot istiqboli bilan bog'liq masalalar bo'yicha turli-tuman yondashuvlar bo'lsa-da, bizda: ma'naviy hayot bor ekan, din uning muhim tarkibiy qismi sifatida rivojlanib boraveradi, degan xulosani bayon etish uchun yetarli asoslar mavjud.

Insoniyat bugungi kunga kelib fikrlar va qarashlar xilma-xilligi (plyuralizm), hurfikrlilik, teng huquqlilik sharoitlarida hayot kechirmoqda. Shu ma'noda, individda o'z ma'naviy hayotini tashkil etish uchun ulkan imkoniyatlar mavjud. Biroq, empirik kuzatishlar, tizimli tahlil dinning ma'naviy hayotning ajralmas qismi bo'lib qolishi haqidagi xulosa chiqarishga imkon bermoqda. Dinning istiqboli bilan bog'liq qarashlarning qanday xarakterga ega bo'lishidan qat'i nazar, masalasini teran anglab yetgan har qanday futurolog insoniyat kelajagini diniy omildan ayri holda tasavvur etmasligi aniq.

Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning xalqaro siyosiy-huquqiy asoslari. O'zbekiston davlati istiqlolning tarixan qisqa, ammo g'oyat sermazmun yillari davomida Islom Karimovning bevosita rahbarligida adolat ustivorligiga asoslangan erkim, demokratik, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati barpo etishda o'zbek modeliga asos soldi. Markaziy Osiyoda barqarorlik tayanchi bo'lgan O'zbekistonning ijtimoiy-siyosiy,iqtisodiy yuksalishiga, hafsizligi va barqarorligiga ochiqdan-ochiq tahdid solayotgan din niqobi ostidagi ekstremistik kuchlar, fundamentalistlar, separatshilar va xalqaro terrorchilar, o'ta havfli jinoyatchilar, ularning eng ashaddiyarlari qo'shni Tojikston va Afg'aniston davlatlarida uya qurib, dunyoning turli burchaklaridagi ashaddiy terrorchi hamtavoqlarining moddiy va mafkuraviy madadiga tayangan holda yurtimiz sarhadlarini buzib o'tishga urinmoqdalar.

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov 1993 yili Birlashgan Millatlar Tashkilotni bosh Assambliyasining 48 sesiyasida so'zlagan nutqida halqaro jinoyatchilik, ayniqsa uning o'ta xafli ko'rinishi hisoblangan

xalqaro terrorizm hamda narkobiznesga qarshi kurashda dunyodagi tinchliksevar davlatlar kuchlarini birlashtirish va muvafiqlashtirish tashabbusi bilan chiqqan edi. Xalqaro terrorizm va diniy ekstremizmning oxirgi yigirma yil davomida tobora xavfli tus olib, kuchayib borayotganligi jahonda jinoyatchilikning keskinlanuviga ta'sir etdi.

Hozirda terrorchilik miqyosi kengayishi xafi yanada yaqqalroq ko'zga tashlanmoqda. Ayrim ma'lumotlarga ko'ra, terrorchilar yadroviy, kimyoviy va biologik qurollardan ham jinoyat maqsadlarini amalga oshirishda foydalanish bilan tahdid qilishlari mumkin. Shuningdek, ular insonning hayoti va sog'lig'iga bevosita ta'sir etmagan holda kompyuter tarmoqlaridan ham jinoyat qilmishlari yo'lida foydalanib, harbiy harakatlarni boshlash niyatida ekanligi ma'lum.

Kompyuter tizimi yordamida terrorchilik harakati sodir etish (kiberterrorizm) hisoblash markazlari, tibbiyot sohasi va harbiy bazalarni boshqarish, bank va boshqa moliyaviy tarmoqlarni izdan chiqarishga mo'ljallangan. Davlat muassasalari va boshqalarga zarba berish, iqtisodiy zarar yetkazish, ba'zi bir katta aeroportlardagi aloqa tarmoqlarini ishdan chiqarish behisob kishilar o'limiga sabab bo'lishi mumkin. Terrorchilarning xatto kosmosdagi texnikaviy asboblarni qo'lga kiritib, ulardan ham jinoyat maqsadlarda foydalanish imkoniyatlari borligi ehtimoldan xoli emas.

Keyingi yillarda sodir qilinayotgan terrorchilik jinoyatlarining ko'pchiligi zamirida siyosiy maqsad yotishi aniqlangan.

Terrorchilikka va terrorchilik harakatlariga asoslangan jinoyat faoliyatlarning gurkirashiga narkotik moddalar bilan noqonuniy oldi-sotdi qilish, juda katta miqdorda boylikka ega bo'lish maqsadida shahslarni garov sifatida tutqinlikda saqlash, qo'poruvchilik, reket, shaxslarning sog'lig'i yoki mulkiga jiddiy zarar yetkazish kabi jinoyatlarining sodir etilayotgani ham madad bo'lmoqda.

Terrorchilik kabi jinoyatlar XX asrning mahsuli emas, bu jamiyat taraqqiyotiga yo'ldosh jinoyatlardan biridir. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, bu yuridik atama, «terrorchilik» deb yuritila boshladi. XX asrning 30 yillarida Yevropadagi qator davlatlar va sobiq Ittifoq olimlari hamkorligida terror yoki terrorchilik aktini jinoyat huquqi fanining dolzarb muammosi tariqasida o'rgana boshladilar. Shu davrdan boshlab, terrorchilik muammosi aks ettirilgan qator xalqaro hujjatlar ishlab chiqildi va qabul qilindi.

Terrorchilikka qarshi kurashda xalqaro hamkorlik zarur ekanligi haqidagi birinchi xalqaro hujjat «Terrorizm to'g'risida ogohlantirish va uning oldini olish» deb nomlangan va u 1937 yilda Davlatlar Ittifoqi tomonidan o'tkazilgan xalqaro konferensiyada muhokama qilingan. II jahon urushi arafasida o'tkazilganligi bilan tarixda o'chmas iz qoldirgan mazkur konferensiyada terrorchilikning oldini olish va bartaraf etish choralarini ko'rish masalasining muhokama qilinishiga o'sha davrda Yevropa davlatlaridagi ayrim rahbarlar va siyosiy arboblarga nisbatan terrorchilik aktlari sodir etish hollarining ko'payganligi turtki bo'lgan. Konvensiyada xalqaro terrorchilik akti tushunchasi, uning obekti, jinoyat sub'yekti masalari bayon etilgan.

Ushbu hujjatda ekstradatsiya, ya'ni bir davlat fuqarosi yoki fuqaroligi bo'lmagan jinoyatchi jismoniy shaxsning ikkinchi bir davlatga berilishi haqida ham alohida qoida mavjud.

Bu muhim hujjat 24 davlat tomonidan imzolangan bo'lsada, ratifikatsiya qilinmagan, undan amaliyotda foydalanish chorasi ko'rilmagan. Shunga qaramasdan bu konvensiya o'tgan asr davomida terrorchilik bilan bog'liq siyosiy-huquqiy muammolarni hal etishda asos bo'lgan bir qator ko'p tomonlama xalqaro hujjatlarning qabul qilinishiga turtki bo'ldi. BMT tomonidan davlatlarning terrorizmga qarshi o'zaro hamkorlikda, bahamjihat, birgalikda qat'iy kurashini tashkil etishni ko'zda tutgan qator konvensiyalar qabul qilingan.

Xulosa, O'zbekiston Respublikasining terrorchilikni bartaraf qilish bilan bog'liq faoliyati:

Birinchidan, terrorchilikning har qanday ko'rinishlarga zarba berish, shuningdek unga qarshi kurash taktikasini o'zgartirish masalasini ko'rib chiqish. Sh.Mirziyoyevning BMT 72-sessiyasidagi nutqida dunyoda terrorizm tahdidlari ayniqsa, so'nggi yillarda kuchayib borayotgani ularga qarshi asosan kuch ishlatish yo'li bilan kurashish usuli o'zini oqlamayotganiga hamjamiyat fikrini qaratib o'tdi. Bu jarayonni baholar ekan Yurboshimiz shunday deydi: "Bu borada ko'p hollarda tahdidlarni keltirib chiqarayotgan asosiy sabablar bilan emas, balki ularning oqibatlariga qarshi kurashish bilangina cheklanib qolinmoqda. Xalqaro terrorizm va ekstremizmning ildizini boshqa omillar bilan birga, jaholat va murosasizlik tashkil etadi, deb hisoblayman. Shu munosabat bilan odamlar, birinchi navbatda, yoshlarning

ongu tafakkurini ma'rifat asosida shakllantirish va tarbiyalash eng muhim vazifadir¹;

Ikkinchidan, terrorchilikni qo'llab-quvvatlayotgan davlatlarga qarshi jahon hamjamiyati bilan hamkorlikda kurashni davom ettirish;

Uchinchidan, Xalqaro terrorchilarni jazolash mexanizmidan to'liq foydalanish va terrorchilikka qarshi kurashda boshqa davlatlarga ko'maklashish kabi prinsiplar asosida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. Zero, bu borada aniq chora-tadbirlar belgilab, javobgarlikning muqarrarligi ta'minlanmasa, xalqaro terrorizmga qarshi kurashda samarali natijalarga erishib bo'lmaydi.

Tayanch so'z va iboralar

Inson ongi va qalbi uchun kurash, ISHID, Islom konferensiyasi tashkiloti, islom fundamentalizmi, islom ekstremizmi, kosmopolitizm, liberalizm, mafkuraviy immunitet, ma'naviy-mafkuraviy jarayonlarning globallasuvi, fanatizm, fundamentalizm, xalqaro valyuta fondi, hizbut- tahrir, hokimiyatning globallasuvi, ekstremizm.

Takrorlash uchun savollar

1. Dinning madaniyat fenomeni sifatida o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
2. O'zbekistonda davlat va diniy tashkilotlar o'rtasidagi munosabatning asosiy tamoyillari?
3. Globallasuv sharoitida diniy soha rivojining xususiyatlari nimada?
4. Globallasuv sharoitida dunyo diniy manzarasining o'zgarib borish xususiyatlari qanday namoyon bo'lmoqda?
5. Xalqaro vaziyatga tahdid solayotgan diniy tashkilotlar haqida nima bilasiz?
6. Sh.Mirziyoyev BMT 72-sessiyasidagi nutqida terrorga qarshi kurash borasida qanday g'oyalarni ilgari surdi?

¹ Sh.Mirziyoyevning BMT 72-sessiyasidagi nutqidan.

9-§. MIGRATSIYA JARAYONLARINING GLOBALLASHUVI

Reja:

1. O'zbekiston aholisining tabiiy va migratsion harakatlari.
2. Aholi migratsiyasi.
3. Xalqaro aholi migratsiyasi va uning sabablari.
4. Aholi migratsiyasini o'rganishga ilmiy yondashuvlar
5. Aholi migratsiyasining oqibatlari.

1. O'zbekiston aholisining tabiiy va migratsion harakatlari. Aholining turli etnik birlashmalari sifatida shakllanish jarayonida tabiiy, iqtisodiy, kundalik turmush tarzi bilan bir qatorda aholi migratsiyasi ham muhim rol o'ynaydi. Aholining yangi bir etnik birlashmalar sifatida namoyon bo'lishi uning tabiiy harakatini o'z ichiga olsa, migratsiya bu aholining hududiy harakatidir.

2018 yil yanvar holati bo'yicha O'zbekistonda doimiy o'rtacha aholi soni 32 million kishini tashkil etdi. Shundan 49 foizi qishloq joylarida yashaydi. Mustaqillik yillarida aholi soni 13 mln. kishidan ziyodga ko'payib, o'rtacha yillik mutlaq miqdori 550-600 ming kishini tashkil etadi.

Keyingi chorak asr davomida aholi ko'payishi faqat tabiiy o'sish, ya'ni tug'ilganlarning o'lganlar sonidan yuqoriligi (promil hisobida) hisobiga yuz bermoqda. Undan oldingi yillarda esa, tabiiy o'sish bilan birga migratsion o'sishning, ya'ni boshqa davlatlardan ko'chib keluvchilar hisobiga ham hissassi katta bo'lgan.

Mustaqillik yillarida respublikada tabiiy o'sish ko'rsatkichining pasayib borayotganligi kuzatiladi. Masalan, 1991 yilda aholi soni har ming kishi hisobiga 28,3 taga ortgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2006 yilda 15,6 tani tashkil etdi. Aytish mumkinki keyingi yillarda tabiiy o'sishning umumiy koeffitsenti 12,3 taga qisqardi.

Migratsiya aholi soniga, uning milliy tarkibiga va turli ijtimoiy guruhga xos aholi shakllanishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Ma'lumki, O'zbekiston qadimda Buyuk ipak yo'lida joylashganligi, Chor Rossiyasining va sho'rolar tuzumining Turkistonda olib borgan xalqlarni aralashtirib yuborishdek mustamlakachilik siyosati va qolaversa, respublikamizning boy tabiiy resurslarini o'zga xalqlar tomonidan bosib olishga urinishlar kabi tarixiy voqealar bu yerga ko'plab yevropalik (asosan rus) xalqlarning ko'chib kelishiga qulay sharoit yaratdi. Dastlab xalqlarni aralashib yashashiga, ularni

hududlar bo'yicha ko'chirishga Makedoniyalik Aleksandr urinib ko'rgan edi. Bu davr tariximizda ellinizm davri deb nom oldi va salkam uch yuz yil davom etdi. **Kushon**, Eftallar Turk hoqonligi davrida ham turli xalqlarning Markaziy Osiyoga ko'chib kelishi turlicha tarzlarda namoyon bo'ldi. Arab halifaligi davrida aholini bir hududdan ikkinchi bir hududga yoppasiga ko'chirish amalga oshirilmasada, xalqlarning halifalik bo'ylab erkin harakat qilishi ta'minlandi. Markaziy Osiyo hududiga asosan madrasada ta'lim olgan din targ'ibotchilari yuborildi. Bularning barchasi O'zbekistonda aholi soniga ta'sir etib, ular sonining miqdoriy o'zgarishi va etik tarkibi turlicha bo'lishiga sabab bo'ldi. Xususan, Rossiya Turkistonni bosib olgunga qadar aholining etnik tarkibi deyarli tub xalq vakillaridan bo'lgan. Mavjud statistik manbalarga ko'ra, 1872 yilda aholining milliy tarkibida mahalliy millatlar ulushi 99,8% ni tashkil etgan. O'z-o'zidan ko'rinib turibdiki, o'sha davrda aholining etnik tarkibi deyarli bir xil bo'lgan. Lekin Rossiya Turkistonni bosib olgandan keyin ruslarning ko'chib kelish oqimi kuchaydi. Ruslarni Markaziy Osiyoga ko'chirish tashabbuskori Turkiston general-gubernatori Konrad fon Kaufman edi. Aynan uning xatti-harakatlari bilan 1875 yilda birinchi rus qishlog'i tashkil etildi. G'arbiy va Markaziy Rossiyadan ko'chib keluvchilar turli yo'llar bilan rag'batlantirildi; ko'chish bilan bog'liq harajatlar; soliqlardan ozod qilish; tekin tomorqa yerlari berish va sh.k. Shuningdek rus qo'shinida harbiy xizmatda bo'lganlar nafaqaga chiqqach shu yerdan hovli-joy bilan ta'minlandi. Albatta bu harakatlar o'z samarasini bermasdan qoldi. Ayniqsa 1890-1893 yillardagi iqtisodiy inqiroz ko'chib keluvchilar sonini yanada oshishiga sabab bo'ldi. 1897 yilda o'tkazilgan aholi ro'yxati ma'lumotlariga ko'ra, chetdan kelganlar ulushi 8,9% ni tashkil etdi. Vaholanki, bu ko'rsatkich 1872 yilda 0,2% ga teng edi.

Tashqaridan O'zbekistonga ko'chib keluvchi migrantlarning miqdori 1917 yildan keyin yana ham ko'paydi. Ikkinchi jahon urushi yillarida harbiy harakatlar ketayotgan hududlardan ko'plab yevropaliklar evakuatsiya qilindi. Yaponiya tomonidan Koreya bosib olingach tinch koreys aholisi Sovet davlatining Uzoq Sharqiga ko'chib o'tdi. Yaponiya bilan boshlanishi mumkin bo'lgan urush havfi bu aholini chegara atrofida ko'chirishni talab etardi. Ayni damda Sovet-Turkiya chegarasida yashayotgan mexeti turklariga, shuningdek Qrim tatarlariga nisbatan ishonchsizlik siyosati yuritildi. Natijada bu halqlarga Markaziy Osiyoga ko'chirildi. Ikkinchi jahon urushi davrida O'zbekiston aholisining etnik tarkibi 21 ta ko'paydi. Bundan tashqari 1966 yilda Toshkent zilzilasi talofatlarini bartaraf etish maqsadida Rossiya, Ukraina, Belorussiya

davlatlaridan keluvchi yosh migrantlar oqimi yanada kuchaydi. Ularning bir qismi o'z yurtlariga ma'lum vaqtdan keyin qaytib ketgan bo'lsa, ma'lum qismi shu yerda qolib yashadilar. Bularning hammasi respublikada aholining etnik tarkibida keskin o'zgarish yasadi. Shu bilan birga mahalliy millatlarning turmush tarziga, ularning kiyinish va urf-odatiga, qadriyatlariga ta'sir ko'rsatdi.

Aholining bir joydan ikkinchi joyga ko'chib yurishiga avvalambor iqtisodiy-ijtimoiy omillar, jumladan ishsizlik, ya'ni ish qidirish, madaniy-maishiy sharoitdan qoniqmaslik, o'qish va boshqalar sabab bo'ladi. 1991 yilda sobiq Ittifoqning parchalanib ketishi sababli O'zbekistonda yashovchi nomahalliy millatlarning ko'pchiligi tarixiy vatanlariga qaytdilar. 1991 yildan keyingi davrda 1,5 million kishi ko'chib ketdi. Albatta, bu hol aholi soning o'sish sur'atlariga ham ta'sir ko'rsatdi. Mustaqillik yillarida jamiyat hayotining turli sohalarida boshlangan tub islohotlar tezda o'z samarasini bera boshladi. To'qsoninchi yillarning o'rtalaridan boshlab mamlakatda iqtisodiy-ijtimoiy vaziyatning barqarorlashuvi natijasida migratsiya hajmi ancha kamaydi.

Iqtisodiyotdagi islohatlarning chuqurlashuvi hamda bozor munosabatlarining shakllanishi qishloqdan shaharga bo'lgan migratsiyaning o'sishiga obektiv sharoit yaratdi. Lekin, buning uchun shahar joylar ham katta migratsion oqimini qabul qilishga «tayyor» bo'lishlari talab etiladi. Hozirgi kunda qishloqlardan asosan hech qanday malakaga ega bo'lmagan ishchilar kelmoqda. Shahardagi mavjud ish o'rinlari esa kasbiy tayyorgarlikka ega bo'lgan kadrlarni talab etadi.

Hozirgi kunda eng dolzarb muammolardan biri qishloq joylarida ortiqcha ishchi kuchining to'planib qolishidir. O'zbekiston iqtisodiyotining hozirgi taraqqiyotida ishlab chiqaruvchi kuchlardan oqilona foydalanishning zarurligi, kichik va o'rta shaharlarni har tomonlama rivojlantirishni taqozo etadi. Kichik va o'rta shaharlarda mahalliy hom-ashyo hisobiga yangi sanoat tarmoqlarini tashkil etish yoki xalq hunarmandchiligining umuman xalq iste'moli buyumlari ishlab chiqarishning xilma-xil tarmoqlarini rivojlantirish asosida yangi ish joylarini tashkil qilib, ortiqcha mehnat yoshidagi aholini ish bilan ta'minlash muammolsini ma'lum darajada hal qilish mumkin. Kichik va o'rta shaharlarda ishlab chiqarishni rivojlantirish hisobiga u yerga qishloq joylaridagi ortiqcha ishchi kuchlari jalb qilish maqsadga muvofiq bo'lur edi.

Aholini ish o'rinlari bilan ta'minlashni yaxshilashda, ularni nafaqat ish joyi ko'p bo'lgan xududlarga ko'chirib o'tishga yordamlashish, balki ishlab chiqarishni, jumladan sanoat tarmog'ining mehnatni ko'p talab qilib, hom-

ashyo, suv va elektr energiyasini kam iste'mol etuvchi mahsulotlar ishlab chiqaruvchi korxonalarni, maishiy xizmat ko'rsatish sohasini aholi zich joylashgan xududlarda keng ko'lamda rivojlantirishni amalga oshirish lozim.

2. Aholi migratsiyasi. Bugungi kunda har bir mamlakat uchun eng murakkab, dolzarb, qarama-qarshiliklarga boy muammolardan biri migratsion siyosat muammosi hisoblanadi. Sanoati rivojlangan mamlakatlarning, rivojlanish yo'liga o'tgan mamlakatlarning taraqqiyotida mehnat resurslari, tabiiy shart-sharoit, tabiiy zahiralari, yangi texnologiyalar bir qatorda ishchi kuchi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda ishchi migrantlarning faqatgina son jihatidan emas sifat jihatidan tez sur'atlar bilan yuksalib bormoqda. Ular orasida yuksak aqliy mehnat sohiblari, muhandislar, dasturchilar, shifokorlar, yuristlar bo'lib, jamiyat hayotining turli sohalarida mehnat qilishmoqda. Migrantlarni ko'plab miqdorda qabul qilgan mamlakatlar bu imkoniyatdan o'z milliy manfaatlarini himoya qilishda, o'z milliy havfsizligini ta'minlashda, o'z milliy taraqqiyotini ta'minlashda, iqtisodiyotini yuksaltirishda, ishchi kuchiga bo'lgan ehtiyojini qondirishda, mamlakatdagi demografik vaziyatni barqaror ushlab turishda birdek foydalanishmoqda.

Migratsiya jamiyatning ijtimoiy hayotidagi o'ziga xos muhim voqelik bo'lib, ko'plab ijtimoiy fanlarning muhim tadqiqot obekti hisoblanadi. Afsuski, migratsion voqelik bugungi kunda jahon hamjamiyatida qanchalik muhim, dolzarb ahamiyat kasb etmasin uni alohida o'rganadigan mustaqil fan sohasi mavjud emas. Muammoga yagona yondashuv uslubining yo'qligi migratsiya jarayoning asosiy tushunchalari, bu jarayonning ishtirokchilari, migratsion xatti-harakatning yo'nalishlari, maqsadi, uning mohiyati va ahamiyati bilan bog'liq masalalarga kompleks yondashuvni taqozo etadi. To'g'ri 1989 yilda M.B.Denisenko o'z tadqiqotida migratsion jarayonlar bilan bog'liq voqelikni ifoda etish uchun alohida fan sohasi – "Migratsiologiya"ni taklif etadi. Afsuski mualliflarning o'zlari migratsiologiyani deografik fanlarning asosiy yo'nalishi sifatida ilgari surishadi. Darhaqiqat, aholi migratsiyasi bilan bog'liq hodisalarni, ularning mazmun-mohiyatini, sabab va oqibatlarini bilan bog'liq ma'lumotlarni demografiyaga doir qo'llanmalardan olish mumkin. Bu qo'llanmalarda bu mavzuga bag'ishlangan alohida bo'limlar, boblar mavjud. Ikkinchi tomondan esa migratsiologiyani demografik fanlarning tarkibiy qismi deyim qiyin, qaysiki ma'noda migratsion jarayonlar aholining ko'payishi, kamayishi bilan bog'liq jarayonga umummasshtabda qaraganda ta'sir etmaydi. Shunday bu masala hozirgacha ochiq qolmoqda.

Migratsiya (lot-migratio-ko'chish) aholining ichki, tashqi sabablarga ko'ra bir mintaqadan, tumandan, viloyatdan, davlatdan ikkinchi bir hududga ishlash, yashash, o'qish maqsadida ko'chishini anglatadi. Migratsiyani amalga oshirilgan aholi toifasiga nisbatan migrantlar atamasi ishlatiladi. Odatda migratsiya tashqi- bir davlatdan, ikkinchi davlatga, qit'aga (emigrantlar) va ichki - tumanlar, shaharlar, viloyatlar o'rtasidagi migratsiyaga (immigrantlar) bo'linadi. Buyuk Britaniya va Shimoliy Amerikadagi migratsiya jarayonlari masalasi bilan keng, har tomonlama chuqur shug'ullangan ingliz olimi Ye.Ravenshteyn migratsiya bilan bog'liq bir qator xususiyatlarni keltiradi: migratsiya odatda qisqa, yaqin masofalarga ko'proq amalga oshiriladi; markaz qanchalik yirik va yuksak rivojlangan bo'lsa u shu darajada migrantlar e'tiborini o'ziga jalb etadi; yirik sanoat markazlarining tashkil etilishi migratsion jarayonlarga turtki beradi; yirik savdo markazlari, transport kommunikatsiyalar rivojining migratsiyaga ta'siri; migratsiya asosiy sababi bo'lib iqtisodiy omillar hisoblanadi.

3. Xalqaro aholi migratsiyasi va uning sabablari. Xalqaro migratsiyada odatda tashqi ya'ni aholining u davlatdan bu davlatga davlat chegarasini kesib o'tib amalga oshiradigan ko'chishi nazarda tutiladi. Aholining muayyan hududda, bir davlat ichidagi ko'chishiga nisbatan migrantlar atamasi ishlatilsa, tashqi davlatlarga ko'chishiga nisbatan emigrantlar atamasi ishlatiladi. Aholining xalqaro migratsiyasi tahlil etilganida uning quyidagi turlari alohida tahlil etiladi:

Birinchidan, doimiy migratsiY. Migratsiyaning bu turidan maqsad migrantlar ularni qabul qiluvchi davlatga doimiy yashash maqsadida, ortga qaytmaslik sharti bilan amalga oshiriladi.

Ikkinchidan, muvaqqat-doimiy migratsiY. Xalqaro kelishuvlarga asosan migrantning kasbi, yoshi, jinsi va qaysi mamlakatdan kelganiga qarab unga va mamlakatda 1 yildan - 6 yilgacha qolib yashashga ruhsat etiladi. Xalqaro statistik ma'lumotlarda bunday migrantlarga nisbatan "uzoq muddatlik emigrantlar va immigrantlar", "shartnoma asosidagi muddatli ishchilar", "doimiy mehnat - migrantlari" atamaları ishlatiladi.

Uchinchidan, mavsumiy migratsiY. Qisqa muddatli xarakterda bo'lib, yilning muayyan vaqtlarida qishloq ho'jaligidagi, xizmat ko'rsatish mavsumiy ishlarni amalga oshirish maqsadida amalga oshiriladi. Mavsumiy ishlarning keng tarqalgan turilaridan biri ko'chmanchi chorvachilik bo'lib G'arbiy

Afrikada, Yaqin Sharqda ko'p uchraydi. Shuningdek mavsumiy migratsiyaning bu turiga muqaddas joylarga ziyoratlar ham kiradi.

To'rtinchidan. mayatnikli (borish-kelish) migarsiya. Qisqa muddatli ishlarni amalga oshirish maqsadida chegara hududlarda bir davlatdan ikkinchi bir davlatga kun davomida, kamdan-kam holatlarda hafta davomida bo'lib qaytish nazarda tutiladi. Migratsiyaning bu turi transport kommunikatsiyasining imkoniyatlari bilan G'arbiy Yevropa va Shimoliy Amerikada (AQSH-Kanada) keng tarqalgan.

Beshinchidan. noqonuniy migratsiya. Xalqaro qonuniy normalarga amal qilmagan holda, noqonuniy tarzda ikkinchi bir davlatga borib ish izlash nazarda tutiladi. Mehnat muhojirlarini odatda bunday yo'l tutishlariga qonuniy migrant maqomini olish borasidagi xatti-harakatlar bilan bog'liq moliyaviy harajatlar va vaqt muammosi majbur qiladi. Meksikadan AQSH ga yiliga chegarani noqonunuy tarzda bir milliondan ortiq odam kesib o'tadi. Shuningdek davlat chegarasini qonuniy tarzda kesib o'sada (turist, xususiy taklif bilan), keyinchalik ular nolegal mehnat migrantlari bo'lib qolishmoqda. Bu jarayon 1970 yillardan boshlab tez yuksalib bordi. Albatta, bunday migrantlar sonini aniqlash mushkul. Negaki, maxsus xizmat organlari odatda o'z hisobotlarida qo'lga tushgan nolegal mehnat migrantlari sonini keltiradi. AQSH da yashirin mehnat migrantlari 2 milliondan 15 milliongacha, Yevropada (Rossiya bilan birgalikda) bir milliondan besh milliongacha, Yaponiyada uch yuz mingdan bir milliongacha nolegal migrantlar mavjudligi taxmin etiladi. Bu jarayonning o'sib borish sabablari ko'p. Ulardan biri nolegal mehnat migrant tadbirkorlar uchun haq-huquqsiz, eng arzon ishchi kuchi ekanligi bilan baholanadi.

Qayd etib o'tilgan xalqaro aholi migratsiyasi turlari shartli, nisbiy xarakterda bo'lib ular bir-biri bilan uzviy bog'likda. Xalqaro aholi migratsiyasining eng katta qismi mehnat migratsiyasiga to'g'ri keladi. Zamonaviy xalqaro aholi migratsiyasining xarakterli qonunuyati uning masshtablarining doimiy ravishda o'sib borishi bilan belgilanadi.

XIX asrda xalqaro migrantlari soni 28 millionni tashkil etib, ularni asosan Yevropadan Amerikaga borganlar tashkil etgan. 1815 -1990 yillar mobaynida faqatgina Buyuk Britaniyadan Amerika 13 million kishi emigratsiya ketgan bo'lsa, ularning 65 % i AQSH ga, 15 % i Kanadaga, 11 % i Avstraliyaga, 5 % i Janubiy Amerika davlailariga joylashgan. 1841-1900 yillarda Germaniyani 4.9 million kishi tark etgan. Ularning Asosiy qismi AQSH ga joylashgan. 1876-1900 yillarda Italiyani tark etgan 3.9 million migrantning asosiy qismi

Argentina, Braziliya va AQSH ga borib joylashadi. Aholining tashqi migratsiyasi XX asrning birinchi yarmida ham davom etdi. XIX asrdagi aholi migratsiyasidan o'zining yo'nalishlari, masshtabi bilan farq qildi. 1900-1930 yillarda Yevopani 28.6 million kishi tark etdi. Ularning aksariyati ingliz mustamlakalariga joylashdi. Ayni dam reyemigratsiya (yemigrantlarning o'z xohishlari bilan fuqarolikni tiklagan holda o'z vatanlariga qaytishi) darajasi oshib bordi. Mahalliy xalq vakillarining yevropaliklarga dushmanona munosabatda bo'lishi, ishonchsizlik bilan qarashi, milliy ozodlik harakatlarining kuchayib borishi, mustamlakachilik tizimining yemirila borishi bunga sabab bo'lib xizmat qildi.

1940 yillardagi aholi migratsiyasi harbiy harakatlar ya'ni ikkinchi jahon urushi bilan bog'liq bo'ldi. Yevropada natsizmning, fashizmning kuchayib borishi tinch aholining o'z yashash joylarini tashlab chiqishga majbur qildi. Tinch aholi birinchi galda ayollar, bolalar tinch joy izlab ketishga majbur etildi. Ularning bir qismi O'zbekistonda panoh topdi. Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda G'arbiy Yevropa, AQSH, Kanada, Avstraliya migrantlar e'tiborini o'ziga tortadigan makonga aylandi. Ilk bor Yevropa turli mamlakatlarni migrantlar bilan ta'minlaydigan hududdan, migrantlarni qabul qiladigan hududga, iste'molchiga aylandi. Bu asosan iqtisodiy omillar bilan bog'liq edi. Ma'lumki, jahon urushi asosiy o'choqlari Yevropada joylashgan edi. Asosiy yirik shaharlar, sanoat markazlari kultepla aylandi. Aholining katta qismi asosan o'rta yoshdagi erkaklar qirilib ketdi, nogironga aylandi. Yevropa iqtisodiyotini tiklash uchun katta miqdorda moliya, texnika, mashinalar, texnologiyalar bilan bir qatorda katta miqdordagi ishchi kuchi ham havodek zarur edi. Birinchi galda Fransiya o'z mustamlakalarida aholining ko'chib kelishiga imkon yaratuvchi qarorlar qabul qildi. 1950-1970 yillarda migrantlarning eng katta qismini YEIH mamlakatlari qabul qildi. 15 milliondan ortiq migrant-frontalerlari o'z oilasi bilan YEIH kiruvchi mamlakatlarga joylashdi. 1970 yillardan boshlab Fors qo'ltig'ida joylashgan Saudiya Arabistoni, Birlashgan Arab amirliklari, Quveyt navbatdagi yirik migrantlar iste'molchisiga aylandi. Bu regionda o'ziga xos demografik, iqtisodiy vaziyat yuzaga keldi. Mintaqa jahonning yirik neft-gazni qayta ishlovchi, eksport qiluvchi markaziga aylandi. Bugungi kunda bu sohada mehnat qilayotgan mutaxassislarning 70 % ini chet ellik kadrlar tashkil etadi.

Mehnat migrantlarini yetkazib beruvchi mamlakatlar:

Osiyoda – Hindiston, Xitoy, Pokiston, Filippin, Malayziya, Vetnam, Markaziy Osiyo;

Yaqin Sharqda – Misr, Livan, Iordaniya;

Afrikada – Marokash, Jazoir, Tunis, Gana, Mali, Chad, Gviniya, Mozambik, Botsvana;

Janubiy Amerika – Paragvay, Boliviya, Kolumbiya;

Shimoliy Amerikada – Meksika;

Evropada – Polsha, Portugaliya, Italiya, Irlandiya, Tursiya, Ukraina.

O'ziga eng ko'p migrantlar qabul qilgan mamlakatlar (2013)

№	Davlat	Migrantlar miqdori (million kishi hisobida)
1.	AQSH	45.8
2.	Rossiya	11.2
3.	Germaniya	9.8
4.	Saudiya Arabistoni	9.1
5.	BAA	7.8
6.	Buyuk Britaniya	7.8
7.	Fransiya	7.4
8.	Kanada	7.3
9.	Avstraliya	6.5
10.	Ispaniya	6.5

Xalqaro migratsiya tashkilotining ma'lumotlariga qaraganda 2010 yilga kelib jahonda 214 million kishi migratsiyada bo'lgan. Boshqacha aytganda jahon aholisining 3.1% ini migrantlar tashkil etadi. Agar migrantlar soni shu ko'rsatkichlarda o'sishda davom etsa 2050 yilga borib migrantlar 405 million kishini tashkil etadi. BMT ning iqtisodiy va ijtimoiy masalalar bo'yicha departamentining 2013 yil 11 sentabrdagi hisobotida keltirilibbicha migrantlar 232 million kishiga yetgan (jahon ahallsining 3.2% iga teng). Meksika – AQSH hududi eng katta migratsion yo'lak bo'lib xizmat qilgan.

Ko'pgina manbalarda migratsion harakat quyidagicha klassifikatsiya qilinadi:

- Sayyohlarning mavsumiy harakati;
- Qishloq ho'jaligi ishchilarining mavsumiy harakati;

- Rivojlanayotgan mamlakatlarda qishloq aholisining sanoatlashgan shaharlarga ko'chishi (urbanizatsiya);
- Rivojlangan mamlakatlarda shahar aholisining qishloqlarga qaytishi (ruralizatsiya);
- Muqaddas joylarga ziyorat, haj safari;
- Chorvadorlar.

Albatta, bunday migratsion harakatlar uyushgan va uyushmagan tartibda amalga oshiriladi. Ko'pgina manbalarda migratsion harakat sabablari quyidagicha klassifikatsiya qilinadi:

- Iqtisodiy;
- Ijtimoiy;
- Madaniy;
- Siyosiy;
- Harbiy;

Emigrantlar soni bo'yicha dunyoning yetakchi mamlakatlari

No	Davlat	emigrantlar miqdori (million kishi hisobida)
1.	Rossiya	12.1
2.	Meksika	10.1
3.	Hindiston	9.1
4.	Bangladesh	6.8
5.	Ukraina	5.9
6.	Xitoy	5.8
7.	Buyuk Britaniya	4.2
8.	Qozog'iston	3.6
9.	Pokiston	3.4
10.	Filippin	3.4

Xalqaro aholi migratsiyasi sabablari. Aholi ichki migratsiyasining sabablari ish izlash, yashash sharoitlarini yaxshilash, turmush tarzini o'zgartirish va yanada yuksaltirish va shu kabilar tashkil etadi. Ichki migratsiya tabiiy-iqlimi, iqtisodiy rivoji mintaqalar bo'yicha turlicha bo'lgan maydoni

katta davlatlarda keng tarqalgan. Hududi bepoyon mamlakatlarda mavsumiy ishlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Aholi tashqi migratsiyasining asosiy sabablari quyidagilardan iborat: a) Mehnatga to'lanadigan ish haqining turlicha bo'lishi. Ayanan bajarilgan bir ish uchun turli davlatlarda turlicha maosh berilishi bunga sabab bo'lishi mumkin. Jamiyat hayotining ayrim sohalarida qaysidir soha mutaxassislarining yetishmasligi ham migratsiyaga sabab bo'ladi; b) migratsiyaning keng tarqalgan sabablaridan yana biri harbiy harakatlar hisoblanadi. Sovet qo'shinlari qo'shni Afg'onistonga bostirib kirgan paytda to'rt milliondan ortiq aholi o'z yashash joyini tashlab ketgan. Keyingi paytlarda Iroq, Suriya, Liviya'dagi harbiy harakatlar aholining tinch joy izlab ketishga majbur qildi. Suriyadan Turkiyaga o'tgan qochoqlar soni 1.5 million kishidan ortdi. Ukrainaning janubiy-sharqidagi harbiy harakatlar sabab ikki million yaqin tinch aholi Ukrainaning boshqa viloyatlariga, Rossiyaga ko'chib o'tgan; s) tabiiy ofatlar sababli ro'y beradigan aholi migratsiyasi. O'zbekiston tarixiga nazar soladigan bo'lsak 1573 yildan Amudaryoning bir o'zani Kaspiy tomon oqmay qo'ydi. Bu o'zan atrofida yashaydigan o'nlagan aholi punktlari o'z yashash joylarini tashlab ko'chib ketishdi. Xiva xonligi poytaxti Urganch (Ko'hna Urganch) tashlandiq joyga aylana boshiadi. Poytaxt Xivaga ko'chiriladi. Suv toshqinlari, vulqonlar vaqti-vaqti bilan aholining ko'chishlariga sabab bo'lib turgan.

4. Aholi migratsiyasini o'rganishga ilmiy yondashuvlar. Yuqorida qayd etib o'tilganidek aholi migratsiya turlicha aspektlardan turib o'rganiladi. Muammoga ilmiy yondashuv haqida gap ketganida uning quyidagi jihatlarini alohida ta'kidlab o'tish zarur:

Demografik yondashuv. Yondashuv bu usulida tadqiqotchilar aholi etnik guruhlarining sofligi, o'z-o'zini qayta ishlab chiqarishi, uning mavjudligini omillarini tahlil etishadi. Bu jarayondagi tadqiqotlar mamlakat demografik havfsizligi masalalarini o'ziga oladi.

Iqtisodiy yondashuv. Bu eng universal yondashuv shakli hisoblanadi. Bu tahlillarda migratsiya mamlakatda mehnatga layoqatli aholini, ishchi kuchiga bo'lgan ehtiyojni qondiradi, tartibga soladi.

Yuridik yondashuv. Turli kategoriyadagi emigrantlarning huquqiy maqomini belgilashga qaratilgan. Bu tahlillardan ko'zlangan maqsad migrantlarning asosiy haq-huquqlarini tartibga solish, ularga doir qonuniy-huquqiy normalar tizimini ishlab chiqish, va amaliyotga joriy etish hisoblanadi.

Sotsiologik yondashuv. Tadqiqotning bu turida emigrantlarning yangi joyga ko'chib kelishi, ko'chib kelgan joylariga adaptatsiyasi, yangicha turmush tarzida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolar bilan bog'liq masalalar tahlil ostiga olinadi.

5. Aholi migratsiyasining oqibatlari. Aholi migratsiyasi jarayonlari, u keltirib chiqaradigan natijalar juda murakkab va qarama-qarshi xarakterga ega. Aholining katta miqdordagi migratsiyasi ular borgan mamlakat uchun ham, ular kelgan mamlakat uchun ijobiy natijalar bergani holda ba'zan negativ oqibatlar ham keltirib chiqarishi mumkin. Istalgan mamlakatdan aholining katta qismi migratsiyaga ketar ekan, u mamlakatda o'z navbatida uning teskari aksi ham yuz beradi. To'g'ri ba'zi oilalarda migratsiya sabab kelayotgan daromaddan o'zining iqtisodiy muamolarini hal qiladi, moddiy ahvolini ancha o'nglab oladi. O'z navbatida oilada farzandlar tarbiyasi bilan bog'liq muammolar kelib chiqishi tabiiy holat hisoblanadi. "Jahon iqtisodiyotining globallashuvi va ba'zi mintaqalarda yuzaga kelgan notinch vaziyat aholi migratsiyasi kuchayishiga sabab bo'lmoqda. Bu esa jinoyatchilik, odam savdosi, terrorchilik, ekstremizm, narkotik kabi illatlarning hamda o'ta xavfli yuqumli kasalliklarning ko'payishiga olib kelmoqda"¹.

Xalqaro migratsiyaning zamonaviy rivojlanish tendensiyalari quyidagicha kechmoqda:

Birinchidan, nolegal migratsiyaning keskin kuchayishi yuzbermoqda. U ko'proq mehnat, ishchi kuchi migratsiyasi sifatida amalga oshmoqda.

Ikkinchidan, aholining majburiy migratsiyasi. Afrikadagi qurolli nizolar tufayli, milliy ruhdagi nizolar tufayli aholi o'z yashash joylarini tashlab ketmoqda. Ularning 80 % i ayollar va bolalar tashkil etib, ular asosan rivojlangan mamlakatlarga yo'l olishmoqda. Bularni qabul qilib olgan davlatlar katta miqdorda moliyaviy harajatlarni sarflashga majbur bo'lmoqda.

Uchinchidan, aholi migratsiyasi oqimining sifat tomonidan o'zgarishi. Aholi migratsiyasi oqimining yangi bosqichida ishchi kuchi sifatida ko'chayotgan aholining katta qismini yuqori malakali kadrlar tashkil etmoqda. Migratsiya chiqayotgan aholining ko'pchiligi maxsus tayyorgarlikdan o'tmoqda. Ular borgan joylarida imkon qadar uzoqroq qolishga intilishmoqda.

Rivojlangan mamlakatlarning migratsion siyosatining ikki yoqlama xarakterda ekanligi. Aholi migratsiyasini rag'batlantiruvchi, ba'zan uni tartibga

¹ Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. -Toshkent: "O'zbekiston" NMIU.2017 -46- b.

solishga intilishlar, baʼzan uni taqiqlashga qaratilgan siyosatning yuritilishini bunga misol qilib aytish mumkin. Neftni eksport qiluvchi mamlakatlarda neft-gazni qayta ishlovchi korxonalarda 70 % mutaxassislar yollanma kadrlar hisoblanadi.

Oʻzbekistonni rivojlantirishning Harakatlar strategiyasida ijtimoiy sohani rivojlantirishga yoʻnaltirilgan aholi bandligi, ularni joylarda ish bilan taʼminlash, real daromadlarini izchil oshirib borish, ijtimoiy himoya va sogʻligʻini saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, arzon uy-joylar barpo etish, yoʻl-transport, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmalarni rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish boʻyicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish, taʼlim, madaniyat, ilm-fan, adabiyot, sanʼat va sport sohalarini rivojlantirish, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish masalalariga katta eʼtibor qaratilgan. Bu esa oʻz navbatida aholi koʻchishi bilan bogʻliq muammolarning yechimida oʻziga ahamiyat kasb etadi.

Tayanch soʻz va iboralar

Migratsiya, emigratsiya, migratsion xizmat, migratsion globallashuv, inson ongi va qalbi uchun kurash, madaniy globallashuv, mafkuraviy immunitet, maʼnaviy-mafkuraviy jarayonlarning globallashuvi, YUNESKO, “Ommaviy madaniyat”.

Takrorlash uchun savollar

1. Migratsiya va emigratsiya atamalarining mohiyati nimada?
2. Aholi migratsiyasining obektiv omillari nimada?
3. Aholi migratsiyasining subʼyektiv omillari nimada?
4. Xalqaro aholi migratsiyasi va uning sabablari?
5. Aholi migratsiyasini oʻrganishga ilmiy yondashuvlar?
6. Aholi migratsiyasining oqibatlari?

10-§. JINOYATNING GLOBALLASHUVI VA UNGA QARSHI KURASH BORASIDAGI VAZIFALAR.

Reja:

1. Mustaqillik sharoitida O'zbekistonda sud-huquq sohasidagi islohatlar.
2. Jinoyat globallashuvining ta'min etuvchi omillar.
3. Jinoyat globallashuvning namoyon bo'lish xususiyatlari.
4. Jinoyatning globallashuvi sharoitida xalqaro havfsizlikni ta'minlash masalalari.
5. Jinoyatning globallashuviga qarshi kurash vositalari va usullari.
6. Jinoyat globallashuviga qarshi kurash va uni oldini olish borasidagi vazifalar.

1. Mustaqillik sharoitida O'zbekistonda sud-huquq sohasidagi islohatlar. Mamlakatimiz o'z mustaqilligiga erishgach, demokratik huquqiy davlat barpo etish yo'lida barcha sohalarda keng qamrovli islohatlar amalga oshirishga jadal kirishildi. Binobarin, inson, uning huquq va manfaatlarini ta'minlash masalasida xalqaro hamjamiyat tomonidan e'tirof e'tilgan qoida va meyorlarni tan olish, ularni milliy qonunchilikda joriy qilish borasida ulkan ishlar amalga oshirilib, buning natijasida hozirgi kunga qadar 60 dan ziyod xalqaro hujjatlarning ratifikatsiya qilinganligi bu sohada olib borilayotgan islohatlarning ko'lamini yaqqol namoyon etadi. Albatta, bu bejiz emas.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng huquq ijodkorligi faoliyati jadallik bilan rivojlana boshlandi. Qonun chiqaruvchi organ o'zbek xalqining tarixiy rivojlanish xususiyati va mahalliy huquqiy an'analaridan kelib chiqib, mamlakatning yangi huquqiy institutlar tizimini va normativ negizini takomillashtirishga kirishdi. Bu borada qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat qonuni shular jumlasidandir.

Jinoyat qonuni O'zbekiston Respublikasi Oliy davlat hokimiyati organi – Oliy majlisning normativ (meyoriy) hujjati bo'lib, u jinoyat huquqining umumiy prinsiplari va vazifalari, ayrim jinoiy qilmishlarning belgilari, ularni sodir etganlik uchun jazo choralarini belgilaydi. O'zbekiston Respublikasining amaldagi jinoyat qonuni 1994 yil 22 sentabrda qabul qilingan bo'lib, 1995 yil 1 apreldan kuch kirgan.

Jinoyat qonuni – tarixiy o'zgaruvchan kategoriya, chunki ijtimoiy ishlab chiqarishning uzluksiz ravishda rivojlanishi, ishlab chiqarish va boshqa ijtimoiy

munosabatlarning doimiy ravishda mukammalashib, rivojlanib borishi, jamiyat hayotining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va g'oyaviy jihatdan o'zgarib borishi, o'z navbatida, jinoyat qonunchiligida o'zgarishlar yuz berishiga olib keladi.¹

Darhaqiqat, O'zbekiston Respublikasining amaldagi Jinoyat kodeksi Respublika mustaqillikka erishgandan keyin qabul qilingan dastlabki Jinoyat kodeksi bo'lib, u oldingi qonunlardan tub farq qiladi. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasining amaldagi Jinoyat qonuni:

- qonun chiqaruvchi Oliy davlat hokimiyati organi Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilinib, umum e'tirof etilgan xalqaro huquqiy normalar asosida qabul qilingan huquqiy akt hisoblanadi;

- u o'zining vazifalari, prinsiplari, maqsadi bilan oldingi qonunlardan tubdan farq qiladi;

- amaldagi Jinoyat qonuni, eng avvalo, inson huquqlari eng oliy qadriyat ekanligini tan olib, ularni kafolatlashni nazarda tutadi;

- huquqiy-demokratik davlatda jinoyat qonuni davlatning jamiyatni sog'lomlashtirish, xalqning o'zi tomonidan amalga oshiriladigan haqiqiy xalq hokimiyatini shakllantirishga qaratilgan jinoyatga oid siyosatning quroli bo'lib xizmat qiladi;

- umumiy huquq tizimida jinoyat qonuni alohida o'rin egallab, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solibgina qolmasdan, balki ularni huquqqa xilof tajovuzlardan ham himoya qiladi;

- jinoiy javobgarlikning asoslari va prinsiplarini mustahkamlab, jinoyat huquqining umum qoidalarini ishlab chiqadi;

- qanday ijtimoiy xavfli qilmishlar(harakat yoki harakatsizlik) jinoyat ekanligini va jinoyat sodir qilgan shaxslarga nisbatan qanday jinoiy jazolar tayinlanishi mumkinligini belgilab, muayyan huquqiy shartlar mavjud bo'lgan insonparvarlik, odillik prinsiplaridan kelib chiqqan holda, jinoiy javobgarlik va jazodan ozod qilishni nazarda tutadi;

- fuqarolarni O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi va boshqa qonun talablariga rioya qilish ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Yuqoridagilar bilan birga, O'zbekiston Respublikasining amaldagi jinoyat qonuni jinoyat huquqining yagona manbai hisoblanadi. Zero, jinoyat huquqining normalari faqat Jinoyat qonunida mujassamlashgan bo'lib, qilmishning jinoiyliigi va jazoga sazovorligi faqat ushbu qonun bilan belgilanadi.

¹ Usmonaliev M. Jinoyat huquqi. Umumiy qism. Darslik. -T.: Yangi asr avlodi, 2005. 37-bet.

Globallashuv sharoitida O'zbekiston Respublikasida jinoyat qonunini takomillashtirishga qaratilgan islohatlar bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan bo'lib, u o'ziga xos tarixga ega.

Uyushgan jinoyatchilik tarixiga nazar soladigan bo'lsak hukumatlar uchun doimo muammo bo'lib kelgan jinoyatning bir qator turlari mavjudki ular bir necha yuz yillik, ming yillik tarixga ega. "Xalqaro ushgan jinoyatchilik ensiklopediyasi" (The Encyclopedia Of International Organized Crime) keltirilgan ma'lumotlarga qaraganda uyushgan jinoyatchilik qadimgi Rim imperiyasi uchun ham katta muammolar hosil qilgan: iqtisodiyotning turli sohalarini o'z qo'lida ushlagan; ayrim provinsiyalarda separatistik harakatlarni amalga oshirgan. "Organized Crime and American Power" asarining muallifi Maykl Vudivisning yozishicha uyushgan jinoyatchi to'da XX asrning 30-yillaridayoq muayyan davlat chegarasidan tashqariga chiqa boshlashgan: Italiya mafiyasi Yaponiya va Xitoydagi narkotiklar bozorini nazorat qilgan, yapon "Yakudza" lari AQSH bozorlarini o'z qo'lga olgan, AQSH ning turli jinoyatchi to'dalari jazodan qochib dunyoning turli davlatlarida yashrinib yurishgan. Globallashuvning jadal sur'atlar bilan ro'y berishi bois ko'pgina ekspertlarning fikricha bu "bekinmashoq" o'yinda jinoyatchi guruhlar uchun ajoyib imkoniyatlar yaratildi. Bu imkoniyatlar nimalardan iborat: chegaralarning ochiqligi; fuqarolarning dunyo bo'ylab erkin harakati; axborot olish va yetkazishning keng imkoniyatlari; investitsiyalar va xalqaro savdoning keskin o'sishi va sh.k.

2. Jinoyat globallashuvining ta'min etuvchi omillar. Jamiyat hayotining turli sohalarining keskin globallashuvi transmilliy jinoyatchilikka, xalqaro terroristlarga o'z xatti-harakatlarini erkin-emin amalga oshirishga bir muncha imkoniyatlar ham yaratib bermoqda. Jahonda xalqaro maydonda iqtisodiy sohadagi amalga oshirilgan bir qator ijobiy o'zgarishlar borki ular o'z navbatida transmilliy jinoyatchilikning tarqalishiga ham yo'l ochib berdi. Bu imkoniyatlar nimalardan iborat:

Birinchiidan, davlatlar o'rtasida, xalqaro maydonda iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlarning, aloqalarning yuksalishi bilan bog'liq. Chegaralarning ochib berilishi (Shengen hududi, YEI, vizasiz harakat qilish zonalarini tashkil etilishi), chet mamlakatlarga chiqish tartibining yengillashtirilishi, xalqaro savdoning kengayishi, yangi-yangi bozorlarning paydo bo'lishi, xalqaro yuk tashish hajmining oshishi xalqaro hamjamiyatning, insoniyatning og'irini

yengillashtirib qolmasdan transmilliy jinoyatchi guruhlar faoliyatining faollashuviga ham olib kelmoqda.

Ikkinchidan, keyingi yillarda xalqaro moliyaviy o'tkazmalarni aql bovar qilib bo'lmaydigan darajada tezlashtiruvchi kanallar tizimi tashkil etilmoqda. Bu tizim kerakli miqdordagi pulni zarur joyga, kerakli insonga, tashkilotga yetkazib bermoqda. Bu bir tomondan muayyan davlatga undagi moliyaviy oqim harakatini nazorat etish bilan bog'liq muamolar kelib chiqsa, ikkinchi tomondan shuni unutmash kerakki bunday imkoniyatdan jinoyatchi guruhlar ham birdek foydalanadi.

Uchinchidan, jinoyatning globallashuvi aholi migratsiyasi va chet elda ta'lim olish bilan ham bog'liq kechmoqda. Katta miqdordagi aholi migratsiyasi natijasida ayrim davlatlarda o'ziga xos etnik diasporalar shakllanmoqda. Jinoyatchi guruhlar esa o'ziga tegishli diaspora vakillaridan o'z jinoiy qilmishlarini amalga oshirishda foydalanishmoqda. Bu jinoiy guruhlariga xos bo'lgan milliy birlik, til, qadriyatlar birligi, yaqin qarindoshlik aloqalari jinoiy guruh tarkibiga begona kishilarni, maxsus xizmat vakillarining kirib olishiga imkon bermaydi.

To'rtinchidan, jinoyatning globallashuviga jahon mamlakatlari qonunchilik, sud-tartibot tizimidagi rang-baranglik, jiddiy tavofutlar ham yaqindan xizmat qilmoqda. Yaqin-yaqingacha terroristik harakat ishtirokchilari bir-biri bilan diplomatik munosabatlar o'rnatmagan davlatlardan panohtopishgan, yashirinishgan. Bunga misol qilib SSSR-Isroil, SSSR-Pokiston, GDR-GFR va boshqa davlatlar o'rtasidagi munosabatlarni keltirish mumkin. Ayni damda esa ayrim davlatlar jinoyatchiga siyosiy qochoq maqomini berib uni o'z himoyasiga olishmoqda. Shuningdek xalqaro jinoiy guruhlariga sud-tartibot tizimi yaxshi rivojlanmagan davlatlar o'z moliyalarini yashirish, soliqdan qochish imkoni bermoqda.

Beshinchidan, ikkita tizimning bir-biriga ishonchsizlik bilan qarashi, bir-birining xatti-harakatlarini qattiq nazoratga olishi jinoiy guruhlar faoliyatiga ham dahldor edi. Sotsialistik lager mamlakatlarida aholining ko'chish bilan, chetga chiqish bilan bog'liq harakati, umuman kundalik faoliyati kuchli nazorat ostiga olingan edi. G'arb va Sharq o'rtasida uzoq davom etgan "Sovuq urush" tugagashi bilan o'rtadagi temir parda olib tashlandi, "Berlin devori" to'siq bo'lmasdan qoldi. Zamonaviy savdo munosabatlariga ba'zi davlatlarning qonunchilik, soliq, boj tizimining tayyor emasligi bunday davlatlarning

hududlari qonuniy tovarlarga, narkotik, ximik, radioaktiv mahsulotlar uchun tranzit maydon bo'lib xizmat qildi.

Oltinchidan, jahonning ko'pgina mamlakatlarida demokratik jarayonlarning qaror topishi qiyinchilik bilan kechmoqda. Oldingi totalitar tizimning boshqaruv richaglaridan keskin voz kechish, yangi demokratik tizimni barpo etish mobaynida o'ziga xos "bo'shliqqa" yo'l qo'yildi. Bu esa jinoiy guruhlariga yashirinish, moliyalarini, man etilgan tovarlarni yashirish, olib yurish imkonini berdi.

Etinchidan, jamiyat hayotining turli sohalarida xalqaro aloqalarning yuksalishi bilan bir qatorda kommunikatsiyalar tizimi, kommunikatsiyalar vositalari, teleradio informatsiyalar ham keng tarqaldi. Bu vositalar, Kanallar orqali turli tang-barang muzmundagi ma'lumotlar bilan bir qatorda ekstremizmni, fashizmni targ'ib etuvchi vayronkor mazmundagi g'oyalar, kriminal hodisalarning turli usuliari, vositalari ham targ'ib etilmoqda.

3. Jinoiyat globallashuvning namoyon bo'lish xususiyatlari. Bugungi kunda xalqaro transmilliy xarakterdagi jinoiy to'dalar turli yo'nalishlarda, sohalarda o'z xatti-harakatlarini amalga oshirishmoqda. Albatta bu guruhlar o'z xatti-harakatlarini yo'lga qo'yishlarida serdaromad sohalarni o'z nishonlari ostiga olishadi. Bu sohalar shuningdek ya'ni serdaromadligidan tashqari qulayligi, kamchiqimligi bilan ham ajralib turadi. Ular qatoriga quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin.

Odam savdosi. Odam savdosi – bu alohida shaxsni (yoki guruhni) yollash, ularni bir davlat chegarasi doirasida yoki chegarasidan tashqariga olib ketish bilan bog'liq bo'lgan barcha harakat yoki maqsadlar bo'lib, u o'z ichiga sotish, sotib olish, topshirish, bunday harakatlarni foyda ko'rish yoki shunchaki bunday shaxsni keyinchalik aldab yoki majburlab (zo'rlik ishlatib yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitib), shuningdek, xizmat mavqeini suiiste'mol qilish yo'li bilan ishlatish maqsadida ushlab turishni, shuningdek, shaxsni hohishiga qarshi holda qulchilik sharoitida haq to'lash yoki to'lamasligidan qat'i nazar ushiab turishni ham o'z ichiga oladi¹.

Tadqiqotchi Repiskayaning fikriga ko'ra, odam savdosi deganda, shaxsni sotib olish yoki unga qarshi qaratilgan boshqa qonunga xilof bitimlarni, shuningdek, shaxsni qo'lga kiritish va undan har qanday foyda olish uchun foydalanish va nazorat ostiga olishni yoki har qanday shaklda ekspluatatsiya

¹ Dolgolenko T. Ugolovnaya otvetstvennost za to'govlyu lyudmi. Ugolovnoye pravo. 2004. - № 2. - S.23-25.

qilish maqsadi va ayriboshlashni bildiradi¹. Nemis olimi Leo Kaydel esa odam savdosi muammosini chuqur o'rgangan holda, u uyushgan jinoyatchilikning asosiy faoliyat turlaridan biri hisoblanib, kriminal faoliyat iyerarxiyasida beshinchi o'rinni egallaydi², degan fikrni bildirib o'tgan.

Odam savdosi – inson, uning sha'ni, qadr-qimmatini, osoyishta turmushi hamda kelajagiga tahdid solayotgan transmilliy uyushgan jinoyatchilik ko'rinishlaridan biri bo'lib, o'zining chegara tanlamasligi hamda girdobiga asosan yoshlarni va ayollarni tortayotganligi bilan barchada katta tashvish va xavotir uyg'otmoqda. Mazkur jinoyatning motiv va maqsadi g'araz, ya'ni moddiy foyda yoki daromad ko'rishni ko'zda tutadi. Chunki odam savdosidan ko'zda tutilgan asosiy maqsad jinoyatchining o'zi yoki boshqa shaxslar orqali pul yoki boshqa moddiy boyliklarga ega bo'lish hisoblanadi.

M.X.Rustamboyevning ta'kidlashicha, odam savdosi – hozirgi kunning dolzarb muammolaridan biridir. Undan keladigan daromad g'iyohvand moddalar va qurol savdosidan so'ng uchinchi o'rinda turadi³. Jinoyatchilikning mazkur turidan keladigan daromadning yillik aylanmasi 32 mlrd AQSH dollarini tashkil etadi. Yiliga 2 million inson bu savdoning qurboni bo'lmoqda. Jinsiy ekspluatatsiya, majburiy mehnat, bolalar mehnatini ekspluatatsiya qilish shu darajada keng tarqalganki, natijada hozirgi kunda millat genofondiga, shu bilan birga milliy xavfsizlikka jiddiy xavf tug'dirmoqda. Bunday holatda har qanday madaniyati rivojlangan mamlakat mazkur jinoyat turi bilan kurash bo'yicha barcha zarur choralarini ko'rishi lozim. O'zbekiston ham bu borada istisno emas.

Odamlar (ayniqsa, ayollar va bolalar) savdosi bilan bog'liq jinoyatlar so'nggi yillarda avj oldi. Bugungi kunda odamlar savdosi transmilliy uyushgan jinoyatchilikning uzviy tarkibiy qismi bo'lib, dunyo bo'yicha shunchalik keng tarqalganki, BMT va migratsiya bo'yicha xalqaro tashkilotning ma'lumotlari millionlab shaxslar undan jabr ko'rayotganligidan dalolat beradi⁴.

BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 2000 yil 15 noyabrdagi 55/25- sonli rezolyusiyasi bilan qabul qilingan «Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi

¹ Repiskaya A. Klassifikatsiya kriminalnoy ekspluatatsii lyudey i problemi ugovnoy otvetstvennosti za neye // Tovgovlya lyudmi. Sotsiokriminalologicheskiy analiz/Pod obsh. Red. Tyuryukanovoy Ye. V. i Yerokhinoy L.D. : M., 2002. str. 87.

² Leo Keide/ Menschendel als Pnenomen Organisiyerter Kriminalid/ Kriminalistik. No/ 5, p.325

³ Rustamboyev M.X. Kurs ugovnogo prava Respubliki Uzbekistan. Osobennaya chast. 3-Tom: Prestupleniya protiv lichnosti. Prestupleniya protiv mira i bezopasnosti. Uchebnik dlya Vuzov. –T.: Izdatelstvo TGYUI, 2009. –S. 290.

⁴ Rustambaev M.X. Odam savdosi. –T.: TDYI nashriyoti, 2009, 12- bet.

kurash to'g'risida»gi Konvensiyada (mazkur xalqaro hujjat O'zbekiston Respublikasi tomonidan (2001 yil 28 iyunda ratifikatsiya qilingan) esa odam savdosi tushunchasiga quyidagicha ta'rif berilgan. Odam savdosi – odamlardan foydalanish uchun ularni yollash, tashish, berish, yashirish yoki odamlarni qo'rqitish asosida kuch bilan boshqa vositalarni qo'llash orqali yoki boshqa majburlov vositalari, o'g'irlik, tovlamachilik, aldov, hokimiyatni suiste'mol qilish, yohud mansab mavqedan foydalanib, sotib olish yo'li bilan qo'lga kiritishni anglatadi¹. Odam savdosi xalqaro hamjamiyat tomonidan inson, oila va jamiyat farovonligiga xavf tug'diruvchi akt sifatida baholanadi².

Qurol savdosi. Transmilliy jinoiy to'dalar tomonidan amalga oshirilayotgan eng serdaromad sohalardan yana biri yashirincha qurol savdosi hisoblanadi. Bu "biznes" ham mintaqaviy mojarolar va mahalliy urushlarning to's-to'polonidan foydalanib qoluvchilarga katta daromad keltirmoqda. Bunday korchalonlar uchun qurolli qarama-qarshilikni davom ettirish va keskinlikni saqlab turish qurol-yarog'larning yashirin bozorini kengaytirish uchun eng yaxshi shart-sharoit ekanligi hammaga ma'lum.

Yashirincha qurol sotish xalqaro terrorizm deb atalmish jinoiy hodisa bilan birga yuradi, ba'zan esa uni keltirib ham chiqaradi. O'zgalar qonini to'kish hisobiga mo'may daromad olishni istovchilar anchagina topiladi. Bu toifaga kiruvchi "bizneschilar" uchun qon va nopok siyosat qorishgan pul dunyoning turli burchaklarida xalqaro qotillarni yollash va sinab ko'rish mumkin bo'ladigan mojarolarni rag'batlantirish borasida eng qulay vosita ekanligini gapirmasa ham bo'ladi. "Afg'oniston bilan Tojikistondagi mintaqaviy mojarolar hal bo'lmayotir. Bu esa mintaqadagi davlatlar, shu jumladan O'zbekiston oldiga terrorizm va qurol-yarog'lar kontrabandasi singari hodisalarning qo'shni davlatlar hududlariga yoyilishi bilan bog'liq bo'lgan yangi va g'oyat xavfli muammolarni ko'ndalang qo'ydi. Endilikda milliy xavfsizlikni va ichki barqarorlikni ta'minlash darajasi ana shu muammolarni hal qilishga bog'liq"³.

Moliya manbalarini legallashtirish. Agar jinoyatning bu turini o'zbek tiliga sof tarjimasini "pul manbalarini yuvish" ma'nosini beradi. Lekin

¹ Sally W/ Stoeker. The Rise in Human Trafficking and the Role of Organized Crime // Demokratizatsiya. Vol. 8, No 1. Winter 2000.

² «Odamlar savdosi va fohishabozlikning uchinchi shaxslar tomonidan ishlatilishiga qarshi kurash to'g'risida Konvensiya». Inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalar. To'plam. –T.: Adolat, 2004. 227- bet.

³ Karimov I.A. «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari, taraqqiyot kafolatlari» – T.: 1997 yil. 67-bet

jinoyatning bu turi o'z mohiyatidan kelib chiqqan holda huquqiy adabiyotlarda moliya manbalarini legallashtirish tariqasida ishlatiladi. Jinoyatning bu turiga O'zbekiston Respublikasining jinoyat kodeksida shunday ta'rif berilgan: "Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, ya'ni mulk (pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulk) jinoiy faoliyat natijasida topilgan bo'lsa, uni o'tkazish, mulkka aylantirish yohud almashtirish yo'li bilan uning kelib chiqishiga qonuniy tus berish, huddi shuningdek bunday pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulkning asl xususiyatini, manbaini, turgan joyini, tasarruf etish, ko'chirish usulini, pul mablag'lariga yoki boshqa mol-mulkka bo'lgan haqiqiy egalik huquqlarini yoki uning kimga qarashlilikini yashirish yohud sir saqlash"¹. Ko'rinib turibdiki davlat, jamiyat mulki noqonuniy ravishda muayyan guruh yoki shaxs tomonidan o'zlashtirilib, mulkchilikning yangi shakliga aylantirilib unga qonuniy tus berishga o'tiladi. Albatta, bu daromadning manbalari mavhumlashtiriladi. BMT ma'lumotlariga qaraganda yiliga 900 million dollardan- 3 milliard dollargacha bo'lgan mablag' legallashtiriladi. Bu jahonda yaratilgan yalpi ijtimoiy mahsulotning 2-5% ini tashkil etadi².

Giyovand moddalar savdosi. Jinoyat globallashtirishning keng tarqalgan turlaridan yana biri narkotik moddalar ishlab chiqarish va ular bilan savdo qilish hisoblanadi. Ushbu jinoiy biznes yaratib beradigan juda katta boylik orttirish imkoniyatlari uning ishtirokchilarini xalqaro huquq normalari bilan ham, milliy qonunlar majmui bilan ham, ayniqsa, "oq ajal"ning halokatli oqibatlari bilan ham hisoblashmay, hamma ismi qilishga majbur etmoqda. BMT tomonidan keltirilgan ma'lumotlarga qaraganda bu zahri qotil savdosining yillik aylanmasi 350-450 milliard dollarga teng bo'lib bu miqdor jahon hamjamiyatining bir yillik yalpi daromadining 7% ga teng. Taxminiy ma'lumotlarga qaraganda jahon aholisining 3% i giyohvand moddalar iste'mol qiladi. Bu turdagi jinoiy to'dalarga qarshi kurashishga turli davlatlar turlicha vaqt va mablag' sarflashmoqda. AQSH federal organlari yiliga 12 milliard dollar mablag'ni narkotik savdosiga qarshi kurashga sarflashadi; 45 milliard dollarga teng mablag' narkotik savdosi bilan qo'lga tushgan saqlab turish bilan bog'liq jarayonga sarflanadi; 120 milliard dollar narkomaniya kasaliga chalinganlarni davolash ishlariga sarflanmoqda³. Bu moddalarni ishlab

¹ 243-modda O'zbekiston Respublikasining 2009 yil 22 sentabrdagi O'RQ-223-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2009 y., 39-son, 423-modda

² http://kontinent.org/article_rus_491505d8ee0c8.html

³ http://kontinent.org/article_rus_491505d8ee0c8.html

chiqaruvchi asosiy regionlar: Oltin yarimoy (Golden Crescent) – Afg'oniston, Eron, Pokiston; Oltin uchburchak (Golden Triangle) – Myanma, Laos, Tailand; Janubiy Afrika; Niderlandiya; Marokash; Xitoy. Xitoyda asosan sintetik narkotik moddalar ishlab chiqariladi¹. Yuqori navli geroinning eng katta bozori Yevropa hisoblanadi. BMT ma'lumotlariga qaraganda faqat Rossiyaning o'zida yiliga 70 tonna geroin sotiladi. Rossiyada bu kasallik sababli bir yilda vafot etganlar (yiliga 30 000 -40 000 nafar) Sovet armiyasining o'n yil davom etgan afg'on urushidagi yo'qotishidan ikki barobar qo'pdir².

Intellektual mulk savdosi. Keyingi yillarda jinoyatning globallashuvining keng tarqalgan turlaridan birini intellektual mulk o'g'irligi tashkil etadi. Bu sohadagi o'g'irik turli sohalarda turlicha shakllarda namoyon bo'lmoqda. Ma'lumotlarga qaraganda AQSH va G'arbiy Yevropaning musiqa, kinofil'm, kompyuter o'yinlari, videoo'yinlar, turli dasturlar ishlab chiqaruvchi yetakchi kompaniyalarining shu jinoiy guruhlar sababli ko'rgan zarari o'n milliardlagan dollarni tashkil etgan³. Procter&Gamble kompaniyasi sertifikatida ishlab chiqarilgan kir yuvish vositalarining 40% i, Honda (Yaponiya) kompaniyasi markasi ostida ishlab chiqilgan mototexnikaning 60 % i Xitoyda noqonuniy ishlab chiqarilgan. Rivojlanayotgan mamlakatlarda ishlatilayotgan farmatsevtika mahsulotilarning deyarli 50 % i yashirincha ishlab chiqarilgan qo'lbola mahsulotlari hisoblanadi. Shuningdek qo'lbola donorlik organlari ishlab chiqarish, qo'lbola san'at asarlarini nusxalash, noyob hayvonlar savdosi avj olmoqda. Hujjatlarni soxtalashtirish, soxta yurist va soxta moliyachilar xizmati, soxta muhrlarni yaratish singari faoliyat shakli jinoiy guruhlar faoliyatiga keng imkoniyatlar yaratib bermoqda.

4. Jinoyatning globallashuvi sharoitida xalqaro xavfsizlikni ta'minlash masalalari. Biz yashayotgan yashayotgan mintaqada xavfsizlikni ta'minlashda qanday muammolar mavjud degan savolga javob izlaganda Yurboshimizning "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va tarqqiyot kafolatlari" asariga yana bir bor murojat qilamiz. O'zbekiston uchun uning keng ma'nodagi milliy xavfsizligi nimani anglatadi, biz bu xavfsizlikni qanday tasavvur qilamiz?

¹ <https://ru.wikipedia.org/wiki/narkotorgovlya>

² <http://Libymax/tu/p=12463/ONN> prizivayet k obyedineniyu v borbe protiv organizovanny prestupnosti.

³ http://kontinent.org/article_rus_491505d8ee0c8.html

Birinchidan. O'zbekiston xavfsizlikning yaxlitligi haqidagi asosiy tamoyillardan birini to'la qo'llab-quvvatlaydi. Xavfsizlik - uzluksiz holatdir, xadsiz-hududsizdir.

Ikkinchidan. "Sovuq urush" barham topganidan keyin yalpi xavfsizlikka asosiy tahdidni etnik, mintaqaviy, mahalliy mojarolar va davlatlar ichidagi jangari separatizm solmoqda.

Uchinchidan. O'zbekiston o'zining jo'g'rofiy-siyosiy holati jihatidan kollektiv xavfsizlik tizimi izchil yo'lga qo'yilmagan mintaqada joylashgan. Bu ham tahdid tug'diruvchi sababdir. O'zbekiston amalda Fors ko'rfazi, Kaspiy dengizi havzasi va Tarim havzasining neft va gazga juda boy konlari joylashgan yarim halqaning strategik markazidir. YA'ni, bu yarim halqa atrofida butun dunyoda energiya taqchilligi sharoitida yaqin yillarda Yevroosiyo va jahon kelajagi uchun hal qiluvchi rol o'ynaydigan energiya zahirolari mavjud.

Yana bir tahdid manbai shu bilan bog'liqki, O'zbekistonni etnik, demografik, iqtisodiy va boshqa muammolar yuki ostida qolgan mamlakatlar qurshab turibdi. Buning ustiga, yurtimiz mintaqadagi diniy ekstremizm, etnik murosasizlik, narkobiznes va har xil tashiqi kuchlar tomonidan rag'batlantirib kelinayotgan, ichki mojaro avj olgan Afg'oniston kabi beqarorlik o'chog'i bilan chegaradosh. Besh yildirki, qo'shni Tojikistonda fuqarolar urushining keng yoyilib ketish xavfi ham saqlanib kelmoqda.

To'rtinchidan. Mintaqaviy nizolar ko'pincha terrorism va zo'ravonlik, narkobiznes va qurol-yarog' bilan qonunsiz savdo qilish, inson huquqlarini ommaviy suratda poymol etish kabi xavfli tahdidlarning doimiy manbaiga aylanib bormoqda. Bunday hodisalar davlat chegaralarini tan olmaydi.

Beshinchidan. Bizning nazarimizda, ekologik va yadroviy xavfsizlik muammolari alohida e'tiborni talab qiladi. Biz Markaziy Osiyo mintaqasi yadroviy qurollardan xoli hudud deb e'lon qilinishiga erishmoqchimiz. Ayrim qo'shni davlatlar yadro quroliga ega bo'lishga oshkora intilayotganligi bizni ayniqsa tashvishga solmoqda.

Orol dengizi falokati ham jahon miqyosidagi ulkan muammodir. U dunyodagi ancha mamlakatlar aholisining manfaatlariga daxldor bo'lib, ko'plab millatlarning avlodlari uchun halokatli oqibatlariga olib kelishi mumkin.

Aslini olganda, jahonda xalqaro xavfsizlikka solinayotgan tahdidlar ancha serqirra. Ular siyosiy ekstremizm, shu jumladan diniy ruhdagi ekstremizمنى, millatchilik va milliy mahdudlikni, etnik, millatlararo, mahalliychilik va urug'-aymoqchilik asosidagi ziddiyatlarni, korrupsiya va jinoyatchilikni, ekologiya

muammolarini o'z ichiga oladi. Boshqacha aytganda, yuqorida sanab o'tilgan tahdidlar, garchi turli mintaqalarda turlicha kuch bilan namoyon bo'lsa-da, insoniyatda bir xilda tashvish tug'dirmog'i darkor.

Jinoyatning globallashuvi sharoitida xalqaro havfsizlikni ta'minlashda quyidagi masalalarga keng e'tibor qaratish lozim:

Birinchidan, insoniyatga, uning kelgusi taqdiriga strategik havf solayotgan tahdidlardan biri xalqaro terrorizm havfi hisoblanadi. O'zbekistonga nisbatan islom fundamentalizmi - aqidaparastlikning tahdidi nimalarda namoyon bo'lmoqda? I.A.Karimovning "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: havfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot shartlari" asariga murojat qiladigan bo'lsak bu masala quyidagicha o'z aksini topgan:

Birinchidan. Aqidaparastlikni yoyish orqali dindor musulmonlarning islohatchi davlatga ishonchini yo'qqa chiqarishda ko'rinmoqda. Yaxshilik yo'lidagi o'zgarishlarning ustuvor shartlari bo'lgan barqarorlikni, milliy, fuqarolararo va millatlararo totuvlikni buzish yo'lidagi urinishlarda namoyon bo'lmoqda. Aqidaparastlarning maqsadi demokratiyani, dunyoviy davlatni, ko'p millatli va ko'p dinli jamiyatni obro'sizlantirishdan iboratdir.

Ikkinchidan. Fundamentalistlarning adolat haqidagi olomonbop, jozibador, ammo baqiroq va asossiz da'vatlariga ko'r-ko'rona ergashuvchilar o'zgalar irodasining quli bo'lib qolishini anglashimiz lozim. Bu da'vatlar oxir-oqibatda bunday odamlarning aqligagina emas, balki taqdiriga ham hukmron bo'lib olishini yaqqol anglashimiz, ayniqsa, yoshlarimiz buni aniq tasavvur qilishi lozim. Bunday nufuzli odamlarga bo'ysunmay qo'yish shaxsiy fojiga aylanib ketishi ham mumkin. Qullarcha mutelik, shaxsning erksizlik asoratiga tushib qolishi, fikrlash, say-harakat va tashabbus ko'rsatish erkinligining mutlaqo cheklanishi buning eng og'ir oqibatlaridir. Bizning taraqqiyot sari intilishimizni esa fikrlash, harakat qilish va tashabbus ko'rsatishsiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Uchinchidan. Mamlakat mintaqalari aholisi va ijtimoiy qatlamlar o'rtasida "haqiqiy" va "soxta" dindorlik belgilari bo'yicha qarama-qarshilik keltirib chiqarishda ko'rinmoqda. Bunday hol Jazoirda, Afg'onistonda millatlarning parchalanib ketishiga olib keldi.

To'rtinchidan. O'zbekistonning janubiy chegaralaridagi qo'shni mamlakatlarda fuqarolar urushi to'xtamay, davom etib kelayotganligida namoyon bo'lmoqda. Bu holat o'zlarini chin musulmon, din uchun kurashuvchilar deb hisoblaydigan, mudhish tasavvurlarini xalqimizga zo'rlab

qabul qildirishni istaydigan terrorchilar, jangarilarning yangidan-yangi avlodlarini vujudga keltirmoqda.

Beshinchidan. Musulmon va nomusulmon mamlakatlar, ularning jamoatchiligi orasida ham O'zbekiston haqida ko'ngilni sovutadigan fikr tug'dirishga urinishlarda namoyon bo'lmoqda. Ularga bizni goh dinsiz dahriylar qilib, goh esa davlatni islomlashtirishning yashirincha tarafdorlari qilib ko'rsatishni istaydilar.

Oltinchidan. Islom sivilizatsiyasi bilan islomiy bo'lmagan sivilizatsiya o'rtasida yalpi qarama-qarshilikni shakllantirishda namoyon bo'lmoqda. Bu esa jahon hamjamiyatiga qo'shilish jarayonlariga g'oyat salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Yangi mustaqil davlatlarning qoloqligini turg'un bir holatga aylantirmoqda. Undan ham dahshatlisi shuki, odamlarni diniy zaminda "sivilizatsiyalar to'qnashuvi"ni kutishga majbur qilmoqda.

Yettinchidan. Ommaning ongida din barcha iqtisodiy, siyosiy va xalqaro muammolar hamda ziddiyatlarni hal qilishning universal vositasi degan fikrni qaror toptirishda ko'rinmoqda.

Ikkinchidan. Shakllanayotgan xalqaro havfsizlik tizimining barqarorligi va sobitqadamligi. XXI asrga kelib shakllanayotgan xalqaro havfsizlik tizimining barqarorligi va sobitligi ko'p jihatdan xalqaro maydonda strategik havfsizlikni yanada qo'llab-quvvatlash va mustahkamlashga bog'liq.

Totalitar tuzum yemirilganidan keyin dunyoning qutblarga bo'linishi barham topdi. Lekin shu tufayli u xavfsizroq, barqarorroq, sobitqadamroq bo'lib qolgani yo'q. Keyingi yillarda butun dunyo miqyosida va mintaqalar darajasida vujudga kelayotgan tashqi munosabatlarni tanqidiy tahlil qilish va eng avvalo:

bir qancha mamlakatlarda keskin siyosiy kurash borayotgan bir vaqtda demokratiya asoslarining ba'zan qiyinchilik bilan qaror topayotgani;

milliy o'zlikni anglashning faol jonlanishi hamda millatlar va ayrim elatlarning o'z taqdirini o'zi belgilashga intilishi;

yetnik va millatlararo ziddiyatlarning saqlanib qolayotganligi;

qotib qolgan mafkuraviy aqidalarning qadsizlanishi hamda siyosiy va diniy ekstremizmning turli shakllari kuchayib borayotganligi;

dunyoning katta qismida iqtisodi zaif, aholisi qashshoq yashayotgan mamlakatlar saqlanib qolayotganligi;

mamlakatlar, xalqlar o'rtasida, bir mamlakat ichida esa ayrim ijtimoiy guruhlar o'rtasida iqtisodiy va ijtimoiy tabaqalanish kuchayib borayotganligi -

bularning barchasi dunyo hali ham avvalgidek mo'rt bo'lib turganligi va avaylab munosabatda bo'lishni talab qilayotganligidan dalolat beradi.

Globalashuv sharoitida havfsizlikni, barqarorlikni ta'minlashda bu omilning ahamiyati bir oz zaiflashgandek tuyuladi. Ba'zan bu sohadagi xatti-harakat, intilishlar hamkorlik ruhida emas, qarama-qashi ruhdagi manfaatlarni eslatadi. "Sovuq urush" davrida asosiy ta'sir etish vositasi bo'lib yadro quroli hisoblansa, undan keyingi davrda vositalar tizimi o'zgarib ketdi: ayirmachilik, millatchilik, terrorizm va sh.k.

Uchinchidan. Yalpi qirg'in qurolalarini ishlatmaslik va tarqatmaslik masalalari. Eng havflisi ommaviy qirg'in qurollari- yadroviy, kimyoviy, baktoreologik qurollarning ekstremistik va terroristik jinoyatchi guruhlar qo'l ostiga o'tib qolmasligi masalasidir. Eng asosiysi ommaviy qirg'in quollarining yangi turlari ustidan jiddiy tadqiqotlar to'xtamayapdi. Yaqin yillarda jahonning yirik davlatlari ommaviy qirg'in quollarining quyidagi turlariga ega bo'lishlari mumkin: Infratovushli qurol; Radiologik qurol (SSSR ning R-2 rusumli raketasiga o'rnatilganligi haqida taxminiy ma'lumotlar mavjud); Geofizik qurol; Tektonik qurol (Tolibonga qarshi kurashda AQSH Afg'onistonda sun'iy zilzila hosil qilganligi taxmin etiladi); Klimatik qurol; Genetik qurol va sh.k.¹. Bugungi kunda eng asosiy vazifa ommaviy qirg'in quollarini, uni tashuvchi texnik vositalarni tarqatmaslik ustidan xalqaro nazoratni yanada mustahkamlashdir.

5. Jinoyatning globallashuviga qarshi kurash vositalari va usullari.

Yuqorida jinoyatning globallashuvi bilan bog'liq masalalar ko'rib chiqildi: uning kelib chiqish sabablari; uni ta'min etuvchi vositalar tizimi; uning insoniyatga solayotgan tahdidlari va shular bilan bog'liq masalalar. Bu tahlillar shuni ko'rsatadiki xalqaro jinoyatchilikning turli shakllariga bitta davlat miqyosida kurashishning mutlaqo imkoni yo'q. Xalqaro uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashda asosiy e'tiborni quyidagilarga qaratish maqsadga muvofiq bo'lardi.

Avvalo, xalqaro uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashda jahon hamjamiyati hamkorlikda kurash olib borishi talab etiladi. Musulmon dunyosida terroristik tashkilot deb e'tirof etilgan ba'zi bir tashkilotlarning Yevropa mamlakatlarida erkin harakat qilishi, o'z ofislariga ega bo'lishi o'ziga norozilikni keltirib chiqaradi.

¹ https://ru.wikipedia.org/wiki/oruj_ive_massovogo_porajeniya

Ikkinchidan, xalqaro uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashning siyosiy – huquqiy asoslarini yagona standartlar asosida yanada mustahkamlash. Jinoyat guruhlarning insoniyatga qarshi qaratilgan qilmishlari jahonning barcha hududlarida birdek jazoga tortilishi zarur.

Uchinchidan, xalqaro uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashda Interpol tashkilotning rolini yanada oshirish. Interpol - (ing. International Criminal Police Organization, ICPO) jinoyatchilikka qarshi kurashuvchi xalqaro politsiya. Tashkilot 1914 yilda Monako qiroli Al'ber I ning faol harakatlari bilan 14 davlatning jinoyatchilikka qarshi kurashuvchi organlari xodimlarining 1-Xalqaro kongressi uyushtirildi. Unda jinoyatchilikka qarshi xalqaro hay'at tuzishga kelishildi. Faqat bu ishga jahon urushi to'sqinlik qildi. 1923 yilda jinoyatchilikka qarshi kurashuvchi politsiyachilarning 2-Xalqaro kongressi o'tkazildi. Ustavga asosan Hay'atga tashkilot joylashgan mamlakat politsiyasining boshlig'i rahbarlik qilishi lozim edi. Shu sabab unga Avstriya rahbarlik qildi. 1938 yilgi anshlyusdan keyin Hay'at ishiga rahbarlik Germaniyaga o'tdi. Natijada ko'pgina davlat Interpoldan chiqib ketishdi. 1946 yilda tashkilot qayta tashkil etilib uning shtab-kvartirasi Parijga keltirildi. Amaldagi Ustavi 1956 yilda qabul qilinib, rasman unga Interpol nomi berildi. A'zolari soni ko'pligi jihatidan BMT dan keyin ikkinchi o'rinda turadi - 190 ta a'zo. Asosiy vazifasi uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashuvchi har bir davlatning intilishlarini koordinatsiyalash, xalqaro jinoyatchilikka qarshi kurashda yagona markazlashgan siyosat yuritish: xalqaro qidiruv; odam savdosi; uyushgan jinoyatchilik; narkotik savdosi; qimmatli qog'ozlarni, hujjatlarni qalbakilashtirish; valyutalarni soxtalashtirish; iqtisodiy jinoyatlar va sh.k. Keyingi paytlarda Interpol asosiy e'tiborni ijtimoiy havfsizlikka, terrorizm muammosiga qaratmoqda.

To'rtinchidan, xalqaro uyushtirilgan jinoyatchilikka qarshi kurashda kontinental tashkilotlar rolini yanada oshirish. Ameripol- Amerika davlatlari politsiyachilari jamiyati 2007 yilda tashkil etilgan asosan narkotik savdosiga qarshi kurashni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. Bu tashkilotga 18 davlat kirgan bo'lib ular quyidagi sohalarda hamkorlikda harakat qilishadi: havfsizlikni ta'minlash; terrorizmga qarshi kurash; uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash; harbiy jinoyatchilikka qarshi kurash; noqonuniy qurol savdosiga qarshi kurash; odam savdosiga qarshi kurash; korrupsiyaga qarshi kurash. Tashkilot Amerika qit'asida ichki tartib intizomni mustahkamlashga katta hissa qo'shadi. Yevropol- Yevropa Ittifoqi politsiya xizmati 1998 yilda tashkil etilgan

bo'lib asosiy vazifasi Yevropa mamlakatlari politsiya xizmati faoliyatini yo'naltirish, ular o'rtasida axborot xizmatini yo'lga qo'yish. Yevropaning 28 davlati milliy xavfsizlik organlari o'zaro axborot almashlash; jinoyatchilikka doir ma'lumotlarni yig'ish, tahlil qilish; qidiruv-tergov jarayonini informatsion yo'l bilan quvvatlash va sh.k.

6. Jinoyat globallashuviga qarshi kurash va uni oldini olish borasidagi vazifalar. Jinoyatning globallashuvi – bugungi kunda eng katta global muammolardan biridir. Bugungi kunda uyushgan jinoyatchilikning har qanday ko'rinishlariga qarshi kurash muammosi nafaqat xalqaro huquq, balki milliy jinoyat huquqi uchun ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Mustaqillikning ilk kunlaridan boshlab terrorizm, ayirmachilik, odamlardan noqonuniy foydalanishga, ularning migratsiyasiga va savdosiga qarshi kurash bo'yicha chora-tadbirlarning samaradorligini oshirish bilan bog'liq keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, bu sohani tartibga soladigan bir qancha xalqaro huquqiy normalar Parlament tomonidan ratifikatsiya qilindi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 2003 yil 12 dekabrda BMT Bosh Assambleyasining 1949 yil 2 dekabrda 317(IVI)-son rezolyusiyasi bilan ma'qullangan «Odamlar savdosiga va uchinchi shaxslar tomonidan fohishabozlikdan foydalanishga qarshi kurash to'g'risida»gi Konvensiya hamda 2001 yil 28 iyunda BMT Bosh Assambleyasining 2000 yil 15 noyabrda 55/25-son rezolyusiyasi bilan qabul qilingan «Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash to'g'risida»gi Konvensiya ratifikatsiya qilindi.

2008 yil 17 aprelda O'zbekiston Respublikasining "Odamlar savdosiga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi "Odamlardan foydalanish uchun ularni yollash" nomli 135-modda bilan to'ldirildi, so'ngra shu yilning avgust oyida ushbu modda "Odam savdosi" ko'rinishida yangi tahrirda bayon qilindi. Ichki ishlar vazirligi va Milliy xavfsizlik tizimida o'zining hududiy tuzilmalariga ega bo'lgan "Odamlardan foydalanish uchun ularni yollash bilan bog'liq jinoyatlarga qarshi kurash bo'limi" tashkil etildi.

Odam savdosiga qarshi kurash, bunday jinoyat qurbonlarini ijtimoiy himoyalash tadbirlari kompleks xarakterga ega ekanligi inobatga olinib, davlat organlari, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari va nodavlat notijorat tashkilotlarining bu boradagi faoliyatini muvofiqlashtirish maqsadida odam savdosiga qarshi kurashish bo'yicha respublika idoralararo komissiya tuzildi.

Odam savdosiga qarshi kurashning ustuvor profilaktik chora-tadbirlari sirasiga quyidagilar kiradi:

1. Huquqni muhofaza qilish organlari tomonidan tashqi savdo bilan shug'ullanuvchi idoralar, xorijiy davlatlarga ishga joylashtirish bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslar faoliyati ustidan nazoratni kuchaytirish.

2. Aholining huquqiy savodxonligi va axborot bilan ta'minlanishini oshirish. Xususan, xorijga chiqish hujjatlarini tayyorlashda O'zbekiston Ichki ishlar vazirligi va Milliy xavfsizlik xizmati organlari mansabdor shaxslari xorijga chiquvchilar o'rtasida ushbu qonunbuzarliklarni oldini olish uchun tushuntirish ishlarini olib boradilar.

3. G'ayriqonuniy migratsiyaga qarshi kurash bilan shug'ullanuvchi yuqori professional tayyorgarlikka ega bo'lgan xodimlar yordamida migratsion nazoratni kuchaytirish, shuningdek, qonunga zid migratsiya haqidagi ma'lumotlar almashinuvini amalga oshirish maqsadida ushbu organlarning xorijiy davlatlarning tegishli organlari bilan hamkorligini kuchaytirish lozim bo'ladi.

4. Odam savdosi bilan shug'ullanuvchi jinoiy guruhiarga O'zbekiston Respublikasi chegaralarini tegishli chegara va bojxona nazoratisiz kesib o'tishga imkon beruvchi barcha xufyona yo'llarni bartaraf etish.

5. Yoshlarning axloqiy tarbiyasi darajasini oshirish (odam savdosi bilan shug'ullanuvchilar oldida zaif, ya'ni ishonuvchan bo'lgan fuqarolarning ayni shu toifasi tavakkal qiluvchilarning birinchi guruhiga kiradi), mustaqil fikrlovchi va hayotga komil ishonch bilan qarovchi yoshlarni tarbiyalash zarur.

6. O'zbekiston Respublikasi huquqni muhofaza qilish organlarining chet davlatlar hamda O'zbekiston Respublikasining boshqa organlari bilan odam savdosi bilan bog'liq jinoyatlarni ochish, tergov qilish usullari va odam savdosi bilan shug'ullanayotgan jismoniy va yuridik shaxslar to'g'risida axborotlar almashish mexanizmini takomillashtirishi.

7. O'zbekiston Respublikasi davlat organlarining jamoatchilik bilan hamkorlikda odam savdosiga qarshi kurash sohasidagi ichki hamkorligi mexanizmini takomillashtirish.

8. Odam savdosi muammosiga bag'ishlangan o'quv qo'llanmalari, badiiy va hujjatli fil'mlar tayyorlash, teatrlashtirilgan sahna ko'rinishlarini tashkil qilish kerak. Bu choralar nafaqat insonlarni xalqaro muammo to'g'risida axborotga ega bo'lishi, balki ularning bu muammolarga qarshi kurashishda yaqinlashuviga ham yordam beradi.

9. Oliy o'quv yurtlari, kollejlari, litseylar va maktablarda doimiy ravishda odam savdosiga qarshi kurashga bag'ishlangan fakul'tativ darslar o'tkazishni yo'lga qo'yish zarur¹.

Biz jinoyatlarga qarshi kurashishda profilaktika ishlarini kuchaytirishimiz, ayniqsa, quyi pog'onadagi ishlarni tubdan o'zgartirishimiz zarur va shart. Masalaning bu jihatiga e'tibor qaratar ekan Sh.Mirziyoyev shunday degan edi: "Bugungi kunda profilaktika inspektorining asosiy vazifasi – faqat sodir etilgan jinoyatlarni hisobga olish, ularning oqibatlari bilan kurashish emas, huquqbuzarliklarning sabab va omillarni chuqur tahlil qilish asosida ularning barvaqt oldini olishga qaratilgan choralarni o'z hududida amalga oshirishdir"²

Buning uchun barcha pog'onalarda profilaktika ishlarini kuchaytirish bo'yicha yangi tizimni puxta ishlab chiqishni va joriy etishni ta'minlashlari zarur.

Birinchidan, har haftaning payshanba kunini respublika bo'yicha jinoyatlarning oldini olish bo'yicha profilaktika kuni deb e'ton qilish kerak.

Ikkinchidan, barcha xududlarda, birinchi navbatda Toshkent viloyatida, ichki ishlar boshqarmasi boshlig'i har haftaning payshanba kuni mahalliy televideniye orqali ko'rsatuvda shaxsan qatnashib, hafta davomida viloyatda sodir etilgan jinoyatlar, ularning sabablari, jinoyatni ochish uchun nima ishlar qilinayotgani va natijasi to'g'risida xalqqa tushuntirish va hisobot beradi.

Uchinchidan, shu kuni kechqurun viloyat hokimi yig'ilish o'tkazib, jinoyatchilikning oldini olish va jinoyatlarni ochish bo'yicha ishlarni muhokama etib, tegishli qaror qabul qiladi.

To'rtinchidan, haftaning payshanba kunlari mahallalarda prokuratura idoralari rahbarlari bosh-qosh bo'lib, sodir etilgan jinoyatlarni aholi o'rtasida muhokama qiladi. Bunda "Mahalla" va "Nuroni" jamg'armalari, "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati, Xotin-qizlar qo'mitasi, kasaba uyushmalari va diniy idoralar vakillari ham faol qatnashishi kerak. Mahalliy aholi o'rtasida o'tkaziladigan bunday muhokamalar, jinoyat ko'lamidan qat'i nazar, har bir sodir etilgan huquqbuzarlik bo'yicha alohida tashkil qilinishi kerak.

¹ Rustambaev M.X. Odam savdosi. –T.: TDYU nashriyoti, 2009. 39-45-betlar.

² Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. –Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017.-322 b.

Beshinchidan, har haftaning payshanba kuni mahalliy ommaviy axborot vositalarida jinoyatlarning oldini olishga bag'ishlangan chiqishlar tashkil etiladi¹.

Xulosa sifatida shuni aytish lozimki, bugungi kunda jinoyatning globallashuviga qarshi kurashish, oldini olish global ahamiyat kasb etmoqda. Chunki uyushgan jinoyatchilik inson, uning sha'ni, qado-qimmatiga dahl qiluvchi, uning insoniy huquqlarini poymol qiluvchi, jamiyatga, insoniyatga katta zarar yetkazuvchi va bugungi kunda chegara bilmas darajada barcha hududlarni qamrab oluvchi umumjahon miqyosidagi muammo hisoblanadi. Ayniqsa, globallashuv transmilliy jinoyatlarning yanada keng yoyilishi uchun sharoit yaratmoqda. Bu esa barcha davlatlarning o'zaro hamkorligiga ehtiyoj tug'dirib, bu borada davlatlararo va xalqaro tashkilotlar doirasida o'zaro mustahkam hamkorlik o'rnatish hamda kuchlarni birlashtirish lozimligini taqazo etmoqda.

Tayanch so'z va iboralar

Jinoyat, globallashuv, interpol, profilaktika, legallashtirish, odam savdosi, qurol savdosi, yevropol, ameripol, huquqiy madaniyat.

Takrorlash uchun savollar

1. Mustaqillik sharoitida O'zbekistonda sud-huquq sohasida qanday islohatlar amalga oshirildi?
2. Jinoyat globallashuvining ta'min etuvchi omillar?
3. Jinoyat globallashuvning namoyon bo'lish xususiyatlari?.
4. Jinoyatning globallashuvi sharoitida xalqaro havfsizlikni ta'minlash vazifalari nimalardan iborat?
5. Jinoyatning globallashuviga qarshi kurash vositalari va usullari qanday?
6. Sh.Mirziyoyev asarlarida jinoyat globallashuviga qarshi kurash va uni oldini olish borasidagi vazifalar?

¹ Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. –Toshkent: "O'zbekiston" NMIU,2017.-320-322 b.

11-§. SPORT GLOBALLASHUVINING IJOBIY VA SALBIY XUSUSIYATLARI.

Reja:

1. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda sport.
2. Sport – umuminsoviyat madaniyatining elementi sifatida.
3. Olimpiya o'yinlari va uning ommalashuvi tarixi.
4. Sport globallashuvining salbiy tomonlari.
5. Sport globallashuvining asosiy omillari va uning ijobiy tomonlari.

1. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda sport. Mustaqillikning qo'lga kiritilishi uning shonli tarixiga zarhal harflar bilan bitilish bilan birga uning bugungi qiyofasini yanada boyitdi. Rivojlangan mamlakatlarning yurtimizni mustaqil mamlakat sifatida tan olishi jahon miqyosida uning obro'-e'tiborini yanada oshirdi. Siyosat, iqtisod, fan, ta'lim, madaniyat va sport sohasida biz dunyoni tanidik, dunyo esa bizni tanidi. Tariximiz, milliy-ma'naviy merosimiz, dinimiz, qadriyatlarimiz qaytadan tiklandi. Madhiyamiz xalqaro maydonlarda yangrab, obro'yimiz, sha'nimiz sanalmish bayrog'imiz nufuzli doiralarda hilpiray boshladi.

Har bir mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy sohada erishgan yutuqlarini sarhisob etish bilan uning ichki va tashqi salohiyatiga baho bersa bo'ladi. Mustaqil o'zbek zaminining har bir sohada qo'lga kiritgan muvaffaqiyatlari zahirida Vatanning turli sarhadlarida istiqomat qilayotgan insonlarning mehnatlari, fidoiyligi, boy va yuksak intellektual bilimi, jismoniy qobiliyatlari mujassamdir. Shu ma'noda mamlakatimizning birgina sport sohasida erishgan muvaffaqiyatlari olamshumul ahamiyat kasb etadi.

Mustaqillikni qo'lga kiritgan dastlabki kunlarimizdanoq mamlakatimiz Prezidenti sog'lom avlodni voyaga yetkazish ishiga o'z e'tiborini qaratdi. 1992 yilning 14 yanvarida "Jismoniy tarbiya va sport" to'g'risidagi O'zbekiston respublikasi Qonunining qabul qilinishi bu boradagi dastlabki qadamlardan deyish mumkin. O'sha yilning 21 yanvarida O'zbekiston Milliy Olimpiya qo'mitasi tashkil etildi va 1993 yil sentabr oyida o'tkazilgan Xalqaro Olimpiya qo'mitasining 101-sessiyasida O'zbekiston Respublikasi ushbu nufuzli tashkilotning teng huquqli a'zosiga aylandi. O'zbek sportchilari Olimpiya o'yinlarida mustaqil jamoa sifatida ishtirok etishlari uchun imkoniyatlar eshigi ochildi.

1992 yili shaxmat bo'yicha terma jamoamiz a'zolari Filippin poytaxti Manilada bo'lib o'tgan 30-Butunjahon shaxmat olimpiadasida umumjamoa hisobida kumush medalni qo'lga kiritdi.

O'zligini tanigan, anglagan xalq eng avvalo e'tiborni yoshlar tarbiyasi va ularning kamoli yo'lga qaratadi. Chunki qonida g'ayrat, shijoat nafasi ufurib turgan, matonat va jasorat balqib turgan yoshlar o'sha mamlakatning istiqbol taqdirini belgilaydi. 1993 yilda Prezidentimizning "Sog'lom avlod uchun" ordenini ta'sis etish to'g'risidagi Farmoni ana shu haqiqat uchun qo'yilgan zalvorli qadam bo'ldi.

1994 yilda Norvegiyada o'tkazilgan qishki Olimpiya o'yinlarida mamlakatimiz sportchilari olimpiadalar tarixida birinchi marta mustaqil jamoa bo'lib ishtirok etishdi. Quyoshli yurtimiz sportchisi Lina Cheryazova fristaylning akrobatika turida qorli mamlakatning sportchilarini ham ortda qoldirib olimpiya chempioni degan sharaflı nomga sazovor bo'ldi.

Sportni rivojlantirishga shaxsan Islom Karimovning e'tibor qaratishi o'zbek zaminiga dunyo tanigan sportchilarning tashrifiga sababchi bo'ldi. Mamlakatimiz poytaxtida 1994 yilning 30 may kuni tennis bo'yicha "Prezident Kubogi" ning tashkil etilishi ana shu ishlarga debocha bo'ldi. Jahonning eng kuchli erkak tennischilarini azim Toshkentga jamlagan "Prezident Kubogi" musobaqalari tantanali tarzda o'tkazildi. Turnirning ilk sovrinini amerikalik Chak Adams qo'lga kiritgan bo'lsa, marokashlik Karim Alami, ispaniyalik Feliks Mantilya, buyuk britaniyalik Tim Xenman, rossiyalik Marat Safin, Yevgeniy Kafelnikovlarga ham davlat rahbari qo'lidan bosh mukofotni qabul qilib olish nasib etdi. Ta'bir joiz bo'lsa, bu O'zbekistonni sport mamlakati sifatida dunyoga tanitdi. Xalqaro shohsupalarda o'zbek sportchilari ketma-ket qadrlarini tik tutib turishi odatiy holga aylandi. O'sha paytda endigina o'n to'rt yoshni qarshilagan Rustam Qosimjonov Qatar davlati poytaxti Dohada tashkil etilgan o'smirlar o'rtasidagi Osiyo chempionatida oltin medalni qo'lga kiritdi. Yurt farzandlari qisqa fursatda barcha sohalar kabi sportda ham salmoqli natijalarga erishayotgani dunyo hamjamiyatining diqqat-ye'tiborini yanada oshirdi. O'zbek shaxmatchilari salohiyat va qobiliyati naqadar yuqori ekanliklarini mazkur turnir misolida isbotlay oldilar. Va eng quvonarlisi bu sohadagi yutuqlar, natijalar borgan sari yuksalib bormoqda. Braziliyada bo'lib olimpiada o'yinlarida o'zbek sportchilari 13 medalni qo'lga kiritib Markaziy Osiyo davlatlari ichida 1-o'rinni, MDH davlatlari ichida 2-o'rinni, Osiyo davlatlari ichida 4-o'rinni, Jahonda esa 21-o'rinni egallashdi.

2. Sport – umuminsoniyat madaniyatining elementi sifatida. Sport inglizcha, eski fransuz tilidagi desport- “o‘yin”, zavqlanish ma‘nolarini beradi. Sport jismoniy madaniyatning tarkibiy qismi bo‘lib insonning jismoniy va aqliy salohiyatini yuksaltirib borishga, ma‘lum bir musobaqalarda ishtirokini ta‘minlashga qaratilgan ma‘lum bir qonun –qoidalar asosida yo‘lga qo‘yilgan chora-tadbirlar, faoliyat tizimidir.

Sport ko‘pgina fanlarning o‘rganish obekti hisoblanadi. Bularga, pedagogika, psixologiya, tarix, jismoniy madaniyat nazariyasi hamda madaniyatshunoslik fanlari kiradi. Ushbu fanlarning har biri o‘zining spetsifik xususiyatlaridan kelib chiqib e‘tibor qaratadi:

- Pedagogika – jismoniy madaniyatning metodlarini o‘rganadi.
- Tarix - jismoniy madaniyat va sportning tarixiy bosqichlarini vujudga kelishini o‘rganadi.
- Sotsiologiya – jismoniy madaniyat va sportning sotsial funksiyalarini tadqiq qiladi.

Sotsiologiya fani shuning bilan birga boshqa fanlardan farqli o‘laroq jismoniy madaniyat va sportni chuqur va mukammal o‘rganadi va boshqa fanlar elementlarini o‘z ichiga oladi.

Madaniyat avvalo, har qanday shaklning hamda insonning yaratilishini chizib beradi. Shuningdek, binoning qanday qad ko‘tarilishi, suratlarining chizilishi, matnlarning vujudga kelishi ham o‘ziga xos ko‘rinishga ega hisoblanadi. Inson ham jismoniy madaniyat va sport bilan o‘zining tanini vujudga keltiradi. Bunday xolat, albatta sportning ma‘lum bir turi orqali amalga, oshiriladi. Keyin shu xolat yordamida turli ko‘rinishdagi harakatlar kelib chiqadi.

Sport madaniyati - umumiy madaniyatning tarkibiy qismi hisoblanib, insonning jismoniy va ma‘naviy shakllanishidagi kategoriyalar umumlashuvi, qonuniyatiari, bellashuvli faoliyat doirasini anglatadi, ko‘pgina madaniy tadqiqotchilar sportni insonni o‘ziga tez tortadigan tomonlari borligini tushuntiradilar. Ammo, bunday xissiyot nimadaligini bilmaydilar. Chunki, sport baribir insonlarga qiziqish va xursandchilik beraveradi. Tadjikotchi Xans Ullix Gumbert fikricha, sportdan keladigan quvonch, hayajon insonga salbiy ta‘sir qilmaydi, ammo sportdagi muvaffaqiyat insonlar sog‘ligiga ham muvaffaqiyatlariga ham sherik bo‘lolmaydi. Ko‘pgina faylasuflar bu xolatni uning avtonomligini, alohidaligini san‘at bilan qiyoslaydilar. Xans Ulrix Gumbert ham sportning san‘atga yaqinligini ko‘rsatib o‘tgan. Shu o‘rinda

aytish joizki, bu narsa sport tomoshabinlari faoliyati bilan bog'liq, ya'ni sportda sporsimenlar, trenerlar, menedjerlar qatnashadilar, ular sportni ham tashqi ham ichki tomonidan ko'rib his qiladilar. Sportning san'at bilan o'xshashligi shunisi bilan aniqki, huddi arxitektor, dizayner va suvratchilar o'z asarlari bilan insonlarni mamnun qilgandek, sport ham o'zining yo'nalishlari bilan insonlarga quvonch, xavas uyg'otadi.

Shuningdek, yana bir muhim mavzu doimo tadqiqotchilar diqqatini tortib kelgan, bu sportdagi qadriyat masalasi. Darhaqiqat sport faoliyatida sportchilar qadriyatning qaysi turi bilan ko'proq qiziqadilar, adolat bilanmi? Yoki qanday bo'lmasin g'alabani qo'lga kiritish yoki zo'rlik va go'zallik ko'rinishlari bilanmi?

Masalan, zo'rlikni sportning ko'pgina turlarida ko'rish mumkin. Bu holat sport turidagi distansiya masofa bilan xarakterlanadi. Misol uchun golf o'yinini oladigan bo'lsak, bunda oraliq masofa ancha katta. Shuningdek sportning futbol, regbi, xokkey turlarida esa bu holat o'ta yuqoriligi bilan xarakterlanadi. Ammo, sportning kurash turida esa barcha rekordlar zo'rlik darajasi bilan baholanadi. Sportning yana mavzularidan biri bu adolatli o'yin mavzusidir. Adolatli o'yin sportdagi sotsial norma va qadriyat sifatida jamoatchilikka tarqalgan o'yimlardandir. Biz bilamizki, agar sportda natija asosiy maqsad bo'lib qolganda, nohaq g'alaba qilish xolati kuchayadi. Bu xolat ko'p hollarda tadqiqotchilarda fizikaga ko'ra haqiqiy g'alabani yo'q bo'lishiga olib kelishi mumkin.

Shunday qilib, sportga madaniyatning bir kismi sifatida karalishi tug'risidagi mavzular asosan sotsiologiyaga oid mavzularga juda yaqin hisoblanadi. Chunki, sportda beriladigan norma qadriyatlarning ushbu sohasi xodimlari va vrachlar, trenerlar hamda sport bilan shug'ullanuvchi barcha insonlar uchun o'rganilishi, sport sotsiologiyasining ravnaq topishiga ulkan zamin yaratadi.

Sportning asosiy funksiyalari. Bizning mamlakatimizda inson shaxs sifatida, asosiy ishlab chiqaruvchi shaxs sifatida, asosiy ishlab chiqaruvchi kuch va jamiyatning oliy boyligi, moddiy va ma'naviy taraqqiyotning asosiy o'lchovidir. O'zbekiston Respublikasida yosh avlodni har tomonlama garmonik rivojlantirish maqsadida bir qator normativ xujjatlar qabul qilingan. Prezident va O'zbekiston Respublikasi hukumatining tashabbusi bilan "Sog'lom avlod" uchun davlat dasturi ishlab chiqilgan, Vazirlar mahkamasining 1991 yil 27 mayda № 271 "Jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishni kelgusidagi

choralari" haqidagi qarori ham muhim ahamiyat kasb etadi. "Jismoniy tarbiya va sport" haqidagi qonunga binoan aholini doimiy jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishga jalb etish ko'zda tutilgan.

Demak, jismoniy tarbiya va sport- o'qishning, mehnatning, bo'sh vaqtning asosiy elementiga aylanishi mumkin. Boshqa so'z bilan aytganda jismoniy tarbiyasiz madaniyat va sporsiz shaxsning garmonik rivojlanishi yo'q va bo'lishi ham mumkin emas. Jismoniy tarbiya va sportning sotsial muhimligi ham aynan mana shundadir.

Sportning sotsial funksiyalari haqida gapirishdan oldin, jismoniy madaniyat va sportning muhimligini ochib berishimiz kerak. Birinchi navbatda sportni rivojlantirish, kundalik amaliyot talablariga asoslanib, jismoniy madaniyat va sportning inson tarbiyasiga ta'sirini oshirish, uning salomatligini mustahkamlash bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan hisoblanadi.

Jismoniy madaniyat va sportning muhimligi deganda nimani tushunishimiz kerak?

Birinchiidan, aholining barcha ijtimoiy-demografik guruhlariga jismoniy tarbiyaning ta'siri.

Ikkinchiidan, jismoniy harakatni boshqarish tizimini tashkil qilish;

Uchinchiidan, jismoniy madaniyat va sportning har bir insonning jismoniy va ma'naviy sog'ligiga ta'siri;

To'rtinchiidan, bo'sh vaqtda dam olishni faol ta'minlash;

Beshinchiidan, jismoniy madaniyat va sportni ommaviy axborot vositalari yordamida tashviqot qilish. Bundan tashqari jismoniy madaniyat va sportning ijtimoiy muhimligi deganda, sport tashkilotlari va muassasalarini, sport ishchilari (rahbarlar, trenerlar, o'qituvchilar, tashkilotchilar, instruktorlar, metodistlar), sportchilar, tomoshabinlar, ishqibozlar va boshqa qatnashuvchilar jismoniy sport faoliyati tushuniladi. Jamiyatda sportning ijtimoiy funksiyalari quyidagilar:

Birinchiidan. Etalon – musobaqa. Musobaqalar yordamida inson imkoniyatlarini aniqlash.

Ikkinchiidan. Evristik – muvoffaqiyatli ijodiy qidiruv faoliyati ko'rinishida namoyon bo'ladi. Yangi uslub va vositalarni izlab topish. Rekord o'rnatish, yangi natijalar qayd etish uchun yangi vositalarni qidirish kerak, mashq qilishning yangi uslublarini izlash.

Uchinchidan. Sog'lomlashturuvchi funksiya inson organizmi faoliyatini yaxshilashda, asosan bolalik va o'smirlilik davrida namoyon bo'ladi, bo'sh vaqt va dam olishni to'g'ri tashkil qilish.

To'rtinchidan. Tarbiyalovchi funksiya. Nafaqat jismoniy barkamollik emas, ahloqiy, estetik, intellektual va mehnat tarbiyasidir. Kurashning og'ir damlarida inson xarakteri, ahloqining ko'p qirralari tekshiriladi, oliyanoblik, rostgo'ylik, raqibiga hurmat, o'z fe'l – atvorini jamiyat etikasi va sport normalariga bo'ysundirish.

Beshinchidan. Iqtisodiy funksiya. Sportni rivojlanishga qo'yilgan mablag'lar aholining sog'ligini yaxshilashga yo'naltiriladi, umumiy ishlar qobiliyatini ko'tarish, inson hayotini uzaytirishi.

Oltinchidan. Estetik funksiya. Insonning jismoniy va ahloqiy sifatlarining uygunligi, inson tanasining go'zalligi, bayramona kayfiyatga mujassam bulgan. Asosan televideniye sportni targ'ib qilishda katta rol o'ynaydi. Muhlislar ham sporsmenlar bilan birgalikda kuyib pishadilar, uzlari ham guyo sport kurashida qatnashayotgandek.

Etinchidan. Sotsial integratsiya va shaxsni ijtimoiylashtirish funksiyasi. Sport insonlarni jamiyat hayotiga jalb qiladi. Sotsial munosabatlarni shakllantiradi. Sport harakati sotsial ommaviy oqimdek emotsial integratsiya faktori ma'nosini oldi, demak insonlar qiziqishlari bo'yicha yaqinlashadilar, gruppalar, klublar tashkil kilish. Sport faoliyati davomida insonlar turli munosabatlarga kirishadilar, do'stlik va raqiblik munosabatlari: sporsmenlar va sport sudyalari o'rtasidagi munosabatlar, sporsmenlar va muhlislar o'rtasidagi va boshqalar. Bu spetsifik o'zaro munosabatlar har doimiy sotsial munosabatlar doirasiga kiritilgan. Mana shu munosabatlar majmuasi sportning shaxsga ta'sirini shakllan turuvchi aniqlovchi negizdir. Sport harakati insonlarni yaqinlashtiradi va ularni tashkilotlarga qiziqishlari bo'yicha birlashtiradi.

Sakkizinchidan. Sportning kommunikativ funksiyasi. Sport xalqaro munosabatlarni rivojlantiradi, bir-birini tushunish va xalqlarning madaniy hamkorligi, yer yuziga tinchlikni mustahkamlash. Hozirgi zamon sport harakati. "Sport hamma uchun" va olimpik harakat hammani jalb qiladigan internatsional harakatga aylandi. Bizning mamlakatimizda sport harakati buyuk hamkorlik goyalari va butun jahon xalqaro do'stligi ruhida shakllangan.

3. Olimpiya o'yinlari va uning ommalashuvi tarixi. Uning kelib chiqishi insoniyatning uzoq tarixiga borib taqaladi. Stixiyali tarzda bo'lsada, ibtidoiy jamiyat odamlari qator hayvonlarni ovlashda zarur bo'lgan xatti-harakatlarni

bajarishni mashq qilishgan, bu faoliyat jarayonini an'ana sifatida keyingi avlodga o'tkazishgan. Qadimgi Misr, Mesopatamiya, Hindiston, Xitoy tarixiga e'tibor beradigan bo'lsak davlatchilik an'analari, uning himoyasi bilan bog'liq bo'lgan harbiy ish o'ziga xos chaqqonlikni, kuchlilikni, epcillikni, botirlikni talab etgan. Bunga o'xshash bir qator omillarni sportni insoniyat faoliyatining maxsus bir shakli sifatida namoyon bo'lishini ta'minladi. Qadimgi Yunon dengiz bo'yidagi yarimorol bo'lgani bois uni himoya qilish asosan dengizda amalga oshirilgan. Shunday ekan harbiy madaniyat, harbiy san'at, epcillik, botirlik, dushman havfi paydo bo'lganida tezkorlik bilan portdagi marralarni egallash ular uchun muhim, strategik vazifa edi. Ba'zi manbalarda sport – portga yugurish ma'nolarida ham kelgan. Shu sababli qadimgi Yunonda sportning bir qator turlari keng rivojlangan bo'lib ular amalda harbiy soha bilan bog'liq edi: yugurish, kurash, disk uloqtirish, nayza uloqtirish. Miloddan avalgi 776 yildan boshlab Peloponnesning Olimp shahrida har to'rt yilda Olimpiada o'yinlari o'tkazilib kelgan. Olimpiya o'yinlarining Olimp xudolari sharafiga o'tkazilishi dastlabki xristianlik aqidalariga to'g'ri kelmay qoldi. Va olimpiya o'yinlari milodiy 396 yilga kelib o'tkazilmay qoldi.

XIX asr insoniyat qo'l mehnatiga asoslangan ishlab chiqarishdan sanoatlashgan ishlab chiqarishga o'tish asri bo'lib qoldi. Boshlangan sanoat to'ntarishi o'z nihoyasiga yetdi. Chetga kapital chiqarish, tovar chiqarish keskin oshdi. Jahon mamlakatlari o'rtasida jamiyat hayotining turli sohalarda aloqalar kuchaydi. Ayni damda bu davr jahonning yetakchi mamlakatlari o'rtasida dunyoni tenglikka asoslanmagan holda bo'lib olinishining yakuniga yetayotgan bir payt edi. Siyosiy-harbiy sohalardagi qarama-qarshiliklarga to'lib toshgan dunyo turli sohalardagi hamkorliklarning yanada kuchayishiga to'sqinlik qilardi. Jahon mamlakatlari o'rtasidagi tinchlikka, adolatga, hamkorlikka, sog'lom muloqot madaniyatga asoslangan vaziyatni yaratish tinchlikparvar kuchlar tomonidan, gumanistlar tomonidan adabiyot sohasida, tasviriy san'at sohasida, musiqa sohasida keng ilgari surila boshladi. Albatta bunday ijobiy mazmundagi xatti-harakatdan sport ham chekkada qolmadi. 1894 yil 23 iyunda Parijda Baron Per de Kuberten tashabbusi bilan Xalqaro Olimpiada qo'mitasi tashkil etildi. Bu o'yinlar jahonning yetakchi antogonistik davlatlarini jang maydonida emas, sport arenalarda kurashishga chaqirishi zarur; bu o'yinlar turli millatlarni irqidan qat'iy nazar do'stlikka, inoqlikka chorchashi zarur edi; bu o'yinlar turli din vakillarini, diniy konfessiyalarni e'tiqoddan qat'iy nazar bag'rikenglik asosida ahillikka yetaklashi zarur edi. Yunon shoiri Demetrius

Vikelas Afina olimpiya o'yinlari tiklanar ekan an'ananing hurmati bois vorisiylik nuqtai nazaridan birinchi olimpiada o'yinlarini o'tkazish joyi sifatida Afina shahrini taklif etadi. Dastlabki olimpiya o'yinlarida 13 davlatdan 300 dan ortiq sportchi ishtirok etdi. O'tgan davr mobaynida globalashuv tufayli bir qator omillar sababli sportning ommamiylashuvini keltirilgan jadval misolida ko'rish mumkin¹.

Tartib raqami	Bo'lib o'tgan joyi	Sanasi	Ishtirokchi davlatlar	Sportchilar soni
I	Afina (Gretsiya)	1896 yil 6-15 aprel	13	311
II	Parij (Fransiya)	1900 yil 20 may - 28 oktabr,	21	1300
III	Sent-Luis (AQSH)	1904 yil 1 iyul - 23 noyabr,	12	600
IV	London (Buyuk Britaniya)	1908 yil 27 aprel - 31 oktabr	22	2000
V	Stokgol'm (Shvetsiya)	1912 yil 5 may - 22 iyul	28	3000
VI	Berlinda (Germaniya)	1916 yil	-	-
VII	Antverpen (Bel'giya)	1920 yil 20- 12 sentabr	29	2600
VIII	Parij (Fransiya)	1924 yil 4 - 27 iyul	44	3000
IX	Amsterdam (Gollandiya)	1928 yil 17 may - 12 avgust	46	3000
X	Los-Anjeles (AQSH)	1932 yil 30 iyul - 14 avgust	37	1400
XI	Berlin (Germaniya)	1936 yil 1-16 avgust	49	4000
XII	Xel'sinki (Finlyandiya)	1940 yil	-	-
XIII	London (Buyuk Britaniya)	1944 yil	-	-
XIV	London (Buyuk Britaniya)	1948 yil 29 iyul - 14 avgust,	59	4000

¹https://ru.wikipedia.org/wiki/Letnie_Olimpiyskie_igri

XV	Xel'sinki (Finlyandiya)	1952 yil 19 iyul - 3 avgust	69	5000
XVI	Mel'burn (Avstraliya)	1956 yil 22 noyabr - 8 dekabr	67	3178
XVII	Rim (Italiya)	1960 yil 25 iyul- 11 avgust	84	5313
XVIII	Tokio (Yaponiya)	1964 yil 10-24 oktabr	93	5140
XIX	Mexiko (Meksika)	1968 yil 12- 27 oktabr	112	5500
XX	Myunxen (Germaniya)	1972 yil 26 avgust - 11 sentabr	121	7000
XXI	Monreal (Kanada)	1976 yil 17 - 1 avgust	121	7121
XXII	Moskva (SSSR)	1980 yil 19 iyul - 3 avgust	81	6000
XXIII	Los-Anjeles (AQSH)	1984 yil 28 iyul - 12 avgust	140	7000
XXIV	Seul (Janubiy Koreya)	1988 yil 17 sentabr - 2 oktabr	160	9141
XXV	Barselona (Ispaniya)	1992 yil 25 iyul - 9 avgust	173	9368
XXVI	Atlanta (AQSH)	1996 yil 19 - 4 avgust	197	10 000
XXVII	Sidney (Avstraliya)	2000yil 16sentabr - 1oktabr	199	11 147
XXVIII	Afina (Gretsiya)	2004 yil 13 - 29 avgusta	201	10 625
XXIX	Pekin (Xitoy)	2008 yil 8-24 avgust	204	11 028
XXX	London (Angliya)	2012 yil 27 iyul - 12 avgust	202	11 056
XXXI	Rio-de- Janeyro	2016 yil 5 avgust-21 avgust	206	11544

Jadvaldan ko'rinib turibdiki jahon urushlari sababli oltinchi, o'n ikkinchi, o'n uchinchi olimpiya o'yinlarini o'tkazish imkoni bo'lmagan. Uchinchi

olimpiya o'yinlari o'tkazilishi belgilangan Sent-Luisga (AQSH) chiptalarning qimmatligi sababli ko'pgina sportchilar kela olmagan. Unda ishtirok etgan 600 ta sportchidan 500 tasi AQSH vakillari edi. XXII olimpiya o'yinlari Moskvada (SSSR) o'tkaziladi. Olimpiada o'tkazilishidan bir yil oldin sovet qo'shinlari SSSR ning geosiyosiy manfaatlarini amalga oshirish uchun qo'shni Afg'onistonga bostirib kirishadi. Bunga javoban G'arbning yetakchi davlatlari AQSH boshchiligidan Moskvada o'tkazilishi belgilangan olimpiya o'yinlariga nisbatan boykot e'lon qilishadi. Sporti yuksak rivojlangan davlatlardan 56 tasi rasmiy komanda sifatida olimpiya o'yinlarida ishtirok etishmadi. O'z navbatida 1984 yil Los-Anjelosda (AQSH) o'tkazilgan XXIII olimpiya o'yinlarida SSSR va uning bir qator sheriklari ishtirok etishmadi.

5. Sport globallashuvining asosiy omillari va uning ijobiy tomonlari.

Yuqorida aytib o'tilgan qator fikrlarni umumlashtirgan holda sportning globallashuvida asos bo'lib xizmat qiladigan omillarni tahlil etadigan bo'lsak ular sirasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

Birinchiidan, sportning globallashuvida bir qator institusional tashkilotlar muhim ahamiyat kasb etadi- XOQ, FIFA, OOQ, OFK, FIDE, UEFA va shu kabilar. Ushbu xalqaro tashkilotlar o'z faoliyatini samarali yo'lga qo'yish maqsadida qator tadbirlar rejasini ishlab chiqishgan va shu asosda o'z faoliyatini yuritishmoqda: turli musobaqalar uyushtirish, sport inshootlari barpo etish, sohaga tegishli qonun-qoidalar ishlab chiqish, soha kadrlarni tayyorlash tizimini yaratish, reklama va sh.k.

Ikkinchiidan, iqtisodiy manfaaatdorlik. Yuqorida sanab o'tilgan xususiyatlaridan tashqari sport bugungi kunda katta daromad manbai ham bo'lib xizmat qiladi. Xalqaro musobaqani o'tkazish uchun zarur bo'lgan sport inshootlari qurish, mukofot fondi, saralash o'yinlari, muhlislar, translyatsiya, sport kiyimlari savdosi, sport jihozlari ishlab chiqish va sh.k. 2014 yilda Braziliyada bo'lib o'tgan futbol bo'yicha jahon chempionatining mukofot jam'armasi 576 million dollarni tashkil etigan.

Uchinchiidan, shuningdek sportning globallashuvida ommaviy axborot vositalarining chiqishlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Sport globallashuvining ijobiy tomonlari sifatida quyidagilarni qayd etish mumkin:

Birinchiidan, sport insonni jismonan yetuklikka, epcillikka undaydi. Insonning ijtimoiy hayotdagi barcha xatti-harakatlarining negizida uning jismoniy holati yotadi. Shunday ekan inson paydo bo'libdiki, epcillikka

intiladi, chaqqonlikka intiladi, jismonan baquvvat bo'lishga intiladi va albatta sport bilan doimiy oshno bo'lishga harakat qiladi.

Ikkinchidan, sport insonni faqatgina jismoniy yetuklikka emas, balki ma'naviy yetuklik sari ham yetaklaydi. Lev Tolstoyning mashhur so'zi bilan aytganda: "Ma'nan sog'lom bo'lish uchun jisman bardam bo'lmoq kerak". Sport nafaqat jismoniy, balki ma'naviy kamolotga yetishishda ham muhim omildir. U irodani toblaydi, aniq maqsad sari intilish, qiyinchiliklarni bardosh va chidam bilan yengishga o'rgatadi. Inson qalbida g'alabaga ishonch, g'urur va iftixor tuyg'ularini tarbiyalaydi. Islom Karimov ta'kidlaganlaridek, sog'lom, bilimli va fidoyi farzandlari bo'lgan xalq, albatta o'zining buyuk kelajagini barpo etadi. Haqiqatdan ham "Hech bir narsa mamlakatni sport kabi tezda dunyoga mashhur qila olmaydi". "Sport odamni mard, matonatli, bardoshli qilib tarbiyalaydi".

Uchinchidan, insonlarning bo'sh vaqtini samarali va mazmunli bo'lishini ta'minlaydi. Axborot texnologiyalari, televideniyeining yuksak rivoji sabab sport tomoshalarini dunyoning istalgan burchagidagi tomoshabinlar to'g'ridan-to'g'ri olib ko'rsatish imkoni mavjud. Bu sabab million-million aholi bu tomoshalardan zavq oladi, sportning qator turlari dunyoning barcha chekkalariga keng tarqaladi, ommalashadi.

Sport globallashuvining salbiy tomonlari. XXI asrda sportning eng dolzarb va muhim falsafiy-ijtimoiy muammolaridan biri bu insonparvarlik muammosidir. Ushbu muammo asosan sportning bellashuvli faoliyati bilan chambarchas bog'likdir. Ma'lumki, ko'pgina ta'limotlarda e'tirof etilishicha har qanday qarama-qarshi bellashuvlar (antiguman) insonparvarlikka zid faoliyatlar hisoblanadi.

1706 yilda Bernarden Sen-Per o'zining "Tarbiya to'g'risida fikrlar" deb nomlagan asarida, "har qanday raqobatli faoliyat yaxshilikdan xabar bermaydi" deb yozadi. Shuningdek, buyuk rus yozuvchisi L.N.Tolstoy ham bunga salbiy munosabat bildirgan. U shunday degan edi: "Shuni hech unutmangki, qarama-qarshilikdan yaxshi natija chiqmaydi, huddiki manmanlikdan oliy himmatlikka erishib bo'lmaganidek". Huddi shunday fikrni jismoniy tarbiya ilmiy usulining asoschilaridan bo'lgan Rossiyalik bir qator olimlar P.F.Lesgaft P.De Kubertenlar ham bolalar olimpiya bellashuvlarini xavfli va noamaliy faoliyat deb baho beradilar. To'g'ri, kuni kecha bo'lib o'tgan ispan La ligasidagi Madridning "Real" klubi azaliy raqibi "Barselona" ustidan erishgan g'alabasi bilan o'z muhlislariga qanchalik quvonch ulashgan bo'lsa, "Barselona"

klubining million-million muhlislariga shuncha miqdorda g'am-g'ussa keltirdi. Lekin sportning insonlarda shakllantirishi zarur bo'lgan raqibni hurmat qilish, mag'lubiyatni tan olish singari ko'nikmalarni unutmaslik darkor. Bu masalaning bir tomoni.

Ikkinchidan, sport turlari cheksiz. Ularni barchasini ham insonni jismoniy va ma'naviy yetuklikka undaydi deb bo'lmaydi. "Qoidasiz jang" singari sport turlari (agar ularni sport deyish mumkin bo'lsa) yoshlarda qanday ahloqiy fazilatlarini shakllantirishi mumkin. Birinchi Prezidentimiz "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" asarida ta'kidlaganidek «ommaviy madaniyat» degan niqob ostida ahloqiy buzuvchi va zo'rovonlik, individualizm, egotsentrizm g'oyalari tarqatish, kerak bo'lsa, shuning hisobidan bo'ylik orttirish, boshqa xalqlarning necha ming yillik an'ana va qadriyatlarini, turmush tarzining ma'naviy negizlariga bepisandlik, ularni qo'porishga qaratilgan xatarli tahdidlar odamni tashvishga solmay qo'ymaydi.

Uchinchidan, sport globallashuvining salbiy tomonlaridan yana biri katta sport musobaqalarini tashkil etish, o'tkazish daromad ketidan quvish bo'lib qolmasligi lozim. Bunday sharoitda sportchilarning salomatligiga yetkaziladigan zarar, tomoshabinlarning vaqti ba'zan unut bo'lib ketadi.

To'rtinchidan, sportchilarning chetga chiqishi. Sporti yuksak rivojlangan, iqtisodiyoti ustun mamlakatlar yosh sportchilarni o'ziga chaqirib olish holatlari kuchaymoqda. Bu yosh sportchilar o'zga mamlakatning hayrog'i ostida maydonga chiqishmoqda. Braziliyada o'tkazilgan JCH ning g'olibi Germaniya terma jamoasining olti nafar a'zosi ajnabiy sportchilar edi. Sochi-2014 olimpiya o'yinlarida Rossiya qo'lga kiritgan medallarning 14% i chet eldan kelgan sportchilar hissasiga to'g'ri kelgan. Rossiya hukumati mamlakat jamoalarida xorijlik sportchilar soni umumiy sportchilar sonining chorak qismidan oshmasligini belgilab beruvchi hujjat qabul qildi¹.

Beshinchidan, sportni mafkuralashtirish. Jahonning yetakchi tashkilotlari, yetakchi mamlakatlari turli sohadagi kelishmovchiliklarini hal etishda sportni vosita qilish, sportning xalqaro maydondagi mavqeidan foydalanishga intilishga urinishmoqda. Albatta bu ijobiy holat. Doimiy raqobatda bo'lgan davlatlar sport maydonlaridagi uchrashuvlar sabab do'st davlatga aylansa, turli xil irq, din, mazhab vakillari ahil, inoq bo'lib ketishsa buning nimasi yomon? Lekin sport jazo vositasi sifatida foydalanish teskari natija berishi ham mumkin. Antverpenda (Bel'giya) o'tkazilishi belgilangan VII olimpiada o'yinlariga

¹ <http://ria.ru/sport/20120417/628733993.html#ixzz3HMuXWaFl>

Olimpiya qo'mitasi qaroriga binoan I jahon urushi sababchisi hisoblangan Germaniya va unga ittifoqdosh bo'lgan mamlakatlarning olimpiada o'yinlarida ishtirok etishi ta'qiqlab qo'yildi. Shuningdek, Sobiq ittifoq vakillarining ham olimpiada uchrashuvlaridagi ishtiroki ma'n etildi. 1952 yil Xel'sinkidagi (Finlyandiya) XV olimpiada o'yinlarida ilk marotaba SSSR (300 ga yaqin sportchilar bilan) ishtirok etdi. Yuqorida aytib o'tilgan 1980 yil Moskvada (SSSR), 1984 yil Los-Anjelosda (AQSH) o'tkazilgan olimpiya o'yinlarini ham bunga misol qilib aytish mumkin. Bolqon, Kavkazdagi, Sharqiy Yevropadagi ba'zi kelishmovchilik tufayli Rossiya-Ukraina, Rossiya-Gruziya, Armaniston-Ozarbayjon, Ispaniya-Gibraltar terma jamoalarining o'zaro guruh bosqichlarida uchrashuvi man etilgan. Lekin negadir oktabr oyining (2014 yil) o'rtalariga belglangan doimiy raqobatda bo'lgan Serbiya-Albaniya uchrashuviga ruxsat berilishi tushunarsiz holat. O'yinning 42 daqiqasiga kelib maydon uzra Buyuk Albaniya banneri, alban millatchilarining bayrog'i ilingan uchuvchisiz boshqariladigan vertolyotning ucha boshlashi serb futbolchilarining jiddiy noroziligiga sabab bo'ldi. Serblar kapitani Stefan Mitrovich aytishiga qaraganda u janjalga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan bu bayroqni shunchaki olib tashlashga harakat qilgan. Natijada katta janjal kelib chiqdi¹. O'yinni davom ettirish imkoni bo'lmadi.

Oltinchidan, teleradio kommunikatsiya tizimlarining cheksiz imkoni bois jahonning qaysiki nuqtasida bo'lmasin barcha yirik musobaqalar to'g'ridan-to'g'ri olib ko'rsatilmoqda. Bu yirik musobaqalar, turnirlar barcha muxlislarni o'ziga og'dirmoqda. Bu jarayonlarni milliy sportning rivojiga ta'sir qilmasdan qolmaydi. Va o'z navbatida milliy chempionatlari endigina rivojlanayotgan mamlakatlar ham e'tibordan, ham o'ziga yarasha moddiy daromaddan ayrilib qolishmoqda.

Yuqorida aytilganidek sportning insonparvarlik mohiyati cheksizdir. U shunday faoliyat turlaridan biriki, undagi har qanday say-harakat ushbu faoliyatning insonlar o'rtasida ommalashuviga sabab bo'ladi. Masalan: O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risidagi (1997) "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risidagi" (2000) qonunlari va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi "(1999 y 27may) hamda boshqa qator qarorlarda yoshlarning ma'naviy hamda jismoniy barkamolligini oshirishda faqat ularning umumiy jismoniy rivojlanishini tarbiyalabgina

¹ <http://www.championat.com/football/article-207575-match-serbija-albanija-sorvan.html>

qolmasdan balki, ularning mehnat, mudofaa ishlari, ayniqsa kasb –hunarga qaratilgan maxsus jismoniy tayorgarliklarini ham amalga oshirish ko'zda tutilgan.

Shuningdek, jismoniy tarbiya va sport sohasidagi mutaxassislarning amaliy ish faoliyatlarini yanada yaxshilash, barcha tarmoqlardagi rahbar xodimlarni tashkil va tashabbuskorlik jabhalaridagi xizmatlarini takomillashtirishni davr taqozo etmoqda. Bunday o'ta muhim va mas'uliyatli vazifalarni amalda maqsaddagidek bajarish uchun esa o'quvchi yoshlar va talabalarning jismoniy tarbiya va sport sohasidagi nazariy bilim hamda amaliy malakalarini yuqori darajada tarbiyalash yo'li bilan kelajak kasb-hunar egalarini yetishtirishga to'g'ri keladi.

Tayanch so'z va iboralar

Globalashuv, sport, sport globallashuvi, olimpiada, FIFA, OFK, UEFA, FIDE, YUNESKO, "Ommaviy madaniyat", milliy kurash, mafkura.

Takrorlash uchun savollar

1. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda sport.
2. Sport – umuminsoniyat madaniyatining elementi sifatida.
3. Sportning jamiyat hayotidagi asosiy vazifalari?
4. Olimpiya o'yinlari va uning ommalashuvi tarixi.
5. Sport globallashuvining salbiy tomonlari.
6. Sport globallashuvining asosiy omillari va uning ijobiy tomonlari.

III-BOB. GLOBALLASHUV SHAROITIDA MILLIY TARAQQIYOT TA'MINNING ASOSIY YO'NALISHLARI

12-§. FAN VA TA'LIMNING GLOBALLASHUVI

Reja

1. Hozirgi zamon fani: imkoniyatlari va funksiyalari.
2. Hozirgi zamon fanining asosiy tamoyili va xususiyatlari.
3. Fan va texnologiya globalashuvining omillari.
4. Globallashuv sharoitida ta'lim tizimida ma'naviy-ma'rifiy jarayonlarning ustivorligini ta'minlashning zarurligi
5. Istiqloq va fan.

1. Hozirgi zamon fani: imkoniyatlari va funksiyalari. Fan insoniyat yashayotgan duyoni angalash, fahmlash jarayonidir. Bu jarayon insoniyatni o'rab turgan atrof-muhimni, qolaversa insoniyatning o'zini turli darajalardagi modellashtirishlarga asoslangan bilim darajasida aks etadi. Bilishning vazifasi borliqdagi predmet va hodisalarning ilki tabiatini, ulardagi aloqadorlik va bog'lanishlarni, ulardagi amal qiladigan qonunlar va qonuniyatlarni, xullas, ularning mohiyatini bilishdan iboratdir. Bilish shu bilan birga predmet va hodisalarni «o'z harakatida», «jonli» holatda, «hayot holatda», o'zgarib va rivojlanib turishda bilishni talab qiladi. Ilmiy bilish natijasida hosil qilingan bilimlarning ma'lum tizimlari fanlarni vujudga keltirdi.

Fan ilmiy bilishning shaklidir. Fan borliq va uning turli ko'rinishlari: tabiat jamiyat, inson, inson tafakkuri to'g'risidagi ilmiy bilish jarayonida yuzaga kelgan bilimlar tizimlaridan iboratdir. U insonning borliqni bilishi, o'rganishi va o'zlashtirishining o'ziga hos nazariy shakli bo'lib, o'zlarida moddiy va ma'naviy omillarni birlashtiruvchi ko'p qirrali ijtimoiy hodisa hisoblanadi.

Fan jamiyat taraqqiyoti moddiy va ma'naviy jihatdan ma'lum yetuklikka erishgan davrda, insoniyat ilmiy bilishi borliq haqida ma'lum miqdordagi bilimlarni hosil qilishi natijasida vujudga keladi. Uning imkoniyatlaridan unumli foydalanish talab etiladi. "Barchamizga ayonki, O'zbekistan boy qazilma va tabiiy resurslarga, qudratli iktisodiy va insoniy salohiyatga ega. Biroq bizning eng katta boyligimiz - bu xalqimizning ulkan intellektual va ma'naviy salohiyatidir. Bu salohiyatni yaratish va yanada ko'paytirishda hurmatli ziyolilarimiz - ilm-fan va texnika namoyandalari, birinchi navbatda

qadri va hurmatli akademiklarimiz, madaniyat, adabiyot va san'at, sport sohalarining vakillari butun vujudini berib, fidokorona mehnat qilayotganlarini biz yaxshi bilamiz va yuksak qadrlaymiz¹.

Biz yashayotgan dunyo keyingi yillarda nihoyatda o'zgarib ketdi. Xususan, Vatanimiz tarixida XX asrning 90-yillarida olamshumul voqealar yuz berdi: mamlakatimiz mustaqillikka erishib, o'ziga hos taraqqiyot yo'lini tanladi, rivojlanishning o'zbek modelini amalga oshirishga kirishdi, ijtimoiy hayotning turli sohalarida jahon hamjamiyati bilan keng hamkorlikni yo'lga qo'ydi. Xalqimizning huquqiy demokratik jamiyat barpo etish zarurati dunyoqarashni tubdan o'zgartirish, eski aqidalardan tamoman voz kechish, istiqloq mafkurasini shakllantirish, xalq ma'naviyatini yuksaltirishni taqazo etmoqda. Bunda ijtimoiy fanlar rivoji ulkan ahamiyat kasb etadi. Islom Karimov to'g'ri ta'kidlaganlari kabi: «Ko'p asrlik tariximiz shuni ko'rsatadiki, inson dunyoqarashi shakllanishida ma'rifatning, xususan, ijtimoiy fanlarning o'rnini beqiyos. Bu jamiyatshunoslik bo'ladimi, tarix, falsafa, siyosatshunoslik bo'ladimi, psixologiya yoki iqtisod bo'ladimi-ularning barchasi odamning intellektual komolotga erishuvida katta ta'sir kuchiga ega».

Ma'lumki, Markaziy Osiyo xalqlarining falsafiy dunyoqarashlari-ularning xilma-xilligi va sermazmunligi bilan ajralib turadi. Ular ko'p qirrali milliy madaniyat, axloq-odob, imon-e'tiqod va boshqa olijanob fazilatlarimizda mujassamlashgan. Shunday ekan, yangi davr falsafasida milliy madaniyatimiz, qadriyatimiz, milliy merosimizdan, ayniqsa, islom ta'limotidan, undagi qimmatbaho falsafiy fikrlardan unumli foydalanmog'imiz lozim.

O'z paytida Islom Karimov qayd qilganidek, davr xalqimiz dunyoqarashini milliy istiqloq isloh qilishni qat'iy talab qilmoqda. Yangicha falsafamizni istiqloq g'oyalari bilan uyg'unlashtirib rivojlantirishimiz darkor. Yangi davr falsafasi-hayotdan ajralib qolgan mavhum nazariy masalalar bilan chegaralanib qolmasdan, balki mustaqil davlatimizni mustahkamlashga oid bo'lgan masalalar bilan shug'ullanishi kerak.

Mustaqillik sharoitida xalqimizning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'naviy hayotida ro'y berayotgan tub o'zgarishlar va ularning falsafiy jihatlarini, milliy va millatlararo munosabatlar, ijtimoiy ziddiyatlarning kelib chiqishi va ularni bartaraf etish shakllari, inson huquq va erkinliklarini ta'minlash, inson va insoniyat taqdirining mushtarakligi, hozirgi davrda butun

¹ Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent "O'zbekiston"-2016- 13-b.

insoniyatga daxldor bo'lgan umumbashariy muammolar va hokozalar shular jumlasidandir.

Fan nima? Fan ilmiy bilimlar tizimidir. Fan o'zining ilmiy tushuncha uslublari va metodologiyasiga ega bo'lgan, olamni bilish va o'zlashtirishning mahsus usuli, ilmiy bilimlar tizimidir. Shuningdek, fan ijtimoiy ong shakllaridan biridir.

Fanning mohiyatini inson va jamiyat hayotidagi o'rnini bilishda uning quyidagi xususiyatlarini e'tiborga olish muhimdir:

- inson faoliyatning o'ziga hos turi;
- aholida ijtimoiy institut sifatida fan ilmiy bilimlar yig'indisi;
- insoniyatning ma'naviy salohiyati, olam, tabiat, jamiyat va inson to'g'risidagi tasavvur va qarashlarni shakllantiradi;
- olamni o'zlashtirish vositasi hisoblanadi.

Fan o'z oldiga ilmiy bilimlar yaratishni maqsad qilib qo'yadi. Ilmiy faoliyat moddiy ne'matlar ishlab chiqarish faoliyatidan keskin farq qiladi. Kishilar mehnat faoliyati siyosat, san'at, din va hokazo sohalaridagi faoliyatlari ham bilim orttiradi. Lekin ilmiy bilimlar izchilligi, tizimlilik va haqiqiyliigi bilan ajralib turadi.

Olamni ilmiy bilish olamga yangicha munosabat, yangicha qarashni taqozo etadi. U olamni diniy, badiiy, axloqiy, siyosiy bilishdan keskin farq qiladi. Voqelikka ilmiy munosabat har qanday aqidaparastlik va fanatizmni (taqdiri azalga ishonishni) istisno etadi. Ilmiy bilish avval boshdanoq falsafiy dunyoqarash bilan uzviy bog'liq ravishda vujudga keldi. Falsafa ilm-fan xulosalariga tayanib, olamning yangicha manzarasini yaratish imkoniga ega bo'ldi.

Ilmiy bilishning darajalari haqida gapirganda shuni aytish mumkin, u emperik (tajribaga asoslanuvchi) va nazariy shakllarga bo'linadi. Emperik bilim asosan tajriba va eksperimentlar jarayonida olinadigan va haqiqiyliigi tajribalar jarayonida sinab qurilgan bilimlardir. Bilishning nazariy darajasida ilmiy qarashlar, bilimlar qat'i tizimga solinadi. Ilmiy tushunchalar qat'iy mezon asosida o'rganilayotgan fanning ko'pqirrali tomonlarini chuqurroq va to'laroq bilishga imkon beradi.

Ilmiy bilimlar hosil qilish usullariga qarab, fanlar eksperimental va fundamental fanlarga ajratildi. Shuningdek, ular o'rganish obektiga qarab, tabiiy, ijtimoiy gumanitar va texnik fanlarga bo'linadi. Tadqiqot predmetini chuqurroq o'rganish jarayonida fanning yangi soha va tarmoqlari vujudga

keladi. Masalan, tabiatshunoslik fanlarining botanika, zoologiya, kimyo, matematika, fizika kabi sohaları; ijtimoiy-gumanitar fanlarning tarix, qadimshunoslik (arxeologiya), etnografiya, sotsiologiya, siyosatshunoslik, falsafa, etika, pedagogika, psixologiya, madaniyatshunoslik kabi sohaları vujudga keldi. Ularning har biri yana qator tarmoqlardan iboratdir. Masalan, tarix fanining qadimgi dunyo tarixi, oʻrta asrlari tarixi, yangi zamon tarixi; falsafaning ontologiya, gnoseologiya, aksiologiya, falsafa tarixi kabi.

Insoniyatning keyingi ikki yuz yillik tarixi davomida tabiatni oʻzlashtirish, inson mohiyatini bilish, jamiyatni takomillashtirish borasida erishgan yutuqlari fan taraqqiyoti bilan bevosita bogʻliqlidir. Inson tabiiy va ijtimoiy muhitga yaxshiroq moslashish, tabiatning stixiyali kuchlari oldida oʻjiz va chorasiz boʻlib qolmaslik uchun fanga murojat qiladi.

Fanni keng qamrovli hodisa sifatida qarab chiqar ekanmiz uning quyidagi funksiyalarini sanab oʻtishimiz mumkin.

1. Madaniyatning alohida bir sohasi, tarmogʻi hisoblanadi;
2. Boliqni, atrof-muhitni oʻzlashtirish (ilmiy-nazariy) uslubi;
3. Tabiiy va ijtimoiy sharoitlarga moslashuvchanlik funksiyasi;
4. Sotsiumning atrof muhitga optik xulq-atvorini shakllantiruvchi funksiyasi;
5. Fanning global tizimlarini kuzatuvchisi va ijtimoiy, tabiiy jarayonlarining nazoratchisi sifatidagi monitor funksiyasi;
6. Atrof-muhit haqidagi olgan bilim va axborot beruvchi informativ funksiyasi.

Boshqa sohalar singari, mahsus oʻziga hos institut sifatida fanining oʻziga spetsifik belgilari mavjud.

1. Universallik – inson tomonidan kashf etilgan unversumga hos boʻlgan bilimlarni berish.

2. Fagmentarlik – borliq yaxlit holda emas, balki uning alohida bir parametrlari yoki fragmentlari tahlil etiladi. Fan falsafa singari borliqni alohida umum kategoriya sifatida qabul qila olmaydi. Fanning har bir sohasi olamning alohida bir sohasining proyeksiyasi boʻlib shu sohani yoritishicha asoslangan boʻladi.

3. Umumahamiyatga moliklik – fan erishgan yutuqlar barchaga barobar ahamiyatga ega boʻladi. Masalan: filologiya; fiziologiya va sh.k.

4. Egasizlik (obezlichennost) – kashfiyotchining individual xususiyatlari, millati, kelib chiqishi ilmiy bilishi jarayonining natijasida ahamiyatsiz.

5. Tizimlilik (sistematchinost) – fan turli xulosalar, qismlarning oddiy mexanik yig'indisi emas. U o'ziga hos tuzilishga ega.

6. Nomukammallik (nezavershennost) – ilmiy bilish cheksiz darajada o'sayotgan bo'lsada u hech qachon mutloq, tugal harakatga erisha olmaydi.

7. Vorisiylik – erishilgan har bir ilmiy yutuq, yangilik, kashfiyot mavjud baza zaminida vujudga keladi.

8. Tanqidiylik – fan har doim o'zi erishgan chin bilimlarga, natijalarga shubha bilan qarashga, qayta tekshirishga tayyor bo'lishi.

9. Odob-ahloq doirasidan chekinish. Fan tomonidan chuqur va keng tahlil ostiga olingan jarayonlarni xususida fikr bildirish, ochiq-oydin yoritish ma'lum bir etnosning milliy-ma'naviy qadriyatlariga, ba'zan muayyan bir dinning normalariga zid kelishi mumkin.

10. Ratsionalistik.

11. Hissiyot (chustvennost).

12. Ishonchlilik.

Olimning vazifasi – tabiat hodisalarini boshqaruvchi qonunlarni ochib berish, uning nazariy modelini yaratish, erishilgan fakt va xulosalarni umumlashtirishdan iborat. Tabiat fanlari tabiatdagi barcha narsa va hodisalarning mohiyati va ularda mavjud bo'ladigan o'zgarishlarni o'rganadi. Bu fanlar ma'lumotlarini o'rganishi bilan bizning tabiat haqidagi tasavvurlarimiz kengayib boradi.

Fanda haqiqat muammosini hal etishda aql va hissiyotning ahamiyati beqiyosdir. Amaliyotda tajriba yo'li bilan o'z ahamiyatini, chinligini isbot etgan olgan bilimlarga haqiqat hisoblanadi. Tabiat haqidagi bilimlar asosga ega bo'lishi lozim – bu qoida fanning sosiy tamoyili hisoblanadi. Bu degani har alohida olingan xulosa, fikr empirik ravishda ko'zatilishi lozim degani emas, balki tajriba qabul etilayotgan har bir nazariya uchun asosiy argument, asos bo'lishini anglatadi.

Fanning xulosalari natijalari, ahamiyati har bir inson uchun umumiydir. Jamiyatshunoslik fanlari esa odatda ma'lum guruh a'zolarining manfaatlari, ularning sub'yektiv qarashlari bilan ham ish ko'radi.

2. Hozirgi zamon fanining asosiy tamoyili va xususiyatlari. XXI asr boshlariga kelib, uning har tomonlama rivojlanishi fanning ijtimoiy ong tizimidagi o'rnini va ahamiyatini yangicha tushunishni taqazo etdi. Hozirgi zamon faniga hos bo'lgan quyidagi xususiyatlarni ko'rsatish mumkin:

- fan o'zining o'rganish sohalarini kengaytirib, mikroolam, makroolam muammolarini o'rganish bilan shug'ullana boshladi. Mikro va makroolamni o'rganish uchun fan an'anaviy usullardan tashqari, yangi usullardan, mahsus asboblardan, matematik modellashtirish usulidan foydalana boshladi;

- ilmiy bilishning sub'yektiv jihatlariga alohida e'tibor berila boshlandi. Bu esa mutahassisning o'rganayotgan sohasini chuqurroq va kengroq; bilishini taqazo etdi;

- falsafa va fanda olamdagi narsa xodisa va jarayonlarning qonuniyat va tartib asosida ro'y berishi to'g'risidagi qarashlardan farqli ravishda rivojlanish tartib va tartibsizlik birligidan iborat ekani e'tirof qilina boshlandi;

- globallashuv tufayli fan taraqqiyoti milliy doiradan chiqib, tobora baynalminal harakter kasb eta boshladi. Uning yutuqlari butun insoniyatning mulki sifatida anglana boshladi;

- fanning insonparvarlik va taraqqiyparvarlik mohiyati to'laroq namoyon bo'ldi;

- fanning rivoji olimlarning qadriyatlarni e'zozlash va baholashda yangicha mezonlarni ishlab chiqishni taqozo etdi. Bu olimlarning biror-bir fan sohasini yakka xukumronlik bilan egallab olmasligi, ilmiy yangiliklarni boshqalardan yashirmasligi, ko'chirmachilik qilmasligi, o'z qadr-qimmatini toptamasligi kabilarda nomoyon bo'ldi;

- jahon miqyosida ilmiy salohiyatni, ilm-fan yutuqlarini boshqa mamlakatlarga chiqarish moddiy ne'matlar chiqarishdan ko'ra foydaliroq; bo'lib qoldi. Bu esa jahon miqyosida informatsion jamiyatni, insoniyatning bir butun hamjamiyati shakllanishining muhim omillaridan biri bo'lib qoldi;

- tabiiy va ijtimoiy fanlarning o'zaro uzviy bog'liqligi, ta'siri kuchaydi. Tabiatshunoslik olimlarning ijtimoiy fan yutuqlaridan foydalanishi inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlarni insoniylashtirshda, tabiatni muhofaza etishda muhim kasb etdi;

- fan umumbashariy va umuminsoniy muammolarni hal etish bilan jiddiy shug'ullana boshladi;

- fan insoniyat hayotidagi qator muammolarni etibgina qolmay, uning hayotiga jiddiy tahdid soladigan muammolarni keltirib chiqaradi. Olimning o'z ilmiy faoliyati uchun javobgarligini oshirish, insoniyat hayoti, tinchligi uchun tahdid soladigan ilmiy izlanishlarni ta'qiqlash, nazorat hozirgi zamon fanining muhim muammolaridan biridir.

3. Fan va texnologiya globalashuvining omillari. Fan va texnologiya globalashuvining asosi bo'lib texnologik tamoyillar va ilmiy bilimning maqsad, yo'nalishlari, vazifalarining umumiyligi xizmat qiladi. Fan va texnologiyalar globalashuvining dastlabki tarixiy shakli bo'lib tashqi tijorat bitimlari emas, balki olimlar o'rtasidagi fan sohasidagi erishilgan natijalar, kashfiyotlar, ilmiy g'oyalarni almashlash, boyitish, bir-biriga yetkazish ehtiyoji xizmat qildi. XX asrga kelib fan va texnika sohasidagi yutuqlarni o'zaro ayirboshlash tijorat, davlatlararo dasturlarni, loyihalarni amalga oshirish negizida yuz bera boshladi. Xalqaro maydondagi ilmiy sohadagi hamkorlik ayniqsa so'nggi o'n yilliklarda keskin kuchaydi: yangi texnologiyalar, patentlar, kashfiyotlar va sh.k. Fan va texnologiya sohasidagi globalashuvning tijoratda namoyon bo'lishi bir tomondan TMK lar faoliyati bilan bog'liq. TMK albatta zaminning barcha hududini tezroq o'zlashtirish, fan noma'lum bo'lgan elementlar xususiyatlarini o'zlashtirish, undan ishlab chiqarishda keng foydalanish, har bir topilma joylashgan hududlardagi muammolarni yangi texnologiyalar asosida hal etilishidan manfaatdordir.

Hozirgi paytda insoniyatga xavf solib turgan umumbashariy muammolar butun dunyo, barcha davlatlar va halqlarning ishtirokisiz yechish mumkin bo'lmagan muammolarga aylanib ulgurdi. Unga qarshi kurashishda insoniyat o'zining barcha salohiyatini birlashtirishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Bunday muammolarga quyidagilar kiradi;

- termoyadro urushi xavfini oldini olish va qurollanishi bartaraf etish;
- jahon iqtisodiyoti va ijtimoiy hayotini o'sishi uchun qulay shart-sharoit yaratish;
- tabiiy boyliklardan oqilona va kompleks yondashgan holda foydalanish;
- insoniyatning baxti-saodati yo'lida fan-texnika yutuqlaridan foydalanish uchun halqaro faollikni yanada faollashtirish; (yeng xavfli kasalliklarga qarshi kurash, kosmosni o'zlashtirish;
- dunyo okeani boyliklari va imkoniyatlaridan unumliroq foydalanish; ozon qatlamning yo'qolishi xavfini oldini olish; va x.k.);
- insoniyat va uning kelajagi to'g'risida o'zaro hamkorlikda jiddiy tadqiqotlar olib borish; kishi organizimning juda tez sur'atlar bilan o'zgarayotgan sun'iy va tabiiy muxitga moslashish jarayonini ilmiy taxlil qilish.

Insoniyat oldida ana shunday muammolarning ko'ndalang turib qolishning o'zidayoq kishilik sivilizatsiyasi o'ta murakkab, o'ta qaltis bir jarayonni boshidan kechirayotganligidan dalolat beradi.

Fan vatexnologiyalarning faol globallashuvida AQSH tomonidan olib borilayotgan o'ziga xos siyosat muhim ahamiyat kasb etadi. O'z navbatida shunday siyosatni AQSH ga qarshi boshqa davlatlar ham amalga oshirishga urinishmoqda. Bu jarayon 1950-1960 yillarda G'arbiy Yevropa (Angliya, Fransiya, Germaniya, Italiya) mamlakatlari faol yo'lga qo'yildi. Bugungi kunda bunday aloqalar, Janubiy Sharqiy Osiyo mamlakatlari bilan, Lotin Amerikasi mamlakatlari ham izchil yo'lga qo'yilgan. Ilmiy sohadagi hamkorlik Afrika davlatlari bilan amalga oshirilmagan. Hozirda chet elda AQSH ning ximiya sanoatida, farmatsevtika sohasida, kompyuter ishlab chiqarish sohasida, ayniqsa avtomobilsozlikka ixtisoslashgan kompaniyalariga tegishli ilmiy markazlari o'z faoliyatini olib boradi. Bunday ilmiy markazlarining asosiy qismi Xitoy, Singapur, Tayvan, Hindistonga to'g'ri keladi.

YEI mamlakatlarida asosiy e'tibor Yevropa Ittifoqi mamlakatlarining siyosiy-iqtisodiy qudratini oshirishga qaratilgan yagona umumevropa fan-texnologiyalarini shakllantirish siyosatiga qaratmoqda. Ikkinchi tomondan YEI ga yangidan qo'shilayotgan Sharqiy Yevropa davlatalarining fan-texnologiyalari sohasidagi imkoniyatlarini integratsiyalashga qaratmoqda.

Bugungi kunda ilm-fan, texnika sohasidagi intensiv rivojlanishi yo'lga o'tmasin bu rivojlanishda milliy omillar ustunlik qiladi: Barcha TMK o'z kapitalining katta qismini (80-90 %) o'z milliy davlat chegarasida ushlab turmoqda, ishlab chiqarayotgan mahsulotlarining katta qismini o'z davlatida ishlab chiqaradi. Shuni aytish mumkinki, hozircha ilm-fan, texnologiyalar sohasidagi globallashuv o'z ko'lamiga ko'ra ishlab chiqarish sohasidagi globallashuvga nisbatan ancha ortda qolmoqda.

Ilm-fan va texnologiyalar sohasidagi globallashuv oliy ta'lim sohasidagi globallashuv bilan uzviy bog'lanib ketgan. Ikkinchi jahon urushi arafasida AQSH da R&D (Research and Development) – ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalari tizimi paydo bo'ldi. Bu tizim yangi texnologiyalar, yangi mahsulotlarni yaratishga qaratilgan bilimlarni, ixtirolarni yaratishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. Mamlakat sanoatining yuksalib borishi bilan bog'liq ehtiyojlarni qondirish dolzarb vazifaga aylangan edi. AQSH universitetlari sanoat korxonalarini uchun katta miqdorda zamon talablariga javob beradigan kadrlar tayyorlashga o'tdi. Ayni damda R&D tizimi ilmiy xodimlar

bilan ta'minlash siyosati amalga oshirila boshlandi: mamlakatning qator yetakchi universitetlarida ilmiy xodimlar tayyorlovchi tizim ishga tushirildi; yetakchi ilmiy xodimlar Yevropaning ilg'or universitetlariga yuborildi; Yevropaning bir qator olimlari AQSH ning ilmiy markazlariga ishga taklif etildi. Birinchi jahon urushi paytida va undan keyingi dastlabki yillarda AQSH ga Yevropaning yetakchi ilg'or ilmiy xodimlarini o'ziga yig'ib olishga qulay imkoniyat paydo bo'ldi. Yevropaning yetakchi olimlari, ilmiy markazlari AQSH ga ko'chib ketishdi. Shunday vaziyat Ikkinchi jahon urushi arafasida, urush mobaynida, urushdan keyingi dastlabki yillarda yana takrorlandi. Bu esa AQSH ga ilmiy texnologik jihatdan G'arbiy Yevropani quvib yetishga imkon yaratdi. TMK lar xorijiy mamlakatlarda o'z ilmiy markazlarini tashkil etishdi. Bu ilmiy laboratoriyalar mazkur hududdagi mahalliy ilmiy markazlar hamkorlikni yo'lga qo'yishdi, birgalikda faoliyat yurgizishdi. Albatta, bu hamkorlik fan va ta'limning milliy tizimiga ta'sir qilmasdan qolmadi. Fan va ta'limdagi ixtirolarning, kashfiyotlarning chetga chiqib ketishi avj oldi. Mahalliy ilmiy markazlar Xorijiy korporatsiyalar tomonidan moliyalashtirilgan ilmiy- tadqiqot dasturlarida ishtirok etish imkoniga ega bo'lishdi. Shunday ekan yetakchi rivojlangan mamlakatlar R&D tizimini moliyalashtirishga, shu orqali xalqaro maydonda mustahkam mavqega ega bo'lishga alohida e'tibor qaratishmoqda. 2012 yilgi ma'lumotlarga qaraganda AQSH R&D tizimini moliyalashtirishga 385,6 mld dollar sarflagan holda (bu YAIM nisbatan 2,7 %) birinchi o'rinda turibdi. Xitoy R&D tizimini moliyalashtirishga 153,7 mld dollar sarflagan holda (bu YAIM nisbatan 1,4 %) ikkinchi o'rinda turibdi. Yaponiya R&D tizimini moliyalashtirishga 144,1 mld dollar sarflagan holda (bu YAIM nisbatan 3,3 %) uchinchi o'rinda turibdi. MDH davlatlaridan Rossiya R&D tizimini moliyalashtirishga 23,1 mld doliar sarflagan holda (bu YAIM nisbatan 1 %) o'ninchi o'rinda turibdi¹.

Yuqorida qayd etib o'tganimizdek ilm-fan va texnologiyalar sohasidagi globallashuv oliy ta'lim sohasidagi globallashuv bilan uzviy bog'liqlikda rivojlandi. Keyingi o'n yilliklarda oliy ta'limning rivojlanishi o'ziga xos tendensiyalarga ega bo'ldi. Birinchidan, oliy ta'limning masshtabi yanada kengayib, u ommaviy xarakter kasb etmoqda. Universitetlar va unda ta'lim oluvchi talabalar soni keskin oshib bormoqda. Bugungi kunga kelib oliy o'quv yurtlarining soni 14 mingdan oshib, ularda salkam 100 million talaba ta'lim olmoqda. Taqqoslash uchun aytadigan bo'lsak 1960 yilda talabalar soni 13

¹ <https://ru.wikipedia.org/wiki/NIOKR>

million atrofida edi. Sanoati yuksak darajada taraqqiy etgan mamlakatlarda o'rtta maktab bitiruvchilarining 60 % i Oliy ta'limda o'qish uchun kelishmoqda. Bu ko'rsatkich AQSH va Kanadada 80 % ga yetadi¹. Ikkinchidan, oliy ta'limni institusional shaklda, darajada va mazmunda diversifikatsiyalash yo'lga qo'yildi. Uchinchidan, oliy ta'limni tugatuvchi mutaxassislardan faollik, yuqori professional kasbiy mahorat, shuningdek chet tillarni bilishi, yangi informatsion texnologiyalarni bilishi talab etilmoqda.

Ayni damda oliy ta'lim baynalminallashuv keskin kuchaymoqda. Oliy toifali kadrlarni tayyorlashda xalqaro hamkorlik keng quloch yoydi. Fikrimizni quyidagi ma'lumotlarga qaratamiz: 1980 yilda dunyo bo'yicha tayyor chet elda ta'lim olgan talabalar 920 mingtani tashkil egan bo'lsa, 1995 yilda 1,5 millionni, 2000 yilga kelib esa ularning soni 2 millionga yetdi.

Taxlillar shuni ko'rsatadiki, fan-texnika, ta'lim sohasidagi globallashuvning keng quloch yoyishi bir tomondan obektiv omillar asosida ro'y berayotganini kuzatish mumkin. YUNESKO tomonidan oliy ta'limni baynalminallashtirishga yo'naltirilgan yagona, maqsadli siyosatni amalga oshirmoqda. Ichki va xalqaro ta'limni birdek tartibga soluvchi huquqiy normativlar ishlab chiqilmoqda, bo'lg'usi kadrlarning bilimiga, ko'nikmalariga, malakalariga qo'yiladigan talablarining umumiyligi bilan bog'liq standartlar tizimi ishlab chiqilmoqda va joriy etilmoqda. Bu jihatlarni Sorbon deklaratsiyasida (1998 yil), Yevropa mamlakatlari ta'lim vazirlarining Bolon qo'shma deklaratsiyasi (1999 yil), "Kelajakni shakllantirish" konferensiyasi (2001 yil), Praga bayonoti (kommyunike) va boshqa hujjatlarni misol qilib keltirish mumkin. Albatta ushbu hujjatlar turli mamlakatlarda ta'limning umumiyligi, unga belgilangan talablarning yagonaligini, o'quv dasturlarining, qolaversa ta'limni olib borishda til umumiyligini ta'minlashga xizmat qilmoqda. Yirik oliy ta'lim ta'lim muassasalari samarali faoliyatining muhim ko'rsatkichlaridan biri unda ta'lim olayotgan xorijlik talabalar miqdori hisoblanadi. Xorijiy talabalarni o'qitish AQSH, Kanada, Buyukbritaniya, Fransiya, Germaniya, Yaponiya universitetlari faoliyatining ustuvor yo'nalishiga aylanib xalqaro maydonda ular o'rtasida kuchli raqobat muhiti shakllangan. Bu sohada raqobat bir qator sabablarga ega: birinchidan, oliy toifali malakali kadrlarni tayyorlash ayni damda katta daromad manba hisoblanadi. Masalan AQSH yiliga bunday bitimlardan 12 milliard dollar oladi. Ikkinchidan, xorijiy talabalarni katta miqdorda jalb etish universitetlardan

¹ <https://ru.wikipedia.org/wiki/NIOKR>

xalqaro mehnat bozori talablaridan kelib chiqqan holda kadrlar tayyorlash sifatini muttasil oshirib borishni talab etadi. Uchinchidan, boshqa mamlakatlarga yuqori malakali kadrlar yetkazib berish o'z navbatida mazkur mamlakatning ma'lum bir geosiyosiy va iqtisodiy manfaatlarini amalga oshirishini ta'min etadi.

4. Globallashuv sharoitida ta'lim tizimida ma'naviy-ma'rifiy jarayonlarning ustivorligini ta'minlashning zarurligi.

Umumjahon sivilizatsiyasi global hodisalarning o'zaro ta'siri bizning ma'naviyatimiz, dunyoqarashimiz tafakkur tarzimizga muayyan darajada ta'sir o'tkazayotganligi ham sir emas. Darhaqiqat, bugungi dunyo bir xalq, mamlakat o'z hududi doirasidagina yashash bilan cheklamaydi. Aksincha, dunyo xalqlari manfaatlarining mushtaraqligi ularni birlashtirmokda. Har qanday xususiy muammo barcha uchun birday tegishlilik mohiyatini kasb etmokda. Global mohiyatga ega bo'layotgan g'oyat zalvorli masalalar ko'paymokda. U insoniyat tarixiga va takdiriga, buguni va istiqboliga jiddiy ta'sir etmokda. Ayni ana shu muammolar tabiatini, mohiyatini qanchalik chuqur tushunsak, ma'naviy og'riq, ruhiy bezovtalik, shunchalik katta taxdid solayotganini yana ham chuqurroq his etamiz. Ana shunday tig'iz va shiddatli bir sharoitda insonning eng yaqin va ishonchli ximoyachisi madaniyat va ma'naviyatga ehtiyoj yana ham ko'prok ortadi.

Binobarin, ma'naviyat nafaqat inson kamoloti, avlod barkamolligining asosi shu bilan birga, ijtimoiy taraqqiyotning kafolatidir. Ana shu ma'noda ma'naviyatning mohiyatini teran anglash, uning bugungi kundagi umumbashariy jarayonlar bilan aloqadorlikda shakllanish tendensiyasini shaxs, millat ma'naviyatiga ta'sir etuvchi omillarni o'zaro uyg'unlikda karab chikish, undan ta'lim tizimida keng foydalanish g'oyat dolzarb vazifaga aylanmokda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning «Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida»gi Qarorida ta'kidlanganidek, «Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, qabul qilinayotgan qonun hujjatlari, davlat dasturlarining mazmun va mohiyatini aholining keng qatlamlariga yetkazishga qaratilgan targ'ibot ishlarini tizimli va izchil amalga oshirish, bu borada keng jamoatchilik, olimlar, mutaxassislar, ijodkor ziyolilardan iborat "Ma'rifat" targ'ibotchilar jamiyatini shakllantirish hamda uning faoliyatini doimiy asosda yo'lga qo'yish..., jamiyatimizning barqaror rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan ichki tahdidlar – el-yurt taqdiriga loqaydlik,

mahalliychilik, urug'-aymoqchilik, oilaviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasiga e'tiborsizlik kabi holatlarga barham berishga qaratilgan kompleks tadbirlar tizimini ishlab chiqish va amalga oshirish.... ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot ishlari samaradorligining ilmiy asoslangan monitoringini ta'minlashga qaratilgan sotsiologik tadqiqotlar o'tkazishni muntazam yo'lga qo'yish»¹ hamda tadqiqot ishlarini olib borish davr ehtiyoji talabidir. Madomiki shunday ekan, ma'naviyat sohasidagi ishlarimizning axvolini o'zimizga anik tasavvur qilish uchun, ma'naviyat, milliy ma'naviyat tushunchalarining mohiyatini teran anglashimiz, ma'naviyatni inson, millat, jamiyat taraqqiyoti va istiqbolidagi o'rni aniq-ravshan tasavvur qila olishimiz g'oyat muhimdir.

Jamiyat taraqqiyoti va inson kamoloti jarayonida ma'naviyatning barcha qirralari o'zaro bog'liq holda shakllanadi va rivojlanadi. Axloq va odob inson hayotga qadam qo'yayotgan dastlabki davrdanoq shakllanib, uning kamolotiga zamin yaratuvchi ichki ruhiy omil bo'ladi. Inson tarbiya ko'rib, muayyan odob va ahloqiy meyorlarni, bilim va fanni egallaydi, mehnat qilib tajriba orttiradi. Ahloq, odob, bilim, iste'dod zaminida e'tiqod, ixlos, vijdon va iymon shakllanadi. Ma'naviyatning bu jihatlari birgalikda insonda ijtimoiy hayotning mohiyati va maqsadlari haqidagi muayyan dunyoqarash, mafkuraviy e'tiqodlar tizimi shakllanishiga olib keladi. Ma'naviyatning mohiyatini ifodalovchi bu ruhiy holatlardan birortasini mutloqlashtirish yoki bo'rttirish mumkin emas. Ahloq va odob bo'lmasa, bilim, ilm, ijtimoiy foydali faoliyat ham bo'lmaydi. Bir so'z bilan aytganda, ahloq va odob ma'naviyatning mazmunini tashkil etadi. «Manaviyat—deb ta'kidlagan edi I.A.Karimov, — insonga ona suti bilan, ota namunasi va ajdodlar o'giti bilan singadi»².

Ma'naviyatning ham o'z o'lchovi bor. U ham bo'lsa, odandagi insoniylik fazilatllari darajasi bilan belgilanadi. U past darajadagi insoniylikdan, o'rta va yuqori darajadagi insoniylikka qarab rivojlanadi. Xristian ilohiyotchisi A. Avgustin ta'rifiga ko'ra inson farishtalar va hayvonlar oraligidagi jonzotdir. Demak, inson bolalikda ko'prok ijtimoiy jismoniy ehtiyojlari bilan yashasa, keksayib yoshi ulg'ayganda, ruhiy-ma'naviy ehtiyojlar ezgulik og'ushida ko'proq bo'ladi. Bu esa inson ruhiyatining botiniy hamda zoxiriy jixatlari bilan ma'naviyat qutbiga surilishini anglatadi, ma'naviy ehtiyojlarni qondirish uchun uning faolligi ortadi. Sevimli adibimiz O'.Xoshimovning chiroyli tashbexi bilan

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida. PQ-3160. 2017 yil 28 iyul

² "Milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori 25-bet; 2006, "O'zbekiston ovozi" 27 avgust 2007.

aytganda, "Odamzodni hayvondan ajratib turadigan chegara bor. Bu chegara nomi ma'naviyat deb ataladi!"¹ Ayni paytda, ma'naviyat iloxiylik bilan boyib insonning hayotiy ehtiyojiga aylanadi. Mana shu hususiyatlarning barchasini umumlashtirgan holda inson va jamiyat hayotida ma'naviyatning o'rnini quyidagicha izohlash mumkin:

a) ma'naviyat ta'lim va tarbiyaning bosh mezonini va maqsadi vazifasini o'taydi;

b) ma'naviyatning poklovchi hususiyati mavjud bo'lib, u jamiyatni va har bir insonni poklab, ezgulikka yetaklaydi;

v) ma'naviyat kishilar jamoasini birlashtiruvchi umumiy makon, asos vazifasini bajaradi;

r) ma'naviyat akkumlyativlik funksiyasini ya'ni jamlovchilik vazifasini bajaradi, insoniyat salohiyati natijalarini, tajribalarini to'playdi va qadrlaydi, mujassamlashtiradi;

d) ma'naviyat baholovchi xususiyatga ega bo'lib, u insoniyat amaliy faoliyatidagi fe'l-atvoridagi hamda fazilatlaridagi o'ziga xos o'zgarishlarni o'z zamonasi ruhiga mos ravishda tahlil etadi va baholaydi.

Ushbu vazifalar mushtaraqligini anglash va uni ro'yobga chiqarish milliy ma'naviyatimiz takomilining bosh omili hisoblanadi.

Har qanday jamiyatning taraqqiyot omili uning rivojlanishi darajasini belgilab beruvchi mezonlaridan biri ma'naviyatdir. Inson mohiyatiga ko'ra o'zining ma'naviyati bilan tabiatning eng oliy mavjudoti degan ulug' nomga musharrafdir. Sharq mutafakkiri Umar Hayyom ta'biricha: "To'garak jahonni uzuk deb bilsak, shaksiz uning ko'zi javhari ham biz". Insonning yuksak ma'naviyat soxibi bo'lish jarayoni uning butun umri davomida sodir bo'ladi. Uning yoshi ulg'aygani sayin olam haqiqati haqidagi bilimlari kengayib, o'zligini anglab ma'naviyati yuksalib, barkamol shaxs sifatida shakllanib, rivojlanib boraveradi. Yuz yil yashasangda yuz yil o'rgangin, - degan maqol bejiz aytilmagan.

Sahrodagi sayyox har doim chanqoqligini qondirish uchun bulok suvini izlaganidek, inson ham necha-necha azoblar, hayot yo'lida uchragan xilma-xil to'siqlar va kiyinchiliklarni asta-sekin yengib o'zligini izlaydi.

Mana shu nuqtai nazardan olib qaraganda, sobiq sho'rolar davrida shakllangan va hayotimizga zo'rlab kiritilgan soxta qadriyatlarni, qayta baholab ma'naviy inqirozning atributlarini jamiyatimiz hamda millatimiz ijtimoiy-

¹ Hoshimov O'. Dafnar xoshiyasidagi bitiklar. - T.: Sharq, 2006, 8-bet.

siyosiy hayotiga ma'naviyati va madaniyatiga qanchalik salbiy ta'sir ko'rsatganligini yoshlar ongiga xavola qilish zarurati yuzaga keladi. Shuningdek, milliy ma'naviyatni qashshoqlashishiga bevosta ta'sir o'tkazgan hodisalardan yana biri bu milliy siyosatning buzilishi edi. Ya'ni shaklan milliy mazmunan sotsialistik, aqidaparastlik, milliy madaniyat va ma'naviy rivojining temir panjarasi edi. Bu holat o'z navbatida milliy huquqni amalda poymol qilinishi tashqi siyosatda sinfiy qadriyatlarni birinchi o'ringa qo'yish, umuminsoniy qadriyatlarni esa ikkinchi o'ringa qo'yish barcha fan-texnika yutuqlariga faqat moddiy manfaatdorlik nuqtai-nazaridangina yondoshishga uni ma'naviy jihatlarini e'tiborga olmaslikka olib keldi.

Ushbu illatlar va shunga o'xshash buzilishlar jamiyatimiz taraqqiyotiga, milliy ma'naviyatimiz rivojiga juda katta salbiy ta'sir o'tkazadi. Bu hol sobiq sho'rolar hukumati tarkibida bo'lgan barcha respublika xalqlari, hususan, bizning respublikamiz xalqi uchun ham odatiy bir holga aylanib qolgan edi. Bir so'z bilan aytganda, ma'naviyatga e'tibor shu darajada susaydiki, yosh avlodni umr bo'yi tinimsiz tarbiyalab kelayotgan o'qituvchi mehnatiga nisbatan biror yil yaxshiroq hosil ko'targan dexkonning mehnatini ko'proq qadrladik. Natijada, jamiyatimiz a'zolarini ma'naviy jihatdan tarbiyalash sohasida mehnat qilayotgan madaniyat xodimlari, shuningdek, deyarli barcha ziyoililar va boshqa ma'naviy madaniyatni yaratuvchi kishilar mehnatini baholashda ijtimoiy adolat buzildi.

Ma'naviyatimiz mezonlarini buzilishi va qadrsizlanishining asosiy sabablaridan biri millatni milliy o'zligini anglashidan mahrum etishga urinishi bo'ldi.

O'zlikni anglash milliy ma'naviyatni takomillashtirishning ham asosidir. Binobarin, ma'naviy qashshoq mamlakat hech qachon buyuk bo'lolmaydi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish, yuqori iqtisodiy ko'rsatkichlarga ega bo'lish, rivojlangan mamlakatga aylanish uchun yuksak ma'naviyat suv va havodek zarurdir.

Albatta, mustaqillikning tayanchini har tomonlama yetuk, komil, vatanparvar insonlar tashkil qiladi. Demak, insonlarning o'zlari jamiyatning madaniy-ma'naviy boyliklaridan to'liq maqsadga muvofiq foydalanib, o'zlarining ma'naviy o'sishlarini ta'minlab borishlari zarur.

Istiqlol tufayli xalqimizning ma'naviy madaniyati qanchalik tez yuksalib borsa, u jahon sivilizatsiyasiga shuncha ko'p hissa qo'shib, dunyodagi ulug' millatlardan biriga aylanib boradi, buning uchun xalqimizda barcha ijtimoiy-

iqtisodiy, intellektual imkoniyatlari mavjud. Mustaqillikning asosiy qadriyatlaridan biri ham, uning ijtimoiy, ma'naviy mohiyati bevosita omma fikrini uyg'otishda xalqning o'tmishi, buguni va kelajagi xususida qayg'urish hissini kuchaytirishdan iborat. Aks holda, tub islohotlarning umri qisqa, taqdiri esa fojia bilan tugashi mumkin. - deb yozgan edi faylasuf-olim Jondor Tulenov. Katta-kichikligidan qat'iy nazar, har bir millat o'z taraqqiyoti jarayonida ma'naviyatga ehtiyoj sezgan va sezadi. Bu tarixiy zaruratdir. Ma'naviyatning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati tarixiy burilish davrlarida ayniqsa beqiyos bo'ladi».¹

Darxaqiqat, biz tarixning ayni burilish davrida yashamoqdamiz. Ana shu burilish nuqtasining o'ziyoq tafakkurimizni, dunyoqarashimizni o'zgartirishni taqazo etmoqda.

Zotan, ma'naviyat aslo mavhum narsa emas. Ahli bashar ma'naviyatsiz bo'lmaydi, chunki, aslida insonning o'zi madaniyat va ma'naviyatning birligidir, holos. Unda tabiiy fiziologik ehtiyojlar bor va ma'naviy dunyo bor. Har bir shaxs, har bir ijtimoiy guruh yoki toifa, har bir elat va mintaqa xalqlarining o'z ma'naviyati bor. Bu ma'naviy dunyo zamon va makonda o'zgarib goh kamolot sari yuksalib, goh qashshoqlashib turadi.

Ammo, sanab o'tilganlar ichida bugungi kun nuqtai nazaridan tadqiq va tahlil qilish uchun eng muayyan va yahliti shaxs ma'naviyati va millat ma'naviyatidir. Chunki, ijtimoiy guruh va toifalar millatning uzviy tarkibiga kiradi, millat ma'naviyatini yaxshi tasavvur qilmay turib, undagi turli toifalarning ahloqiy hislatlarini ajratib olishga urinish ishonchli xulosalar berishi mumkin emas.

Shaxs ma'naviyatini o'rganish ikki yo'nalishda bo'lishi mumkin:

Birinchisi, umumiy jixatlarni tasnif va tadbik etish, muayyan shaxs ma'naviyatini o'rganish.

Ikkinchi yo'nalishda ko'prok o'tmish va bugunning umummilliy ahamiyatga ega bo'lgan buyuk shaxslar ma'naviy dunyosini o'rganish ibratli bo'lib, aslida ham millat ma'naviyatini o'rganish demakdir. Shaxs ma'naviyatining umumiy jixatlarini o'rganish yo'nalishi ko'p jihatdan axloqshunoslik (etika) mavzulari bilan tutashib ketadi va unga eng yaqin soha hisoblanadi. Bundan tashqari, har bir shaxs, «o'zini xalqning bir zarrasi deb

¹ Imomnazarov M. Milliy ma'naviyatimizning takomil bosqichlari. - T.: 1996 yil, 6-bet.

bilgandagina u xaqda o'ylab, mehnat qilib yashagandagina ma'naviyat bilan tutashadi».¹

Boshqacha qilib aytganda, shaxs ma'naviyati voqelikda millat ma'naviyatidan ayri, undan tashqarida bo'lmaydi. Ma'naviyat hodisasi tadqiqini uning eng muayyan, yaxlit va mustaqil ko'rinishi, millat ma'naviyati tadqiqidan boshlashni maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz. Milliy ma'naviyat avvalo tarixiy hodisadir. U bir kunda, bir yilda balki hatto bir asrda ham mukammal shakllanmaydi. Markaziy Osiyo xalqlari tarixining ibtidosi asrlar qa'riga singib ketgan bo'lib, ularning necha ming yillik ma'naviy kamolot zinapoyalarini bosib o'tganligini aniqlash bugun uchun murakkab muammodir.

Ammo, milliy ma'naviyat tarixi bilan siyosiy, ijtimoiy, hatto madaniy hayot tarixi orasida muhim farqli jihatlar mavjud. Avvalo, milliy ma'naviyat tarixi millatning ma'naviy takomil jarayoni bilan bog'liq. Unda ba'zan asrlar kunlarga va aksincha kunlar asrlarga teng bo'lishi mumkin. Milliy ma'naviyat kamoloti zamonda, ya'ni millatning butun tarixi davomida yuz beradi, ammo u ba'zan shiddat bilan yuksalib borsa, ba'zan esa ma'lum darajada tanazzulga yuz tutishi ham mumkin. Bir narsa ayonki, tarix hodisalari, shaxslar, voqealar o'tib ketadi, moddiy madaniyat unsurlari yemiriladi, ma'naviyat esa yuksalib boyib tobora kengroq ko'lam va teranroq mazmun kasb etib boraveradi, millatning aksariyati ma'naviy tanazzulga yuz tutgan fojiiy sharoitlarda ham milliy ma'naviyat yo'qolmaydi, ko'lam va mazmunda o'z yetishgan kamolot bosqichini yo'qotmaydi.

Chunki, buning uchun ajdodlar yaratgan barcha ma'naviy merosni maxf etish insonlar xotirasini tamomila o'chirib tashlash va hatto irsiy xotirani ham barbod qilish kerak. Demak, milliy ma'naviyat hodisasi ham tarixiy (o'tmish tarix jarayonida yuz berib borgan) ham bugungi kunda mavjudligini saqlab turgan ko'p o'lchamli voqe'likdir. Ma'lumki, zamonlardan zamonlarga, ajdodlardan ajdodlarga moddiy, madaniy, ma'rifiy, ma'naviy boyliklar, ajoyib an'analar meros bo'lib o'tadi. Shu bilan birga sho'rolar davrida bizlarga o'zini qadriga yeta bilmaslik, tarixiy gumroxlik, ruhiy tushkunlik, milliy parokandalik, ma'naviy qoniqmaslik, ona-tili bo'yicha chala savodlik, singari ijtimoiy illatlar asorat bo'lib qoldiki, bu illatlar o'z tabiatiga ko'ra uzoq yashovchan bo'ladi.

Biz o'tmishni qoralash fikridan yiroqmiz, ammo moddiy va ma'naviy hayotimizga dahldor haqiqatni aytmay ilojimiz yo'q. Chunki, xalqning ruhiy

¹ Karimov I.A. .O'zbekiston: milliy istiqlof, iqtisod, siyosat, matkura. – T.: O'zbekiston, 1993 yil, 78-bet.

tushkunligi, ongining zaharlanishi eng og'ir ma'naviy darddir. Bular millat uchun o'ta havfli, buning davosi esa shu xalq ruhiga, ruhan, ongiga aqlan ta'sir ko'rsatish, ma'naviy omillar ila malham qo'yishdir. Zotan tafakkurga fikr orqali, qalbg-aqalb orqali yo'l topiladi. Ko'ngil-ko'ngildan suv ichar deb bekorga aytilmaydi.

Xalqimiz milliy mustaqillikka erishish arafasida ma'naviyat bobida shunday tanazzulga kelib qolgan ediki, iymon-ye'tiqod, andisha, or-nomus, sharmi-xayo, oriyat, diyonat, taqvo, ajdodlar ruhini yodlash va qadrlash, insof kabi tushunchalarni unita boshlagan edik. Ruhiy va diniy tarbiya, milliy ong, milliy g'urur, milliy mafkura, tarixiy Vatan, Vatan tuyg'usi, Vatan sog'inch, Vatan qayg'usi singari iboralarni tilga olish mumkin emas edi. Sho'rolar zamonida O'zbekistonga nisbatan mamlakat iborasi biror marta ham ishlatilmagan. O'sha yillari g'oyat mashhur bo'lgan «mening adresim na ko'cha va na uy, mening adresim Sovet Ittifoqidir» degan havoii qo'shiq zamirida juda makkaron-a-siyosat mujassam bo'lib, u kishilarni bewatanlikka targ'ib qilar, ona yurt, milliy zamin, tushunchalarini ongu-yuraqlardan badarg'a etishga qaratilgan edi.

Ana shunday rejali va pinhonii siyosat natijasida tilimiz xonadon tiliga, xalqimiz aholiga aylanib borardi.

Vaholanki til davlat miqyosida qo'llanilsagina milliy til bo'lib koladi, ravnaq topadi. Binobarin, har bir so'z, har bir ibora qanday ma'no anglatilishini bilsakkina, uning mohiyatiga yeta olamiz.

Tilda millatning butun tarixi, uning barcha ma'naviy boyluk va xususiyatlari aks etadi. Til rivojlansa, millat ravnaq topadi. O'z navbatida til qadim-qadimdan milliy madaniyatning oynasi bo'lib kelgan. Shuning uchun ham xalqning ma'naviy ruhini mustahkamlash va rivojlantirish uchun hammadan oldin jamiyat madaniyatini yuksaltirish zarur, faqat madaniyatli jamiyatgina barcha fuqarolar uchun erkin faoliyat muhitini yarata oladi. Shunday ekan, ma'naviyatni yaxshilamoq, boyitmoq va rivojlantirmoq uchun jamiyatning barcha ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-yestetik jabhalarini bir-biri bilan chambarchas bog'lash zarur.

Jamiyat ma'naviyatini yuksaltirish va mustahkamlashga mehnat va mablag'ni ayamalik kerak. Vatan va jahon madaniyatining, adabiyot va san'atining yutuqlari har bir oilaga yetib borishini yo'lga qo'yish, mana shu maqsadda oilani moddiy ta'minlanganlik darajasini oshirish bilan bir qatorda, har bir oila a'zosini ma'anaviy kamoloti uchun ham qulay sharoit yaratish

zarur. Ijodiy xodimlarning ma'naviy kuchiga erkinlik berishga alohida e'tibor berishi. ularga har tomonlama imkon yaratish kabi masalalar bizning respublikamizda yechilgan. Prezidentimiz tashabbusi bilan ma'naviyat va ma'rifatni rivojlantirishga qaratilgan 1996 yil 9 sentabrdagi va boshqa Qarorlar katta ahamiyatga molik.

Chunki, mustaqillikni ustuni olim, ijodkor ziyoli va malakali ishbilamonlar ekanligini unutmaslik kerak. Darhaqiqat huddi shu ziyolilar ma'naviyatning beqiyos mo'jizasini kishilar ongi va shuuriga singdiradi, ma'naviyat makon etgan har qanday yurak faqat ezgulikka intilib yashaydi. Mustaqillikning ma'naviy qadriyati, tarixiy qiymati huddi ana shu mezon bilan o'Ichansagina, yanada boyib boradi. Ma'naviy kamolot sur'atlarini tezlashtirish uchun ta'lim va tarbiyani to'g'ri yo'lga qo'yish muhimdir. Mirzo Bedil aytganidek: «Agar me'mor dastlabki g'ishtni to'g'ri qo'ymasa, devor yulduzga yetsa ham qiyshiq bo'lib qolaveradi», Bedilning bu fikri bugungi kunda ta'lim-tarbiya ishlarida ahamiyati katta. Binobarin O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida» gi Qonunni hamda «Kadrlar tayyorlash milliy Dasturi» ni qabul qilganligi va uni hayotga tadbiiq etilayotgani yosh avlod tarbiyasi va istiqboli uchun g'oyat katta ahamiyat kasb etmoqda. I.A.Karimov 2007 yil 12 fevralda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006 yilda mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2007 yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan yig'ilishdagi ma'ruzasida fahr bilan Milliy Dastur xosilasi sifatida keyingi o'n yilda O'MKXT tizimida 600 mingdan ziyod o'rta-maxsus bilimga, hunarga ega bo'lgan, ma'naviy kamol topgan yosh mutaxassislar tayyorlanganligini¹ ta'kidlab o'tdi.

Bugun mana shu dasturni butun dunyo e'tirof etayotganini, ushbu ta'lim muassasalarini bitirgan ming-minglab yoshlarimiz nafaqat yurtimizda, balki xorijiy mamlakatlarda ham muvaffaqiyatli ishlayotganini mamnuniyat bilan qayd etdi.

Erishilgan natijalar zamirida ta'lim tizimidagi islohotlarni jamiyatimiz kishilari, ayniqsa yoshlarimizning ma'naviyati-ma'rifatini yuksaltirish borasida olib borilayotgan ishlar bilan o'zaro uyg'unlik turganligi hech kimga sir emas.

5. Istiqbol va fan. O'zbekistonda milliy mustaqillik sharoitida mamlakatning ilmiy-intelektual salohiyatini yanada kuchaytirishga alohida e'tibor berila

¹Bekmurodov A.Sh., G'ofurov U.V. O'zbekistonda iqtisodiyotni liberallashtirish va modernizatsiyalash: natijalar va ustuvor yo'nalishlar. O'quv qo'llanma. –T.: –2007. 12-bet.

boshlandi. I.A.Karimovning «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» asarida hamda nutq va ma'ruzalarida mamlakatimiz ilm-fanini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari belgilab berildi.

Ayniqsa, jahon ilm-fani rivojiga katta xissa qo'shgan ulug' ajdodlarimizning ilmiy me'rosini chuqur o'rganish va ularning an'analarini rivojlantirish maqsadida Xorazmda Ma'mun akademiasining qaytadan tiklanishi madaniy hayotimizdagi ulkan voqea bo'ldi. Shuningdek, ilmiy-tadqiqot muassasalarining tarkibiy to'zilishida muhim o'zgarishlar qilindi, zamon talablariga javob beradigan yangi Oliy O'quv yurtlari, ilmiy-tadqiqot institutlari, Oliy Attestatsiya Komissiyasi tashqil etildi. Talabalarni oliy o'quv yurtlariga qabul qilishning ilg'or usullari, yangi pedagogik texnologiyalar joriy etildi.

O'zbekistonda ilm-fan kishilarining malakasi, bilimni oshirishga ko'maklashadigan jamg'armalar tashkil etildi. Fan rivojining asoslari yaratildi, ilm-fan xodimlarini ijtimoiy himoyalashga e'tibor kuchaytirildi.

O'zbekiston faniga kirib kelgan muhim yangiliklar. Uning tarkibiy to'zilishidagi o'zgarishlardan tashqari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- fanning kompyuterlashtirilishida;
- jahonning global muammolarini hal etishda o'zbek olimlarining faol ishtirok etayotganida;
- ilmiy tadqiqotlarda eng zamonaviy texnika, asbob-uskunalardan va ilg'or metodlardan foydalanilayotganida;
- olimlarimizning jahon tillarini o'rganishga rag'barlantirilishida;
- jahonning taraqqiy etgan mamlakatlari oliy o'quv yurtlarida mutahassis-kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yilganligida;
- ta'lim-tarbiya tizimining tubdan isloh qilinayotganida.

O'zbekistonda demokratik jarayonlarni yanada chuqurlashtirish, iqtisodiy, siyosiy, mdaniy va ma'rifiy vazifalarni hal etishda fanning asosiy vazifalari I.A.Karimovning asarlarida batafsil tavsiflab berildi. Fanning siyosat, madaniyat bilan bog'liqligi, demokratik jamiyatda uning tayanch qadriyat ekanligi har tomonlama asoslandi.

Fanning rivoji o'z oldiga qo'ygan muammolarni hal etishda ilmiy metodlardan oqilona foydalanishni taqazo etadi. Hozirgi davrda amaliy va nazariy tadqiqotlar o'tkazishda quyidagi usullardan keng foydalanilmoqda: ko'zatis, tavsiflash, formallashtirish, modellashtirish va boshqalar.

XX asr fan-texnika inqilobi insoniyatning madaniy va ma'naviy hayotida tub o'zgarishlarni vujudga keltirdi. Insonning tabiat ta'siri uchun javobgarlik hissini yanada oshiradi. Fan inson hayotining istisnosiz barcha sohalariga kirib keldi, inson va jamiyat borligining muhim tarkibiy qismiga, bevosita ishlab chiqaruvchi kuchga aylandi. Shu boisdan hozirgi zamon fanini «katta fn» deb atash rasm bo'ldi.

Keyingi yuz yil davomida ilmiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi olimlar soni beqiyos darajada.

Agar XX asr boshlarida butun yer yuzidagi olimlar yuz ming atrofida bo'lgan bo'lsa, hozirgi paytda ularning soni besh milliondan ortib ketdi.

Fan va texnika sohasidagi inqilobiy o'zgarishlarni olimlar sonining oshib borishidagina emas, balki ilmiy kashfiyotlar salmog'i va sifatining muttasil ortayotganida ham ko'rish mumkin. Bugun insoniyat tarixida qilingan ilmiy kashfiyotlarni yuz foiz deb oladigan bo'lsak, uning to'qson foizi XX asrga to'g'ri keldi. Ilmiy informatsiyalar har o'n-o'n besh yilda ikki martaga ortib boryapti. O'zbekistonda keyingi yillarda fanning turli sohalarida faoliyat ko'rsatayotgan olimlar, ilmiy hodimlar salmog'i ortdi.

Hozirgi davrda O'zbekiston fani rivojlanishi oldida turgan asosiy yo'nalishlar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 17 fevralda «Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-2789-sonli qaroriga asosan Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi O'zbekistonning eng yangi tarixi bo'yicha Jamoatchilik kengashi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi O'zbekistonning eng yangi tarixi bo'yicha Jamoatchilik kengashiga aylantirildi. Kengashning asosiy vazifalar sifatida quyidagilar ilgari surildi:

O'zbekistonning eng yangi tarixini zamonaviy nazariy-metodologik, fanlararo yondashuvlarga, tarixiylik va xolislik tamoyillariga asoslangan holda tizimli o'rganishni tashkil etish, O'zbekistonning eng yangi tarixi bo'yicha dolzarb muammolarni ishlab chiqish, shuningdek, buyuk tarixiy-madaniy merosga ega bo'lgan va jahon sivilizatsiyasining rivojiga ulkan hissa qo'shgan o'zbek xalqining tarixiy o'tmishi va bugungi kuniga baho berishda bir yoqlama yondashuvlarga, aqidaparastlikka yo'l qo'ymaslik ishlarini muvofiqlashtirish;

demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini shakllantirishning «o'zbek modeli» mohiyati va mazmunini, jamiyatda barqarorlikni, millatlararo

totuvlik va diniy bag'rikenglikni saqlash bo'yicha keng ko'lamli ishlarni, hozirgi dunyoda O'zbekistonning roli va o'rnini chuqur o'rganish va yaqqol ochib berish;

ilmiy, o'quv, o'quv-metodik adabiyotlarning yangi avlodini tayyorlash va chop etish ishlarini muvofiqlashtirish, ularda O'zbekistonning eng yangi tarixini umumjahon va mintaqaviy jarayonlar bilan, shuningdek, hozirgi O'zbekiston hududida shakllangan xalqlar va davlatlar sivilizatsiyasining tarixiy-madaniy merosi bilan uzviy bog'liq holda ko'rib chiqishni ta'minlash;

O'zbekistonning eng yangi tarixi bo'yicha ilmiy, o'quv va o'quv-metodik adabiyotlar, o'quv dasturlari monitoringini olib borish, ushbu sohada ilmiy-tadqiqot, o'quv-metodik ishlarning sifatini yaxshilash bo'yicha takliflarni ishlab chiqish va joriy etish va shu kabilar. Albatta mamlakatimizda tarix ilmi rivojiga, milliy ma'naviy merosning tiklanishida, milliy o'zlikni anglashning yuksalishida bu vazifalarning yechimi muhim ahamiyat kasb etadi.

2017 yil 17 fevralda "Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori e'lon qilindi. Unga asosan O'zbekiston Fanlar akademiyasining asosiy vazifa va faoliyati yo'nalishlari etib quyidagilar belgilandi: tabiiy, texnik va ijtimoiy-gumanitar fanlar sohasida fundamental, amaliy va innovatsion ilmiy tadqiqotlar olib borish; ilm-fanning ta'lim va ishlab chiqarish bilan integratsiyasi mexanizmlarini mustahkamlash va rivojlantirish; iqtisodiyot tarmoqlari va respublika hududlarining ehtiyojlarini hisobga olgan holda, fan va texnologiyalarni rivojlantirishning, davlat ilmiy-texnik dasturlarining ustuvor yo'nalishlarini shakllantirishga doir takliflar ishlab chiqish; jahon va respublika ilm-fan yutuqlarini o'rganish va tahlil qilish, ulardan O'zbekiston Respublikasi manfaatlarini yo'lida foydalanish borasida tavsiyalar ishlab chiqish; mamlakatimiz ilm-fani, ilmiy salohiyati, fan va texnika yutuqlarini ommalashtirish va targ'ib qilish; xorijiy mamlakatlarning fanlar akademiyalari, ilmiy-tadqiqot tashkilotlari va jamg'armalari bilan xalqaro hamkorlik qilish, xalqaro ilmiy forum va konferensiyalar tashkil etishda va o'tkazishda ishtirok etish; Fanlar akademiyasi muassasalarining ilmiy salohiyati va moddiy-texnik bazasidan foydalangan holda, yuqori malakali kadrlar tayyorlashda ishtirok etish.

Tayanch soʻz va iboralar

Globallashuv, fan, integratsiya, inovatsiya, madaniy globallashuv, mafkuraviy immunitet, maʼnaviy-mafkuraviy jarayonlarning globallashuvi, YUNESKO, “Ommaviy madaniyat”

Takrorlash uchun savollar

1. Hozirgi zamon fani qanday imkoniyatlar va funksiyalarga ega?
2. Hozirgi zamon fani qanday tamoyil va xususiyatlarga ega?
3. Fan va texnologiya globalashuvining omillari nimalardan iborat?
4. Fan va taʼlim globalashuvining ijobiy va salbiy tomonlari nimada?
5. Istiqloq davrida Oʻzbekiston fanida qanday oʻzgarishlar yuz berdi?
6. Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va motiyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisidagi qarorning mohiyati?

13-§. Mavzu: GLOBALLASHUV JARAYONLARIDA MILLAT VA MILLIY OʻZLIKNI ANGLASH MASALALARI

Reja

1. Globallashuv jarayonlarida millat.
2. Globallashuv jarayonlarida milliy oʻzlikni anglash masalalari
3. Milliy ruhiy tiklanish - mustaqillikni mustahkamlash va taraqqiyotining zaruriy sharti
4. Ommaviy madaniyat va milliy oʻzlikni anglash zaruriyatining kuchayishi.

1. **Globallashuv jarayonlarida millat.** Globallashuv sharoitida millat, milliy oʻzlikni anglash, milliy gʻoya masalalari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Globallashuvning ijtimoiy hayot turli jarayonlarida keskin namoyon boʻlishi millat hayotini, uning qadriyatlarini, mentalitetini chetlab oʻtgani yoʻq. Shunday ekan millat ijtimoiy hodisa sifatida qanday shakllandi, qay darajada rivojlanib keldi, uning yuksalib kelishini taʼmin etgan omillar globallashuv sharoitida qay darajada ahamiyat kasb etishi kabi masalalar muhim ahamiyatga ega. Oʻtgan davrda eʼlon qilingan ilmiy adabiyotlarda ular qaysi nuqtai nazardan yoritilganidan qatʼiy nazar bu boradagi tadqiqotlarni tahlil qilmasdan turib, millat hayotining buguni xususida, uning barhayotligini taʼmin etuvchi omillar, vazifalar haqida fikr yuritish qiyin.

Masalaga shunday yondashadigan bo'lsak, avvalo "millat" tushunchasining paydo bo'lishi va u to'g'risidagi munozaralarni tahlil qilish lozim bo'ladi. Millat tushunchasi ustidagi baxs-munozaralar uzoq davom etib kelgan. Aytish joizki, milliy masalaga bag'ishlangan ko'pgina jiddiy ilmiy izlanishlar bo'ldi, ularning ahamiyatini inkor etib bo'lmaydi. Eng muhimi ularda jamiyat hayotida millatning, milliy qadriyatlarining, an'analarning tutgan roli, milliy jarayonlar, millatlararo munosabatlarni tartibga solish bilan bog'liq tavsiyalar, vazifalar ilgari surildi. Lekin ular bir qator sabablar bois ikkinchi darajalik ahamiyat kasb etib "soya" da qolib ketdi: bipolyar tizim o'rtasidagi mafkuraviy kurash; "sovuq urush"; sotsialistik lagerning qulashi; ittifoqning parchalanishidan keyinga vaziyat; terrorizm va sh.k. tahlillarga murojat qiladigan bo'lsak, aksariyat hollarda millat shakllanishini pul, tovar, kapital munosabatlarning vujudga kelishi bilan bog'lashadi va milliy qarama-qarshilik sababchisi sinflar o'rtasidagi qarama-qarshilik deb ko'rsatadi.

Hukmron mafkuraning bosimi bois ma'lum bir "nazariyalar" oxirgi mutloq haqiqat shaklida qabul qilindi va tarixiy taraqqiyotning barcha bosqichlari uchun javob beradigan universal ta'limot deb qaraldi. Natijada nazariya bilan amaliyot o'rtasidagi masofa uzoqlashib bordi. Milliy taraqqiyotida sodir bo'layotgan o'zgarishlarni, milliy omil rolining ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy jarayonlarga ko'rsatayotgan ta'siri kuchaygan sari millatlarni zo'ravonlik yo'li yaqinlashtirish konsepsiyalari ilgari surildi. Amalda esa millatlar o'rtasiga adovat tushdi. 80-yillarning oxiri va 90-yillarning boshlarida sobiq sovet totalitarizmi va jahon sotsializmi tizimining qulashida milliy omillarning qudratli ta'siri hal qiluvchi rol o'ynadi. Jahondagi ko'pgina rivojlangan mamlakatlarda milliy munosabatlardagi qarama-qarshiliklarning kuchayish jarayoni sodir bo'ldi. Bu o'z navbatida tadqiqodchilarning "millat" tushunchasi va u bilan bog'liq bo'lgan masalalarni o'rganishga qiziqishlarini kuchaytirib yubordi.

O'zbek olimlaridan Q.Xonazarov millatning birlik bo'lib uyushishini ma'lum tarixiy davrlar bilan bog'laydi. Ana shunga muvotiq u "X-XX asrlar oralig'ida xalqimiz 3 marta millat bo'lib uyushib, XX asrning oxirgi o'n yilligidan boshlab to'rtinchi marta eng yuksak darajadagi hozirgi zamon millati sifatida yuzaga chiqayotgani har birimizni mag'rurlantirmasdan lloji yo'q"¹-deb yozadi. Bunday turli fikrlarning ilgari surilayotganligi sababi "millat" tushunchasini ta'riflash qanchalik murakkab ekanligi, uning birlk bo'lishi

¹ Xonazarov Q. Millat nazariyasiga tanqidiy nazar // Milliy tiklanish, 1998 yil. 16-iyun.

uchun shart bo'lgan mezonlarni belgilash ham shu darajadagi eng murakkab masala ekanligi bilan hisoblanadi. Agar biz tabiatdagi, jamiyatdagi bir qator jarayonlarga jumladan milliy jarayonlarga ham obektiv jarayon sifatida qararasak, bu jarayonning ortga qaytishi ehtimoldan juda uzoq. YA'ni millatning qayta-qayta shakllanishi mantiqsiz hodisani eslatadi.

Millat jamiyatda real omil sifatida mavjud. Insonning ichki ma'naviy olami mavjudligi qanchalik haqiqat bo'lsa, millatning realligi uchun hech qanday shubha yo'q. Insonlar millatgacha bo'lgan turli uyushma bosqichlarini bosib o'tgan ekan (to'da, urug', qabila, elat va sh.k.) nega endi millatga kelib to'xtashi kerak. Masalan professor S.Otamurotov shunday yozadi: "Insonlar ma'lum millatlarning vakillari hisoblanadi. Ular orqali millat yaxlitligi vujudga keladi. Millati bo'lmagan inson o'zligini yo'qotgan manqurtdir. Millatning o'lishi muqarrar ravishda insoniyat hayotining tugashini bildiradi. Millat mavjudligini inkor etish esa, tabiat va insoniyat go'zalligini his qilib bilmasligini belgisidir"¹. Millat mavjudligini inkor etish (yo'q qilish emas) uning o'rniga undan yuqori turadigan yangi ijtimoiy guruhning kelishini anglatmaydimi? Mondializm tarafdorlari ta'limoti bilan albatta hisoblashish kerak. Millatni shakllantiruvchi omillar mavjud ekan (davlat, iqtisodiy birlik, til, madaniyat, mentalitet) ular globallashuv sharoitida ham ta'sir kuchini saqlab qoladi.

Agar millat shakllanishi to'g'risidagi ko'pgina tadqiqotlarda millatlarning dunyoga kelishiga asosiy sabab faqat ishlab chiqarish omili ekan degan hulosa kelib chiqadi. To'g'ri, ishlab chiqarish taraqqiyoti va ijtimoiy iqtisodiy omillarining rolini barcha rivojlanishning, shu jumladan millat asosiy negizi ekanligini inkor qilish mumkin emas. Chunki ularsiz taraqqiyotning, shu jumladan milliy taraqqiyot darajalarini ham tasavvur qilib bo'lmaydi. Shunday ekan millatning shakllanishida tabiiy, siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy omillarni uyg'unlikda, diterministik xarakterda ekanini nazardan chetda qoldirmaslik lozim. Qaysi omil birlamchi-yu, qaysi omil ikkilamchi degan marksistik yondashuvlardan voz kechish zarur. Barcha ijtimoiy hodisalar singari millat mohiyatini belgilovchi omillarning barchasining uyg'unligida millatning mohiyati o'z aksini topadi.

Millatning shakllanishi odamlarning gala-gala bo'lib yashashidan qabila, urug'chilik, elat, millat kabi birliklar darajasi tomon taraqqiy qilib kelganligi to'g'risida turli xil tadqiqotlar mavjud. Ushbu birliklarning mustaqil ravishda

¹ Otamurotov S. Globallashuv va millat. –T.: 2008.

yuzaga kelishiga ularning turli hududlarga bo'linib moddiy manfaatlar yuzasidan o'zaro birlashishlari sabab qilib ko'rsatiladi. Masalan Beruniy millatning tashqi qiyofasi, kiyinishi, mentaliteti qay darajada bo'lishiga asos qilib geografik muhitni ko'rsatadi. O'z navbatida ana shu moddiy zaruriyat ularning yagona til, madaniyat va yagona urf-odatlarini shakllanishiga olib kelgan degan fikrlar ilgari surilgan. Sug'orma dehqonchilik, dambalar qurilishi, katta-katta kanallar qurilishi, chig'ir va charxpalaklar qurilishi uyushgan mehnatni taqozo etgan, natijada hashar singari qadriyatlar vujudga keldi.

Bir tomondan ushbu fikrlarni millat shakllanishining ilmiy konsepsiyasining asosi deb hisoblaydigan bo'lsak, bugungi kunda jahonning barcha mamlakatlarida o'zga mamlakatlardan kelib yashayotgan turli millat vakillari yashayotganligini, ularning ikkinchi va xatto uchinchi avlodlari ana shu mamlakatlarida yashayotgan bo'lsalar ham o'zlarining ona tillarini urf-odatlarini, an'analariga meros sifatida qoldirishga harakat qilayotganligi millat shakllanishi omillarining uyg'unligidan darak beradi.

"Millat" ta'rifiga uning umum e'tirof etilgan belgilari - hudud, til, iqtisodiy birlik, madaniyat va turmush xususiyatlaridan kelib chiqib yondashish ustunlik qiladi. M.S. Junusov milliy o'zlikni anglashni ham millat belgisi sifatida qaraydi. S.M. Kaltaxchyan esa milliy o'zlikni anglashni millatning belgisi deb qaramasa ham, uni millatning bundan buyon ham mavjud bo'lishi va rivojlanishining muhim shartlaridan biri deb hisoblaydi.

Umuman bunday formatda millat, milliy o'zlikni anglash tushunchalarini tahlil etishda umum e'tirof etilgan xulosaga kelish qiyin. Tahlillarda quyidagicha yondashuvdan kelib chiqilsa maqsadga muvofiq bo'ardi: avvalombor "millat" (natsiya) tushunchasi bilan "millat vakili" (natsionalnost) tushunchalarini bir-biri bilan aynanlashtirmasdan tahlil etish. Ikkinchidan, millatni shakllantiruvchi omillar bilan millat mohiyatini belgilovchi omillarni aralastirib yubormaslik. Uchinchidan nima birlamchi-yu, nima ikkilamchi degan marksistik andozadan voz kechish. Antik, o'rta asrlar falsafasiga e'tibor beradigan bo'lsak bu masala har doim e'tiborda bo'lib kelgan. Ijtimoiy taraqqiyotning turli davrlarida bunday baxslar sof nazariy masala doirasidan chiqib, ma'lum bir tuzum yoki davlatning rasmiy mafkurasi maqomini ham olgan. Buning tasdig'ini sho'ro zamonida ham ko'rish mumkin.

Ushbu masalaga chuqurroq va atroflicha nazar tashlaydigan bo'lsak, avvalo shuni aytish kerak-ki, bu ko'hna dunyo, biz yashayotgan hayot yagona, yaxlit bir voqelikdir. Shunday ekan, moddiy ehtiyojlarni insonning ruhiy

olamiga qarama-qarshi qo'yish, ularning birini ustun deb bilgan holda, tiriklikning asosiy maqsadi sifatida qabul qilish qandaydir biryoqlama qarash ifodasi, deyish xato bo'lmaydi.

Qolaversa, bu masalaga bunday keskin yondashuv, xususan, odamning ruhiy dunyosini mensimaslik, uni ikkilamchi o'ringa qo'yish oxir-oqibatda jamiyat hayotida inqirozga olib kelishi muqarrar ekanini tarix ko'p marotaba isbotlagan.

“Bir so'z bilan aytganda, inson o'z timsolida ham moddiy, ham ma'naviy xususiyat va alomatlarni mujassam etgan noyob hilqat. Yaratganning buyuk va sirlı mo'jizasidir. Shuning uchun ham uning ichki dunyosi, unga ato etilgan fazilat va xislatlarni oxirigacha anglash, tushunishning o'zi o'ta murakkab bir masala.

Mana shunday qarash va fikrlarni umumlashtirib, insonga xos orzu-intilishlarni ro'yobga chiqarish, uning ongli hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy olamni bamisoli parvoz qilayotgan qushning ikki qanotiga qiyoslasak, o'ilyamanki, o'rinli bo'ladi”¹.

2. Globallashuv jarayonlarida millat va milliy o'zlikni anglash masalalari.

Qaysi davrga mansub bo'lmasin, har bir millatning, har bir yurtning faxri va iftixori shu xalq tomonidan bunyod etilgan ma'naviyati, tarixiy obidalari, san'at asarlari, jahon ilm-fani rivojiga hissa qo'shgan olim - mutafakkirlari bilan o'lchanadi. Chunki, ana shu moddiy va ma'naviy boyliklarda millat ruhiyatining o'ziga xosligi, turmush tarzi va orzu-umidlari mukammallashadi. Shuning uchun ham ularni saqlash va kelajak avlodga yetkazish davlat siyosatida yetakchi o'rin egallaydi. Har bir xalqning milliy o'z-o'zini anglashi obektiv jarayon hisoblanadi. Barcha ijtimoiy hodisalar singari millat ham, uning madaniyati ham tashqi dunyodan uzilgan holda rivojlana olmaydi. Milliy madaniyatlar o'zaro ta'sir va o'zaro aloqadorlikda rivojlanadi. Shu jarayonda millatlar o'rtasida “raqobat” paydo bo'ladi. Bu tarzdagi o'zaro munosabatlarda kim kimdan “ustun” ekanligi muhiti vujudga keladi va bu jarayon ularning o'z-o'zini anglashiga intilishni kuchaytirib yuboradi.

Milliy madaniyat va milliy o'zligini anglash millatning ma'naviy dunyosi mavjudligining muhim shartidir. Milliy madaniyat millatning shakllanishi jarayonida uning mohiyatini belgilashda ham iqtisodiy, hududiy birlik singari muhim belgilar bilan bir qatorda turadi va ayni paytda milliy o'zligini anglashning ifodalovchisi hamdir. Lekin milliy o'zligini anglash davlat, iqtisod,

¹ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. 45-bet

madaniyat, til va psixologik birlik singari millatning muhim belgilari bilan bir qatorda turishi yoki turmasligi bugungi kungacha munozaralarga sabab bo'lib kelmoqda.

Jumladan ushbu sohada olib borilgan falsafiy-sotsiologik tadqiqotlarga nazar tashlaydigan bo'lsak, M.S.Djunusov milliy o'zligini anglashni millatning muhim belgisi sifatida olib qaraydi. S.T.Kaltaxchyan milliy o'zligini anglashni millatning belgisi sifatida olib qaramasa-da, uni (milliy o'zlikni anglashni) millatning keyingi rivojida, mavjudligini ta'min etishda muhim omil deb biladi. A.G.Spirkin esa millatning umum tan olingan belgilarini (hudud, iqtisod, madaniyat, til, ruhiyat) milliy o'zligini anglashning bazasi deb hisoblaydi. Shunga yaqin bo'lgan xulosani E.A.Bagramov va I.P.Sameryanlarda ham uchratish mumkin.

Sobiq sovet tuzumi sharoitida yuqoridagi olimlar tomonidan keltirilgan fikrlar garchand ularga yondashuv va vaqt nuqtai nazaridan eski bo'lsa ham keltirishimizga asosiy sabab shuki, ularning qarashlarida ilg'or g'oyalar mavjud edi. Ammo, milliy o'zlikni anglash omilini o'rganish, sho'rolar davrida mustaqil mavzu sifatida o'rganilmaganligi sababli bu masalaning mohiyati ochilmay kelingan edi.

Mustabid tizim davrida O'zbekistonda mazkur masala deyarli o'rganilmagan. U masalaga bag'ishlangan ayrim ilmiy asarlarda esa unga bir tomonlama yondashilgan. Jumladan, ba'zi olimlarimiz o'zbek millatining milliy o'zligini anglashini uning hayotida "internatsionallashtirish" jarayonning kuchayishi bilan bog'lab tushuntirganlar.

80-yillar o'rtalarida sho'rolar tuzumining yemirilishi tezlashishi oqibatida milliy munosabatlarda mavjud bo'lgan muammolarning yuzaga chiqishi milliy o'zlikni anglash omilini o'rganishga bo'lgan qiziqishni kuchaytirib yubordi. O'zbekistonda S. Otamurodov tomonidan 1991 yilda e'lon qilingan "Natsional'noye samosoznaniye i internatsional'noye vospitaniye" monografiyasida, A.S. Ochildiyev, A.A. Abdurazzoqov, J. Bahronov, I.R. Xo'jamurodov kabi olimlar tomonidan doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalarida bu masalalar tahlil qilindi.¹

Ularda milliy o'zlikni anglash omillarining turli qirralari to'g'risida juda yaxshi, yangi fikrlar ilgari surildi. Jumladan, S.Otamuratov milliy o'zlikni

¹ Qarang: Abdurazzoqov A.A. Milliy ma'naviy qadriyat va uning milliy O'zlikni anglashda tutgan o'rni. f.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dis. T.: 1995; Achilidiev A.S. "Milliy O'z-O'zini anglash va milliy madaniyatning O'zaro ta'siri muammosi" f.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dis. T.: 1994 yil.

anglash omilini millatning asosiy belgilaridan biri ekanligini ilmiy asoslashga harakat qilgan edi. Uning ta'rificha milliy o'zlikni anglash tushunchasi tarkibiga: "1) milliy birlikni va boshqa etnoslar mavjudligini anglash; 2) milliy qadriyatlarga: tilga, tug'ilib o'sgan joyga, madaniyatga (keng ma'noda) ixlosmandlik; 3) vatanparvarlik; 4) milliy mustaqillik va milliy taraqqiyotga intilish; 5) milliy manfaatlarni anglash" kiradi¹. S.Nurmatov milliy o'zlikni anglashni: a) milliy g'oya sifatida anglashdan; b) milliy tuyg'u - milliy iftixor, qadr-qimmat, or-nomus va nihoyat, v) milliy mansublikni anglashdan iborat tarkibiy tuzilma sifatida baholaydi². Shuningdek, bu masala bilan shug'ullangan tadqiqotchilar ishlarini tahlil qilar ekan J. Bahronov o'zi qo'shilishi mumkin bo'lgan nazariy fikrlarni sanab o'tadi: qabila, elat, millat yo'qki, u o'z-o'zini anglamasin (Y.V.Bromley); milliy o'z-o'zini anglash mazkur millatning yashayotganligi g'oyasini o'z ichiga oladi (M.S.Djunusov); milliy o'zlikni anglash tarkibiga milliy birlikni anglash va boshqa etnoslarga munosabat, milliy qadriyatlarga ixlosmandlik, vatanparvarlik kiradi (S.T.Kaltaxchyan); milliy o'z-o'zini anglash o'z tarkibiga boshqa millatlarga u yoki bu xildagi munosabatni singdiradi (P.M.Rogachev, A.M. Sverdlin); milliy o'zlikni anglashga milliy mustaqillik va milliy taraqqiyotga intilish hamda milliy manfaat kabi elementlarni kiritish zarur (S.Otamurotov)³.

Fikrimizcha, hali milliy o'zlikni anglash omilining millat hayotidagi o'rniga bag'ishlangan ko'plab doktorlik dissertatsiyalari yozilishi, maxsus ilmiy-amaliy konferensiyalarni o'tkazish lozim bo'ladi. Chunki, bu masalani o'rganishga globallashtiruvning keng quloch yoyishi, uning millat hayotining turli sohalarida namoyon bo'lishi, milliy an'analar va qadriyatlarga ta'siri.

Milliy o'zlikni anglashning millatning muhim belgilaridan biri bo'lishi yoki bo'lmasligi masalasi tahliliga qaytar ekanmiz, biz quyidagi konkret misollarni keltirish orqali aniqlik kiritish joiz deb hisoblaymiz:

Birinchidan, butun Yevropaning taraqqiy etgan bir qator mamlakatlari yagona iqtisodiy va harbiy makonni vujudga keltirish uchun jiddiy qadam tashlamoqdalar. Ammo u mamlakatlarda yashayotgan millatlarning iqtisodiy va siyosiy muammolari to'la hal qilinganligiga qaramasdan, ularning birontasi

¹ Atamuratov S. Natsionalnaya kultura i natsionalnoye samosoznaniye v protsesse obnovleniya obshstva. Diss. na soiskan. uch. st. dok. filos. nauk. -T.: 1992, str. 65-66..

² Nurmatov S. Natsionalnoye samosoznaniye: sushnost, tipi i tendensii ix razvitiy. Avtoref. dis. sois. uchen. st. k.f.n-t., 1979, str-5..

³ Qarang: Bahronov J. Shaxs milliy o'zligini anglashi qonuniyatlari - Samarqand., 1994, 22-bet

ham o'zaro qo'shilib ketish masalasini kun tartibiga qo'yganicha yo'q. Aksincha, ularning har birida o'z milliy an'analari, urf-odatlari, qadriyatlarini o'zlashtirishga va jahon xalqlariga ko'z - ko'z qilishga intilish kuchaymoqda. Aksiglobalistlar harakati keskin kuchaymoqda.

Ikkinchidan, bugun moddiy jihatdan qoloq yashayotgan millatlar qurbonlar berib bo'lsa ham, o'z mustaqilligi uchun kurash olib bormoqdalar. Shuning oqibatida mustaqillik uchun olib borilayotgan kurashlar katta mintaqaviy muammolarning kelib chiqishiga ham sabab bo'lmoqda.

Uchinchidan, O'zbekistonda mustaqillik yillarida millatimizning o'z ma'naviy meroslari, qadriyatlariga qanchalik tashna ekanligini, hamda ularni o'zlashtirish borasidagi harakatlarining guvohi va ishtirokchisi bo'lib turibmiz.

Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin. Ulardan kelib chiqadigan xulosa shuki, milliy o'zlikni anglash millatning eng muhim belgilaridan birini tashkil qiladi.

Milliy o'z-o'zini anglash har bir millatning o'zini haqiqiy mustaqil sub'yekt sifatida o'z davlatchilik tarixini, muayyan moddiy va ma'naviy boyliklarni ifodalovchisi, yagona til, urf - odatlar, an'analar, qadriyatlar sohibi ekanligini anglab yetishidir. U millat rivojlanishining nisbatan yuqori bosqichida vujudga kelib, milliy ongdan farq qiladi. Agar milliy ong millatning yagona til, urf - odatlar, an'analar, qadriyatlari va ma'naviyatining yuksalishini ifoda etsa, milliy o'z-o'zini anglash-milliy manfaatlarni himoya qilishda va rivojlantirishda "harakatga" keluvchi ichki ma'naviy-mafkuraviy salohiyatdir. Milliy o'z-o'zini anglash millat sha'ni, qadr-qimmat, obro'-ye'tibori, or-nomusi poymol etilganda, unga nisbatan zo'ravonlik harakatlari yuzaga kelganda real moddiy kuch sifatida namoyon bo'ladi. Milliy o'z-o'zini anglash omili milliy manfaatlarni himoya qilishda qudratli kuch hisoblanadi. Manfaatlarni himoya qilish tarqoq millatni birlashtiradi, millat ichidagi turli qarama-qarshiliklarga vaqtincha bo'lsa-da, barham berishi mumkin. Chunki millat taqdiri, or-nomusi, qadr- qimmat umummilliy manfaatdir. Milliy manfaatlar millatga, milliy davlatga, moddiy, ma'naviy, ruhiy va jismoniy foyda, naf keltiruvchi omillar tizimidir.

Bugungi kunda o'zbek xalqining milliy manfaati faqat milliy qadr-qimmatni, huquqni va qadriyatlarni tiklashdan iborat bo'lgan tor doiradagi tushuncha emas, balki mavjud muammolarni hal qilish orqali o'ziga jahonning rivojlangan xalqlari qatoridan munosib o'rinni egallashdir. Shu bois ham

mustaqillik sharoitida o'zbek xalqining o'z-o'zini anglashini rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgandir.

Globallashuv sharoitida ma'naviyat, ma'rifat va mafkura sohasidagi faoliyatimiz xalqimizning boy madaniy merosini tiklash, buyuk ajdodlarimizning hurmatini joyiga qo'yish, milliy ong va milliy g'ururni yuksaltirish, tinchlik va millatlararo hamjihatlikni ta'minlash ishlariga qaratilgan bo'lishi lozim. Ayni bir vaqtda O'zbekistonda istiqomat qilayotgan barcha millat vakillari ham o'z-o'zini anglashlari, mustaqil O'zbekiston olg'a surayotgan va barcha millatlarning ehtiyoj va talablariga mos tadbirlarni qo'llab-quvvatlashlari zarur. Millat sifatida o'z-o'zimizni anglashimiz boshqa millatlardan ajralib qolishimizga olib kelmasligi kerak. Balki o'zligimizni anglash boshqa millatlar bilan hamkorligimizni mustahkamlovchi yetakchi omil rolini o'ynamog'i lozim.

Ushbu shart-sharoitlar, oldimizda turgan vazifalar, maqsadlar globallashuv sharoitida yoshlarda ogohlik va dahidorlik tuyg'ularini yanada mustahkamlashni dolzarb masalaga aylantirmoqda. Bu salohiyat milliy o'z-o'zini anglashning barcha muhim belgilarini qamrab oladi. Millatlarning o'z-o'zini anglashi qanchalik mustahkam bo'lsa, uning o'z muammolarini hal qilish imkoniyati ham kengayib boradi. O'z-o'zini anglagan millatning milliy birligi ham mustahkam bo'ladi. Milliy birlik o'z navbatida millat abadiyligining barqaror muhim sharti hisoblanadi. Shuning uchun mustaqillik sharoitida o'zbek xalqining o'z-o'zini anglashini rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgandir.

Globallashuvning faqatgina eng asosiy jihatlari va yo'nalishlarini ham qamrab olish qiyin. Shuning uchun mazkur bo'limda globallashuv milliy ma'naviyatga o'tkazayotgan va o'tkazishi mumkin bo'lgan ta'sir haqida fikr yuritimiz, xolos.

Ma'naviyatni ham bir uyga to'plangan boylikka qiyoslasak, tashqaridan kirayotgan shamol uy ichidagi narsalarni ostin-ustin qilib tashlashini hech bir xonadon sohibi istamaydi. Huddi shu kabi biz ham yot g'oyalar, oqimlar va mafkuralar ma'naviyatimizga vayronkor ta'sir o'tkazishiga qarshi himoya choralari ko'rishimiz tabiiy. Chetdan o'tkaziladigan mafkuraviy ta'sirga qarshi himoya choralari ko'rishdan avval qanday ta'sirlarni ma'qullash lozimu, qandaylarini rad etish kerakligini aniqlab olish lozim. Hozirgi kunda birorta ham milliy ma'naviyat yo'qki, u boshqa xalqlar ma'naviyatidan to'la ajratilgan bo'lsa. Hatto, Avstraliya chakalakzorlari, Afrika savannalari va Janubiy

Amerika changalzorlarida turmush kechirayotgan qabilalar ham qo'shni qabilalar va zamonaviy tamaddun ta'sirini o'zida his qilib turadi. Qolaversa tarixni tahlil qilish boshqa xalqlar ma'naviyatidan bahramand bo'lgan xalqlar ma'naviyati yuksakliklarga ko'tarilgandan guvohlik beradi. Markaziy Osiyo xalqlari madaniyati va ma'naviyati ham Sharq va G'arbni tutashtirgan karvon yo'llarida joylashgani sababli ham Sharq, ham G'arb madaniyatidan bahramand bo'lgan. Muhimi shundaki, xalqimiz G'arb va Sharq ma'naviyatidan bahramand bo'lib ularning ijobiy tomonlarini o'zlashtiribgina qolmay, ularga ijodiy yondashib yangi cho'qqilarga ko'tarishdi. Bu fikrning tasdig'ini ma'naviyatning tarkibiy qismlari bo'lgan ilmiy bilimlar, diniy e'tiqod, san'at misolida ham ko'rish mumkin. Faqat Vatanimiz emas, umumjahon madaniyati tarixidan mustahkam o'rin egallagan allomalarimiz ijodi ham shu fikrni tasdiqlaydi. Masalan, ana shunday ajdodlarimizdan biri Abu Rayhon Beruniy Xitoy va Hindiston, Yunoniston va Rim falsafasini, tabiiy fanlarini chuqur o'zlashtirgan edi. Hindistonda bo'lgan paytida u hind fani va madaniyatini o'rganar ekan, qadimgi manbalarni o'rganish uchun qadimgi hind tili-sankritni bilish lozimligini anglaydi. U sanskritni o'rganishga kirishadi va qisqa fursatda uni chuqur o'zlashtiradi. Endi qadimgi hind madaniyati va fanini asl manbalardan o'rgana boshlaydi. U shuningdek, yunon va Rim madaniyati va fanini o'rganish uchun yunon va lotin hamda qadimgi yahudiy tillarini o'zlashtirgan edi.

Jahon madaniyati tarixida chuqur iz qoldirgan Abu Nasr Forobiy ham o'nlab tillarni bilgan va o'nlab xalqlar madaniyati va ma'naviyatini chuqur o'rgangan. Bunday misollarni juda ko'plab keltirish mumkin. Eng muhim jihati shundaki, o'sha buyuk ajdodlarimiz jahon xalqlari ma'naviyatini o'rganibgina qolmay, ularni chuqur tahlil qilishdi, tegishli joylarini rivojlantirib olamshumul kashfiyotlarni ochishdi.

Ajdodlarimiz tarixi jahon xalqlari ma'naviyatiga hurmat bilan qarash, kerakli joylarini o'rganib, ijodiy rivojlantirish orqaligina ma'naviyat cho'qqisiga erishish mumkinligidan guvohlik beradi. Bizga ta'sir o'tkazayotgan yoki ta'sir o'tkazmoqchi bo'layotgan g'oyalarning qay birini qabul qilish va qay birini rad etish lozimligini aniqlash uchun jiddiy tahlil lozim. Ana shunday tahlilni o'tkazish uchun esa ba'zan erinchoqligimiz, ba'zan uquvsizligimiz xalaqit bermoqda. Buning oqibatida esa qabul qilish bo'lgan g'oyalarni rad etish va rad etish lozim bo'lgan g'oyalarni qabul qilish hollari ham uchrab turibdi.

Shunday g'oyalar borki, ular ochiq chehra bilan eshigimizni taqillatib, kirib keladi. Shunday g'oyalar ham borki, ular «o'g'ri» kabi tuynuk qidiradi.

Eshik qoqib keladigan g'oyalar milliy ma'naviyatni boyitishga, rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu umuminsoniy ezgu-g'oyalardir. Chunki, milliy ma'naviyatlar o'zaro ta'sir jarayonida rivojlanadi. Har qanday xalq ma'naviyati rivojiga nazar tashlansa uning boshqa xalqlar udum va an'analarini qanchalik o'zlashtirib va rivojlantirib borganini ko'rish mumkin.

O'zbek milliy ma'naviyati ham uzoq va yaqindagi qo'shnilarning ilg'or an'analarini o'zlashtirish natijasida boyib bordi. Ma'naviyatimizning rivojlanish tarixini kuzatsak, bunga yana bir bor ishonch hosil qilish mumkin. XX asr boshlaridagi o'zbek madaniyati va ma'naviyati va uning asr oxiridagi holati o'rtasida ancha jiddiy tafovut bor. Bu tafovutni adabiyot, san'at, fan, hatto oddiy yurish-turish va kiyim-kechak, turmush sohalarida ham kuzatish mumkin.

XX asr boshida o'zbek adabiyotida dramaturgiya janri halli shakllanmagan edi. Demak milliy teatr san'ati to'g'risida so'z ham yuritish mumkin emas edi. Munavvar qori Abdurashidxonov, Mahmudxo'ja Behbudiy, Fitrat singari ma'rifatparvarlarning say-harakatlari tufayli dramaturgiya shakllana boshladi va keyinroq teatr san'ati vujudga keldi. O'sha paytlarda teatr san'atini o'zbek millatli uchun yot, begona g'oya deb e'lon qilganlar oz emas edi. Dramaturgiya va teatrnı rad qilish faqat dahanaki tanqid bilan chegaralanmagan. San'atning bu turlarini O'zbekistonga olib kirishga harakat qilayotgan insonlarni mazax qilish, masxaralash, hatto sazoyi qilish o'zlarini milliy ma'naviyat himoyachilari, deyuvcilar tomonidan amalga oshirilgan edi. Hamma narsa uchun oliy hakam hisoblanadigan vaqt esa, teatr san'ati milliy ruhiyatimiz va ma'naviyatimizga yot, deyuvcilarning o'zlari milliy ma'naviyat rivojiga g'ov bo'lganini ko'rsatdi. Hozirgi kunda har millon kishiga hisoblaganda teatrlar soni bo'yicha O'zbekiston dunyodagi eng ilg'or o'rinlardan birini egallaydi va teatr milliy ma'naviyatimizning uzviy qismiga aylangan.

Milliy kiyimlar ham milliy qadriyatlardan biri hisoblanadi. XX asr davomida ana shu qadriyatimizning ham tadrijini kuzatsak, g'aroyib hodisalarning guvohi bo'lamiz. O'tgan asr boshlarida mahalliy erkaklarning qishki kiyimi telpak yoki etikdan iborat edi. Yozgi kiyim esa do'ppi, ko'ylak yoki yaktak, oq lozim va shippak yoki kafshdan iborat edi.

Sport sohasidagi atamalarni globallashuv jarayoniga ham tadbıq qiladigan bo'lsak, vayronkor g'oyalardan himoyalanişning eng samarali yo'li ularga qarshi hujumga o'tishdir. YA'ni, biz yot g'oyalardan himoyalaniş bilangina

shug'ullanmay, o'z g'oyalariimiz, an'analarimiz, turmush tarzimizni dunyoga yoyish uchun harakat ham qilishimiz zarur.

Tariximiz ilm-fan, din, san'at sohasida yurtimizda yetishib chiqqan allomalar butun dunyoga dong taratganidan, demakki butun dunyo ma'naviyatiga katta ta'sir o'tkazganidan guvohlik beradi. Abu Nasr Forobiy jahon falsafasi rivojiga sezilardi hissa qo'shgan bo'lsa, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Zamahshariy, Xorazmiy, Mirzo Ulug'bek singari allomalarimiz jahon fanini yangi pog'onalarga ko'tarishdi. Ismoil Buxoriy, at Termiziy, Moturidiy, Abduxoliq G'ijduvoniy, Bahovuddiy Naqshbandiy, Ahmad Yassaviylar esa, Hadis, kalom, fikh ilmlari va tasavvufda porloq yulduzlar hisoblanishadi. Amir Temur va Mirzo Boburning harbiy san'ati naqadar yuksakligini butun jahon e'tirof etadi.

Sho'rolar davrida milliy qadriyatlarimizni dunyoga yoyish uyoqda tursin o'z yurtimizda qadrlash uchun ham yo'l berilmadi, ko'pchilik qadriyatlarimiz esa toptaldi. Mustaqillikka erishganimizdan keyin o'sha toptalgan qadriyatlarimizni tiklash imkoniga ega bo'ldik. Bundan tashqari milliy qadriyatlarimizni targ'ib qilish imkoniga ham ega bo'ldik. O'zbek milliy kurashini dunyoga yoyish bo'yicha qilingan ishlar, dunyoning ko'pchilik mamlakatlarida o'zbek kurashi federatsiyalarining tuzilishi buning yaqqol misoli. Dunyo bugun O'zbekistonni milliy-madaniy merosi, boy tarixi, tili, madaniyati, urf-odat va an'alarining umuminsoniy g'oyalar bilan mujassamligi, san'at va arxitektura, fan va madaniyat sohasida erishayotgan yutuqlari orqali ham kashf etmoqda. Demak, biz globallashuv jarayonida passiv qabul qiluvchi tomonga bo'lmay, faol targ'ib qiluvchilarga ham aylanishimiz mumkin.

3. Milliy ruhiy tiklanish - mustaqillikni mustahkamlash va taraqqiyotning zaruriy sharti. Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan keyin jamiyat ma'naviy hayotini sog'lomlashtirish va rivojlantirish, inson omiliga katta e'tibor berish asosiy vazifa sifatida kun tartibiga qo'yildi. Bu jamiyat oldida turgan vazifalarni hal etishga oqilona yondashishning ko'rinishidir. I. Karimov Oliy Majlis ikkinchi chaqiriq birinchi sessiyasi birinchi yig'ilishida so'zlagan nutqida bu boradagi vazifalarga alohida e'tibor berib shunday degan edi: "Bu sohadagi eng asosiy vazifamiz milliy qadriyatlarimizni tiklash, o'zligimizni anglash, milliy g'oya va matkurani shakllantirish, muqaddas dinimizning ma'naviy hayotimizdagi o'rni va hurmatini tiklash kabi mustaqillik yillarida boshlangan ezgu ishlarimizni

izchillik bilan davom ettirish, ularni yangi bosqichga ko'tarish va ta'sirchanligini kuchaytirishdir"¹.

Darhaqiqat, istiqlol tufayli xalqimiz o'z taqdirining egasi, tarixining ijodkori, o'ziga xos milliy madaniyatining sohibiga aylandi. Milliy o'z-o'zini anglashga intilish kuchaydi.

Ma'naviy-mafkuraviy salohiyat tizimida milliy o'z-o'zini anglash va uni tashkil etuvchi unsurlarning tutgan o'rni bilan yuqorida tanishib chiqqan edik. Shuningdek undan tashqari ma'naviy-mafkuraviy salohiyat tizimida millatning o'ziga xos ichki ruhiy holatlarining ijobiy tomonlarini ifodalaydigan yuksak insoniy fazilatlar ham muhim o'rin egallaydi.

Bizning bosh strategik maqsadimiz milliy mustaqillikni mustahkamlash, bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik davlatni barpo etish, fuqarolik jamiyatining mustahkam poydevorini shakllantirishdan iborat. Bu vazifalar:

- hayotiy yetuklik va sabr-matонатni sinovdan o'tkazuvchi o'ziga xos imtihondir. Shu sababli ham ma'naviy-ruhiy tiklanish muammolari alohida ahamiyat kasb etadi.

Xalqning milliy-ruhiy tiklanishi quyidagi omillar bilan belgilanadi:

- boy ma'naviyatimiz sarchashmalarining ko'zlari qaytadan ochilganligi;
- jahon madaniyati xazinasiga katta hissa qo'shgan buyuk ajdodlarimizning ilmiy, madaniy merosi chuqurligi anglab olinganligi;
- yoshlarni o'z o'tmishiga, milliy, diniy an'analariga hurmat bilan qarash, ularni asrab-avaylash ruhida tarbiyalanayotganligi;
- o'z millatining o'zga millatlar oldidagi qadr-qimmatidan, obro'-ye'tiboridan faxrlanish;
- millat manfaatini himoya qilishdagi mas'uliyatni his etish va kelajakka ishonch.

Yuqorida qayd etib o'tilganidek, biron-bir jamiyat o'zining ma'naviy va axloqiy qadriyatlarini rivojlantirmay, hamda mustahkamlamay turib o'z istiqbolini tasavvur eta olmaydi. "Xalqning madaniy qadriyatlari, ma'naviy merosi ming yillar mobaynida sharq xalqlari uchun qudratli ma'naviyat manbai bo'lib xizmat qilgan. Uzoq davom etgan mafkuraviy tazyiqqa qaramay, O'zbekiston xalqi avloddan avlodga o'tib kelgan tarixiy va madaniy qadriyatlarini hamda o'ziga xos an'analarini saqlab qolishga muvaffaq bo'ldi"¹.

¹ Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. – T.: O'zbekiston, 2000 yil, 24, 25- betlar.

¹ Karimov I. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari, taraqqiyot kafolatlari. 137-bet

Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq bebaho madaniy va ma'naviy merosni tiklash davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994 yil 23 apreldagi Farmoni va Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 8 iyundagi Qaroriga asosan Respublika "Ma'naviyat va ma'rifat" jamoatchilik markazi tuzildi. Uning faoliyat yo'nalishi quyidagilardan iborat qilib belgilandi:

- O'zbekiston xalqining ma'naviy-madaniy merosi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhiga mos g'oyalarni shakllantirish, tegishli tavsiyalar ishlab chiqish;

- yuksak iste'dod va tafakkur sohiblarining aqliy-ijodiy salohiyatini Vatan istiqboli sari yo'naltirish;

- millatlararo hamjihatlik va fuqarolar totuvligini ta'minlash va boshqalar.

Mustaqillikning ijtimoiy, ma'naviy mohiyati bevosita ommani fikrini uyg'otishda, xalqning o'tmishi, buguni va kelajagi xususida qayg'urish hissini kuchaytirishdan iborat. Chunki, "...faqat ma'naviy sog'lom, kuchli jamiyatgina islohotlarga tayyor bo'lishi mumkin"¹. Xalqimizga xos bo'lgan milliy qadriyatlar, an'analar, uning eng yaxshi hislatlari jamiyatdagi ma'naviy birlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Ana shunday xalqimizga xos bo'lgan xususiyatlardan biri ona zaminga, vatanga bo'lgan hurmatidir.

Ona-vatan har bir kishining tug'ilib o'sgan xonadoni, yashash makoni - qishlog'i, shahri, o'lkasi, yurtidan boshlanadi. "U insonning kindik qoni to'kilgan joy, insonni ijtimoiy yetimlikdan asrovchi manzill, har kimning birligini qadrllovchi, o'z-o'ziga siyosiy bekligini ifodalovchi zamin, ma'naviy kamolot va fuqarolik maydoni, hayot maktabi, farovonlik va baxt-saodat quchog'idir"². Shuning uchun ham har bir inson o'zining butun borlig'ini, dard-alaminini, orzu-umidlarini vatan taqdiri bilan bog'lab kelgan. Vatanparvarlik – o'z taqdirini vatan, millat taqdiri bilan bog'lagan barcha kishilarga xos fazilat. Millat taraqqiyotining imkoniyatlari, shon-shuhrati, obro'-ye'tibori ham shu millat kishilari vatanparvarlik tuyg'usining darajasi bilan bog'liqdir. U milliy va umuminsoniy qadriyatlarning tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'ladi.

Qadimda ota-bobolarimiz uchun vatanga, eliga muhabbat muqaddas tuyg'u edi. Ular vatan manfaatini, qadr-qimmatini, or-nomusini hamma narsadan ustun qo'yishgan. Buyuk mutafakkirlarimiz tug'ilib o'sgan joylari nomini o'zlariga

¹ Karimov I. A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. – T.: O'zbekiston, 1999 yil, 306-bet.

² Po'latov X. Mustaqilligimiz qadriyatlari – O'zbekistonning milliy istiqloq mafkurasi. – T.: 1993, 76-bet.

tahallus qilib, uni butun olamga mashhur qilishgan, Vatan manfaatlarini yo'lida jonini qurbon qilishni o'zlari uchun sharaf deb bilishgan.

Vataniy birlik tarixan shakllangan. Inson o'zining butun orzu-umidlarini vatan taraqqiyoti bilan bog'laydi. "Vatanparvarlik – bir ijtimoiy, etnik guruhga mansub bo'lgan kishilarning o'z tarixini, tili, madaniyati, urf-odatlarini, milliy obro'si, qadr-qimmatini bilishi, hurmat qilishi, ularga tayanishi, boshqa xalqlarning ham obro'-ye'tiborini, manfaatlarini hurmat qila bilishini ifodalovchi ma'naviy fazilatdir"¹.

Vatanparvarlik, vatanni ulug'lashdan tashqari, uning qadr-qimmatini, mustaqilligini himoya qilishni ham o'z ichiga oladi. Buning yorqin namunasini To'maris, Shiroq, Spitamen, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik, Najmiddin Kubro, Amir Temur, Dukchi eshon, Behbudiy, Fitrat, Cho'lpon, Abdulla Avloniy singari buyuk ajdodlarimiz faoliyatlari misolida ko'rishimiz mumkin.

Vatanparvarlik yetuk ma'naviyat belgisi, muayyan millat vakillarini aniq maqsad yo'lida birlashtiruvchi umummilliy g'oya hamdir.

Hozir vatanparvarlik tuyg'ulari bilan chayqovchilik qiladigan vatanfurushlar yo'q. Xalqimiz ikkita "vatan"da yashasada, o'z vatanga ega bo'lmadi. Shuning uchun bu tizim tanazzulga yuz tutganida bitta-ikkita vatanfurushni hisobga olmaganda hech kim motam tutmadi.

Vatanni sevmoq uchun uni bilmoq kerak. Billsh, bilim, vatanparvarlikning bosh manbaidir. Vatanparvarlik tushunchasi birinchi galda bizni o'zaro birlashtirib turgan xalq deb atalmish bitta umumiy kategoriyadan kelib chiqmog'i kerak. Negaki, O'zbekistonda ko'p millat vakillari yashaydi. Barcha millat vakiliarining o'zaro tinch-totuv, osoyishta turmush kechirishining eng muhim omili shu ona vatan tuprog'iga hurmat va muhabbat tuyg'usidir. Bu tuyg'uni shakllantirishdan maqsad shuki, bu tuyg'u shu ona zaminda yashayotgan har bir inson vatanni sevish, uning boyliklarini ko'z qorachig'iday asrash, uning hududiy va chegaraviy bir butunligini ta'minlashda, uni yanada rivojlantirishda faollik ko'rsatishda namoyon bo'ladi.

Davlat ramzlariga hurmat jahondagi barcha madaniy xalqlar e'tiqodidagi an'ana bo'lib, shaxs madaniyati, burch va mas'uliyat tuyg'usi, vatanparvarlik e'tiqodi darajasining belgisi bo'lgan. Bugungi kunda har bir fuqaromizning davlat ramzini qalbdan hurmat qilish, bayrog'imizni muqaddas deb bilish, madhiyani yoddan ayta bilish va Prezidentga sadoqatli bo'lish ruhiyatini shakllantirish kabilar milliy tarbiyamizda muhim vazifa bo'lishi lozim.

¹ Yusupov e. Inson kamolotining ma'naviy asoslari. 149-bet.

Xalqning milliy-ruhiy tiklanishi jarayonida fuqarolarimizda millatparvarlik tuyg'ularini shakllantirish ham muhim ahamiyatga egadir. Millatparvarlik o'z millatini boshqa millatlardan ustun qo'yish kabi jirkanch shovinistik harakatlardan keskin farq qiladi. Millatparvarlik o'z millatining birligini mustahkamlash, o'z tili, urf-odatlari, an'analari rivojlantirish, qadriyat va merosini ko'z qorachig'iday asrash, o'z millatining kelajagi uchun xizmat qiluvchi aql-zakovat salohiyatini rivojlantirish va milliy tarbiyani amalga oshirishda fidoyi bo'lishdir. Millatparvarlik – o'z xalqining tarixi, taqdirini bilish, uning manfaatlarini har qanday sharoitda himoya qilishga tayyor bo'lishdir. Bu milliy-ruhiy tiklanish jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bulardan tashqari xalqparvarlik, mehnatsevarlik kabi yo'nalishlar ham borki, ularning yechimida milliy qadriyatlar, an'analar, urf-odatlarning tutgan o'rnini kattadir. Jamiyatda ishlab chiqarish qay darajada ahamiyat kasb etsa mazkur jamiyatning ma'naviy hayoti, madaniyati an'analari ham shunchalik muhimdir. "Inson hayotining bu nozik va murakkab tomonlari bilan hisoblashmaslik jamiyatimizga qanchadan-qancha zarar keltiradi. Binobarin, bu kamchiliklarni tuzatish uchun juda katta mehnat qilishimiz kerak"¹. Birinchi galda madaniyatimizga, ma'naviy merosimizga, urf-odatlarimizga, an'analарimizga, qadriyatlarimizga e'tibor berishimiz lozim. Bu xazina asrlar davomida to'plangan, tarixning ne-ne sinovlaridan o'tgan, xalqimizga og'ir damlarda madad bo'lgan.

Tarixning yaratuvchisi ham, madaniyatning ijodkori ham, urf-odat va an'analarning elchisi ham xalq ommasidir. An'analar, qadriyatlar jamiyat hayotining murakkab va serqirralik tomonlarini yoritib berishi bilan cheklanib qolmaydi. Shu bilan birga jamiyat hayotida inson omili faolligini oshishiga, yangi sifat o'zgarishlar sodir etilishiga ham muhim ta'sir ko'rsatadi. Insoniyat necha yillik tarixga ega bo'lsa milliy qadriyatlar, an'analar ham shunchalik tarixga egadirlar.

Hozirgi davr sharoiti yetuk, ijtimoiy faol shaxsni tarbiyalashdek ulkan bir vazifani keskin qilib qo'ymoqda. Ommani, ayniqsa yoshlarni milliy an'analar, qadriyatlar asosida tarbiyalash - bu ulkan vazifani o'zagingning tarkibiy qismini tashkil qiladi. "Shuni alohida ta'kidlash lozimki" - degan edi I. Karimov "Sog'lom avlod uchun" ordenini topshirish marosimida so'zlagan nutqida, - xalqimiz tarixning mashaqqatli simvolarini osha o'zining ana shu olijanob xususiyatlariga zavol yetkazmay saqlab kelmoqda. Ajdodlarimiz o'z nasllarini

¹ Karimov I. A. Istiqloq va ma'naviyat. – T.: O'zbekiston, 1995 yil, 65-bet.

umuminsoniy tuyg'ular, o'lmas Sharq falsafasi, milliy qadriyatlarimiz ruhida tarbiya qilib kelganlar. Ota-bobolarimiz asrlar davomida tilimizni, dilimiz va dinimizni, o'zbekning o'zligini har tomonlama asrab-avaylab, barkamol avlodlarni voyaga yetkazdilar. Bunday fazilatlar asl e'tiboriga ko'ra bizning zahmatkash xalqimizga munosibdir va bu bilan har qancha g'ururlansak arziydi"¹.

Oldimzida turgan ushbu buyuk vazifalarni hal etish paytida ma'naviy qadriyatlarning, an'analarning ahamiyati yanada ortadi.

Xalq ommasi tomonidan sharaflı, so'nmas an'analar faqat asrab-avaylanmasdan, balki yangi jamiyat qurish davomida yanada boyitiladi. Respublikamiz rahbariyati olib borayotgan siyosatning mazmuni ham yurtimizda yashayotgan barcha millat va elat vakillarining manfaatlarini, huquqlarini, madaniyatini, tilini, milliy urf-odatlarini va an'analarini himoya qilishga va yanada rivojlantirish uchun imkoniyat yaratib berishga qaratilgan.

Har bir xalq yoki elat dastavval tarixiy madaniy birligi bilan ajralib, o'ziga xos xususiyatlarini saqlab kelgan. Bu xususiyatlar ayrim ehtiyojlarni qondirishdagi faoliyat va uslub bilan ko'zga tashlanadi. Xalqlar turli davrlarda turli xil muammolarni hal qilishgan. Bu jarayonda esa o'ziga xos vosita va uslublardan foydalanishgan. Ular turli xil geografik muhit va iqtisodiy sharoitlarda yashagan. Mana shu xususiyatlarga va tarixiy tajribalarga asoslangan holda har bir millatda milliy ong, milliy qiyofa shakllanadi. Shuning uchun ham tariximizni, milliy madaniyatimizning xususiyatlarini, imkoniyatlarini, xalqimizning turmush tarzini, an'analarini to'g'ri yoritish lozim. Agar biz tariximizni tiklasak, madaniy-ma'naviy merosimizni, an'analarimizni xalqimizga qaytarsak, unga to'g'ri munosabatda bo'lib obektiv holda o'rgansak, shuning o'zi kishilarni tarbiyalaydi. An'analarni, qadriyatlarni asrab-avaylab, boyitib keyingi avlodga yetkazish millat ravnaqining eng muhim omili hisoblanadi. "Ajdodlarimizning ruhi poklari va urf-odatlari, bizning eng yaxshi an'analarimiz qayta tiklanganda islohatlar muvaffaqiyatga erishadi. o'ta o'qimishli, ruhan bardam va jismonan baquvvat kishilargina istiqloq va taraqqiyot yo'lini bosib o'ta oladi. Sarchashmalari buyuk ajdodlarimizning tafakkurlari va muddaolaridan boshlanadigan xalqimizning ma'naviy qadriyatlari iqtisodiy o'zgarishlarimizning mustahkam poydevori bo'lib xizmat qiladi"¹. Millat mavjud ekan milliy qadriyatlarimizning ahamiyati aslo

¹ Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlari. – T.: O'zbekiston" 1993,

kamaymaydi. Umuman olib qaraganimizda, milliy qadriyatlar har bir millatning mohiyatini, uning muayyan mustaqil ijtimoiy etnik birlik ekanini belgilab beruvchi asosiy mezonlardan biridir.

Shuningdek, xalqning milliy-ruhiy tiklanishi milliy manfaatlarining anglab olinganlik darajasini ham ifodalaydi. Milliy manfaatlarining gnoseologik, ijtimoiy-siyosiy ildizlarini, mohiyatini tahlil qilish ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga ega.

Manfaatning birinchi bo'g'inini shaxs manfaatlari tashkil etadi. Lekin inson o'z manfaatlarini jamiyat manfaatlaridan alohida tasavvur eta olmaydi. Jamiyatning o'zi o'zaro bog'liq bo'lgan shaxslarning manfaatlarini belgilaydi. Shu asosda milliy manfaatlar tashkil topadi. Milliy manfaatlar faqat iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va madaniy ehtiyojlar bo'lib qolmay, shuning bilan birga millatning o'zini real sub'yekt sifatida saqlab qolish bilan bog'liq bo'lgan barcha "ikkinchi" darajali (qadr-qimmatini, huquqini, qadriyatlarini himoya qilish) ehtiyojlarni ham o'z ichiga oladi. "Milliy manfaat shaxsning, guruhning manfaatlarini o'ziga singdirgan holda qator umummilliy masalalarni ham ichiga oladi. Bu, avvalambor, millatning tarixini to'g'ri tushunish, uning jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasini, ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy manfaatlarini hozir va kelajakda himoya qilish yo'llarini bilish va shu maqsadlar asosida birlashtirishdir"².

Ko'rinib turibdiki, milliy o'z-o'zini anglash milliy manfaatlarni anglashning yagona omili emas. U sub'yektiv omil hisoblanadi. Milliy manfaatlarning asosiy va hal qiluvchi sharti esa jamiyat oldida turgan iqtisod, siyosat, ma'naviyat borasida amalga oshirish lozim bo'lgan ustuvor vazifalarni anglab olishda namoyon bo'ladi.

Taraqqiyotimizning hozirgi bosqichida shaxs, uning faoliyati, qobiliyati va imkoniyatlari, manfaatlari mushtarakligi tobora yaqqolroq ko'zga tashlanmoqda. Lekin bu har bir shaxs faqat o'z manfaatlari doirasida qolib ketishini bildirmaydi. Agar kishilar o'z manfaatlari doirasida qolib, ularning har biri alohida dunyo bo'lib qolsa, manfaatlar o'rtasida ziddiyatlar ham boshlanadi. Bu esa ma'naviy tubanlashishga olib keladi. Bu boradagi bog'liqlikni anglash har ishda vatan, millat manfaatlarini o'ylashi milliy mas'uliyat hisoblanadi.

19-bet.

² Abdurahmonov F.R. Mustaqillik va milliy manfaatlar, 10-bet.

Shulardan kelib chiqqan holda milliy manfaatlar mazmuniga quyidagilarni kiritish mumkin: a) milliy birlikni saqlashga va uning taraqqiyotini ta'minlashga harakat qilish. Milliy manfaatlarning bu tomoni milliy ong rivoji darajasi bilan belgilanadi; b) o'zining tarixini va madaniyatini bilishga intilish; v) iqtisodiy manfaatlar; g) siyosiy manfaatlar.

Milliy manfaatlarni o'rganish va ularni amalga oshirish mamlakatimizda faoliyat ko'rsatayotgan barcha ijtimoiy-siyosiy kuchlarning bosh maqsadi va vazifasidir. Ularning milliy manfaatlarni himoya qilish yo'lidagi rejalarini yaqinlashtirish, ularning barcha ijtimoiy tomonlarini o'rganish va hayotga joriy qilish hozirgi kumimiz uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan vazifadir. Milliy manfaatlarni anglab yetishda ma'naviy-mafkuraviy salohiyatning ahamiyati katta.

Xullas, milliy manfaatlar asosida xalq, el-yurt birlashadi, milliy birdamlik yuzaga keladi. Birdam, ahil bo'lgan xalqgina siyosiy, iqtisodiy o'nglanishda faollik ko'rsatishi mumkin.

Xalqimizning an'anaviy tus olgan jihatlaridan biri-uning ulug' niyatlar bilan yashashi, kelajakka ishonch bilan boqishidir. "Niyating-yo'ldoshing", "yaxshi niyat-yarim davlat" kabi xalqdagi hikmatlar amaliy hayotimizdan kelib chiqqan. Kelajakka ishonch ruhida yashash, mehnat qilish, yoshlarni ham shunga o'rgatish xalqning kuchiga kuch, qudratiga qudrat qo'shadi, jamiyatdagi barqarorlikning manbaidir.

Xalqimizning kelajakka bo'lgan ishonchiga, faoliyatiga, maqsad va intilishlariga iymon, e'tiqod, vijdon, ixlos kabi milliy qadriyatlarimiz asos bo'la oladi. Iymon arabcha so'z bo'lib, ishonch ma'nosini anglatadi. Iymon insonning o'z e'tiqodiga tayangan holda o'zgaralar va o'z faoliyatiga munosabat bildirishidir. Iymonning diniy talqini ham, dunyoviy talqini ham inson faoliyatini oqilona boshqarish, jamiyat hayotida tinchlik, adolat, insonparvarlik, halollik singari fazilatlarini shakllantirishga, odamlarni to'g'ri yo'ldan olib borishga qaratilgan ma'naviy qadriyatlar tizimidir. Iymon insondagi alohida fazilat emas, balki yetuk ma'naviyat normalarining muayyan tizimidir. U inson qalbida e'tiqod bilan bog'lanib tomir otadi. o'z navbatida e'tiqod ixlos zaminida shakllanadi. Ixlos har bir g'oya, tushuncha, bilim e'tiqodga aylanishidagi bir bosqichdir. Ixlos insonning g'oyani ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy maqsadlarni o'dob-axloq normalarini o'z faoliyatiga asos qilib olishga intilishidir.

Ixlos bo'lmagan joyda e'tiqod ham bo'lmaydi. Ixlos e'tiqodga aylangach ma'naviyatning barqaror zaminiga aylanadi. E'tiqod muayyan maqsad yoki manfaatning inson qalbida chuqurroq o'rinishiga olib keladi va o'z navbatida e'tiqod iymon bilan bog'langandagina hayotning eng murakkab sharoitlarida ham insonga o'ziga to'g'ri yo'l topishiga yordam beradi. Ushbu olijanob insoniy fazilatlar mushtarak bo'lgandagina inson faoliyatiga zamin bo'ladigan ruhiy omilga aylanadi.

Xalqimizning yana bir an'analaridan biri bu ularning ota-bobolariga va keksalarga hurmatidir. "Ota-bobolarimizdan qolgan ezgu udumlarga muvofiq, keksalarga hurmat, kichiklarga izzat ko'rsatishdek noyob insoniy qadriyatni yangi mazmun va amaliy ishlar bilan boyitish va mustahkamlash zarur"¹. Qur'oni Karimda, Hadislarda, qolaversa Asosiy Qonunimizda ham yoshlarning ota-onaga, keksalarga hurmatiga katta e'tibor berilgan. Ota rozi-xudo rozi. "Otang g'azabga kelsa, xudo ham g'azabga keladi" deyiladi muborak hadisda. Shu bois, yoshlar ota-ona hurmatini qozonishi uchun ularni rozi qilish, duosini olish uchun harakat qilishadi. Imom Al-Buxoriy hikmatlarida Abdulloh ibn Abbosdan rivoyat qilinadi. "Qaysi bir musulmon farzandi savob umidi bilan ertalab ota-onasini ziyorat qilsa, Alloh Taolo unga jannatdan ikkita eshik ochadi. Agar ulardan bittasini ziyorat qilsa, unga jannatning bir eshigini ochadi. Bola ota-onasidan qaysi birini xafa qilsa, uni rozi qilmaguncha Alloh Taolo undan rozi bo'lmaydi", - deydilar. Shunda bir kishi "Agarda ota-onalar bolaga zulm qilsa, bola nima qilishi kerak? deb so'radi. Abdulloh: "Agar ular bolaga zulm qilsalar ham bola ularni ranjitmasligi kerak"-dedilar².

Ayni paytda farzand ota do'stlarini hurmat qilgan, ular bilan bordi-keldini ota vafotidan keyin ham uzishmagan. Ota-ona qo'yilgan tuproq muqaddas va aziz. U farzandni og'ir vaziyatda shu elni tashlab chiqib ketish niyatidan xalos etgan. Asrlar davomida saqlanib kelayotgan olijanob qadriyatlarimizga har birimiz sodiq bo'lishimiz, uni asrab avaylashimiz va yoshlarni ham shu ruhda tarbiyalashga harakat qilishimiz zarur.

Xalqimiz azal-azaldan bolajon xalq hisoblanadi. Ulug' Vatan urushi xalqimizni katta sinovdan o'tkazdi. Harbiy harakatlar ketayotgan tumanlardagi tinch aholi: keksalar, ayollar, bolalar O'zbekistonga evakuatsiya qilindi. o'sha davrda xalqimizning baynalminalligi, mehmondo'stligi, bolajon xalq ekanligi yana bir bor yaqqol namoyon bo'ladi. Bitta oilada 14 turli millat vakillaridan

¹ Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon xayot pirovard maqsadimiz. - T.: O'zbekiston, 2000 yil, 23 bet

² Uvatov U. Donolardan saboqlar. -T.: A. Kodiriy nomidagi halq merosi nashriyoti. 1994 g. 11-12 b

bo'lgan bolalar panoh topishdi. Bolajonlik xislatlari iqtisodiy og'ir vaziyatlarda ham xalqimizning qalbini tark etgani yo'q. Ko'p mintaqalarda o'lim tug'ilish darajasidan oshib ketdi. Aholining o'rtacha yoshi yil sayin ortib bormoqda. Ularning qudratini, salohiyatini hamma tan oladi. Lekin Prezidentimiz qayd etib o'tganidek "ko'p asrlik tarixiy tajriba shundan dalolat beradiki, jamiyatning haqiqiy boyligi bu-inson avlodidir. Kishilik jamiyati el-yurtiga, Vataniga sadoqatli, iymon e'tiqodi butun va jasur malakasi yetuk, ma'naviyati yuksak insonlar bilan haqli ravishda faxrlanadi. Bu ulug'vor betimsol boyluk har qaysi davlatning qudratli salohiyat manbaidir"¹. Shu bois rahbariyatimiz ko'p bolalikka, shuningdek, ularning tarbiyasiga, barkamol o'sishlariga jiddiy e'tibor bermoqda. Yuqorida aytganimizdek, davlatimizning birinchi nishoni "Sog'lom avlod uchun" ordeni bo'ldi. Farzand ko'rib ota bo'lish, ona bo'lish baxti yaratganning oldida, jamiyat oldida juda katta ma'suliyat va burchdir. Muqaddas kitoblarimizda, Asosiy Qonunimizda ham farzand va farzand tarbiyasi bilan bog'liq masalalarga katta e'tibor berilgan. "Har bir oqil insonning va jamiyatimizning muqaddas vazifasi, -degan edi Islom Karimov "Sog'lom avlod uchun" ordenini topshirish marosimida so'zlagan nutqida, - aytish mumkinki, hayotning ma'nosi qobil farzandlar o'stirish, ularni ham jismoniy, ham ma'naviy jihatdan mukammal qilib tarbiyalash, kamolini ko'rish ota-onasiga, Vataniga sadoqatli kishilar etib voyaga yetkazishdan iboratdir"².

Bir qator mamlakatlarda keksa yoshdagi kishilar aholini katta qismini tashkil qilayotgan bir paytda, bizda yoshlarning hissasi yuqoriligi quvonarli hol. Mamlakatimiz kelajagini shu yoshlar belgilaydi. Islom Karimov "O'zbekiston kelajagi buyuk davlat" deganida aynan shu yoshlarni nazarda tutgan edi.

Xalqimizning milliy ruhiy tiklanishi suvga, yerga, tabiat boylıklariga hurmat, ularni asrab-avaylash xalqimizning azaliy an'alariga bo'lgan munosabatini ham belgilaydi. Zardushtiylar yer, suv, havoni muqaddas deb bilishgan. Atrof-muhitni muqaddas deb bilishgan. Atrof-muhitni himoya qilish, asrash qoidalarini buzganlarga chora ko'rishgan. "Avesto" o'sha davrdagi kishilarga "inson butun umri davomida suv, tuproq, olov umuman dunyodagi jamiki yaxshi narsalarni pok va but-butun asrashga burchlidir" deb ta'lim beradi. Inson o'zi o'sib ulg'aygan zaminni sevsa, atrof muhitni toza saqlasa bu

¹ Karimov I. A. Istiqlol va ma'naviyat. – T.: O'zbekiston, 1995, 126-bet.

² Karimov I. A. Istiqlol va ma'naviyat. – T.: O'zbekiston, 1995, 128 – bet.

bilan u Vatan oldidagi burchini bajargan hisoblangan¹. Xalqimiz yaqin yaqingacha farzandlarini suvga hurmat ruhida tarbiyalab kelishgan. Ariq yoki buloqqa yetti qadam qolganidan keyin yerga tufurish gunoh hisoblangan. Ariqlarga axlat tashlanmagan. Vodoprovod kirib kelgani uchunmi, yo bo'lmasa boshqa narsa sabab bo'ldimi bu an'analar ko'pchilik joylarda e'tibordan chetda qolib ketdi. Kanallar axlatlarga to'lganligi bois suv oqmasdan tagi bilan qorayib ketgan. Bu suvni ichish yoki qo'l-betni yuvish u yoqda tursin, uni hayvonlarga berib bo'lmaydi. Har kim har xil foydalanayotganligi bois vodoprovod suvi ko'chaning narigi betiga yetib ham bormaydi. Bunisi ham yetmaganidek, korxonalarda ham o'z chiqindilarini daryoga oqizish hollari davom etmoqda. Biz Yevropa fanining xulosalariga tayanib ekologik muammo XX asrda paydo bo'ldi demasdan tariximizga nazar tashlaylik. Bugungi kunda biz mukammal yo'lga qo'ymagan ekologik siyosatni zardusht ajdodlarimiz bundan 2500 yil oldin yo'lga qo'yishgan edi. Shu sababli xalqimizning ma'naviy-ruhiy tiklanishi insonning yerga va uning boyliklariga bo'lgan munosabatini ham o'ziga qamrab olishi zarur. "Sivilizatsiya belgilarini asrab-avaylash qanchalik zarur bo'lsa, qishloq xo'jaligi ming yillar davomida butunlay sug'oriladigan dehqonchilikka asoslangan mintaqada yer va suvni asrab-avaylash ham shunchalik muhimdir. Yer, havo, suv, olov (Quyosh) Markaziy Osiyoda qadimdan e'zozlab kelingan. Ajdodlarimizning zardushtiylikdan tortib to islomgacha bo'lgan barcha dinlari tomonidan munosib qadrlab kelingan".² Oxirgi yuz yillikda tabiat-jamiyat tizimidagi munosabatlarning buzilishi natijasida mintaqamizning ekologik tizimiga katta zarar yetkazildi. Ajdodlarimizning tabiatdan foydalanish sohasidagi an'anaviy qoidalari unutilib ketdi.

Jamiyatning milliy-ruhiy tiklanishi uning a'zolarining bilim, ilm, amaliy malaka va iste'dodga intilishlarida ham namoyon bo'ladi. Kishilarning ilm bilan bog'liq amaliy ko'nikmalarini rivojlantirmasdan turib jamiyat taraqqiyotini tasavvur etish mumkin emas.

Inson, uning har tomonlama kamol topishi va farovonligi, shaxs manfaatlarini ro'yobga chiqarishning sharoitlarini va ta'sirchan mexanizmlarini yaratish, eskirgan tafakkur va ijtimoiy xulq-atvorning andozalarini o'zgartirishi jamiyatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi va harakatlantiruvchi kuchidir. Xalqning boy intellektual salohiyati asosida

¹ Karang: YO'ldoshev J., Xasanov S. Avestoda axloqiy ta'limiy qarashlar. – T.: O'qituvchi, 1992.

² Karimov I. A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. 145-bet

zamonaviy iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyalarning yutuqlari asosida kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish milliy taraqqiyotning muhim shartidir. Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ham ko'zda tutilgan asosiy maqsad – ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to'la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash milliy tizimini yaratishdir¹. Bu boradagi asosiy vazifalardan biri ta'lim oluvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning va ma'rifiy ishlarining samarali shakllari hamda uslublarini ishlab chiqish va joriy etish hisoblanadi. Muayyan ma'naviy ehtiyojlarga, axloqiy fazilatlariga ega bo'lmagan kishilarda ilm-fanni o'rganishga, halol mehnat qilib, hunar-kasbni egallashga, malaka oshirishga ishtiyoq ham bo'lmaydi. Shu sababli jamiyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida avval yoshlarni tarbiyalab, keyin ularga ta'lim berishgan. Milliy pedagogikada ta'lim-tarbiya ishlari tizimida ham axloq, odob tarbiyasi ustuvor ahamiyatga ega bo'lgan. Abdulla Avloniy inson ma'naviy kamolotining yo'llari ustida to'xtab, shunday deb yozadi: "Ilm dunyosining izzati, oxiratning sharofatidir. Ilm inson uchun g'oyat muqaddas bir fazilatdir, zeroki ilm bizga o'z ahvolimizni, harakatimizni oyna kabi ko'rsatur, zehnimizni, fikrimizni qilich kabi o'tkir qilur, ilmsiz odam mevasiz daraxt kabidur"².

Bilimga, ilmga ehtiyoj anglangan maqsadlar tizimidir. Binobarin, har bir davrning ehtiyojlari ham, ijtimoiy, iqtisodiy taraqqiyoti ham ilmiy tafakkur salohiyati darajasi bilan belgilanadi. Biror muammoni hal etish imkoniyatlarini inson o'z aql-zakovati, bilimi, kuchi va irodasi bilan aniqlaydi. Ma'lumki, ma'rifatparvarlik g'oyaviy-siyosiy yo'nalishining asosiy maqsadi Rossiya mustamlakachilik siyosati natijasida ma'naviy qashshoqlikka tushib qolgan Turkiston xalqlarini qaramlik zulmidan ozod etish, ularning jahondagi boshqa rivojlangan mamlakatlar xalqlari qatori yuksak sivilizatsiya sari taraqqiy etishini ta'minlashdan iborat edi. Bunga erishishning birdan bir yo'li xalqni savodxon qilish, ularni zamonaviy ilm-ma'rifat istiqbolidan bahramand qilishda deb biladilar. Bu vazifalarni hal etish uchun zamonaviy kadrlar bo'lishi zarurligini yaxshi anglashardi. "Agar biz madaniyat va iqtisod sohalarida boshqa mamlakatlarga qaram bo'lishni istamasak, biz milliy sudyalor, advokatlar, o'qituvchilar, davlat arboblari, injener, savodli tijoratchilarni

¹ Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: O'zbekiston, 1997, 10-bet

² Odob bo'stoni va axloq gulistoni. – T.: 1994, 10-bet.

tayyorlashimiz zarur. Ular savdo idoralari va banklarda bizga yordam berishlari, bizni manfaatlarimiz, dinimizni himoyachilari bo'lmog'li zarur. Busiz bizni kunimiz sanoqlangandir".¹ Behbudiyning bu fikrlari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgan emas.

Davlatimizning ta'lim sohasidagi islohatining asosiy yo'nalishlarini ta'lim tizimini tarkibiy jihatdan qayta qurish, ilg'or texnologiyalarni keng o'zlashtirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayanish, chet el va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilish va boshqalar tashkil qiladi. Ko'rinib turibdiki, bu masalalarni hal etmasdan biron natijaga erishib bo'lmaydi.

Har bir inson o'zining ma'lum bir ijtimoiy guruhga tegishli ekanligini va shu guruh manfaati tevaragida ekanini his qilgan. Har bir insonga o'zi mansub bo'lgan guruhning asrlar osha rivojlanib kelayotgan qonun qoidalari, urf odatlari va marosimlarining cheksiz hukmi singib ketgan. Va, ma'naviy hayot faoliyati, his-tuyg'ulari, kayfiyati, ijtimoiy-ruhiy kechinmalari o'sha etnik guruhning manfaati bilan belgilangan va boshqarilgan. Xalqimizning madaniy ma'naviy merosida katta ijtimoiy ahamiyatga molik bo'lgan turli xil bayramlar, xalqimiz ijod qilgan ommaviy o'yinlar mavsumiy va hunar kasb marosimlari ham muhim o'rin egallaydi. "Bayramlar va marosimlar ijtimoiy va shaxsly hayotning barcha tomonlarini qamrab oluvchi va kishilar o'zaro munosabatlarining turli jihatlari va shakllarida namoyon bo'luvchi muayyan urf odatlar va an'analar, axloqiy prinsiplar va huquqiy tartibotchilarning tarixan shakllangan yig'indisidir".²

Odat tusiga kirgan urf-odatlar, marosimlar kishilar xulq-atvorini boshqarar ekan, faqatgina jamoatchilik fikrigina emas, balki qaror topgan qonun qoidalar kuchini ham hisobga olgan. Vatanga sadoqat, ota-ona va keksalarga hurmat bolajonlik, kabi fazilatlar ijtimoiy xarakterga ega bo'lgan bayram va marosimlarda namoyish qilingan. Asrlar osha saqlanib kelayotgan, ijtimoiy jihatdan katta ahamiyat kasb etgan urf-odatlardan biri og'ir damlarda o'z yaqinlarining gadolik yoki daydilik qilishiga yo'l qo'ymaslikdir. Mabodo shunday vaziyat yuz bergudek bo'lsa, uning isnodi barcha qarindoshlarga, mahallaga kelgan. Bunday urf-odatlarining ijtimoiy ahamiyati bugungi kunda ham ko'pgina muammolarni yechishi mumkin. Ko'cha ko'ylardan tortib metropoliten vangonlarigacha har xil yoshdagi tilanchilar uchrab turgan bir paytda ushbu urf-odatlarga loqaydlik bilan qarash holatlari davom etmoqda.

¹ O'zbekistonda ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarixidan.- T.: O'zbekiston", 1995, 225-bet

² I. Jabborov O'zbek xalqi etnografiyasi. 91-bet.

Markaziy Osiyo xalqlari orasida keng tarqalgan Navro'z bayrami va marosimlari 2500 yildan beri nishonlanib kelinmoqda. Navro'z tabiatning uyg'onish davriga 20-21 martlarga to'g'ri keladi. Tantanalarda go'ja va sumalak pishirilgan. Urushlar to'xtatilgan, yarashish shartnomalari tuzilgan. Bayram nishonlashi bilan birga qarindoshlarni, do'stlarni yo'qlash, bemorlar xolidan xabar olish, marhumlar qabrini ziyorat qilish kabi odatlarga amal qilingan. Bayramning so'nggi kunlari ekish ishlariga tutashib ketgan.

Mustaqillik sharofati tufayli katta diniy bayramlardan Ro'za va Qurbon hayiti bayramlari tiklandi. Bu bayramda ham Navro'zdagi singari katta sayillar uyushtirilgan, harbiy harakatlar to'xtatilgan. Kambag'allarga, boquvchisini yo'qotganlarga atab sadaqalar beriladi. Qur'on va hadislar o'qiladi. Hayit bayramida sarpolar yangilanadi, mehmondorchilik kuchayadi. Hozir Respublikamizda ikkala hayit kuni ham dam olish kuni deb e'lon qilingan. Katta tadbirlar o'tkazilmoqda.

Islom Karimovning tashabbusi bilan 9-may G'alaba bayramini bundan buyon Xotira va qadrlash kuni deb e'lon qilindi. Bunda chuqur falsafiy-axlokiy mohiyat mavjud. "Aslini olganda, ma'naviyat va tarixiy xotira tushunchalari bir-biri bilan uzviy bog'liqdir. Marhumlar xotirasini eslash, e'zozlash - savob ish. Shuning uchun ham biz keng jamoatchilikning qo'llab-quvvatlashi bilan noma'lum soldat maydonini Xotira maydoni deb atashga ahd qildik"¹. Xotira maydoniga qadam bosgan har bir inson ikkinchi jahon urushi va keyingi urushlarda halok bo'lganlarning xotirasi oldida bosh egadi, ularni yodga oladi. Ularning qadr-qimmatini haqida o'ylar ekan, har bir inson oramizda hali hayot yurgan sobiq jangchilarni yanada izzat-ikrom qiladigan bo'ladi. Bu muqaddas maskanda faqat urushda halok bo'lgan jangchilargina emas, balki xalqimizning erki va ozodligi yo'lida jonini fido qilgan Usmon Nosir, Qodiriy, Behbudiy, Abdulla Avloniy singari minglab millatimiz fidoyilari yod etilganidir. Bu maskan shubhasiz xalqimizning go'zal ziyoratgohi va tarbiya maskani bo'lib qoladi. "Eng muhimi, bu maydon xalqimizni tarixiy xotira vositasida birlashtirishga xizmat qiladi"². Xalqimiz front chizig'ida va front ortida munosib xizmat qilgan farzandlarning qahramonligini hech qachon unutmaydi.

Urf-odatlar, an'analar xalqning o'tmishini bugun bilan, bugungi kuni kelajak bilan bog'laydi. Urf-odatlarni asrab avaylashdan maqsad, uni kelgusi avlodga yanada boyitgan holda topshirishdir. Faqatgina boyitgan holda kelgusi

¹ Karimov I.A. O'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan qurmoqdamiz, -Turkiston, 1999 yil, 2 fevral

² Karimov I.A. O'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan qurmoqdamiz, -Turkiston 1999 yil, 2 fevral

avlodga topshirish emas, balki ayni paytda ulardan xalqni jipslashtirishda, uyushtirishda, barqarorlik va tinchlikni saqlashda va boshqa muammolarni hal etishda ulardan foydalanish ham lozim.

An'ana va urf-odatlarini boyitish degani bu ularning sonini ko'paytirishdan iborat emas. An'ana o'ylab chiqarilmaydi yoki tepadan buyruq berish orqali ham amalga oshirilmaydi.

Avlodlar turli tarixiy davrlarda, turlicha bo'lgan iqtisodiy-siyosiy va ruhiy vaziyatlarda yashashadi. Ular turli ko'rinishlardagi siyosiy va iqtisodiy muammolarga duch kelishadi. Va bu muammolarni ular har xil ma'naviy vositalar va uslublar yordamida yechishadi. Bir qator jiddiy muammolarni yechishda ko'p bor ijobiy natijalar bergan ma'naviy omillar qadriyat va an'analar tusini olgan va avloddan avlodlarga o'tgan.

Xalqimizning ma'naviy tiklanishining yana bir manbai, unga xos bo'lgan yana bir xususiyat - bu xalqimizning etnik-madaniy va diniy sabr-bardoshligidir. "Ming yillar mobaynida Markaziy Osiyo g'oyat xilma-xil dinlar, madaniyatlar va turmush tarzlari tutashgan va tinch-totuv yashagan markaz bo'lib keldi. Etnik sabr-toqat, bag'rikenglik hayot bo'ronlaridan omon qolish va rivojlanish uchun zarur tabiiy meyorlarga aylandi"¹.

Bu o'lkada yashagan xalqlar bir-birining madaniyatini boyitgan. Turli din vakillari bu o'lkada inoq yashab kelinoqda. Ko'p millatli jamiyatimizda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikning ta'minlanishi, fuqarolar o'rtasida tinchlikning saqlanganligi milliy taraqqiyotning shartidir.

Ma'naviyat insonning botiniy olamidir. Unda insonlarning tarixan shakllangan tafakkur tarzi, an'analari, tasavvurlari o'z ifodasini topadi. Millatlar rivojida shunday ma'naviyat boyliklari mavjudki, u inson tafakkurining mahsuli sifatida barcha sinovlardan o'tib kelmoqda. Milliy ma'naviyatimiz qadr topayotgan hozirgi sharoitda, uni yanada mazmunan boyitishimiz, yangi avlodlarga yetkazib, boy ma'naviy meros sifatida qoldirishimiz millat oldidagi katta burchimizdir.

Hozirgi davrda ma'naviyat masalasi mastaqillikni mustahkamlash, istiqlol sari ishonch bilan borishning oqilona yo'lidir. Yetuk ma'naviyat sohibi bo'lgan xalqgina kelajak tomon aniq maqsad sari ahillik bilan bora oladi.

Ma'naviyatning umrboqiyiligi, uning inson, xalq va millatning, jamiyatning kuch-qudrat manbai ekanligi barchaga ayon. U bo'lmagan joyda baxt-saodat ham, iymon-ye'tiqod ham bo'lmaydi. Ma'naviyati yuksak xalqgina mastaqillik

¹ Karimov I. A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. - T.: O'zbekiston, 528 bet.

uchun kurashda o'zida kuch-qudrat topadi. Ma'naviyati yuksak xalq o'z-o'zini qadrlaydi. qaddini tik tutadi, o'tmishi bilan faxrlanadi, kelajakka ishonch bilan qaraydi. Ma'naviyat xalqlarni o'zaro ajratmaydi, balki ularni birlashtiradi, ular o'rtasidagi do'stlik, qardoshlik, ahillikni kuchaytiradi, ularni hamjihatlikka chorlaydi. "Ma'naviyat turli xalqlar va mamlakatlar kishilarini qon-qardosh qiladi. Ularning taqdirini o'zaro hurmat asosida yaqinlashtiradi. Bizning ma'naviyatimiz asrlar davomida million-million kishilar taqdiri bilan shakllangan. Uni o'lchab ham, poyoniga yetib ham bo'lmaydi. U inson uchun butun bir olam"¹. Ma'naviyat-taqdirning ehsoni emas. Uning inson qalbida kamol topishi uchun ko'p mehnat qilishi kerak. Ma'naviyatni mustahkamlash uchun mehnat va mablag'ni ayash o'z kelajagiga bolta urish demakdir.

Do'stlik, millatlararo hamjihatlik, bir-birini qo'llab-quvvatlash har bir xalq va millat kuch-qudratining asosidir. Jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy taraqqiyotning negizidir. Mustaqillikni mustahkamlash, tanlab olingan yo'ldan og'ishmay borish uchun xalqni shu maqsad yo'lida birlashtirish mafkuraning muhim vazifalaridan biridir.

Ma'naviyat va mafkura xalqimizning milliy g'ururiga, milliy iftixoriga ham asoslanadi. Milliy g'urur o'z xalqining tarixi, ma'naviy qadriyatlarini, jumhuriyatimizning imkoniyatlarini va istiqbolini bilish va qadrlash, faxrlanish, milliy manfaatlarni amalga oshirishga harakat qilish, boshqa xalqlar va millatlarining ham milliy qadr-qimmatini, udumlarini, tarixi, adabiyoti va san'atini adolatli ravishda himoya qilish bilan bog'liq bo'lgan fazilatdir. U kishilarni o'z kuchi, qobiliyati va iste'dodini milliy manfaatlar yo'lida sartlashga chorlaydi.

Milliy g'urur tuyg'usining yana bir jihati shundaki, u shaxsning o'zi yashab turgan zamanga, fuqaroligi dahldor bo'lgan mamlakatga munosabat belgisini ham qamrab oladi. "Milliy iftixori kuchli bo'lgan shaxs o'z mamlakati bilan faxrlana oladi va uning taqdiriga befarq qaray olmaydi. Milliy iftixori kuchli bo'lgan shaxs istiqbolni chuqurroq anglaydi. Uning ertasi bugunidan ko'ra mukammalroq bo'lishiga intiladi"¹. Milliy iftixor eng avvalo milliy o'zlikni anglash, milliy ravnaqni ta'minlash yo'lidagi intilish, o'z millati oldidagi ma'suliyatdir. Milliy iftixor egasi bo'lgan kishi eng avvalo o'z millati o'tmishini yaxshi bilgan, uni qadrlay oladigan va uni boyitib boradigan insondir, o'z xalqining tarixini, milliy qadriyatlarini, tilini, istiqbol manfaatlarini bilmagan va qadrlamagan, milliy mansubligini unutgan, o'z

¹ Karimov I. A. O'zbekiston buyuk kelajak sari - T.: O'zbekiston, 60-61 bet.

¹ Ibrohimov A. va boshqalar. Vatan tuyg'usi. - T.: Sharq, 1997 yil, 298-bet

millatining istiqboli uchun qayg'urmaydigan, kurashmaydigan kishilarda milliy g'urur ham, millati bilan faxrlanish ham, millatparvarlik ham bo'lmaydi.

Milliy mustaqillikni mustahkamlashda xalqning milliy ruhiy tiklanishning ahamiyati to'g'risida gapirar ekanmiz, xulosa tariqasida quyidagi fikrlarni aytib o'tish mumkin.

Avvalambor. Prezidentimiz ta'kidlab o'tganidek, biron-bir jamiyat ma'naviy imkoniyatlarini odamlar ongida ma'naviy va ahloqiy qadriyatlarni rivojlantirmay hamda mustahkamlamay turib o'z istiqbolini tasavvur eta olmaydi. Xalqimizning ma'naviy merosi, urf-odatlar, an'analari ming yillar mobaynida sharq xalqlari uchun qudratli ma'naviyat manbai bo'lib xizmat qiladi. Mustaqillikning ilk kunlaridanoq ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan bebaho ma'naviy va madaniy merosni tiklash, uni xalqimizga qaytarish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. "Xalqimizning kelajagi, eng avvalo, uning o'ziga, ma'naviy qudratiga va milliy ongining ijodiy kuchiga bog'likdir. Moddiy farovonlikka intilish millatning ma'naviy va aqliy o'sish ehtiyoji g'ov bo'lmasligi lozim. Ma'naviylik va ma'rifiylik xalqimizning ko'p asrlik tarixi davomida doimo uning eng kuchli o'ziga xos xususiyati bo'lib keldi"². Shu xususiyatdan kelib chiqqan holda Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi tashkil etildi. Bu markaz yuksak tafakkur sohiblari ma'naviy, ilmiy salohiyatini Vatan istiqboli sari yo'naltirish lozim.

Ikkinchidan, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy sohalaridagi muammolarni hal qilishda xalqimizning kelajakka bo'lgan ishonchi muhim rol o'ynaydi. Bugungi kunimizning kechagi kunimizdan farqi shundaki, odamlarning tafakkuri yuksalib, hayotga munosabati o'zgarib bormoqda. o'tmish qoliplaridan voz kechgan jamiyatimiz a'zolari hayotdagi o'z o'rnini yangicha tasavvur etmoqda. O'z kuchiga ishonchi ortmoqda.

Kishilar hayotida umuminsoniy demokratik qadriyatlar mustahkamlanmoqda. I.Karimov O'zbekistonni rivojlantirish borasida amalga oshirilgan ishlarga, chiqarilgan xulosalarga to'xtalib shunday degan edi: "Bu yillar davomida biz erishgan eng katta va eng muhim yutuq – bu aholining faolligi oshayotgani, hayotimizni isloh etish va yangilash zarurligiga, mamlakatimizning kelajagiga bo'lgan qat'iy ishonchlikdir"¹. o'tmishdagi xalqimizning davlatchilik, ilmiy va ma'naviy merosi bu ishonchning negizini tashkil etadi. Shu bois tarix, falsafa, ma'naviyat va ma'rifat kursi kabi fanlarga

² Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. – T.: O'zbekiston, 535-536 betlar.

¹ Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. – T.: O'zbekiston, 1999, 10-bet

e'tiborni kuchaytirish lozim. Bu fanlar xalqimizning o'tmishi, buguni, kelajagi o'rtasida bog'lovchi bo'lmish mafkuraning xalqimizga singishida muhim o'rin tutadi.

Uchinchidan, xalqimizning milliy-ruhiy tiklanish milliy manfaatlarimizni anglab olishimizga katta yordam beradi. Manfaat bor joyda intilish bo'ladi. U jamiyat hayotining barcha sohalaridagi vazifalarni qamrab oladi. Bu yo'lda barcha millat vakillarini birlashtirishga xizmat qiladi. Xalqimizning milliy-ruhiy tiklanishi amalga oshirilayotgan barcha islohatlarning negizini tashkil etadi.

4. Ommaviy madaniyat va milliy o'zlikni anglash zaruriyatining kuchayishi. Bugun xalqimiz yangi sharoitda va yangi zamonda, globallashuvning kuchli bosimi ostida yashashga majbur bo'lmoqda. Yuqorida aytib o'tilganidek davr ma'naviy qadriyatlarga, milliy merosga yangicha munosabatda bo'lishni, yoshiarni millatparvarlik ruhida, vatanparvarlik ruhida tarbiyalashni talab etmoqda. Ularda milliy ong, milliy o'zlikni anglash har qachongidan yuqori va ta'sirchan kuchga ega bo'lishini talab etmoqda. Shunday ekan milliy o'zlikni anglash millat abadiyligini ta'minlaydigan omillardan biri sifatida ana shu sabab va zaruriyatga mos ravishda takomillashib borishi ta'lim tarbiya tizimi oldidagi asosiy vazifalardan biri bo'lib qoladi. Bu jarayonda uning ilgari mavjud bo'lgan qirralari baquvvatlashadi va yangilari vujudga keladi. Ammo, ularning hammasi faqat millatning ehtiyoji va manfaatlari o'sib borishi doirasi bilan cheklanmasdan, shuning bilan birga har bir tarixiy bosqichda milliy hayotga nisbatan amaldagi hokimiyatning olib boradigan siyosati va millatlararo yuzaga keladigan munosabatlar bilan bog'liq bo'ladi.

Ta'lim –tarbiya ishlarimizda bu borada asosiy e'tibor qaratishimiz zarur bo'lgan jihatlarga iborat bo'lishi lozim?

Birinchi navbatda ta'lim –tarbiya ishlarida milliy madaniyatimiz, xalq ma'naviy boyligining ildizlariga e'tibor berish zarur. Bu xazina asrlar davomida misqollab to'plangan. Tarixning ne-ne simovlaridan o'tgan. Insonlarga og'ir damlarda madad bo'lgan. Bizning vazifamiz – shu xazinani ko'z qorachig'imizdek asrash, yoshlarga yetkazish va yanada boyitish.

Masalaning ikkinchi bir tomoni – ma'rifat va madaniyatning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash. Insonning to'laqonli hayoti uchun nihoyatda zarur bo'lgan maktablar, kutubxonalar, teatr va boshqa madaniyat o'choqlarini ko'paytirish, ularning sharoitini yaxshilash. Biz ko'p yillar davomida ma'rifat va madaniyatga noto'g'ri munosabatda bo'ldik. Unga sarflanayotgan

mablag'lar doim boshqa sohalaridan kam bo'ldi. Natijada biz bu masalada o'rqada qolib ketdik.

Bundan buyon barcha rejalarimizda madaniyat, ma'rifat, jismoniy tarbiya va sport birinchi darajali vazifalar qatoridan joy olishi lozim.

Va nihoyat, shu sohalarda ishlayotgan kadrlar masalasi. O'qituvchilar va shifokorlar, madaniy-oqartuv muassasalaridagi va boshqa sohalaridagi ko'plab mutaxassislar – chinakam ziyolilardir. Ayniqsa, olimlar va ijodkor xodimlarimizga e'tiborni kuchaytirish kerak. Chunki ma'naviy boyliklarni aynan shular yaratadi. Ularga g'amxo'rlik qilish, samarali faoliyati uchun barcha zarur moddiy-ma'naviy sharoitlarni yaratib berish davlat hokimiyati va xo'jalik tashkilotlari rahbarlarining burchi va mas'uliyatli vazifasidir.

Yana bir dolzarb vazifa – o'sib kelayotgan avlodga, uning ma'naviy tarbiyasiga nihoyatda katta javobgarlik hissi bilan yondashish masalasi. Nega deganda, yoshlar xalq ma'naviyatining munosib egalari. Shuning uchun har bir o'g'il-qizimiz dastlabki qadamlaridan boshlab madaniy boyliklarimizdan bahramand bo'lishi kerak.

“Ommaviy madaniyat” hodisasi asosida birnecha omillarning chatishuvi yotadi. Ulardan birinchisi - imonsizlik, o'z insoniy burchi va mas'uliyatini tan olishni istamashlik, befarqlik va loqaydlik. Ikkinchisi - sanab o'tilgan qusurlarni oqlashga xizmat qiluvchi “dunyoni manfaat boshqaradi” (demak, bu dunyoda har kim o'z foydasi uchun qo'lidan kelgan harakatini qilsa, bo'laveradi, degan) dahriyona (aniqrog'i, xudbinona) tezis (“qoida”) asosida yashash. Bu ikki omil azaldan bo'lgan. Uchinchisi – oldingilaridan kelib chiqadigan axloqiy relyativizm, ya'ni dunyoda azaliy va abadiy qat'iy axloqiy meyorlar mavjud emas, ko'pchilik o'zini qanday tutayotgan bo'lsa, biz ham shunga qarab ketaveramiz, degan o'ysizlik, fikriy dangasalik tamoyili. Va nihoyat to'rtinchisi - bugungi axborot vositalarining cheksiz imkoniyatlari sharoitida yuqoridagi Prezident ta'rifiga muvofiq, befarqlik va o'ysizlik botqog'iga botgan kimsalarning dunyoni boshqarishga intilayotgan kichik bir guruh qo'lida qo'g'irchoqqa aylanib, o'zlarining eng tuban hayvoniy xohish va istaklarini ochiqdan-ochiq namoyon qilishni “umuminsoniy axloqiy meyorlar” darajasiga ko'tarishga urinishlaridir. Bunday holatlar Yevropa mintaqasi tarixida ilgari ham bo'lgan, ammo hech qachon bu daraja jahon miqyosida keng ko'lam kasb etmagan va bu darajada kuchli targ'ibot imkoniyatlariga ega bo'lmagan edi. Islom Karimov «Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch» asarida bu haqda shunday deyiladi: “Shuni unutmaslik kerakki, bugungi kunda inson

ma'naviyatiga qarshi yo'naltirilgan, bir qarashda arzimas bo'lib tuyuladigan kichkina xabar ham axborot olamidagi globallashuv shiddatidan kuch olib, ko'zga ko'rinmaydigan, lekin zararini hech narsa bilan qoplab bo'lmaydigan ulkan ziyon yetkazishi mumkin."

"Bugungi kunda dunyoning ayrim hududlarida, - deb kuyunchaklik bilan qayd etiladi Islom Karimov «Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch» asarida, - katta ma'naviy yo'qotishlar yuz berayotgani, millatning asriy qadriyatleri, milliy tafakkuri va turmush tarzi izdan chiqayotgani, axloq-odob, oila va jamiyat hayoti, ongli yashash tarzi jiddiy xavf ostida qolayotganini kuzatish mumkin."

"Hozirgi vaqtda axloqsizlikni madaniyat deb bilish va aksincha, asl ma'naviy qadriyatlarni mensimasdan, eskilik sarqiti deb qarash bilan bog'liq holatlar bugungi taraqqiyotga, inson hayoti, oila muqaddasligi va yoshlar tarbiyasiga katta xavf solmoqda", - deb yozadi Islom Karimov «Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch» asarida va bunday xatarli holatdan faqat o'z xalqini emas, balki butun jahon afkor ommasini ogohlantirish lozim deb biladi.

"Ma'naviy tahdid deganda,- o'rinli izoh berib o'tadi Islom Karimov - avvalo, tili, dini, e'tiqodidan qat'i nazar, har qaysi odamning tom ma'nodagi erkin inson bo'lib yashashiga qarshi qaratilgan, uning aynan ruhiy dunyosini izdan chiqarish maqsadini ko'zda tutadigan mafkuraviy, g'oyaviy va informatsion xurujlarni nazarda tutish lozim, deb o'ylayman."

Islom Karimov topib aytganidek, "kimdir Rahmon izmida yursa, kimdir shayton izmida yuradi," har kimning gunohi ham , savobi ham o'ziga. Ammo bostirib kelayotgan xavfni ko'rib turib, ko'rmaslikka olish, hoziri-yu huzuri, o'zimning ishim bitsa bo'ldi-da, o'zga bilan nima ishim bor, degan kayfiyat bizga to'g'ri kelmaydi. Qolaversa, gap bizdan keyin shu yurtning chirog'ini yoqib o'tiradigan bolajonlarimiz taqdiri ustida ketayapti.

Vaziyatning murakkabligi shundaki, bugungi kunda yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi kurash va ziddiyatlar faqat saltanatlar, xalqlar va shaxslar o'rtasida emas, balki har birimizning qalbimizda, ongimizda kechmoqda¹. Ya'ni bu muammolar faqat yosh avlodgagina taalluqli emas. Dushman ochiq-oydin o'zini ko'rsatmaydi: siz maxsus kabel orqali berilib kino ko'rib o'tiribsiz, yoki internet orqali muayyan saytlardagi ma'lumotlar bilan tanishayapsiz, ko'chada turli reklamalar diqqatingizni tortayapti, elitivot bo'ling, sizni kerakli yo'nalishda "tarbiya" qilishayapti, o'z qarashlarini turli vositalar bilan

¹ Ma'naviy yuksalish yo'lida. – T.: 2008. S. 40-41.

ongingizga singdirishayapti. Shunday, "ular ko'pincha turli niqoblar, jozibali shior va g'oyalar pardasi ostida ish ko'radi." Biz esa sal g'aflatga berilsak, ongimizdagi o'zgarishlarni o'zimiz ham payqamay qolamiz. Go'yoki hech kim bizga tajovuz ham qilgani yo'q, majbur ham qilgani yo'q, biz o'z ixtiyorimiz bilan "mustaqil" ravishda shu "xulosa"ga keldik. Bu yerda ta'sir o'tkazishning shunday makkorona usullari qo'llanmoqda-ki, uncha-muncha odam g'aflatda qolishi hech gap emas. Aslida imonli, e'tiborli inson bunday makru hiylalarni juda oson bilib olsa bo'ladi – ular barchasi insonlar ongining eng tubiga joylashgan biologik (hayvoniy) instinktlarni qo'zg'ashga qaratilgan, bunday filmlarda eng ezgu niyatlar ham qo'lda avtomat bilan amalga oshiriladi, eng ijobiy qahramonlar ham shahvatga beriladi, oddiy hazillar ham o'zini hurmat qilgan inson uchun haqoratli holatlar shaklida yoki hayosiz iboralarda ifodalanadi.

"Lo'nda qilib aytadigan bo'lsak, - xulosa qiladi Islom Karimov, - bunday mafkuraviy xurujlar milliy va diniy tomirlarimizga bolta urishini, ulardan bizni butunlay uzib tashlashdek yovuz maqsadlarni ko'zlashini, o'ylaymanki, yurtimizda yashaydigan sog'lom fikrli har bir odam yaxshi tushunadi."

Insonga faqat atrof-voqelik haqida, odobu axloq qoidalari haqida bilim berishning o'zi uning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi uchun yetarli bo'lmaydi. Unda iroda qudrati, mas'uliyat tuyg'usini shakllantirish, ko'nglida atrof-tabiatga, mehnatga, kasbga, ilmga, o'zga insonlarga mehr uyg'otish, dilida ulug' maqsadlar tug'ilishiga erishish lozim. Masalan, tan olib aytish kerakki, Vatan yoki Adolat tuyg'usi haqida «Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch» asaridalarda yozilganlarni o'qib chiqqan odam darhol Vatanning qadriga yetadigan, yoki Adolatga xiyonat qilmaydigan bo'lib qoladi, deb tasavvur qilish o'ta soddalik bo'lur edi. Har bir inson Vatan, Millat, Adolat timsoltushunchalarining o'z ruhidagi poydor ma'naviy qadriyatlarga aylanishi uchun o'zгалar ibratida sinashi, bu yo'lda riyozat chekishi, ularga nisbatan ko'ngllda mehr uyg'onishi zarur. Bunga turli yo'llar, turli vositalar bilan, birinchi navbatda yosh avlod tarbiyasiga samimiy (chin ko'ngildan) va izchil yondoshuv, tinimsiz izlanishlar bilan erishiladi.

Tayanch so'z va iboralar

Millat, milliy o'zlikni anglash, milliy ong, milliy meros, globalistlar, globallashuv, demografik globallashuv, inson ongi va qalbi uchun kurash,

madaniy globallashuv, mafkuraviy immunitet, ma'naviy-mafkuraviy jarayonlarning globallashuvi, YUNESKO, "Ommaviy madaniyat".

Takrorlash uchun savollar

1. Globallashuvning millat hayotiga ta'siri qanday ta'sir etmoqda?
2. Milliy o'zlikni anglash omillari nimalardan iborat?
3. Milliy –ma'naviy tiklanish omillarini ayting?
4. "Ommaviy madaniyat" mazmun-mohiyati nimada?
5. Milliy o'zlikni anglashni yuksaltirishda ta'lim oldidagi vazifalar?

14-§. MILLIY TARAQQIYOTNING MA'NAVIY-AXLOQIY NEGIZLARI.

Reja

1. Taraqqiyot yo'llning zaminlari.
2. Mustaqil O'zbekistonni rivojlantirishning ma'naviy-axloqiy negizlari.
3. Umuminsoniy qadriyatlar va milliy ma'naviyat nisbati.

1. Taraqqiyot yo'lining zammlari. Jahon tajribasidan bizga ma'lumki, o'z davlatchiligini qo'lga kiritish, milliy va ijtimoiy ozodlikka erishish hech qayerda yengil va osonlik bo'lmagan. Mustaqilikka erishgan har bir mamlakat mavjud ijtimoiy-tarixiy, iqtisodiy vaziyatdan kelib chiqib o'z taraqqiyot yo'lini izlaydi, yangi jamiyat barpo etishda o'z andozasini ishlab chiqishga kirishadi. Ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy vaziyat, odamlar o'rtasida tarkib topgan munosabatlar, ularning dunyoqarashi, diniy e'tiqodi, turmush va tafakkur tarzi, axloqiy normalari shuni taqozo etadi. O'z milliy davlatyailigini barpo etish, ijtimoiy taraqqiyotni ta'minlash, demokratik, erkin bozor iqtisodiyotiga asoslangan jamiyat barpo etishda dunyoda keng tarqalgan taraqqiyot yo'lining turli variantlari mavjud. Turkiya, Janubiy Koreya, Shvetsiya modellari va boshqalar bunga misol tariqasida aytish mumkin. Islom Karimov ta'kidlaganidek "O'zbekiston boshqa davlatlar taraqqiyoti jarayonida to'plangan va respublika sharoitiga tadbiiq qilsa bo'ladigan barcha ijobiy va maqbul tajribalardan shiak-shubhasiz samarali foydalanadi. Gap biron-bir modelni, hatto u ijobiy natijalar bergan taqdirda ham, ko'r-ko'rona ko'chirib olish to'g'risida borayotgani yo'q. Amiq-ravshan vositalar va usullar qaysi

mamlakat uchun mo'ljallangan bo'lsa, o'sha mamlakatning o'ziga xos sharoitidagina ijobiy natija beradi¹. Aytish mumkinki, ushbu ijtimoiy taraqqiyot yo'llari o'ziga xos tarixiy vaziyatdan kelib, mavjud tabiiy, iqtisodiy, ilmiy-texnik imkoniyatlarga tayanilib ishlab chiqilgan, amalga oshirilgan.

O'zbekiston jahon va o'zimizning amaliyotimizdan olingan barcha umumiy tajribani rad etmagan holda o'z ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-huquqiy taraqqiyot yo'limizni tanlab oldi. Bu - o'tmish yillarning xatolarini, davlat tuzilishining shakl va usullariga nisbatan mavjud qarashlarni idrok etish natijasidir. Bu - tarkib topgan ijtimoiy voqeikka berilgan real bahodir. Bu - O'zbekiston xalqining ijtimoiy taraqqiyotga, munosib turmush sharoitiga intilishidir.

Shuni alohida ta'kidlash zarurki, tanlab olingan yo'lning asosiy mazmuni va mohiyatini soxta inqilobiy sakrashsiz, fojiali oqibatlarisiz va kuchli ijtimoiy larzalarsiz, evolyusion yo'l bilan normal, madaniyatli taraqqiyotga o'tish tashkil etadi.

Shunday ekan O'zbekistonning mustaqilligiga erishishdan iborat o'z yo'li respublikani rivojlantirishning quyidagi asosiy o'ziga xos xususiyatlari va shart-sharoitlarini har tomonlama hisobga olishga asoslanadi.

Birinchidan. Aholining milliy-tarixiy turmush va tafakkur tarzidan, xalq an'analari va urf-odatlaridan kelib chiqadi. Ildizi o'tmishdagi an'anaviy jamoa turmush tarziga borib taqaladigan jamoaviylik asoslari xalqimizga tarixan xosdir.

Ikkinchidan. Mamlakatimizdagi o'ziga xos demografik vaziyat g'oyat muhim xususiyatlardan biridir. Jumhuriyatimizda aholi va mehnat resurslari har yili yuksak sur'atlar bilan o'sib bormoqda. 2018 yilning yanvariga kelib mamlakatimiz aholisi 32 milliondan oshib ketdi. Aholining yarmidan ko'prog'i qishloq joylarda yashab asosan dehqonchilik bilan shug'ullanadi. Aholi tarkibining 60 foizdan ko'prog'i bolalar, o'smirlar, 30 yoshgacha bo'lgan yigit-qizlarga to'g'ri keladi.

Uchinchidan. Mamlakat aholisi milliy tarkibining o'ziga xosligidir. Etnik tarkibda tub aholi ustun mavqeni egallaydi. Shu bilan bir vaqtda respublika hududida o'z madaniyati va an'anasiga ega bo'lgan yuzdan ziyod millat vakillari yashab turibdi. O'zbekistonning milliy-madaniy jihatdan g'oyat rang-barangligi milliy o'zligini anglash va ma'naviy qayta tiklanishning kuchayib borishi bilan uzviy birlikda jamiyatni yangilash, uni ochiq jamiyatga aylantirish uchun qudratli omil bo'lib xizmat qiladi va respublikaning jahon hamjamiyatiga qo'shilishi uchun qulay sharoitlarni vujudga keltiradi.

To'rtinchidan. O'zbekistonning geosiyosiy mavqei ham juda qulay. Qadim karvon yo'llari bizning yerimizdan o'tgan. Bizning ko'hna shaharlarimizda va bozorlarimizda yuzlab lahjalar jaranglagan. Dunyo mamlakatlarining o'zaro savdo va madaniy aloqalarida o'zbek tuprog'i ko'prik vositasini o'tagan. Bugungi kunda ham O'zbekiston Markaziy Osiyoda yetakchi o'rin tutadi. Uning avtonom energetika va suv sistemalari bor. Ko'p jihatlardan mintaqa respublikalari o'rtasida bog'lovchi rolini o'ynaydi va xorijiy mamlakatlar bilan hamkorlikni rivojlantirishda faollashib bormoqda.

Beshinchidan. O'zbekistonda islohatlar o'tkazishga mavjud tabiiy iqlim shart-sharoitlari ham katta ta'sir qiladi, albatta. Respublikada suv resurslari hisobli. Yetishtiriladigan ziroatlar suvni ko'p talab qiladi. O'zbekiston nafaqat Markaziy Osiyoda, balki dunyoda ham muhim strategik mahsulot - paxta va undan ishlanadigan mahsulotlarni eksport qilishda yetakchi o'rin tutadi. Meva-cheva, sabzavot, pilla va boshqa mahsulotlar bo'yicha ham chet ellarga eksport qilish qudratiga egamiz. Tuprog'imizning har bir qarichi tilla, qunt qilgan odam har yili bir necha bor hosil ko'tarishi mumkin.

Oltinchidan. O'zbekiston respublikaning siyosiy va iqtisodiy mustaqilligini himoya qilish imkonini beradigan yetarli potensialga ega. Yer bag'rining g'oyat qimmatli mineral xom ashyolarga boyligi chuqur tarkibiy o'zgartishlarni amalga oshirish, respublikaning jahon bozoriga chiqishini ta'minlaydigan tarmoqlarni rivojlantirish imkonini bermoqda. Shu jihatdan xalq xo'jaligining asosan xom ashyo yetishtirishga yo'naltirilganligini bartaraf etish va shu sababli iqtisodiyot tuzilmalari haddan tashqari bir tomonlama rivojlanganligiga, sobiq markaz o'tkazib kelgan yakkahokimlik siyosatining natijasi bo'lmish qaramlikka, ya'ni texnologiya va resurs jihatdan boshqa respublikalarga qaram bo'lib qolishga barham berish hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda.

Yuqorida qayd etilgan o'ziga xos shart-sharoitlar ham alohida, ham birgalikda hozirgi bosqichda O'zbekiston ichki va tashqi siyosatining o'ziga xos xususiyatlarini belgilab beradi.

Yangilanish va ijtimoiy taraqqiyotning o'zimiz tanlagan yo'li - murakkab jarayon bo'lib, respublika ijtimoiy turmushlning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, ma'naviy-madaniy va boshqa barcha sohalarini qamrab oladi. Bu yo'l mustaqil O'zbekiston ichki va tashqi siyosatining umumiy strategiyasini belgilab beradi.

2. Mustaqil O'zbekistonni rivojlantirishning ma'naviy-axloqiy negizlari. Ma'naviyat jamiyat taraqqiyoti, millat kamoloti va shaxs barkamolligini

belgilab beruvchi asosiy mezonlardan biri hisoblanadi. Chunki, ma'naviyat rivojlangandagina jamiyatda iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy barqarorlik vujudga keladi, hamda mamlakat va millat taraqqiy etadi. Bu o'z navbatida shaxsning barkamol rivojlanishi uchun zarur bo'lgan zamin bo'lib xizmat qiladi. Buni chuqur his qilgan va o'z qalbidan o'tkazgan birinchi Prezidentimiz I.A Karimov mamlakatimiz o'z mustaqilligini qo'lga kiritgandan keyin ona zaminimizda demokratik jamiyatni qurishning nazariy konsepsiyasini ishlab chiqar ekan, iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy hayotni qayta qurishni milliy-ma'naviy tiklanish bilan uyg'un holatda bo'lishi kerakligini ham ilmiy asoslab berdi. U o'zining hajmi jihatdan kichik bo'lsa ham, ammo mamlakatimizda yangi jamiyat qurishning ilmiy-nazariy asoslarini aks ettirilishi jihatdan mukammal, fundamental dastur bo'lgan «O'zbekistonning o'z istiqloli va taraqqiyoti» nomli asarida mustaqillikdan keyin O'zbekistonni rivojlantirishning ma'naviy sohasidagi strategik vazifalarini ham belgilab berdi. Unda iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy hayotni qayta qurish sohasida ilgari surilgan barcha g'oyalar o'tgan davrda o'zining ifodasini topdi va jamiyatimiz tubdan yangi bosqichga ko'tarildi.

I.A Karimov asarida mustaqil O'zbekistonni rivojlantirishning ma'naviy-axloqiy negizlarini belgilab berar ekan. «O'zbekistonni yangilash va rivojlantirishning o'z yo'li to'rtta asosiy negizga asoslanadi» – deb ko'rsatadi va quyidagilarni belgilab beradi:

- umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik;
- xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish;
- insonning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi;
- vatanparvarlik.

Asarda ana shu negizlarning mohiyati ham ochib berilgan. Jumladan, I.A Karimov shunday yozadi: «Mustaqil O'zbekistonning kuch-qudrati manbai – xalqimizning umuminsoniy qadriyatlarga sodiqligidir.

Xalqimiz adolat, tinchlik, ahil-qo'shnichilik va insonparvarlikning nozik kurtaklarini asrlar osha avaylab – asrab kelmoqda. O'zbekistonni yangilashning oliy maqsadi ana shu an'analarni qayta tiklash, ularga yangi mazmun bag'ishlash, zaminimizda tinchlik va demokratiya, farovonlik, madaniyat, vijdon erkinligi va har bir kishini kamol toptirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratishdir».

Xalqimizning ma'naviy ildizlari chuqur ekanligini alohida ta'kidlash lozim. Bu masalaga alohida e'tibor berish zarurligini ta'kidlayotganimizga asosiy

sabab shuki, ma'naviy merosimizni qayta tiklash g'oyasini ijodiy rivojlantiriladi va uning millatimiz ma'naviy taraqqiyoti uchun asosiy yo'nalish bo'lishini asoslab beradi.

I.A.Karimov xalqimizning buyuk fazilatlarini haqida to'xtalib insonparvarlikning o'zbeklarga xos qirralarini ko'rsatib berishga e'tiborni qaratadi. Jumladan, «Insonparvarlik bu o'zbek xalqi milliy ruhiyatining ajralmas fazilatidir. Shafqatsizlik va zo'ravonlik uning tabiatiga yotdir». Huddi mana shu fazilatlarimizning mohiyatini talabalarga yetkazish ta'lim jarayonining diqqat markazida bo'lishi zarur. Chunki milliy ma'naviyatimizning asosiy manbalari ana shunga borib taqaladi. Bugungi yoshlarimiz buning mohiyatiga yetib borishlari zarurdir.

Asarda ma'naviyatning xalqimizning ma'naviy ruhini mustahkamlash va rivojlantirishdagi roli ham asoslab berilgan. Jumladan, Islom Karimov shunday yozadi: «Xalqimizning ma'naviy ruhini mustahkamlash va rivojlantirish – O'zbekistonda davlat va jamiyatning eng muhim vazifasidir. Ma'naviyat shunday qimmatbaho mevaki, u bizning qadimiy va navqiron xalqimizning qalbida butun insoniyatning ulkan oilasida o'z mustaqilligini tushunib yetish va ozodlikni sevish tuyg'usi bilan yetilgan».

I.A Karimov o'z asarida mamlakatimizda milliy ma'naviyatni tiklash va rivojlantirish davlat siyosatida ustivor vazifa ekanligiga e'tiborni qaratib quyidagi konseptual g'oyani ilgari suradi. U shunday yozadi: «Oldin odamlarga moddiy boyluk berish, so'ngra ma'naviyat to'g'risida o'ylash kerak deydig'lar haq bo'lmasa kerak. Ma'naviyat – insonning, xalqning, jamiyat, davlatning kuch-qudratidir. U yo'q joyda hech qachon baxt-saodat bo'lmaydi...»

Islom Karimov tomonidan ilgari surilgan bu konseptual g'oyaning nazariy va amaliy ahamiyati shundaki: birinchidan, bu bilan muallif sobiq sho'rolar davrida ma'naviyatni rivojlantirishga uchinchi darajali omil sifatida qaralishining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy-ma'rifiy inqirozining sabablarini ham ko'rsatib beradi. Ikkinchidan, ma'naviyatni rivojlantirmasdan, shaxsning ma'naviy-ruhiyatini o'zgartirmasdan turib jamiyatda ko'zlangan maqsadni amalga oshirish mumkin emasligiga asosiy e'tiborni qaratgan.

Islom Karimovning yana bir muhim konseptual g'oyasi ma'naviyat shaxsning eng muhim mezoni va shuning bilan birga uni kamolotga eltuvchi, o'z-o'zini anglatuvchi va o'z imkoniyatlarini yuzaga chiqartiruvchi ulkan omil ekanligini ilmiy asoslaganligidir.

I.A.Karimovning milliy-ma'naviy tiklanishga bag'ishlangan konsepsiyasida vatanparvarlikning shaxs ma'naviyatining ajralmas qismi ekanligini asoslab berish alohida o'rinni egallaydi. Haqiqatan ham o'z Vatani sevmagan, uning har qarich yeri uchun mas'ulligini his etmagan har bir inson ma'naviy jihatdan qashshoq hisoblanadi. Bunday fazilatlar milliy taraqqiyotning muhim zaminlaridan biri hisoblanadi. Aksincha bo'lsachi? Agar diqqat bilan e'tibor beradigan bo'lsak Liviya, Suriya, Ukrainada ro'y bergan ijtimoiy-siyosiy voqealar rivoji, qonli inqirozlar nega yuz berdi?

Islom Karimov mazkur asardagi milliy-ma'naviy tiklanish vazifasini amalga oshirishga bag'ishlangan konsepsiyalarini o'zining boshqa asarlarida ijodiy rivojlantirgan, yangi mazmun bilan boyitgan, taraqqiyotimizning yangi bosqichida yuzaga kelayotgan muammolarni hal qilish ehtiyojlariga mos ravishda uning yangi yo'nalishlarini belgilab bergan.

Islom Karimovning asarlarida ilgari surilgan konseptual g'oyalarni umumlashtiradigan bo'lsak, ular quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

- ma'naviy meros va diniy qadriyatlarni chuqur o'zlashtirish, millatimizning o'z-o'zini anglashiga erishish, milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini izchillik bilan mustahkamlash;

- mustaqillik sharoitida milliy g'oya va milliy mafkurani shakllantirish hamda uni xalqimiz dunyoqarashiga aylanishiga erishish;

- ta'lim tizimini isloh qilish, kadrlar tayyorlashning milliy dasturini amalga oshirish asosida barkamol avlodni shakllantirish, sog'lom avlod dasturini amalga oshirish asosida jismonan baquvvat, ruhi, fikri sog'lom, iymon-yetiqlik butun, bilimli, ma'naviyati yuksak, mard va jasur vatanparvar avlodimizni shakllantirish;

- milliy-ma'naviy salohiyatimizning jahon sivilizasiyasidagi o'rnini tiklash va bugungi kunda ma'naviyat, ma'rifat, fan, texnika, texnologiya yutuqlarini chuqur o'zlashtirish asosida hozirgi zamon umumjahon ma'naviyati tizimi rivojiga hissa qo'shish;

- yoshlar ma'naviyatini milliy istiqloq g'oyalari bilan boyitib borish, ular ongida mafkuraviy immunitetni kuchaytirish;

- insoniyatning asrlar davomida yaratgan va umumjahon mulkiga aylangan barcha boyliklarini milliy-ma'naviy salohiyatimizning ajralmas qismiga aylantirish kabilardir.

Ajdodlarimizdan qolgan meros har bir millatning nafaqat o'tmishi, shuning bilan birga istiqboli uchun ham kuch, fidoylik va ilhom manbai hisoblanadi.

Shuning uchun ham Islom Karimov «Hozirgi O'zbekiston deb ataluvchi hudud, ya'ni bizning Vatanimiz nafaqat Sharq, balki umumjahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo'lganligini butun jahon tan olmoqda. Bu qadimiy va tabarruk tuproqdan buyuk allomalar, fozilu-fuzolalar, olimu-ulomolar, siyosatchilar, sarkardalar yetishib chiqqan.

Diniy va dunyoviy ilmlarning asoslari mana shu zaminda yaratilgan. sayqal topgan.

Ota-bobolarimizning asrlar davomida to'plagan hayotiy tajribalari, diniy, axloqiy, ilmiy qarashlarini o'zida mujassam etgan bu nodir qo'lyozmalarni jiddiy o'rganish davri keldi» - deb ta'kidlaydi. Uning «O'zlikni anglash tarixni bilisbdan boshlanadi. Inson uchun tarixdan judo bo'lish hayotdan judo bo'lish demakdir» - degan g'oyalari har bir vatandoshimizning, ayniqsa yoshlarimizning ma'naviy merosimizni chuqur o'rganish zarurligi milliy ma'naviy tiklanishimizning bosh vazifasi ekanligini tushunib yetishga qaratilgandir.

I.A Karimov milliy mafkuraning milliy ma'naviy tiklanish va mamlakatimizda demokratik jamiyat qurishdagi ahamiyati va rolini ilmiy asoslashga katta e'tibor qaratadi. Milliy mafkura-millatni birlashtiradi, mafkurasiz odam, jamiyat, davlat o'z yo'lini yo'qotadi.

Milliy mafkura vositasida el-yurt birlashadi o'z oldiga buyuk maqsadlar qo'yadi va ularni ado etishga qodir bo'ladi»-deb ta'kidlaydi. Islom Karimov o'z navbatida milliy g'oyaning vazifalarini aniq belgilab beradi: «... milliy g'oya birinchi navbatda yosh avlodimizni vatanparvarlik, el-yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash ularning qalbiga insonparvarlik va odamiylik fazilatlarini payvand qilishlik oliyjanob ishlarimizda madadkor bo'lishi zarur» ligini belgilab beradi. Mamlakatimiz bugungi kunda totalitar tuzum hukumronligidan ozod bo'lib demokratik jamiyatni qurish sari dadil qadam tashlamoqda. Tabiiyki, jamiyat bir bosqichdan ikkinchisiga o'tish, yana boz ustiga zo'rovonlik asosida qurilgan jamiyatdan ma'rifatli inson manfatlari, shaxs erkinligi va kamolotiga xizmat qiluvchi demokratik jamiyatga o'tish oson kechmaydi, chunki eski tuzum illatlari hali saqlanib turadi. O'z umrini uzaytirish uchun jon jahdi bilan qarshilik ko'rsatadi, yangi jamiyat esa qisqa muhlatda qurilmaydi, balki ma'lum vaqtni, unda yashayotgan barcha insonlarning fidoyilik bilan mehnat qilishlarini talab etadi. Huddi mana shu jarayonda yuzaga kelgan muammolarni hal qilish uchun yuksak ma'naviy e'tiqod va sabr-toqat bilan odamlarni uyushtirish, ular

dunyoqarashida yangi jamiyat taffakkurini shakllantirish muhim vazifa darajasiga ko'tariladi.

Mamlakatimizda ana shu buyuk muammolarni hal etish jarayonlari ketmoqda. Ularni mavaffaqiyatli hal etishda ertangi kunimiz davomchilari bo'lgan yosh avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishimiz zarur. Shuning uchun ham prezidentimiz og'ir iqtisodiy muammolarni hal etish jarayonlari murakkab holatda kechayotganligiga qaramasdan kadrlar tayyorlash dasturini ishlab chiqish, uni qabul qilish va hayotga tadbiiq etish masalasini asosiy vazifa sifatida belgilab berdi hamda uni amalga oshirishda rahbarlik qilmoqda. U Oliy Majlisning IX sessiyasidagi ma'ruzasida bu dasturning ahamiyatini shunday ta'kidladi: «Lo'nda qilib aytganda, bugungi kunda oldimizga qo'ygan buyuk maqsadlarimizga, ezgu niyatlarimizga erishishimiz, jamiyatimizning yangilanishi, hayotimizning taraqqiyoti va istiqboli amalga oshirilayotgan islohatlarimiz, rejalarimizning samarali taqdiri – bularning barchasi, avvalambor, zamon talablariga javob beradigan yuqori malakali, ongli, mutaxassis kadrlar tayyorlash muammosi bilan chambarchas bog'liqligini barchamiz anglab yetmoqdamiz».

Islom Karimovning milliy-ma'naviy tiklanishni amalga oshirishga xizmat qiluvchi yana bir konseptual g'oyasi sog'lom avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish zaruriyatini ilmiy asoslanganligidir. Uning sog'lom avlod konsepsiyasida shaxsning jismonan, ruhan baquvvat bo'lishi, yuksak bilim, ma'naviyat, tafakkur va fidoyi vatanparvar bo'lishi kabi talablarga javob beradigan avlodni nazarda tutiladi. Shuning uchun ham u «...farzandlari sog'lom yurt qudratli bo'ladi, qudratli yurtning farzandlari sog'lom bo'ladi» – degan g'oyani ilgari suradi.

Milliy-ma'naviy tiklanishimizda yoshlarimiz ma'naviyatini yuksak darajaga ko'tarish, ularning hozirgi zamon fan, texnika va texnologiya yutuqlarini chuqur o'zlashtirishlari katta omil ekanligi Prezidentimiz tomonidan ilmiy asoslangan.

Haqiqatdan ham jahonning rivojlangan mamlakatlari tajribalari ko'rsatib turibdiki, qaysi mamlakat yoshlari zamonaviy fan, texnika va texnologiya yutuqlarini qanchalik mukammal egallasa, mamlakat taraqqiyotiga qo'shadigan hissalar shunchalik samarali bo'ladi, ma'naviyat yuksaladi va mamlakatning hozirgi zamon jahon sivilizatsiya tizimiga kirib borishi tezlashadi.

Islom Karimov ishlab chiqqan milliy-ma'naviy tiklanish konsepsiyasida insoniyatning asrlar davomida yaratgan va umumjahon mulkiga aylangan

barcha boyliklarini milliy ma'naviyatimizning ajralmas qismiga aylantirish ham asosiy o'rinni egallaydi. Jumladan, u «Fidokor» gazetasi muxbiri bergan savollariga bergan javoblarida dunyo xalqlari ma'naviy mulkiga aylangan faylasuflarning asarlari haligacha o'zbek tilida yoshlarimizga yetib bormaganligini qattiq tanqid qilib shunday ta'kidlaydi: «Dunyo tan olgan ko'p ulug' faylasuflarning asarlari hanuzgacha o'zbek tilida nashr etilmagan tufayli aksariyat ziyolilar, xususan, yoshlarimiz ularning g'oyaviy qarashlari bilan yaxshi tanish emas Sokrat va Platon, Nitshe va Freyd kabi olimlarning hozirgi zamon chet el faylasuflarining kitoblarini ham tushunarli qilib, izoh va sharhlar bilan o'zbek tilida chop etish nahotki mumkin bo'lmasa?».

Yuqorida keltirilganlardan ko'rinib turibdiki, birinchi Prezidentimiz milliy-ma'naviy rivojlanishimizni jahon xalqlarining ilg'or ma'naviyat tafakkuri taraqqiyoti bilan uyg'un ravishda rivojlantirish vazifasini kun tartibiga qo'yimoqda.

Birinchi Prezidentimiz tomonidan ishlab chiqilgan milliy-ma'naviy tiklanishning ilmiy-nazariy konsepsiyasi juda katta amaliy ahamiyatga egadir. Bu mustaqillik yillarida ma'naviy taraqqiyotimizda qo'lga kiritilgan yutuqlar misolida o'z tasdig'ini topdi.

Mustaqillik tufayli boshlangan tarixiy taraqqiyot yo'lidan og'ishmay olg'a rivojlanib borayotgan O'zbekiston Respublikasi oldida endilikda bir qancha muhim vazifa va muammolar turibdi. Ana shulardan biri milliy mafkurani yaratish, uni xalq orasida jadal keng yoyishdan iborat.

O'zbekiston o'zining mustaqil taraqqiyot yo'liga qadam qo'ygan dastlabki kunlarida - eski mafkuradan butunlay voz kechilayotgan, yangi mafkura esa hali ishlab chiqilmagan, ilmiy asoslab berilmagan kezlarda, ma'naviyat sohasida bo'shliq paydo bo'ldi. Shuning uchun ham yangi milliy g'oya, milliy mafkurani yaratish zarurati kun tartibidagi asosiy masala bo'lib qoldi.

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Karimov I.A Respublika Oliy Kengashi o'n ikkinchi sessiyasida so'zlagan nutqida: «Oldimizda turgan eng muhim masala, bu milliy mafkurani yaratish va hayotimizga tadbiq etishdir», - degan edi.

Shuni aytish kearakki, hech qanday jamiyat va millat mafkurasiz yashay olmaydi. Dunyodagi har bir jamiyatning o'ziga xos, o'ziga mos keladigan, uning uchun xizmat qiladigan, tub maqsadlari va manfaatlarini himoya qiladigan mafkurasi bo'ladi. Odamlar qaysi bir jamiyatda yashashidan qat'iy

nazar nimagadir ishonishi, e'tiqod qilishi, qandaydir bir g'oyaga, ta'limotga asoslanib ish ko'rish, faoliyat ko'rsatishi kerak.

Ma'naviyat – insonni ruhan poklanish, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon – yetiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir.



Mustaqillik yillarida erishilgan yutuqlar, mavjud muammolarni xolisona tahlil qilish, tegishli xulosa hamda saboqlar chiqarish - milliy g'oya va mafkuraning zarurligi va ahamiyatining tobora ortib borishini ko'rsatmoqda. Mamlakatimiz birinchi Prezidenti I.A.Karimov milliy mafkurani shakllantirish zarurati haqida mustaqillikning dastlabki yillaridayoq fikr yuritishi tasodifiy hol emas edi. Negaki, «Milliy mustaqil davlat bor ekan, uning mustaqilligi va erkinligiga, an'ana va urf-odatlariga tahdid soladigan, uni o'z ta'siriga olish, uning ustidan hukmronlik qilish, uning boyliklaridan o'z manfaati yo'lida foydalanishga qaratilgan intilish va harakatlar doimiy xavf sifatida saqlanib qolishi muqarrar». O'zbekistonning hozirgi davri, bundan keyingi taraqqiyoti va istiqboli hamda mustaqilligining ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, madaniy-ma'naviy zaminlarini yaratish va mustahkamlash uchun mafkura suv va havodek zarur. Buni hayotning o'zi ochiq-ravshan ko'rsatib turibdi.

Hayotiy kuzatishlar, ba'zan ziyolilarimiz o'rtasida ham bizga milliy g'oya, milliy mafkura nima uchun, kim uchun kerak, uning ma'no-mohiyati nimadan iborat, degan muhim masalaga yana bir bor oydinlik kiritish zarurati mavjud. Bunda, ya'ni milliy g'oyada O'zbekiston xalqining mamlakatimiz rivojida belgilab olgan asosiy maqsad va muddaolarining ifodasi mujassamlashgan.

Birinchidan, o'zining kelajagini ko'rmoqchi va qurmoqchi bo'lgan har qanday davlat yohud jamiyat, albatta o'z milliy g'oya va mafkurasiga suyanishi va tayanishi zarurligi bilan bog'liq.

I.A.Karimov ta'biri bilan aytganda, «davlat tizimi, uni boshqarish va olib borilayotgan siyosat avvalo aniq va ravshan ifodalangan mafkura asosiga qurilmog'i lozim. YA'ni, oldin davlat qurilishi va undan keyin mafkura paydo bo'lishi o'zi g'ayritabiiy hol. Buni yaxshi anglab olishimiz lozim. Ya'ni, oldin g'oya paydo bo'ladi, undan keyin g'oya asosida mafkura, mafkura asosida esa tizim, siyosat paydo bo'ladi». Demak, o'z milliy g'oyasiga tayanmagan jamiyat inqirozga duchor bo'lishi, o'z yo'lini yo'qotib qo'yishi muqarrar.

Ikkinchidan, milliy g'oya O'zbekiston xalqining asosiy maqsad va muddolarining ifodasi sifatida shuning uchun ham zarurki, odamlar ongini, tafakkurini o'zgartirmasdan turib, ko'zlangan oliy maqsad – ozod va obod jamiyatni, erkin va farovon hayotni barpo etib bo'lmaydi. Buning uchun esa, odamlar muayyan g'oyaga ishonishi va tayanishi zarur. Bu jarayon o'z-o'zidan harakatga kelmaydi, albatta. Negaki, keng xalq ommasini biron bir g'oyaning ilg'or va insonparvar ekaniga ishontirmoq uchun, avvalo, mazkur g'oyaning to'g'ri, hayotiy va ilg'or ekanligiga ishontirish zarur. Ishontirmoq uchun uning ilmiy va hayotiyligiga alohida e'tibor qaratish bilan birga milliy g'oyaning o'zi mamlakatimiz xalqining asosiy maqsad va muddolari hamda manfaatlarini ifodalashi kerak.

Uchinchidan, milliy g'oyaning zarurligi millatning o'zligini to'la anglash jarayoni bilan bog'liq. Negaki, millat o'zligini to'la anglamas ekan, biron-bir buyuk o'zgarishlar qilib bo'lmaydi. Milliy o'z-o'zini anglash u yoki bu millatni o'zga millatlardan ajralib ketishiga emas, balki o'zligini anglagan millatlarning ma'rifatlashgan hamkorliklarining mustahkamlanib borishiga xizmat qiladi. Ana shunday o'ta murakkab vaziyatda milliy o'zlikni anglashda milliy g'oyaga asosiy tayanch kuch, ilmiy-nazariy va amaliy dastur sifatida har bir insonning ruhi, kayfiyati, hissiy kechinmalariga kirib borish orqali uning qalbi hamda ongiga ta'sir ko'rsatadi. Bu milliy g'oyaning xalq hayotiga yaqin, unga bevosita daxldor ekanligini ta'kidlash lozimdir.

To'rtinchidan, mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamlashda milliy g'oyaning zarurligi yana bir muhim holat bilan ya'ni bugun bizning tarixiy o'zgarishlar davrida totalitar tuzumdan erkin demokratik bozor munosabatlariga asoslangan demokratik tuzumga o'tish sharoitida yashayotganligimizdan kelib chiqmoqda. Bu davrning o'ziga xos xususiyatlarini chuqur tahlil qilgan

mamlakatimiz birinchi Prezidenti I.A.Karimov shunday xulosaga keladi: «Bu o'tish davri o'ziga xos, juda katta g'ov va to'siqlarga duch kelishi, qattiq kurashlar orqali kechishi barchamiz uchun ayon bo'lmog'i darkor. Xalqimiz va jamiyatimizni mana shu davrda yangi ufqlar sari boshlash, da'vat qilishda maqsadlarimiz aniq bo'lishi kerak. Bunday maqsadlarga esa avvalo chuqur o'ylangan va puxta ishlangan mafkura asosida yetishish mumkin». Demak, milliy g'oya mustaqillikni mustahkamlash g'oyasining o'zagi bo'lgan - tanlagan taraqqiyot yo'limizning to'g'ri adolatli va haqqoniy ekanligiga, u mana shu zaminda istiqomat qiladigan har bir insonning hayotiy manfaatlariga mos tushishiga keng ommani ishontirish orqali ularni bunyodkorlik ishlariga safarbar etish uchun xizmat qiladi

Biz ertangi kunga-kelajakka tomon ko'zni yumib, taxminlarga asoalanib, tavakkalchasiga ish tutib bora olmaymiz. Kishilar hozirdanoq biz qaysi yo'ldan boramiz, ijtimoiy- iqtisodiy, siyosiy munosabatlarning qanday shaklini yaratamiz, o'z tarixiy tajribamizning, jahon taraqqiyoti saboqlarining qaysi jihatlaridan foydalanamiz, kelajakda O'zbekistonni qanday qilib buyuk davlatga aylantiramiz, mustaqillik muammolarni hal etish uchun nimalarga e'tiborimizni qaratishimiz kerak, degan o'nlab, yuzlab savollarga javob topmoqlari zarur. Agar xalqimizni, millatimizni qiziqtirib kelayotgan barcha savollarga hozirdanoq aniq, ilmiy asoslangan javoblar, muhim yo'l-yo'riqlar bo'lmasa, odamlar bunga qat'iy ishontirilmasa, amaliy faoliyatimizda xato ketidan xatoliklarga yo'l qo'yaveramiz. Bu kutilmagan oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Ana shunday ko'ngilsiz hodisalar ro'y bermasligi uchun xalq ommasini umumiy maqsad sari yakdillik bilan hakrakatga da'vat etadigan yangi mafkura yaratilmog'i kerak.

Mafkura ahamiyati yana shundan iboratki, u jamiyatimizning rivojlanishi, olg'a tomon harakat qilishini osonlashtiradi, millatni, barcha fuqarolarni umumiy maqsad yo'lida birlashtiradi.

Milliy mafkura butun O'zbekiston xalqining ruhini, his- tuyg'usini, milliy g'urur va iftixorini, kuch-qudratini, orzu-intilishlarini mujassamlashtiradigan buyuk g'oyaviy kuchdir.

Milliy g'oya va mafkuraning zarurligi eng avvalo, mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamlash uchun zarurdir. Uning zarurati quyidagi maqsadlarni amalga oshirish bilan bog'liq holda namoyon bo'ladi.

- oldimizga qo'ygan olijanob maqsad-muddaolarimizga, ya'ni ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish;

- eski mafkuraviy asoratlardan batamom xalos bo'lish;
- g'oyaviy bo'shliq paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslik;
- uzoq davrlar mobaynida odamlar ongida hukmron bo'lgan begona va yot g'oyalarning yanada qaytadan tiklanishiga yo'l qo'ymaslik;
- xalqimiz tabiatiga zid bo'lgan o'zga g'oyalardan, ayniqsa yosh avlodni himoya qilish;
- har qanday tajovuzkor g'oyalarga qarshi tura oladigan, har tomonlama barkamol avlodni voyaga yetkazish zaruratining mustaqillikni mustahkamlashdagi o'rnini anglash orqali harakat dasturiga ega bo'lish;
- mustaqil davlatimizning har bir fuqarosida Vatan taqdiri uchun ma'sullik tuyg'usi bo'lishi uchun ham zarur.

Mustaqillikning taqdiri, O'zbekistonning kelajagi, birinchi navbatda va asosan, odamlarga, ularning amaliy faoliyatiga, axloqiy barkamolligiga, g'oyaviy-siyosiy yetuklik darajasiga, milliy o'zligini qanchalik chuqur va mukammal anglab olishlariga bevosita bog'liq. Mafkurasiz ommani jamiyat taraqqiyotini, mustaqillik bilan bog'liq bo'lgan ulkan vazifalarni bajarishga safarbar etish mumkin emas. Insonning faoliyati uning ilg'or mafkuraga qat'iy amal va e'tiqod qilishiga bog'liq.

Islom Karimov jamiyat mafkurasini qanday tushunasiz, degan savolga quyidagicha javob berdi: «Odamlarning ming yillar davomida shakllangan dunyoqarashi va mentalitetiga asoslangan, ayni vaqtda shu xalq, shu millatning kelajagini ko'zlagan va uning dunyodagi o'rnini aniq-ravshan belgilab berishga xizmat qiladigan, kechagi va ertangi kun o'rtasida o'ziga xos ko'prik bo'llshiga qodir g'oyani men jamiyat mafkurasini deb bilaman». Prezidentimiz ta'kidlaganidek, milliy g'oya, milliy mafkura quyidagi talablarga javob berishi kerak: 1) milliy o'zligimizni, an'analarimizni, xalqimizning orzu-umidlarini, jamiyatimiz oldida turgan maqsad va vazifalarini qamrab olishi kerak; 2) jamiyatimizda istiqomat qiluvchi barcha kishilarning yagona milliy bayroq atrofida birlashtirib, ularni buyuk maqsadlar sari chorlaydigan g'oya bo'lishi kerak; 3) millatchilik, boshqa xalqlarni mensimaslik kayfiyatidan holi bo'lib, jahon hamjamiyatida o'zimizga munosib o'rin, hurmat va izzat qozonishida poydevor va rahnamo bo'lishi darkor; 4) kishilarni, avvalombor yosh avlodimizni vatanparvarlik, el- yurtga sadoqat ruhida tarbiyalashga madadkor bo'lishi zarur; 5) Vatanimizning o'tmishi, bugungi kun va kelajagini bog'laydigan jahon hamjamiyatiga, umumbashariy yutuqlarga eltuvchi g'oya bo'lishi kerak.

3. Umuminsoniy qadriyatlar va milliy ma'naviyat nisbati. Ma'lumki, har bir millat, har bir xalq o'z hayot tarzini, kelajagini ajdodlarining tarixiy tajribasi asosiga quradi, hech bir xalq begona qo'liplar, begona andozalar asosida eminyerkin yashab, taraqqiy eta olmaydi. Har bir xonadonning o'z tartib - qoidalari bo'lganidek, har bir yurt hayotini tashkil etishning ham o'z andoza-o'lchovlari, qonun-qoidalari bo'ladi. Ular o'sha yurtning tabiiy - jug'rofiy shart-sharoiti, tarixiy tajribasi, milliy fe'l-atvori bilan bog'liq tarzda shakllanadi.

Ming yillar davomida yer yuzidagi turli mintaqalarda yashagan xalqlarning o'zaro siyosiy, madaniy, ijtimoiy aloqalari hozirdagidek yaqin bo'lgan emas. Asrlar mobaynida yer yuzida turli madaniy mintaqalar shakllangan. Yevropa xalqlarining umumintaqa madaniyati, janubi-sharqiy Osiyo xalqlari mintaqa madaniyati, Hindiston yarimoroli va unga qo'shni hududlarda yaratilgan umumiy madaniyat va boshqa bir qator mintaqalar madaniyati - bularning har biri o'zgasidan farq qiluvchi qator diniy e'tiqod, falsafiy maktablar, san'at va adabiyot, urf-odat va an'analarning o'ziga xos uyg'un bir tizimlarini vujudga keltirgan-ki, ahli basharning bunday bebaho mulkini, ma'naviy xazinalarini befarqlik bilan bir-biriga qorishtirib yuborishimiz mutlaqo ijobiy natijalar bermaydi.

Umuminsoniy qadriyatlar har bir millat ma'naviyatida o'ziga xos va maxsus tizim shaklida namoyon bo'ladi. Chunki milliy ma'naviyat tarixiy hodisa, o'zbekning ma'naviy takomili nemis yoki xitoy xalqi boshidan kechirgan tarixiy jarayonlardan butkul farq qiluvchi siyosiy-madaniy makon va zamonda yuz bergan. Har bir xalq mohiyatan umuminsoniy bo'lgan qadriyatlarni tamomila o'ziga xos shaklu shamoyilda ifoda etishining siri shu yerda.

Turli millatlar ma'naviyatining o'ziga xosligi kamalakdagi turli ranglar tovlanishiga monand bo'lib, ular bir-birini to'ldiradi, boyitadi, ammo inkor etmaydi, bir so'z bilan aytganda, ma'naviyat ellarni zidlashtirmaydi. Umuminsoniy qadriyatlarni biror-bir alohida xalq yaratmaydi, bu qadriyatlarni har bir xalq, har bir elat o'z tarixiy tajribasi bilan asta-sekin shakllantirib boradi va o'zaro turlicha munosabatlar jarayonida elatlar, millatlar bir-birini tushunib, o'zaro ma'naviyatlaridagi umumiy jihatlarni tadrijiy anglab boradi.

Aytilganlardan xulosa shuki, o'z milliy ma'naviyatimizni tiklashga astoydil kirishganimiz aslo o'zgaga g'ayirlik ma'nosini bildirmaydi, balki umumbashariy muvozanatni, uyg'unlikni, demakki, adolatni tiklashga urinishdir. Zotan, uyg'unlik buzilsa, bashar ma'naviyati ham to'kis bo'lmaydi.

Butun dunyo xalqlari bir-birini tushunib yashashga intilmog'i lozim. Dushmanlik, g'ayr ko'zi bilan qarash emas, mehr bashariyatni birlashtiradi. Bu ulug' haqiqatni bizning ajdodlarimiz allaqachon anglab yetganlar. Ammo o'zgani tushunish uchun, o'zgaga mehr ko'zi bilan boqish uchun, avvalo, inson o'zligini anglab yetmog'i kerak. O'zligini anglamagan zot hech qachon o'zgani tushunmaydi, uni xolis qabul qilmaydi. Asli milliy ma'naviyatimizga bugungi ayricha e'tibor ham ushbu o'zligimizni anglab yetishga bo'lgan kuchli ehtiyoj natijasidir.

Ma'naviyat doimo milliy bo'ladi, shu bilan birga unda umuminsoniy qadriyatlarga zid narsa ham bo'lmaydi, chunki har bir millatning mustaqil ma'naviy dunyosi, ma'naviy qiyofasi bir paytning o'zida ichki mohiyatiga, o'zak tomirlariga ko'ra, o'zga xalqlar ma'naviyati bilan umumiy jihatlarga, butun bashariyatni birlashtirib turuvchi mushtarak unsurlarga ega bo'ladi. Shunday ekan, ayni millatimizni o'zga millatlardan ajratib turuvchi mohiyatlar emas, balki birlashtiruvchi omillar milliy ma'naviyat zamirini tashkil etadi. Faqat buni jo'n tushunish ham, jo'nlashtirib talqin etish ham –xato. Ma'naviyatimizdagi eng umuminsoniy g'oyalar ham nihoyatda milliy bir tarzda o'zligini namoyon qiladi, ular boshqa millat ma'naviyati unsurlaridan nusxa ko'chirish shaklida namoyon bo'lmaydi.

Biz milliy urf-odatlarimiz, marosimlarimizga baho bermoqchi bo'lsak, butun insoniyat manfaatlarini nuqtai nazarini, alohida shaxs erkinligi, Vatan va millat manfaatlarini, milliy qadriyatlarimiz majmuini yaxlit uyg'unlikda olib qaramog'imiz talab etiladi. Agar shu uyg'unlikka mohiyatan muvofiq bo'lsa, yoxud loaqal unga zid bo'lmasa, demak, maqbul, ammo insonlararo ziddiyat tug'dirsa, nifoq solsa, yoki o'zga shaxs erkini bo'g'sa, Vatan va millat manfaatlariga zid bo'lsa, demak, maqbul emas. Ammo bir narsani esdan chiqarmaylik: biz milliy ma'naviyatimizni qadrlasak, uni rivojlantirishga urinsak, qaysidir o'zga xalqlar, siyosiy kuchlar, bizdan gumondor bo'lishi mumkin, bizning tilimiz, dinimiz, kiygan kiyimimiz yoki urf-odatlarimiz ularning didiga o'tirishmasligi, tanlagan mustaqil yo'limiz ular nazarda tutgan qoliplarga mos kelmay qolishi mumkin deb, oshiqcha «andisha»larga berilsak, demak, bu hanuz ongimizdagi qaramlik asoratidir. Bir ishga jazm qilar ekanmiz, o'zgalarning noo'rin shubha-gumonlari bilan hisoblashish, chumchuqdan qo'rqib tariq ekmaslik bilan barobar.

Yevropa xalqlari ijtimoiy va madaniy sohalarida o'z tarixiy tajribalaridan kelib chiqib, ajdodlari qoldirgan merosga mos qilib, ilmiy andoza va o'lchovlar

yaratganlar, ta'rif va tizimlar shakllantirganlar. Agar ular yaratgan meros ta'sirida, unga ergashib boshqa bir xalq madaniy boylik hosil qilgan bo'lsa (masalan, sovet davrida SSSR xalqlari vakillari yaratgan ko'pchilik asarlarni olaylik), albatta, Yevropa madaniyati andoza va o'lchovlarini unga tadbiq etsa bo'lar. Ammo o'zbekning milliy tafakkuri oxirgi 70 yilda shakllangan deb bo'lmaganidek, bugun endi ijtimoiyot mavzularida ilmiy mulohazalar yuritish uchun ongimizga kechagi zo'raki joylashtirilgan sun'iy qoliplardan o'ylamay-netmay foydalanishga urinishimiz ham o'rinni emas.

Mavhum bir shakldagi umuminsoniy madaniyat, umuminsoniy ma'naviyat hayotda asli mavjud emas. jahon madaniyati turli o'lka va mintaqalarning o'ziga xos madaniyatlari majmuidan iborat. Qanday millat, qanday xalq bo'lmasin, baribir, uni muayyan insonlar tashkll etadi. Insonlarning har biri o'z qiyofasi, o'z fe'l-atvori, fikr-andishalari, o'z hayot yo'li va orzu-niyatlariga ega. Ammo ularning barchasi Alloh yaratgan mahluqotning bir toifasi - bani odangga mansub bo'lgani tufayli ularning barchasi uchun umumiy bo'lgan muayyan qadriyatlar majmui ham mavjuddir. Bu qadriyatlar har bir millat, har bir inson uchun alohida ahamiyatga ega bo'lib, ularning ko'r-ko'rona inkor etilishi, tan olinmasligi butun bashariyat uchun halokatli bo'lishi mumkinligini jahon tarixi tajribasi ko'p marta isbotlagan. Albatta, bunday qadriyatlar barcha insonlar, barcha millatlar tomonidan birdaniga, azal-ibtidodan anglab yetilgan, idrok qilingan deb bo'lmaydi. Umuminsoniy qadriyatlar har bir millatning ma'naviy mulkiga aylanishi uchun asrlar, balki ming yillar kerak bo'ldi. Xatto bugun ham barcha insonlar, barcha elat va toifalar ularni tugal anglab yetgan, deyish qiyin.

Tayanch so'z va iboralar

Millat, milliy o'zlikni anglash, milliy ong, milliy meros, globalistlar, globallashuv, demografik globallashuv, inson ongi va qalbi uchun kurash, madaniy globallashuv, mafkuraviy immunitet, ma'naviy-mafkuraviy jarayonlarning globallashuvi, YUNESKO, "Ommaviy madaniyat"

Takrorlash uchun savollar

1. Taraqqiyot modellari haqida nima bilasiz?
2. Taraqqiyot yo'lining zaminlari?
3. Mustaqil O'zbekistonni rivojlantirishning ma'naviy-axloqiy negizlari?
4. Umuminsoniy qadriyatlar va milliy ma'naviyat o'zaro ta'siri?
5. Taraqqiyot modeli qanday umuminsoniy qadriyatlarga tayanadi?

15-§. MAFKURAVIY IMMUNITET VA G'OYAVIY KURASHCHANLIKNI SHAKLLANTIRISH

Reja:

1. Ma'furaviy immunitet tushunchasi, mohiyati va tarkibi.
2. Milliy qadriyatlarini yosh avlod ongiga singdirish - ma'naviy tahdidlar ta'siridan ular ongini himoyalashning eng samarali yo'li sifatida.
3. G'oyaviy tarbiya ma'furaviy mustaqillikni mustalikamlashning muhim omili.
4. Yoshlarda g'oyaviy immunitetni yuksaltirishda ijtimoiy fanlar oldidagi vazifalar.

1. Ma'furaviy immunitet tushunchasi, mohiyati va tarkibi. Ko'rinib turibdiki, hozirgi globallashuv sharoitida ma'furaviy immunitet va g'oyaviy kurashchanlik – har bir ozod shaxs va erkin fuqaro uchun zarurdir. Bugungi zamonda inson ma'lum kuchiarning manfaatlariga xizmat qiladigan turli ma'no-mazmundagi ma'furaviy kuchlarning doimiy ta'sirini sezib yashaydi. Axborot asri, elektronika, informatsion texnologiyalar asri deb nom olgan bugungi zamonda bunday ta'sirlardan holi bo'lishning mutlaqo imkonini yo'q. Qolaversa, bugungi kunda fikrni, g'oyani ta'qiq bilan, ma'muriy choralar bilan yengib bo'lmaydi. Mana shunday sharoitda har bir yosh o'z mustaqil fikriga, sobit e'tiqodiga, mustaqil tafakkur va mustahkam irodaga ega bo'lmasa turli zararli ma'furalarining oxir-oqibatini anglab yetishi qiyin kechadi. Mana shu shart-sharoitlarning barchasi milliy g'oya, milliy ma'fura, ma'naviyat borasidagi tarbiyaviy ishlarimizning dolzarbligini yanada oshiradi.

Inson ma'naviyatiga tahdid soladigan xavflar va ulardan o'zini ongli himoya qilish ko'nikmalari ta'lim-tarbiya, ota-onalar o'g'itlari, yaxshilik va yomonliklarni ko'rishi va bilishi jarayonida shakllana boradi. Bolaga ilk yoshidan boshlab nima yaxshi, nima yomon, ularga qanday munosabat bildirish kerak, degan savollarga asoslangan bog'cha, maktab tarbiyasi, undan keyin ijtimoiy tarbiya yo'lga qo'yilsagina har bir millat sog'lom, ishonchli, mustahkam immunitetga ega bo'ladi. Immunitet esa o'z navbatida odamni to'g'ri yo'ldan «ozish»dan, turli yo'llarga adashib, keyin pushaymon bo'lishlardan, baxsizlikdan, millatni esa - parokandaliklardan, parchalanishlardan, sinfiy, mahalliy yoki boshqa bo'linishlardan asrab turadi. Demak, ma'furaviy immunitet - davlat va millatning ma'naviy birligi, ma'naviy sog'lomligini himoya qiluvchi g'oyaviy qalqon vazifasini bajaradi.

Shuning uchun ham Islom Karimov «Ma'lumki, har qanday kasallikning oldini olish uchun, avvalo, kishi organizmida unga qarshi immunitet hosil qilinadi. Biz ham farzandlarimizni ona Vatanga muhabbat, boy tariximizga, otabobolarimizning muqaddas diniga sadoqat ruhida tarbiyalash uchun, ta'bir joiz bo'lsa, avvalo ularning qalbi va ongida mafkuraviy immunitetni kuchaytirishimiz zarur. Toki yoshlarimiz milliy o'zligini, shu bilan birga, dunyoni chuqur anglaydigan, zamon bilan barobar qadam tashlaydigan insonlar bo'lib yetishsin. Ana shunda johil aqidaparastlarning «da'vati» ham, axloq-odob tushunchalarini rad etadigan, biz uchun mutlaqo begona g'oyalar ham ularga o'z ta'sirini o'tkaza olmaydi»¹ deb ta'kidlaydi.

«Immunitet» so'zining ma'nosi O'zbekiston milliy ensiklopediyasida quyidagicha berilgan: (lot. - biron narsadan xalos, ozod bo'lish, qutulish) - tirik mavjudotlarning o'z butunligi va biologik noyobligini buzuvchi yot omillardan himoyalaniishi, qarshilik ko'rsatishi, rezistentligi. Yot omillarga bakteriya va ularning toksinlari, viruslar, zamburug'lar, sodda jonivorlar, gelmintlar, ko'chirib o'tkazilgan a'zo va to'qimalar, organizmning o'zgargan o'z hujayralari (mas., o'smasimon hujayralar) va b. kiradi. Bu omillar organizm uchun irsiy begona bo'lgan kimyoviy agentlar – antigenlarni tutib qoladi.

Mafkuraviy immunitet ma'naviy, ma'rifiy, siyosiy, iqtisodiy bilimlarni oddiygina qabul qilib olishini emas, balki ularni ongli ravishda tushunib yetishni, bu bilimlardan zamonaviy ijtimoiy voqealarga mafkuraviy kurashlar voqeligidan kelib chiqib, munosabat bildirish ko'nikmalarini shakllantirish, ayrim nosog'lom g'oyalarga javob berish, uni qabul qilmaslik qolatidir.

Mana shu salohiyatga ega yoshlarga johil aqidaparastlikning «da'vati» ham, axloqni rad etadigan, biz uchun mutlaqo begona g'oyalar ham o'z ta'sirini o'tkaza olmaydi. Yosh avlodda mafkuraviy immunitet o'z-o'zidan tarbiyalanmaydi, namoyon bo'lmaydi. Uning shakllanishida oila, mahalla, ta'lim-tarbiya tizimi, davlat va nodavlat tashkilotlarining hissasi katta bo'ladi.

Mafkuraviy immunitetning tarkibini mafkuraviy bilim (vayronkor va bunyodkor g'oyalarning mohiyati, farqi haqidagi), ishonch va e'tiqod, his-tuyg'u, iroda, ko'nikma va malakalar tizimi tashkil qiladi. To'g'ri bilimning turlari ko'p. Mafkuraviy immunitetni shakllantiruvchi bilimlar avvalombor yoshlarga millat, milliy-ma'naviy meros, vatan tarixi bilan bog'liq bilimlardan iborat bo'lishi lozim. Yoshlar o'z ona vatanining tarixini, milliy-ma'naviy merosini, qadriyatlarini qanchalik yuqori darajada bilishsa ularda shu darajada

¹ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat -yengilmas kuch. 120-b.

vatanparvarlik yuqori bo'ladi. vatanning, millatning manfaatlarini himoya qilishga kirishar ekan har bir yosh uning ona vataniga bo'layotgan turli mazmundagi tahdidlarni ham chuqur bilishi talab etiladi. Hozirgi dunyoning mafkuraviy manzarasi, unda kechayotgan g'oyaviy jarayonlar, turli mazmundagi g'oyaviy tahdidlar, ularning millat hayotiga, milliy mustaqillikka zararli ta'siri, shuningdek bunday tUSDagi ta'sirlarni oldini olish, ularga qarshi kurash usul va vositalari va shu kabilar. Yoshlarda shakllantirilishi zarur bo'lgan mafkuraviy immunitetning ikkinchi muhim bir elementi ishonch va e'tiqod hisoblanadi. Aksincha bilim bir shunchaki havoyi bo'lib qoladi. Yoshlar o'zlari egallagan bilimlarni, amalga oshirishga kirishayotgan hatti-harakatlarning to'g'riligiga ishonch hosil qilishlari zarur. Milliy istiqlol g'oyalariiga shaxsning ishonchi, mustahkam irodasi uning mafkuraviy immuniteti manbai hisoblanadi. Bunday mafkuraviy immunitetga ega bo'lgan shaxs yot mafkuralar ta'siriga berilmaydi, chunki Milliy istiqlol g'oyasi mafkuraviy immunitetni shakllantirishda o'ziga xos imkoniyat va xususiyatlarga ega.

Mafkuraviy immunitet milliy mustaqillikning afzalliklariga bo'lgan ishonchga quriladi. Bu ishonch esa ishontirish, tushuntirish natijasida hosil bo'ladi. Masalan, O'zbekiston - dunyoviy davlat. Dunyoviy davlat faoliyatining asosiy tamoyillari, afzalliklari ularni diniy davlat bilan taqqoslagandagina keng va to'liq tushunchalarni beradi. Bu dunyoviy milliy-demokratik tuzumning mohiyati va afzalliklarini anglab yetishga olib keladi. Taraqqiyotning «o'zbek modeli» rivojlanishining umumiy qonuniyatlarini, hamda boshqa davlatlarda yuz berayotgan jarayonlar, hodisalarni qiyoslash, anglab yetishga imkon beradi. Demak, mafkuraviy immunitetni shakllantirish-muayyan mafkuraviy vaziyatda insonning o'zi, xalqi, Vatani manfaatleri birligidan kelib chiqib, yot g'oyalarga qarshi tura olish malakalaridir.

Mafkuraviy ko'nikmalar bilim, faoliyat va hatti-harakatlar birligida namoyon bo'ladi. Malakalar esa yot g'oyalar ta'siriga qarshi qaratilgan avtomatlashgan munosabat, adekvat yo'l va usullardir. Mafkuraviy ko'nikma va malakalarning hosil bo'lishida milliy g'oya negizlari muhim rol o'ynaydi. Agar mafkuraviy tahdid sezilganda, nima qilish kerakligini o'ylab o'tirmay va ayrim harakatlarga alohida diqqat qilib o'tirmay g'oyaga g'oya bilan javob berish amalda bajarila boriladigan bo'lsa, mafkuraviy immunitet amaliy shakllandi, deb hisoblash mumkin.

Mamlakatimizda yoshlarning barkamol bo'lib o'sishi uchun barcha imkoniyatlar yaratilmoqda. Yoshlarga doir davlat siyosatiga alohida e'tibor

berilmoqda. Yoshlarni vatanparvarlik, millatparvarlik ruhida tarbiyalashda, ularda turli tahdidlarga qarshi g'oyaviy salohiyatni shakllantirishda, bu boradagi vazifalarni belgilab olishda «Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch» asari muhim o'rin tutadi. Mazkur asarida Islom Karimov masalaning muhimligiga e'tibor qaratib shunday yozgan edi: "Biz xalqimizning dunyoda hech kimdan kam bo'lmasligi, farzandlarimizning bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo'lib yashashi uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etayotgan ekanmiz, bu borada ma'naviy tarbiya masalasi, hech shubhasiz, beqiyos ahamiyat kasb etadi. Agar bu masalada hushyorlik va sezgirlikimizni, qat'iyat va mas'uliyatimizni yo'qotsak, bu o'ta muhim ishni o'z holiga, o'zbo'larchilikka tashlab qo'yadigan bo'lsak, muqaddas qadriyatlarimizga yo'g'rilgan va ulardan oziqlangan ma'naviyatimizda, tarixiy xotiramizdan ayrilib, oxir-oqibatda o'zimiz intilgan umumbashariy taraqqiyot yo'lidan chetga chiqib qolishimiz mumkin"¹. El-yurtimiz o'zining ko'p asrlik tarixi davomida ko'rgan jabru-jafolar, tilimiz, dinimiz va ma'naviyatimiz chekkan ozorlardan tegishli saboq chiqarishga chaqiradi: "O'tgan davr mobaynida, eski tuzumdan og'ir meros bo'lib qolgan ana shunday illatlarga, el-yurtimizga nisbatan kamsitish va milliy manfaatlarimizni mensimaslik holatlariga barham berish, ko'hna qadriyatlarimiz, dinu diyonatimizni tiklash, hayotimizda tarixiy adolatni qaror toptirish, yangi jamiyat qurish yo'lida xalqimizning ma'naviy yuksalishni o'z oldimizga qo'ygan olijanob maqsadlarga yetishda hal qiluvchi mezon deb qarash va shu asosda uni olib borish biz uchun doimo ustivor vazifa bo'lib kelgani va bugun ham e'tiborimiz markazida turganini ta'kidlash lozim"².

Prezident asarlarida ma'naviy tarbiya asosini tashkil etuvchi muhim omil va mezonlar, shaxsning yosh xususiyatlarini hisobga olib, bosqichma-bosqich rivojlantirib borish usul va vositalari atroflicha tahlil etib berilgan. Yosh avlod tarbiyasi hayot-mamot masalasi ekanligi, ota-onalar, mahalla faollari va ustoz-murabbiylar faoliyatidagi eng ustuvor vazifa sifatida qaralishi lozimligini qayd etadi. Islom Karimov ta'kidlaganidek biz milliy ma'naviyatni har tomonlama yuksaltirish masalasini o'z oldimizga asosiy vazifa qilib qo'yar ekanmiz, bugungi kunda ma'naviyatimizni shakllantiradigan va unga ta'sir o'tkazadigan barcha omil va mezonlarni chuqur tahlil qilib, ularning bu borada qanday o'rin tutishini yaxshi anglab olishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi.

¹ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat -yengilmas kuch. 4-b

²Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat -yengilmas kuch. 6-7-b

Albatta, har qaysi xalq yoki millatning ma'naviyatini uning tarixi, o'ziga xos urf-odat va an'analari, hayotiy qadriyatlaridan ayri holda tasavvur etib bo'lmaydi. Bu borada, tabiiyki, ma'naviy meros, madaniy boyliklar, ko'hna tarixiy yodgorliklar eng muhim omillardan biri bo'lib xizmat qiladi¹.

Shaxs ma'naviy mafkuraviy immunitetini shakllantirish avvalo oila muhitida shakllanadi. Bola bamisoli bosma qog'oz singari oiladan, yon-atrofdan olgan barcha taassurotlarini tafakkuriga singdirib oladi.

2. Milliy qadriyatlarni yosh avlod ongiga singdirish - ma'naviy tahdidlar ta'siridan ular ongini himoyalashning eng samarali yo'li sifatida.

Insonga faqat atrof-voqelik haqida, odobu axloq qoidalari haqida bilim berishning o'zi uning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi uchun yetarli bo'lmaydi. Unda iroda qudrati, mas'uliyat tuyg'usini shakllantirish, ko'nglida atrof-tabiatga, mehnatga, kasbga, ilmga, o'zga insonlarga mehr uyg'otish, dilida ulug' maqsadlar tug'ilishiga erishish lozim. Shu bilan birga uning o'zligini anglashini, o'z ma'naviy qadriyatlarini himoya qilishi, unga nisbatan sodir etilayotgan turli tahdidlardan himoya etishi zarur. Tan olib aytish kerakki, Vatan yoki Adolat tuyg'usi haqida kitoblarda yozilganlarni o'qib chiqqan odam darhol Vatanning qadriga yetadigan, yoki Adolatga xiyonat qilmaydigan bo'lib qoladi, deb tasavvur qilish o'ta soddalik bo'lur edi. Har bir inson Vatan, Millat, Adolat timsol-tushunchalarining o'z ruhidagi poydor ma'naviy qadriyatlarga aylanishi uchun o'zгалar ibratida sinashi, bu yo'lda riyozat chekishi, ularga nisbatan ko'nglida mehr uyg'onishi zarur. Bunga turli yo'llar, turli vositalar bilan, birinchi navbatda yosh avlod tarbiyasiga samimiy va izchil yondoshuv, tinimsiz izlanishlar bilan erishiladi.

“Bizning ulug' ajdodlarimiz, - deb yozadi birinchi Prezidentimiz, - o'z davrida komil inson haqida butun bir axloqiy mezonlar majmuini, zamonaviy til bilan aytganda, sharqona axloq kodeksini ishlab chiqqanliklarini eslash o'rinni deb bilaman”. Ma'lumki, imon-e'tiqod ma'naviyatning umurtqa pog'onasi hisoblanadi. Biz dinimiz islom deymiz, Qur'oni karimda yozilishicha, Alloh bani basharni o'ziga ibodat qilish uchun yaratgan. Lekin ko'pchilik islomiy ibodatlar deganda, namoz, ro'za, zakot, haj amallarini ko'z oldiga keltiradi. Buyuk tasavvuf piri Bahouddin Naqshband esa Rasululloh (sav) ning quyidagi hadisini keltiradi: “Ibodot o'n qismdir, uning o'ndan to'qqizi halol rizq topish harakati, qolgan barcha ibodatlar o'ndan birini tashkil etadi.” Ahmad Yassaviy va Abduxoliq G'ijduvoniylarning piri murshidi hisoblangan shayx Yusuf

¹ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat -yengilmas kuch. 20-b

Hamadoniyning "Hayot mezonı" asarida Payg'ambarimizning yana bir hadisları keltiriladi: "Musulmon bo'lmaganlaringizcha jannatga kirmaysizlar, bir-birlaringizga samimiy mehr qo'ymaganlaringizcha musulmon bo'lmaysizlar." Shu sababli biz farzandlarimizga imonning asosiy sharti halollik, adolat va insonga, tabiatga mehr deb uqdirishimiz, nafaqat uqdirishimiz, balki shu yo'lda o'zimiz ibrat bo'lishimiz shart.

Birinchi Prezidentimiz kitobida "inson ma'naviy olamining yuksalishi" deganda nimanı tushunish kerak, degan savolga aniq va lo'nda javob berilgan: "Olohning o'zi bizga buyurgan komil inson bo'lish, halollik va adolat bilan hayot kechirish". Ammo muallif yana ta'kidlaydiki, ushbu qoidani tushunish va e'tirof etishning o'zi kifoya emas, balki ayni shu e'tiqodga amal qilib yashash – "odamzotning ma'naviy boyligini belgilab beradigan asosiy mezon"dir.

"Takror aytishga to'g'ri keladi – ota-onalar, ustoz-murabbiylar bu masalada hushyorlikni yo'qotmasligimiz, yoshlar tarbiyasida aslo beparvo bo'lmashimiz zarur." Birinchi Prezidentning hushyorlikni yo'qotmaslik, beparvo bo'lmashlik xususidagi uqdirishlarini to'g'ri tushunadigan bo'lsak, bu degani yosh avlodga to'g'ri ta'lim berish bilan birga, har bir aytgan so'zimizga avvalo o'zimiz rioya qilishimiz kerak bo'ladi. Masalan, "ilm ol" dedikmi, o'zimiz umr bo'yi ilmimizni oshirib, puxtalab borishdan to'xtamasligimiz kerak; "halol va adolatli bo'l" dedikmi, o'zimiz farzandlarimizni halol luqma bilan boqayotganimizga, o'z foydamizni ko'zlab birovga zulm bo'ladigan xatti-harakatdan saqlanishga qat'iy urinmog'imiz lozim bo'ladi. Ana shundagina bolalarimiz kelajagidan xotirjam bo'lishimiz mumkin.

O'z-o'zidan ravshanki, bugungi zamon voqelikka ochiq ko'z bilan, real va hushyor qarashni, jahonda va yon atrofimizda mavjud bo'lgan, tobora kuchayib borayotgan ma'naviy tahdid va xatarlarni to'g'ri baholab, ulardan tegishli xulosa va saboqlar chiqarib yashashni talab etmoqda.

Albatta, barcha muammolarni bir kunda, bir hamla bilan yechib bo'lmaydi. Ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash bir umrlik ish. Mustaqilligimiz bu say-harakatlarimiz samarali bo'lishining ishonchli kafolatidir. Ammo har bir ishda yolg'on qadamlardan, oson yechimlar qidirishdan ehtiyot bo'lmog'imiz juda muhim. Har bir ishda qiyinchilikni bo'yniga olgan odam haqiqiy yutuqqa erishadi. Ayniqsa, biz ziyolilar, yosh avlod tarbiyachilari o'z vazifamizga mas'uliyat bilan yondoshsak, "farzandlarimizni ona Vatanga muhabbat, boy tariximizga, ota-bobolarimizning muqaddas diniga sadoqat ruhida tarbiyalash"dan, shu yo'l bilan ular ongida

“mafkuraviy immunitet” hosil qilishga urinishdan charchamasak, millatimiz yana buyuk millat bo‘ladi, avlodlarimiz ajdodlarimizga munosib qudrat kasb etadi. Muallimning mehnati samarasi uzoq kelajakka ulanib ketadigan ezgu mehnat. Keling, avlodni boqiylikka eltuvchi mehnatdan erinmaylik, toki birinchi Prezidentimizning, xalqimizning yorug‘ orzulari ushalsin. “yoshlarimiz milliy o‘zligini, shu bilan birga, dunyoni chuqur anglaydigan, zamon bilan barobar qadam tashlaydigan insonlar bo‘lib yetishsin”.

3. G‘oyaviy tarbiya mafkuraviy mustaqillikni mustahkamlashning muhim omili. Mustaqillikni mustaqamlashning muhim shartlaridan biri bu g‘oyaviy tarbiyani kuchaytirishdan iboratdir. Bu borada kishilarimizda yot va zararli g‘oyalarga qarshi kurashish uchun mafkuraviy immunitetni shakllantirish zarur. Albatta, mafkuraviy immunitetni shakllantirish kishilar ongiga bir xil g‘oyani zo‘r berib tiqishtirish emas, balki odamlarda oq-qorani ajratish, zararli g‘oyalarga qarshi xushyor va ogoh bo‘lish xususiyatlarini tarbiyalash demakdir. Har bir davlat, jamiyatning qudrati uning ichki xavfsizligi va barqarorligiga tayanadi. YA‘ni jamiyat, millat o‘z g‘oyasida mustahkam tursa, ikkilanmasa, har qanday dushman qo‘llashi mumkin bo‘lgan mafkuraviy tahdidlaridan qo‘rqmasa, bunday millatni yengish mumkin emas. Aksincha, jamiyat ichida g‘oyaviy parokandalik, bo‘linishlar bo‘lsa, (bunga tarixda misollar ko‘p) dushmanlarga, ularning yot mafkuralariga yo‘l ochib beradi.

Mamlakatimizning xavfsizligi, barqaror taraqqiyoti hech bir O‘zbekistonlikni befarq qoldirmasligi kerak. Chunki ular o‘z, yagona Vatanining tarixi qanday mashaqqatli, azobli asrlarni o‘tkazib, mustaqillikka erishganligini yaxshi biladilar. Shunday ekan, Vatan - O‘zbekistonning posboni ham millatidan, dinidan, tug‘ilgan joyidan, kasbu-yoshidan qat‘iy nazar uning O‘zbekistonlik bo‘lishidir. Demak, mamlakatimizning xavfsizligi uchun eng birinchi kafolat – O‘zbekistonliklarning milliy g‘oya atrofidagi jipsligidir. Shu tariqa milliy g‘oya bizni o‘tmishimiz, hozirgi hayotimiz va kelajagimiz bilan bog‘lab turadi. Shu sababli O‘zbekiston xalqining milliy istiqlol g‘oyasiga asoslangan immuniteti - Vatan xavfsizligi darajasining muhim ko‘rsatkichlaridan biriga aylanadi.

Shunday ekan maqsad – ta‘lim-tarbiya jarayonlarida talabalarning mafkuraviy immunitetini, ulardagi g‘oyaviy kurashchanlikni, xalqimiz mentalitetiga, manfaatiga zid bo‘lgan zararli g‘oyalarning tub mohiyatini ochib bergan va anglab yetgan holda, ularni yagona Ozod va obod Vatan g‘oyasi atrofida jipslashtirish hisoblanadi. Bu vazifalarni amalga oshirish uchun o‘z

e'tiborimizni ta'lim tarbiya tizimida quyidagi vazifalarni hal etishga qaratishimiz zarur:

1. Milliy g'oyaning tub mazmun-mohiyatini, uning jamiyat xayotidagi dolzarbligini yanada kengroq tushuntirish orqali yoshlarni bosh g'oyamizning asosiy maqsad-vazifalariga atrofida yanada jipslashtirish.

2. Yoshlarda Ozod shaxs va erkin fuqaroning asosiy jihatlarini tarbiyalash.

3. Mafkuraviy immunitet, uning mazmun-mohiyati va uni tashkil etuvchi tarkibiy qismlari bilan yoshlarni kengroq tanishtirish.

4. Dunyoning siyosiy-mafkuraviy manzarasini, unda kechayotgan g'oyaviy kurashlardan ko'zlangan tub maqsad-manfaatlarning asl qiyofasini ochib berish.

5. Yoshlarga bugungi kunda fikrni, g'oyani ta'qiq bilan, ma'muriy choralar bilan yengib bo'lmagligini, najot faqat ma'rifatda ekanini tushuntirish.

6. Yoshlarda ma'naviy-mafkuraviy tahdidlarga nisbatan doimo ogoh va xushyor bo'lish ko'nikmalarini shakllantirish.

7. Yoshlarga mustaqillikni mustahkamlash, jamiyat hayotining turli sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlarning tub mohiyatini yoritib bergan holda ulardagi Vatanga sadoqat tuyg'ularini yanada mustahkamlash.

8. Yoshlarda tarixiy xotira, madaniy merosga hurmat, milliy o'zlikni anglash tuyg'ularini mustahkamlagan holda ularda o'z kuch va imkoniyatlariga tayanib yashash hissini shakllantirish.

9. Yoshlarda ma'naviy-mafkuraviy tahdidlarga, "ommaviy madaniyat" niqobi ostidagi turli xil hatti-harakatlarga nisbatan doimo ogoh, sezgir va xushyor bo'lish ko'nikmalarini shakllantirish.

10. Turli millat va din vakillari orasida totuvlikni mustahkamlash tomon qaratilgan tadbirlarning hozirjavobligi va ta'sirchanligini oshirish.

11. Fikr qaramligi, tafakkur qulligi, manqurt tushunchalarining mazmun-mohiyatini, ularning jamiyat xayotidagi zararli jihatlarini tushuntirib berish orqali ularni mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning faol ishtirokchilariga aylantirishga erishish.

12. Sog'lom fikr va dunyoqarashga ega bo'lgan kadrlarni tayyorlash, ularning salohiyatini vatan ravnaqi yurt tinchligi va xalq farovonligi yo'lida safarbar qilishga, navqiron avlodda vatanparvarlik tuyg'usi, yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirishga keng e'tibor berish.

4. Yoshlarda g'oyaviy immunitetni yuksaltirishda ijtimoiy fanlar oldidagi vazifalar. Jahonning qudratli davlatlari tomonidan muayyan mamlakatlarga, avvalambor, yer osti, yer usti boyliklariga ega bo'lgan hududlarga nisbatan olib

borilayotgan g'arazli siyosatni dunyoning ayrim mintaqalarida tinch hayotning izdan chiqishi, hokimiyat tepasiga aynan o'sha davlatlarning manfaatlariga xizmat qiladigan kuchlarning kelishi bilan bog'liq misollarda ko'rish qiyin emas. Bunday holatni Yaqin Sharq, Shimoliy Afrika davlatlarida, Sharqiy Yevropada ko'rish mumkin. "Ana shunday vaziyatni hisobga olgan holda, yana va yana bir bor xalqimizning ma'naviy olamini bunday taxdidlardan asrash, hozirgi o'ta murakkab bir zamonda xalqaro maydonda sodir bo'layotgan jarayonlarning tub mohiyatiga yetib borish, ular haqida xolis va mustaqil fikrga ega bo'lish bugungi kunning eng dolzarb vazifasi, desak, hech qanday xato bo'lmaydi"¹.

Mustaqillikdan keyingi davrda kommunistik mafkura va uning axloq normalaridan voz kechilganidan so'ng jamiyatda mafkura borasida paydo bo'lgan g'oyaviy bo'shliqdan foydalanib, chetdan biz uchun mutlaqo yot bo'lgan, ma'naviy va axloqiy tubanlik illatlarini o'z ichiga olgan «ommaviy madaniyat» hodisasi yopirilib kirib kelishi havfi kuchaydi.

Tabiiyki, «ommaviy madaniyat» degan niqob ostida axloqiy buzuqtik va zo'ravonlik, individualizm, egotsentrizm g'oyalarini tarqatish, kerak bo'lsa, shuning hisobidan boylik orttirish, boshqa xalqlarning necha ming yillik an'ana va qadriyatlari, turmush tarzining ma'naviy negizlariga bepisandlik, ularni qo'porishga qaratilgan xatarli tahdidlar odamni tashvishga solmay qo'ymaydi. "Hozirgi vaqtda axloqsizlikni madaniyat deb bilish va aksincha, asl ma'naviy qadriyatlarni mensimasdan, eskilik sarqiti deb qarash bilan bog'liq holatlar bugungi taraqqiyotga, inson hayoti, oila muqaddasligi va yoshlar tarbiyasiga katta xavf solmoqda va ko'pchilik butun jahonda bamisoli balo-qazodek tarqalib borayotgan bunday xurujlarga qarshi kurashish naqadar muhim ekanini anglab olmoqda"².

Bu haqda fikr yuritganda, bizning ulug' ajdodlarimiz o'z davrida komil inson haqida butun bir axloqiy mezonlar majmuini, zamonaviy tilda aytganda, sharqona axloq kodeksini ishlab chiqqanliklarini eslash o'rinli, deb bilaman. Ota-bobolarimizning ongu tafakkurida asrlar, ming yillar davomida shakllanib, sayqal topgan or-nomus, uyat va andisha, sharmu hayo, ibo va iffat kabi yuksak axloqiy tuyg'u va tushunchalar bu kodeksning asosiy ma'no-mazmunini tashkil etadi, desak, o'ylaymanki, xato qilmagan bo'lamiz.

¹ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat -yengilmas kuch. 80-b

² Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat -yengilmas kuch. 78-b

O'z-o'zidan ravshanki, bugungi zamon voqelikka ochiq ko'z bilan, real va hushyor qarashni, jahonda va yon-atrofimizda mavjud bo'lgan, tobora kuchayib borayotgan ma'naviy tahdid va xatarlarni to'g'ri baholab, ulardan tegishli xulosa va saboqlar chiqarib yashashni talab etmoqda. Shu bois yurtdoshlarimiz, ayniqsa, yosh avlod ongida murakkab va tahlikali hayot haqida, uning shafqatsiz o'yinlari to'g'risida biryoqlama va soxta tasavvur bo'lmasligi kerak.

Hozirgi vaqtda ko'z o'ngimizda dunyoning geosiyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy, axborot-kommunikatsiya manzarasida chuqur o'zgarishlar ro'y berayotgan, turli mafkuralar tortishuvi keskin tus olayotgan bir vaziyatda, barchamizga ayonki, fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish har qachongidan ko'ra muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Har qanday hodisaga qarshi kurashishda avvalo uning mohiyati, yetkazishi mumkin bo'lgan tomonlari hususida yoshlarda tushuncha hosil qilish zarur. Shunday ekan, yoshlarda ona Vatanga muhabbat, boy tariximizga, otabobolarimizning muqaddas diniga sadoqat ruhida tarbiyalash uchun, ta'bir joiz bo'lsa, avvalo ularning qalbi va ongida mafkuraviy immunitetni kuchaytirishimiz zarur. Ularda ozod shaxsning, erkin fuqaroning asosiy jihatlarni tarbilashga erishimiz zarur. Ana shunda johil aqidaparastlarning «da'vati» ham, axloq-odob tushunchalarini rad etadigan, biz uchun mutlaqo begona g'oyalar ham ularga o'z ta'sirini o'tkaza olmaydi.

Yosh avlodimizni turli ma'naviy tajovuzlardan himoya qilish haqida gapirganda, nafaqat xalqimizni ulug'laydigan buyuk xususiyatlar, ayni paytda uning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatgan, eski zamonlardan qolib kelayotgan noma'qul odatlar haqida ham ochiq so'z yuritishimiz zarur. Birinchi navbatda xudbinlik va loqaydlik, qarindosh-urug'chilik va mahalliychilik, korrupsiya va manfaatparastlik, boshqalarni mensimaslik kabi illatlardan jamiyatimizni butunlay xalos etish to'g'risida o'ylashimiz lozim. Men bu o'ta muhim vazifa keng jamoatchiligimizning, ayniqsa, ziyolilarimiz, olim va adiblarimiz, san'at va madaniyat ahli, o'zini ma'naviyat sohasiga bag'ishlagan barcha insonlarning doimiy diqqat markazida bo'lishini istardim.

Bu o'rinda ana shunday salbiy xususiyatlarning eng xunuk ko'rinishi bo'lmish hasad to'g'risida to'xtalib o'tish joiz deb o'ylayman. Odamzot va jamiyat hayotida og'ir asoratlar qoldiradigan hasad tuyg'usi avvalambor boshqalarni ko'rolmaslik, ularning yutug'idan quvonisli o'rniiga, qandaydir kuyinish, ichiqoralik oqibatida paydo bo'ladi.

Shuning uchun ham muqaddas kitoblarimizda hasad insoniylikka mutlaqo zid bo'lgan jirkanch odat sifatida qattiq qoralanadi. Jumladan, muborak hadislarda «Birovga hasad qilishdan saqlaning, chunki olov o'tinni qanday kuydirib tugatsa, hasad ham qilgan savob ishlarinigizni xuddi shunday kuydirib tugatadi», deb aytilgani bejiz emas.

Azal-azaldan ochiqko'ngil, samimiy va mehnatkash, yaxshilikni yuksak qadrlaydigan xalqimiz bunday illatlardan doimo hazar qilib keladi. Lekin, ming afsuski, umr yo'llarida hasad balosiga ko'p duch kelamiz. O'lis va yaqin tariximizda ne-ne buyuk zotlar hasad va baxillik, ko'rolmaslik tufayli qanday azob-uqubatlarni boshidan kechirgani, sog'lig'i, hatto hayotidan judo bo'lganini achchiq misollarda ko'rish mumkin.

O'zbek nomini, o'zbek ilm-fani va madaniyatini, bir so'z bilan aytganda, xalqimizning yuksak salohiyatini, uning qanday buyuk ishlarga qodir ekanini dunyoga namoyish qilishda yurtimiz zaminidan yetishib chiqqan yuzlab ulug' zotlar fidoiylik namunalarini ko'rsatib kelgan. Bunday insonlar diyorimizda hozir ham ko'plab topiladi va bundan keyin ham ularning saflari kengayib boraveradi. Hamma gap ana shunday insonlarga xayrixohlik bilan munosabatda bo'lish, ularni qo'llab-quvvatlashda. Agar biz mamlakatimizning qaysi shahar yoki qishlog'ida bo'lmasin, yilt etgan iste'dod uchqunini ko'rganda, hammamiz uni o'z vaqtida payqab, ardoqlab, parvona bo'lib, unga yo'l ochib bersak, barcha say-harakat va intilishlarimizni ana shunday olijanob maqsadga qaratsak, muxtasar aytganda, hasad qilib emas, havas qilib yashashni hayotimiz qoidasiga aylantirsak, hech shubhasiz, biz milliy taraqqiyot bobida yanada yuksak marralarni egallashga erisha olamiz.

Bu haqda gapirar ekanmiz, ma'naviy hayotimizga jiddiy xavf soladigan yana bir illat haqida to'xtalib o'tmoqchiman. Shaxsan o'zim bu illatdan jirkanaman. Shu illatga chalingan odamni ko'rarga ko'zim yo'q. Bu – sotqinlikdir. Men har qanday yovuzlikni sotqinlikdan ko'raman. Ezgulik va haqiqatga sadoqati bo'lmagan, ularga ishonmagan odam qo'rqinchlidir. Tabiatida sotqinlik xususiyati bo'lgan odam rahbarlik kursisiga o'tirib qolsa bormi, u yerda osoyishtalik yo'qoldi, deyavering. Ikkita odamning, ikkita mamlakatning o'rtasidagi urushni ham aynan shunday odamlar boshlab beradi. Shu bois bunday odamlardan ogoh bo'lishimiz, ularga yonimizda o'rin bo'lmasligi lozim. Agar tevarak-atrofimizdagi birorta kishida shunday alomatlar sezilayotgan bo'lsa, ularni darhol tarbiyamizga olib, to'g'ri yo'lga boshlashimiz kerak.

Shu munosabat bilan tarixda ko'p marta o'z tasdig'ini topgan, men ham o'z tajribamda sinagan hayotiy bir haqiqatni yana bir bor takrorlashni zarur deb hisoblayman: agar biz ahil bo'lsak, el-yurt manfaati yo'lida bir tanu bir jon bo'lib yashasak, o'zimizdan sotqin chiqmasa, o'zbek xalqini hech kim hech qachon yenga olmaydi.

Bu hayotda odam ba'zan o'zini yo'qotib qo'yadigan g'oyat murakkab muammolarga duch keladi. Keskin vaziyatdan chiqishning iloji yo'qdek tuyuladigan holatlar bor. Shunday paytda, ishda va hayotda, jamiyatda og'ir savdolarga duch kelganda kim o'zining yo'lini yo'qotmasligi mumkin? O'ylaymanki, birinchi navbatda o'z kuchiga ishongan, ruhiy dunyosi, ma'naviy olami baquvvat bo'lgan odamgina bunday vaziyatdan yorug' yuz bilan chiqa oladi. Ma'naviy boyluk shunday paytda odamga katta kuch va madad beradi.

Shu ma'noda, insonning ma'naviyati yuksalishi bilan uning irodasi ham kuchayib boradi, desak, yanglishmagan bo'lamiz. Iroda – bu aslida mustahkam ishonch demakdir. Irodasi baquvvat odam o'ziga ishonadi va har qanday murakkab vazifani ham o'z zimmasiga olishdan qo'rqmaydi. Shuning uchun ham yuksak irodali insonga suyanish mumkin. Bunday kishilar boshingizga biror-bir tashvish yoki muammo tushgudek bo'lsa, loqayd qarab turolmaydi. Hech ikkilanmasdan, yoningizda turib, qo'lidan kelgancha yordam berishga, qiyinchiliklarni siz bilan birgalikda yengishga harakat qiladi.

Lekin birovning hayotiga, yon-atrofdan sodir bo'layotgan voqea-hodisalarga betaraf va beparvo qarab, shunchaki kuzatuvchi bo'lib yashaydigan odamdan qo'rqish kerak. Ulardan hech qachon yaxshilik chiqmaydi. Chunki ularda na iymon, na iroda bo'ladi. Ular hatto o'z xalqi va Vatani taqdiriga ham bamisoli begona odamdek qaraydi.

Azaldan ma'lumki, beparvo odam dushmanidan ham xavfliroqdir. Chunki dushmanni kimligi, asl qiyofasi siz uchun oldindan ma'lum bo'ladi. Biroq loqayd va beparvo odamning qiyofasini birdaniga bilib bo'lmaydi. Shuning uchun u ichingizda yurib, sizga qarshi tish qayraydigan dushmanlar uchun imkoniyat yaratib beradi.

Mashhur faylasuflardan biri ana shu hayotiy haqiqatni chuqur tahlil etib, quyidagi haqqoniy fikrlarni bayon qilgan: «Dushmanlardan qo'rqma – nari borsa, ular seni o'ldirishi mumkin. Do'stlardan qo'rqma nari borsa, ular senga xiyonat qilishi mumkin. Befarq odamlardan qo'rq – ular seni o'ldirmaydi ham, sotmaydi ham, faqat ularning jim va beparvo qarab turishi tufayli yer yuzida xiyonat va qotilliklar sodir bo'laveradi».

Har bir inson hayotida g'oyat muhim ahamiyatga ega bo'lgan ana shunday fikrlarni unib o'sib kelayotgan yoshlarning ongiga singdirish, ularni hayot sinovlariga bardoshli etib tayyorlash bizning ota-ona, ustoz-murabbiy, rahbar-rahnamo sifatidagi, shu muqaddas yurt fuqarosi sifatidagi muqaddas burchimizdir.

Ijtimoiy fanlar oldidagi eng dolzarb vazifa – yuqorida zikr etilgan barcha jarayonlarning ilmiy-nazariy asoslarini, ularning yangi qirralarini mukammal ochib berish, o'quvchilarimiz, talabalarimizga, keng jamoatchilikka sodda, lo'nda qilib tushuntirib borish va ularni bugungi zamon talablariga javob beradigan jamiyat qurilishining faol bunyodkorlariga aylantirishdan iborat.

Buning uchun avvalambor taraqqiyotimizning har bir yo'nalishi – jamiyatimizdagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy munosabatlarning rivoji haqida maxsus adabiyotlar yaratish tizimini yanada takomillashtirish zarur. Bu adabiyotlarda halqimizning tub manfaatlarini, yurtimizning tinchligi, havfsizligi masalalari ustuvor ahamiyat kasb etishi zarur.

Albatta, bu masala bo'yicha ijtimoiy fanlar sohasida ma'lum ishlar qilindi. Ammo xolisona aytadigan bo'lsak, bu borada chop etilgan ko'pchilik darsliklar, o'quv qo'llanmalari, ommabop adabiyotlarning ham, aksariyat soha mu-taxassislarining ham saviyasi talab darajasida emasligini qayd etishga majburlamiz. Shuningdek dunyoning maqkuraviy manzarasining shiddat bilan o'zgarishi bu borada tinimsiz tadqiqotlar olib borishni taqozo etmoqda. Ogohlikni, xushyorlikni bir daqiqa e'tibordan chekkada qoldirish mumkin emas.

Yurtimizda erkin, adolatli, demokratik va farovon hayot qurish jarayonida ijtimoiy-siyosiy munosabatlar, odamlarning ongi va tafakkuri ham o'ziga xos, shu bilan birga, mutlaqo yangicha ma'no kasb etib bormoqda, o'zgarimoqda. Xususan, shaxs va davlat, inson va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar yangicha maznun va shakl topib, yangi xususiyatlar, yangi tamoyillar asosida takomillashib borayotganini sezish, anglash qiyin emas.

Binobarin, bularning barchasi yangicha qadriyatlar va demokratik prinsiplar mohiyatiga, o'z turmush va tafakkur tarzimizga mos, biz barpo etishga intilayotgan erkin fuqarolik jamiyati talablariga javob beradigan munosabatlar sifatida ijtimoiy fanlarning asosiy tadqiqot mavzulariga aylanishi darkor.

Bu boradagi ijtimoiy fanlar oldidagi eng muhim vazifa shundan iboratki, har qaysi fuqaro, har qaysi inson jamiyat taraqqiyoti va uni yangilashga,

ma'naviy hayotimizni turli tahdid va xurujlardan himoya qilish masalasiga bo'lgan o'z burchi, mas'uliyati, vazifasini aynan ana shu asosda aniqlab olishi zarur.

Bu masala haqida chuqurroq o'ylab ko'radigan bo'lsak, har bir ijtimoiy fan doirasida shu tamoyillarga tayangan jamiyatning o'ziga xos ijtimoiy shakl-shamoyili, uning qiyofasi, rivojlanish yo'llari, ustuvor xususiyatlari to'g'risidagi aniq tasavvur turli fikr, bahs-munozaralar orqaligina ayon bo'lishini e'tirof etishimiz va buni o'zimizga mezon qilib olishimiz zarur.

Bunday keng ko'lamlı va o'ta muhim masalalarni hal qilishda davlatimiz va jamiyatimiz ijtimoiy fanlar sohasida faoliyat olib borayotgan ilmiy-tadqiqot institutlari, oliy o'quv yurtlari, turli ijtimoiy markazlar, avvalambor, Ma'naviyat targ'ibot markazi, Milliy g'oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi ko'rsatib o'tilgan tamoyilarni, xususiyatlarni yoshlar ongiga singdirishda, u bilan bog'liq vazifalarni yechimi hamkorlikka asoslangan faoliyat yurgizishlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Ayniqsa, bugungi murakkab mafkuraviy jarayonlarni ilmiy-amaliy jihatdan atroflicha tahlil qilish va baholash, ularning ustuvor yo'nalishlarini, kimga va nimaga qarshi qaratilganini aniqlash, aholi turli qatlamlariga ta'sirini o'rganish, milliy manfaatlarimizga, hayot tarzimizga zid bo'lgan zararli g'oyalar va mafkuraviy xurujlarning mohiyatini ochib berish, fuqarolarimiz qalbida milliy tafakkur va sog'lom dunyoqarash asoslarini mustahkamlash alohida ahamiyat kasb etadi.

Faqat ana shunday asosda ijtimoiy fanlar yoshlarni o'z fikriga ega, turli ma'naviy xurujlarga qarshi sobit tura olishga qodir bo'lgan, irodali, fidoyi va vatanparvar insonlar etib tarbiyalashdek muhim vazifaning yechimiga ulkan hissa qo'sha oladi. Bu borada ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot ishlarining ta'sirchanligini ta'minlaydigan zamonaviy informatsion va kompyuter texnologiyalarini keng joriy etish, jamiyatimizning mafkuraviy immunitetini kuchaytirishga qaratilgan samarali usul-uslublarni ishiab chiqish, davlat va jamoat tashkilotlari uchun tegishli tavsiya va qo'llanmalarni tayyorlash ijtimoiy fanlar oldidagi uzluksiz jarayon bo'lib qolishi talab etiladi.

Tayanch so'z va iboralar

mafkuraviy immunitet, g'oyaviy tarbiya, ozod shaxs, mafkuraviy immunitet tizimi, globalistlar, globallashuv, demografik globallashuv, inson ongi va qalbi uchun kurash, ISHID, islom fundamentalizmi, islom ekstremizmi,

kosmopolitizm, liberalizm, madaniy globallashuv, ma'naviy-mafkuraviy jarayonlarning globallashuvi, fanatizm, fundamentalizm.

Takrorlash uchun savollar

1. Mafkuraviy immunitet tushunchasi, mohiyati va tarkibi.
2. Milliy qadriyatlarini yosh avlod ongiga singdirish - ma'naviy tahdidlar ta'siridan ular ongini himoyalashning eng samarali yo'li sifatida.
3. G'oyaviy tarbiya mafkuraviy mustaqillikni mustahkamlashning muhim omili.
4. Yoshlarda g'oyaviy immunitetni yuksaltirishda ijtimoiy fanlar oldidagi vazifalar.

16-§. GLOBAL TAHDIDLARGA QARSHI G'OYAVIY KURASHCHANLIKNI YUKSALTIRISHNING USTUVOR VAZIFALARI (Sh.Mirziyoyevning "Vatanimiz taqdiri va kelajagi yo'lida yanada hamjihat bo'lib, qat'iyat bilan harakat qilaylik" asari asosida)

Reja

1. Ijtimoiy hamkorlik amalga oshirilayotgan islohotlarning muhim omili.

2. Millatlararo totuvlik g'oyasining taraxiy-huquqiy asoslari

3. Diniy bag'rikenglik g'oyasini amalga oshirishda jaholatga qarshi ma'rifat tamoyilining yangi bosqichga ko'tarilishi

4. Global tahdidlarga g'oyaviy salohiyatni tarbiyalashda ta'lim tizimi oklidagi ustuvor vazifalari

1. Ijtimoiy hamkorlik amalga oshirilayotgan islohotlarning muhim omili. O'zbekiston ko'p millatli, turli diniy konfessiya vakillari yashaydigan mamlakat. Unda yashayotgan turli millat vakillari, diniy jamoalar vakillari o'rtasida totuvlikni ta'minlash, bag'rikenglik muhitini shakllantirish, ularni yagona maqsad, manfaatlar yo'lida uyushtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimiz o'z mustaqilligini qo'lga kiritganidan beri o'tgan davr mobaynida bu masalalar har doim ustuvor ahamiyat kasb etib keladi. Mamlakatimizda amalga oshirilgan islohotlarning eng muhim omili bo'lib jamiyatimiz hayotida ta'minlangan ijtimoiy barqarorlik omili xizmat qiladi. Turli millat vakillari, diniy jamoa vakillari o'rtasidagi munosabatlarning huquqiy asoslari yaratildi va takomillashtirilib borilmoqda. Ayni damda milliy totuvlikni, diniy bag'rikenglikni targ'ib etish, uning samaradorligini oshirishga

qaratilgan ma'naviy-ma'rifiy hatti-harakatlar, bu jarayonlardagi faoliyatda uyushqoqlik bilan faoliyat olib borish, uning institusional tizimini takomillashtirishga qaratilgan faol ishlar olib borilmoqda.

2017 yilning 15 iyun kuni Toshkent shahrida "Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning softligini asrash – davr talabi" mavzusida anjuman bo'lib o'tdi. Tadbirda O'zbekiston musulmonlari idorasi rahbarlari, din arboblari, "Nuroniy" va "Mahalla" jamg'armalari, Xotin-qizlar qo'mitasi, "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati faollari, hokimliklar, huquq-tartibot idoralari vakillari, ilm-fan va madaniyat namoyandalari, islomiy ta'lim muassasalari mutasaddilari va talabalari, jamoatchilik vakillari ishtirok etdi. Anjumanda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ham ishtirok etib nutq so'zlad. Yuqorida qayd etib o'tilgan masalalarga to'xtar ekan Yurtboshimiz shunday deydi: "Kun tartibiga qo'yilgan masala, ya'ni, ijtimoiy-ma'naviy sohani yanada rivojlantirish, oilalarimiz, mahallalarimizda, butun jamiyatimizda sog'lom muhitni mustahkamlash, yoshlar tarbiyasi, tinch-osuda hayotimizni, muqaddas dinimiz pokligini asrash vazifasi bugungi kunda qanday ulkan ahamiyat kasb etayotgani haqida, o'ylaymanki, ortiqcha gapirishning hojati yo'q"¹. Nega deganda, aynan shu masalalar Vatanimizning, yoshlarimizning bugungi va ertangi kunini, ularning taqdirini, bir so'z bilan aytganda, hayot-mamotini hal qilishi hech kimga sir emas.

Har bir ongli insonni chuqur o'ylantiradigan, tashvish va xavotirga soladigan bu masalalar borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi va oshirilmoqda. Ma'lumki O'zbekistonimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'tarish maqsadida 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi qabul qilindi va uni hayotga tatbiq etish bo'yicha faol ish olib borilmoqda. Ta'kidlash kerakki, ushbu strategiya jamiyat hayotining barcha soha va tarmoqlariga chuqur kirib, amaliy harakatlar mezoniga aylanib bormoqda. Undagi ustuvor yo'nallishlardan birini havfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik muhitini yuksaltirish hisoblanadi.

2. Millatlararo totuvlik g'oyasining taraxiy-huquqiy asoslari. Zaminimizda azaldan turli millatga mansub aholi vakillari yashab kelishgan. Ular o'rtasidagi ahillik, totuvlik, inoqlik masalalari, uni tarbiyalash vazifalari vazifalari har doim o'ziga yarasha ahamiyat kasb etib kelgan, faylasuf olimlar, adiblarning

¹ Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. –Toshkent: "O'zbekiston" NMIU,2017. -461- b.

ijodidan muhim o'rin tutgan. Mamlakatimiz o'z mustaqilligini qo'lga kiritgan dastlabki kunlardan oq bu masala o'ziga xos ahamiyat kasb etdi. Lekin turli mazmundagi g'oyaviy tahdidlarning kuchayib borishi bajarayonlarga ta'sir qilmasdan qolmayapdi. Bugun shu yo'nalishda olib borilayotgan ishlarni atroflicha tahlil qilib, o'z yechimini kutayotgan dolzarb vazifalarni belgilab olishimizni davr taqozo etmoqda. Ona vatanimiz ko'p millatli va ko'p konfessiyali davlat bo'lib kelgan. Bugungi kunda mamlakatimizda 130 dan ortiq millat va elat vakillari bir oila farzandlaridek ahil yashashmoqda. Bu borada, hech shubhasiz, xalqimizga azaldan xos bo'lgan bag'rikenglik an'analari muhim rol o'ynamoqda. Bizning Konstitusiyamiz va qonunlarimizda, millati, tili va dinidan qat'i nazar, barcha fuqarolarimiz teng huquq va erkinliklarga ega ekani kafolatlab qo'yilgan. Ularga o'z milliy madaniyati, an'ana va urf-odatlarini saqlash, har tomonlama rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlar yaratilgan. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan Harakatlar strategiyasining beshinchi ustuvor yo'nalishida ham millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash bo'yicha eng muhim vazifalar belgilab berilgan. Yurtimizda etnik o'ziga xoslikni rivojlantirish va millatlararo munosabatlarni yanada uyg'unlashtirishda 138 ta milliy madaniy markaz katta rol o'ynamoqda¹. Ana shu markazlar faoliyatini yangi bosqichga ko'tarish, xorijiy mamlakatlar bilan madaniy do'stlik aloqalarini yanada rivojlantirish maqsadida yaqinda muhim bir qaror qabul qilindi. Unga binoan Respublika baynalmilal markazi negizida Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasi tashkil etildi.

3. Diniy bag'rikenglik g'oyasini amalga oshirishda jaholatga qarshi ma'rifat tamoyilining yangi bosqichga ko'tarilishi

Mamlakatimiz mustaqilligining ilk yillaridan boshlab vijdon erkinligi, e'tiqod erkinligini ta'minlash, turli diniy konfessiyalar o'rtasidagi munosabatlar masalasiga ustuvor ahamiyat berildi. Ularning huquqiy maqomi yaratildi. Uzoq yillar davomida amal qilib qilib kelgan turli taqiqlar olib tashlandi. Muqaddas dinimiz qadriyatlarini tiklandi, buyuk aziz-avliyolarimizning xotirasi, merosini tiklash, qadamjolarini obod qilish bo'yicha juda ko'p ish qilindi va qilinmoqda.

Yaqin tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak mustabid tizim davrida bu muqaddas qadamjolar, maskanlar oyoqosti qilindi. Ularning milliy va diniy tuyg'ulari qo'pol ravishda kamsitildi, tarixiy haqiqatni buzib ko'rsatildi. O'z

¹ Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. –Toshkent: "O'zbekiston" NMIU,2017.-461- b.

ona tilini, milliy an'ana va madaniyatini, o'z tarixini bilmaslik ko'plab odamlarning shaxsiy fojiasiga aylanib bordi. Xalqimiz manfaatlariga zid bo'lgan, noinsoniy g'oya hukmron bo'lgan mustabid tuzum o'zining bor mafkuraviy kuchini, ommaviy axborot vositalarini, butun maorif tizimini ishga solib odamlar ongini keng miqyosda zaharlashga harakat qilar edi. Milliy o'zlikni anglashga bo'lgan tabiiy intilish johilona inkor etilardi. Navro'z, Ramazon, Qurbon Hayiti kabi ko'plab muqaddas milliy bayramlar taqiq etilgan edi. Amir Temur, Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Ahmad al-Farg'oniy, Bahouddin Naqshband, Xoja Ahmad Yassaviy, Najmiddin Kubro, Mahmud az-Zamahshariy, Xoja Ahrori Valiy, Abdulkholiq G'ijduvoni kabi buyuk ajdodlarimizning, Abdulla Qodiriy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho'lpon, Mahmudxo'ja Behbudiy, Usmon Nosir kabi milliy-ozodlik harakati fidoyilarining nomlarini xalqimiz xotirasidan o'chirib tashlashga harakat qilinar edi¹. Agar sobiq mustabid tuzum davrida yurtimizda 80 ga yaqin masjid faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, hozirgi kunda ularning soni 2 mingdan ortiqni tashkil qiladi. Yiliga sanoqli kishilargina haj qilish imkoniyatiga ega bo'lgan bo'lgan bo'lsa, joriy yilda 7200 nafar fuqarolarimiz muborak haj safarini amalga oshirish imkoniga ega bo'ladilar².

Ma'lumki, bizning mintaqamiz, avvalambor, bugungi O'zbekiston zamini islom ilm-fani va madaniyatining qadimiy beshiklaridan biri hisoblanadi.

Bu zaminda tabiiy va aniq fanlar bilan bir qatorda, ilohiy ta'limotni ham olamga yoygan yetuk allomalar yashab o'tgan. Diyorimizda islom ta'limoti va amaliyotini rivojlantirish bo'yicha 3000 dan ortiq ilmi-ulamolar faoliyat ko'rsatganligi buning yaqqol dalilidir. Shulardan 1000ga yaqini Samarqandda, 600 tadan ko'prog'i Buxoroda, 300tasi Nasafda va qolganlari boshqa shaharlarda bo'lgan. Al-Buxoriy, Ahmad Yassaviy, at-Termiziy, az-Zamahshariy, Motrudiy, Marg'inoniy, Bahouddin Naqshband kabi o'nlab allomalar islomiy-diniy ilmlar peshvolari sanaladi. Ular tafsir, hadis, fiqh, kalam kabi islomiy ilmlarning rivojiga asos solgan bo'lib, yurtimiz dovrug'ini Mashriq dunyosi bo'ylab taratganlar. Ular diniy ilmlarga, ma'rifatga o'zining butun hayotini bag'ishlaganla. Markaziy Osiyolik ilm ahllari Imom al-Buxoriy «Al-Jome' as-sahlh» («Ishonchli to'plam»), «Al-Adab al mufrad» («Adab durdonalari»); Abu Mansur al-Motrudiy «Kitob at-tavhid» («Yakkaxudolik haqidagi kitob»), «Ta'vilot ahli as-sunna» («Sunniylik an'analari sharhi»);

¹ Qarang: Karimov I.A. Biz ketajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. Asarlar 7-tom.

² Qarang: Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. –Toshkent: "O'zbekiston" NMIU,2017.-466- b.

Zamahshariy «Kashshof» («Qur'on haqiqatlari va uni sharhlash orqali so'zlar ko'zlarini ochish»); Abu Iso Termiziy «Sunani Termiziy»; Marg'inoniy «Hidoya» asarlari bilan Islomning rivojlanishiga, musulmon e'tiqodini xalq dunyoqarashi bilan uyg'unlashtirishga katta hissa qo'shdilar.

Xalqimizning ana shunday boy tarixiy, ilmiy, ma'naviy merosini har tomonlama o'rganish, jahon afkor ommasiga keng tanishtirish, eng muhimi, islom dinining asl insonparvarlik mohiyatini chuqur ochib berish maqsadida O'zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning tashabbusi bilan Toshkent shahrida O'zbekistondagi Islom madaniyati markazini barpo etishga qaror qilindi. Bu "Jaholatga qarshi—ma'rifat" shiorining amaliy hayotda namoyon bo'lishining o'ziga xos isbotidir.

Xalqaro maydonda sodir bo'layotgan voqealar rivoji milliy-ma'naviy havfsizlik borasida amalga oshirayotgan ishlarimizni sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarishimizni, davlatimiz va jamiyatimizning barcha kuch va imkoniyatlarini safarbar etishimizni taqozo qilmoqda. Masalaning bu jihatiga e'tibor qaratar ekan Sh.M.Mirziyoyev shunday ta'kidlagan edi: "Chunki hozirgi vaqtda dunyo miqyosida hukm surayotgan tahlikali vaziyat, siyosiy va iqtisodiy inqirozlardan tashvishga tushmayotgan birorta davlat yoki jamiyat yo'q, desak, hech qanday mubolag'a bo'lmaydi.

Ayniqsa, xalqaro terrorizm, ekstremizm, narkotrafik, diniy qarama-qarshilik, noqonuniy migratsiya, odam savdosi, ekologik muammolar, ayrim mintaqalarda iqtisodiy nochorlik, ishsizlik, qashshoqlik kuchayib borayotgani butun insoniyatni qattiq xavotirga solmoqda"¹.

Yaqin va uzoq horijda mana shunday o'ta murakkab va qaltis sharoit ro'y berayotgan ekan, bunday sharoitda biz qanday yo'l tutishimiz, qanday qilib tinchlik va osoyishtalikni saqlashimiz, barqaror rivojlanishni nimalar hisobiga ta'minlashimiz mumkin, degan savollarga jiddiy bosh qotirishimiz talab etiladi.

Keyingi paytlarda Yaqin Sharq, Shimoliy Afrika mamlakatlarida sodir etilayotgan terrorchilik harakatlaridan ko'zlanayotgan maqsadlarning insoniylikka zidligi, reallikdan butunlay xoliligi, asl maqadning sirligi, ayniqsa bunday ijrochilari qatorida O'zbekiston fuqarolarining ham borligi xalqimizda afsus va nadomat uyg'otmoqda. Tinchlikni, osoyishtalikni, insoniylikni, yaratuvchanlikni, sabrlikni hamma narsadan ustun qo'yadigan xalqimiz

¹ Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. —Toshkent: "O'zbekiston" NMIU,2017.-473- b.

bunday shaxslarning qilmishlarini keskin qoralaydi. Xavotirli tomoni bunday razil kuchlar o'z saflarini to'ldirishda davom etishmoqda.

4. Global tahdidlarga g'oyaviy salohiyatni tarbiyalashda ta'lim tizimi oldidagi ustuvor vazifalari

Migratsiya jarayonlarining globallashuvi sharoitida yoshlarning muayyan qismi chet elda ishlab, halol mehnat bilan daromad maqsadida yurishibdi. Bu fuqarolarimiz qator sabablar tufayli yuqorida qayd etib o'tilgan turli-tuman mazmundagi terroristik kuchlar changaliga tushib qolmasligi uchun biz ta'lim-tarbiyada, targ'ibot ishlarida qanday choralarni amalga oshirishimiz talab etilmoqda.

Birinchidan, O'zbekiston hukumati qo'shni davlatlar bilan hamkorlik aloqalarini rivojlantirishga alohida ahamiyat bermoqda. Bizning maqsadimiz ular bilan hamkorlik aloqalarini kuchaytirish, turli mazmundagi muammolarni birgalikda yechishdan iborat. Qisqa muddatda O'zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev Turkmaniston va Qozog'iston Respublikasiga ikki marta tashrif bilan bordi. Rossiya Federatsiyasi, Qirg'iziston, Xitoy Xalq Respublikasi, Saudiya Arabistoniga samarali tashriflar amalga oshirildi. Bunday tashriflarda asosiy masalalar sifatida o'zaro hamkorlikni, savdo-sotiqni yanada kuchaytirish, ichki imkoniyatlardan unumli foydalanish, mintaqadagi barqarorlikni ta'minlash, turli tahdidlarga birgalikda kurashish keng muhokama etildi. Tojikiston poytaxti Dushanbe shahrida o'tkazilgan O'zbekiston ishlab chiqarilgan mahsulotlar yarmarkasi ikkala mamlakat o'rtasida hamkorlikning yangi davrini boshlab berdi. Rossiya Federatsiyasiga davlat tashrifi chog'ida mehnat migratsiyasi bo'yicha muhim kelishuvga erishildi. Fuqarolarimizning bu mamlakatda halol mehnat qilishi, qonuniy yo'l bilan daromad topishi uchun davlatimiz barcha sharoitlarni yaratib bermoqda. Shunday ekan ushbu imkoniyatlardan foydalanish davr talaba bo'lib qolmoqda. Yoshlarimizni yaratilgan imkoniyatlardan to'g'ri, oqilona foydalanishlarini ta'minlash uchun ta'lim-tarbiya tizimida, targ'ibot tizimida tegishli vazifalarni belgilab olishimiz talab etiladi.

Ikkinchidan, bugungi kunda jamiyatimizda ijtimoiy-ma'naviy muhitni yanada sog'lomlashtirish, yoshlarda ogohlik va g'oyaviy salohiyatni yanada yuksaltirish, aholi turmush sharoiti va bandligini yaxshilash, ularni turli diniy ekstremistik uyushmalar changalidan ta'lim-tarbiya tizimi, ma'naviy-ma'rifiy uyushmalar faoliyati oldidagi ustuvor vazifalar sirasiga kiradi.

Anjumanda prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek "Bugungi kunda ijtimoiy-ma'naviy muhitni va aholi turmush sharoitini yaxshilash, yoshlarni turli diniy ekstremistik oqimlar ta'siridan asrash masalasi barchamiz uchun eng asosiy masala bo'lib turibdi".

Uchinchidan, jamiyat hayotining ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-mafkuraviy sohalarida yuz berayotgan turli mazmundagi ekstremistik kayfiyatdagi kuchlarga nisbatan "jaholatga qarshi ma'rifat" tamoyili asosida kurashishni amaliyotda keng qo'llash, uning ijrosini ta'minlash borasidagi ishlarni sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarishni zamon talab qilmoqda. Bu borada O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ishlarga to'htalar ekan Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev shunday ta'kidlaydi: "Biz ko'p joylarda jaholatga qarshi ma'rifat tashabbusi bilan chiqyapmiz. Muqaddas islom dinini niqob qilib boshqa ko'chalarga kirib ketayogan johil kimsalar bir narsani tushunmaydi yoki tushunishni istamaydi. Ya'ni, islom faqat nurli hayotga, ilm-ma'rifatga, yaxshilikka undaydi. Hech qachon xunrezlik, qotillik, zo'ravonlikka chaqirmaydi. Ana shu haqiqatni tan olmasdan, soxta g'oyalarga aldanib, zararli oqimlarga kirish, terrorchi bo'lish – bu O'zbekiston xalqiga mutlaqo to'g'ri kelmaydi"². Yoshlarni bunday tUSDagi turli mafkuraviy kuchlar ta'siridan himoyalashning turli xil usul va vositalari keng tahlil etildi. Lekin erishilayotgan samarani ko'ngildagidek deb bo'lmaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev mazkur anjumandagi nutqidagi bu tizimni yanada takomillashtirishning yangicha yo'l-yo'riqlarini ilgari surdi. Avvalo bu tizimning institusional qurilmasi faoliyatini takomillashtirishga, yoshlar tarbiyasida oila, mahalla, maktab, diniy idoralar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirishga alohida e'tibor qaratib o'tdi. Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni turli mafkuraviy tahdidlardan asrashda har bir institutning imkoniyatlarini to'g'ri baholash, undan unumli foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

To'rtinchidan, jamiyatdagi ma'naviy muhitni izdan chiqarishga qaratilgan turli mazmundagi ta'sirlarga qarshi aksiltarg'ibot tadbirlarini olib borishning yangicha, ta'sirchan uslublari ustida ishlash talab etilmoqda. Avvalo jamiyat ma'naviy hayotining har qanday jabhasida bo'ladigan sodir bo'ladigan noxush hodisaga nisbatan umumjamiyat miqyosidagi salbiy kemitik sifatida qarash talab

¹ Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. –Toshkent: "O'zbekiston" NMIU,2017.-475- b.

² Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. –Toshkent: "O'zbekiston" NMIU,2017.-475- b.

etiladi. Unga qarshi kurashni umumniki sifatida baholash zarur. Bunday hodisa jamiyatda olib borilayotgan ma'naviy-ma'rifiy ishlarni sifat jihatidan takomillashtirishni talab etadi. Binobarin "Bir bolaning yo'ldan adashishi – bu nafaqat bir oila, balki butun jamiyat boshiga tushgan kulfat. Bundan avvalo shu bolaning ota-onasi, aka-ukalari, yaqinlari jabr ko'radi. Bunday paytda ularga yordam berish kerak. Biz esa, afsuski, ulardan o'zimizni olib qochamiz. To'yga chaqirmaymiz, marosimga chaqirmaymiz, u falonchining akasi yoki o'g'li, deb ularning nafratini battar avj oldiramiz, aybsiz odamlarni ashaddiy dushman qilamiz"¹. Muammoga bunday yangicha usulda yondashuvning sababi nimada? Agar biz jamiyatda o'ziga sherik, safdosh izlayotgan qator diniy-ekstremistik ruhdagi tajovuzkor guruhlar targ'ibot usullariga e'tibor qaratadigan bo'lsak ular asosan moddiy jihatdan qiynalgan aholi qatlamlariga, ishsiz yurgan yoshlarga, turli jinoyatlari uchun qamalganlarning oila a'zolariga keng e'tibor qaratishadi. Shunday ekan bunday harakatlarni amalga oshirgan, turli sabablar bilan noto'g'ri yo'lga kirib adashganlarga, nafaqat ularga balki ularning yaqin oila a'zolariga bo'lgan munosabatni tubdan o'zgartirish lozim. Anjumandagi nutqida Prezidentimiz bu masalani ko'ndalang qo'yadigan vaqt kelganiga e'tibor qaratib ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniyning "Olijanob kishilar uzrni qabul qilur", degan fikrlarini keltirib o'tgan. "Adashgan yoshlarni tarbiyalashimiz, kerak bo'lsa, jazoni o'tash joylariga ham borib, ular bilan gaplashishimiz lozim. Chin dildan tavba qilib, ota-onasi, oilasi bag'riga, to'g'ri yo'lga qaytishni niyat qilgan odamlarga amaliy yordam berishga men davlat rahbari sifatida doimo tayyorman". Uning amaliy natijasi sifatida hozirgi kunda qancha adashganlarning gunohi kechirilib, to'g'ri yo'lga solindi. Ularning bir qismi o'qishga, bir qismi ishga joylashtirildi.

Shuningdek Sh.M.Mirziyoyev 2017 yil BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqida ham ko'p holiarda tahdidlarni keltirib chiqarayotgan asosiy sabablar bilan emas, balki ularning oqibatlariga qarshi kurashish bilangina cheklanib qolinayotganligiga jamoatchilik e'tiborini qaratdi. Xalqaro terrorizm va ekstremizmning ildizini boshqa omillar bilan birga, jaholat va murosasizlik tashkil etishi, shuning uchun ham birinchi navbatda, oila, ta'lim, mahalla, nodavlat tashkilotlari o'z faoliyatlarida yoshlarning ongu tafakkurini ma'rifat asosida shakllantirish va tarbiyalash vazifalariga alohida e'tibor qaratishlari talab etiladi.

¹ Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. –Toshkent: "O'zbekiston" NMIU,2017.-476- b.

Avvalo ular o'z faoliyatlarini tegishli vazifalar atrofida muvofiqlashtirib olishlari talab etiladi. Negaki yoshlarimizning kundalik faoliyatlari aynan shu maskan va hududlarda kechadi. Shuning uchun maktab, litsey va kollejlardagi, oliy o'quv yurtlaridagi ta'lim-tarbiya, birinchi navbatda, davomat masalasiga nihoyatda jiddiy e'tibor berish talab etiladi. Bironta o'quvchi yoki talaba sababsiz o'qishga kelmasa ta'lim maskani ham, oila ham, mahalla, hokimiyat idoralari ham bu to'g'rida bosh qotirishi lozim. Ana shunday nazorat tizimi samarali va o'zaro bog'liqlikda ishlaydigan bo'lsagina vaziyatni qo'lga olib, uni ijobiy tomonga o'zgartirishga imkon yaratiladi. Malakatimizda amalga oshirilayotgan yoshlar oid davlat siyosatini ta'minlashning ustuvor jihatlardan biri sifatida tumanlarda hokimlar hamda ichki ishlar bo'limi boshliqlarining yoshlar bilan ishlash bo'yicha o'rinbosari lavozimi tashkil etildi.

Albatta bu masalalarining yechimi xususida "Nuroni", "Mahalla" jamg'armalari, Xotin-qizlar qo'mitasi, "O'zbekiston Yoshlar ittifoqi", ichki ishlar idoralari va boshqa tegishli tashkilotlar bevosita javobgar bo'lib, ish samaradorligini tubdan oshirishlari, mutlaqo yangi tizimga o'tishlari, o'z faoliyatlarini muvofiqlashtirib borishlari zarur.

Bu boradagi eng muhim vazifalar haqida gapirganda Sh.Mirziyoyev quyidagilarni alohida ko'rsatib o'tishni ta'kidlaydi.

Birinchidan, yo'ldan adashgan, joylarda maxsus hisobga olingan fuqarolarning turmush sharoiti, ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli, muammolarini o'rganish, ushbu toifa shaxslar nega radikallasib ketganining turli ijtimoiy sabablarini har tomonlama chuqur tahlil etish lozim.

Bu guruhdagi yoshlar qanday bosim ostida qolishganligi sabablari, tahlillari, olingan natijalar bo'yicha davlat va jamoat tashkilotlari faoliyatida qo'llash uchun aniq tavsiya va takliflar ishlab chiqishni muhim ahamiyat kasb etadi. Agar biz shu yo'nalishdagi profilaktik ishlarni zamon talablaridan kelib chiqib doimiy ravishda takomillashtirib borish taqozo etiladi.

Ikkinchidan, turli mazmundagi g'oyaviy tahdidlarga qarshi kurashning mutlaqo yangi tizimini shakllantirish xususida gap borar ekan uning ijrosini ta'minlash uchun ma'rifat va ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha mahalla maslahatchilari, profilaktika inspektorlari, imom-xatiblar va huquqni muhofaza qilish organlarining tegishli xodimlari uchun malaka oshirish o'quvlarini tashkil etish kerak. Bu o'quv kurslarida ularni diniy ekstremistik va terrorchi guruhlarning ish usuli, g'arazli g'oya va maqsadlari, kurash, targ'ibot vositalari bilan tanishtirib borish zarur. Adashgan shaxslar bilan ishlaydigan

mutaxassis, u mahalla maslahatchisi, imom-xatib yoki profilaktika inspektori bo'ladimi, avvalo buzg'unchi kuchlar qanday g'oyalarni ilgari surayotganini bilishi kerak. Shuningdek sanab o'tilgan maskanlar, tashkilotlar faoliyatini muvriqlashtirish masalasini ham hal etish lozim bo'ladi.

Uchinchi dan, hokimlarning yoshlar bilan ishlashbo'limlari xodimlari, jamoatchilik va diniy tashkilotlar, shuningdek, xotin-qizlar bo'yicha o'rinbosarlari turli soxta va'dalar, havoyi gaplar ortidan ergashgan fuqarolarimiz bilan suhbat o'tkazishlari, tashvish va muammolari bilan shuullanishlari lozim. Ularni ishga joylashtirish, kasbga yo'naltirish kechiktirib bo'lmas vazifadir. Aks holda ularning bekor qolishlari, nazoratsiz qolishlari, o'z holiga tashlab qo'yilishi chetda payt poylab turgan qabih kuchlarga qo'l kelishi hech gapmas. Anjumandagi nutqida Prezidentimiz ta'kidlaganidek "Bugungi kunda diniy ekstremistik oqim a'zolarining farzandlarini jamoat ishlariga, dunyoviy turmush tarziga, xususan, fan va kasb-hunar to'garaklari, san'at festivallari, sport musobaqalariga jalb qilishga yetarlicha e'tibor qaratilmayapti. Buni albatta qoniqarli deb bo'lmaydi".

To'tinchi dan, Mafkuraviy immunitet va g'oyaviy kurashchanlik – har bir ozod shaxs va erkin fuqaro uchun zarurligini ta'lim-tarbiya jarayonida doimo yodda tutish talab etiladi. "Mafkura sohasida bo'shliq degan narsaning o'zi hech qachon bo'lmaydi. Chunki insonning qalbi, miyasi, ongu tafakkuri hech qachon axborot olishdan, fikrlashdan, ta'sirlanishdan to'xtamaydi. Demak, unga doimo ma'naviy oziq kerak. Agar shu oziqni o'zi yashayotgan muhitdan olmasa yoki bu muhit uni qoniqtirmasa, nima bo'ladi, aytinglar? Bunday oziqni u asta-sekin boshqa yoqdan izlaydi. Shunga yo'l bermasligimiz kerak"¹. Negaki bugungi zamonda inson ma'lum kuchlarning manfaatlariga xizmat qiladigan turli ma'no-mazmundagi mafkuraviy kuchlarning doimiy ta'sirini sezib yashaydi. Axborot asri, salohiyat asri, elektronika, informatsion texnologiyalar asri deb nom olgan bugungi zamonda bunday ta'sirlardan holi bo'lish dolzarb muammodir. Qolaversa, fikrni, g'oyani ta'qiq bilan, ma'muriy choralar bilan yengib bo'lmaydi. Shunday sharoitda har bir yosh o'z mustaqil fikriga, sobit e'tiqodiga, mustaqil tafakkur va mustahkam irodaga ega bo'lmasa turli zararli mafkuralarning oxir-oqibatini anglab yetishi qiyin kechadi. G'oyaviy taxdidlar kuchaygan hozirgi sharoitda turli mazmundagi tahdidlarga, axborot havfsizligi masalalariga alohida e'tibor qaratish talab etiladi.

¹ Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. –Toshkent: "O'zbekiston" NMIU,2017 -484- b

Buning uchun o'zini jamiyatimiz, yoshlarimiz ma'naviyati, g'oyaviy-mafkuraviy tarbiyasi uchun mas'ul deb bilgan insonlar – bu mahalla yoki diniy tashkilotlar bo'ladimi, huquq-tartibot idoralari xodimlari yoki katta ta'sir kuchiga ega ijodkor ziyolilar bo'ladimi – ularning barchasi ayniqsa faol bo'lishlari lozim.

To'rtinchidan, yoshlarning turli yovuz kuchlar iskanjasiga tushib qolish holatlari yuz berganida mazkur holat uchun joylardagi mahalla raisi, maslahatchilar, ma'naviy-ma'rifiy uyushmalar, uchastka inspektori va imom-xatibning mas'uliyati va javobgarligini oshirish talab etiladi. Qolaversa har bir uyushmaning yillik faoliyati baholanganida, reytingi aniqlanganida ushbu holatlar inobatga olinishi zarur.

Ushbu vazifalarning yechimi jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish g'oyasining amaldagi ifodasi hisoblanadi. Uni amalga oshirish esa oila-mahalla-ta'lim-nodavlat tashkilotlari olidagi qator sohalarda hamkorklikda faoliyat olib borishni taqozo etadi.

XULOSA

2017-2021 yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida, "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 28 iyuldagi PQ-3160 qarorida globallashuv sharoitida malakitimizning milliy xavfsizligiga, xalqimizning mentalitetiga qarshi qaratilgan ma'naviy tahdidlarning oldini olish, unga qarshi kurash borasidagi bir qator vazifalar belgilab berildi. Yuqorida globallashuv tushunchasi, uning mohiyati, namoyon bo'lish sohalari, uni ta'min etuvchi vositalar tizimi, uning obektiv xarakterda ekani, salbiy va ijobiy jihatlari chuqur tahlil etildi. Jamiyat hayotining siyosiy, iqtisodiy, madaniy, mafkuraviy, diniy, ta'lim, fan, jinoyatchilik borasida globallashuvning ro'y berishi, uning ijobiy jihatlari va shuning bilan birga salbiy tomonlari yoritib berildi. Bizning oldimizdagi galdagi vazifa uning ijobiy tUSDagi namoyon bo'lishi holatlarini kengaytirish, salbiy tomonlarini esa imkon doirasila kamaytirishga qaratilgan tadqiqotlar olib borish hisoblanadi. bu tadqiqot globallashuv fenomeniga kompleks xolda dastlabki yondashuvlardan hisoblanadi. Yuqorida aytib o'tganimizdek globallashuvning madaniy yoki ma'naviyat, jinoyat yoki iqtisodiyot sohasidagi namoyon bo'lish holatlari alohida tadqiqot obekti sifatida tahlil etilgan. Lekin masalaga, tizimli, kompleks holda yondashuv bilan bog'liq tadqiqotlar kam.

Shunday ekan bu tadqiqotni dastlabki urinishlardan biri sifatida baholab keyingi tahlillarda quyidagi vazifalarga keng e'tibor berish zarur.

Avvalo, globallashuv hodisasiga kompleks, tizimli yondashuvlarni, tahlillarni yanada kuchaytirish zarur. Uning mohiyati, namoyon bo'lish sohalari, millat hayotidagi aksi bilan bog'liq tahlillar olib borish, uni yoshlarga tushuntirib borish davr taqozosidir.

Ikkinchidan, bugungi kunda globallashuv kirib bormagan sohaning o'zi yo'q. Lekin bizda globallashuv haqida gap ketganida, tahlillar, tadqiqotlar olib borilganida ko'proq, madaniyat, ma'naviyat sohaslariga urg'u berish bilan cheklanib qolinmoqda. Siyosiy jarayonlar, iqtisodiyot, ilm, fan, ta'lim, huquq sohasi, demografiya, jinoyat sohaslarida tadqiqotlar kam. Shunday ekan bu sohalardagi tadqiqotlarni kuchiytirgan holda ta'lim sohasidagi vazifalarni belgilab olishimiz lozim.

Uchinchidan, globallashtirishning yoshlar mentalitetida namoyon bo'lishini ta'min etuvchi vositalar tizimini, mexanizmlarini yoritgan holda yoshlarda ogohlik, dahldorlik tuyg'ularini tarbiyalashga qaratilgan adabiyotlarni yaratish ustida ish olib borish. Ularda xalqimizning shonli tarixi, milliy-ma'naviy merosi, falriyatlar, vatanparvarlik, millatparvarlik an'analariga hurmat ruhi barq urib turishi lozim.

To'rtinchidan, yoshlarimiz qalbini turli axborot xurujlaridan himoyalash borasida ularni mobil va internet vositalaridan foydalanishlarini legallashtirish bilan bog'liq mexanizmlar tizimini ishlab chiqish zarur. Axborot huruji muayyan kuchlar tomonidan kishilar ongi va qalbiga yot g'oyalarni singdirish maqsadida ularni hissiyotlari, e'tiqodi va tuyg'ulariga ta'sir etishning mafkuraviy omillaridan, turmush tarzi va mentalitetidagi o'zgarishlarni amalga oshirish uchun moddiy, iqtisodiy, ma'naviy ta'sir o'tkazishning noan'anaviy va noxolis munosabatlaridan foydalanish asosida siyosiy maqsad va muddaolarni amalga oshirish majmuasi ekanini yoritish, unga qarshi yoshlarmizda mustaqil fikrni, ozod shaxs, erkin fuqaroning asosiy jihatlarini tarbiyalash bilan bog'liq vazifalarga ustuvor yo'nalish berish talab etiladi.

Beshinchidan, yosh avlodni vatanparvarlik, ruhida, yuksak ma'naviyatli etib tarbiyalashda bizdan oila-mahalla-ta'lim-nodavlat tashkilotlari faoliyatini yanada muvofiqlashtirish talab etiladi. Agar shu makonda ma'naviy muhit ko'ngildagidek bo'lsa, hamma ish ko'ngildagidek bo'ladi, agar ular tanazzulga qarab ketsa, butun jamiyat halokatga yuz tutadi.

GLOSSARIY

<p>Arab Davlatlari Ligasi</p>	<p>Arab davlatlari, shuningdek ularga do'stona munosabatda bo'lgan, arab tili rasmiy ahamiyatga ega bo'lgan arab bo'lmagan davlatlar o'rtasida tashkil etilgan xalqaro tashkilot. Tashkilot 1945 yil 22 martda tashkil etilgan. Tashkilotning oliy organi Liga kengashi bo'lib, shtab-kvartirasi Qohirada joylashgan. A'zolar soni 22 ta. Liganing maqsadi a'zo davlatlar o'rtasida aloqalarni chuqurlashtirish, arab davlatlari manfaatlarini, mustaqilligini himoya qilishga qaratilgan siyosatni amalga oshirish hisoblanadi. Shuningdek a'zo davlatlar iqtisodiy, moliyaviy, madaniy, ilmiy, jinoyatchilikka qarshi kurash borasida ham hamkorlikni yo'lga qo'yishgan.</p>
<p>ASEAN</p>	<p>ASEAN (ing. Association of South East Asian Nations — Janubiy-Sharqiy Osiyo davlatlari Assotsiatsiyasi) Janubiy – Sharqiy Osiyodagi mintaqaviy, hukumatlararo siyosiy, iqtisodiy, madaniy tashkilot. 1967 yil 8 avgustda tashkil etilgan. Tashkilotning bosh ofisi <u>Jakarta shahrida joylashgan</u>. <u>Unga a'zo mamlakatlarning umumiy maydoni 4 480 000 km² ni tashkil etadi. Ishlab chiqarilayotgan YaiM 4 044 trillion dollarga teng. Aholisi 592 000 000 kishini tashkil etadi. Rasmiy tili ingliz tili hisoblanadi. Oliy boshqaruv organi davlat va hukumat rahbarlarining sammiti bo'lib, rahbarlik davlatlarning ingliz alfavitidagi ketma-ketligida amalga oshiriladi.</u></p> <p style="text-align: center;">A'zo davlatlar: <u>Indoneziya, Malayziya, Singapur, Tailand, Filippin.</u></p> <p>Keyinchalik <u>Brunej</u> (1984 yil 7 yanvar), <u>Vetnam</u> (1995 yil 28 iyul), <u>Laos va Myanma</u> (1997 yil 23 iyul), <u>Kambodja</u> (1999 yil 30 aprel).</p> <p>ASEAN ning asosiy maqsad va vazifalari quyidagilardan iborat:</p> <ul style="list-style-type: none"> • BMT Ustavi tamoyillariga sodiqlik asosida mintaqada tinchlik va barqarorlikni ta'minlash; • O'zaro yordam va hamkorlik asosida a'zo davlatlar o'rtasida iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy yuksalishni jadallashtirish; • Xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar bilan o'zaro manfaatli hamkorlikni yo'lga qo'yish. <p>ASEAN o'z faoliyatini quyidagi hujjatlar asosida amalga oshiradi:</p>

	<p>ASEAN deklaratsiyasi (1967 yil), Janubiy-Sharqiy Osiyoda tinchlik, erkinlik va neytralitet to'g'risida (1971 yil), Do'stlik va hamkorlik to'g'risida (1976 yil), Manila Deklaratsiyasi (1992 yil), Yadro qurolidan xoli hudud (1995 yil), Terrorizmga qarshi hamkorlikda kurashish to'g'risidagi deklaratsiya).</p>
Axborot xuruji	<p>Muayyan kuchlar tomonidan kishilar ongi va qalbiga yot g'oyalarni singdirish maqsadida ularning hissiyotlari, e'tiqodi va tuyg'ulariga ta'sir etishning mafkuraviy omillaridan, jamiyat turmush tarzi va mentalitetdagi o'zgarishlarni amalga oshirish uchun unga moddiy, ma'naviy, ruhiy ta'sir o'tkazishning noan'anaviy va noxolis usullaridan foydalanish asosida siyosiy maqsad va muddaolarni amalga oshirish majmuasini anglatadi.</p>
Birlashgan Millatlar Tashkiloti	<p>Yer yuzida tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash, davlatlarning millatlarning o'zaro hamkorligini rivojlantirish maqsadida tuzilgan. BMT faoliyatining muhim yo'nalishi davlatlar va millatlar o'rtasidagi nizo hamda ziddiyatlarni faqat tinch yo'l bilan –muzokaralar orqali xal qilishdan iborat. BMT nizomi 1945 yil San-Frantsiskoda ishlab chiqilgan va shu yilning 24 oktabridan kuchga kirgan. BMT o'z tarkibiga oltita asosiy organ, shuningdek bu organlarga ko'maklashuvchi qo'mita va komissiyalardan iborat. Bular: 1) Bosh Assambleya- har yili sentabr oyida chaqiriladi. Unda tashkilotga a'zo barcha mamlakatlar qatnashadi. 2) Xavfsizlik kengashi- davlatlar o'rtasidagi tortishuvlar, tajovuz va agressiyaning oldini olish kabi masalalar bilan shug'ullanadi. 15 ta davlat vakillaridan tashkil topadi. Ulardan 5 tasi doimiy a'zo. 3) Iqtisodiy va ijtimoiy kengash- xalqaro va ijtimoiy hamkorlik sohalariga oid masalalar bilan shug'ullanadi. 4) Vasiylik kengashi-tobe hududlar masalalarini nazorat etib boradi. 5) Xalqaro sud 6) BMT Kotibiyati.</p> <p>O'zbekiston Respublikasi BMT safiga 1992 yil 2 martda qabul qilingan. 1993 yil fevralda Toshkentda BMT ning vakolatxonasi ochildi. Bugungi kunda BMT ning a'ozalari soni 193 ga yetdi.</p>
BRIKS	<p>BRIKS (ing. <i>BRICS</i> — Brazil, Russia, India, China, South Africa atamaları qisqartmasi) — <u>Braziliya</u>, <u>Rossiya</u>, Hindiston, Xitoy, Janubiy Afrika respublikasi o'rtasida tuzilgan. Braziliya qishloq ho'jaligi mahsulotlariga, Rossiya mineral resurslarga,</p>

Hindiston arzon intellektual salohiyatga, Xitoy kuchli ishlab chiqarish bazasiga. JAR tabiiy zahiralarga boy. Ular ushbu salohiyatlaridan unumli foydalanish orqali jahonning kuchli markazlariga qarshi turishga kelishib olishdi. BRICS davlatlarining ba'zi ko'rsatkichlar bo'yicha jahon reytingidagi o'rnini:

Kategoriya	Braziliya	Rossiya	Hindiston	Xitoy	JAR
Maydoni	5	1	7	3	25
Aholisi	5	9	2	1	25
Ishchi kuchi	5	7	2	1	34
Oltin zahirasi	7	3	6	1	33
Qurolli kuchlar soni	14	5	3	1	59

Buyuk davlatchilik shovinizmi

Bir davlatning boshqa davlat yoki davlatlar ustidan siyosiy, mafkuraviy, iqtisodiy va harbiy hukmronligini o'rnatishga qaratilgan nazariya va amaliyot.

Xususan, XIX asr oxiridan boshlab Rossiya imperiyasining hukmron doiralari boshqa xalqlarga, jumladan, o'rta Osiyo xalqlariga nisbatan ana shunday siyosat olib borganlar. Buyuk davlatchilik shovinizmi siyosati Avstro-Vengriya imperiyasi, Turkiya sultonligida ham kuchli bo'lgan. Ikkinchi jahon urushida Germaniya fashizmi bu siyosatdan kelib chiqib, nemislarni "oliy" irq, ular jahondagi barcha xalqlar ustidan hukmron bo'lishlari kerak, deb targ'ib qilishgan. Urushdan keyingi davrlarda ham bir qancha mamlakatlar buyuk davlatchilik siyosatini xilma xil ko'rinishda olib bormoqdalar.

Demografik globallashtirish

«Global etnos» ning shakllanishini ta'min etish yo'lida turli xalqlarning assimilyatsiyasini, ularning aralashib ketishini ifoda etuvchi mudhish hodisa.

Dezinformatsiya

Muayyan gurux maqsadlariga erishish yo'lida soxta ma'lumotlardan foydalanish asosida ijtimoiy fikrni chalg'itish maqsadida qo'llaniladigan usul va vositalar tizimi.

Dunyoning mafkuraviy

Jahonda ro'y berayotgan g'oyaviy jarayonlar, mavjud mafkura shakllari, ularning mohiyati, maqsadlari va o'zaro

manzarasi	munosabatlari bilan bog'liq holat, xususiyat va faoliyatini yaxlit tarzda aks ettiruvchi tushuncha
Ekstremizm	Ekstremizm so'zi frantsuzcha – lotinchadan kelib chiqqan bo'lib, ijtimoiy-siyosiy xarakterdagi muammolarni hal qilishda o'ta keskin chora-tadbirlar, fikr-qarashlarni yoqlovchi nazariya va amaliyotni ifoda etadi. Ekstremizm mazmuniga ko'ra - diniy va dunyoviy; namoyon bo'lish shakliga ko'ra - hududiy, mintaqaviy, xalqaro shakllarga bo'linadi. Ekstremistik qarashlar juda chuqur ildizlarga ega bo'lib, hech qachon chegara bilmagan, din, millat, huduni tan olmagan.
Evropa Ittifoqi	1991 yil dekabrda Maastrixt bitimlari asosida tuzilgan bo'lib bugungi kunda 28 ta mamlakatni birlashtiruvchi tashkilot. Unda bir tomondan xalqaro tashkilot, ikkinchi tomondan davlat belgilari uchrasada rasmiy ravishda har ikkalasi ham e'tirof etilmaydi. Yei xalqaro huquqning sub'yekti hisoblanmasada xalqaro munosabatlarni belgilashda muhim rol o'ynaydi. Lekin Yei ning shakllanishi 2-jahon urushidan keyin Yevropa davlatlari oldida turgan turli sohalardagi muammolarni birgalikda xalq etishdan boshlandi. 1951 yilda 6 ta davlat-Frantsiya, Italiya, GFR, Belgiya, Niderlandiya, Lyuksemburg ko'mir va po'lat bo'yicha Yevropa uyushmasini (EKPB) tashkil etishdi. Bu Yevropa integratsiyasi yo'lidagi birinchi kadam edi. YekPB 1957 yildan Yevropa Iqtimldiy Hamjamiyati deb nom oldi. Maastrixt bitimlari imzolangan yagona valyuta, Yevropa siyosiy ittifoqini shakllantirish, Yevropa komissiyasini tuzishga kelishib olindi. 1993 yil 1 noyabrdan Yei nomini oldi. 1999 yildan yagona valyuta yevroga (naqdsiz hisob) o'tildi. Rasmiy tili 24 ta. Ma'muriy markazlar: Bryussel, Strasburg, Lyuksemburg, Gaaga, Frankfurt-na-Mayn, rahbar-davlat 2009 yil 1 yanvardan ChexiY. Umumiy maydoni 4 892 685 km ² ga teng bo'lib unda 506.820 mln aholi yashaydi. YaiM 16.1 trillion dollarga teng.
Fanatizm	Fanatizm (frants. ibodat)- muayyan g'oyalarning to'g'ri ekanligiga qattiq ishonish, ularga mukkasidan berilganlikni, o'zgacha qarash va g'oyalarga murosasiz munosabatni ifodalovchi qarashlar va hatti-harakatlar tizimidir. U avvalo insonning hissiyotidan, biror-bir narsaga o'ta beriluvchanligidan kelib chiqadi.
Fundamentalizm	So'zi lotinchadan kelib chiqqan bo'lib, asos, poydevor

	<p>ma'nosini bildiradi. Fundamentalizm barcha dinlarga hos bo'lib, unda dinning asli qanday bo'lsa, shundayligicha saqlab qolishga harakat qilinadi. Fundamentalizm – ya'ni aqidaparastlik – ma'lum din vujudga kelgan ilk davriga qaytish va shu yo'l bilan zamonaning barcha muammolarini hal qilish mumkin degan fikrni ilgari suruvchilarning qarashlaridir. Diniy fundamentalizm – din aqidalarini so'zma-so'z talqiniga asoslangan e'tiqodni aqlga tayangan mantiqiy dalillardan ustun qo'yadigan, muayyan din, shu jumladan Islom dini e'tiqodi shakllanishining boshlang'ich ya'ni Muhammad alayhi vassalam davrlarida belgilangan barcha yo'l-yo'riqlarning qat'iy va og'ishmay bajarilishini talab qiladigan tushunchadir.</p>
Globalistlar	<p>Siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy jarayonlarni, huquqiy munosabatlarni, fuqarolarning erkin ko'chishi, iqtisodiy integratsiyaning chuqurlashuvini, kapital, investitsiyalar erkin harakatini qo'llab-quvvatlovchilar.</p>
Globallashuv	<p>Turli mamlakatlarning, xalqlarning jamiyat hayotining siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy sohalaridagi o'zaro ta'siri va bog'liqligining keskin kuchayishi.</p>
Hizbut - Tahrir	<p>«Hizb» so'zining lug'aviy ma'nosi-guruh, firqa, partiya, tobe kishilar demakdir. «Hizbut tahrir» ning to'la nomi «Hizbut tahrir al-islomiy» - «Islom ozodlik partiyasi» bo'lib u norasmiy siyosiydagi diniy oqim sanaladi. «Hizbut taxrir» 1928 yilda Misr Arab Respublikasining Islomiy shahrida tashkil topgan «al-Ihvon al-Muslimun» - «Musulmon birodarlari» diniy-siyosiy tashkilotidan 1952 yilda ajralib chiqqan firqadir. Bu firqaning asoschisi shayh Taqiyuddin Nabahoniy (1909-1979)dir. Hozirda bu diniy-siyosiy partiyani falastinlik Abulqadim Zallum boshqarib kelmoqda. Bugungi kunda uning shtab-kvartirasi Londonda joylashgan.</p> <p>Hizbut tahrir diniy-siyosiy partiya bo'lib, u fikrga (kishilar ongiga ta'sir qilish, o'zgartirish) bosh qurol sifatida suyangan holda islomiy halifalikni qayta tiklashni maqsad qilib olgan. Prezidentimiz ta'kidlaganidek: «Avvalambor, ular, yoshlarni o'z ta'siriga oladi, ongini zaharlaydi. Aql-hushuni yo'qotgan mana shunday odamlarni tayyorlab, keyin qo'lga qurol beradi. Ularni o'z Vataniga, o'zini odam qilib voyaga yetkazgan el-yurtiga qarshi qo'yadi».</p> <p>Xullas, «Xizbut tahrir» g'oyasi islom ta'limotidan uzoq,</p>

	siyosiy hokimiyatga intilish yo'lini tutgan diniy-siyosiy oqimdir. Uning tashkil topganiga yarim asrdan oshgan bo'lishiga qaramay, hanuzgacha dunyoning biror davlatida tan olinib, rasmiy ro'yhatdan o'tgan emas.
Hokimiyatning globallashuvi	Barcha xalqlarni o'zida birlashtirishni maqsad qilib qo'ygan. aslida hokimiyat bir hovuch gegemonlar qo'lida bo'ladigan «jahon saltanati» ni barpo etishga intilish. Bu hokimiyat aslida yirik moliya oligarxlari, transmilliy korporatsiyalar manfaatini ifoda etadi.
Inson ongi va qalbi uchun kurash	Hozirgi zamondagi xilma-xil usullar va vositalarda olib boriladigan mafkuraviy targ'ibot va tashviqotning asosiy ob'ekti va maqsadi. Har qanday g'oya faqat inson qalbini egallagan, ma'naviy-ruhiy holatini uzviy qismiga aylangandagina harakatga da'vat etuvchi, rag'batlantiruvchi kuchga, faoliyat dasturiga aylanadi. Shuning uchun ham bugungi kunda mafkuraviy kurashning bosh maqsadi inson qalbini zabt etish orqali uning ongini egallash bo'lib qolmoqda. Bu haqda Prezidentimiz I.A.Karimov shunday deb ta'kidlaydi: «Bugungi kunda insoniyat qo'lida mavjud bo'lgan qurol-yarog'lar Yer kurrasini bir necha bor yakson qilishga yetadi. Buni hammamiz yaxshi anglaymiz. Lekin hozirgi zamondagi eng katta xavf-insonlarni qalbi va ongini egallash uchun uzluksiz davom etayotgan mafkuraviy kurashdir. Endilikda yadro maydonlarida emas, mafkura maydonlarida bo'layotgan kurashlar ko'p narsani lial qiladi. Bu achchiq haqiqatni hech qachon unutmaslik lozim».
Integratsiya	Mintaqaning fizik, geografik imkoniyatidan kelib chiqadigan ob'ektiv jarayon bo'lib, ma'lum maqsad-manfaatlarni realizatsiya qilishga qaratilgan tomonlarning ixtiyoriy hatti - harakatining natijasidir.
Iqtisodiy globallashuv	Transmilliy korporatsiyalar, yirik moliya guruhlari tomonidan jahonni yagona bozorga aylantirish va shu tarzda unda o'z tanho hukmronligini o'rnatishga intilish.
Iroq va Shom Islom davlati- ISHID	ISHID - (IGL-Islamskoe gosudarstva Iraka i Levanta). Bu davlatning tashkil etilishi G'arbning musulmon dunyosiga nisbatan tutgan siyosatining o'ziga xos aksi deyish mumkin. ISHiD 2006 yilda Iroq va Suriya hududlarining bir qismida tashkil etildi. Davlat lideri Abu Bakr al-Bag'dodiy hisoblanadi. Shtab-kvartirasi Suriyaning Rakka shahrida joylashgan. Uning

	<p>tashkil etilishida "Al-Qoida" bo'limlari, shuningdek yana o'n bitta radikal ruhdaagi islomiy guruhlar faol ishtirok etishdi. Bugungi kunda ISHiD shariat asosida boshqariladigan Yevropaga jiddiy havf solayotgan yarimreal kvazidavlat hisoblanadi. AQSh ning birinchi raqamli dushmani "Al-Qoida" emas ISHiD bo'lib qoldi. ISHiD o'z faoliyati davomida "Al-Qoida" faoliyatini chuquq tahlil etigan holda uning xatolarini takrorlamaslikka harakat qilmoqda: tolerantlikni ifoda etuvchi mavhum ta'limotlarni emas an'anaviy islomni qo'llab-quvatlamogda; Forsdagi islomiy tashkilotlar bilan (shialardan tashqari) harbiy ittifoqda bo'lishga harakat qilmoqda; Suriya muxolifati bilan kelishuv yo'lini tutdi va sh.k. e'tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishidan qat'iy nazar yuqori malakali kadrlarni ishga taklif etish avj olgan.</p>
<p>Irqchilik</p>	<p>Odamlar o'rtasidagi ijtimoiy tengsizlik, bosqinchilik, zo'raonlik va urushlarni kishilarning turli irqqlariga mansubligi bilan oqlashga xizmat qiluvchi g'ayrimilliy ta'limot. Irqchilar insonlarning ijtimoiy mohiyatini ularning biologik – irqiy (ko'zi, sochi va terisining rangi, bosh va yuz tuzilishi kabi tashqi, ikkinchi darajali jismoniy) belgilar bilan bog'lab, ularni oliy va quyi, bekamu-ko'st va noraso irqqlarga ijratahdilar. Unga ko'ra oliy irqqlar xo'jayinlik qilishi, qolganlari ularga xizmat qilishi, bo'ysunishi shart. Irqchilik ta'limoti boshqa xalqlarga nisbatan bosqinchilik, talonchilik, mustamlakachilik siyosatini asoslashga harakat qiladi.</p>
<p>Islom Konferentsiyasi Tashkiloti</p>	<p>Afg'oniston, Chad, Misr, Gvineya, Indoneziya, Eron, Iordaniya, Quveyt, Livan, Liviya, Malayziya, Mali, Mavritaniya, Marokash, Niger, Ummon, Pokiston, Katar, Saudiya Arabistoni, Senegal, Serra-Leone, Somali, Sudan, Tunis, Turkiya, Yaman davlat vakillari tomonidan tashkil etilgan. IKT ustavidan ko'zlangan maqsad musulmon davlatlar o'rtasida birdamlikni kuchaytirish, ular o'rtasida iqtisodiy, madaniy, ilmiy sohalarda hamkorlikni kuchaytirish, mustamlakachilik va irqchilikning har qanday ko'rinishlariga barham berish, tinchlik va xavfsizlikni ta'minlashga doir choralar ko'rish va boshqalar. IKT o'z faoliyatida tashkilotga a'zo davlatlarning tengligiga, bir-birining ichki ishlariga aralashmaslik, har bir davlatning hududiy yaxlitligi, suverenitetini hurmat qilish, turli kelishmovchiliklarni tinch</p>

	yo'l bilan hal etish tamoyillariga amal qiladi. IKT ga Turkmaniston, Tojikiston, Qirg'iziston (1992), Qozog'iston (1995), O'zbekiston (1996) ham a'zo bo'lib kirishgan. Bugungi kunda 57 ta davlat ning a'zisi hisoblanadi.
Jahon savdo tashkiloti	JST(ingl. World Trade Organization- WTO) —1995 yil 1 yanvarda tashkil etilgan xalqaro tashkilot. Takilotga a'zo davlatlar o'rtasida siyosiy, iqtisodiy-savdoni taribga solish, xalqaro savdoni liberallshatrish, tashqi savdoga bo'ladigan har qanday to'siqlarni bekor qilish maqsadida tashkil etilgan. Tashkilotning shtab-kvartirasi Jenevada joylashgan bo'lib, 159 ta davlat unga a'zo bo'lib kirgan. Tashkilot faoliyatining asosiy tamoyillari: tenglik, hamkorlik, oshkoralik.
Kosmopolitizm	Kosmopolitizm (grekcha kosmopolites-dunyo fuqarosi) - "jahon davlati" tuzishni va "jahon fuqaroligi"ni targ'ib qiluvchi ta'limot. Kosmopolitizm jahon miqiyosida axborot ayirboshlash imkoniyatlari oshib borayotgan hozirgi davrda Vatan tushunchasi nisbiy xarakterga ega ekanini ro'kach qiladi. Bu oqim jamiyat taraqqiyotining dastlabki, inson ijtimoiy-oilaviy muhitdan tashqarida yashashi mumkin bo'lmagan davrlarida vatan tushunchasi muayyan ahamiyatga ega bo'lmagan, deb uqtiradi. Uningcha, bugungi kunda ayrim insonlarning Vatanga bog'lanib qolishi shaxs erkinliklarining cheklanishiga olib kelmoqda emish.
Ma'naviy tahdid	Muayyan millat, jamiyat, davlatning tinchligi va barqarorligiga qarshi qaratilgan, * siyosiy va konstitusion tuzumni zaiflashtirishga va buzishga yo'naltirilgan, shaxs va jamiyat xavfsizligi, ma'naviy, ruhiy dunyosiga tahdid soluvchi g'oyalari-nazariy qarashlar va shungaasoslangan amaliyot majmuini ifodalaydigan tushuncha.
Ma'naviy-mafkuraviy jarayonlarning globallashuvi	Milliy bag'rikenglikni, millat hayotining ahloqiy asoslarini, uning milliy o'ziga xosligini rad etuvchi mondializm g'oyalarini tantana qilishini ta'minlashga asoslanadi.
Madaniy globallashuv	Madaniy sohada, ommaviy madaniyatning rivojlanishi, ayniqsa, musiqa, kino, teatr, shou-ko'rsatuvlar, kiyinish, ommaviy-axborot vositalari faoliyatlarining bir xillashuvi, turli xalqlar madaniyatining o'zaro ta'siri, bir-birini boyitishi tufayli madaniyatlararo aloqalarning mustahkamlanishi va yangi zamonaviy an'analarning shakllanishi va h.k.lar

Mafkuraviy immunitet	Mafkuraviy immunitet ma'naviy, ma'rifiy, siyosiy, iqtisodiy bilimlarni oddiygina qabul qilib olishini emas, balki ularni ongli ravishda tushunib yetishni, bu bilimlardan zamonaviy ijtimoiy voqealarga mafkuraviy kurashlar voqeligidan kelib chiqib, munosabat bildirish ko'nikmalarini shakllantirish, ayrim nosog'lom g'oyalarga javob berish, uni qabul qilmaslik holatidir.
Mafkuraviy profilaktika	Ijtimoiy institutlar tomonidan amalga oshiriladigan turli shakllardagi g'oyaviy –tarbiyaviy, ma'naviy-mafkuraviy ishlar majmui bo'lib, u butun g'oyaviy tarbiya tizimini qamrab oladi. Mafkuraviy profilaktika g'oyaviy bo'shliqni bartaraf etish, mafkuraviy parokandalikni oldini olish yoki biror-bir hudud, qatlam, guruhni yot va zararli g'oyalar ta'siridan xalos qilish maqsadida amalga oshiriladi.
Mafkuraviy tizim	Mafkuraviy ishlarni boshqarish, jamiyatning turli ijtimoiy institutlari: oila, maktabgacha tarbiya muassasalari, umumiy ta'lim maktablari, o'рта maxsus va oliy o'quv yurtlari, mehnat jamoalari, mahalla kengashlari, jamoat tashkilotlari, madaniy-ma'rifiy uyushmalar tarbiyaviy imkoniyatlarini muvofiqlashtirish, tartibga solish, ularni yagona maqsad tomon yo'naltirish omillari (ish vaqti va ishdan keyingi bo'sh vaqt) va vositalari (fan, adabiyot, san'at, matbuot, radio, TV, kino, muzey va h.k), uslublari (tushuntirish, ishontirish, majbur qilish) va usullarining (alohida, jamoaviy, ommaviy) yaxlit bir butun uyushmasi.
Mafkuraviy xavfsizlik –	Shaxs, millat, jamiyat, davlatning xilmxil shakllarda namoyon bo'ladigan mafkuraviy tajovuzlar turli mafkuraviy markazlarning buzg'unchilik ta'siridan himoyalanganlik darajasini iavsiflovchi tushuncha.
Shanxay Hamkorligi tashkiloti	Mintaqaviy manfaatlarni himoya qiluvchi xalqaro tashkilot. Mazkur tashkilotga 2001 yilda Xitoy, Rossiya, Qozog'iston, Kirgiziya, Tojikiston va O'zbekiston rahbarlari tomonidan asos solingan. ShHT ning shakllanish jarayoni bundan bir oz oldin boshlangan. 1996 yilda Shanxayda, 1997 yil Moskvada bo'lib o'tgan Xitoy, Rossiya, Qozog'iston, Kirgiziya va Tojikiston rahbarlarining sammitida harbiy sohada, chegara hududlarda o'zaro ishonchni mustahkamlash, qurolli kuchlarni qisqartirish to'g'risida shartnoma imzolandi. U «Shanxay beshligi», «Shanxay forumi» nomlari bilan atalib kelindi. 2001 yil

	<p>Shanxayda bo'lib o'tgan sammitda O'zbekiston ham unga a'zo bo'lib kirdi. I.Karimovning taklifi bilan tashkilotga ShhT nomi berildi. ShhT a'zo mamlakatlarning umumiy hududi Yevrosiyaning 61 % ini tashkil etib, unda dunyo aholisining j qismi yashaydi. Tashkilotning rasmiy tili xitoy va rus tillari hisoblanadi. Eron, Pokiston, Hindiston, Mongoliya kuzatuvchidavlat sifatida ShhT sammitlarida qatnashib keladi. ShhT o'z maqsad-vazifalarini amalga oshirish uchun bir qator organlar tashkil etilgan: davlat rahbarlari Kengashi; hukumat rahbarlari Kengashi; vazirlik va mahkama rahbarlari yig'ilish; Sekretariat va boshqalar. Umumiy maydoni 29 990 280 kml ga teng bo'lib unda 1,7 mld aholi yashaydi.</p>
Siyosiy globallashuv	<p>Davlat vakolatlarining katta qismini transmilliy korporatsiyalarga, iqtisodiy birlashmalarga berishni targ'ib qilgan xolda muayyan hududdagi milliy davlatchilik «gegemonligi» ga barham berishni ifoda etuvchi mafkuraviy jarayon.</p>
Ta'lim sohasida davlat siyosatining asosiy tamoyillari	<p>Ta'lim sohasidadavlat siyosatining asosiy tamoyillari:</p> <p>Ta'lim va tarbiyaning insonparvar, demokratik xarakterda ekanligi;</p> <p>Ta'limning uzluksizligi va izchilligi;</p> <p>Umumiy o'rta, shuningdek o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining majburiyiligi;</p> <p>O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining yo'nalishini: akademik litseyda yoki kasb-hunar kollejida o'qishni tanlashning ixtiyoriyiligi;</p> <p>Ta'lim tizimining dunyoviy xarakterda ekanligi;</p> <p>Davlat ta'lim standartlari doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqiligi;</p> <p>Ta'lim dasturlarini tanlashga yagona va tabaqashlashtirilgan yondashuv;</p> <p>Bilimli bo'lishni va iste'dodni rag'batlantirish;</p> <p>Ta'lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvini uyg'unlashtirish.</p>
Vahhobiylik	<p>Islom dinining hanbaliy mazhabidagi diniy-siyosiy oqim. Asoschisi Muhammad ibn Abdulvahhob 1703 yilda tug'ilgan. Ustozi Abdulloh ibn Sayfo yosh Abdulvahhobni hanbaliy mazhabi yo'nalishida vaxdonyat (yakkaxudolik) aqidasi</p>

	<p>bo'yicha tarbiyalagan. Vahhobiylik oqimining yuzaga kelib, chuqur ildiz otib mashxur bo'lib ketishida ingliz razvedkasi katta rol o'ynagan. Sababi Islom halifaligi 1517 yildan qudratli Turk sultonligi qo'liga o'tib ketgan edi. Inglizlar o'zlarining yaqin sharqdagi siyosiy raqiblari bo'lmish Turk imperiyasini zaiflashtirish, payini qirqish uchun vahhobiylik harakatini har tomonlama qo'llab turgan va undan foydalangan. Amir Muhammad ibn Saud Markaziy Arabiston yarim orolidagi mayda sulolalar boshqargan amirliklarni birlashtirishda vahhobiylik ta'limotidan foydalandi. Muhammad ibn Saud va uning o'g'li Abdulaziz vahhobiylar bayrog'i ostida yarim orolning katta qismini kuch bilan egaliab, birinchi saudiylar davlatini barpo qildilar.</p> <p>Hozirgi vahhobiylar o'zgaruvchan zamon talablarini mensimaydi, dunyoviy taraqqiyotning ashaddiy dushmani, mutaassib, fanatik, jaholatparast, o'z maslagiga ko'r-ko'rona yopishib olib, uni zo'rlik bilan insonlarga tiqishtirish uchun keskin chora-tadbirlarni qo'llashdan tap tortmaydigan johil, ekstremist jangarilardir.</p>
<p>Xalqaro mehnat tashkiloti</p>	<p>Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT, ing. International Labour Organization, ILO) — BMT qoshidagi maxsus institut, xalqaro tashkilot bo'lib xalqaro maydonda mehnat munosabatlarini tartibga solish bilan shug'ullanadi. 2013 yilga kelib uning a'zolari 185 taga yetdi. Tashkilotning shtab-kvartirasi Jenevada joylashgan.</p>
<p>Xalqaro valyuta fondi</p>	<p>Xalqaro valyuta fondi 1944 yil iyulda Bretton-Vuds (AQSh, Nyu-Gempshir shtati) da tashkil topgan, qarorgohi Vashingtonda joylashgan. XVF — hukumatlararo korporativ valyuta-moliyaviy tashkilot bo'lib, faoliyati davlatlararo vujudga keladigan, to'satdan ro'y beruvchi va oldindan bilish mumkin bo'lmagan milliy valyutalarning o'zgaruvchanligi, davlatlarni milliy valyutalarini almashtirish doirasidagi muammolarni bartaraf etishga qaratilgandir. XVF ning maqsadi quyidagilardan iborat:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Xalqaro savdoning o'sishiga yordam ko'rsatish; 2. Milliy valyutalar qadrini bir meyorda ushlab turishga ko'maklashish; 3. Jamg'armaga a'zo davlatlarning joriy hisob-kitoblarini amalga oshirish jarayonida ko'p tomonlama tizimni tashkil

	<p>etishga ko'maklashish;</p> <p>4. Xalqaro savdoning rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi omillar, valyutalar borasidagi to'siqlar vujudga kelmasligiga yordam berish;</p> <p>5. Savdo va to'lovlar doirasidagi to'siqlar vujudga kelmasligi uchun a'zo davlatlarga kredit resurslarini berish;</p> <p>6. Xalqaro valyuta doirasida vujudga keluvchi muammolarni yechish borasida maslahat-forumlar o'tkazish.</p> <p>O'zbekiston Respublikasi 1992 yil 21 sentabrda XVF ga a'zo bo'lib kirdi. XVF yuqorida qayd etilgan TMK bilan bir qatorda iqtisodiy jarayonlarning globallashuvi sharoitida muhim ahamiyat kasb etadi.</p>
YUNESKO	<p>YUNESKO (The United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization) — BMT qoshidagi ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha maxsus tashkilot. YUNESKO 1945 yil 16 noyabrda tashkil etilgan. Tashkilotning shtab-kvartirasi Parijda joylashgan. BMT ga a'zo mamlakatlarning deyarli barchasi YUNESKO a'zosi hisoblanadi. YUNESKO ning asosiy maqsad-vazifalari quyidagilardan iborat: davlatlarning ta'lim, fan va madaniyat sohasidagi hamkorligini kuchaytirish orqali jahonda tinchlik va barqarorlikni ta'minlash; insonning irqi, tili, dini, jinsidan qat'iy nazar uning asosiy erkinliklari va huquqlarini hurmat qilish; qonuniylikni va adolatni qaror toptirish; savodsizlikka qarshi kurash; milliy-ma'naviy meroslarni o'rganish; fan va ta'lim muammolari bilan shug'ullanish; milliy kadrlar tayyorlash va sh.k.</p>
YUNISEF	<p>BMT qoshidagi bolalar fondi, xalqaro tashkilot (ing. United Nations Children's Fund- UNICEF). BMT Bosh Assambleyasining qarori bilan 1946 yil 11 dekabrda ikkinchi jahon urushida azob chekkan, jarohatlangan bolalarga yordam ko'rsatish maqsadida tashkil etilgan. Bolalar fondi vaqtinchalik muddatga tashkil etilgan edi. 1953 yilga kelib YunISEF ning amal qilish muddati, vazifalari o'zgardi: bolalar o'limini kamaytirish; onala o'limini kamaytirish; bolalar salosatlighi, ularning yashash sharoitlarini yaxshilash; balalarga boshlang'ich ta'lim berish va shu kabilar. YUNISEF ning bosh organi Ijro Kengashi bo'lib BMT Iqtisodiy masalalar Kengashi tomonidan 3 yilga saylanadi. Tashkilotning shtab-kvartirasi Nyu-Yorkda joylashgan.</p>

Asosiy va qo'shimch o'quv adabiyotlar hamda axborat manbalari

Asosiy adabiyotlar:

1. Jumaniyozov X.S. Sobirova M.A. Nigmanova U.B. Globallashuv asoslari. Monografiya. T.: 2015.
2. Politologiya. O'quv qo'llanma. Mualliflar jamoasi. Mas'ul muharrir prof. I. Ergashev. –T.: «O'AJBNT» Markazi, Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2002 yil.
3. Mirhamidov M.O'zbekiston: demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurish yo'lida. –T.: Universitet nashriyoti, 2003 yil.
4. Otamurotov S. Globallashuv va millat. – T.: Yangi asr avlodi nashriyoti, 2008 yil.
5. Otamurotov S. Globallashuv va milliy-ma'naviy xavfsizlik. T.2013.
6. Qahhorova Sh. Global ma'naviyat – globallashuvning g'oyaviy asosi. – T.: Tafakkur nashriyoti, 2009 yil.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. –Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017.
2. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. –Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2018
3. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka, tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. - T.: «O'zbekiston», 1997.
4. Karimov I.A. Jamiyat mafkurasi xalqni - xalq, millatni - millat qilishga xizmat etsin. T.7.- T.: «O'zbekiston», 1999.
5. Karimov I.A. Milliy istiqbol mafkurasi - xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. -T.: «O'zbekiston», 2000.
6. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. - T.: «O'zbekiston», 2000.
7. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot - pirovard maqsadimiz. T.8. -T.: «O'zbekiston», 2000.
8. Karimov I.A. Egali yurt erkini bermas. T.9. - T.: «O'zbekiston», 2001.
9. Karimov I.A. Biz tanlagan yo'l - demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan, hamkorlik yo'li. - T.: «O'zbekiston», 2003.
10. Karimov I.A. Vatanimizning tinchligi va xavfsizligi o'z kuch - qudratimizga, xalqimizning hamjihatligi va bukilmaz irodasiga bog'liq. -T.: «O'zbekiston», 2004.

11. Karimov I.A. El-yurtga halol, vijdonan xizmat qilish har bir rahbarning muqaddas burchi. Andijon viloyat xalq deputatlari Kengashining navbatdan tashqari sessiyasida soʻzlagan nutq. «Ishonch», 2004 yil 26 may.
12. Karimov I.A. Biz tanlagan yoʻl - demokratik taraqqiyot va maʼrifiy dunyo bilan hamkorlik yoʻli. T.11. -T.: «Oʻzbekiston», 2003.
13. Karimov I.A. Tinchlik va xavfsizligimiz oʻz kuch-qudratimizga, hamjihatligimiz va qatʼiy irodamizga bogʻliq. T. 12. -T.: «Oʻzbekiston», 2004.
14. Karimov I.A. Oʻzbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram boʻlmaydi. - T.: «Oʻzbekiston», 2005.
15. Karimov I.A. Maʼnaviy yuksalish yoʻlida – Toshkent, Oʻzbekiston, 1998.
16. Karimov I.A. Yuksak maʼnaviyat – yengilmas kuch – Toshkent, Maʼnaviyat, 2008.
17. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Oʻzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish boʻyicha Harakatlar strategiyasi toʻgʻrisida. (*Oʻzbekiston Respublikasi qonun hujjatlari toʻplami, 2017 y., 6-son, 70-modda*)
18. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. –T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq meʼrosi nashriyoti, 1993.
19. Abbosxoʻjayev O. Mustaqillik nega muqaddas. –T.: «Oʻzbekiston», 2004.
20. Abdullayev I. Muqaddas dinimizga isnod keltirmaylik (Maqolalar). Namangan. «Namangan», 1999.
21. Abduliyev Y. Vahhobiylik ildizlari. Fargʻona, «Fargʻona», 1998.
22. Abdullajonov O. Diniy aqidaparastlikning kelib chiqishi, mohiyati va Oʻzbekistonga kirib kelishi. –T.: «Akademiya», 2000.
23. Abdullatif qori Xoshimjon qori oʻgʻli. Zalolatga ketmang! Xizbut-tahrir fitnasidan ogoh boʻling. –T.: «Movarounnahr», 2003.
24. Abdurahmonov A. Saodatga eltuvchi bilim. 1-2 kitob. –T.: «Movarounnahr», 2003.
25. Abdurahmonov A., Boydadayev M., Bozorov E. Din va siyosat. Namangan, «Namangan», 2001.
26. Boboyev H., Normatov K. Milliy davlatchilik haqida. –T.: «Yozuvchi», 1999.
27. 15. Gafarli M.S., Kasayev A.CH. Rivojlanishning oʻzbek modeli: tinchlik va barqarorlik – taraqqiyot asosi. –T.: «Oʻzbekiston», 2001.

28. Ochildiyev A. Globallashuv va mafkuraviy jarayonlar. - T.: «Muharrir», 2009.
29. Otamurotov S. Globallashuv va millat. T. 2008.
30. Otamurotov S. Globallashuv va milliy-ma'naviy xavfsizlik. T.2013.
31. Saidov U. Globallashuv va madaniyatlararo muloqot. –T.: “Akademiya”, 2008.
32. Terrorizm – taraqqiyot kushandasi. Toshkent, 2002.
33. Tulepov A. ISHID fitnasi. –T.: «Movarounnahr», 2015
34. Umarov B. Globallashuv ziddiyatlari: iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy jihatlar. T.: “Ma'naviyat”, 2006.

Elektron ta'lim resurslari:

1. ww.tdpu.uz
2. www.ziynet.uz
3. www.edu.uz
4. www.ma'naviyat.uz
5. www.billm.uz.

Mundarija

1. Kirish.....	3
I-BOB. Globallashuv fenomenining nazariy asoslari.....	6
2. “Globallashuv asoslari” fanining predmeti, ob’ekti, maqsad va vazifalari.....	6
3. Globallashuv tushunchasi, mohiyati, jamiyat xayotida namoyon bo’lish xususiyatlari.....	17
4. Globallashuv jarayonining ma’naviyat rivojiga ta’siri va uning oqibatlari.....	32
5. Globallashuvning ijobiy va salbiy jihatlar.....	41
II-BOB. Jamiyat hayotida globallashuvning namoyon bo’lish sohalari.....	49
6. Iqtisodiy jarayonlarning globallashuvi.....	49
7. Madaniyat sohasidagi globallashuvning mohiyati.....	69
8. Globallashuv va axborot texnologiyalari.....	85
9. Dinlar o’zaro ta’sirining globallashuvi.....	107
10. Migratsiya jarayonlarining globallashuvi.....	126
11. Jinoyatning globallashuvi va unga qarshi kurash borasidagi vazifalar.....	138
12. Sportning globallashuvi.....	156
III-BOB. Globallashuv sharoitida milliy taraqqiyot ta’minining asosiy yo’nalishlari.....	170
13. Fan va ta’limning globallashuvi.....	170
14. Globallashuv jarayonlarida millat va milliy o’zlikni anglash masalalari.....	191
15. Milliy taraqqiyotning ma’naviy-axloqiy negizlari.....	223
16. Ma’naviy immunitet va g’oyaviy kurashchanlikni shakllantirish.....	239
17. Global tahdidlarga qarshi g’oyaviy kurashchanlikni yuksaltirishning ustuvor vazifalari (Shi.Mirziyoevning “Vatanimiz taqdiri va kelajagi yo’lida yanada hamjihat bo’lib, qat’iyat bilan harakat qilaylik” asari asosida).....	253
18. Xulosa.....	264
19. Glossariy.....	266
20. Foydalanilgan adabiyotlar ro’xati.....	278

Jumaniyozov X.S. Nigmanova U.B.

GLOBALLASHUV ASOSLARI

(o'quv qo'llanma)

“Nodirabegim” nashriyoti

Nashriyot litsenziyasi AI № 313. 24.11.2017 y.

Bosishga ruxsat etildi: 18.02.2020.

“Times New Roman” garniturası. Qog'oz bichimi: 60x84 ¹/₁₆

Nashriyot bosma tabog'i 17,7. Adadi 100 nusxa.

100129, Toshkent shabri, Shayxontohur tumani,

Navoiy kochasi, 30-uy.

OOO “AKTIV PRINT” bosmaxonasida chop etildi.

Toshkent, Chilonzor 25, Lutfiy 1A.



Jumaniyozov Xushnud Safo o'g'li 1967-yilning 17-noyabrida Xorazm viloyatining Yangiariq tumanida ziyoli oilasida tug'ilgan. 1988-1993-yillarda O'zbekiston Milliy universitetida tahsil olgan. 1993-yildan Toshkent Kimyo-texnologiya institutida assistent, katta o'qituvchi, dotsent lavozimlarida faoliyat ko'rsatgan. 2001-yilda "Mustaqillik va milliy rivojlanishning ma'naviy-mafkuraviy salohiyatini shakllantirish muammolari" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan. Siyosiy fanlari nomzodi. 2008-yildan Toshkent Davlat pedagogika universiteti "Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari" kafedrasida ishlaydi. Milliy g'oya, ma'naviyat, globallashuv, geosiyosat masalalari bilan keng shug'ullanib keladi. Qator o'quv qo'llanmalar, monografiyalar, ilmiy maqolalar, o'quv-uslubiy qo'llanmalar muallifi.



Nigmanova Umida Baxramovna 1984-yilning 2-mayida Toshkent shahrida ziyoli oilasida tavallud topgan. 2003-2007-yillarda Toshkent Davlat Pedagogika Universitetning "Milliy g'oya, huquq va ma'naviyat asoslari" ta'limi yo'nalishida ta'lim olgan. 2005-2013-yillarda Chirchiq shahar 21-umumta'lim maktabida o'qituvchi lavozimida faoliyat yuritgan. 2011-2013-yillarda Toshkent Davlat Pedagogika universitetining magistratura talabasi bo'lgan. 2013-yildan bugungi kunga qadar Toshkent Davlat pedagogika universiteti "Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari" kafedrasida o'qituvchi, katta o'qituvchi, dotsent lavozimlarida faoliyat ko'rsatib keladi. Milliy g'oya, ma'naviyat, globallashuv masalalari bilan keng shug'ullanib keladi. Qator o'quv qo'llanmalar, monografiyalar, ilmiy maqolalar, o'quv-uslubiy qo'llanmalar muallifi.

ISBN 978-9943-6307-9-6



9 789943 630796